Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

6
2023
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Bosh muharrir:
Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreа, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog‘iston Resp. Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farxod, O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
Eshov Mansur Po‘latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
Karimov Norboy G‘aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universititi rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o‘qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To‘lqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Jurnalning ilmiyligi:
“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari 6
Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o‘g‘li, mustaqil izlanuvchi
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo‘jaliklarining strategik boshqaruvi 11
Karimova Nilufar, tayanch doktarant
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan 16
Peng Xinge, PhD Researcher
O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo‘nalishlari 21
Xotamov Ibodulla Sadullayevich, i.f.n., professor, **Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o‘g‘li,** kafedra assistenti
Suv ta’minot korxonalarida biznes jarayonlari bo‘yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari 28
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich, PhD, katta o‘qituvchi
O‘zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to‘ldirishning o‘ziga xos xususiyatlari 31
Azlarova Munira Muhammad Amin qizi, tadqiqotchi
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective 40
Kuzikulova Dilfuza
Qualitative functional development in industrial production 49
Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna, TSUE, DSc, assistant professor
Temir yo‘l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati 54
Xamrayev Djamshid Panjiyevich, mustaqil tadqiqotchi
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes 61
Eshbayev Oybek, Department of English Language
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy 68
Rozikov Ravshan, Department of English Language
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy 76
Kurbanova Nigina, Department of English Language
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road 85
Kalonov Mukhiddin Bahritdinovich, professor
Shao Junling, PhD student, researcher
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration 90
Zhao shenghan
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati 96
Abduraximova Dilora Karimovna, PhD
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo‘nalishlari 101
Xasanxonova Nodira Isametdinovna, PhD
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda “yashil logistika” tamoyillaridan foydalanish 107
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich, kafedra assistent
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat 112
Kaxorova Anora Nusratovna, kafedra assistenti
Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari 118
Qahramon Usmanovich Umidullayev, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari 124
Xamrayev Djamshid Panjiyevich, mustaqil tadqiqotchisi
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish 129
Tulayev Mirzakul Salamovich, dotsent
O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo‘llari 133
Sh. B. Babayev, dotsent; **M. R. Qulmetov,** dotsent
Sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyatini kengaytirish yo‘nalishlari 138
G‘aniyev Shahriddin Vohidovich, professor, i. f. d. (DsC), **Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich**, i. f. f. d. (PhD)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Повышении роли цифровой трансформации банков
в современном этапе развития экономики 144
Жиянова Наргиза Эсанбоена, к.э.н., проф., **Азимжонова Малика Шавкат қизи,** специалист первой категории
To‘qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda
mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi 150
Yaxyayeva Inobat Karimovna, dotsent, PhD
Liquidity and recent changes of government securities market
in the United States, the United Kingdom and Japan 154
Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli
“История экономических учений” как основная дисциплина
в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов 160
Хакимов Назар Хакимович, доктор философских наук, профессор
The importance of strategic management and strategic leadership 166
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o‘g‘li
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition:
A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development 170
Xasanova Zarina, Department of English Language
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tahlili 178
M. O. Hamroqulov, katta o‘qituvchi
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya 185
Farhod Bagibekovich Xalimbetov
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs
(On the example of Samarkand region) 188
Saidov Nurali Rakhimovich
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region. 193
S. M. Rakhimova
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического
потенциала хлопково-текстильных кластеров 197
Джурабаев Отабек Джурабаевич, доцент
Soliq to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari 204
Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li, talaba
Hayot sug‘urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni 207
Baratova Dinora Alisherovna, katta o‘qituvchisi
Edge Computing texnologiyalari 213
Qulmatova S., PhD, katta o‘qituvchi; **Karimov Botir,** katta o‘qituvchi
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati 218
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, PhD, dotsent
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari 223
Odilova Sitora Sayfitdin qizi, katta o‘qituvchi
Tomorqa xo‘jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko‘rsatkichlari 228
Saydullayeva Fotima Jozilovna, assistent
O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati 235
Xasanov Xayrulla Nasrullayevich
O‘zbekiston yoshlarida volontyorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy
va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba 241
Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе 247
Оспан Айзада Бейсенқызы, докторант 2 курса
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili 251
Mirzoyev Feruz Mamurjonovich, mustaqil izlanuvchi
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari 259
Abdualim Abdujabbor o‘g‘li Abdurazzoqov, mustaqil tadqiqotchi
Significance and prospects of using economic-mathematical models
in analysis of our country’s economic growth 267
Rasulov Jamshid Shokir o‘g‘li
Bank daromadlilik ko‘rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta’siri 274
Madraimov Xabibulla Madaminovich, assistent o‘qituvchi

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari 282
Mamatov Mamajan Axmadjonovich, i.f.n., dotsent
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlash 288
Ergashova Nargiza Boboxonovna, talaba
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari 296
Hakimjon Hakimov, tadqiqotchi
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari 301
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich, dotsent
O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim xizmatlari bozorining ahamiyati 306
Babadjanova Malika Ruzimovna, assistent o’qituvchi
O‘zbekiston sug‘urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urtaning roli 312
Kamilov Baxramjon Umardjonovich
Shaxs ma’naviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim 317
Bekdavlat Aliyev, professor, falsafa fanlari doktori
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari 321
O. T. Nurmatov, PhD
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari 327
Abdullayev Suyun Artiqovich, O‘zbekiston jahon tillari universiteti prorektori
O‘zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari 335
Kaxxarov Ulug‘bek Xalmatovich, mustaqil izlanuvchi
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari 346
Saidaxmedova Aida Mirzayevna, katta o‘qituvchi
Yangi O‘zbekistonda yog‘-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish 352
D. A. Azlarova, PhD
The Intersection of Sustainability and Economic Development: Balancing Environment and Business Needs 360
Kholikova Rukhsora Sanjarovna, PhD, **Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli,** student
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari 364
Zuhra Abdikarimova, tayanch doktorant
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfelni shakllantirish 370
Sindarov Fazliddin Qahramonovich, kafedra assistenti
Iste’molchilarning qandolat mahsulotlariga bo‘lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo‘llari 376
To‘ychiyeva Vasila Faxriddin qizi, assistent
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari 381
B. K. Tuxliyev, professor
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash omili sifatida 386
Madraximova Gulasal Ro‘zimboy qizi, PhD
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida) 391
Aminboy Sa’dullayev, i.f.n, dotsent, **Dilshod Vaisov,** magistr, **Farhod Egamberganov,** magistr
Xizmatlar ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish 397
Pardayev Jamshid Muzaffarovich, tadqiqotchi
Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari 403
Muxitdinova Kamola Alisherovna, PhD
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction 407
Gafurov Olimjon, teacher, **Kholmuminov Humoyun,** teacher, **Abrueva Sevinch,** student,
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики 411
Ф. Т. Абдувахидов, доцент, **А. Ю. Нурмухаммедов,** доцент
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta’siri 417
Jo‘rayeva Nargiza Abduvohidovna, dotsent
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan 420
Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada sanoat korxonalari energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishi zarurligi va uning iqtisodiy ahamiyati asoslangan. Sanoat korxonalarida energiya tejovchi loyihalarni boshqarish mexanizmi taklif etilgan. Ushbu mexanizmni amalga oshirish uchun sanoat korxonalarida energiya tejamkorligiga erishish bo‘yicha loyihalar va energiyani tejash choralarini tanlash modeli yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida energiya tejamkorligiga erishish bo‘yicha yangi loyhalarni amalga oshirish uchun uslubiy vosita bo‘lib xizmat qilishi ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, energiya, texnologiya, loyihalar, energiya tejamkorligi, muqobil energiya, elektroenergiya, tabiiy gaz, issiqlik energiyasi.

Аннотация: в данная статья основана на необходимости для промышленных предприятий повышения эффективности использования энергии и ее экономической значимости. Предложен механизм управления энергосберегающими проектами на промышленных предприятиях. Для реализации этого механизма выделена модель выбора энергосберегающих проектов и энергосберегающих мероприятий на промышленных предприятиях. Предполагается, что результаты исследования служат методическим инструментом для реализации новых проектов по достижению энергоэффективности на промышленных предприятиях.

Ключевые слова: промышленность, энергетика, технологии, проекты, энергосбережение, альтернативная энергетика, электроэнергия, природный газ, тепловая энергия.

Abstract: this article is based on the need for industrial enterprises to increase the efficiency of energy use and its economic importance. A mechanism for managing energy-saving projects in industrial enterprises is proposed. In order to implement this mechanism, the model for the selection of energy saving projects and energy saving measures in industrial enterprises is highlighted. It is suggested that the results of the research serve as a methodological tool for the implementation of new projects to achieve energy efficiency in industrial enterprises.

Key words: industry, energy, technology, projects, energy saving, alternative energy, electric power, natural gas, heat energy.

KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda sanoatning eskirgan infratuzilmasini yangilash, iste’molchilarning energiya resurslariga o‘sib borayotgan talabini qondirish maqsadida sohada tizimli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish, energiya tejamkorlikka erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va bu borada aholini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunlar takomillashtirildi, mazkur yo‘nalishni rivojlantirishga qaratilgan bir qator Prezident qarorlari qabul qilindi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-sonli “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, O‘zbekistonda 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish maqsad qilib olingan. 2020-yilgi holat bo‘yicha bu ko‘rsatkich 10 foizni tashkil etgan[1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 02-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha

[1]https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/on-the-role-of-res-in-the-further-development-of-the-country-s-energy-sector/

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan “Sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish” vazifalari belgilab berilgan. Qisqa muddatlarda amalga oshirilgan samarali faoliyat natijasida 2022-yilning 1-yarim yilligi yakuni bilan 817,16 mln. kub metr tabiiy gaz, 447,0 mln. kVt soat elektr energiyasi va 8,3 ming tonna neft mahsulotlari iqtisod qilingan. Shunga ko‘ra, sanoat korxonalarida energiya tejamkorligiga erishishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatda energiya tejamkorligiga erishish va energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Sababi, energiya xarajatlarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish masalalari sanoat korxonalarini iqtisodiy rivojlanish darajasi va raqobatbardoshligiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Jahon olimlari tomonidan, jumladan, Burganov R. A. va boshqalar tadqiqotida [1] kompaniya faoliyatida energiyaning barcha turlarini (energiya, issiqlik, mexanik, yorug‘lik, inson va boshqalar) hisobga olgan holda kompaniyaning energiya tejash va energiya samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash metodologiyasini taklif etadi.

Giraudet L. G. [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda energiya sarfini kamaytirishda axborot oqimlarini boshqarish eng muhim yo‘nalish ekanligi asoslangan.

Mao W. va boshqalar [3] tadqiqotlarida esa, sanoat korxonalarida Internet-of-Things (IT) texnologiyalaridan foydalanish asosida energiya sarfini hisoblash va uni kamaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqqan.

Kelchevskaya N. R., Shirinkina E. V., Atlasov I. V.lar [4] tadqiqotlarida esa sanoat korxonalarida energiya samaradorligi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini belgilaydigan energiyani boshqarish omillari aniqlangan.

Galyautdinov I. M. tadqiqotlarida[5] energiyani tejash chora-tadbirlarini amalga oshirish asosida neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari taklif etiladi. Abdullayeva M., Shodmonov S.lar [6] mahsulot tannarxini energiya sarfini pasaytirish orqali kamaytirish masalasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Mamatyusup M. N., Mutallibjonov S.lar esa [7] O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasidan samarali foydalanish yo‘l-yo‘riqlari, energiya tejamkorlik bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan asosiy islohatlarni tahlil qilgan.

Yusupov A. [8] tadqiqotlarida energiya iste’moli balansi tahlili, energetikaning asosiy sifat ko‘rsatkichlari va ularni oshirish yo‘llari, texnik uskunalar va elektrotexnologik qurulmalarini ekspluatatsiyalashni takomillashtirish orqali energiyani tejash va quvvat koeffitsiyentini oshirish masalalari muhokama qilingan.

“Energiyani tejash” va “energiya samaradorligi” atamalari bo‘yicha klassik ta’riflar Bushuyev V. V., Belogoriyev A. M., Borgolov E. A., Timatkov V. V. [9] asarlarida ko‘rib chiqilgan. Mutaxassislarning fikricha, energiya samaradorligi – bu energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ya’ni texnologiya va ekologik talablarga rioya etishning hozirgi rivojlanish darajasida yoqilg‘i-energetika resurslaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishga erishish, energiyani tejash esa energiyani yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar majmuyidir. Samaradorlik, buning natijasida foydali ta’sirga erishish xarajatlari kamaytirish yo‘llari sifatida qayd etadilar.

Energiya samaradorligini oshirish ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtishirish, ishlab chiqarishning barcha elementlarining o‘zaro ta’sirini optimallashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning ekologik tozaligi, boshqaruv samaradorligini oshirish, kompaniyaning nomoddiy aktivlarini rivojlantirish bo‘yicha harakatlarni birlashtiradi. Bu esa, pirovard natijada ishlab chiqarishning ko‘payishiga olib keladi va sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Suslov N. I.ning fikricha, energiya samaradorligi – bu, turli energiya tashuvchilar (yoqilg‘i, issiqlik yoki elektr energiyasi) shaklida sarflangan energiya birligidan foydalanishdan olingan daromad yoki ishlab chiqarish hajmidir.

Umuman olganda energiyani tejash sanoat korxonalarini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi, chunki u energiya resurslaridan yanada samarali foydalanishga, atrof-muhitga va ijtimoiy jihatga yukni kamaytirish shaklida foydali ta’sirni oshirishga qaratilgan faoliyatdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida energiya tejamkorligiga erishish va energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy omillari tizimlashtiriladi. Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish tizimini samarali boshqarishning tashkiliy mexanizmi ilmiy abstraksiyalash orqali quriladi. Shuningdek, tadqiqot ishiga oid qarashlarni, fikrlarni tahlil qilishda induksiya va deduktsiya usullari keng qo‘llanildi. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlarining tahlili asosida energiya tejamkorligiga erishish samaradorligini baholash usullari taklif etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoatda energiya tejash nafaqat energiya tejash, balki undan samarali foydalanish va mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. Energiya sarfi uch yo‘nalishga bo‘linadi: elektr energiyasi, issiqlik energiyasini iste’mol qilish va yoqilg‘ining yonishi.

Zamonaviy energiyani tejash uchta asosiy tamoyilga asoslanadi: [8]

birinchidan, yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, shu jumladan energiya bilan ta’minlashning yangi noan’anaviy manbalarini izlash va rivojlantirish;

ikkinchidan, maishiy va sanoat hisoblagichlaridan keng foydalanish hamda elektr va issiqlik energiyasini iste’mol qilishni tartibga solish;

uchinchidan, qurilishda energiya yo‘qotishlarini kamaytirishga xizmat qiladigan eng yangi texnologiyalarni joriy etish

Aksariyat tadqiqotlarda energiya tejash muammolarini o‘rganishda energiya tejovchi omillarni hisobga olish hamda energiya tejash uchun energiya samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishga ko‘proq ahamiyat qaratganlar. Iqtisodiy nuqtayi nazardan energiya tejashning mohiyati jamiyatning energiya xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni darajasini maksimallashtirish nazarda tutiladi. Energiyani tejash uchun zarur shart-sharoitlarni ishlab chiqish energiyani tejashning asosiy sharti hisoblanadi. Shuning uchun energiya tejashning etarli sharti sifatida energiya hajmi va energiya ehtiyojlari o‘rtasidagi samarali muvozanatga erishishdir.

Barcha sanoat korxonalari o‘zlarining energiya tejash bo‘yicha o‘zining uzoq muddatli rejalari bo‘lishi va bu borada samarali loyihalarni amalga oshirishi lozim. Energiyani tejovchi loyihalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularni amalga oshirishning asosiy natijasi qo‘shimcha daromad emas, balki yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, moddiy xarajatlarni kamaytirish, investitsiya va mehnat resurslarini tejash natijasida pul mablag‘larini tejashdir. Shu munosabat bilan, energiya tejash loyihasi energiyani tejash bo‘yicha chora-tadbirlar majmuyi sifatida belgilanadi, ularning amalga oshirilishi resurslarni tejash imkonini beradi, bu energiya auditi natijalari va resurslar samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlili bilan tasdiqlanadi.



1 - r a s m: Sanoat korxonalarida energiya tejovchi loyihalarni boshqarish mexanizmi

Sanoat korxonalarida energiya tejovchi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: mahsulot tannarxida energiya xarajatlarining ulushini imkon qadar qisqartirish; loyiha faoliyatini amalga oshirish doirasida energiya resurslarini hisobini yutirish. Sanoat korxonalarida energiya tejash jarayonlarini boshqarish strategiyasi energiya tejovchi loyihalarni amalga oshirish asosida energiya iste'molining yuqori texnologiyali darajasiga va energiya resurslarini boshqarish samaradorligiga erishishdan iboratdir. Energiyani tejovchi loyihalarni amalga oshirish mexanizmning asosiy elementlari 1-rasmda tavsiya etiladi.

Har qanday sanoat korxonalarida energiya samaradorligiga erishi bo'yicha yuqori darajada foydalanilmagan imkoniyat va zaxiralarga ega. Ayniqsa, bunday imkoniyatlar sanoat korxonalarining yordamchi jarayonlarida yuqori hisoblanadi. Sanoat korxonalarida energiya tejovchi loyihalarni amalga oshirishni boshqarishni tashkil etishning taklif etilayotgan mexanizmi birinchi bosqichda energiya samaradorligiga erishish chora-tadbirlarning maqbul portfelini tahlil qilish va shakllantirishni hamda maqbul loyihalarni tanlash imkonini beradi. Taklif etilayotgan mexanizmning amalga oshirilishi sanoat korxonalarida energiyani tejovchi loyihalarni amalga oshirishda samarasiz resurs xarajatlari darajasini pasaytiradi va natijada doimiy resurslar bilan ta'minlangan holda uning faoliyati samaradorligini oshiradi.

Sanoat korxonalarida energiya tejovchi loyihalarni tanlashdagi ustuvor vazifada energiya tejash jarayonlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi barcha muhim omillar ta'sirini hisobga olishdir. Energiya tejovchi loyihalarni tanlash ko'p mezonli vazifa bo'lib, iyerarxiya usulidan foydalangan holda boshqaruv modelini yaratish zarurligini taqozo etadi. Iyerarxiya modeli sanoat korxonalarida energiya tejash loyihalarini amalga oshirish jarayonida baholanishi kerak bo'lgan asosiy maqsadlar, kichik maqsadlar, mezonlar va faoliyat darajalarini o'z ichiga oladi. Iyerarxiya darajalarini quyidagicha belgilash mumkin: yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat bo'lgan asosiy maqsadni belgilashni nazarda tutuvchi nol daraja; energiya resurslari turlarini taqsimlashni nazarda tutuvchi birinchi daraja; energiya tejashning asosiy yo'nalishlarini taqsimlashni nazarda tutuvchi ikkinchi daraja; energiya tejovchi loyihalar/choralarni ishlab chiqishni nazarda tutuvchi uchinchi daraja. 3-rasmda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatida eng samarali energiya tejovchi loyihalarni tanlash uchun iyerarxiya modeli ko'rsatilgan.



2 - r a s m: Sanoat korxonalarida energiya tejamkorligiga erishish bo'yicha loyihalar va energiyani tejash choralarini tanlash modeli.

Taklif qilingan yondashuvdan sanoat korxonalarida energiya tejash orqali ishlab chiqarish imkoniyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini belgilab olishda yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirishning taklif etilgan uslubiy vositalaridan foydalanish energiya iste'molini boshqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Sanoat korxonalarining energiya iste'molini boshqarish tizimlari ochiq va moslashuvchan bo'ladi va bunda umumiy mezon energiyani samarali iste'mol qilishga moslashish va korxonaning ichki muhiti bilan o'zaro ta'sirini har tomonlama baholash birinchi o'ringa chiqadi.

Sanoat ishlab chiqarishida energiya tejashni boshqarishning asosiy funksiyalarini amalga oshirish va tegishli boshqaruv vositalaridan foydalanish energiya samaradorligini baholash bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Sanoat korxonasida energiyadan foydalanish samaradorligi mahsulotning energiya sarfini kamaytirishda avtomotlashtirilgan boshqaruv vositalaridan foydalanish talab etiladi. Sanoatda energiyadan foydalanish samaradorligini baholashda korxona energiya dinamikasining mehnat samaradorligi va uning unumdorligi nisbati, shuningdek, asosiy ishlab chiqarish fondlarining energiya zichligi va aktivlarning rentabelligini hisobga olishi talab etiladi.

Sanoatni energiya tejamkor texnologiyalar asosida texnologik jarayonning barcha bosqichlarida elektr energiya samaradorligini oshirish va undan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish quvvatini optimallashtirishga qaratilgan dasturlar barcha korxonalarning ishlab chiqarish texnologiyasi va infratuzilma obyektlari bo'yicha o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Burganov R. A. et al. On the need to improve the methodology for calculating energy saving and energy efficiency of enterprises //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – T. 791. – №. 1. – S. 012040.
2. Giraudet L. G. Energy efficiency as a credence good: A review of informational barriers to energy savings in the building sector //Energy Economics. – 2020. – T. 87. – S. 104698.
3. Mao W. et al. Energy-efficient industrial internet of things: Overview and open issues //IEEE Transactions on Industrial Informatics. – 2021. – T. 17. – №. 11. – S. 7225-7237.
4. Kelchevskaya N. R., Shirinkina E. V., Atlasov I. V. Assessing energy efficiency factors in industrial companies //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – T. 862. – №. 4. – S. 042001.
5. Галяутдинов И. М. Повышение экономической эффективности добычи нефти на поздней стадии разработки месторождения на основе внедрения энергосберегающих мероприятий Специальность 08.00. 05–Экономика и управление //Автореферат дис.... канд. экон. наук. СПб.: Санкт-Петербургский горный университет. – 2017.
6. Abdullayeva, M., & Shodmonov, S. (2019). Sanoat korxonalarida energiya sarfini kamaytirishning asosiy jihatlari. Arxiv nauchnыx issledovaniy, 1(1). izvlecheno ot https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/587
7. Mamatyusup Mamatkarimovich Nuryog'diyev, S. Mutallibjonov. Sanoat elektr ta'minoti tizimlarida elektr energiyasini iqtisod kilish // Scientific progress. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-elektr-taminoti-tizimlarida-elektr-energiyasini-i-tisod-kilish (data obrashcheniya: 14.06.2023).
8. Yusupov A.H. Tejamkorlik – Energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishidir. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 1/2022, yanvarfevral (№ 00057). 182-188-betlar
9. Устойчивое развитие нефтегазовых компаний: от теории к практике / В.В. Бушуев, А.М. Белогорьев, О.Ю. Аполонский, Е.А. Борголова, В.В. Тиматков; под ред. Бушуева В.В. – М.: ИЦ "Энергия", 2012. – 88 с.
10. Суслов Н.И. Повышение энергоэффективности экономики Сибири: роль ТЭК и цен на энергоресурсы // ЭКО. – 2011. – № 4. – С. 27-38.

KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA FERMER XO‘JALIKLARINING STRATEGIK BOSHQARUVI

Karimova Nilufar
TDIU tayanch doktaranti

Annotatsiya: mamlakatimizda bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida iqtisodiyotda yangicha xo‘jalik yuritish va mulkchilik shakllari, xususan, klaster tizimini rivojlantirish uchun qulay infratuzilmalar tashkil etilmoqda. Dunyo mamlakatlari iqtisodiy o‘sishning pasayishi, oziq-ovqat xavfsizligi va tibbiy-ekologik muommolar tus olgan bir sharoitda Respublikamizda barqaror suratlar bilan rivojlantirishda qishloq xo‘jaligiga katta e’tibor berilmoqda. Maskur holatdan kelib chiqib, tadqiqotda klasterlarni joriy etishda fermer xo‘jaliklari strategik boshqaruv hisobini yuritishi va uni rivojlashtirishning konseptual asoslari atroflicha o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, klaster, strategik boshqaruv, xarajatlar, daromadlar, oziq-ovqat xavfsizligi, moliyaviy tahlil.

Abstract: in the conditions of the formation of market relations in our country, convenient infrastructures are being created for the development of new forms of business and ownership in the economy, in particular, the cluster system. In a situation where the countries of the world are experiencing a decline in economic growth, food security, and medical and environmental problems, great attention is being paid to agriculture in the development of sustainable images in our republic. The conceptual bases of keeping strategic management account of farms and its development in the implementation of clusters based on the situation of Maskur have been thoroughly studied.

Key words: agriculture, cluster, strategic management, costs, revenues, food security, financial analysis.

Аннотация: в условиях формирования рыночных отношений в нашей стране создаются удобные инфраструктуры для развития новых форм бизнеса и собственности в экономике, в частности, кластерной системы. В условиях, когда страны мира переживают спад экономического роста, продовольственной безопасности, медико-экологических проблем, большое внимание уделяется сельскому хозяйству в развитии устойчивых образов в нашей республике. Подробно изучены концептуальные основы ведения стратегического управленческого учета фермерских хозяйств и его развития при реализации кластеров на примере Маскура.Ключевые слова: сельское хозяйство, кластер, стратегическое управление, затраты, доходы, продовольственная безопасность, финансовый анализ.

KIRISH (INTRODUCTION)

Dunyo aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi shib borayotganligi, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilishinishida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va sohani rivojlantirish istiqbollari, raqobatchilarning mavqeyi, narxlar, soliqlar va logistika tizimlari to‘g‘risidagi axborotlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi, klaster boshqaruv hisobi va tahlilini takomillashtirishni talab etadi.

Jahonda strategik boshqaruv hisobi va tahlilini xalqaro satndartlariga muvofiqlashtirish, korxonalar strategik boshqaruvining umumiy konseptsiyasi ishlab chiqish tamoyillarini joriy qilish, ularning uslubiy asoslarini isloh qilish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratiyalashuvi strategik boshqaruv hisobini iste’mol qiymati zanjiri, samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari tizimi, tovarning hayotiy sikli bo‘yicha xarajatlar va moliyaviy natijalarini aniqlash sof foydaning o‘sishga ta’sir etuvchi jihatlarini o‘rganishni talab qilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘grisida”gi , “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 7-iyundagi PQ-5075-son O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining 2021-yil 16-noyabrdagi “Paxta-to‘qimachlik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni mavzuning dolzarbligini ochib berishga xizmat qiladi.

Klasterni joriy qilishdan maqsad ishlab chiqarishda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan ekologik toza sifatli eksportbop xom ashyo yaratish va bu mahsulotlardan milliy brendini dunyoga tanitish, aholining keng qatlamini ish bilan ta’minlashdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Umuman olganda, klasterning amaliy ahamiyati mamlakatda tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutgan holda quyidagi adabiyotlar, misol uchun klasterlar nazariyasi rus olimlari klasterga oid ilmiy taqdiqot ishlari xorijlik olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan keng o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan, J. Ashenbroyx, S. Aleksandr, A. Barabolina, V. Baburin, I. Bortnik, S. Zemtsov, V. Tarasenkolar[1] tomonidan muayyan ilmiy ishlar olib borilgan. Shuningdek, paxta to‘qimachilik klasterining mohiyati, uni rivojlantirish masalalari yuzasidan o‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, professor M. Rahmatovning “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida” kitobida bu klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlari haqida masalalar yoritilgan.

O‘zbekistonda paxta to‘qimachilik klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari M. A. Rahmatov, B. Z. Zaripovlar “Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o‘sish” risolasi tomonidan ko‘rsatib bergan.

Bu kabi ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, klasterlar faoliyatini rivojlantirishda moliyalashtirish masalalari va muommolari hamda ularda qo‘llaniladigan usul va tahlillar masalalariga kengroq urg‘u berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

O‘zbekistonda keyingi yillarda ilg‘or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo‘jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e’tibor qaratilyapti. Klasterlar faoliyati, ularning moliyaviy boshqaruvning xususiyatlari va qonuniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish bir qator samarali tadqiqot metodologiyasidan foydalanishni taqozo etadi. Albatta, bunda avvalo nazariy mushohada va mantiqiy yondashuv asosida klasterlar faoliyatini moliyalashtirish hamda unda moliyaviy boshqaruvning yondashuvlarni ilmiy-nazariy tahlil qilindi. Unga asoslangan holda ilmiy adabiyotlar ilmiy tahlil qilindi, muammoga oid ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislarning ilmiy-nazariy qarashlari bunda umumlashtirish va guruhlashtirish metodga asoslandi. Rasmiy va amaliy materiallarga asoslangan holda sintez va tahlil usullarga asoslanib ilmiy xulosalar olindi, deduksion yoki induksion yondashuvga asosan klasterlar moliyalashtirish jarayonida moliyaviy boshqaruvga ta’sir etadigan omillarni quyidan yuqoriga va aksincha tartibda tadqiq etish imkoni tug‘ildi. Mantiqiy va taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullarni qo‘llash orqali kompleks tahillarga asoslanib ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirildi.

TAHLIL (ANALYSIS)

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan istiqboli dastiri sifatida klaster faoliyatiga ham bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etib borilmoqda. Bu o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishni jadal amalga oshirish, klaster faoliyatida ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash masalalari yoritib keladi.

Klaster xarajatlarini tahlil qilishning an’anaviy usulida odatda, muqobil qabul qilingan boshqaruv qarorlarining korxona moliyaviy holatiga yoki uning natijalariga ta’sir va oqibatlarini baholash jarayoni sifatida foydalanilib kelinmoqda. Xarajatlar strategik boshqaruv holatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu keng qamrovli xarajatlar tahlili hisoblanadi. Bunda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim ko‘rsatkichlar aniq-ravshan, davrlarga bo‘lingan holda, klaster faoliyat turlari bo‘yicha batafsil yoritilib beriladi. Shuni ta’kidlash lozimki, strategik rejalshtirishda xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlardan foydalanish xarajatlarni hisoblash nazariyariyasi va amaliyoti atroflicha tatbiq etilmaganligini guvohi bo‘lamiz. Klaster korxona xarajatlar tarkibini istiqboldagi ko‘rsatkichlariga erishishni mo‘ljallab chuqur tahlil qilish unga bozordagi raqobat kurashida sezilarli ustunlikka ega bo‘lishi va ishonchli g‘alabani qo‘lga kiritishga imkon beradi.

“BUXORO AGROKLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyati O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar tug‘risida”gi Qonuni hamda “Buxoropaxtasanoat XB” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining 2019-yil 6-iyuldagi va 11-iyuldagi navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish qarorlariga muvofiq tashkil etilgan.

1 Н. Руднева Опыт создания структураных кластеров в развитых странах (Электронный ресурс) // Скоч, Александр. Международый опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс) // Режим доступа. Куценко Е.С. (Становление инновационных кластеров в России: итоги первых лет поддержки // Инновации. 2015. № 7. С., Ф. Моисей, Славянова Светлана (Кластер номер один // Эксперт Юг № 48 (137), 2010)., С. Соколинко О кластетеризации в странах ОЧЭС (Электронный ресурс)// Режим доступа:http://www.ucci.org.ua.,Владислав Тарасенко (Территориальные кластеры: Семь инструментов управления. – М.: Альпина Паблишер, 2015. – 201 с.

1 - j a d v a l: “BUXORO AGROKLASTER” fermer xo‘jaligining moliyaviy natijalari ma’lumotlarining iqtisodiy-statistik tahlili[2]

	2020	2021	2022	O‘zgarishi	
				2020-yilga nisbatan (so‘mda)	2021-yilga nisbatan (so‘mda)
Sof tushum	43759485.12	1078065242.64	1866885787.25	142929093	78882036
Tannanarx	28444520.56	918160477,82	1367830020.01	108338482	44966954.21
Davr xarajatlari	7228053.21	69 554 816,23	260575627,82	253347574	191020811
Sotish xarajatlari	447 595,25	28 349 698,80	23198278,10	22750682	209027651
Sof foyda	14398739.21	82 026 623,84	191106824,36	188109346	109080201

“BUXORO AGROKLASTER” fermer xo‘jaligida 2020-yilda moliyaviy tahlili shuni ko‘rsatib turibdiki, sof tushum 43759485.12 summani tashkil qilib, 2020-yilda sof tushum 14398739.21 summadan iborat ekanligi ko‘rsatilgan. Bu ko‘rsatkichlarni 2021–2022-yillarda juda tez su’raatlar bilan o‘sganligini ya’ni 2021-yilda 1 078 065 242.64 ni, 2022-yilda esa 1 866 885 787.25 summada oshgan. Mahsulot tannarxini 2022-yilga nisbati 108 338 482 summani va 2021-yilga 44 966 954.21 summani tashkil etgan. Davr va sotish xarajatlari kamayganini ko‘rishimiz mumkin

Statistik tahlil natijasida fermer xo‘jaligida faoliyatning qaysi qismida salbiy va ijobiy holatlar sodir bo‘lganligi va unga ta’sir etgan omillar aniqlib, korxona faoliyatiga ta’sir qiladigan asosiy omilni aniqlash kerak, statistik tahlil esa bu jarayonga to‘g‘ri baho beruvchi vosita hisoblanadi. Natijalarni umumlashtirib, quyidagilarni taklif etamiz:

- korxonalarda ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- iqtisodiy-statistik tahlillarni o‘tkazish;
- korxona natijalariga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish;

2 - j a d v a l: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishilgan asosiy ko‘rsatkichlar va indikatorlar[3]

Ko‘rsatkichlar nomi	Asos (2018-yil)	2021-yilga maqsad	2025-yilga maqsad	2030-yilga maqsad
Qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymatning yillik o‘sishi	117.3 trln so‘m (14 mlrd AQSh doll.)	3%	5%	5%
Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ida ish o‘rinlari sonining o‘sishi: • qishloq xo‘jaligi • oziq-ovqat sanoati • to‘qimachilik sanoati	 3 671 300 91 420 140 200	 2% 3% 3%	 1% 4% 4%	 1% 5% 5%
Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi	2.3 mlrd AQSh doll.	3.5 mlrd AQSh doll	10 mlrd AQSh doll	20 AQSH doll.
Aholi o‘rtasida to‘yib ovqatlanmaydiganlar ulushi	6.3%	5%	3%	0%
Qishloq xo‘jalida mehnat unumdorligini oshirish (bir nafar ishchiga bir yilda dollarda)	3960 AQSh doll.	4300 AQSh doll.	5200 AQSh doll.	6500 AQSh doll.
Qishloq xo‘jaligidagi issiqxona gaz chiqindilarini kamaytirish	15740 gigagramm (2016-yil)	10%	30%	50%

Jadval ma’lumotlarida ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillar strategiyasida beshta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha 2018-yil asos qilib olingan holda, 2021-yil, 2025-yil va 2030-yillarda rivojlantirish indikatorlari maqsad qilib olingan. Asosiy birinchi ko‘rsatkichda qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymatning yillik o‘sishi 117.3 trln so‘m 3% dan 5% gacha o‘sgan..Qishloq xo‘jaligi va oziq-

2 Fermer xo‘jaligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3 “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining Farmoni 23.10.2019-yildagi PF-5853-son

ovqat tarmog‘ida ish o‘rinlari sonining o‘sishi qishloq xo‘jaligida 3 671 300 kishiga nisbatan oziq-ovqat sanoatida 9140 kishiga nisbatan 3%, to‘qimachilik sanoatida esa 140 200 kishiga nisbatan 3% o‘sish rejalashtirilgan. Qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat mahsulotlarining hajmi oshishi, 2025 va 2030-yillarda 10 mlrddan 20 mlrd yetkazish strategiyasi reja qilib qo‘yilgan. Aholi o‘rtasidatoyib ovqatlanmaslik ulushi yildan yilga kamayish maqsad qilib qo‘yilgan.

Qishloq xo‘jaligida issiqxona gaz chiqindilarini 2016-yilda 15 740 gigagramm 2021-yilda 10%, 2025-yilda 30% va 2030-yilda 50% kamaytirish maqsad qilib qo‘yilgan.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Klaster faoliyati iqtisodiyotida davlatning roli, paxta va g‘alla etishtirish bo‘yicha davlat buyurtmasi amaliyotidan voz kechish, shuningdek, viloyat hokimlari va joylardagi davlat idoralarining yerdan foydalanish borasidagi mavjud vakolatlari qayta ko‘rib chiqilib kelinmoqda. Qishloq xo‘jaligi strategiyasida belgilangan aniq o‘zgarishlarni ishlab chiqishda Jahon banki, Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi va boshqa xalqaro tashkilotlari ekspertlari, shuningdek, respublikaning manfaatdor vazirliklari mutaxassislari ishtirok etib kelmoqda. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qulay agrobiznes muhiti va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitson jozibadorlikni oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirsh, tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish, qishloq xo‘jaligi ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloq hududlarini rivojlantirish, tarmoq statistikasi va ma’lumotlar yig‘ishning shaffof tizimlarini ishlab chiqish.

Jahon resurslar institutining ma’lum qilishicha, 2040-yilga borib O‘zbekiston suv tanqisligi yuqori bo‘lgan 33 mamlakat qatoridan joy oladi. Shu boisdan mamlakatda mavjud irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish yangilarini qurish zarurati tug‘ilmoqda. Mamlakatdagi sug‘orish tarmoqlarining 70 foizi antifiltratsion qoplamaga ega emas va buning natijasida yetkazib berish bosqichida suvning bir qismi yo‘qolmoqda. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini sug‘orish suvi bilan ta’minlashdagi yo‘qotishlar 40 foizga baholanmoqda.

Klaster faoliyatida boshqaruv hisobi va tahlilining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:

- korxonaning mahsulotga bo‘lgan talab va taklifni baholash, ishlab chiqarish dasturini real asosga ega ekanligini tahlil qilish;
- korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotga bo‘lgan talabga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- mahsulotning sifati bozordagi o‘rni raqobatbardoshligini baholash va tahlil etish strategik boshqaruv hisobining taktikasini ishlab chiqish.

7. Resolution of the president of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev. “On improving the energy efficiency of the economy and existing measures”. PQ-4779. June 10, 2020. https://lex.uz/docs/4890081
8. “Uzbekistan’s energy profile” Sustainable development. International energy agency. https://www.iea.org/
9. Sh. M. Mirziyoyev. “Yashil energiya” sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2.05.2023-yil, PQ-156-sonli qaror.
10. Sh.M. Mirziyoyev. “O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori, O‘zbekiston. 2019.
11. “Energiya siyosati sharhi 2022” Xalqaro energiya agentligi (IEA). O‘zbekiston 2022.

Internet saytlari

8. www.unep.org
9. www.oecd.org
10. https://unfccc.int/
11. www.worldbank.org
12. https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/dispu_subjects_index_e.htm

SUV TA’MINOT KORXONALARIDA BIZNES JARAYONLARI BO‘YICHA BOSHQARUV HISOBI TIZIMIDA HISOB YURITISHNING XUSUSIYATLARI

Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: maqolada biznes jarayonlarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning alohida sintetik hisobvaraqlari va axborot oqimlari tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy boshqaruv hisobida chegaralash hisobidan butun boshqaruv tizimining tahliliy funksiyalarini kuchaytirish ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: biznes jarayonlari, buxgalteriya hisobi, boshqaruv tizimi, tannarx, moliyaviy nataja, analitik va sintetik hisob.

Аннотация: в статье анализируются отдельные синтетические счета и информационные потоки информации о затратах, связанных с реализацией бизнес-процессов. Также способствует усилению аналитических функций всей системы управления за счет ограничения в управлении финансами.

Ключевые слова: бизнес-процессы, бухгалтерский учет, система управления, себестоимость, финансовый результат, аналитический и синтетический учет.

Abstract: the article analyzes separate synthetic accounts and information flows of information on costs related to the implementation of business processes. Also, strengthening of the analytical functions of the entire management system due to limitation in financial management is promoted.

Key words: business processes, accounting, management system, cost, financial result, analytical and synthetic accounting.

KIRISH

Suv ta’minoti sanoatida biznes jarayonlari bo‘yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun buxgalteriya hisobi subyekti faoliyatining jarayonlari bo‘yicha tannarxni hisoblash va moliyaviy natijalarni shakllantirish imkonini beruvchi hisob tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida biz suvta’minoti korxonasiga mos holda biznes jarayonlarini tabaqalashtirishni amalga oshirdik va bu tavsiflar atroflicha yoritib berildi.

Shunga muvofiq, jarayonlar bo‘yicha tannarxni hisoblash uchun korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobining mavjud axborot sig‘imiga muvofiq biznes-jarayonlar nuqtayi nazaridan hisobvaraqlarlar tizimini shakllantirish zarur.

Boshqaruv hisobi maqsadlarida biznes-jarayonlari uchun biz buxgalteriya hisobi subyektining muayyan biznes jarayonining amalga oshirilishidan erishgan moliyaviy natijasini aks ettirish uchun boshqaruv hisobi hisobvaraqlarini, shuningdek, hisobvaraqlar ushbu tizimining tahliliy imkoniyatlarini kengaytiruvchi birinchi va ikkinchi tartib subhisobvaraqlarini taklif etamiz.

Taklif etilayotgan tartib boshqaruv hisobi uchun qaror qabul qilishda hisob tizimida bo‘sh turgan hisobvaraqlardan foydalanish zarurati korxonaning boshqaruv tizimida bir nechta boshqaruv texnologiyalarini (masalan, jarayonga yo‘naltirilgan boshqaruv va hayotiy sikl bosqichlari bo‘yicha boshqarish) parallel ravishda qo‘llash mumkinligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, tabaqalashtirilgan biznes jarayonlarining soni ancha ko‘p bo‘lishi mumkin, har bir biznes jarayoni uchun esa alohida hisobvaraqning alohida erkin shifri zarur.

Biznes jarayonlarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning alohida sintetik hisobvaraqlarda to‘planishi axborot oqimlarini moliyaviy va boshqaruv hisobi o‘rtasida chegaralash hisobidan butun boshqaruv tizimining tahliliy funksiyalarini kuchaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Suv ta'minoti va oqova suv xizmatlarini ko'rsatish yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, sohada shaffoflik hamda xususiy sektorning ishtirokini ta'minlash, "O'zsuvta'minot" AJ va suv ta'minoti tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish hamda zamonaviy innovatsion tizimlarni joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi PF-6074-sonli Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrda PQ-4536-sonli qarori [2] va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-iyulda 459-sonli qarori [3] tasdiqlangan. Ushbu Farmon va Qarorlarda belgilab berilgan vazifalar mazkur tarmoqda muhim burilishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi. "Faoliyat jarayonlari bo'yicha hisoblash boshqaruv hisobini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi bo'lib, o'z navbatida boshqaruvning zamonaviy konsepsiyalari orasida jarayonlar bo'yicha boshqarish asosiy konsepsiyalardan biri hisoblanadi" [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini bajarishda metodologik bazasi bo'lib ma'lumotlarni to'plash, kuzatish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish asosida tadqiqotning iqtisodiy munosabatlarni va ularning rivojlanishidagi hodisalarni hamda o'zaro bog'liqliklarni o'rganishga nisbatan yalpi va tizimli yondashuvlarni nazarda tutuvchi umumiy ilmiy prinsiplari xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1 - jadval: Boshqaruv hisobida biznes-jarayonga yo'naltirilgan boshqaruvni qo'llash sharoitida hisob yuritish funksiyalarining kengayishi

Hisobvaraqning nomi	I tartib sub hisobvaraqlari	II tartib sub hisobvaraqlari
Asosiy biznes jarayonlari	• "Xaridlar"; • "Ichimlik suvini ishlab chiqarish"; • "Sotuvlar"; • "Gradinya va nasoslarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash"; • Utilizatsiya	Subjarayonlar turlari bo'yicha
Boshqaruv jarayonlari	• "Moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarish"; • "Axborot resurslarini boshqarish"; • "Inson resurslarini boshqarish"; • "Atrof-muhit bilan ishlash dasturini boshqarish"; • "Tashqi aloqalarni boshqarish"	Subjarayonlar turlari bo'yicha
Yordamchi biznes jarayonlari	• "Nasoslarni ta'mirlash"; • "Transport xizmati ko'rsatish"; • "Texnik nazorat"; • "Nasoslarni montaj/demontaj qilish"; • "Jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish"; • "Yordamchi moslanmalar ishlab chiqarish"; • "Asosiy vositalarga texnik (kafolatli) xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash"; • "Kapital qurilish"	Subjarayonlar turlari bo'yicha
Rivojlantiruvchi biznes jarayonlari	1 – "ITTKI"	Subjarayonlar turlari bo'yicha
Realizatsiya qilish	• "Tushum"; • "Tannarx"; • "Soliq"; • "Saldo"	• "Asosiy biznes jarayonlarining tannarxi"; • "Boshqaruv jarayonlarining tannarxi"; • "Yordamchi biznes jarayonlarining tannarxi"; • "Rivojlantiruvchi biznes jarayonlarining tannarxi"
Moliyaviy natijalar	• "Foyda"; • "Zarar"	

“Asosiy biznes jarayonlari”, “Boshqaruv jarayonlari”, “Yordamchi biznes jarayonlari”, “Rivojlantiruvchi biznes jarayonlari” hisobvaraqlari faol hisoblanadi, hisobvaraqlarning debeti bo‘yicha biznes jarayonlarini amalga oshirish xarajatlari yig‘iladi, hisobvaraqlarning krediti bo‘yicha esa jarayonlar va subjarayonlar tannarxining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

“Biznes jarayonlari va mahsulot hayotiy siklining bosqichlari bo‘yicha amalga oshirish” hisobvarag‘i faol-passiv bo‘lib, hisobvaraqning krediti bo‘yicha tushum hisoblanadi, hisobvaraqning debetiga subhisobvaraqlar kesimida amalga oshirilgan biznes jarayonlarining tannarxi o‘tkaziladi.

Boshqaruv hisobida biznes jarayonlarining hisob kuzatuvi tizimi keltirilgan bo‘lib, u alohida biznes jarayonini amalga oshirishning moliyaviy natijasini aniqlash, shuningdek xarajatlarni hisobini aniqroq yuritish uchun axborot oqimlarini chegaralash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bevosita hisobvaraqlar tizimidan tashqari biznes jarayonlari bo‘yicha boshqaruv hisobi tizimida hisobga olishga doir yozuvlarni yuritish uchun biz tatqiqot ishida biznes jarayonining amalga oshirilishidan qo‘lga kiritiladigan yakuniy moliyaviy natijani shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalarning butun tartibini qamrab oluvchi namunaviy buxgalteriya yozuvlari taklif etdik.

Taklifimizga ko‘ra, suvta’minoti sanoatining biznes jarayonlari bo‘yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob kuzatuvining ikkinchi varianti boshqaruv hisobining subhisobvaraqlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Taklif etilayotgan hisob tizimidagi barcha jarayonlar mustaqil hisoblash obyektlari hisoblanadi. Qo‘shilgan qiymatni shakllantiruvchi quyidagi biznes jarayonlari quyidagi hisobvaraqda aks ettiriladi:

- “Ichimlik suvini ishlab chiqarish”;
- “Texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash”;
- “Nasoslarni demontaj va utilizatsiya qilish”.

Analitik hisob asosiy biznes jarayonlari bo‘yicha ishlab chiqariladigan mahsulot, bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari kesimida yuritiladi. Taklif etilayotgan hisob tizimi ushbu hisobvaraqqa yuklamani, shuningdek, hisoblash obyektlari (mahsulot, ishlar, xizmatlar)ga taqsimlash xarajatlari ko‘rsatadigan mahsulot tannarxini shakllantirishga salbiy ta’sirni sezilarli darajada kamaytiradi.

Taklif etilgan hisob tizimida “Sotuvlar” hisobvarag‘i va “Foyda va zararlar” hisobvarag‘ining tahliliy xususiyatlari kengaytirilgan, bu nafaqat tannarxni, balki moliyaviy natijani hamda jarayonlar har bir guruhi: asosiy, yordamchi, rivojlantiruvchi va boshqaruv jarayonlarini amalga oshirish samaradorligini ham aniqlash imkonini beradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6074-sonli Farmoni, 2020-yil 25-sentyabr. https://lex.uz/docs/5017983.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika suv ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 4536-sonli qarori. 2019-yil 26-noyabr. https://lex.uz/ru/docs/4611081.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv ta’minoti og‘ir hududlardagi aholi tomorqalari va qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlariga suv chiqarish ishlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 459-sonli qarori. 30.07.2020-y.
4. Булгакова, С. В. Калькулирование себестоимости по процессам деятельности в управленческом учете экономического субъекта / С. В. Булгакова, Н. В. Подобедова // Международный бухгалтерский учет. – 2014. – № 45 (339). – С. 14–24.

O‘ZBEKISTON ICHKI OZIQ-OVQAT TOVARLARI BOZORINI TO‘LDIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Azlarova Munira Muhammad Amin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda oziq-ovqat tovarlariga bo‘lgan talabning o‘zgarish tendentsiyalari yoritilgan. Respublika hududlari bo‘yicha iste’mol tovarlarining ishlab chiqarish holati, O‘zbekistonga oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, oziq-ovqat mahsulotlarga bo‘lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim ekanligini hisobga olgan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat tovarlari, talab va taklif, agrobiznes, klaster, bozor, mahsulot sifati, mahsulot narxi, nazorat, oziq-ovqat xavfsiziligi, iste’mol tovarlari, agrar, sanoat, moliya-kredit, mintaqaviy, ijtimoiy, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar.

Аннотация: в данной научной статье рассматриваются тенденции изменения спроса на продовольственные товары в Узбекистане. Были разработаны предложения и рекомендации с учетом состояния производства потребительских товаров по регионам республики, информации о странах, импортирующих продовольствие в Узбекистан, важности факта удовлетворения спроса на продовольственные товары для любого государства.

Ключевые слова: продовольственные товары, спрос и предложение, агробизнес, кластер, рынок, качество продукции, цена на продукцию, контроль, продовольственная безопасность, потребительские товары, аграрные, промышленные, финансово-кредитные, региональные, социальные, экологические, социально-экономические условия.

Abstract: this scientific article describes trends in the demand for food products in Uzbekistan. Proposals and recomendations were developed taking into account the state of production of consumer goods in the regions of the republic, information on the countries that import food products to Uzbekistan, meeting the demand for food products is important for any country.

Key words: food products, demand and supply, agrobusiness, cluster, market, product quality, product price, control, food safety, consumer goods, agrarian, industry, finance-credit, regional, social, environmental, social- economic conditions.

KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda raqobatlashadigan bozor munosabatlarini rivojlantirish, bozorni turli tovarlar va xizmatlar bilan to‘ldirish, iste’molchilarning sifatli tovar xarid qilishga keng imkoniyatlar yaratishni marketing tamoyillari asosida baholash, marketing strategiyasini ishlab chiqish, pirovardida aholining farovon turmush sharoitini ta’minlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shu bois iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash sharoitida iste’mol bozorini va aholining iste’mol ko‘rsatkichlarini o‘rganish, marketing strategiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda aholining iste’mol tovarlariga xususan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini barqaror ta’minlash, ichki iste’mol bozorini mahalliy ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish, ularning narxlarini yanada arzonlashtirish, aholining sifatli iste’mol tovarlariga bo‘lgan talablarini to‘laroq qondirishda marketing omillaridan foydalanish, iste’mol tovarlari bozorida marketing strategiyasini shakllantirish va takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish zarur va maqsadga muvofiq bo‘lib, tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirish, Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi muhim o‘rin tutadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining qo‘shma majlisdagi nutqida “Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya’ni harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi”, – deb ta’kidlagan [1].

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat sanoati ham muhim rol o'ynaydi. Oziq-ovqat sanoati tayyor yoki yarim fabrikat holda ovqat mahsulotlari, shuningdek, ichimliklar, tamaki buyumlari hamda yog' ishlab chiqarish asosida sovun va yuvish vositalarining bir necha toifalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar guruhidir [4]. Xalqaro tarmoqlar standarti klassifikatsiyasida oziq-ovqat ishlab chiqarish ishlab beruvchi, ya'ni unumli tarmoqlar guruhiga kiritilgan. Oziq-ovqat sanoatining mustaqil bo'linmalari sifatida oziq-ovqat ishlab chiqarish (kod 10), ichimliklar ishlab chiqarish (kod 11) va tamaki buyumlari ishlab chiqarish (kod12). Oziq-ovqat ishlab chiqarish 13 ta tarmoqqa bo'linadi: go'sht sanoati (1010); baliq sanoati (1020); meva-sabzavotlarni qayta ishlash sanoati (1040); yog'-moy sanoati (1040); sut sanoati (1050); un-yorma sanoati (1061); kraxmal sanoati (1062); non-bulochka sanoati (1071); shakar sanoati (1072); konditer sanoati (1073); makaron sanoati (1074); iste'molga tayyor ovqatlar ishlab chiqarish(1075); hayvonlar uchun ozuqa ishlab chiqarish (1080) [5].

Oziq-ovqat tovarlari iste'mol bozorida ehtiyoj bilan iste'mol, to'lovga qobiliyatli talab bilan taklif, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida uzviy aloqalar va o'zaro harakatlar mavjud bo'ladi. Mazkur aloqaning, umuman olganda esa iste'mol bozorining qanchalik samaradorligi uni infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Aynan infratuzilma (ingliz tilidan – asos, poydevor) mintaqaning oziq-ovqat bozorida uyg'un munosabatlarni yaratish uchun zarur shart bo'lib, bozor xo'jaligi aloqalari tizimi sifatida bozor subyektlari o'rtasidagi aloqalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Fikrimizcha, bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qandolatchilik tarmog'ining ham ahamiyati ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Oziq-ovqat tovarlari bozori infratuzilmasi – bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muhitida faoliyat yuritadigan va bozor ishtirokchilarining samarali o'zaro aloqasiga ko'maklashuvchi ulgurji va chakana savdo, moddiy-texnik ta'minlash va omborxona xo'jaligi, moliya-kredit, sug'urta, axborot va me'yoriy-huquqiy ta'minotning o'zaro bog'liq majmuasini ifodalaydi.

Oziq-ovqat tovarlarining asosiy toifasi talab va taklifdan iborat bo'lib, tovarlarni savdo orqali sotish jarayonida amalga oshiriladi. Aynan talab va taklifning o'zaro nisbati ishlab chiqarishda tarkibiy siljishlarni keltirib chiqaradi, darajasi va dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi hamda agrosanoat majmuasi tarmoqlari o'rtasida mablag'larning aylanishiga ko'maklashadi.

Infratuzilma tushunchasini ifodalovchi turli xil yondashuvlar mavjud [6].

Obyektlarni infratuzilma tarkibiga kiritish belgisi bo'yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

birinchidan, infratuzilma deganda ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish tizimi tushuniladi (yakuniy mahsulotga ega bo'lmagan, ammo ishlab chiqarish faoliyat ko'rsatishi uchun muhim bo'lgan tarmoqlarni o'z ichiga oladi);

ikkinchidan, infratuzilma ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi tizim sifatida tushuniladi (transport, aloqa, moddiy-texnik va omborxona xo'jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi tarmoqlar);

uchinchidan, infratuzilmaga murojaat qilish sohasidagi xizmatlarni yaratuvchi tarmoqlar kiradi.

Shu bilan birga, infratuzilmani ishlab chiqarishni samarali rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan elementlar majmuasi sifatida ko'rib chiqishda, ko'pincha "infratuzilma"va "xizmat ko'rsatish sohasi" tushunchalari aniqlanadi.

Moddiy-texnik nuqtayi nazardan infratuzilma ishlab chiqarish kuchlarining elementi sifatida qaraladi. O'z navbatida, bular "resurslarni o'zaro manfaatli taqsimlashda to'liq integratsiya va xo'jalik faoliyatining yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi" [7].

Bizning fikrimizcha, har ikki qarash ham infratuzilmaning aniq tushunchasini aks ettirmaydi. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish uchun sharoit yaratuvchi tarmoqlar majmuasi va infratuzilmaning moddiy-texnik bazasi bir biridan butunlay boshqa tushunchalardir. Ularning birinchisi, turli tarmoq va sohalarni, shuningdek, o'z funksional maqsadiga ko'ra sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'lgan alohida faoliyat turlarini o'z ichiga oladi; ikkinchisi ushbu tarmoqlarga kiritilgan moddiy obyektlarning yig'indisini aks ettiradi. Shu bilan birga, "xizmat ko'rsatish sohasi" tushunchasi, "infratuzilma" tushunchasidan farqli o'laroq, ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu yondashuvlar "infratuzilma" tushunchasining mohiyatini aniqlashga imkon berib, bunga bozor subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirish va amalga oshirishni ta'minlaydigan obyektlar va institutsional tuzilmalar majmuasi sifatida qarash lozim.

I. P. Stukanova oziq-ovqat tovarlari bozori infratuzilmasiga axborot tizimi, huquqiy tizim, moliya-kredit tizimi, savdo va vositachilik tashkilotlarini kiritadi [8].

Oziq-ovqat tovarlari bozori uni boshqa tovarlar bozoridan farqlaydigan qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

I. Ivolga iqtisodiy adabiyotlarda berilganlarni umumlashtirish asosida oziq-ovqat tovarlari bozorini farqlay olish mumkin bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadi [9]: taklif hajmini nazorat qilishning cheklanganligi; taklifning notekis va barqaror emasligi; taklifning past elastikligi; talabning past elastikligi; tarmoq xatarlarining yuqoriligi; talabning uzluksizligi; boshqa bozorlarga nisbatan xarajatlarning yuqoriligi; hududlar orasidagi sezilarli bo‘lgan farqlar va ularni bartaraf etishning qiyinligi; bozor va ishlab chiqarish tarkibiga madaniyat va an’analarning ta’siri.

Yuqoridagi berilgan xususiyatlarga ko‘ra shuni aytishimiz mumkinki, oziq-ovqat tovarlari bozoriga tabiatning tabiiy omillari o‘z ta’sirini bilvosita o‘tkazadi. Shu sababdan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘z ishlab chiqarish miqyoslarini nazorat qilishda cheklangan ikoniyatga ega bo‘ladilar. Mahsulot ishlab chiqarish va taklif etish hajmlarining o‘zgarib turishi talab darajasi va narx darajasi dinamikasiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning bir qismi sifatida davlat agrar va iqtisodiy siyosatining eng asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, aholining barcha qatlamlarini hayot kechirish uchun kerakli miqdor va sog‘lom turmush uchun munosib sifatda oziq-ovqat ta’minotini kafolatlashi lozim [10].

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy maqsadi va vazifalarini shakllantirishda BMTning FAO tashkiloti nizomida belgilangan maqsad va vazifalarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu xalqaro tashkilotning Oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasidagi quyidagi tavsiyalari maqsad va vazifalarni belgilashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [11]:

- oziq-ovqat xavfsizligi o‘zini o‘zi oziq-ovqat bilan to‘liq ta’minlashni ifodalamaydi;
- mamlakat nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan holatda o‘z ehtiyojlari uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini o‘zi ishlab chiqarishga harakat qilishi lozim;
- mamlakat zarur miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishga va o‘z fuqarolarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlashga qodir bo‘lishi lozim;
- mamlakat hukumati oziq-ovqat xavfsizligi doirasida fuqarolarning xavfsiz oziq-ovqatga miqdoriy va iqtisodiy jihatdan ega bo‘lish (erishish) imkoniyatlarini ta’minlashi kerak.

Mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi ovqatlanishga bo‘lgan fiziologik talab, ya’ni aholi soni, uning ijtimoiy-demografik tarkibi, oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan to‘lov qobiliyati darajasi, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

Shu o‘rinda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tashkiloti oziq-ovqat xavfsizligi holatini baholashda quyidagi to‘rt yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatkichlarni shakllantirganligini ta’kidlashimiz mumkin [12]:

- mahsulotning mavjudligi (bunda ishlab chiqarish hajmlari, hosildorlik/mahsuldorlik, zaxiralar darajasi, zarar va yo‘qotishlar va h.k. ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi);
- oziq-ovqatga erishish imkoniyatlari (mavjud holatdagi daromadga zarur hajmdagi oziq-ovqatni xarid qilishning iqtisodiy imkoniyatlari, oziq-ovqatni tashish, ya’ni qattiq qoplamali yo‘llarning ularning umumiy uzunligidagi ulushi, temir yo‘llarning zichligi tahlil qilinadi);
- oziq-ovqat bilan ta’minlashning barqarorligi (turli mavsum va davrlarda oziq-ovqat mahsulotlarning yetarligi, ularning narxlari baholanadi va h.k. Bunda tabiiy ofatlar va ijtimoiy larzalar yuz berishi holatlari kuzatilib boriladi);
- oziq-ovqat iste’moli (haqiqiy iste’mol darajasi ovqatlarning to‘yimliligi, ya’ni uning kaloriyasi, oqsillar, mikroelementlar va h.k. bilan to‘yinganligi nuqtayi nazaridan baholanadi).

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, oziq-ovqat tovarlari bozoridagi davlat siyosati boshqa tovar bozorlariga nisbatan boshqacha tarzda shakllantirilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondashuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi [3].

Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, undagi birinchi ustuvor yo‘nalish aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi.

Aholi sonining o‘sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillardir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston dunyoda egallagan o‘rnini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o‘z mavqeyini yaxshilab oldi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti 2021-yil uchun Global ochlik indeksi reytingini e’lon qildi. 116 ta mamlakat joy olgan mazkur reytingda O‘zbekiston ochlik darajasi past davlat deb topildi [15].

Ustuvor yo‘nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga qaratilgan. Bu esa O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM), shu jumladan BMTning 2-BRM “Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, iste’molni yaxshilash va barqaror qishloq xo‘jaligini targ‘ib qilish”da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, ichki bozorni oziq-ovqat bilan to‘ldirish, ularni ishlab chiqarish sohasida o‘z-o‘zini ta’minlashga erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim sektori hisoblangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Chunki, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sanaladi. Shu jihatdan O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan qonunchilikni yanada mustahkamlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo‘lishiga erishish zarur.

Oziq-ovqat mahsulotlariga xos bo‘lgan yuqoridagi kabi xususiyatlarni yana ko‘plab keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga, oziq-ovqat bozorlari aholi uchun zarur bo‘lgan savdo obyektlaridan biri hisoblanib, uning amal qilishi, rivojlanishi bozor talablariga to‘liq javob beradi va mohiyati bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda eng muhim o‘rinlardan birini egallaydi.

Respublikamiz ichki bozorini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirishda qishloq xo‘jaligi muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 17-apreldagi PF-5708-sonli Farmoniga muvofiq quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilangan:

- birinchi navbatda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda bozor tamoyillarini joriy etish, ilg‘or tajriba va fan yutuqlarini, zamonaviy resurs tejovchi va intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishni nazarda tutuvchi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishda zamonaviy kooperatsiya munosabatlarini kengaytirish orqali qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo‘shilgan qiymati zanjiri yaratilishini rag‘batlantirish;
- agrobiznesning klaster modelini keng joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, klasterlash jarayonining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;
- agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligi, hosildorligi past yerlar unumdorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishga ko‘maklashadigan qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;
- keng ko‘lamli zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish va sifatli qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish imkoniyatini oshirish orqali qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rag‘batlantirish;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini tayyorlash, foydalanish va eksport qilishning zamonaviy tizimini shakllantirish, mahalliy va xorijiy seleksiya navlari, shu jumladan biotexnologik navlarning birlamchi urug‘chiligini tashkil etish va rivojlantirish;
- o‘simliklarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, zararkunandalar va begona o‘tlarga qarshi kurashish, agrokimyoviy xizmat ko‘rsatish va tuproqni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ta’lim, fan va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tizimli asosda uzviy integratsiyalashuvini, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining yuqori malakali soha mutaxassislariga bo‘lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta’minlash [2].

Fikrimizcha, oziq-ovqat ta’minoti masalasini mamlakat makroiqtisodiy rivojlanishining murakkab, biroq yechilishi shart bo‘lgan muammosi, uning asosiy manbai hisoblangan agrosanoat majmuasi tabaqali tizimga ega ekanligini hisobga olgan holda hal etish maqsadga muvofiq.

Shu bois, mazkur masalani mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan, sohaga aloqador omillarni ketma-ketlik tarzida tizimlashtirilgan holda ko‘rib chiqish amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar bajarilishida uzviylik jihatidan qator qulayliklar yaratadi.

Oziq-ovqat ta’minoti muammolarini alohida tizim sifatida tadqiq etishda ularni bir necha quyi tizimlarga ajratish maqsadga muvofiq. Xususan, oziq-ovqat ta’minoti muammosini hal qilishda unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ularning muammo yechimiga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni belgilab olish lozim, deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada O‘zbekistonda oziq-ovqat tovarlariga bo‘lgan talabning o‘zgarish tendentsiyalari, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish va iste’molchilarga yetkazib berish jarayonlarini qiyosiy solishtirish, ilmiy o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iste’molchilar nisbatan bir xildagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qiladilar va uni uzoq muddatga olib qo‘ya olmaydilar. Bozor sig‘imi nafaqat aholi soni bilan, balki uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan fiziologik hajmi bilan ham belgilanadi.

Oziq-ovqat tovarlari bozoriga nafaqat ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi xom ashyosi, tayyor mahsulot va oziq-ovqat tovarlari assortimenti va transport xarajatlari miqdori, shuningdek, ishlab chiqarish yo‘qotishlari va bozor narxlari bilan bog‘liq bo‘lgan hududiy farqlar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning qayta ishlash, saqlash va iste’mol qilish markazlaridan uzoqda joylashishi mahsulotni manfaatli sharoitlarda o‘tkazish imkoniyatidan mahrum etadi.

Milliy ananalar, madaniy va tabiiy xususiyatlar muayyan hududlar aholisining talab va taklifini shakllanishiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatining tarkibiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib, mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda oziq-ovqat barqarorligini, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga fiziologik minimumga muvofiq miqdoriy va iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan erishishini kafolatlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsiz iste’molini ta’minlashda ichki iste’mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishda nafaqat ichki ishlab chiqarish, balki oziq-ovqat tovarlarining importi ham ishtirok etadi. Bunda mamlakatda ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to‘ldirishda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi (1-rasm).



1 - r a s m: Ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to‘ldirishda ishtirokchilarning o‘zaro aloqasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Oziq-ovqat tovarlari bozorining barqaror emasligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yil davomida mavsumga bog‘liq bir tekisda yetilmasligi va ob-havo sharoitlariga qaram ekanligi bilan bog‘liqdir.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi narxlar o‘zgarishidan kam ta’sirlanadi. Tarmoqda bo‘lib turadigan doimiy xarajatlarining yuqoriligi ishlab chiqarish hajmlari pasayib qolgan holatda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy-moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladi. Ko‘plab qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlariga bo‘lgan talab narxlar bo‘yicha kam elastikdir, chunki aholi ma’lum bir to‘plamdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qiladi. Aniq bir turdagi oziq-ovqat mahsulotni iste’molini oshirish uchun narxlar sezilarli darajada tushib ketishi kerak bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi tadbirkorligiga yuqori xatarlar xos bo‘lib, tabiiy omillar sababli va yil davomida mahsulotlarning bozorga chiqishi bir xil emasligi va bozor konyunkturasi o‘ta barqaror emasligi bunga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonning oziq-ovqat importidagi TOP-10 davlatlar (2022-yil, mln. AQSh dollari) ko‘rsatilgan ma’lumotlar 2-rasmda ko‘rsatilgan.



2 - r a s m: O‘zbekistonga oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar

Manba: UzPressa ma’lumotlari

2-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonga oziq-ovqat mahsulotlarini import qilayotgan 10 ta davlatga e’tibor qaratilgan. Bunga ko‘ra, birinchi o‘rinda Qozog‘iston 1021,6 mln. AQSh dollari, ikkinchi o‘rinda Rossiya 680,3 mln. AQSh dollari, uchinchi o‘rinda Belarusiya davlati bo‘lib 414,6 mln. AQSh dollari teng mahsulotlarni import qiladi. Oxirgi o‘rinlarda Xitoy (42 mln. AQSh dol.), Turkiya (39,1 mln. AQSh dol.) va Hindiston (36,7 mln. AQSh dol.) teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining viloyatlar kesimida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish holati 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1 - j a d v a l: O‘zbekiston Respublikasining viloyatlar kesimida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish (foizda)

Hududlar	2010	2012	2014	2016	2018	2020	2021	2021-yilda 2010-yilga nisbatan farqi
O‘zbekiston Respublikasi	111,5	107,9	109,4	106,0	114,7	105,7	113,9	2,4
Qoraqalpog‘iston Resp.	109,4	109,6	112,0	104,3	122,2	113,6	105,3	-4,1
Andijon	108,9	109,2	101,2	70,1	165,2	99,9	92,3	-16,6
Buxoro	109,4	104,6	110,9	105,1	102,6	108,9	114,9	5,5
Jizzax	116,2	109,6	113,3	120,5	106,7	116,7	136,6	20,4
Qashqadaryo	109,6	108,1	105,8	112,7	100,7	110,9	95,7	-13,9
Navoiy	112,1	107,8	105,1	111,5	100,1	102,3	107,0	-5,1
Namangan	113,7	111,4	113,7	122,2	111,6	96,4	120,1	6,4

Samarqand	118,5	104,4	116,0	108,9	111,6	119,9	112,9	-5,6
Surxondaryo	107,9	105,8	114,0	119,4	101,5	121,2	112,5	4,6
Sirdaryo	107,7	107,1	110,8	111,8	104,4	86,3	118,3	10,6
Toshkent	116,6	112,3	109,5	114,5	111,7	115,0	127,0	10,4
Farg‘ona	109,7	103,2	107,0	112,5	101,3	111,4	111,2	1,5
Xorazm	111,1	111,6	186,7	93,8	130,4	100,1	117,7	6,6
Toshkent sh.	110,5	107,4	114,9	119,4	101,7	107,0	129,2	18,7

Manba: http://www.stat.uz

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bunda O‘zbekiston Respublikasining viloyatlar kesimida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish holati foizda ko‘rsatilgan. Bunga ko‘ra, 2010-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan muddatda respublikaning viloyatlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, respublikaning ayrim viloyatlarida 2021-yilga kelib iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish kamaygan. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (4,1%), Andijon (16,8 %), Qashqadaryo (13,9 %), Samarqand (5,6 %), viloyatlarida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Qolgan viloyatlarda esa 2010-yilga nisbatan 2021-yilda iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Respublika bo‘yicha iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish 2,4 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bu esa bozor narxlarining tebranib turishiga olib keladi hamda mahsulotni avvaldan tayyorlash va saqlashga bo‘lgan xarajatlari hisobiga oshib boradi.

Oziq-ovqat xavfsizligining to‘rt tarkibiy qismlari (oziq-ovqatning mavjudligi, uni xarid qilish qobiliyati, undan foydalanish va uning barqarorligi) bo‘yicha oziq-ovqat xavfsizligining davlat siyosati ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

XULOSA

Butun dunyoda oziq-ovqat taqchilligi xavfi ortib borayotgan bir paytda O‘zbekiston rahbariyati nafaqat ichki talabni qondirish, balki tashqi bozorga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish hajmini oshirish imkonini beradigan muhim va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonning muhim missiyasi va har bir davlatning ushbu murakkab davrdagi dolzarb vazifasi xalqaro hamjamiyatda alohida xavotir va tashvish uyg‘otuvchi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga mas’uliyat bilan yondashishdir.

Ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishda, ularga bo‘lgan talab tarkibidagi o‘zgarishlar va tendentsiyalarni tadqiq etar ekanmiz, bunda savdo-sotiq jarayonini tashkil etishda oziq-ovqat mahsulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari ham inobatga olish kerak, deb hisoblaymiz, jumladan:

- oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyat qismi insonlar iste’moli uchun juda ham zarur bo‘lgan ne’matlardandir. Shuning uchun ham narx-navoning o‘sishi holatida ham, bu mahsulotlarga bo‘lgan talab kamaymaydi;
- mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar insonlar faoliyati bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, faqat iqtisodiy samaradorlik bilan o‘lchanib qolmasdan, balki u yoki bu mahsulotning yo‘qligi hayot-mamotni hal qilishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va taklifi faqat yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan o‘lchanmasdan, balki samaradorlik nuqtayi nazaridan ham hisobga olinadi. Bu milliy xavfsizlikni ta’minlaydigan yo‘nalishlar orasida oziq-ovqat majmuasi rivojlanishini yuqori o‘rinlardan biriga qo‘yadi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishda fiziologik, tarixiy, milliy, hududiy, iqlim, intellektual xususiyatlarga asoslangan chegarasi mavjud bo‘lib, bozorlarning mahsulotlar bilan to‘ldirilishi natijasida, aholining daromadlari o‘sishi kuzatiladi va mahsulotlarga talabning ortiqcha namoyon bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Natijada, oziq-ovqat iste’moli uchun sarflangan xarajatlar ulushi kamayadi, daromadlar bo‘yicha salbiy egiluvchanlik kuzatiladi va boshqa tovarlarga e’tibor qaratilib, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish rag‘batlantiriladi;
- ko‘p asrlar, yillar davomida qishloq xo‘jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib kelgan. Shu sababli ham oziq-ovqat mahsulotlari elastikligi yuqori bo‘lmagan, ya’ni ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta mablag‘, mehnat va vaqt sarflash talab qilingan, lekin hamma vaqt ham buning iloji bo‘lmagan. Fan-texnika rivojining kuchayishi bilan, qishloq xo‘jaligining yerga bog‘liqligi ham nisbatan kamayib bordi. Ayniqsa, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda bu jarayon yerga bog‘liq bo‘lmay qoldi. Shunga qaramasdan, yer qishloq xo‘jaligida asosiy predmet va qurol bo‘lib qolaveradi;

- oziq-ovqat mahsulotlariga talab nisbatan sekin o‘zgaradi va ko‘plab omillar, ayrim hollarda umumiy yoki bir mahsulotga tegishli bo‘lgan omillar asosida belgilanadi. Masalan, qishloq xo‘jaligiga bo‘lgan munosabat aholining, dehqon va fermer xo‘jaliklariga bo‘lgan munosabatlar asosida aniqlanadi;
- oziq-ovqat mahsulotlariga talab kam egiluvchanlikka egadir, ya’ni narx-navoning keskin ko‘tarilishi, talab miqdorining keskin kamayishiga olib kelmaydi, shu bilan bir vaqtda sotuvchi daromadining ortib borish holatiga ega bo‘ladi;
- aholi tomonidan har doim iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ham takror sodir bo‘lishi kuzatiladi. Bu esa tovar ishlab chiqaruvchilar o‘z tashabbuslari bilan har doim mahsulot ishlab chiqarish uchun harakat qilish bilan belgilanadi;
- oziq-ovqat mahsulotlarining taklifi narx-navoning o‘zgarishiga ham bog‘liq bo‘lib, u harakatchanlik, ya’ni tovar hajmining ko‘payish yoki kamayish xususiyatiga ega. Ayniqsa, o‘simlik mahsulotlarida bu yaqqol seziladi, chorvachilik mahsulotlarida esa uzoq muddatli takror ishlab chiqarish bosqichlari mavjuddir. Ayniqsa, dehqon xo‘jaliklari egalari o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarining bozordagi konyunkturasini yaxshi bilganliklari tufayli, ulardan ayrimlarini ma’lum bir vaqtgacha, ya’ni narx-navoni ko‘tarilishi davrigacha ushlab turishi mumkin va natijada yaxshi daromad olishga harakat qiladilar;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri ishlab chiqarishda tabiiy-iqlim sharoitlari va yana boshqa sabablarga ko‘ra mo‘ljaldagidan ko‘ra kamroq hosil olish holatlarining sodir bo‘lishidir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tabiiy ob-havo sharoitlariga bog‘liq. Hatto qishloq xo‘jaligida eng jadal texnologiyalar qo‘llovchi yuqori darajadagi agrar madaniyatga ega bo‘lgan mamlakatlarda ham, mahsulot ishlab chiqarish hajmi kutilmagan natijalarni berishi mumkin. Qurg‘oqchilik, suv toshqini, zararkunandalar, mollar va o‘simliklarning kasallanishi agrar sohada sarflanadigan kapitalni oqlamasligi kuzatilgan. Bunday sharoitda sotishdan kelgan daromad miqdori ham kamayishi mumkin;
- oziq-ovqat mahsulotlariga bozor talabi chegaralangan bo‘lib, bozorning to‘liq ta’minlanishigacha yetib borishi mumkin. Sanoat va boshqa nooziq-ovqat mahsulotlari cheklanmagan miqdorda iste’mol qilinsa, oziq-ovqat mahsulotlarini faqat ma’lum miqdorgacha iste’mol qilish mumkin, ya’ni foydalilik chegarasi kamayishi qonuni amal qiladi.

Ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘yintirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda oziq-ovqat tovarlariga bo‘lgan talab tarkibini baholashda mamlakatdagi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarish salmog‘i, bir sutkada aholi tomonidan yetarli darajadagi kaloriyaga ega bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilinishi, ovqatlanishning oqilona tarkibini ta’minlash va aholining ehtiyojlarini fiziologik jihatdan asoslangan me’yorlarda to‘liq ta’minlash, oziq-ovqatlarning o‘rnini qoplovchi sug‘urta zaxiralarini shakllantirish hamda mamlakat ichida ishlab chiqarilmaydigan yoki kam miqdorda ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni import hisobidan qondirishning real imkoniyatlarini asoslash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis Palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.//Xalq so‘zi, 2016-yil 15-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 17-apreldagi PF-5708-sonli Farmoni //”Xalq so‘zi”, 2019-yil 19-aprel.
3. 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. https://www.google.com/search?q=пищевая+промышленность&rlz=1C1GGRV_ruUZ764UZ764&oq=пищевая+промышленность&aqs=chrome..69i57j0l5.21861j0j7&sourceid=c
5. https://www.google.com/search?q=пищевая+промышленность&rlz=1C1GGRV_ruUZ764UZ764&oq=пищевая+промышленность&aqs=chrome..69i57j0l5.21861j0j7&sourceid=c; https://ru.wikipedia.org/wiki/
6. Стуканова И. П. Маркетинговые управление региональным потребительским рынком продовольственных товаров. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. -М.:2009, 165-б.
7. Iochimsen R. Theorie der Infiastructure. – Tubingen, 1996, 99-б.
8. Стуканова И. П. Маркетинговые управление региональным потребительским рынком продовольственных товаров. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. – М., 2009. – С. 156.
9. Ивольга И. К.Функционирование продовольственного рынка России и его адаптация к условиям ВТО. Диссертация на соиск. ученой степени кандидата экономических наук. Нальчик, 2016. 12-бет
10. Лобачева Т. И. “Продовольственная безопасность как важнейшая составная часть национальной безопасности”. – Москва, 2016. – С. 26.

11. Шагайда Н. И., Узун В.Я. Продовольственная безопасность в России: мониторинг, тенденции и угрозы. – М.: РАНХ и ГС при Президенте РФ, 2014. – С. 8.
12. Шагайда Н. И., Узун В.Я. Продовольственная безопасность в России: мониторинг, тенденции и угрозы.-М.: РАНХ и ГС при Президенте РФ, 2014.-С.8.; http:/www.fao.org/about/what-we-do/ru
13. Azlarova M. Analysis methods of the factors influencing on consumer market // Byulleten nauki i praktiki. 2018. T. 4. №2. S. 276-282.
14. Azlarova M. Assessment of tenders of development of the consumer goods market in Uzbekistan. International Journal of Scientific&Engineering Research Volume 12, Issue 3, March -2021, 818-523 p., USA, GIF-0,98
15. Azlarova M. Impact of technology-supported marketing strategies on food security and provision: Evidence from Uzbekistan's confectionery industry //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – S. 39-45.
16. Азларова, М. (2023). Теоретические основы наполнения внутреннего рынка продовольственными товарами в условиях глобализации экономики. Economics and Education, 24(1), 292–300. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a45
17. Azlarova M. Marketing Strategies for Saturating the Country's Consumer Market With Food: Marketing Strategies for Saturating the Country's Consumer Market With Food //Arxiv nauchnыx issledovaniy. – 2021. – T. 1. – №. 1.
18. https://www.globalhungerindex.org/ranking.html
19. UzPressa ma'lumotlari.
20. http://www.stat.uz

ASSESSING THE IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE PRACTICES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS TO DRIVE THE TRANSITION TOWARDS A GREEN ECONOMY: A MANAGEMENT PERSPECTIVE

Kuzikulova Dilfuza
TSUE, Senior-teacher

Abstract: the transition towards a green economy has garnered global attention as societies strive for sustainable development. Higher education institutions are recognized as key drivers of change, responsible for cultivating future leaders and professionals who will shape this transition. However, a significant research gap exists regarding the implementation of sustainable practices within these institutions, particularly from a management perspective. This study aims to bridge this gap by conducting a comprehensive assessment of the extent to which sustainable practices are integrated into the management processes of higher education institutions, with a specific focus on their potential to drive the transition towards a green economy. Through an extensive literature review and empirical analysis, this research will delve into the challenges and opportunities encountered during the adoption and implementation of sustainable practices. The investigation will pay particular attention to their impact on institutional culture, curriculum development, resource management, and stakeholder engagement. By evaluating the current state of sustainable practices in higher education institutions and identifying successful strategies, this study will provide valuable insights and recommendations for enhancing the role of higher education in advancing the green economy. The findings will hold significant implications for higher education administrators, policymakers, and sustainability practitioners, offering guidance on developing effective management approaches that foster sustainability and facilitate the necessary changes for a greener and more sustainable future. Ultimately, this research aims to contribute to the collective effort in achieving sustainable development goals by empowering higher education institutions to become proactive agents of change in driving the transition towards a green economy.

Key words: Sustainable practices, Higher education institutions, Management perspectives, Green economy, Institutional culture, Curriculum development, Stakeholder engagement.

Farming system: the set of farming techniques accepted to increase the chickens (Organic/Conventional); Animal welfare: chance for the chickens to have outdoor access (outdoor access/no-outdoor access); Origin: the country of origin for the poultry ; Price: selling price in kg. The management of farming processes is presently speedily altering to a system perspective assimilating the surroundings in terms of environmental impact, public entities and documentation of quality and growing conditions. The latest advances in Information and Communication Technologies and the predominant lack of interoperability in the sphere of agricultural products, implements other features which contributes to the development of international standard for securing a more real communication between these entities. Therefore the concept of QFD is presented to interpret customer wants or needs into design requirements consequently into appearances of parts, then to practice plans and eventually in to production requirements. With the purpose of creating these relationships, QFD typically necessitates four matrices: product planning, parts planning, process planning and production planning matrices, respectively. Four phases of matrices (Figure2) are applied to transmit the input from the customer The product planning matrix similarly termed the house of quality (HOQ), translates customer need into product design requirements and it classify customer requirements (CRs) and begin priorities of design requirements (DRs) to fulfill the CRs (Hauser and Clausing, 1988).



Figure 1: QFD Functions
Source: Benner et al., 2019

There are four stages in construction an HOQ, defines as follows:

Step 1: CRs are also known as the voice of the customers. Customer needs can be collected by focus groups and articulated in customer own phrase. Quality deployment is comprised in this step to simplify customer specifications;

Step 2: Drs are also considered as the design needs or engineering specifications. Product features are defined in the language of the engineer; referred to consumer as voice of the strategy team. The Drs are applied to designate how well the project team has fulfilled the demands from the customers;

Step 3. Relationship matrixes. The relationship matrix designates how much each DR disturbs each CR. The rating scale can be organized in the score (5; 3; 1) or signs (¤ strong; ö Medium; Λ Weak). A cell (I, j) in the relation matrix is allocated (¤ strong = 5; ö Medium = 3; Λ Weak = 1) to notice a strong, medium or weak connection between the I th CR and j th DR, correspondingly;

Step 4. Significances of the DR. the results found from scheduled stages are applied to show a final rank order of DRs. The entire and comparative weighting of CRs and the relation ratings. For each DR, the complete weighting rating is calculated by the following relation.

$$AI_j = \sum_{i=1}^{m} R_{ij} W_i,\ 1 \le m \quad (1)$$

The AIj is absolute weight age rating of DRj , j= 1... n, Wi= Degree of weightage of Ri, i= 1... m, and Rij = Relationship rating,, representing the strength of the relation between Cri and DRj. The absolute weightage rating can be translated in to the relative weightage rating, RIj,by.

$$R_j = AI_j / \sum_{i=1}^{m} AI_k,\ 1 \le n \quad (2)$$

CONCLUSION

A quality function deployment can be positively used in the design and collection of agricultural product along with market analysis. From this perspective, it can be concluded that, major group of farmers can utilize different techniques in the case of supporting production of agricultural products. At the same time, there should be a strong focus on determinants of both whats and hows.

References:

1. Benner M, Linnemanna AR, Jongena WMF, Folstara P, (2003): Quality Function Deployment (QFD) – can it be used to develop food products? Food Quality and Preference 14, 327-339.
2. Castellini C (2005): Organic poultry production system and meat characteristics. Paper at: XVII th European Symposium on the Quality of Poultry Meat, oorwerth.
3. Castellini C, Mugnai C, Dal Bosco A, (2002): Effect of organic production system on broiler carcass and meat quality. Meat Science 60, 219–225. de Jomini, A. H. (Baron de Jomini)(2007). “The Art of War”, Arc Manor, Rockville, MD
4. CSCMP – Council of Supply Chain Management Professionals (2013). (online): http://cscmp.org/about-us/supply-chain-management-definitions
5. Grunert KG (2003): How changes in consumer behaviour and retailing affect competence requirements for food producers and processors. ERS/USDA workshop on Global Markets for High Value Food, Washington, DC, February 14.
6. Grunert KG (2003): How changes in consumer behaviour and retailing affect competence requirements for food producers and processors. ERS/USDA workshop on Global Markets for High Value Food, Washington, DC, February 14.
7. Napolitano F, Castellini C, Naspetti S, Piasentier E, Girolami A, Braghieri A (2013): Consumer preference for chicken breast may be more affected by information on organic production than by product sensory properties. Poult Sci. Mar 92 (3), 820-.
8. Parasuraman A, Zeithaml VA, Berry LL (1985): A Conceptual Model For Service Quality and its Implications for Future Research. Journal of Marketing 49, 41-50.
9. Zhang, X., Wang, C. (2011) ‘’Application of Analytic Network Process in Agricultural Products Logistics Performance Evaluation” Department of Economy and Management, Tianjin University of Finance & Economics, Tianjin, China
10. Vanecek, D and Kalab, D. (2003). “Logistics in agricultural production”. AGRIC. ECON. – CZECH, 49, (9): 439–443
11. Yan-bin,YANG Jing-jing,TANG Yu-jiao (2008) ”Agricultural Logistics:Situation,Problem and Countermeasure“) Journal of Sichuan Agricultural University. 2008-03

TEMIR YO‘L TRANSPORTINI MAHALLIYLASHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMNING HOZIRGI HOLATI

Xamrayev Djamshid Panjiyevich
TDIU mustaqil tadqiqotchisi, “Toshkent metropoliteni” DUK “Iqtisod, moliya va mehnatni tashkil qilish” xizmat boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya: Temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmini tokomillashtirish bo‘yicha o‘zbek va xorij olimlari o‘rganishlar olib bormoqda. Ushbu maqolada mamlakatimizda temir yo‘l transportida mahalliylashtirishning moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qildik.

Temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha Toshkent metropoliteni faoliyati tahlili va mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalasi bo‘yicha xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so‘zlar: Temir yo‘l transporti, mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, mahalliylashtirish dasturi, import o‘rnini bosish siyosati, mahalliy xom ashyo, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash.

Аннотация: Узбекские и зарубежные ученые проводят исследования по совершенствованию механизма финансирования локализации на железнодорожном транспорте. В данной статье мы проанализировали информацию по совершенствованию механизма финансирования локализации на железнодорожном транспорте в нашей стране.

Нами разработаны заключение, предложение и практические рекомендации по вопросу анализа деятельности Ташкентской агломерации по совершенствованию механизма финансирования локализации на железнодорожном транспорте и совершенствованию механизма финансирования локализации.

Abstract: Uzbek and foreign scientists are conducting studies on improving the financing mechanism of localization in railway transport. In this article, we have analyzed information on improving the mechanism of financing localization in railway transport in our country.

We have developed a conclusion, proposal and practical recommendations on the issue of the analysis of the operation of the Tashkent metropolitan area on the improvement of the financing mechanism of localization in railway transport and the improvement of the mechanism of localization financing.

Key words: Railway transport, localization financing mechanism, localization program, import substitution policy, local raw materials, support for local producers.

KIRISH

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda, keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi[1].

Davlat rahbarining g‘oyasi va tashabbusi bilan joriy etilgan, Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyalari Temir yo‘l transport tizimi (keyingi o‘rinda Toshkent metropoliteni deb yuritiladi) rivojlanishida o‘zining ijobiy ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda Toshkent metropoliteni infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida qo‘shimcha yer osti va yer usti metro yo‘nalishlari hamda metropoliten bekatlari barpo etib kelinmoqda. Metropoliten harakat tarkibini yangilash maqsadida to‘qqizta yangi to‘rt vagonli metro poezdlari xarid qilindi hamda 23 ta to‘rt vagondan iborat metro poezdlari kapital ta’mirlandi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”-gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishi mamlakatimizda temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan. mamlakatimizda Temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishni rivojlantirish, uni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi hamda temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishni rivojlantirishning nazariy jihatdan xorijlik olimlardan X. Cheneri, M. Bruno, A. Straug, N. Karterlar va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni nazariy-amaliy izlanishlar asosida izchil o‘rganilmoqda. Jumladan, ushbu muammolar O‘zbekiston olimlari I. X. Boboyev, M. R. Boltabayev, Sh. I. Mustafakulov, G. N. Matchina, T. I. Iskandarov, N. Q. Boboxo‘jayev, O. A. Sultonxo‘jayev, R. Sayfulina, S. M. Mansurov, T. T. Topvoldiyev, R. R. Raxmanov, D. A. Mirxanova va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Umumlashgan iqtisodiy tahliliy metodika statistik-analitik tizimli tahlil qilish, sistemali qiyosiy taqoslama tahlil, iqtisodiy matematik modellashtirish, guruhlash va ekspert baholash, iqtisodiy bashorat uslublari qo‘llanildi.

MUHOKAMA

So‘nggi yillarda Toshkent metropoliteni infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida qo‘shimcha yer osti va yer usti metro yo‘nalishlari hamda metropoliten bekatlari barpo etib kelinmoqda. Metropoliten harakat tarkibini yangilash maqsadida o‘nbeshta yangi to‘rt vagonli metro poezdlari xarid qilindi hamda 24 ta to‘rt vagondan iborat metro poezdlari kapital ta’mirlandi. Yunusobod yo‘nalishida uzunligi 2,9 km bo‘lgan yer osti metropoliten liniyasi hamda “Yunusobod” va “Turkiston” bekatlari barpo etildi, yer usti halqa metropoliten liniyasining I bosqich – 11,7 km uzunlikdagi 7 ta bekatdan iborat bo‘lgan qismi hamda 6,2 km uzunlikdagi Sergeli yer usti metropoliten liniyasining 5 ta bekati foydalanishga topshirildi.

2016–2021-yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida metropoliten liniyasining umumiy uzunligi 38 km dan 59 km ga, bekatlar soni 29 tadan 43 taga yetkazildi, Toshkent metropolitenida yo‘lovchilar tashish quvvati 2016-yilga nisbatan 2 barobarga oshib, kunlik yo‘lovchi tashish 160 ming yo‘lovchidan 360 ming yo‘lovchiga yetkazildi. Toshkent shahrida yer usti halqa metropoliten liniyasining II bosqich – 13 km uzunlikdagi 7 ta bekatdan iborat “Qo‘yliq–Qipchoq” uchastkasida qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Toshkent metropoliteni quyidagi tartibda moliyalashtirish mexanizmini amalga oshiradi:

- Toshkent metropolitenda yo‘lovchilarga xizmat ko‘satishdan tushadigan daromadlar hisobidan o‘zini o‘zi moliyalashtiradi.
- Cheklangan tariflar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan ko‘radigan zararlarni mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezideti, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmonlari asosida Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha Respublika byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish.

Toshkent shahar transportini rivojlantirish Konsepsiyasi yo‘lovchi tashish transporti tizimining tezkor rivojlanishi, ularning barcha turlarini muqobillashtirish va kelajakda shahar ko‘chalarining rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Toshkent metropoliteni hozirgi vaqtga qadar jamoat transportining eng katta talabga ega bo‘lgan, ekologik toza, qulay va arzon transport turi hisoblanib, 2021-yilda umumiy shahar yo‘lovchilarni tashishdagi salmog‘i 48 foizni tashkil etgan.

NATIJALAR

Toshkent metropoletenining asosiy faoliyati Toshkent shahar aholisi, mamlakatimiz va boshqa davlatlardan kelgan mehmonlariga xavfsiz va qulay xizmat ko‘rsatishga qaratilgan. Yo‘lovchilariga xizmat ko‘rsatuvchi shaharning, Respublikaning yetakchi jamoat transporti hisoblanada. “Toshkent metropoliteni” davlat unitar korxonasi yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlarining 2016–2021-yillardagi tahlili metropolitendan foydalanuvchi yo‘lovchilarning soni yildan yilga ortishi, yangi bekatlar ochilishi, metropoliten parkida harakat tarkiblari va yangi xarid qilingan harakat tarkibi sonlarining ortishi, yangi ish o‘rinlari tashkil qilinishi va daromod miqdorining barqaror o‘sish sur’atiga ega ekanligidan dalolat beradi (1-jadval).

1 - j a d v a l: “Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi[2]

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019- yil	2020- yil	2021-yil
1	Yo‘lochilar hajmi	mln. kishi	53,49	59,70	68,64	79,23	38,81	101,77
2	Daromad	mlrd. so‘m	60,89	78,30	85,06	115,55	57,17	157,54
3	Bekatlar soni	dona	29	29	29	29	38	43
4	Umumiy uzunlik	kg	38,25	38,25	38,25	38,25	59,05	59,05
5	Harakat tarkiblari soni	dona	49	49	49	54	54	64
6	Ishchilar soni	dona	2987	3037	3253	3944	4279	5293

Toshkent metropoliteni moliyaiy ko‘rsatkichlarining 2016–2021-yillardagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, harakat xavfsizligi bo‘yicha ko‘rilgan choralarning ijobiy natijasi daromadlarning barqaror o‘sishiga olib kelgan. Xususan, metropolitenning 2016-yilda 53,49 million yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatilib, 60,89 mlrd.so‘m daramod olingan bo‘lsa, 2021-yilda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish 1,9 martaga oshib, 101,77 million yo‘lovchilarga va daromad miqdori 2,6 barobarga oshib, 157,54 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan (1-rasm).



1 - r a s m: “Toshkent metropoliteni” DUK yo‘lovchilar oqimi va daromadning o‘sishi[3]

Toshkent metropolitenida yo‘lovchilar oqimi va daromadlarning o‘sishi, korxonada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, harakat tarkiblarni modernizatsiya qilish, texnik yangilash jarayonlarini jadallashtirishga qaratilganligi nafaqat korxona rivojlanishi, shu bilan birga shahar infratuzilmasini rivojlanish uchun ham juda muhim hisoblanadi.

E’tirof etish joizki, jahon iktisodiyotining xozirgi globallashuv sharoitida yanada yukori marralarga erishish uchun korxona moliyalashtirish strategiyasini bo‘yicha qarorlari qabul qilish imkoniyatini yaratadigan boshqaruv hisobi samaradorligini oshirish hamda moliyalashtirish strategiyasini yanada rivojlantirish dolzarb masaladir.

Xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar, o‘zining investitsiyalari va xorijiy investitsiyalar, byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar shahar yo‘lovchilar tashuvchilari faoliyatini moliyalashtirishning manbalari hisoblanadi.

Shahar yo‘lovchilar transporti tashuvchilarining yo‘l qo‘yiladigan doiradagi tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagaj tashish xizmatlari ko‘rsatish munosabati bilan ko‘rgan zarari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tegishli mahalliy byudjet hisobidan qoplanadi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2012-yil 17-sentyabrdagi 273-sonli qaroriga asosan:

2 “Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining 2016–2021-yilgi statistika hisobot ma’lumotlari.
3 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.
4 O‘zbekiston Respublikasi “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida” 1997-yil 25-apreldagi 419-I-sonli qonunning 15-moddasi.

Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash;

Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash[5];

Cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplanishi mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish belgilangan. Toshkent metropoliteni cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilarga xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan 2019–2021-yillarda ko‘rgan zararlarni qoplanishi mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasini tahlil qilganda, ushbu ko‘rsatkich yildan yilga oshib borishini ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

2 - j a d v a l: “Toshkent metropoliteni” DUK 2019–2021-yillarda ko‘rgan zararlarni qoplanishi mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasi[6]

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil
1	Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash	mlrd. so‘m	5,15	2,69	4,59
2	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	mlrd. so‘m	3,80	1,88	3,15
3	Cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplanishi	mlrd. so‘m	9,0	27,16	53,52

Mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan “Toshkent metropoliteni” DUK 2019–2021-yillarda ko‘rgan zararlarni qoplanishini moliyalashtirish dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, cheklangan tarifda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish natijasida yildan yilga yo‘lovchilarning ko‘payishi, byudjet tomonidan berilayotgan subsidiyalarning miqdoini ortishiga olib kelgan.

Xususan, metropolitenning 2019-yilda korxona ko‘rgan zararni qoplash uchun mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan 9,0 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 2021-yilda korxona ko‘rgan zararni qoplash uchun mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan olingan subsidiya miqdori 16,82 martaga oshib, 53,52 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan (2-rasm).



2 - r a s m: Mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan “Toshkent metropoliteni” DUK moliyalashtirish[7]

5 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9 martdagi 128-sonli qarori.
6 “Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining 2019-2021-yillik statistika hisobot ma’lumotlari.
7 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

Mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan “Toshkent metropoliteni” DUK 2019–2021-yillarda ajratilgan subsidiyalarni ajratilishi, korxona zaruriy ehtiyot qismlarni xarid qilish, bekatlarni joriy ta’mirlash, harakat xavfsizligini ta’minlash va elektrenergiyadan vujudga kelayotgan qarzdorliklarni, shuningdek, majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash uchun juda muhim hisoblanadi. E’tirof etish joizki, korxona cheklangan tariflarda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatuvchi, shahar jamoat transporti hisoblanib, vujudga kelayotgan moliyaviy zararlarni mahalliy byudjet parametrlari doirasida to‘g‘ri taqsimlanishi va o‘z vaqtida to‘lanishi, korxonaning kelgusi faoliyatini samarali tashkil etish uchun bugungi kunning juda dolzarb masalasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmonlari asosida Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha 2019–2021-yillarda Respublika byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasini tahlil qilganda, ushbu ko‘rsatkich yildan yilga oshib borishini ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).

3 - j a d v a l: Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha 2019–2021-yillarda Respublika byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasi[8]

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil
1	Harakat tarkiblarini modernizatsiya qilish	mlrd. so‘m	76,84		92,0
2	Yangi bekatlar qurish	mlrd. so‘m	378,02	553,52	1337,4
3	Yangi harakat tarkiblarini xarid qilish	mln. yevro	34,0		63,7

Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha 2019–2021-yillarda Respublika byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, yildan yilga shahar infratuzilmasini rivojlantirish, yo‘lovchilarga qulayliklar yaratish maqsadida yangi bekatlar tashkil etish, metropolitenda mavzud xizmat muddatini o‘tagan harakat tarkiblarini modernizatsiya qilish orqali ularning xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish shuningdek, kunning tig‘iz vaqtlarida shahar aholisini qisqa vaqt oralig‘ida o‘z manzilllariga borishlarida oraliq intervallarni qisqartirish uchun yangi, energiyatejamkor harakat tarkiblarini xarid qilishi natijasida Respublika byudjet tomonidan berilayotgan subsidiyalarning miqdori ortishiga olib kelgan. Xususan, metropoliten harakat tarkiblarini yangilash va oraliq intervallarni qisqartirish maqsadida 2019-yilda Respublika byudjet mablag‘lari hisobidan 34,0 mln. yevro mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 2021-yilda yangi harakat tarkiblarini xarid qilish uchun Respublika byudjet mablag‘lari hisobidan olingan subsidiya miqdori 2,0 martaga oshib, 63,7 mln. yevro teng bo‘lgan (3-rasm).

3 - r a s m: Respublika byudjet mablag‘lari hisobidan “Toshkent metropoliteni” DUK moliyalashtirish[9]

Respublika byudjet mablag‘lari hisobidan “Toshkent metropoliteni” DUK 2019-2021-yillarda ajratilishi, metropoliten yo‘nalishlarni va masofasini kengaytirish, harakat tarkiblarini modernizatsiya va yangilash, shahar aholisini qulay va xavfsiz transport vositasi bilan ta’minlash, shuningdek, shahar infratuzilmasini rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

8 “Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining 2019-2021-yillardagi statistika hisobot ma’lumotlari.
9 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

E'tirof etish joizki, korxona moliyaviy zararda ishlovchi jamoat transporti bo'lganligi, uning kelgusi faoliyatini samarali tashkil etish, harakat xafsizligini ta'minlash, shahar infrastrukturasini rivojlantirish, metropoliten harakat tarkiblarini modernizatsiya va yangilarini xarid qilish, ma'naviy eskirga import ehtiyot qismlar va asbob-uskunalarni xarid qilinishida katta miqdorda mablag' talab qilinayotganligi va ushbu mablag'larni Respublika byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish bugungi kunning juda dolzarb masalasi hisoblanadi.

Toshkent metropolitenida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish, yo'lovchilar tashishni boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, metropoliten infratuzilmasini saqlash va undan foydalanish ishlarini samarali tashkil etish hamda Toshkent metropoliteni faoliyatini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5260-son qarori qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorning 1-ilovasida "2021–2023-yillarda Toshkent metropolitenida yo'lovchi tashish va poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan birinchi navbatdagi" chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish uchun "O'zbekiston temir yo'llari" AJdan 1 494 mln. doll., Davlat byudjetidan 13 959 mln. doll. va Xorijiy moliya institutlari mablag'lari hisobidan 96 400 mln. doll. jami 111 853 mln. doll. ajratilishi belgilangan (4-jadval).

4 - j a d v a l: 2021–2023-yillarda Toshkent metropolitenida yo'lovchi tashish va poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash uchun ajratilgan mablag'lar[10]

№	Moliyalashtiruvchilar	O'lchov birligi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	Davlat byudjetidan	mln. doll.	6762	5240	1957
2	Xorijiy moliya institutlari	mln. doll.		96400	
3	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ	mln. doll.		1494	

Shuningdek, qarorning 2-ilovasida metropolitenda 2022-yilda amalga oshirish lozim bo'lgan chora-tadbirlar doirasida "YO'L XARITASI" tasdiqlangan bo'lib, unda metopoliten harakat tarkiblarini modernizatsiya qilish va yangi oraliq vagonlarini xarid qilish belgilangan. Ushbu topshiriq ijrosini taminlash maqsadida 2022-yilda Toshkent metropolitenida 16 metro vagonlarini (2 harakat tarkibini) modirnizasiya qilish orqali xizmat muddatini 15 yilga uzaytirishga 44,7 mlrd. va 20 oraliq vagon ishlab chiqarishga 80,0 mlrd. so'm jami 124,7 mlrd. so'm ajratildi[11].

Xalq deputatlari Tokent shahar kengashining "2022-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini taqsimlash to'g'risida" 2021-yil 30-dekabrdagi VI-53-165-14-0-K/21-sonli qarori 3-ilovasi asosan, "Toshkent metropoliteni" DUKga Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo'lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishdan va bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo'yicha hisobga olinadigan yo'lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash hamda Cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar tashish hisobidan yuzaga keladigan zararlarni qoplash uchun 57 266 014,0 ming so'm hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5260-sonli qarori xarajatlarini qoplash uchun 59 316 800,0 ming so'm, jami 116 582 814 ming so'm mablag' ajratildi (5-jadval).

5 - j a d v a l: "Toshkent metropoliteni" DUK 2022-yilda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish[12]

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022-yil
1	Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog'liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash	mlrd. so'm	11,5
2	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo'lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	mlrd. so'm	4,2
3	Cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar va bagajni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan shahar yo'lovchi tashish transporti tashuvchilari ko'radigan zararlarni qoplanishi	mlrd. so'm	121,56

10 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.
11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-sonli qarori.
12 "Toshkent metropoliteni" DUK faoliyatining 2022-yilgi statistika hisobot ma'lumoti.

XULOSA

Toshkent metropoliteni mahalliylashtirishni moliyalashtirish mehanizmini xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, korxona pensionerlarga bepul xizmat ko‘rsatish natijasida olinmay qolingan daromadlar, imtiyozli oylik yo‘l chiptalaridan olinmay qolingan daromadlar hamda cheklangan tariflarda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish natijasida olinmay qolingan daromadlarni qoplash maqsadida respublika va mahalliy davlat byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Toshkent metropoliten asosiy faoliyatdan tushadigan hamda boshqa faoliyatdan tushadigan daromadlarni korxona xodimlarining ish haqlari va majburiy to‘lovlarni to‘lashga sarflanishi ma’lum bo‘ldi. Toshkent metropolitenida mahalliylashtirish mehanizmlarini takomillashtirish maqsadida cheklangan tarif turini diferentsial tarif turiga o‘zgartirish, barcha metro bekatlarida QR-bilet o‘qiydigan bankamatlar o‘rnatish orqali tizimni raqamlashtirish orqali kassa opperatorlarini qisqartirish hamda metropoliten boshqa faoliyatdan tushadigan daromad turlarini kengaytirish takliflarini kiritdik.

Bizning fikrimizcha, bunday tariflar miqdoriy va sifat o‘zgarishini hisobga oladigan temir yo‘l transportida mahalliylashtirish mexanizmini samarali amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishga imkon beradi va kelgusida ilmiy tadqiqotlar uchun qo‘llanishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni maliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishning mohiyatini tushunish borasida o‘rganishlar o‘sib borayotganligi korxona iqtisodiy taraqqiyotning barqaror sur’atlarda o‘sishga erishish uchun zarur bo‘lganligini ta’kidlash lozim.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktyabrdagi 643-son “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2012-yil 17-sentyabrdagi 273-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi PQ–643-sonli qarori. // www.lex.uz.
2. Xalq deputatlari Tokent shahar kengashining “2022-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini taqsimlash to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi VI-53-165-14-0-K/21-sonli qarori. // www.lex.uz.
3. I. X. Boboyev. Mahalliylashtirish asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish. 08.00.03 – Industrial tarmoq iqtisodiyoti ixtisosligi bo‘yicha tayyorlangan fan nomzodligi dissertatsiyasi /ANRUIE.- T., 2008 y.
4. Г. У. Мадаминова. Развитие промышленного производства на основе экспортоорнентированной маркетингговой стратегии. 08.00.13 – менежмент и маркетинг диссертация на кондидат экономический наука./ ТГЭУ. – Т., 2008.
5. А. М. Вазьянский, Локализация производства как проблема современного менеджмента: на примере автомобильной промышленности тема диссертации и автореферата по ВАК 08.00.05;
6. В. Кондратьев Политика локализации производства как инструмент модернизации, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari / http://www.stat.uz.
8. Temir yo‘l transporti kengashi. MDH davlatlari temir yo‘l transporti bo‘yicha Kengash rasmiy sayti, / http://www.sovetgt.org.

ENHANCING EDUCATION MANAGEMENT FOR GREEN DEVELOPMENT IN ENGINEERING PROGRAMS: STRATEGIES, CHALLENGES, AND OUTCOMES

Eshbayev Oybek
TSUE, researcher

Abstract: in the context of the global imperative for sustainable development, engineering programs play an important role in the development of green practices and principles. This study aims to explore the strategies, challenges, and outcomes associated with improving the management of education for green development in engineering programs. The research requires a comprehensive approach that includes both qualitative and quantitative methods to collect data from multiple stakeholders, including students, faculty, and industry professionals. Through a series of interviews, surveys, and document analysis, key strategies for integrating green concepts into engineering curricula are identified. These strategies include curriculum redesign, faculty development, collaboration with industry, and the incorporation of sustainable technologies and practices in labs and projects. However, a number of challenges, such as resistance to change, resource constraints, and limited faculty expertise in green technologies, hinder the implementation of these strategies. Despite these challenges, our research shows positive results in the adoption of strategies, including increasing awareness and knowledge of sustainability among students, increasing the relevance of engineering programs to industry, and fostering a green mindset among graduates. The research findings provide valuable insights and recommendations for educational management in engineering programs seeking to adopt green development principles. The study analyzes the importance of proactive measures to solve problems and advocates the need for continuous support and professional development of teachers. In addition, it explores the importance of fostering collaboration between academia and industry to ensure the integration of true green practices into engineering education. By improving education management for green development, engineering programs can significantly contribute to sustainable and environmentally conscious practices, shaping future engineers as catalysts for positive change.

Key words: green development, Education management, Engineering programs, Strategies, Challenges, Outcomes, Sustainable practices.

Annotatsiya: barqaror rivojlanish uchun global imperativ kontekstida muhandislik dasturlari yashil amaliyot va tamoyillarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot muhandislik dasturlarida yashil rivojlanish uchun ta’limni boshqarishni takomillashtirish bilan bog‘liq strategiyalar, muammolar va natijalarni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot bir nechta manfaatdor tomonlardan, jumladan, talabalar, professor-o‘qituvchilar, sanoat mutaxassislaridan ma’lumotlarni to‘plash uchun sifat va miqdoriy usullarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni taqozo qiladi. Bir qator suhbatlar, so‘rovlar va hujjatlarni tahlil qilish orqali yashil tushunchalarni muhandislik o‘quv dasturlariga integratsiya qilishning asosiy strategiyalari aniqlanadi. Bu strategiyalar o‘quv dasturlarini qayta ishlab chiqish, professor-o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirish, sanoat sohasi bilan hamkorlik qilish, laboratoriya hamda loyihalarda barqaror texnologiyalar amaliyotlarini qo‘shishni o‘z ichiga oladi. Biroq, o‘zgarishlarga qarshilik, resurs cheklovlari va yashil texnologiyalar bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning tajribasi etishmasligi muammolari ushbu strategiyalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, tadqiqotimiz strategiyalarini qabul qilishda ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda, jumladan, talabalar o‘rtasida barqarorlik haqida xabardorlik va bilimlarni oshirish, muhandislik dasturlarining sanoatga mosligini oshirish va bitiruvchilarda yashil fikrlashni rivojlanmoqda. Tadqiqot natijalari yashil rivojlanish tamoyillarini qabul qilishga intilayotgan muhandislik dasturlarida ta’limni boshqarish bo‘yicha qimmatli tushuncha va tavsiyalarni beradi. Tadqiqot muammolarni hal qilish uchun faol choralar muhimligini tahlil qiladi va professor-o‘qituvchilarni doimiy qo‘llab-quvvatlash va malakasini oshirish zarurligini ilgari suradi. Bundan tashqari, u haqiqiy yashil amaliyotlarni muhandislik ta’limiga integratsiyalashuvini ta’minlash uchun akademiya va sanoat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhimligini tadqiq qiladi. Yashil rivojlanish uchun ta’lim boshqaruvini takomillashtirish orqali muhandislik dasturlari barqaror va ekologik jihatdan ongli amaliyotlarga sezilarli hissa qo‘shishi, kelajakdagi muhandislarni ijobiy o‘zgarishlar uchun katalizator sifatida shakllantirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: yashil rivojlanish, Ta’limni boshqarish, Muhandislik dasturlari, Strategiyalar, Muammolar, Natijalar, Barqaror amaliyotlar.

Аннотация: в контексте глобального императива устойчивого развития инженерные программы играют важную роль в развитии зеленых практик и принципов. Это исследование направлено на изучение стратегий, проблем и результатов, связанных с улучшением управления образованием для зеленого развития в инженерных программах. Исследование требует комплексного подхода, включающего как качественные, так и количественные методы сбора данных от множества заинтересованных сторон, включая студентов, преподавателей и профессионалов отрасли. С помощью серии интервью, опросов и анализа документов были определены ключевые стратегии интеграции зеленых концепций в учебные программы инженеров. Эти стратегии включают в себя изменение учебного плана, развитие преподавателей, сотрудничество с промышленностью и внедрение устойчивых технологий и методов в лабораториях и проектах. Однако ряд проблем, таких как сопротивление изменениям, нехватка ресурсов и ограниченный опыт преподавателей в области «зеленых» технологий, препятствуют реализации этих стратегий. Несмотря на эти проблемы, наше исследование показывает положительные результаты в принятии стратегий, включая повышение осведомленности и знаний об устойчивом развитии среди студентов, повышение актуальности инженерных программ для промышленности и формирование зеленого мышления среди выпускников. Результаты исследования дают ценную информацию и рекомендации для управления образованием в инженерных программах, стремящихся принять принципы зеленого развития. В исследовании анализируется важность упреждающих мер для решения проблем и отстаивается необходимость постоянной поддержки и профессионального развития учителей. Кроме того, в нем исследуется важность развития сотрудничества между академическими кругами и промышленностью для обеспечения интеграции настоящих зеленых практик в инженерное образование. Улучшая управление образованием для зеленого развития, инженерные программы могут внести значительный вклад в устойчивую и экологически сознательную практику, формируя будущих инженеров как катализаторов позитивных изменений.

Ключевые слова: зеленое развитие, управление образованием, инженерные программы, стратегии, вызовы, результаты, устойчивые практики.

I. INTRODUCTION

In response to the global imperative for sustainable development, engineering programs have emerged as crucial agents for fostering green practices and principles [1]. The integration of green development concepts into engineering education management plays a pivotal role in preparing students to address environmental challenges and contribute to a sustainable future [2]. This research aims to investigate the strategies, challenges, and outcomes associated with enhancing education management for green development in engineering programs.

Sustainable development has become an urgent priority worldwide, driven by concerns over climate change, resource depletion, and environmental degradation [3]. The engineering discipline, with its ability to design and innovate, has a unique responsibility to contribute to green solutions and mitigate the adverse impacts of human activities on the planet [4]. By equipping engineering students with the knowledge, skills, and mindset required for sustainable practices, educational institutions can produce a new generation of engineers who will drive positive change in various sectors [5].

To explore the effective integration of green concepts into engineering curricula, this study employs a comprehensive research approach that combines qualitative and quantitative methods [6]. Data are gathered from multiple stakeholders, including students, faculty members, and industry professionals, using interviews, surveys, and document analysis. This multi-dimensional perspective allows for a holistic understanding of the strategies, challenges, and outcomes associated with education management for green development in engineering programs.

Key strategies for integrating green concepts into engineering curricula have been identified through the analysis of collected data [7]. Curriculum redesign emerges as a fundamental strategy, involving the integration of sustainability principles throughout the program structure, from foundational courses to advanced specialized subjects [8]. Faculty development is another crucial aspect, focusing on equipping instructors with the necessary knowledge and pedagogical techniques to effectively teach green concepts [9]. Collaboration with industry partners facilitates the integration of real-world green practices into engineering education, ensuring that graduates are equipped with the skills and competencies needed in the job market [10]. Additionally, the incorporation of sustainable technologies and practices in laboratories and projects enhances experiential learning opportunities for students [11].

However, the implementation of these strategies faces several challenges that hinder their widespread adoption [12]. Resistance to change, both among faculty and students, is a significant barrier, as traditional engineering education paradigms may be deeply ingrained [13]. Resource constraints, such as limited funding for curriculum development and infrastructure upgrades, pose practical challenges [14]. Moreover, limited faculty expertise in green technologies and sustainability may impede the effective delivery of green content [15].

Despite these challenges, the research reveals positive outcomes resulting from the adoption of strategies for green development in engineering education [16]. Increased awareness and knowledge of sustainability among students equip them to address environmental issues in their future careers [17]. The industry relevance of engineering programs is improved through collaborations, ensuring that graduates possess the skills and knowledge sought by employers [18]. Furthermore, the adoption of green development principles nurtures a green mindset among graduates, fostering a sense of responsibility and an inclination toward environmentally conscious practices [19].

The findings from this research provide valuable insights and recommendations for education management in engineering programs seeking to embrace green development principles. Proactive measures are essential to address the challenges encountered during implementation [20]. Continuous support and professional development opportunities for faculty members are crucial to enhance their knowledge and expertise in green technologies [21]. Furthermore, fostering collaborations between academia and industry facilitates the integration of real-world green practices into engineering education, preparing students for the challenges they will encounter in their professional lives [22].

By enhancing education management for green development, engineering programs can significantly contribute to sustainable and environmentally conscious practices [23]. Equipped with the necessary knowledge and skills, future engineers can serve as catalysts for positive change, shaping a more sustainable and resilient world [24].

Overall, this research investigates the strategies, challenges, and outcomes associated with enhancing education management for green development in engineering programs. It emphasizes the importance of integrating green concepts into engineering curricula, addressing challenges, and fostering collaborations to ensure the education of environmentally conscious engineers who will contribute to sustainable development [25].

II. METHODOLOGY

This research employs a comprehensive research approach, incorporating both qualitative and quantitative methods to investigate the strategies, challenges, and outcomes associated with enhancing education management for green development in engineering programs. The use of a multi-dimensional perspective allows for a holistic understanding of the topic, gathering data from multiple stakeholders, including students, faculty members, and industry professionals.

Data collection methods include interviews, surveys, and document analysis. These methods are chosen to gather rich and varied insights from different perspectives. Interviews are conducted with stakeholders to gather in-depth qualitative data, allowing for an exploration of their experiences, opinions, and suggestions regarding green development in engineering education. Surveys are employed to gather quantitative data, enabling the researchers to obtain a broader understanding of the prevalence and impact of specific strategies and challenges. Document analysis is conducted to examine existing curriculum materials, policies, and industry reports, providing additional context and supporting the findings from interviews and surveys.

The participants for the interviews and surveys are selected through a purposive sampling technique, aiming to include a diverse range of stakeholders who possess relevant knowledge and experience in engineering education and green development. The sample may include students from different academic levels, faculty members from various disciplines, and industry professionals involved in engineering and sustainability practices. The sample size is determined based on the principle of data saturation, ensuring that enough data is collected to reach a comprehensive understanding of the research topic.

The interview protocol is designed to cover various aspects of education management for green development in engineering programs. Questions are formulated to explore participants' perspectives on strategies, challenges, and outcomes related to curriculum redesign, faculty development, collaboration with industry partners, and the incorporation of sustainable technologies and practices in laboratories and projects. The interviews are conducted in person or through virtual platforms, allowing for flexibility and convenience for the participants.

The survey questionnaire is developed based on the themes and insights obtained from the interviews and document analysis. It includes both closed-ended and open-ended questions to gather quantitative and qualitative data, respectively. The survey is distributed electronically to a larger sample of participants, ensuring a wider representation of perspectives and experiences.

Data analysis involves both qualitative and quantitative techniques. The qualitative data from interviews and open-ended survey questions are analyzed thematically, identifying recurring patterns, themes, and key ideas. The quantitative data from closed-ended survey questions are analyzed using descriptive statistics, providing an overview of the prevalence and distribution of responses. The findings from the interviews, surveys, and document analysis are integrated to generate a comprehensive understanding of the strategies, challenges, and outcomes associated with education management for green development in engineering programs.

Ethical considerations are taken into account throughout the research process. Informed consent is obtained from all participants, and their privacy and confidentiality are protected. The study is conducted in accordance with relevant ethical guidelines and regulations.

Limitations of the research may include potential biases in participant selection, self-reporting biases in surveys and interviews, and generalizability of findings to other contexts. These limitations are acknowledged, and efforts are made to mitigate them through rigorous data collection and analysis procedures.

The research findings provide valuable insights and recommendations for education management in engineering programs seeking to embrace green development principles. The results highlight key strategies, challenges, and outcomes, emphasizing the importance of proactive measures to address challenges and the need for continuous support and professional development for faculty members. The significance of fostering collaborations between academia and industry is also underscored to ensure the integration of real-world green practices into engineering education.

By enhancing education management for green development, engineering programs can contribute significantly to sustainable and environmentally conscious practices, shaping future engineers as catalysts for positive change in various sectors.

III. RESULTS

This section presents the results of the study on enhancing education management for green development in engineering programs. The findings are organized according to the identified strategies, challenges, and outcomes associated with green development in engineering education.

3.1. Strategies for integrating green concepts into engineering curricula:

Table 1: Summary of Identified Strategies for Green Development in Engineering Curricula

Strategies	Frequency of Mention
Curriculum redesign	65%
Faculty development	53%
Collaboration with industry partners	42%
Incorporation of sustainable technologies	38%
and practices in laboratories and projects	

The data analysis reveals that curriculum redesign is the most frequently mentioned strategy for integrating green concepts into engineering curricula, with 65% of the participants highlighting its importance. Faculty development follows closely, with 53% of participants acknowledging its significance. Collaboration with industry partners (42%) and the incorporation of sustainable technologies and practices in laboratories and projects (38%) are also recognized as valuable strategies.

3.2. Challenges hindering the implementation of green development strategies:

Table 2: Challenges in Implementing Green Development Strategies

Challenges	Frequency of Mention
Resistance to change	58%
Resource constraints	47%
Limited faculty expertise in green	35%
technologies and sustainability	

The challenges encountered in implementing green development strategies are identified as resistance to change (58%), resource constraints (47%), and limited faculty expertise in green technologies and sustainability (35%). These challenges pose significant barriers to the successful adoption and integration of green concepts in engineering education.

3.3. Outcomes resulting from the adoption of green development strategies:



Figure 1: Outcomes of Adopting Green Development Strategies

The study reveals several positive outcomes resulting from the adoption of green development strategies in engineering education. These outcomes include increased awareness and knowledge of sustainability among students, improved industry relevance of engineering programs, and the development of a green mindset among graduates. The statistical graph presents the distribution of these outcomes based on participant responses.

• rivojlanishni moliyalashtirish-ning barcha manbalari o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, kraudfanding an'anaviy vositalar uchun mavjud bo'lmagan joylarni egallashi (masalan, ijtimoiy tarmoq bilan birlashtirilishi va muammolarni hal qilishda mahalliy jamoalarni jalb qilishi mumkin) orqali barqaror moliyalashtirish maqsadlarining bir-birini to'ldirishini kuchaytirish.; • yashil kraudfandingni maxsus soliq tartibga solishni amalga oshirishda, shuningdek kraudfanding platformalari orqali tranzaksion xarajatlarni qayta taqsimlash va kamaytirishda jalb qilingan kapital qiymatini muntazam ravishda pasaytirish; • investitsiyalarning ijtimoiy, ekologik va axloqiy tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda dunyoqarashning tarmoq tarqalishi tufayli qadriyatlarga asoslangan mas'uliyatli investitsiya va investitsiyalarga o'tishni tezlashtirish.	• sayt va loyihani joylashtirish yurisdiksiyasi bilan bog'liq valyuta va huquqiy moliyalashtirish cheklovlariga bog'liqlik; • kraudfanding maydonchasiga qarab moliyalashtirish maqsadlariga cheklovlar va cheklovlarning kuchli tarqalishi; • infratuzilma loyihalari va Davlat-xususiy sheriklik/ Xalqaro xususiy huquq asosidagi loyihalarni kraudfanding bilan moliyalashtirish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi; • kraudfanding maydonlarida yashil kraudfanding sohasidagi yekspertlar hamjamiyatining zaif vakili; • nazariy konsepsiyani ishlab chiqmaslik, milliy moliyaviy tizimlarga yashil kraudfandingni samarali amalga oshirish masalalariga tadqiqot va tartibga solishning yetarli yemasligi.

3-jadvalda "yashil" kraudfandingni qo'llash orqali olinadigan imkoniyatlar va uni amalga oshirishdagi bir qator cheklovlar bo'yicha ma'lumot keltirilgan. Bunda imkoniyat sifatida rivojlanishni moliyalashtirishning barcha manbalari o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, kraudfanding an'anaviy vositalar uchun mavjud bo'lmagan joylarni egallashi orqali barqaror moliyalashtirish maqsadlarining bir-birini to'ldirishini kuchaytirish, "yashil" kraudfandingni maxsus soliq tartibga solishni amalga oshirishda, shuningdek kraudfanding platformalari orqali tranzaksion xarajatlarni qayta taqsimlash va kamaytirishda jalb qilingan kapital qiymatini muntazam ravishda pasaytirishni alohida qayd etish lozim.

Shu bilan birga, sayt va loyihani joylashtirish yurisdiksiyasi bilan bog'liq valyuta va huquqiy moliyalashtirish cheklovlariga bog'liqlik, kraudfanding maydonchasiga qarab moliyalashtirish maqsadlariga cheklovlar va cheklovlarning kuchli tarqalishi kabi to'siqlar mazkur moliyalashtirish modelining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Mazkur tadqiqot doirasida bir qator xulosalar olindi. Jumladan:

- global "yashil" rivojlanish indeksi (GYaRI) ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kungacha O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot yaratish yo'lida amalga oshirilgan chora-tadbirlar yetarlicha hali samara bermagan. O'zbekiston mazkur indeks hisoblanadigan 160 ta mamlakat ichida (Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan keyingi o'rinda) 156-o'rinni egallayotlanligi achinarli hol.
- COVID19 pandemiyasi onlayn kraudfanding platformalarining yuqori ahamiyatini ko'rsatdi, uning qulayligi va qamrovi tufayli COVID19ga qarshi kurashda tashkiliy va tibbiy yordamni hamda ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishga yordam beradigan kuchli vositaga aylandi.
- dunyoning eng yirik Kickstarter, Indiegogo, GoFundMe kraudfanding platformalari asrimizning birinchi o'n yiligi ohirida ommalashishni boshlagan bo'lib, unda loyihalarning har qanday turlari uchun mablag' jalb qilish bilan shug'ullanadi. Mazkur mablag'lar internet tarmoqdari orqali dunyoning barcha mamlakatlari namoyandalari ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.
- "yashil" kraudfandingni qo'llash orqali olinadigan imkoniyatlar va uni amalga oshirishdagi bir qator cheklovlar bo'yicha ma'lumot keltirilgan. Bunda imkoniyat sifatida rivojlanishni moliyalashtirishning barcha

manbalari o‘rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, kraudfanding an’anaviy vositalar uchun mavjud bo‘lmagan joylarni egallashi orqali barqaror moliyalashtirish maqsadlarining bir-birini to‘ldirishini kuchaytirish, “yashil” kraudfandingni maxsus soliq tartibga solishni amalga oshirishda, shuningdek kraudfanding platformalari orqali tranzaksion xarajatlarni qayta taqsimlash va kamaytirishda jalb qilingan kapital qiymatini muntazam ravishda pasaytirishni alohida qayd etish lozim.

- sayt va loyihani joylashtirish yurisdiksiyasi bilan bog‘liq valyuta va huquqiy moliyalashtirish cheklovlariga bog‘liqlik, kraudfanding maydonchasiga qarab moliyalashtirish maqsadlariga cheklovlar va cheklovlarning kuchli tarqalishi kabi to‘siqlar mazkur moliyalashtirish modelining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga O‘zbekiston moliya-kredit institutlarining qiziqishini oshirish va “yashil” iqtisodiyotga investorlarni jalb qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- “yashil” loyihalar va ekologik toza faoliyatni moliyalashtirishni rag‘batlantiruvchi infratuzilma va tartibga solish muhitini shakllantirish;
- Agrobank negizida yashil bank yaratish. Ijobiy tajriba sifatida biz Yevropa Ittifoqining iqlim banki bo‘lgan va Yevropada ham, chet yelda ham “yashil bitim” maqsadlarini ilgari surish bilan shug‘ullanadigan Yevropa investitsiya banki (EIB) faoliyatini olib borishimiz mumkin. 2021-yildan boshlab barcha YeIB operatsiyalari Parij iqlim shartnomasi qoidalariga mos keladi;
- strategik obligatsiyalar chiqarish – yashil moliya bozorining likvidligini ta’minlash va institutsional investorlarning mablag‘larini jalb qilish uchun davlat yashil obligatsiyalarini chiqarish;
- “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish bilan bog‘liq ETF va investitsiya fondlarini yaratish. Bunday mablag‘lar investitsiyalarni tanlashda ularning maqsadlari va strategiyalariga mos keladigan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarining keng doirasini hisobga olishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4477-sonli qarori.
2. Agrawal A., Catalini C., Goldfarb A. (2011) The Geography of Crowdfunding. National Bureau of Economic Research. Cambridge, MA, USA. URL: https://www.nber.org/papers/w16820.
3. Cohen Andrew J., Brody Hartley, Patino German, Ndoye Medina, Liaw Aron, Butler Christi, Breyer Benjamin N. Use of an Online Crowdfunding Platform for Unmet Financial Obligations in Cancer Care / JAMA Internal Medicine. September 9, 2019. URL: https://jamanetwork.com/journals/jamainternalmedicine/article-abstract/2749759
4. Dual Citizen LLC, a private U.S.-based consultancy New 2022 The Global Green Economy Index (GGEI) Results https://dualcitizeninc.com
5. FSB, 2016. Describing the Landscape and a Framework for Analysis. Research Report. March.
6. Gro Hariem Brundtland (Chairman) World Commission on environment and development Environmental Policy and Law/Volume 14, Issue 1, March 1985, Pages 26-30
7. Hadas-Dyduch M., Puszer B., Czech M., Cichy J. Green Bonds as an Instrument for Financing Ecological Investment in the V4 Countries. // Sustainability (Switzerland). – Vol. 14. – Is. 19. – http://doi.org/10.3390/su141912188
8. OECD, 2009. Declaration on Green Growth. OECD Meeting of the Council. Ou, J.J.-R., 2012. Construction of green competitiveness analysis index: a case study of export procession zone. Int. J. Electron. Bus. Manag. 10, 140–148.
9. Pishchulov G.V., Richter K.K., Pakhomova N.V., Tsenzharik M.K. (2018) A circular economy perspective on sustainable supply chain management: an updated survey. St Petersburg University Journal of Economic Studies, vol. 34, iss. 2, pp. 267–297. https://doi.org/10.21638/11701/spbu05.2018.204
10. Rajwa P., Hopen P., Mu L., Paradysz A., Wojnarowicz J., Gross C.P., Leapman M. S. (2020) Online Crowdfunding Response to Coronavirus Disease 2019. Journal of General Internal Medicine, vol. 1–3. https://doi.org/10.1007/s11606-020-05896-x
11. Sachs J.D., Thye W.W., Yoshino N., Taghizadeh-Hesary F. (2019) Why Is Green Finance Important? ADBI Working Paper. Tokyo, Asian Development Bank Institute. 917 p. URL: https://www.adb.org/publications/why-green-finance-important
12. Schenk E., Guittard C. (2009) Crowdsourcing What can be Outsourced to the Crowd and Why. URL: https:// www.researchgate.net/publication/40270166_Crowdsourcing_What_can_be_Outsourced_to_the_Crowd_and_Why
13. The financial system we need / UNEP, 2015. URL: https://unepinquiry.org/wp-content/ uploads/2015/11/The_Financial_System_We_Need_EN.pdf (data obrashcheniya: 18.11.2019).
14. Zhang M., Zhang C., Li F., Liu Z. Green Finance as an Institutional Mechanism to Direct the Belt and Road Initiative towards Sustainability: The Case of China. // Sustainability (Switzerland). – Vol. 14. – Is. 10. – http://doi.org/10.3390/su14106164

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA BILIMLAR IQTISODIYOTI KONSEPSIYASIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Xasanxonova Nodira Isametdinovna
TMI, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v.b., PhD.

Annotatsiya: maqolada bilimlar iqtisodiyotini joriy qilgan yetakchi rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahliliy amalga oshirilgan. Jumladan, ITTKIlarga sarf-xarajatlari bo‘yicha dunyodagi yetakchi o‘nta davlat olinib, ularni ko‘rsatkichlari tizimli asosda tahlil qilingan. Olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bilimlar iqtisodiyoti, axborot jamiyati, ITTKI, innovatsion iqtisodiyot, ilm-fan, ta’lim, inson kapitali, yuqori texnologiyalar, sun’iy intellekt, tadqiqotchilar, ilmiy tadqiqot ishlari, biznes tomonidan ITTKIlarga sarf-xarajatlar.

Аннотация: встатье анализируется опыт ведущих развитых стран, внедривших экономику знаний. В частности, были отобраны десять стран-лидеров мира по расходам на НИОКР и на систематической основе проанализированы их показатели. На основе полученных научно-практических результатов сформированы научные выводы и разработаны рекомендации.

Ключевые слова: экономика знаний, информационное общество, НИОКР, инновационная экономика, наука, образование, человеческий капитал, высокие технологии, искусственный интеллект, исследователи, научные исследования, расходы на НИОКР со стороны бизнеса..

Abstract: the article analyzes the experience of the leading developed countries that have introduced the knowledge economy. In particular, ten leading countries in the world in terms of R&D spending were taken and their performance was systematically analyzed. Based on the obtained scientific and practical results, scientific conclusions are formed and recommendations are developed.

Key words: knowledge economy, information society, R&D, innovation economy, science, education, human capital, high technology, artificial intelligence, researchers, research, R&D spending by business..

KIRISH

Bugungi kunda jahonda ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat turlari ilm-fan, ta’lim va umuman aqliy qobiliyatga asoslanib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini boshqaradi. Bunda bir tomondan ta’lim tizimining ijtimoiy ishlab chiqarishdagi tutgan o‘rni va ahamiyatini oshirib borish, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarishning har bir tarmog‘i ichida, korxonalar va firmalar faoliyatida maxsus bilimlar keng qo‘llash, ya’ni zamonaviy texnologik jarayonlarni kompyuterlar va avtomatlashgan vositalar yordamida boshqarish va hokazolar joriy qilinmoqda [1].

1990-yili BMTda inson taraqqiyoti haqida Mahbub al-Haq boshchiligida ilk ma’ruza o‘qilgan edi. Ma’ruzada bir necha indekslar orqali insonning jamiyatdagi iqtisodiy xatti-harakatlari tahlil qilindi. Hozirga qadar shu ma’ruza asosida juda ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning asosiy natijasi – inson taraqqiyotida ta’lim darajasining yuqori bo‘lishi uning tovar va xizmatlar ta’minoti hamda farovonlik darajasining yuksak cho‘qqilarga chiqishiga sababchi bo‘ladi [2].

Ma’lumki, bilimlar iqtisodiyoti – postindustrial jamiyat va institutsional iqtisodiyot rivojining, ilg‘or mamlakatlarda informatsion va ilm-fan darajasining yuqori darajasidir. Ko‘pincha bilimlar iqtisodiyoti atamasi innovatsion iqtisodiyotning sinonimi sifatida ham ishlatiladi. Biroq, bilimlar iqtisodiyoti innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining eng yuqori bosqichi, bilimlar yoki axborot jamiyatining asosi, poydevori hisoblanadi.

Dunyoda biz bilgan ilg‘or mamlakatlar – AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya mamlakatlari hozirgi bosqichda bilimlar iqtisodiyotidan keng foydalanayotgan mamlakatlardir. Bu mamlakatlarda inson kapitali, investitsiyalarga e’tibor yuqori, ilm-fan va yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmatlar sohalari keng joriy etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon miqyosida intellektual kadrlar masalasi, ayniqsa, rivojlangan davlatlarga anchagina daromad keltirdi. Jumladan, intellektual tovarlarni eksport qilish hisobiga farmatsevtika sohasida ishlayotgan Moderna, CanSino Biologics kabi korxonalar milliardlab dollar miqdorida (19,3 mlrd. AQSh dollari [3]) qo‘shimcha daromad olishiga sabab bo‘ldi. Ular tomonidan vaksina chiqarilishi ma’lum ma’noda ularni yetakchi monopol korxonalarga aylantirdi. Pandemiya davrida raqamli tadqiqot platformalar (bashorat qilish mumkin bo‘lgan modellar asosida), interaktiv karta (Djon Xopkins universiteti tomonidan kasallik mavjud hududlar, o‘lim va tuzalish holatlarini ko‘rsatuvchi interaktiv karta), axborotlarni tahlil qila oladigan sun’iy intellekt, teletibbiyot, Bluetooth orqali signallarni tarqatuvchi TraceTogether mobil ilova, tibbiy uskunaning 3D-pechati, pandemiya davrida ishlaydigan robotlar, CRISPR asosida genlarni tahlil qilish vositasi kabilar yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Shurupova ta’kidlaganidek, bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda intellektual va axborot resurslarining o‘rni jahon tajribasidan ma’lum [5]. Uning so‘zlariga ko‘ra, AQShda bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi tadqiqot va ishlanmalarga (ITTKI) yuqori darajada sarflangani bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlarda fan, axborot texnologiyalari, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar kabi faol bilim aralashuvini talab qiluvchi sohalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yaponiyada energetika texnologiyasi, Kanadada qishloq xo‘jaligi, Fransiyada kosmik tadqiqotlar, Kanada, Germaniya, Italiya va Janubiy Koreyada sanoat texnologiyalari ustuvorligicha qolmoqda. 20-asrning 90-yillari ikkinchi yarmida ko‘pgina mamlakatlarda ilmiy-texnikaviy prognozlash, fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini tanlash va baholash tartib-taomillarini takomillashtirishga qiziqish kuchaydi.

Jahon tajribasini o‘rganishda N. I. Xasanxonova va S. N. Abdulxalilovalarning ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan mablag‘lar davlat, korxona yoki tashkilotning innovatsion faoliyatining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi deb atashgan. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar ijobiy bo‘ladimi yoki yo‘qmi [4], ularni tan olish zarurligi ta’kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz bilimlar iqtisodiyotini joriy qilgan: Isroil, Janubiy Koreya, Shvetsiya, Avstriya, Yaponiya, Germaniya, Daniya, AQSh, Belgiya, Finlandiya davlatlarini tahliliga asoslanishga urindik. Bunga sabab, mazkur mamlakatlar ITTKIga xarajatlarni amalga oshirishda birinchilikni olgan o‘nta davlat qatorida turibdi. Jumladan, biz bu davlatlarni quyidagi ko‘rsatkichlar orqali tizimli tahlil qilishga harakat qilamiz:

- tadqiqotchilar, million aholiga nisbatan;
- jahon mamlakatlarining ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ga sarflar darajasi;
- ilmiy tadqiqot ishlar bilan bandlik, foizda;
- biznes tomonidan ITTKIga xarajatlar, foizda.

Bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi ko‘pincha mazkur sohada faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar bilan bog‘liqdir. Ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar ko‘pincha million aholiga nisbatan olinadi (1-rasm).



1 - r a s m: Jahon miqyosida tadqiqotchilar, million aholi soniga nisbatan[1]

1 Global innovation indexning 2013–2022-yil hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-rasm bizga Finlyandiya davlati ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish uchun tadqiqotchilarni doim yuqori ravishda ushlab turilishini (2022-yilda 7930,4 insonni jalb qilgan), AQSh davlati esa tadqiqotlar bo‘yicha jalb qilganlar bo‘yicha eng past ko‘rsatkichda (2022-yilda 4829,1 ta) million aholiga nisbatan insonlarni jalb qilinganini ko‘rdik. 2013–2022-yillar davrida barcha davlatlar o‘z tadqiqotchilar sonini turg‘un ravishda ushlab turishga harakat qilinganini ham aniqlash mumkin. 2022-yilga kelib ilmiy tadqiqot ishlari jahon iqtisodiyoti uchun muhimligi tan olindi. Chunki Covid-19 bilan sodir bo‘lgan iqtisodiy inqiroz faqat ilmiy-tadqiqot ishlari bilan yengilishi mumkinligi tushinildi. Jahon miqyosida qaraydigan bo‘lsak, million aholiga nisbatan tadqiqotchilar soni bilan birinchi o‘rinda Janubiy Koreya, ikkinchida Shvetsiya va uchinchi o‘rinda Daniya mamlakatlarini turganini ko‘ramiz. Ilmiy tadqiqot – bu ilmiy bilimlarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan nazariyani o‘rganish, tajriba qilish, konsepsiyalash va sinovdan o‘tkazish jarayoni. Shu sababli mazkur mamlakatlarda ilmiy tadqiqot ishlari asosan yangi bilimlarni ishlab chiqarish uchun qaratilganini ko‘rib turibmiz.

A. S. Shurupova bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishida, jahon tajribasidan ma’lumki, intellektual va axborot resurslarining o‘rni yuqori bo‘lganligini [5] ta’kidlaydi. Uning fikricha, AQSh davlatida bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ga sarflar darajasining yuqori ekanligi tufayli amalga oshgan. Ko‘pgina mamlakatlarda so‘nggi yillarda ilm-fan, informatsion texnologiya, nanotexnologiya, biotexnologiya kabi faol bilimlarning aralashuvini talab qiluvchi sohalarga alohida e’tibor berishmoqda. Jumladan, Yaponiyada energiya, Kanadada qishloq xo‘jaligi, Fransiyada kosmik tadqiqotlar, Kanada, Germaniya, Italiya va Janubiy Koreyada sanoat texnologiyalari ustuvor yo‘nalish sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Agar ITTKIga sarflangan xarajatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotlarni olamiz (1-jadval).

1-jadval ma’lumotlari shu bilan izohlanadiki, ya’ni iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda ilmiy tadqiqot sohasining roli ortib borishi va ITTKIga ajratilgan cheklangan davlat resurslaridan yanada samarali foydalanishga intilish amalga oshirilganligi ko‘rinadi. Jadvalda Isroil, Janubiy Koreya, Belgiya kabi davlatlarda ITTKIga xarajat darajasini ko‘tarib borishi, Finlandiya davlatlarda esa pasayish tendensiyaga ega bo‘lganini ko‘ramiz.

1 - j a d v a l: Jahon mamlakatlarining ITTKIga xarajatlari tahlili (YaIMga nisbatan foizda)[2]

№	Davlat	Yillar									
		2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	Isroil	4,4	4,2	4,3	4,5	4,8	5	4,6	4,9	4,9	5,4
2.	Janubiy Koreya	3,7	4,3	4,2	4,2	4,6	4,8	4,6	4,5	4,6	4,8
3.	Shvetsiya	3,4	3,1	3,3	3,3	3,4	3,3	3,4	3,3	3,4	3,5
4.	Yaponiya	3,3	3,4	3,3	3,2	3,2	3,3	3,2	3,3	3,2	3,3
5.	Avstriya	2,8	3,1	3,0	3,1	3,1	3,2	3,2	3,2	3,2	3,2
6.	Germaniya	2,8	2,9	2,9	2,9	2,9	3,1	3,0	3,1	3,2	
7.	Daniya	3,1	2,9	3,1	3,1	3,0	3,1	3,1	3,1	2,9	3,0
8.	AQSh	2,8	2,7	2,7	2,8	2,8	2,8	2,8	2,8	3,1	3,5
9.	Belgiya	2,0	2,4	2,5	2,6	2,7	2,8	2,6	2,8	2,9	3,5
10.	Finlyandiya	3,8	3,2	2,9	2,7	2,8	2,8	2,8	2,8	2,8	2,9

Ushbu jadval ma’lumotlaridan bizga shu ma’lum bo‘lmoqdaki, ITTKIga YaIMdan eng ko‘p sarf qiluvchi mamlakat Isroil bo‘lib turibdi. Isroilda universitetlarda ilmiy izlanishlar AQShdan keyin ikkinchi o‘rinda (Nobel mukofoti sovrindorlari sifatida ham tanilgan olimlarga ega) turadi, inson kapitaliga e’tibor alohida o‘rinni egallaydi, ilmiy izlanishlar bilan sanoat uzviyligi darajasi esa eng yuqori davlatlardan hisoblanadi.

Endi jahon miqyosidagi davlatlarda bilimlar iqtisodiyotini joriy qilinishdagi xatti-harakatlarni o‘rganib o‘tsak.

Isroil bilimlar iqtisodiyotini joriy etishdagi yetakchilik bizni uni qanday amalga oshirishdagi xatti-harakatini o‘rganishga chorladi. S. N. Yefimushkin va G. A. Sajayeva [6] fikricha Isroilda bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishini quyidagi ketma-ketlikda tasvirlaymiz:

Birinchi navbatda Israil institute of technology Technion ilmiy izlanish parki va Xayf universitetining birgalikdagi faoliyati qo‘llab-quvvatlandi. U asosda startap loyhalarining 70 foizini ishlab chiqarishga kirishiga erishildi.

2 Global innovation indexning 2013–2022-yilgi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ikkinchidan, Microsoft, Intel, Googl, Yahoo va IBM, Isroil armiyasi bilan yaqin hamkorlik hamda ularni buyurtmalari asosida ishlash innovatsion g‘oyalarni amalda aks etishiga sabab bo‘ldi.

Uchinchidan, ta’lim tizimiga byudjetning 8 foizini ajratish va iqtidorli yoshlarni erta aniqlashga qaratilgan tizim yaratildi. Isroil ta’lim vazirligi qo‘shimcha darslarni ko‘paytirish tarafdori bo‘lib chiqdi. Yosh avlodni o‘z vataniga sodiq, fidoyi qilib tarbiyalashga qaratilgan tizim yaratildi. Bu orqali u aqilli avlodni tarbiyalash vazifasini amalga oshirdi

To‘rtinchidan, 1991-yili fan-texnik rivojlanishi bo‘yicha davlat komissiyasi tuzildi. Uni bergan xulosalari asosida ilmiy parklar va biznes-inkubatorlarda kompyuter dasturlari, biotexnologiya, tibbiyot texnikasi, atrof-muhitni asrash usullari, axborot va kommunikatsion texnologiyalar yaratishga qaratildi. Biznes-inkubatorlar darajasini ko‘paytirish orqali bozorga yangi innovatsion tovarlarni jahon bozoriga olib chiqishga erishildi.

Ikkinchi o‘rinda turgan Janubiy Koreyada ham ta’limga investitsiyalarni amalga oshirish, axborot-kommunikatsiyalarga sarf-xarajatlar darajasi ham salmoqli o‘rinda. Bu davlatda ayniqsa, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)ga e’tibor kuchli ekanligini aytishimiz lozim. Janubiy Koreya davlatida bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishini quyidagi xususiyatlari bilan ko‘rsatamiz:

- inson kapitaliga sarf-xarajatlar darajasi baland;
- aholisi, asosan, yoshlari har narsaga kreativ yondashishga harakat qiladi;
- innovatson tovarlar darajasi ko‘p;
- Koreyadagi nufuzga ega bo‘lgan Samsung, LG va Hynday kompaniyalari iqtisodiyotda lokomotiv sifatida chiqishi hamda ular tomonidan ITTKIga sarf-xarajatlarning amalga oshirilishi;
- Koreya universitetlarining professor-o‘qituvchilari ilmiy izlanishlarni amalga oshirish hamda amaliyotga joriy etish darajasi yuqori;
- davlat-xususiy sherikchiligi (60 foiz davlat kapitali, 40 foiz – xususiy kapital) asosida nnnovatsiyalar sohasida startaplarni yaratish amalga oshiriladi;
- jahon miqyosida innovatsion sohada yutuqqa ega kompaniyalarning Janubiy Koreyaga kirib kelishi, faoliyatni olib borishi bo‘lanligi sababli bilimlar iqtisodiyotiga katta qadam quyildi.

ITTKIga sarflar bo‘yicha uchinchi o‘rinda turgan Shvetsiya davlatida innovatsion ishlarga sarf-xarajatlar YaIMga nisbatan 3,3 foizni tashkil qilmoqda. Bu davlatda bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishining o‘ziga xos xususiy jihatlarni quyidagilar:

- har qanday ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi yuqori;
- ilmiy tadqiqot ishlariga davlat tomonidan ham, xususiy sektor tomonidan ham ko‘p mablag‘ sarf-xarajat qilinadi;
- qulay investitsion muhitni shakllantirish uchun kichik va o‘rta biznesning innovatsion faoliyati davlat tomonidan kuchli darajada qo‘llab-quvvatlanishi amalga oshiriladi;
- investitsion iqtisodiyotni tartibga solish uchun soliq vositalaridan past darajada foydalanish va venchur moliyalashtirishga katta e’tibor qaratiladi;
- mamlakat iqtisodiyotida axborot sohasining hal qiluvchi o‘rni tan olinadi;
- Shvetsiyada “RISE group” – tadqiqot va taraqqiyotni rivojlantirishga mas’ul bo‘lib, u ilmiy-tadqiqot universitetlarini birlashtirgan maxsus tuzilma hisoblanadi. Bu tuzilma ilmiy tadqiqot ishlarni amaliyota joriy etilishiga ham javobgarlikni olgan;
- innovatsion mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqaradigan ko‘plab kompaniyalar mavjudligi (ular Yevropa Ittifoqining o‘rtacha ko‘rsatkichidan ham yuqori);
- Shvetsiyada barcha darajadagi ta’lim olish shakllariga davlat va xususiy tarmoq tomonidan katta xarajatlar amalga oshiriladi [6].

Shvetsiya bo‘yicha xulosa chiqarsak, undagi puxta o‘ylangan innovatsion siyosat, to‘g‘ri qurilgan milliy innovatsion tizim Yevropa Ittifoqida innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish darajasi bo‘yicha munosib o‘rin egallashiga sabab bo‘lgan [7].

Silikon vodiysi bilan mashhur AQSh davlatida bilimlar iqtisodiyoti o‘zgacha ravishda rivojlangan. Biz bilamizki, mazkur vodiyda dunyoga mashhur Adobe, AMD, Agilent, Apple, EBay, Facebook, Google, Intel, Oracle, Xerox kabi yirik kompaniyalar joylashgan. Ular ITTKIga sarf-xarajatlari darajasi ham katta. Bilimlar iqtisodiyotin-

ing to‘laqonli rivojlanishiga ham aynan shu kompaniyalar sababchi bo‘lgan. Shu bilan birga, mazkur vodiyda 4 ta universitet: San-Xose universiteti, Santa-Klar universiteti, Stanford universiteti va Santa Kruzdagi Kaliforniya universiteti joylashgan. Ular ilmiy ishlanmalar, AKT dasturlari, tadqiqot ishlari bo‘yicha yetakchi mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan.

AQShning Silikon vodiysidan tashqari boshqa hududlarida ham – Nyu-York va Vashingtonda ham ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish darajasi yuqori. AQShda National Science and Technology Council – Ilmiy va texnologik sovet va Office of Science and Technology Policy – Ilmiy va texnologik siyosatni olib boruvchi tashkilot bilimlar iqtisodiyotini tuzishda davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi idoralar sifatida chiqadi. Davlat tomonidan yuqori texnologik ilmiy-tadqiqot ishlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- antiterroristik faoliyatga qarshi kurashda ITTKIdan foydalanish (antiterrostik harakatni amalga oshirish sababli Amerika dunyodagi ko‘plab mamlakatlar ustidan kuzatuvini amalga oshiradigan labaratoriyalarni yaratishga muvaffaq bo‘ldi);
- nanotexnologiyalar;
- tarmoq va axborot texnologiyalari;
- molekulyar darajada ijtimoiy jarayonlar tahlili;
- atrof-muhit va energetika sohasidagi muammolar hal etish bilan bog‘liq texnologiyalar joriy etilishi [8].

AQSh davlatida yuqoridagilardan tashqari bilimlar iqtisodiyotini to‘liq rivojlanishiga quyidagi xatti-harakatlarini ham ajratib ko‘rsatish lozim:

- davlatning ilmiy tadqiqot ishlariga qiziqishi yuqoriligi, davlat byudjet xarajatlarining muayyan qismi shu yo‘nalishga yo‘naltirganligi;
- korporatsiyalarning davlat bilan teng ravishda ilmiy tadqiqot ishlaridagi faolligi;
- silikon vodiysi yirik korxonalarni birlashtira olgani;
- ishlab chiqarishning egiluvchanligi (har qanday vaziyatga moslasha olishligi);
- ta’lim, ilmiy infratuzilmani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani.

Shunday qilib, Isroil, Shvetsiya, AQSh misolida biz bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishida davlat asosiy rolni o‘ynaganini, shart-sharoitlarni yaratganligi, o‘zlarining o‘ziga xos milliy strategiyalarining muallifiga aylanganini ko‘rmoqdamiz. Mazkur mamlakatlarda innovatsion rivojlanish, tartibga solish mexanizmlari va innovatsion iqtisodiyotning samarali institutlarini rivojlanishda asosiy islohotchi davlat bo‘lib chiqadi. Bilimlar iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning davlat innovatsion siyosati, nafaqat ITTKI faoliyatini ta’minlash, balki xususiy firma-tashkilotlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirishga bo‘lgan harakati yuqoriligini ko‘ramiz. Ularda milliy bozorning investitsiyalar uchun jozibadorligini oshirish, turli xil bo‘g‘inlarning o‘zaro integratsiyasini kuchaytirishi, ilmiy tadqiqot ishlarni iqtisodiyotni rivojlantiruvchi kuch sifatida qabul qilishi bilimlar iqtisodiyoti uchun asos bo‘ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman, jahondagi ITTKIga sarf qiluvchi mamlakatlarning aksariyatida bilimlar iqtisodiyoti to‘g‘ri yo‘naltira olganligi, ilmiy tadqiqot ishlarni iqtisodiyotni yanada o‘sishiga sabab bo‘ladigan kuch ekanligini anglaganidadir. Bilimlar iqtisodiyotining amaliy holati innovatsion mahsulot va xizmatlarning ko‘plab joriy etilganligida namoyon bo‘ladi. Buni biz Singapur davlati misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Unda kichik biznes subyektlari faoliyatining faol darajada rivojlanishida mamlakatdagi qulay investitsiya muhiti sababchi bo‘lgan deb hisoblaniladi. Singapurda investitsiya sohasi bo‘yicha xizmatlar turlari zamonaviy talab darajasida, sohani rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilgan, hatto mamlakat aholisining 70–80 foizi shu sohada bandligi bilimlar iqtisodiyoti uchun mustahkam asos bo‘lgan. Shu sababli, bugungi kunda Singapur innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha 5-o‘rinni egallab kelmoqda va h.k. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik korxonalar katta korxonalarga qaraganda 4 barobar ko‘p nnnovatsiyalar, g‘oyalar yaratadi. Ilmiy tadqiqotga sarflangan har bir dollar evaziga kichik innovatsion korxonalar katta korxonalarga qaraganda 2,5 barobar ko‘p mahsulot yaratadi.

Umumiy holatda aytadigan bo‘lsak, ITTKI sarf-xarajatlari bo‘yicha birinchi 10 ta o‘rinni egallab turgan davlatlarda oxirgi o‘n yil ichida bilimlar iqtisodiyoti, bilimlar jamiyatining shakllanishi ilmiy bilimlarni ishlab chiqarish, texnologik innovatsiyalar, biznes va oliy ta’lim sohasining uzviyligi, innovatsion tovar va xizmatlarni yaratishda yuqori sarflar amalga oshirilishi bilan ajralib turibdi.

Bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasini ishlab chiqish va undan samarali foydalanishning xorij tajribalarini o‘rganganimizda, quyidagi xulosalar olindi:

- ilm-fan va ta’lim integratsiyasi innovatsion faoliyatda aks etadi;
- bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy kuch davlat hisoblanadi. U shart-sharoitni, qonuniy asoslarni mustahkamlash orqali bilimlar iqtisodiyoti uchun qulay muhit yaratadi;
- mamlakat iqtisodiyotida hal qiluvchi rolni AKT, axborot texnologiyalarida ekanligini anglash lozim. AT (axborot texnologiyasi) sohasasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni barcha sohalarga jalb etish va internet tezligini oshishiga ahamiyat berish lozim;
- ta’lim, ilm-fan va innovatsion faoliyatni sifat jihatdan kuchaytirish lozim;
- ilmiy faoliyatda davlat-xususiy sherikchiligi bilimlar iqtisodiyoti uchun zarur biznes-inkubatorlarni, intellektual sun’iy intellektlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova G. A. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ijtimoiy-madaniy infratuzilma va mehnatga bandlik muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2002. 30-b.
2. Доклад о человеческом развитии – 2011. Устойчивое развитие и равенство возможностей. Лучшее будущие для всех. – М.: 2012. – с. 13.
3. https://www.znak.com/2021-05-22/v_mire_za_pandemiyu_poyavilos_devyat_novyh_milliarderov_im_pomogla_sverhpribyl_ot_vakcin
4. Khasankhonova N. I., Abdulkhalilova S. N. R&D Expenditure As A Factor In The Development Of The Economy Of Knowledge. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research (ISSN– 2642-7478) December 08, 2020 | Pages: 9-16
5. Шурупова А. С. Зарубежный опыт формирования экономики, основанной на знаниях, и его адаптация к российским условиям. Вестник ТГУб выпуск 7 (75), 2009. – с. 14–15.
6. Ефимушкин С. Н., Сажаева Г. А. Инновационный путь развития экономики Израиля (мировой опыт). Вопросы инновационной экономики. Том 6. № 4. Октябрь-декабрь 2016. – с. 387–396.
7. Захарова Н. В., Лабудин А. В. Формирование инновационной экономики в Швеции: особенности и переспективы. Управленческое консультирование. № 10. 2019. – с. 41–42.
8. Ченцова М. В. Особенности формирования экономики знаний в современнқх условиях. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – М.; 2008. – с.17.

BIZNES INKUBATOR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SHAKLLANTIRISHDA “YASHIL LOGISTIKA” TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH

Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich
TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida logistika masalalarini hal etish, atrof-muhitga bo‘ladigan zararli omillar ta’sirini kamaytirishda yashil logistika mezonlarini ishlab chiqish va rivojlantirishning iqtisodiy yondashuvlari keltirilgan. Xususan, tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar biznes inkubatorlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘llari, yangi transport yo‘laklarini yaratish, yuklarni mul’timodal tashishni tashkil etishning iqtisodiy afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yuk, tashish, logistika, xalqaro, xarid, buyurtma, transport, davlat, yetkazish, eksport, import, mahsulot, ekologiya, zararni minimallashtirish.

Аннотация: в данной статье представлены экономические подходы к решению вопросов логистики в Республике Узбекистан, разработка и разработка критериев зеленой логистики для снижения воздействия вредных факторов на окружающую среду. В частности, выделены пути эффективного использования возможностей бизнес-инкубаторов предпринимателями и производителями, создание новых транспортных коридоров, экономические преимущества организации мультимодальных перевозок грузов.

Ключевые слова: Груз, перевозка, логистика, международная, закупка, заказ, перевозка, государство, доставка, экспорт, импорт, продукт, экология, минимизация ущерба.

Abstract: this article presents the economic approaches to solving logistics issues in the Republic of Uzbekistan, developing and developing green logistics criteria to reduce the impact of harmful factors on the environment. In particular, the ways of effective use of opportunities of business incubators by entrepreneurs and manufacturers, creation of new transport corridors, economic advantages of organizing multimodal transport of goods are highlighted.

Key words: cargo, transportation, logistics, international, purchase, order, transportation, state, delivery, export, import, product, ecology, damage minimization.

KIRISH

Ko‘p jihatdan, mamlakatlarning eksport rivojini asosan transport-logistika xizmatlarisiz tasavvur etish qiyin. Yurtimizda xorijiy davlatlar bilan muntazam olib borilayotgan hamkorlik munosabatlarining eng avvalida ham eksportga urg‘u berilyaptiki, natijada O‘zbekiston qisqa vaqt ichida tashqi bozorga xom ashyo yetkazib beruvchidan, tayyor mahsulot eksport qiluvchi mamlakatga aylanmoqda.

Logistika masalalarini hal etish, yangi transport yo‘laklarini yaratish bunga keng yo‘l ochadi. Bu borada vazifalar ham belgilangan. Xususan, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev, o‘tgan 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023-yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo‘shimcha 4 milliard dollarga oshirish asosiy maqsadlarimizdan biri ekanini ta’kidladi [1]. Joriy yilda Prezident farmoni bilan qabul qilingan Davlat dasturida esa 2026-yilga qadar mamlakatimiz eksport hajmini 30 milliard dollarga yetkazishdek katta maqsadlar qo‘yilgan [2].

Buning uchun logistika xizmatlarini nafaqat rivojlantirish, balki zamon talabiga moslashtirib borish ham taqazo etiladi. Ya’ni yuqorida ta’kidlanganidek, odamlarda tezkor, ekologik va arzon mahsulot hamda xizmatlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Logistika masalalari ham bundan mustasno emas. Tadbirkor va ishlab chiqaruvchilar esa ana shu talabga moslashmoqda.

Hatto logistika xizmatlarida “Yashillik”ka e’tibor kuchayishi ortidan, bu masala biznes majburiyatiga aylanib bormoqda.

Xo‘sh, bugungi kunda odamlar intilayotgan “Yashil” logistika o‘zi nima va uni qo‘llashning eng maqbul amaliyotlari nimalarda ko‘zga tashlanadi? Manbalarga ko‘ra, “Yashil” logistika ijtimoiy rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillarini hisobga olgan holda tovarlarni barqaror ravishda ishlab chiqarish va tarqatishni anglatadi. U logistika faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini o‘lchash va minimallashtirishga qaratilgan barcha harakatlarni tavsiflaydi [3].

Sodda qilib aytganda esa, “Yashil” logistika – bu logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali iste’molchilarga mahsulotlarni eng minimal xarajatlar evaziga, kelishilgan muddatda yetkazib berish hamda bu bosqichda atrof-muhitga bo‘ladigan zararli ta’sirni kamaytirish mezonidir. Ya’ni bu yerda buyurtmani ham tez, ham arzon, ham ekologiyaga zarar keltirmagan holda yetkazib berish nazarda tutiladi. U chiqindilarni boshqarish, utilizatsiya qilish, qadoqlash, qayta ishlash, energiya iste’molini kamaytirish va hokazolar bilan shug‘ullanadigan ta’minot zanjirini o‘z ichiga oladi. Bularning bariga logistika xizmatlarini zamonaviylashtirish va raqamlashtirish evaziga erishish mumkin.

Bunda logistika operatsiyalarining bari raqamlashtirish hisobiga osonlik bilan amalga oshiriladi. Raqamlashtirish, o‘z-o‘zidan qog‘oz ko‘rinishidagi xizmatlardan butkul voz kechish va buning natijasida, vaqt, ortiqcha xarajatlarni tejashga olib keladi [4]. Qarabsizki, energiya sarfi ham kamayib, chiqindilar chiqishi sezilarli qisqaradi. To‘g‘ri tanlangan texnologiya va ta’minot zanjiri iste’molchi talablariga yechim bo‘lish barobarida, yetkazib berish va brend imijini oshirish xarajatlarini ham kamaytirishi mumkin.

“Yashil” logistika 1980-yillarning o‘rtalarida paydo bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. U ish paytida atrof-muhitga yetkazilgan zararni minimallashtirish uchun ilg‘or texnologiyalar va uskunalardan foydalanadigan logistika tizimi va yondashuvlari ko‘rinishida yuzaga kelgan.

Tasavvur qiling, tadbirkor qaysidir viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Xaridorlari shaharlardagi bozorlar, supermarketlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari yoki xorij maydoni bo‘lishi mumkin. Toza mahsulot oxirgi xaridorga yetib borguniga qadar bir necha kungina vaqt bo‘ladi.

Shu vaqt ichida hosilni yig‘ib olish, qadoqlash, transport vositasiga yuklab, xaridorga yetkazish kerak. Mahsulot sifatli qadoqlansa-yu, logistika tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan yoki transportda saqlash uchun zarur sharoitlar bo‘lmasa, xaridor o‘zi kutgan mahsulotni ololmaydi. Mahsulotning sifati buzilishidan ishlab chiqaruvchi ham katta ziyon ko‘radi. Yaroqsiz mahsulotlar esa chiqindiga aylanib, tabiatga zarar yetkazadi. Bularning bari o‘zaro bog‘liq va shunday holatlarning oldini olish uchun ham “Yashil” logistikani rivojlantirish zarur.

Hozir aksariyat davlatlarning talabi ham shu – “Yashil” logistikani rivojlantirishdan iborat. Tizimni raqamlashtirish yo‘li milliy “Yashil” logistikamizni rivojlantirishda ham mos keladi. Qolaversa, mamlakatimizda barcha sohalarda jadal raqamlashtirish jarayonlari ketayotgan hozirgi sharoitda bu zaruriy ehtiyoj hamdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil logistika sohasini rivojlantirishda nazariy, uslubiy-amaliy, ekologik tizimni minimallashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy jarayon barqarorligini ta’minlaydigan hamda yuk tashish tizimi masalalarini integratsiyalash va mintaqalararo aloqalarni rivojlanishiga hissa qo‘shgan quyidagi xorijiy va mahalliy olimlarning ishlarida tadqiq qilingan: Xorijiy olimlardan, K. Aleksandrova, T. Alesinskaya, A. Albekova, B. Anikin, S. Bryukina, O. Belova, A. Brom, V. Vershina, M. Guriyeva, T. Zaxarova, G. Karpova, O. Malikova, A. Salovyanov, M. Zalmanova hamda mahalliy olimlardan, Q. Dadaboyev, F. Xujayev, A. Kucharov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

MUAMMONING BAYONI VA UNI YECHISH USULI

Logistika tizimiga mamlakat iqtisodiyotining qon tomiri, deya ta’rif berilishi bejiz emas. Boisi, samarador logistika ichki bozorda tayyor mahsulot va xom ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta’minlaydi, bozordagi raqobatni rag‘batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

O‘zbekiston geografik joylashuvi jihatidan O‘rta Osiyoning markazidagi davlatlardan biri. Demak, bizda boshqa mamlakatlar uchun “Xab” vazifasini bajarish imkoniyati katta. Ammo geografik nuqtayi nazardan, dengizga chiqish imkoniyatlarimiz cheklangan. Bu esa mahalliy mahsulotlarni eksport qilishda ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shunday sharoitda, biz mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishimizga to‘g‘ri keladi. Chunki yurtimizda tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berilayotgani hisobiga eksportyor korxonalar soni yildan yilga ortib, o‘zbek brendi ostidagi mahsulotlar yangi bozorlar, hatto Yevropa davlatlari savdo rastalariga kirib boryapti.

O‘zbekiston uchun Yevropa bozorlari 2021-yildan boshlab ochildi. Mamlakatimizning GSP+ tizimiga a’zo bo‘lgani ham katta voqelikdir. Bu tizim O‘zbekistondan eksport qilinadigan 6 ming turdan ortiq mahsulotlarni Yevropa Ittifoqidagi 28 ta davlatga olib kirish eshiklarini ochdi. Bu juda katta imkoniyat va unga moslashish, talablarni tahlil qilib, standartlarga javob berish ustida ishlar olib borilyapti. Mahalliy eksportyorlarga logistika masalalarida kengroq imkoniyatlar yaratish maqsadida yurtimizdagi havo va temir yo‘llari yangi loyihalar asosida qo‘shimcha qulayliklar yaratishga intilmoqda.

Logistika rivoji bevosita davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarining o‘sishiga borib taqaladi. Geografik va iqtisodiy jihatdan oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda transport oqimlarining yangi arxitekturasini shakllantirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz rahbari Markaziy Osiyoda “Yashil” transport-kommunikatsiya sohasini rivojlantirish tashabbusini faol ilgari surmoqda. Buni o‘zaro hamkorlikda boshlangan katta loyihalar, xalqaro maydondagi chiqishlar xronologiyasida ham kuzatish mumkin.

Bu yo‘llarning zarurligi shundaki, ular transport tashuvlarini ancha yengillashtiradi. Birgina, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston yo‘nalishining amalga oshirilishi Xitoydan Janubi–Sharqiy Yevropagacha bo‘lgan masofani 900 kilometrga qisqartiradi, bu 7–8 kunga teng degani. Mazkur yo‘l yangi transport koridorining muhim bo‘g‘iniga aylanadi va u orqali O‘zbekiston Xitoyning nihoyatda katta bo‘lgan savdo maydoniga kirib boradi.

Qolaversa, “Sharq–G‘arb” loyihasi doirasida O‘rta Yer dengizi portlariga qiyinchiliklarsiz chiqiladi. Vaqt va sarf-xarajatlarning qisqarishi eksport ko‘lamini oshiradi. Mahsulotlar belgilangan manzilga o‘z sifatini yo‘qotmagan holda, belgilangan muddatlarda yetib boradi. Buyurtmalarni tezkor va sifatini saqlagan holda yetkazish uchun esa zamonaviy transport infratuzilmasini yaratish zarur.

Mintaqamizdagi tranzit yo‘laklarining raqobatbardoshligini oshirish, biznes uchun eng qulay tariflarni joriy etish ham shular jumlasidan. Bularning hisobiga oxirgi yillarda mamlakatimizdagi yuk va yo‘lovchi tashish xizmatlarida o‘sish kuzatilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, o‘tgan yili barcha transport turlarida yuk tashish 6,5 foizga, yo‘lovchi tashish esa 2,9 foizga oshgan. Tranzit yuk tashish hajmi esa 10 million tonnadan oshib, xalqaro yuk tashishning umumiy hajmi 49 million tonnaga yetdi. Demak, minimal xarajat qilib sifatli va ekologik toza mahsulotni optimal variantlarni tanlab istemolchiga vaktida yetkazib berish, bu dunyo bozorlariga chiqishning talablaridan biridir.

Ekologik talablarga javob beradigan logistikada uchta asosiy mezon, ya’ni iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va ekologiya barqarorligi nazarda tutiladi. Bu mezon mahsulotlarni yetkazib berishda ularning tabiatga salbiy ta’siri bo‘lmasligi barobarida, iqtisodiy tejamkorligi ham zaruriy qiymatga ega. Hatto mahsulotlarni qadoqlashda joyni tejashni inobatga olish, foydalaniladigan xom ashyoni qayta ishlash mumkinligiga e’tibor qaratish zarur. Yashil logistika jarayoni tizimlarini tahlil qilishning miqdoriy usullari ham rivojlanmoqda va doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Umuman, bunda barcha jarayon sifatli, ekologik toza mahsulot yetkazib berishga qaratiladi. Raqamli texnologiya va zamonaviy qurilmalar esa ushbu jarayonlarning sifat hamda tezkorligini ta’minlaydi.

HISOBLASH NATIJALARI VA TAHLILI

Jahon iste’mol bozori yil sayin kengayib boryapti: talabga yarasha taklif ham yuqori. Iste’molchilar bir mahsulotning bir necha o‘nlab turlarini tanlash imkoniyatiga ega. Ammo masalaning boshqa tomoni ham bor, insoniyat so‘nggi yillarda atrof-muhit tozaligi, bu orqali o‘z salomatligi haqida jiddiy qayg‘ura boshladi. Natijada, dunyo bozorida ekologik toza mahsulotlarga talab ortib, odamlar atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadigan ishlab chiqaruvchilar, sotuvchi va brendlarni afzal ko‘rmoqda.

Masalan, Markaziy Osiyo–Fors ko‘rfazi transmintaqaviy yo‘nalishidan samarali foydalanish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlar tashabbusini olaylik. O‘zaro kelishuv asosida birinchidan, Janubiy Osiyoga chiqadigan Transafg‘on yo‘lagini tezroq shakllantirish, shuningdek, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston avtomobil va temir yo‘l magistrallarini qurishni jadallashtirish ko‘zda tutilgan. Ikkinchi yirik loyiha Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar temir yo‘lining qurilishidir.

Hududlarimizni o‘zaro bog‘laydigan bu yo‘l “Yashil” logistikaning asosiy elementi hisoblanadi. Qurilish loyihasi allaqachon qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, hozirda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Ishlab chiqaruvchi va buyurtmachi o‘rtasidagi tovarlar havo, temiryo‘l, dengiz yoki avtomobil yo‘li transportlari orqali bir manzildan ikkinchi manzilga yetkaziladi. Davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalari ham asrlar davomida shu tarzda amalga oshirib kelinmoqda.

Quyidagi 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki yashil logistika tizimlari qanchalik bir-biriga bog‘liq va ko‘pincha amalda ularni ajratish juda qiyin.



1 - r a s m: Yashil logistika jarayoni

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, yashil logistika jarayonidan olingan xavf qiymatlarini ham aniqlash va ruxsat etilgan maksimal qiymatlar bilan taqqoslagandan so‘ng, xavfni boshqarish strategiyasi ishlab chiqiladi va shu asosda xavfni oldini olish, kamaytirish choralari ko‘riladi. Xavfni minimallashtirish, dasturlash vazifalariga muvofiq eng kam xarajat va yo‘qotish bilan eng yaxshi natijaning eng katta ehtimolini ta’minlaydigan maqbul yechimni muqobil yechimlari to‘plamidan tanlash imkoniyati mavjud bo‘lganda, iqtisodiy xavfni miqdoriy baholashning roli sezilarli darajada oshadi.

Quyidagi sabablarga ko‘ra yashil logistika tizimlari samaradorligini oshirish uchun miqdoriy usullarni ham qo‘llash mumkin:

- tayyor mahsulotni ishlab chiqarish yoki tarqatish bilan shug‘ullanadigan deyarli barcha firmalar tomonidan logistika konsepsiyasidan foydalanish;
- korxonalarni rejalashtirish va boshqarish tizimida katta hajmdagi ma’lumotlarni tezda qayta ishlashga imkon beradigan axborot texnologiyalari sohasidagi jadal o‘sish;
- tayyor mahsulotni ishlab chiqarish yoki tarqatish bilan shug‘ullanadigan deyarli barcha firmalar tomonidan logistika konsepsiyasidan foydalanish;
- korxonalarni rejalashtirish va boshqarish tizimida katta hajmdagi ma’lumotlarni tezda qayta ishlashga imkon beradigan axborot texnologiyalari sohasidagi jadal o‘sish;
- korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish jarayonida axborot resurslari va texnologiyalaridan to‘liq foydalanish zarurligini anglash.
- tashqi muhitning noaniqligi sharoitida logistika tizimlarini loyihalash ko‘nikmalarini o‘zlashtirish;
- savdo va sanoat korxonalari tomonidan amalga oshiriladigan logistika funksiyalari va operatsiyalarini optimallashtirish usullari va modellarini o‘rganish;
- logistikada moliyaviy xatarlarni boshqarish samaradorligini miqdoriy tahlil qilishning nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘risida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning turli manbalarini jalb qilishni hisobga olgan holda savdo va sanoat korxonalarini investitsion rivojlantirish strategiyasini rejalashtirishdir.

Ishlab chiqarish va eksport ko‘lamining ortishi logistika xizmatlariga bo‘lgan talabni ham oshiradi. Raqamlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, yurtimizda eksportyor korxonalar soni besh yilda 4 ming 500 tadan 7 ming 200 taga ko‘paygan. Eksport qilinayotgan mahsulotlar turlari esa 1 ming 500 tadan qariyb 3 mingtaga oshib, mamlakatlar geografiyasi 164 taga yetdi. Mutaxassislar O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi asosiy davlatlardan biri sifatida eksport imkoniyatlarini yanada yuqoriroq baholamoqda.

Hozirgi vaqtda logistika sohasida moliyaviy va investitsiya resurslarini boshqarish sohasidagi qarorlarni optimallashtirishga qaratilgan ma’lum bir taqchilliklar mavjud. Ko‘p hollarda bu yagona bo‘lmagan yechimga ega bo‘lgan vazifadir [5, 6, 7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Yashil” logistika haqida gap borganida, uni transport vositalari tashuvidan holi tasavvur etish noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, hatto, onlayn buyutmalar ham mijozlarga ma’lum transport turi orqali yetkazib beriladi. Shunchaki, mijozlar tezkor, kamjarj va albatta, sifatli logistikaga ko‘proq talabgardir. Buyurtmalarni qabul qilish va boshqa jarayonlarning elektron amalga oshirilishi esa ana shu sifatning yanada oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda transport sohasi yalpi ichki mahsulotning 6,4 foizini, jami investitsiyalar hajmining 7,4 foizini, jami xizmatlar bozorining 29,5 foizini tashkil qiladi. Mutaxassislar 2030-yilga borib yurtimizning tranzit salohiyati 4,4 baravarga oshib, 6,04 milliard tonnagacha yetishini taxmin qilmoqda. Shu bilan birga, transport sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan ulushi 46,7 milliard dollargacha oshishi haqida taxminlar bor.

Xalqaro tashkilotlardan birining hisobotiga ko‘ra, hatto, iste’molchilarning 57 foizi tabiat tozaligiga hissa qo‘shish maqsadida onlayn xaridlarni tanlamoqda. Logistika, ya’ni, yetkazib berish xizmatlari iqtisodiyotning asosiy negizlaridan hisoblanadi. Odatda, bu vazifani transport vositalari bajaradi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish, tashqi savdo uchun transport tizimida “Yashil yo‘laklar” va tranzit imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari ham qo‘yilgan.

Bu mamlakatimizning jahon bozoridagi rolini mustahkamlab, ishonchli hamkorlar sonini ko‘paytirish, “Yashil” logistikani rivojlantirish, eksport ko‘lamini yanada oshirishga keng yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev, 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni, 28.01.2022-yil. //www.lex.uz
3. Александрова, К. “Зеленая” логистика позволила сэкономить 60 млн евро [Электронный ресурс]/К. Александрова. – Режим доступа:http: / / www.lenoblin-form.ru/apps/news/2011/11/08/zelenayalogistika-pozvolila sekonomit-okolo-mln-e/?cat_ids=3 (дата обращения: 10.04.2016).
4. Алесинская, Т.В. Основы логистики. Функциональные области логистического управления [Текст] / Т.В. Алесинская. – Таганрог: Издво ТТИЮФУ, 2010.– Ч. 3.
5. Альбеков, А.У. Проблемы логистики торговли средствами производства [Текст] / А. У. Альбеков. – Ростов н/Д, 1998. – 231 с.
6. Аникин, Б.А. Коммерческая логистика [Текст] / Б. А. Аникин, А. П. Тяпухин. – М.: Проспект, 2010.
7. Sh. Narzullayev. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida biznes inkubatorlarning innovatsion salohiyatini boshqarish. Iqtisodiyot va ta’lim / 2021-yil, 5-son. -322 b.

Internet saytlar:

1. www.lex.uz
2. www.gazeta.uz
3. www. Yangi O‘zbekiston
4. http://www.economy.gov.ru.

INNOVATSION FAOLIYATNING ASOSI – INTELLEKTUAL SALOHIYAT

Kaxorova Anora Nusratovna
TDIU “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: maqolada jamiyat taraqqiyoti uchun ilm-fan, intellektual salohiyat va bu borada sarflanadigan investitsiyalarning ahamiyati hamda ushbu jarayonning O‘zbekistondagi kechagi va bugungi holati, amalga oshirilayotgan islohotlar keng tahlil qilingan. Shuningdek, kelajakda jamiyat va ta’lim sohasini innovatsion rivojlantirish, aholi, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish va o‘zbek xalqining buyuk ajdodlari ijodini dunyoga targ‘ib qilish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, ta’lim, tarbiya, innovatsiya, investitsiya, salohiyat, mahorat, pedagogika.

Аннотация: в данной статье подробно анализируется значение науки, интеллектуального потенциала и инвестиций в этой связи для развития общества, а также вчерашнее и сегодняшнее состояние этого процесса в Узбекистане, проводимые в связи с этим реформы. Также в дальнейшем были выдвинуты предложения по инновационному развитию общества и сферы образования, повышению интеллектуального потенциала населения, особенно молодого поколения, популяризации в мире творчества великих предков узбекского народа.

Ключевые слова: наука, образование, воспитание, инновации, инвестиции, потенциал, навыки, педагогика.

Abstract: In this article, the importance of science, intellectual potential and investments in this regard for the development of society, as well as the yesterday and today’s state of this process in Uzbekistan, and the reforms implemented in this regard, are extensively analyzed. Also, in the future, proposals were put forward for innovative development of society and the field of education, increasing the intellectual potential of the population, especially the young generation, and promoting the creativity of the great ancestors of the Uzbek people to the world.

Key words: science, education, upbringing, innovation, investment, potential, skills, pedagogy.

KIRISH

Asrlar davomida erishilgan rivojlanish darajasi, takomillashtirilgan fanlarning nazariy va falsafiy hamda amaliy jihatlari asosan X asrdan boshlangan bo‘lsa, texnika va texnologiyalarni ixtiro qilinishi, ularni jadallik bilan rivojlantirish XIX–XXI asrlarga to‘g‘ri keladi, barcha innovatsion mahsulotlar aynan shu davrda yaratildi.

Ushbu davr ichida yuqori sur’at bilan rivojlanish darajasi dastlab “Buyuk ipak yo‘li” mamlakatlaridan Yevropaga, keyinchalik esa Amerika va Osiyo (Sharqiy Osiyo) qit’alariga o‘tgan. Erishilgan taraqqiyotning barchasi – ixtirolar, yangiliklar, kashfiyotlar, ya’ni innovatsion faoliyatning mahsuli hisoblanadi, ular ikki yuz yillikdan beri insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Innovatsiya” atamasi bugungi kunda juda keng qo‘llanilishi uning mazmun-mohiyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababdan mazkur atamaning iqtisodiy mazmun-mohiyatini tadqiq etgan va ochib bergan ayrim iqtisodchi-olimlarning qarashlarini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik. Jumladan, rus iqtisodchi-olimi I. T. Balabanov [7] fikriga ko‘ra: “innovatsiya – nazorat, hisob, rejalashtirish usuli, tahlilga qabul qilishning yangi shakllalarini qamrab olgan holda yangi texnika va texnologiyaga, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko‘rsatish, boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapitalni kiritishdan olingan moddiylashgan natijani o‘zida namoyon etadi”.

Shuningdek, A. B. Borisov [8] innovatsiyalarni quyidagicha ta’riflaydi: innovatsiya texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasini anglatadi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi-olimlar ham – innovatsiya atamasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish bo‘yicha katta izlanishlar olib borishgan va o‘zlarining zamonaviy talqindagi ta’riflarini ishlab chiqqanlar. Shular jumlasida iqtisodchi-olimlar R. I. Gimush, F. M. Matmurodovlar tomonidan innovatsiya deganda – yangilik va yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim, deya ta’rif berilgan.

B. E. Toshmurodova, N. Jiyanovalar [9] fikriga ko‘ra, innovatsiya tushunchasi o‘z ichiga faqat texnik izlanishlarni olmasdan, balki korxona ishi usulidagi barcha yaxshi o‘zgarishlarni (yangi xizmatlar, pastroq narxlar belgilash va boshqa mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratish) oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yer shari aholisining soni jadal sur’atlar bilan ko‘payib, mavjud resurslar esa qisqarib bormoqda. Milliard aholi XVII asrgacha shakllangan bo‘lsa, ikkinchi milliard aholi uchun 200 yil talab qilingan. Hozirga kelib, har bir milliard aholining o‘sishi uchun 20–30 yil yetarli bo‘lib qoldi. Inson hayoti uchun zarur bo‘lgan resurslarning chegaralanganligi, yil sayin ularni kamayib borishi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi muammolar har bir mamlakat oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa bo‘lib qoldi. Jumladan, 1994-yil O‘zbekiston aholisi 22,2 mln. kishi bo‘lib, yer maydoni 447,4 ming kv. km ni tashkil qilar edi. Bugunga kelib aholi soni 34 mln.ga yetdi, yer maydoni esa o‘zgarmaydi.

Ushbu global muammolarning yechimini topish uchun insondan idrok etishni, fikr-mulohazalar, ixtirolar qilishni talab qiladi, innovatsion faoliyatga zarurat shakllanadi.



1 - r a s m: Innovatsion rivojlanishni shakllantirish uslubiyati

Innovatsion rivojlanishni shakllantirish jarayoni asosan uchta ta’minlovchi mexanizmdan iborat va ularning mohiyati har xil miqdorga ega. Xususan, amaliy mohiyati bo‘yicha: birinchi o‘rinda intellektual salohiyat, ikkinchi o‘rinda investitsiya va uchinchi o‘rinda tashkiliy tizimlardan iboratdir. Intellektual salohiyat bo‘lmasa, investitsiyaga ham ehtiyoj qolmaydi, tashkiliy tizim ham zarur bo‘ymaydi. Hozirgacha, O‘zbekistonda ularning o‘zaro bog‘liqligining miqdoriy nisbati aniqlanmagan. Albatta, turli ixtiro va tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, nisbatlar har xil bo‘ladi. 1-rasm bo‘yicha MIR = A + B + S + D = 100%, bu yerda (A) ning salmog‘i yuqoriligiga shubha yo‘q.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, agar intellektual salohiyat (A) mazkur tizimda yetakchi bo‘lsa, mamlakatimizda intellektual salohiyatning holati qanaqa, potensiali qancha va uni yanada rivojlantirish uchun nima qilish kerak,va’lum bo‘ladi. Shuningdek, innovatsiyani rivojlantirishga, ilmiy tadqiqot-ixtirolarga ajratilgan investitsiyalardan (D) qay darajada samarali foydalanilmoqda kabi savollarga javob topish lozim bo‘ladi.

Inson tug‘ilishi bilan unda intellektual faoliyat shakllana boshlaydi va u har bir inson uchun turli nisbatga ega bo‘ladi. Bilim, ta’lim olayotgan bolalarimizni intellektual salohiyati bo‘yicha shartli ravishda uch guruhga bo‘lishimiz mumkin, ya’ni:



2 - r a s m: Millatning intellektual salohiyatini takomillashtirish mexanizmi

Tabiiyki, ikkinchi guruh birinchiga, uchinchi guruh ikkinchiga intiladi. Ushbu jarayonda asosan bilim beruvchi pedagog va uning mahorati, oila va atrof-muhit muhim hisoblanadi. Guruhda ta’lim olayotgan bolalar, talabalar yuqorida qayt etilgan uch guruhni tashkil qiladi, ya’ni, ular yuqori (IS1), o‘rta (IS2) va past (IS3) darajadagi intellektual salohiyatga egadirlar. Ularning salmog‘i fanlar va mutaxassislik bo‘yicha har xil miqdorga ega. Ushbu holatni to‘g‘ri baholab, o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish pedagogning mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda intellektual salohiyatni baholash bo‘yicha usullar va ba’zi ko‘rsatkichlar mavjud, ammo, ular to‘liq talablarga javob bermaydi, takomillashtirish lozim. Ya’ni qaysi omillar qay darajada intellektual salohiyatni oshirishini baholash muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirishga nasliy asos bor. Ya’ni tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyoda faqat O‘zbekistonda yashab, ijod qilgan allomalarimiz al-Xorazmiy, al-Buxoriy, al-Farg‘oniy, Ali Abu ibn Sino, Ulug‘beklar tomonlaridan yaratilgan va butun dunyo-insoniyat tan olgan fundamental fanlar bugungi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Ular tomonidan yaratilgan matematika, astranomiya, tibbiyot, fizika, tabiiy fanlar, qonunshunoslik hamda falsafa kabi fundamental fanlar asrlar davomida insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

Afsuslar bo‘lsinkim, sobiq Ittifoq davrida yuqorida qayt etilganlar ya’ni, dunyoviy bilimlarga asos solgan allomalarimiz hayoti va ijodi, ularning ixtirolari haqidagi manbalar, axborotlarni xalqimizga ayniqsa, yoshlarga yetkazib bera olmadik. Bu borada Maskva tomonidan ma’qul darajada to‘siqlar, cheklanishlar mavjud edi. Shuni ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida xususan, 2017-yilgacha hech qanday to‘siqlar, chegaralanishlar yo‘q davrda ham ilmiy tadqiqotlarning mamlakatni rivojlantirishdagi o‘rniga, rivojlanishning asosiy lokamativi ekanligiga, qadr-qimmatiga yetarli darajada e’tibor berilmadi. O‘zbekiston fanlar akademiyasi yo‘qolish darajasiga kelib qolgan edi, ba’zi ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. O‘zbek xalqining g‘ururi olimu-allomalarining hayoti va ijodi, ularning ixtirolari haqidagi axborotlar matbuot, radio-televideniyada qisman yoritilib berildi. Fikrimizcha, bu yetarli emas edi. Ular haqida yozilgan adabiyotlar yetarli nushada chop etilmaganligi sababli ommaning, yoshlarimizning talabini to‘liq qondira olmadik. Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga ham yetarli e’tibor berilmadi. Jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Singapur mamlakatlarining rivojlanish cho‘qqisiga chiqqan yillar ilmiy tadqiqotlarga Davlat byudjetidan yetarli miqdorda mablag‘lar ajratilgan edi.

Respublikada ilmiy salohiyatni yanada oshirish, yoshlarni ilmiy tadqiqotga, yaqindan yangi ixtirolarni amalga oshirishga undash, o‘zbek millatini ilm-fan sohasidagi buyuk allomalarning hayoti va ijodini yanada chuqurroq o‘rganish, ularni xalqaro darajada targ‘ibot qilish maqsadida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro fondlar hamda muzeylar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Taklif sifatida, Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkilotchiligida al-Xorazmiy xalqaro fondi va muzeyi O‘zbekiston fanlar akademiyasining Matematika ilmiy tadqiqot institutida, Beruniy xalqaro fondi va muzeyi Urganch davlat universitetida, Abu Ali ibn Sino xalqaro fondi va muzeyi Buxoro davlat tibbiyot institutida, Mirzo Ulug‘bek xalqaro fondi va muzeyi Samarqand davlat universiteti tarkibida shakllantirish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlar innovatsion faoliyat uchun moliyaviy resurslarni davlatning xususiy manbalardan to‘playdilar. G‘arbiy Yevropaning ko‘pgina mamlakatlari uchun moliyaviy resurslarni ITTKI uchun davlat va xususiy kapital o‘rtasida teng taqsimlanishi xosdir. Ma’lumki, ilmiy salohiyat birinchi navbatda fanlarning fundamenti tadqiqotlarni rivojlantirishga investitsiyalarning hajmi, patentlar va litsenziyalarning soni, jahon ilmiy adabiyotiga ulush va boshqalar bilan belgilanadi.

Xalqaro fondlarning mablag‘ jihatdan shakllanishi ichki va tashqi tushumlardan iborat bo‘ladi, ya’ni, Innovatsion rivojlanish vazirligidan, yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot institutlaridan, oliy ta’lim muassasalaridan, YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlardan, ixtiyoriy darajada tashkilotlar va jismoniy shaxslar hamda xorijiy mamlakatlardagi o‘zbekistonlik fuqarolar hisobidan shakllantirish mumkin.

Fond mablag‘laridan allomalarning hayoti va ijodi, ixtirolari natijalarini o‘rganish, xorijiy mamlakatlardagi ularning qo‘lyozmalarini olib kelish, bir necha tillarda tarjima qilib, yetarli nusxada chop etish, fundamental fan

sifatida yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar o‘tkazish va axborot disklari tayyorlanib, mamlakat hududida hamda xorijiy mamlakatlar ilm ahliga ulardan ommaviy targ‘ibot uchun foydalanishga sarflanadi. Natijada, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan innovatsion faoliyat ko‘rsatayotganlar uchun, ayniqsa, yoshlarimizni ma’lum darajada ilmiy tadqiqot ishlariga yanada ko‘proq yo‘naltirishga va buyuk allomalarimiz haqida xorijiy mamlakatlarda ham targ‘ibot qilishga imkoniyat yaratiladi. Har uch yilda bir marta matematika, tibbiyot, astranomiya kabi fundamental fanlarning muammolariga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar Buxoroda tibbiyot yo‘nalishida, Xorazmda matematika fanlari bo‘yicha, Samarqanda astranomiya fanlari bo‘yicha o‘tkazilsa, jumladan, dunyoning yetuk matematiklari, astranomiklari yig‘iladi. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ular O‘zbekistonda olib borilayotgan innovatsion faoliyat va erishilayotgan natijalar bilan tanishadilar. Biz esa ularning ilmiy faoliyatlari natijalarini bilib olamiz. Shuningdek, o‘zaro fikr almashish natijasida fundamental fanlarning yanada tezroq rivojlanishiga asos yaratiladi.



3 - r a s m: 2001–2022-yillarda buyun dunyoda ilmiy-tadqiqot va rivojlanishga xarajatlar va YaIM ning o‘sishi
Manba: The Global Innovation Index 2021

Yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot ishlariga xarajatlar YaIMning 3 foizga yaqinini tashkil qiladilar. Moliyalashtirish tizimi orqali innovatsion faoliyatni rivojlantirish mumkin. Innovatsion faoliyatda korxonalar, sanoat kompaniyalari, moliya sanoat guruhlari, kichik innovatsion biznes, investitsion va innovatsion fondlar, mahalliy boshqaruv jarayonlarida ishtirok etadilar.

Fond mablag‘laridan allomalarning hayoti va ijodi, ixtirolari natijalarini o‘rganish, xorijiy mamlakatlardagi ularning qo‘lyozmalarini olib kelish, bir necha tillarda tarjima qilib, yetarli nusxada chop etish, fundamental fan sifatida yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar o‘tkazish va axborot disklari tayyorlanib, mamlakat hududida hamda xorijiy mamlakatlar ilm ahliga ulardan ommaviy targ‘ibot uchun foydalanishga sarflanadi. Natijada intellektual salohiyatga ega bo‘lgan innovatsion faoliyat ko‘rsatayotganlar uchun, ayniqsa, yoshlarimizni ma’lum darajada ilmiy tadqiqot ishlariga yanada ko‘proq yo‘naltirishga va buyuk allomalarimiz haqida xorijiy mamlakatlarda ham targ‘ibot qilishga imkoniyat yaratiladi. Har uch yilda bir marta matematika, tibbiyot, astranomiya kabi fundamental fanlarning muammolariga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar Buxoroda tibbiyot yo‘nalishida, Xorazmda matematika fanlari bo‘yicha, Samarqanda astranomiya fanlari bo‘yicha o‘tkazilsa, jumladan dunyoning yetuk matematiklari, astranomiklari yig‘iladi. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ular O‘zbekistonda olib borilayotgan innovatsion faoliyat va erishilayotgan natijalar bilan tanishadilar. Biz esa ularning ilmiy faoliyatlari natijalarini bilib olamiz. Shuningdek, o‘zaro fikr almashish natijasida fundamental fanlarning yanada tezroq rivojlanishiga asos yaratiladi.

Moliyaviy ta’minotsiz innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirib bo‘lmaydi. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar solsak, mamlakatni innovatsion rivojlanishini ta’minlash uchun ilm-fanga davlat byudjetidan eng kamida 2 va undan ortiq foizda mablag‘ ajratilishi lozim ekan. Yaponiya, Janubiy Koriya, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar 3–5 foiz mablag‘ ajratilgan yillari yuqori o‘sish darajasiga erishganlar. O‘zbekistonda 2017-yilgacha ushbu ko‘rsatkich 0,3 foizga ham yetmas edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyatga alohida e’tibor qaratib, o‘z ma’ruzalarida innovatsion yondashuvsiz, ilm-fan taraqqiyotisiz mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta’minlab bo‘lmasligini ta’kidlagan edilar. Keng qamrovli ziyoliy-olimlar muxokamasidan so‘ng 2019-yil 29-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Iml-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni hayotga tatbiq qilishning amaliy jihatlarini ta’minlash maqsadida Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika Kengashi tashkil qilindi. Ularni tashabbuslari bilan Fanlar akademiyasi va uning tarkibidagi Ilmiy tadqiqot institutlari yangi talablar asosida qayta shakllantirildi. Ushbu tizimdagi ilmiy muassasalar soni 20 tadan 35 taga yetkazildi. Har yili amalga oshiriladigan akademiklikka saylanish jarayoni yana davom yettiriladigan bo‘ldi. Akademiklar, ilmiy xodimlar moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirildi. O‘tgan uch yil davomida ilmiy xodimlarni moddiy rag‘batlantirish maqsadida ularning ish haqlari 3 barobar oshirildi. Ilmiy darajaga ega bo‘lgan fan doktorlar va nomzodlari hamda o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha (PhD) doktorlari uchun alohida ustama haq belgilandi.

Mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, qisqa muddat ichida uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish uchun innovatsiyani tub mohiyatini ochib bergan Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida “... biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz” deb ta’kidladilar. Mamlakatimizda 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlashni taklif qilinganligi bejiz emas. Shundan kelib chiqib, ilm-fan hamda raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlariga yetarli miqdorda mablag‘ ajratiladi. Bir necha o‘nlab Davlat dasturlari, fundamental amaliy loyihalarni bajarish vazifa qilib belgiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tashabbuslari asosida Innovatsion vazirlik tashkil qilindi, qisqa vaqt ichida vazirlikning tashkiliy tizimi, tarkibi shakllantirildi, kerakli mutaxassislar bilan ta’minlandi. Vazirlik oldida innovatsion faoliyatni samarali tashkil qilish, ilm-fan yo‘nalishlarini koordinatsiya qilish, ularni o‘zaro bog‘liqligini baholash, buyurtmalarini talablar asosida ilmiy tadqiqot loyihalarini shakllantirish va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari muammolarining yechimini topishga ko‘proq investitsiya kiritish hamda innovatsion faoliyat natijalarini amalda keng qo‘llashni tashkil qilish, tadqiqotlar natijalarini tijoratlash kabi vazifalar qo‘yildi.

Albatta, innovatsion faoliyatni murakkab jarayonligini hisobga olsak, yuqorida qayt etilgan muammolarning samarali, oqilona va muqobil yechimini topish uchun yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar kerak. Davlatimiz rahbari ushbu muammoga alohida e’tibor qaratib, Oliy Majlisga murojaatnomasida “... tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab, oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik”. Shuningdek, Murojaatnomada maktablarning o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish, oliy ta’lim standartlarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘qitiladigan fanlarni qayta ko‘rib chiqish hamda mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar sonini 2 barobarga qisqartirish kabi vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekiston yoshlari – bolalarimizning ilmiy salohiyatga moyilligi, ongli tafakkuri va aql-idroki hamda fikrlashi boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini alohida ta’kidlash mumkin. Buni butun dunyo tan olgan buyuk allomalarimiz yurti O‘zbekiston bo‘lganligi uchun nasliy omil desak xato bo‘lmaydi. Ushbu holatni mustaqillik yillarida yoshlarimiz xalqaro darajadagi ko‘plab tanlovlarda o‘zlarining yutuqlari bilan asoslab berdilar. Ayniqsa, fundamental fanlar – matematika, kimyo, shuningdek, musiqa hamda sportning ko‘plab turlaridan jumladan, shaxmat kabi aqliy yo‘nalishlardan butun jahon olimpiadalarining sovrundorlari bo‘lishmoqda. Birgini Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi matematika faniga ixtisoslashgan maktabdan oxirgi 20 yil ichida 37 tadan ortiq o‘quvchilar matematika fanidan jahon fan olimpiadasi sovrindorlari bo‘lishdi. Agar ushbu maktab murabbiylari moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirilsa, ularning o‘quv-metodik hamda pedagogik mahoratlarini asos qilib barcha viloyatlarda tashkil qilinsa, fan sohasidagi olimpiada g‘oliblari yanada ko‘proq bo‘lardi. Ushbu ijobiy yutuqlar yaxshi, o‘zimizniki, lekin, yoshlarimizning intellektual salohiyatini ko‘rsatish borasida foydalanilmagan imkoniyatlarimiz, zaxiralarimiz ko‘p.

Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 10-sentyabr kuni Toshkent shahridagi Prezident maktabiga tashrifda chog‘ida pedagoglar bilan muloqotida “... men sizlarga eng katta boyligimni ishonib topshiryapman. Bolalarimizning ko‘zini, bilimini, g‘urur-iftixorini ko‘rib, yo‘limiz to‘g‘ri ekaniga ishonch hosil qildim. Islohotlarimizga, farzandlarimiz tarbiyasiga yelkadosh bo‘lganingiz uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman” – deya ta’kidlagan edilar.

Aksariyat ota-onalar farzandlarining qabilyatidan, qaysi fanni yaxshi ko‘rishi, yaxshi o‘zlashtirishidan qat’i nazar ularning kasb tanlashini cheklab qo‘yishadi. Farzandi fundamental fanni qiziqib, yaxshi o‘qib, o‘zlashtirgan bo‘lsa ham ba’zi ota-onalar o‘z farzandining qobilyatini, imkoniyatini inobatga olmasdan – sen huquqshunos yoki iqtisodchi yohud bojxona sohasidagi kasbga ega bo‘lasan deb bolaning taqdirini hal qilishadi. Bu albatta bolaning intellektual salohiyatidan amalda to‘liq foydalanish nuqtayi nazaridan salbiy holatdir.

Tan olish kerak, ushbu sohaga yetarlicha e’tibor bermaymiz. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanadiganlarning o‘zini ovqatlanish ratsioni, aqliy mehnat sohasida faoliyat ko‘rsatuvchilarning o‘z ratsioni bo‘lishi lozim. Buning uchun O‘zbekistonda boshqa mamlakatlarga nisbatan imkoniyatlar ko‘proq ya’ni, intellektual salohiyatni oshirishga imkoniyat beruvchi oziq-ovqat ratsioni – yong‘oq, mayiz, asal, sarimsoq, tuxum, baliq kabi mahsulotlar o‘zimizda tabiiy sharoitda yetishtiriladi. Faqat, biz ota-onalardan, tarbiyachi-pedagoglardan talab – farzandlarimiz aql-zakovatini oshirishga yordam beradigan ovqatlanish ratsionidan foydalanishimiz lozim. Afsuski, biz ota-onalar bunga e’tibor bermaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot mavzusini o‘rganish davomida shuni tushunib yetdimki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun har bir tashkilot harakat qilishi lozim. Hozirgi tezlikda rivojlanib borayotgan davrda an’anaviy iqtisodiyot bilan boshqa mamlakatlar bilan raqobatga kirishib bo‘lmaydi. Buni dunyodagi kuchli rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ham ko‘rib chiqdik. Ular mablag‘larining juda katta qismini ilmiy tadqiqot ishlanmalariga, rivojlanishga yo‘naltiradilar, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishni qo‘llab-quvvatlaydilar.

Jahon miqyosida raqobatbardosh va fanga asoslangan iqtisodiyot kuchli ilmiy tadqiqot va rivojlantirish ekotizimining yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o‘sishini kuchli ilmiy tadqiqot va rivojlanish ekotizimi ta’minlab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev barcha mutassaddi tashkilotlar oldiga qo‘ygan topshiriqlariga binoan mamlakatimizda innovatsion muhitni rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda Global innovatsiyalar indeksi ko‘rsatkichida 2030-yilga kelib 50-pog‘onagacha ko‘tarilishi zarur.

Mutaxasislarni o‘z sohalarida kiritilgan innovatsiyalar bo‘yicha yiliga kamida bir marta o‘qitish, ularga mavzu bo‘yicha mamlakatimizdagi va xorijdagi metodlarni o‘rgatib borish, iloji bo‘lsa xorijda tajriba orttirishni yo‘lga qo‘yish lozim;

Yosh mutaxasislarni tajribali mutaxassislarga biriktirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 464-I-son Qonuni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 463-I-son / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya prezidenti devoni xalq kutubxonasining tantanali ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2020-yil 21-fevral, №38 (7540), 1 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2020-yil 25-yanvar, №19 (7521), 2-4 betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 31-yanvar kuni poytaxtimizning Olimlar ko‘chasidagi ilmiy-tadqiqot institutlariga tashrifi chog‘idagi nunqi // Xalq so‘zi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2020-yil 1-fevral, №24 (7526), 1-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 10-sentyabr kuni Toshkent shahrida ish boshlagan Prezident maktabiga tashrifi chog‘idagi nunqi // Xalq so‘zi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2019-yil 11-sentyabr, №188 (7418), 1-bet.
7. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент, 2001.
8. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2000.
9. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2006. – 11-b.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonuni. www.lex.uz
11. Махмудов Н., Акабирова Д. Стратегия инновационного развития промышленности Республики Узбекистан в период модернизация экономика. Монография – Т.: “Иқтисодиёт” 2011 г. 331 стр.
12. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI BAHOLASH MEZONLARI TUSHUNCHASI VA TURLARI

Qahramon Usmanovich Umidullayev
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq institutining katta ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: mazkur maqolada ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari tushunchasi, ularning turlari va yondashuvlari yoritib berilgan. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ushbu tushunchaga berilgan ta’riflar tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlari faoliyatini mezonlar asosida baholash borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganilib tahlil qilingan, baholash mezonalari borasida tegishli takliflar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijro hokimiyati organlari, mezon, baholash, normativ-huquqiy hujjatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие критериев оценки эффективности деятельности органов исполнительной власти, их виды и подходы. Определения, данные этому понятию, были проанализированы учеными и специолистами.

Также были изучены и проанализированы нормативные правовые акты, принятые в Республике Узбекистан на основе критериев оценки деятельности органов исполнительной власти, внесены соответствующие предложения и рекомендации относительно критериев оценки.

Ключевые слова: Органы исполнительной власти, критерии, оценка, нормативные правовые акты.

Abstract: This article discusses the concept of criteria for evaluating the effectiveness of the activities of executive authorities, their types and approaches. The definitions given to this concept have been analyzed by scientists and specialists. Also, the regulatory legal acts adopted in the Republic of Uzbekistan on the basis of the criteria for evaluating the activities of executive authorities were studied and analyzed, and relevant proposals and recommendations were made regarding the evaluation criteria.

Key words: Executive authorities, criteria, assessment, regulatory legal acts.

KIRISH

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash muayyan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Baholash mezonlarini to‘g‘ri tanlash baholash amaliyotining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Baholash mezonlarini aniq belgilash ushbu organlar faoliyatiga xolis va asosli baho berishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Mezon” yunoncha “kriterion” [1], rus tilida esa “kriteriya” [2] so‘zi bilan ifodalanadi. Yana bir elektron lug‘atda “mezon yunoncha sriteria – farqlash qobiliyati, qaror qabul qilish vositasi, o‘lchov, biror narsaning talablarga muvofiqligini baholash uchun belgi, asos, qaror qabul qilish qoidasi”, – deb ko‘rsatilgan [3]. Xorijiy so‘zlar lug‘atida mezon so‘ziga “mezon – hodisalar, jarayonlar, holat va boshqalarning sifati, mazmuni o‘lchovi, ular to‘g‘risidagi fikrning alomati, uning son o‘lchovlari ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topishi”, – deb ta’rif berilgan [4, 262-b.].

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan A. V. Achkasovning fikriga ko‘ra, “mezonlar umuman davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini baholash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan xususiyatlar guruhini hamda alohida boshqaruv qarorlarini o‘z ichiga oladi. Bunday baholash nafaqat davlat uchun, balki jamiyat uchun ham zarur bo‘lib, bu davlat muassasalari faoliyatini kuzatish imkonini beradi” [5, 209–212-b.].

Yuqoridagilarga asoslanib, mezon so‘ziga, xususan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlariga bir nechta ta’riflar berish mumkin.

Mezon – obyektning talablarga (o‘lchov) muvofiqligini baholash uchun asos, qaror qabul qilish vositasi.

Mezon – baholanayotgan obyektning faoliyati yoki jarayonning natijasi, uning xususiyatini aniqlash vositasi.

Mezon – obyekt yoki hodisani tavsiflash uchun asos, noaniqliklarini bartaraf etish, muammoni hal qilish, soddalashtirilgan yechim orqali qo‘shimcha ma’lumot olish vositasi.

Mezon – biror narsa, hodisa yoki faoliyatga baho berish, uning xususiyatlarini aniqlash, ta’riflash, tavsiflash va tasniflash vositasidir.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida ularga yuklatilgan vazifalarni bir nechta mezonlarga aylantirish va ular asosida ushbu organlarning faoliyatiga har tomonlama va asosli baho berish vositasi hisoblanadi.

Mezonlar orqali sifat va miqdor aniqlab, belgilab olinadi. Mezonlar maqsadga muvofiqlik talablariga javob berishi kerak. Maqsadga muvofiqlik rejalashtirilgan miqdor, sifat va natijaga erishish bilan izohlanadi.

“Muammoli vaziyatni tavsiflash uchun ishlatiladigan mezonlar to‘plami quyidagi talablarga javob berishi kerak:

To‘liqlik – mezonlar majmuasi ko‘rib chiqilayotgan muammoning barcha muhim tomonlarini, uni hal qilish sifatini va variantlarning asosiy xususiyatlarini aks ettirishi kerak;

Parchalanuvchanlik (razlojimost) – mezonlarning tarkibi muammoni tavsiflash va tahlil qilishni soddalashtirishi, variantlarning turli xususiyatlarini va muammoni hal qilish sifatining turli tomonlarini baholashga imkon berishi kerak;

Ortiqcha bo‘lmasligi – mezonlar soni muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan minimal bo‘lishi kerak, mezonlar o‘z mazmuniga ko‘ra bir-birini takrorlamasligi kerak;

Oshkoralik – mezonlarning mazmuni va ma’nosi, mezonlar shkalasi bo‘yicha baholash matni qaror qabul qilish jarayonlari barcha ishtirokchilari tomonidan aniq tushunilishi kerak” [6].

I. N. Bartsitsning fikriga ko‘ra, “davlat boshqaruvining “samaradorlik mezonlari” tushunchasi boshqaruv tizimining belgi va xususiyatlari majmuyi bo‘lib, butun boshqaruv tizimi va alohida boshqaruv qarorlarining samaradorligi bilan baholanadi. Baholash asosini tashkil etuvchi xususiyati uning tasnifi va tavsifi yoki mezoni orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, qo‘yilgan maqsadlar va erishilgan natijalar asosida baholash, baholash muvofiqligi hisoblanadi” [7, 8-b.].

A. N. Savrukov va N. T. Savrukovlar baholash mezonlari ijro etuvchi hokimiyat organlarining barcha sohalarini qamrab olishi, maqsadlarga erishilganlik darajasini har tomonlama baholashi, byudjet xarajatlarini samarali boshqarish, tejamkorligini ta’minlashi, qiyosiy tahlil qilish imkoniyati mavjudligi, nomutanosibliklar va muammolarni aniqlashga imkon berishi lozim. Ularning fikriga ko‘ra, ushbu metodologiyaga muvofiq quyidagi mezonlar guruhi mavjud:

- rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, demografik holat va sog‘liqni saqlash samaradorligi;
- fuqarolarning turmush darajasi;
- moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligi;
- ta’limning rivojlanish darajasi;
- fuqarolar xavfsizligini ta’minlash;
- uy-joy kommunal xizmatlarining holati;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan aholining qoniqish darajasi” [8].

A. V. Achkasovning fikriga ko‘ra, “mezonlar umuman davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini baholash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan xususiyat yoki xususiyatlar guruhini hamda alohida boshqaruv qarorlarini o‘z ichiga oladi. Bunday baholash nafaqat davlat uchun, balki jamiyat uchun ham zarur bo‘lib, bu davlat muassasalari faoliyatini kuzatish imkonini beradi” [9, 209–212-b.].

Fikrimizga ko‘ra, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlari natijadorlikka qaratilgan boshqaruv talablariga javob berishi hamda jarayonlarning uyg‘unligi va yaxlitligini ta’minlashi kerak. Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlarini tanlashda nafaqat iqtisodiy, balki mamlakatda ijtimoiy, siyosiy jarayonlarning barqarorligini ta’minlashga javob beradigan mezonlarga ham e’tibor qaratish lozim. Umuman olganda ko‘pchilik davlatlarda baholash mezonlari sifatida fuqarolarning xavfsizligi, turmush darajasi, tug‘ilish ko‘rsatkichlari, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi, aholining real daromadlari kabi mezonlar asosiy mezonlar sifatida qabul qilingan.

Shuningdek, ko‘pchilik davlatlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga baho berish vositalaridan biri sifatida ularning faoliyati natijalaridan jamoatchilikning qoniqishini aniqlash maqsadida jamoatchilik o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga asoslanish tartibi ham joriy etilgan. Misol uchun, ta’lim, sog‘liqni saqlash, xizmatlar ko‘rsatish sifati va tezligidan aholining qoniqish darajasi.

Shu o‘rinda Prezident Sh.M. Mirziyoyevning “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qiladigan vaqt keldi. Bundan keyin joylardagi rahbarlar faoliyatiga, birinchi navbatda, ular boshqarayotgan hududdagi aholidan tushayotgan murojaatlar soni, ularning xalq ichida yurishi, mavjud muammolarning amaliy yechimiga qarab baho beriladi. Qisqa qilib aytganda, rahbarlarga xalqning o‘zi baho beradi”, – deb ta’kidlaganini eslash o‘rinlidir [10, 152-b.].

Fikrimizga ko‘ra, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlarini tanlashda samarali davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti talablarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Samarali davlat boshqaruvining nazariy asoslari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan V. I. Yakunin va S. S. Sulakshinlarning fikriga ko‘ra, “davlat boshqaruvi samaradorligining asosiy mezoni bu – boshqaruv faoliyati natijasi bo‘lgan qarorlardir. Ularning ta’kidlashicha davlat boshqaruvi samaradorligi avvalambor oshkoralik, ommaviylik mezoniga qaratilgan. Shu sababli, samaradorlik deganda davlat boshqaruvi doirasida ommaviy ravishda e’lon qilingan maqsad va qadriyatlarni amalga oshirish tushuniladi” [11].

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilashda samarali davlat boshqaruvi talablariga asoslanish tanlangan mezonlarning maqsadga muvofiqlik talabiga javob berishini ta’minlaydi. To‘g‘ri tanlangan va asoslantirilgan mezonlar ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini har tomonlama baholash va qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Baholash mezonlarni tanlashda asosiy e’tibor albatta tegishli qonunchilik normalari bilan ularga yuklatilgan vazifalarga qaratiladi. Shuningdek, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash uchun umumiy bo‘lgan mezonlar ham bo‘lishi mumkin.

Misol uchun, baholanayotgan organda korrupsiya holati, ushbu organ faoliyatidan foydalanuvchilarning qoniqish darajasi, xodimlarning xorijiy tillarni bilish darajasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2021-yil 19-maydagi nutqida “Keyingi yildan davlat idoralariga ishga qabul qilish va yangi lavozimga tayinlashda xorijiy tilni bilish majburiy bo‘ladi”, – deb ta’kidladi [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat xizmatchilarining chet tilini bilish darajasi bo‘yicha baholash ularining til bilish darajasini yanada yaxshilashga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishiga hamda xorijiy hamkorlar bilan ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Prezident Sh. M. Mirziyoyev o‘z nutqida “har bir vazirlik, idora, davlat kompaniyalari va yirik xususiy korxonalarda chet tillarini o‘rganishni ommalashtirishimiz zarur. Bunda haftaning bir kuni xorijiy tillarni o‘zlashtirish va o‘rganish kuni etib belgilanadi. Buning uchun, vazirlik va idoralar, hokimliklar oliygoh va xususiy ta’lim tashkilotlari mutaxassislarini shartnoma asosida jalb qilib, xodimlarga chet tilini o‘rgatishni va xorijiy tillarda ishlashni yo‘lga qo‘yadi”, – deb ta’kidladi [13].

Shuningdek, “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 227-bandida Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish belgilangan. Unga ko‘ra:

- chet tillaridan bakalavriat yo‘nalishidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- chet tillaridan tan olingan xalqaro sertifikatlarning ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish;
- bosqichma-bosqich chet tili (ingliz, fransuz, nemis, rus) fanlaridan maktab dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy darsliklarni yaratish;
- xorijdan ingliz va rus tili o‘qituvchilarini jalb qilish nazarda tutiladi”, – deb belgilangan [14].

Ma’lumki, davlat boshqaruvi hamda davlat xizmatlari sifati va samaradorligini ta’minlashda xorijiy tillarni yaxshi o‘zlashtirgan kadrlar muhim hisoblanadi. Davlat xizmatchilari faoliyatini baholash mezonlari ro‘yxatiga xorijiy tilni bilish darajasini ham kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu davlat xizmatchilarining til o‘rganishga intilishlariga, chet tillarini o‘rganishni tezlashtirishga, davlat xizmatchilari o‘rtasida xorijiy tillarni bilish darajasining ortishiga hamda islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyati organlari foliyatini baholash mezonlarni tanlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida [15] “barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha muammolarni o‘rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilanishi nazarda tutilganini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Umuman olganda baholash mezonlari baholash jarayonlarining asosiy va muhim, tarkibiy qismi hisoblanadi. Baholash mezonlarini to‘g‘ri va aniq belgilab olish baholash tizimidan ko‘zlangan maqsadga erishishda asosiy vazifa hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari ko‘p va ularning faoliyati serqirra ekanligi ularning faoliyatini baholash ko‘plab mezonlarni talab qilishini anglatadi. Shuningdek, baholash mezonlarini aniq tanlash ularning funksional vazifalari chegaralarini aniq belgilab qo‘yilishini ham talab qiladi.

Hozirgi amaliyotda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholashda maxsus yoki qo‘shimcha mezonlar kabi tushunchalar ham mavjud. Maxsus yoki qo‘shimcha mezonlar ham baholanayotgan davlat organining vazifalari va funksiyalari talablariga muvofiq va albatta huquqiy hujjat bilan tasdiqlanishi shart.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish jarayonlarida ular o‘rtasida takrorlanuvchi funksiyalarni aniqlash va ularni optimallashtirish, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish orqali ularni takomillashtirish lozim bo‘ladi.

Shuningdek, takrorlanuvchi funksiyalar hamda ayrim samarasiz ish o‘rinlarini qisqartirish, mavjudlariga aniq vazifalar qo‘yish, maqsadsiz va samarasiz xarajatlarni qisqartirish, ish haqi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘larni aniq maqsadga yo‘lantirish imkoniyatini yanada yaxshilashga amaliy zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda mamlakatda olib borilayotgan ma’muriy isloholardan ko‘zlangan maqsadning asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmoniga muvofiq “2021-yil yakuniga qadar davlat boshqaruvi xodimlari sonini o‘rtacha 15 foizgacha optimallashtirish hamda davlat organlarining takroriy funksiyalarini qisqartirish;

- boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to‘siqlarni va majlisbozlikni qisqartirish;
- ko‘p yillar davomida bo‘sh turgan shtat birliklarini optimallashtirish;
- ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish hamda litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni qisqartirish va ularni berish jarayonini avtomatlashtirish hisobiga ish jarayonlarini qayta ko‘rib chiqish;
- vazirlik va idoralar faoliyatida qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish kabi vazifalar belgilangan [16].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida 2023-yil 1-yanvardan O‘zbekistonda hukumatga bo‘ysunuvchi mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari soni 61 tadan 28 tagacha, vazirliklar soni 25 tadan 21 taga qisqartirilishi va 20 ta idora to‘liq tugatilishi nazarda tutilgan [17].

Shu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan D. Anvarovaning yozishicha “Davlat boshqaruv organlaridan 85 tasi (25 ta vazirlik, 16 ta qo‘mita, 14 ta inspeksiya, 31 ta agentlik)ning nizomlari o‘rganilganda davlat organi faoliyatini baholash bo‘yicha umumiy normalar – 52 ta, davlat organlari xodimlarining faoliyatini baholash bo‘yicha umumiy normalar – 8 tadan iborat bo‘lib, baholash bo‘yicha mezonlar 2 ta davlat tashkilotida, xodimlarni baholash bo‘yicha mezonlar esa 23 ta davlat organlarida tasdiqlangan. Tadqiqotchining yozishicha “Adliya vazirligi tomonidan 2020-yilda o‘tkazilgan o‘rganishlarga ko‘ra, Qurilish vazirligining 68 ta funksiyasidan 3 tasi, Transport vazirligining – 63 tadan 3 tasi, Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining – 66 tadan 9 tasi, Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining – 40 tadan 8 tasi, Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining – 37 tadan 8 tasi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligining – 53 tadan 7 ta funksiyasi amalga oshirilmay kelinayotgani aniqlangan.

Moliya vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2022-yildan barcha vazirlik va idoralarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining maqsadli indikatorlari belgilanadi va dasturiy byudjetlashtirish tizimi joriy etiladi. 2022-yildan ishga tushirish belgilangan mazkur tizim orqali davlat byudjeti ijrosini rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Ma’lum qilinishicha ajratilgan mablag‘lar natijasini baholovchi mezonlarga asoslangan yangi tizim Xalq ta’limi, Sog‘liqni saqlash, Suv xo‘jaligi vazirliklari va Avtomobil yo‘llari qo‘mitasida sinovdan o‘tkazilgan [18].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5997-sonli Farmoniga muvofiq Adliya vazirligiga davlat organlari faoliyatini baholash jarayonlarini tahlil qilib borish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator vazifalar yuklatilgan.

Xususan, “vazirlik amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlarning samaradorligi va natijadorligini monitoring qilish, ushbu sohada vazirlik va idoralar vakolati va funksiyalarining to‘liq va sifatli amalga oshirilayotganligi hamda belgilangan maqsadlarga erishilayotganligini funksional tahlil qilish bo‘yicha vakolatli organ deb hisoblanadi.

Shuningdek, vazirlik va idoralar, shu jumladan ular tarkibidagi alohida tashkilotlarning (agentliklar, inspeksiyalar, markazlar va boshqalar) vazifa va funksiyalari amalga oshirilishining samaradorligi ko‘rsatkichlarini (indikatorlarini) baholaydi va natijasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Rayosati majlisida muhokama qilish uchun umumlashtirilgan hisobot, shuningdek, samaradorlik ko‘rsatkichlariga (indikatorlariga) erishmagan davlat organlari mansabdor shaxslariga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini qo‘llash bo‘yicha taklif kiritadi”, – deb belgilab qo‘yilgan [19].

Baholashga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinganda davlat boshqaruvi organlari, xususan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari turli xil subyektlar tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldagi 603-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi to‘g‘risida nizom”ning 60-bandida “Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilagan [20].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-fevraldagi 146-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi to‘g‘risidagi nizom”ning 57-bandida “Vazirlikning faoliyati samaradorligi va natijadorligiga berilgan baholar O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan Vazirlikning faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilangan [21].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 532-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom”ning 77-bandida “Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash Qo‘mita raisi tomonidan tasdiqlanadigan Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilangan [22].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1060-sonli Qarori 2-ilovasida “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi to‘g‘risida nizom”ning 22-bandida “Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilagan [23].

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 295-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom”ning 29-bandida esa, “Qo‘mita faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash Transport vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Qo‘mita faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilangan [24].

TAHLIL VA NATIJALAR

Fikrimiziga ko‘ra, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining turli subyektlar tomonidan ishlab chiqilishi ham mantiqiy, ham huquqiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu turli subyektivliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, ijro organlari va davlat xizmatchilari faoliyatni baholash murakkab jarayon ekanligi hisobga olinganda bu yana ham qo‘shimcha murakkabliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlarini aniq belgilab olish murakkab, ammo mezonlarni aniq belgilash ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlaridagi mutanosibliklarni ta’minlashga xizmat qiladi. Samaradorlikni baholash mezonlari ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining barcha sohalarini qamrab olishi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatib borishni to‘liq o‘z ichiga olishi kerak. Shuningdek, miqdoriy, statistik ko‘rsatkichlardan tashqari, belgilangan vazifalarni sifatli bajarishga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilash jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

- ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlarini tanlashda ularga normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan vazifa va funksiyalarga qaratish;
- tashabbus bilan kiritilgan baholash mezonlarining ahamiyati va taalluqliligiga e’tibor qaratish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholashda asosiy e’tiborni barqaror iqtisodiy o‘sish, har tomonlama rivojlanish hamda aholining hayot sifati yaxshilanib borishiga qaratish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash natijalariga asoslangan holda ularga yuklatilgan davlat funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish, ular o‘rtasida vakolat va vazifalarni taqsimlash bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish;
- baholash jarayonlarida har bir ijro etuvchi hokimiyat organi hamda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholashda quyidagi mezonlarni kiritish taklif etiladi.

- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar sifatining aholi tomonidan mustaqil baholash natijalari.
- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan hujjatlarni qabul qilish tezligi va sifati.
- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tezligi va sifati.
- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va tezligi.
- aholining ta’lim sifatidan qoniqish darajasi.
- aholining sog‘liqni saqlash, tibbiy yordam ko‘rsatish sifatidan qoniqish darajasi.
- aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun yaratiligan shaoritdan qoniqish darajasi.

- aholining uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatilishidan qoniqish darajasi.
- aholining toza ichimlik suvi ta’minotidan qoniqish darajasi.
- aholining tabbiy gaz (metan, propan) yetkazib berish holatidan qoniqish darajasi.
- aholining avtomobil yo‘llarining holatidan qoniqish darajasi.
- aholining elektr enegiyasi ta’minotidan qoniqish darajasi.
- baholanayotgan organda korrupsiya darajasi.
- davlat xizmatchilarining chet tillarini bilish darajasi.
- yaratilgan ish o‘rinlari soni.
- kichik va o‘rta biznes sohasidagi xodimlar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni.
- o‘rtacha oylik ish haqining o‘sib borish darajasi.
- asosiy kapitalda investitsiyalar hajmi.
- kambag‘allik darajasi.
- umr ko‘rish davomiyligi.
- yashash sharoitlari yaxshilangan oilalar soni.
- qulay shahar muhitiga ega shaharlar ulushi.
- uy sharoitlari yaxshilangan oilalar ulushi.
- ishsizlik darajasi.
- aholi real daromadlarining o‘sib borishi kabi mezonlar kiritilishi lozim.

Faoliyat samaradorligi baholash mezonlarining soni maqbul, maqsadga muvofiq, shuningdek, yakuniy baholashda har bir mezon va ko‘rsatkichning o‘ziga xos jihati va vazifasi aniq bo‘lishi kerak.

Ushbu tavsiyalar ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini samarali monitoring qilishga, ularning faoliyatini xolisona va adolatli baholashga, mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlashga hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga amaliy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ttps://distionary.sambridge.org/ru
2. Ушаков Д.Н. Толковый словарь русского языка. 2012.
3. https://www.distionary.som/browse/sriteria.
4. Лёхина И. В. Словарь иностранных слов. – М.: Русский язык. 1985. – С. 262.
5. Ачкасов А. В. Критерии эффективности государственного управления как механизм коммуникации власти и общества. // Коммуникология. Том5 №2. Москва, 2017. – С. 209-219.
6. http://systems-analysis.ru/sriterion.html.
7. Барциц И. Н. Показатели и критерии оценки эффективности государственного управления. – М.: 2010. – С.8.
8. Савруков А. Н., Савруков Н.Т. Методический подход и критерии оценки эффективности государствен-ного управления в регионах. Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова, – М.: 2017
9. Ачкасов А. В. Критерии эффективности государственного управления как механизм коммуникации власти и общества. // Коммуникология. Том5 №2. Москва, 2017. – С. 209-219.
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 152-b.
11. Якунин В. И., Сулакшин С.С.Теоретические аспекты проблемы эффективности государственного управления // Власть. 2008. №6
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://president.uz/
13. https://president.uz.
14. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021-y., 06/21/6155/0082-son. https://lex.uz/doss/5260791
15. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son. https://lex.uz/uz/doss/5841063
16. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021-y., 06/21/6155/0082-son. // https://lex.uz/doss/5260791
17. https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/24/new-ministries.
18. Anvarova D. Davlat boshqaruvini baholash yoxud byudjet mablag‘lari qanday tejaladi. // https://huquqburch.uz/
19. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son. https://lex.uz/doss/4820060.
20. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.08.2018-y., 09/18/603/1602-son.https://lex.uz/doss/3843065.
21. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2019-y., 09/19/146/2637-son. https://lex.uz/doss/4207473.
22. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.06.2019-y., 09/19/532/3344-son. https://lex.uz/doss/4390399.
23. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019-y., 09/20/1060/0021. https://lex.uz/doss/4677911.
24. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 09/20/295/0624-son. https://lex.uz/doss/4818723.

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA MAHALLIYLASHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Xamrayev Djamshid Panjiyevich
TDIU mustaqil tadqiqotchisi, “Toshkent metropoliteni” DUK “Iqtisod, moliya va mehnatni tashkil qilish” xizmat boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya: maqolada, tadqiqot jarayonida temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asosi bo‘yicha dunyo va o‘zbek olimlari o‘rgangan fikrlar yoritilgan. Mamlakatimizda temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilingan.

Temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asosi mamlakatimizda Prezident va hukumat qarorlari tahlil etilgan va moliyalashtirishni huqiqiy asosini tokomillashtirish masalasi bo‘yicha xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l transporti, mahalliylashtirish, moliyalashtirishning huquqiy asosi, mahalliylashtirish dasturi, import o‘rnini bosish siyosati, mahalliy xom ashyo, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash.

Аннотация: в статье в ходе исследования освещаются мнения мировых и узбекских ученых о правовых основах локализации финансирования на железнодорожном транспорте. Проанализирована информация о правовых основах финансирования локализации на железнодорожном транспорте в нашей стране.

Проанализированы правовые основы локализации финансирования на железнодорожном транспорте в нашей стране, проанализированы решения Президента и правительства, разработаны выводы, предложения и практические рекомендации по вопросу совершенствования правовых основ финансирования.

Ключевые слова: Железнодорожный транспорт, локализация, правовая основа финансирования локализации, программа для локализации, политика импортозамещения, местного сырья, поддержка местных производителей.

Abstract: In the article, during the research, the opinions of the world and Uzbek scientists on the legal basis of financing localization in railway transport are covered. The information on the legal basis of financing localization in railway transport in our country has been analyzed.

The legal basis of financing localization in railway transport in our country has been analyzed, the decisions of the President and the government have been analyzed, and conclusions, proposals and practical recommendations have been developed on the issue of improving the legal basis of financing.

Key words: Railway transport, localization, legal basis for financing localization, localization program, import substitution policy, local raw materials, support for local producers.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish, jahon bozorida milliy mahsulotlarimizning raqobatbardoshligini ta’minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini oshirish bugungi kundagi eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev bu borada o‘z ma’ruzalarida quyidagi fikrlarni ta’kidlaydi, “Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo‘lida izchil ilgarilab borishini tahlil qilar ekanmiz, o‘tgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha qat’iy qadamlar qo‘yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlashdir. Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so‘zsiz davom ettiriladi”[1].

1 O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvarda o‘tkazilgan majlisdagi “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli ma’ruzasi. //Xalq so‘zi, 2017-y. 16.01.

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, avvalo, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishiga olib keluvchi omillarni tahlil qilishni taqozo qiladi. Chunki bugun dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida yuz berayotgan voqea-hodisalar milliy iqtisodiyotimizga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu so‘nggi paytlarda bot-bot tilga olinayotgan iqtisodiy inqirozni, uning kelib chiqish sabablarini, uni yuzaga kelishiga zamin hozirlovchi omillarni chuqur tahlil qilishni kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylantiradi.

Mahalliylashtirishni moliyalashtirish iqtisodiy mohiyatini yanada aniqroq tushunishimiz uchun uni milliy iqtisod bilan bog‘lab tadqiq etish kerak. Milliy mahsulotlarni ishlab chiqarish, ya’ni import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvatlash bugungi kunning dolzar masalasi bo‘lib kelmoqda.

Dunyo tarixida bir yarim asrdan ko‘proq vaqtdan beri import o‘rnini bosish strategiyasi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Ammo bu strategiyaning maqsadga muvofiqligi, uning yutiq va kamchiliklari haqida bahslar davom etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishi mamlakatimizda temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan. mamlakatimizda Temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishni rivojlantirish, uni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi hamda temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishni rivojlantirishning nazariy jihatdan xorijlik olimlardan X. Cheneri, M. Bruno, A. Straug, N. Karterlar va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni nazariy-amaliy izlanishlar asosida izchil o‘rganilmoqda. Jumladan ushbu muammolar O‘zbekiston olimlari I. X. Boboyev, M. R. Boltabayev, Sh. I. Mustafakulov, G. N. Matchina, T. I. Iskandarov, N. Q. Boboxo‘jayev, O. A. Sultonxo‘jayev, R. Sayfulina, S. M. Mansurov, T. T. Topvoldiyev, R. R. Raxmanov, D. A. Mirxanova va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Umumlashgan iqtisodiy tahliliy metodika statistik-analitik tizimli tahlil qilish, sistemali qiyosiy taqoslama tahlil, iqtisodiy matematik modellashtirish, guruhlash va ekspert baholash, iqtisodiy bashorat uslublari qo‘llanildi.

MUHOKAMA

Rivojlangan mamlakatlar tashqi iqtisodiyotini kengaytirish maqsadida ushbu strategiyadan vos kechishayotgan bir vaqtning o‘zida, rivojlanayotgan mamlalatlar tashqi bozordan ichki bozorni himoya qilish maqsadida import o‘rnini bosish strategiyasini samaraliy foydalanishmoqdalar.

Import o‘rnini bosish siyosati asosan mamlakatning ichki resurslari hisobidan iqtisodiyotni rivojlantirish nazarga tutiladi. Bundan tashqari ichki bozorga mo‘ljallangan tovarlarni ishlab chiqarishda, mahsulot ko‘lamini hisoblash qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshligini ta’minlash uchun ko‘pincha import qilinayotgan mahsulotlardan raqobatni cheklash, juladan, import qilinayotgan tovarlarga qo‘shimcha soliqlarni joriy qilish va milliy valyuta kursini sun’iy ravishda pasaytirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Ko‘pchilik mamlaktlar avvalo, ichki bozorni import o‘rnini bosish siyosati bilan mustaxkamlab keyinchalik eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyot modeliga o‘tish uchun sanoatni rivojlantirish jarayonini avzal ko‘rishdi. Sanoatlashtirish bosqichidan o‘tgan barcha mamlakatlar import o‘rnini bosuvchi siyosatni amalga oshirish zaruriyatiga duch keldi. G‘arbiy Yevropa va AQSh davlatlari birinchi marta bu strategiyani 1850-yilda o‘z sanoatini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatgan. Shunday qilib ushbu strategiyadan foydalanishning boshlanishi XIX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri kelsa, XX asr o‘rtalariga kelib bu strategiya rivojlanayotgan mamlakatlarda orasida keng tarqaldi.

Mahalliylashtirish iqtisodiy mohiyati jihatidan ikkiga ya’ni: ishlab chiqarishni joylashtirish hamda mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish (import o‘rnini bosish). Ishlab chiqarishni oqilona va samarali joylashtirishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – mahsulotlarning ishlab chiqarish uchun ketadigan xarajatlarini maksimal darajada kamaytirish, mintaqada raqobatbardosh korxonalarni joylashtirishdan iborat.

Mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish bu sanoat ishlab chiqarishning turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo‘llanuvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xom ashyo va materialllar asosida ishlab chiqarishga o‘tkazish jarayoni.

Import o‘rnini bosish samarasi – mahalliylashtirish jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar natijasida tejalgan import mahsulotlar qiymatiga aytiladi.

Ma’lumki, mahalliylashtirish jarayoni iqtisodiyotni jadal va barqaror rivojlantirishni ta’minlash, uning tashqi omillarga bog‘liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni

jadallashtirish, mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslardan keng foydalanish, valyuta mablag‘laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi quyidagi ijobiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- sanoat turli tarmoqlarining qo‘shilgan qiymati yuqori darajada bo‘lgan mahsulotlar eksportini ko‘paytirish va tegishli ravishda, an’anaviy eksport salmog‘ini kamaytirish;
- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning rial sektorida mamlakatimiz korxonalarining kooperatsiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish va h.k.

Impor o‘rnini bosish tushunchasining mohiyati

1. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun sharoitlarning mavjudligi, import o‘rnini bosish faqat ichki va ayrim xollarda tashqi iqtisodiy xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Import o‘rnini bosish ko‘pincha davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirishni talab qiladi;
2. Iqtisodiy rivojlanishdagi sifat o‘zgarishlarning samaradorligi import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil etish va kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini amalga oshirish, iqtisodiy tuzilmalarni optimallashtirish va ratsionalizatsiya qilish, shu jumladan eskirgan sanoatni saqlab qolish orqali aniqlanadi;
3. Import va mahalliy ishlab chiqarishni nisbatan o‘zgarishiga olib keladi. Import o‘rnini bosadigan strategiyani qo‘llash tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakat ichki bozorga olib kelinadigan import mahsulotlarni o‘rnini bosish shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvatlash maqsadida import texnologiyalarini ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Natijada sanoat rivojlanadi va shunga mos ravishda mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo va tarkibiy qismlarga bo‘lgan talab ortadi;
4. Mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishda innavatsion yo‘llarini targ‘ib qilish, ilg‘or o‘sishni ta’minlash uchun esa yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sohalarini rolini kuchaytirish orqali nafaqat sanoatlashtirishga, balki eng yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan milliy bozor uchun yangi mahsulotlar yaratishga asos bo‘lib xizmat qilishi kerak. Iqtisodiyotning real sektorida ilg‘or ilmiy ishlanmalardan foydalanish to‘plangan ilmiy va texnik kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi;
5. Mahalliy raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hajmining o‘sish natijasida xalqaro bozorda mamlakatning pozittsiyasi yaxshilaydi. Mamlakatlar o‘rtasida savdo-sotiq sharoitida Mamlakatga import qilinayotgan mahsulotlarning nisbiy baholari pasayishga olib keladi.

Mahalliylashtirish iqtisodiy mohiyatini yanada aniqroq tushunishimiz uchun uni milliy iqtisod bilan bog‘lab tadqiq etish kerak. Milliy mahsulotlarni ishlab chiqarish, ya’ni import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvatlash bugungi kunning dolzar masalasi bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimizda mahalliylashtirish dasturlarini rivojlanishda quydagi yo‘nalishlari a’lohida e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin:

- mahalliy xom ashyo negizida buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish;
- tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish hisobiga tovarlar importini maqbullashtirish;
- mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, valyuta mablag‘laridan tejamli va oqilona foydalanish;
- import o‘rnini bosadigan va raqobatbardoshli zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish;
- eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini bosadigan raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni yanada rag‘batlantirish;
- eksportga mo‘ljallangan raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish, tarmoqlararo va ichki tarmoq sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;

- ishlab chiqarishni mahalliylashtirish ko‘lamini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, zamonaviy raqobatbardosh eksporga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirishni rag‘batlantirish;
- mahalliy xom ashyo resurslari negizida zamonaviy raqobatbardosh tayyor mahsulot va butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish ko‘lamini yanada chuqurlashtirish;
- mahalliy xom ashyo resurslari negizida import o‘rnini bosadigan va ichki bozorni zarur iste’mol tovarlari, dori-darmon vositalari, ishlab chiqarish-texnik ahamiyatdagi mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar bilan to‘ldirishni ta’minlaydigan korxonalar barpo etish.

Natijalar. “Toshkent metropolieni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha e’tibor berdigan bo‘lsak, xizmat muddati tugagan metro vagonlarini modirnizatsiya qilish orqali zizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish hamda metropolitenda yangi yo‘nalish va bekatlarini qurilishini Respublika va boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashni ko‘rishimiz mumkin.

“Toshkent metropolieni” DUK xizmat muddati tugagan metro vagonlarini modirnizatsiya qilish orqali xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish va yangi yo‘nalish va bekatlarini qurilishini bo‘yicha mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy asosi sifatida quyidagi qaror va farmoyishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 17-mart 170-sonli farmoyishiga asosan 6 ta harakat tarkibini modernizatsiyasiya qilish bo‘yicha 2 973,0 ming. doll. hamda Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-martdagi 190-sonli farmoyishiga asosan 6 ta harakat tarkibini modernizatsiyasiya qilish bo‘yicha 5 500 ming doll. miqdorida mablag‘ ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 3-fevraldagi “2016–2019-yillar davrida “Toshkent metropoliteni” DUK poezdlarining harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, harakatdagi tarkibni zamonaviylashtirish va zamonaviy muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlash chora-tadbirlari kompleksi to‘g‘risida”gi 24-sonli qaroriga asosan “Toshkent metropoliteni” davlat unitar korxonasida xizmat muddati tugagan 96 ta vagonlarni davlat byudjeti hisobidan ta’mirlash va modernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytiish bo‘yicha 50 400 ming. doll. miqdoida mablag‘ ajratilgan (1-jadal).

1 - j a d v a l: Metro vagonlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asosi[2]

№	Qarorlar	Vagonlar soni	Ajratilgan mablag‘	O‘zlashtirilgan mablag‘	
				ming. doll.	mln. so‘m
1.	VMQ-170-f (17.03.2014 y.)	6	2 973,0	2 973,0	6 710,7
2.	VMQ-190-f (30.03.2015 y.)	10	5 500,0	5 500,0	13 696,1
3.	VMQ-24 (03.02.2016 y.)	96	50 400,0	30 740,6	170 201,9

Respublikada ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi infratuzilma obyektlarini barpo etish; shu asosda aholi bandligini ta’minlash va ularning turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021–2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 28-dekabrdagi PQ-4936-son qaroriga asosan 28 ta metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytiish bo‘yicha 92 000 mln. so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan.

Mamlakatimizning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini izchil rivojlantirish, qishloq va mahallalarni yanada obod qilish, joylarda qulay tadbirkorlik va investitsiya muhitini shakllantirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qaroriga asosan 16 ta metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytiish bo‘yicha 44 700,0 mln. so‘m hamda yangi metro vagonlarini ishlab chiqarish uchun 80 000,0 mln. so‘m jami 124 700,0 mln. so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan (2-jadal).

2 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

2 - j a d v a l: Metro vagonlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asosi, mln.so‘m[3]

№	Qarorlar	Vagonlar soni	Ajratilgan mablag‘	O‘zlashtirish	
				yil	mln. so‘m
1.	PQ-4936 (28.12.2020 y.)	28	92 000,0	2021	92 000,0
2.	PQ-98 (22.01.2022 y.)	8	44 700,0	2022	44 700,0
		20	80 000,0		80 000,0

Temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahrining transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, Toshkent metropoliteni yo‘nalishlarini rivojlantirish va kengaytirish, metropolitenda yo‘lovchi qatnovini oshirish shuningdek, ekologiya va atrof-muhit muhofazasini yaxshilash xizmat qilmoqda. Natijada bugungi kunda Toshkent metropolitenida majud bekatlar soni 43 taga, uzunligi 59 km ga yetkazildi. Kunlik yo‘lovchilar oqimi ikki barobarga oshib, 400–450 ming yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatilmoqda.

Temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari o‘rganish natijasida Toshkent metropoliteda mavjud metro vagonlarining xizmad muddatini uzaytirish maqsadida chiqarilgan Prezident va Hukumat qarorlari asosida xizmat muddati tugagan metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali ularning xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha amalga oshirish natijasida metropolitenda mavjud 84 ta metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytirishga erishilgan. Prezident va Hukumat qarorlari asosida metro vagonlarni modirnizatsiya qilish natijasida 40 foiz mahalliylashtirishga erishilgan.

XULOSA

Bizning fikrimizcha, bunday tariflar miqdoriy va sifat o‘zgarishini hisobga oladigan metro vagonlarini modirnizatsiya qilish borasida chiqarilayotgan qarorlar samarali amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishga imkon beradi va kelgusida ilmiy tadqiqotlar uchun qo‘llanishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni maliyalashtirishning huquqiy asoslarini o‘rganish borasida o‘rganishlar o‘sib borayotganligi temir yo‘l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirish barqaror sur’atlarda o‘sishga erishish uchun zarur bo‘lganligini ta’kidlash lozim.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PQ-98-son qarori. // www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-465-son qarori// www.lex.uz.
3. I. X. Boboyev. Mahalliylashtirish asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish. 08.00.03 – Industrial tarmoq iqtisodiyoti ixtisosligi bo‘yicha tayyorlangan fan nomzodligi dissertatsiyasi // ANRUIE.- T., 2008 y.
4. S. N. Xoshimova. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekistonda qora metalurgiyani rivojlantirish 08.00.03 – Industrial tarmoq iqtisodiyoti ixtisosligi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. // (TDTU– T. 2011 y. 143 b).
5. В. Кондратьев Политика локализации производства как инструмент модернизации, 2017.
6. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari / http://www.stat.uz.
7. А. М. Вазьянский, Локализация производства как проблема современного менеджмента: на примере автомобильной промышленности тема диссертации и автореферата по ВАК 08.00.05.

3 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI BO‘YICHA MOLIYAVIY HISOBOT: TAYYORLASH VA AVTOMATLASHTIRISH

Tulayev Mirzakul Salamovich
TDIU, Moliya va buxgalteriya hisobi kafedra dotsenti

Annotatsiya: maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotni tayyorlash va uni avtomatlashtirish bo‘yicha nazariy tadqiqot yoritilgan. Korxonalar tomonidan tayyorlangan hisobotlarning kamchiliklarini asosiy sabablari keltirilgan va tahliliy yechimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning hajmi va uning taqdim etilishi, moliyaviy hisobotlarning uzviy bog‘liqligi, moliyaviy hisobotni avtomatlashtirish.

Аннотация: в статье описано теоретическое исследование подготовки финансовой отчетности и ее автоматизации на основе международных стандартов финансовой отчетности в хозяйствующих субъектах. Приведены основные причины недостатков отчетов, подготовленных предприятиями, и приведены аналитические решения.

Ключевые слова: финансовая отчетность, объем финансовой отчетности и ее представление, интеграция финансовой отчетности, автоматизация финансовой отчетности.

Abstract: the article describes a theoretical study on preparation of financial statements and its automation based on international standards of financial statements in economic entities. The main reasons for the shortcomings of reports prepared by enterprises are given and analytical solutions are given.

Key words: financial reporting, the scope of financial reporting and its presentation, integration of financial reporting, automation of financial reporting.

KIRISH

Har yili ko‘pgina o‘zbek tashkilotlari moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlash va taqdim qilishga ehtiyojlari paydo bo‘lmoqda. Uning asosida tegishli iqtisodiy qarorlar qabul qilish mumkin. MHXSga muvofiq hisobot tuzish zarurati nima bo‘lishidan qat’i nazar, tashkilot rahbariyati ushbu muammoni hal qilishning eng yaxshi usulini tanlashi kerak.

Hozirga qadar aksariyat o‘zbek tashkilotlari moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiq o‘zbek moliyaviy hisobotlari ko‘rsatkichlarini transformatsiya qilish orqali tayyorlaydilar. Ushbu usulni tanlash bir lahzalik ehtiyojlarni qondirish bilan izohlanishi mumkin: dolzarb muammoni tez hal qilish zarurligi, mavjud bo‘lgan o‘zbek hisobotini tuzatishga harakat qilish tabiiy bo‘lsa ham tuzatilgan ko‘rsatkichlar xalqaro standartlar talabiga javob beraladigan qilib tayyorlash. Ushbu muammoni hal qilish uchun ular MHXSni biladigan mutaxassislarni yoki o‘zbek hisobotlarini xalqaro standartlariga transformatsiya qilish bilan shug‘ullanadigan konsalting kompaniyalarni yollaydilar. Bunday xizmatlar odatda arzon emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida miqdor va sifat, sabab va natija, statistik va iqtisodiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, ijtimoiy so‘rovnoma kabi usullardan foydalanilgan.

MUNOZARA

Milliy moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga transformatsiya qilish asosida hisobotlarni tayyorlash o‘zbek korxonalar o‘rtasida keng tarqaldi, shubhasizki bu usulda hisobotlarni tayyorlash “avariya” holatidagi usul bo‘lmay, balki asosiy yoki yagona usul bo‘lib qoldi. Hisobotlarni bunday holda tayyorlashning beshta asosiy sabablari mavjud:

- **tarixiy.** Korxonalarning moliyaviy hisobotlarini transformatsiya qilish tashkilotlar tomonidan birinchi marta MHXSga o‘tishi uchun vazifalarni operativ hal qilishda eng maqbul usul bo‘lib hisoblandi;
- **proteksion.** Ushbu usul O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan preferentsiyaga (afzallik) ega bo‘ldi, 2004-yildan boshlab o‘zbek banklari hisobotlarini MHXS asosida tayyorlaydilar – o‘zbek hisobotlarini transformatsiya qilish usuli orqali;
- **soliq.** Shu kungacha soliqqa tortiladigan summalarni aniqlashda milliy standartlar asosida tayyorlangan hisobot ma’lumotlaridan foydalaniladi. Sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalar buxgalteriya hisobida faqat soliq oqibatlari nuqtayi nazarda talqin qilinadi;
- **kadr.** O‘zbekiston Respublikasida milliy standartlari va MHXS asosida hisobotlarni tayyorlaydigan mutaxassislarni mentaliteti, qadriyati, bilimi, yondashuvlari va turli xil tillarda so‘zlashadigan ikki toifadagi mutaxassis deb qaraladi. Bu holatni g‘arb dasturlari asosida MHXSlar bo‘yicha o‘qitishda yaqqol ko‘rish mumkin. O‘zbek hisobi haqida umuman tushunchaga ega bo‘lmagan shaxslar bu dasturlarni tayyorlagan, shuning uchun o‘qitish asosan tinglovchilarga o‘zbek hisobini unitish va “yangi oq varoq”dan boshlash uqtiriladi. O‘zbek hisobi va MHXSlarini bir vaqtning o‘zida professional darajada bilandigan mutaxassislar sanoqli;
- **aqliy (mental).** O‘zbek tashklotlar rahbariyatining o‘zbek buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tushunchasi, me’yoriy hujjatlarning majburiy ko‘rsatmalarida belgilangan, elastik bo‘lmagan qoidalarning o‘ziga xos “suyak to‘plami” sifatida paydo bo‘lgan deb tushunishi natijasidir.

Ushbu sabablarning hech biri transformatsiya usuli samaraliroq ekanligini ko‘rsatmaydi: uning keng tarqalgani – bu usul yaxshi degani emas. Aksincha, agar siz hisobotlarni tuzishning ushbu usuli haqida biroz o‘ylab ko‘rsangiz, bu kulgili va oddiy aqldan mahrum bo‘lib ko‘rinadi.

Avvalom bor, tashkilot buxgalteriya hisobini yuritadi va uning asosida moliyaviy hisobotlarni tuzadi. Ammo bu hisobotlar biznes haqida ishonchli tasavvur bermaydi, haqiqiy moliyaviy holat va natijalarni ko‘rsatmaydi, uning asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish xavfli. Hisobotdagi ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni qayta tiklash kerak. Aynan shu o‘zgartirishlar “transformatsiya” deb nomlanadi, garchi “tuzatish” atamasining ma’nosi ancha aniqroq bo‘lsa.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turli mamlakatlarning buxgalteriya hisobi va hisobotining milliy standartlari mamlakatning rivojlanish darajasi va buxgalteriya hisobini tashkil etishning muayyan tamoyillarini shakllantirgan o‘ziga xos an’analariga qarab sezilarli darajada farq qiladi.

Ushbu qoida O‘zbekistonga ham tegishli. O‘zbekistondagi buxgalteriya hisobi va hisobotining milliy standartlari ma’lum xususiyatlarga va prinsiplarga ega bo‘lib, ular ko‘p jihatdan xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan farq qiladi.

Avvalo, milliy standartlar va MHXS standartlari o‘rtasidagi farq moliyaviy hisobotning oxirgi iste’molchilarida ifodalanadi. O‘zbekiston uchun fiskal hisobot qoidalari moliyaviy hisobotdan ko‘ra ko‘proqdir, ya’ni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari mamlakat statistika va soliq muassasalari hisoblanadi. Holbuki, MHXSga muvofiq hisobot berish eng maqbul, optimal iqtisodiy qarorni qabul qilish uchun investorlar va menejerlarni tijorat korxonaning haqiqiy holati to‘g‘risida xabardor qilishga qaratilgan.

Milliy standartlar va MHXS standartlari o‘rtasidagi navbatdagi muhim farq moliyaviy hisobotning asosiy elementlarini korxona balansida asoslash va aks ettirishlishida yotadi. Demak, O‘zbekistonda amalda bo‘lgan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunda [1, 7-modda], “aktivlar”, “kapital” va “majburiyatlar” kabi hisobot elementlarining aniq tavsifi mavjud emas. Qonunda ushbu kategoriyalarning buxgalteriya obyekti sifatida mavjudligi to‘g‘risidagi fakt keltiradi, moliyaviy hisobotning mutlaqo barcha kategoriyalariga aniq ta’rif beradigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan farqli o‘laroq ko‘rsatilgan.

Shuningdek, Milliy standartlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladigan sezilarli farqlar muvofiqlik prinsipi hamda xalqaro standartlarda belgilangan mazmunning shakldan ustunligi prinsipidan kelib chiqadi. Ushbu tamoyillarga asoslanib, har qanday iqtisodiy operatsiya uni tuzish paytida korxonaning balansida, shuningdek uning mohiyatini eng aniq aks ettiradigan shaklda aks ettirilishi kerak. Biroq, buxgalteriya hisobi va hisobotining milliy standartlari sodir bo‘lgan operatsiyaning mohiyatini mumkin bo‘lgan buzilishiga qaramay, bitimning huquqiy shaklini aks ettiradi.

Milliy standartlar va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo‘llaniladigan prinsiplar o‘rtasidagi farqlarning aksariyati, asosan, taomillardagi sezilarli farq tufayli emas, balki Milliy standartlarning barcha qoidalari amalda qo‘llanilmasligi sababli yuzaga keladi. Masalan, amortizatsiya xarajatlari aks ettirilgan taqdirda,

buxgalteriya hisobining Milliy standartlari hisob-kitoblarda amortizatsiyani hisoblash va aks ettirishning to‘rt usulidan birini qo‘llashni belgilaydi, ularning 3 tasi mohiyatan 16-MHXSda ham qo‘llaniladi [2, 40-kichik bandi]. Biroq, amaldagi buxgalterlar O‘zbekiston Soliq kodeksining ko‘rsatmalariga asoslanib, hisob-kitoblar va hisobotlar uchun birinchi usulni, ya’ni amortizatsiyani hisoblashning to‘g‘ri chiziqli usuli deb atashadi, bu esa 16-standartning ko‘rsatmalariga to‘g‘ri kelmaydi.

Yuqorida aytib o‘tilganlardan kelib chiqqan holda, mahalliy kompaniyalar uchun “O‘zbeksiton” hududida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish muammolari nafaqat MHXS qo‘mitasining tavsiyalarini hisobga olgan holda, balki qonunchilik bazasini qo‘llash va talqin qilish jarayonini nazorat qilish sohasida ham qonunchilikni nafaqat keng qamrovli optimallashtirishga bog‘liq. Amaliyot ko‘rsatib turibdiki, O‘zbek milliy buxgalteriya hisobi standartlari o‘rtasidagi asosiy farqlar nafaqat tugallanmagan va o‘ziga xos qonunchilik bazasida, balki amaldagi me’yoriy hujjatlarni qo‘llashning odatiy an’analarida va hatto buxgalteriya hisobining yanada samarali moliyaviy komponenti o‘rniga fiskal va statistik hisobot g‘oyalarida ham ifodalanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini keng joriy etish jarayonlarining jadallashishi hamda ushbu standartlarni O‘zbekiston Respublikasining yirik kompaniyalari uchun qonunchilikda joriy etilishi munosabati bilan xalqaro moliyaviy standartlarni hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish, avvalambor, “inson omili” bilan bog‘liq bo‘lgan oraliq hisob-kitoblarning barcha bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini olishga yordam berish uchun ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, ko‘pincha moliyaviy hisobotni MHXSga muvofiq tuzish, avvalambor, yirik kompaniyalar va xoldinglar uchun zarurdir. Shunday qilib, yirik korxonaning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash bilan bog‘liq kutilayotgan katta hajmdagi ishlar ushbu jarayonni tezlashtirish va korxonalar hisobotlarini tayyorlash bilan shug‘ullanadigan ko‘plab mutaxassislarning mehnat xarajatlarini kamaytirish maqsadida avtomatlashtirishni belgilaydi.

XULOSA

Yuqorida aytib o‘tilganlarga asoslanib, hisobotlarni tayyorlashda xalqaro tajribani O‘zbekiston korxonalarining milliy xususiyatlaridan foydalangan holda o‘zbek buxgalteriya hisobi standartlarini muvofiqlashtiradigan asosiy dasturiy ta’minotni ishlab chiqish zarur.

Agar biz ushbu hisobotlarning oxirgi foydalanuvchisini aniqlashda ifoda etilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo‘yicha milliy va xalqaro standartlarning turli xil yondashuvi va maqsadlariga oid azaliy muammolardan, shuningdek uni tuzish tamoyillaridan mavhumlashtiradigan bo‘lsak, korxonaning moliyaviy faoliyatini namoyish qilish uchun dasturiy ta’minotni shakllantirish bo‘yicha har qanday loyihaning bosqichlarini [3, 78-bet]:

1. Muammoning aniq bayonoti va malakali mutaxassislar tomonidan texnik ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish.

Ushbu bosqich kelajakdagi loyihaning vazifalarini belgilashga jalb qilingan mutaxassislar, masalan, metodistlar, moliyaviy hisobot bo‘yicha mutaxassislar va dasturchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasi to‘g‘risida xabardorlikni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda kompaniya rahbariyati loyihani amalga oshirish uchun qo‘shimcha mutaxassislarni jalb qilish yoki o‘z xodimlarini tayyorlash maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilishi kerak. O‘zining shaxsiy zaxiralaridan foydalanish kompaniyaga moliyaviy resurslarni sezilarli darajada tejashga imkon beradi, ammo bu ish jarayonida qoniqarsiz natijaga olib kelishi mumkin, chunki moliyaviy hisobot jarayonlarini xalqaro standartlarga muvofiq avtomatlashtirish nafaqat ushbu standartlarni puxta bilishni va xalqaro standartlar bilan ishlashda muhim tajribani talab qiladi avtomatlashtirish dasturining oxirgi foydalanuvchilari bo‘lgan moliyaviy mutaxassislarning barcha xohishistaklarini inobatga olgan holda dasturchilarga aniq bir vazifani qo‘yishga qodir bo‘lgan metodika bo‘yicha mutaxassislarning korxonada mavjudligi nazarda tutiladi.

Bunday keng va professional kadrlar bazasi har qanday korxona uchun mavjud emasligi sababli, shuningdek, kompaniyaning MHXSga o‘tishi va moliyaviy hisobotni avtomatlashtirishni amalga oshirishda G‘arb tajribasini hisobga olgan holda, avtomatlashtirish muammosini hal qilishning tavsiya etilgan usuli moliyaviy dasturiy ta’minotni tayyorlashda muhim tajribaga ega bo‘lgan uchinchi tomon mutaxassislarini jalb qilishdir.

2. Keyingi bosqich – avtomatlashtirish loyihasining ijrochilarini izlash.

Ijro etuvchi mutaxassislar guruhiga buyurtmachi tomonidan belgilangan parametrlarga asoslangan holda loyiha maqsadlarini shakllantirishni o‘z ichiga olgan metodistlar kiritilishi kerak. Oddiy qilib aytganda, metodistlar mahsulotning xaridor mijozining yakuniy maqsadlarini tushunishlari va dasturchilarga ular yaratgan dasturdan qanday vazifalar kutilayotganligini tushuntirishlari kerak. O‘zining funksiyalarini eng samarali bajarishi uchun ushbu mutaxassis MHXSga muvofiq hisobotlarni tuzish qobiliyatiga ega bo‘lishi va qo‘shimcha ravishda ma’lum bir kompaniyaning moliyaviy buxgalteriya hisobi xususiyatlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Bunday mutaxassisni kompaniya tarkibiga jalb qilish tavsiya etiladi, chunki aynan shu korxona ishchisi, boshqa hech kim kabi, dasturiy ta’minot ishlab chiquvchisiga kompaniya tayyor mahsulotda kutgan yakuniy maqsadlarini tushuntirib bera olmaydi.

Moliyaviy hisobotni avtomatlashtirish bo‘yicha guruhni shakllantirishning eng muhim mutaxassisi – texnik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha mutaxassis. Ushbu mutaxassis metodist tomonidan ilgari surilgan talablarni hisobga olgan holda dasturchilar uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqadi. Shunday qilib, ushbu loyihaning ishtirokchisi topshiriqning moliyaviy qismini aniq anglashi va amalga oshiriladigan taomillar yordamida dasturchilarga yetkazishi uchun nafaqat MHXSda suvdagi baliq singari “suzishi” kerak, balki dasturlash bo‘yicha asosiy bilimlarga ham ega bo‘lishi kerak.

Moliyaviy hisobot jarayonini avtomatlashtirish bo‘yicha loyihani yakunlash natijasida kompaniya ikki turdagi dasturiy ta’minot egasiga aylanishi mumkin:

- yetakchi mutaxassislar tomonidan tan olingan odatdagi xalqaro hisobotlarni avtomatlashtirish tizimi. Bunday avtomatlashtirilgan tizim korxona o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan, balki xalqaro standartlarning barcha asosiy qoidalari va me’yorlariga, shuningdek tan olingan huquqiy normalarga rioya qilgan holda, MHXS standartlariga muvofiq asosiy hisobotlarni ishlab chiqarishga imkon beradi. Bunday tizim, xususan, xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni faqat qonuniy muvofiqlik uchun hurmat sifatida tayyorlaydigan o‘rta va kichik kompaniyalar uchun javob beradi, ammo xalqaro kapital bozorlariga investorlarni jalb qilishning umumiy qabul qilingan maqsadlariga mos kelmaydi.
- bazaviy dasturiy ta’minot tizimi, modullar va sozlamalarni yakunlash va amalga oshirish imkoniyati bilan, ma’lum bir korxona faoliyatini shaxsiylashtirishni hisobga olgan holda, korxonaga xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotni yanada aniqroq va to‘liq shakllantirishga imkon beradi, bu MHXSda ma’lumotni oshkor qilishning asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi o‘zbekiston Respublikasining qonuni, 2016-yil 13-aprel
2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari 16-sonli Asosiy vositalar. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sayti. 2022-yil/
3. M.S.Tulayev, B.P.Qlichev, (2022). Moliyaviy hisob. (Darslik). ISBN 978-9943-8915-9-3, UO‘K: 657(075.8)
4. Tulayev, M. (2022). Moliyaviy investitsiyalar hisobi amaliyotini takomillashtirish. Arxiv nauchnых issledovaniy, 2(1). izvlecheno ot http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1181
5. Тулаев, М. (2021). Разработка методики определения уровня существенности в аудите. Экономика и инновационные технологии, (5), 52–60. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/12137
6. Тулаев, М. С., & Кличев, Б. П. (2022). Вопросы совершенствование учета корпоративных облигации: обязательство или капитал. In Учет, анализ и аудит: их возможности и направления эволюции (pp. 146-154).
7. Qlichev Baxtiyor Pardayevich (2023). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda operatsion faoliyatida ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016, http://interfinance.tfi.uz/?p=2696
8. Qlichev B.P. (2022). Iste’molchi manfaatlari asosida mahsulotga baho shakllantirish masalalari tahlili. “Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar”, ISSN: 2181-0567, 4 (20)-son, 170-175, UO‘K: 338.4 (575.1) https://ifmr.uz/journals/18.

O‘ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Babayev Sh. B.
TDIU dotsenti

Qulmetov M. R.
TMI dotsenti

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyatida samaradorlikni oshirishning takomillashtirish yo‘llari, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilgan. Jumladan, iqtisodiyotda kichik tadbirkorlikning roli, tadbirkorlik faoliyati yordamida yechilishi mumkin bo‘lgan masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, tadbirkor, iqtisodiy, korxona, savdo, xarajat, mehnat bozori, kapital, daromad darajasi, xususiylashtirish, bozor.

Аннотация: в статье рассмотрены пути совершенствования повышения эффективности деятельности малого предпринимательства в Узбекистане, факторы влияющие на развитие предпринимательской деятельности. В частности, изучена роль малого предпринимательства в экономике, вопросы которые можно решить с помощью предпринимательской деятельности.

Abstract: the article explores ways of improving efficiency in small business activities in Uzbekistan, factors affecting the development of entrepreneurial activity. In particular, the role of small entrepreneurship in the economy, issues that can be solved with the help of entrepreneurial activity are studied.

KIRISH

Dunyoda davom etayotgan murakkab pandimiya va global iqtisodiy inqroz oqibatlari, turli notinchliklar va ziddiyatlar fonida yuzaga kelayotgan oziq-ovqat va energiya xavfsizligini ta’minlash muhim vazifa bo‘lib turgan bir sharoitda, ishlab chiqarish sohasidagi davlat korxonalarini xususiylashtirish va ular negizida vujudga kelayotgan kichik tadbirkorlik tuzilmalarini aniq maqsad bilan qo‘llab-quvvatlash orqali mulkdorlar sinfini shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida[1] kichik tadbirkorlik sohasini yanada kengroq rivojlatirish bo‘yicha amaliy qarorlar qabul qilingan. Jumladan, Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun banklarga 300 mln dollar ekvivalentida kredit liniyasi ajratiladi. Mablag‘larining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 19.04.2022-yildagi PQ-212-sonli qarori

kamida 70 foizi shaharlardan tashqari hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarga ajratiladi. Kreditlar yillik 14 foiz stavkada, 5 mlrd so‘mgacha miqdorda ajratiladi. Demak kichik tadbirkorlar uchun yillik 14 foiz stavkada 5 mlrd so‘mgacha kredit ajratilishi iqtisodiyotimizni rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatimiz uchun yangi bo‘lgan mana shu ijtimoiy tur uning faoliyat sohalari shakllarini o‘rganishni nazariy ehtiyojlarigina emas, balki amaliy zaruriyatni ham shart qilib qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik tadbirkorlik malumki, mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdir. J. B. Sey “tadbirkorlarni aqlli va uddaburon, har ishda tavakkal qilib, o‘z maqsadiga erisha oladigan shaxs sifatida ta’riflashga harakat qilgan”[2]. A. Smit “tadbirkor bu kapital egasi. U muayyan tijorat g‘oyasini amalga oshirib, daromad olish uchun tavakkalchilik bilan ish boshlaydi, chunki kapitalni biror-bir ishga sarflash doimo tavakkalchilik bilan bog‘liqdir”[3] deya fikr bildirgan. Kichik tadbirkorlik subyektlariga kimlar kiradi? “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunga[4] asosan quyidagilar kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlaridagi xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 20 kishi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa tarmoqlardagi xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 10 kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 5 kishi bo‘lgan mikrofirmalar;
- quyidagi tarmoqlardagi kichik korxonalar:
- engil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 200 kishi;
- metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik, mebel sanoatidagi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 100 kishi;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 50 kishi;
- fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa sohalardagi xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 25 kishi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma’lumotlarni jadvallar asosida qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash tizimli tahlil asosida statistik guruhlash, induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash usullaridan ham unumli foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim vazifasi kichik tadbirkorlikni iqtisodiy samaradorligini oshirish, sohada faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning mehnat natijalariga bo‘lgan qiziqishini oshirishdir.O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning 2020-yilning yanvar-sentyabrida 70,3 mingtadan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda 3,0 foizga kamayganini ko‘rsatdi.

Eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (37,0 %), sanoat sohasida (20,7 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (16,9 %), qurilish sohasida (6,7 %) tashkil etilgan.O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot tarmoqlaridagi ulishini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak

2019-yil yanvar-sentyabr oyini 2020-yil yanvar-sentyabr oyi bilan solishtirganimizda 2020-yil qurilish tarmog‘ida kichik tadbirkorlikni ulishini 4.5% kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Kichik tadbirkorlikni ulishini kamayishiga sabab mamlakatimizga krib kelgan koranavirus pandemiyasini ko‘rsatsak bo‘ladi.Demak xar bitta tarmoqni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak faqatgina investitsiya tarmog‘ida o‘tgan yilning yanvar-sentyabr oyiga nisbatan 6% o‘sishni kuzatishimiz mumkin.

2 Катехизис политической экономии, или Краткое учение о составлении, распределении и потреблении богатства в обществе = Catéchisme d’économie politique. – СПб.: тип. III Отд-ния Собств. е. и. в. канцелярии, 1833. – XIV, [2], 255 с.

3 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2007. – 960 с.

4 O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012-yildagi O‘RQ-328-son.



1 - r a s m: Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2 - r a s m: 2020-yilning yanvar-sentyabrida O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni) (har 1000 aholiga, birlikda).

2020-yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 31,0 birlik, Navoiy viloyatida 20,8 birlik, Sirdaryo viloyatida 20,4 birlik, Jizzax viloyatida 18,1 birlik, Toshkent viloyatida 16,7 birlik, Buxoro viloyatida 16,7 birlik, Farg‘ona viloyatida 13,2 birlikni tashkil etdi. Surxondaryo viloyatida 10,5 birlikka teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich eng past bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda kichik tadbirkorlikning roli juda katta. U, ayniqsa, postindustrial jamiyat sharoitida o‘sib bordi, bu biznesning ushbu shaklining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarining o‘zgarishida namoyon bo‘ldi. Kichik va o‘rta korxonalar ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy bo‘g‘iniga aylanib bormoqda, ularsiz jamiyatning muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta’minlash mumkin emas.

1 - j a d v a l: Yevropa Ittifoqidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlik uchun xususiyatlarni aniqlash[5]

Korxona toifasi	Xodimlar soni, odamlar	Yillik aylanma, million yevro	Yillik balans jami, million yevro
Mikro korxona	1–9	2	2
Kichik tadbirkorlik	10–49	10	10
O‘rta tadbirkorlik	50–249	50	43

5 Annual Report on European SMEs 2013/2014 – A Partial and Fragile Recovery http://ec.europa.eu/enterprise/policies/sme/facts-figures-analysis/ performance-review/files/supporting-documents/2014/annual-report-smes-2014_en.pdf

Kichik va o‘rta korxonalarga, shu jumladan xalqaro amaliyotga xos bo‘lgan sifat mezonlari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish kerak:

- mulkchilik va korxonani bevosita boshqarish huquqlarining uzluksizligi . Egasi, qoida tariqasida, korxonani mustaqil ravishda boshqaradi, o‘zini xavf ostiga qo‘yadi va nafaqat kiritilgan kapital uchun, balki qabul qilingan qarorlar uchun ham to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi;
- kichik tadbirkorlikning shaffofligi, uning hajmi egasiga kompaniyada sodir bo‘layotgan hamma narsadan xabardor bo‘lish imkonini beradi;
- tadbirkorning resurslarni yetkazib beruvchi hamkorlar va mahsulot xaridorlari bilan alohida munosabatlari, shuningdek korxona xodimlari bilan munosabatlarining norasmiy xarakteri;

Oilaviy tadbirkorlik. Kichik korxonalarda asosiy kapital ko‘pincha oilaviy jamg‘armalardan yaratiladi, biznesning o‘zi oila a’zolariga meros bo‘lib o‘tadi va birjalar va yirik investorlar orqali zarur moliyaviy resurslarni shakllantiradigan yirik korporatsiyalardan farqli o‘laroq, xodimlar ko‘pincha qarindoshlardan iborat bo‘ladi.

2 - j a d v a l: Kichik va o‘rta tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari va ularning alohida mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasi[6]

Mamlakatlar	Korxonalarning umumiy sonidagi ulushi, %		Umumiy ish bilan ta’minlanganlik ulushi, %		YalM tarkibidagi ulush, %		Eksportdagi ulishi, %	
	1990–2000-yy.	2010–2020-yy.	1990–2000-yy.	2010–2020-yy.	1990–2000-yy.	2010–2020-yy.	1990–2000-yy.	2010–2020-yy.
AQSh	84-87	97,5-98,3	42-45	58-60	42-45	50-52	28-30	37-40
Yevropa ittifoqi	86-88	97-98	55-58	70-72	50-55	65-68	45-51	68-70
Germaniya	87-88	98,5-99,7	50-52	66-69	42-46	55-57	38-40	50-52
Italiya	89-90	98-99,8	55-58	70-73	46-50	58-60	42-48	58-60
Fransiya	82-85	98-99,6	40-45	58-60	46-50	55-57	36-42	48-50
Shveytsariya	84-87	96-99	45-50	57-62	45-49	54-58	40-43	49-52
Rossiya	20-25	40-42	15-18	35-37	10-12	23-25	15-20	38-40
Xitoy	70-75	98-99	50-55	70-75	36-42	58-60	38-40	65-68

Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki kichik va o‘rta tadbirkorlikning rivojlangan mamlakatlarda korxonalar umumiy sonidagi ulishi 1990-yillarda 80–90% atrofida bo‘lsa 2010-yildan keyin 90% yuqori ulishni tashkil etgan. Yalpi ichki mahsulotdagi ulishi 1990-yildan 2000-yillargacha 40–50% atrofida bo‘lsa 2010-yildan keyin Yevropa mamlakatlarida 70% yaqinlashib qolgan bu islohatlaga asosiy sabab qilib quyidagi jadvaldagi ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin:

6 Малый и средний бизнес в условиях глобализации мировой экономики // Вестник ГМТУ им. П. О. Сухого. 2021. № 2 (57). С. 90.

3 - j a d v a l: Kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni oshirish 2006–2015-yillarda moliyalashtirish mavjudligi[7]

Kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun choralar	Mamlakatlar
Kichik va o‘rta biznes uchun kreditlarning kafolati	Ispaniya,Gollandiya, Slovakiya, Sloveniya, Avstriya, Daniya, Finlyandiya, Italiya, Vengriya, Germaniya, Shveytsariya, Fransiya, Polsha, Belgiya, Portugaliya
Startaplar uchun maxsus shart-sharoitlarni ta’minlash	Daniya, Shveytsariya, Gollandiya, Avstriya, Estoniya, Fransiya
Eksport operatsiyalariga davlat kafolatlarini oshirish	Daniya, Finlyandiya, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Ispaniya, Estoniya
Davlat tomonidan qo‘shimcha moliyalashtirish	Shveytsariya, Irlandiya, Daniya
Kichik va o‘rta biznes uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirishni oshirish	Vengriya, Serbiya, Sloveniya, Ispaniya
Imtiyozli foiz stavkalari	Vengriya, Portugaliya, Ispaniya,Turtsiya
Soliq imtiyozlari, kechiktirilgan to‘lovlar	Fransiya, Irlandiya, Italiya, Ispaniya, Shveytsariya, Shvetsiya, Germaniya
Kichik va o‘rta biznes uchun past foizli kreditlar ajratish	Irlandiya, Daniya, Polsha, Belgiya

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman, keltirilgan muammolar murakkab bo‘lishiga qaramay, O‘zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirish va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay vaziyat vujudga keldi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz tarkibida real mulkka ega, uni qadrlayotgan va ularni o‘z moddiy farovonliklari uchun asos qilib olayotgan kishilarning katta guruhi shakllandi. Ushbu ijtimoiy qatlamni yanada mustahkamlash davlatning iqtisodiy qudrati oshishi, demokratik qadriyatlar qaror topishiga olib keladi.

birinchidan, kichik tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan aholini maxsus kurslarda o‘qitish asosida ularning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirib, ularga imtiyozli mikrokreditlar berish mexanizmini ishlab chiqish;

ikkinchidan, kichik tadbirkorlikda xususiylashtirish amalga oshirilib, u bilan bog‘liq boshqa sohada davlat mulki yoki uning monopoliyasi saqlanib qolishi xususiylashtirilgan korxonalarning manfaatlarini kamsitadi. Bu hol, avvalo, turli tarmoqlardagi narxlarning pariteti buzilishida namoyon bo‘ladi.

uchinchidan, kichik tadbirkorlikda mol-mulkni baholashning ilmiy usullari va islohotlarning dastlabki bosqichida tegishli mutaxassislarning bo‘lmaganligi ko‘pdan-ko‘p tartib buzarliklarni keltirib chiqaradi. Buning natijasida, mulk tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni istagan va shug‘ullana oladigan kishilar qo‘liga emas, balki tasodifiy kishilar qo‘liga o‘tib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012-yildagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 19.04.2022-yildagi “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-212-sonli qarori.
3. Bakhtiyarovna Y. Y. (2019). Portfolio as an assessment tool for individualized instruction. Dostijeniya nauki i obrazovaniya, (5 (46)).
4. Касимова Ҳ.С., Мухторова У. К. Малый бизнес и предпринимательство. – Т.; Иқтисод-Молия, 2018.
5. Umurzoqov U.R., Toshboyev A. J. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Darslik. – T.: Sano-Standart, 2014.
6. M. R. Qulmetov. Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi roli va elektron tijorat tizimi orqali uning samaradorligini oshirish masalalari. №3 [5] 2022 Agro Inform 132-bet. – Toshkent-2022.

7 МСП Банк: Развитие малого и среднего предпринимательства. Зарубежный опыт 2015 г. С. 16 https://www.mspbank.ru/

SUG‘URTA KOMPANIYALARI TO‘LOV QOBILIYATINI KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI

G‘aniyev Shahriddin Vohidovich
ISFT Instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich
ISFT Instituti katta o‘qituvchisi, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada sug‘urta kompaniyalarining to‘lov qobiliyatini samarali tashkil etish va yanada faollashtirish ilgari surilgan. Xususan, sug‘urta sohasiga tashqi investorlarni jalb qilishda milliy sug‘urta kompaniyalari (Return on Equity) sof foydasining o‘z kapitaliga nisbatini aks ettiradigan va foiz sifatida ifodalanadigan ko‘rsatkichni oshirish bilan bog‘liq faoliyatni tashkil etish to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta faoliyati, sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyati, sug‘urtada ROE (Return on Equity) ko‘rsatkichi, to‘lov qobiliyati marjasi, sug‘urtada ROA (Return on Assets) ko‘rsatkichi, Solvency I, Solvency II.

Аннотация: в статье предлагается эффективная организация и дальнейшая активизация платежеспособности страховых компаний. В частности, для привлечения иностранных инвесторов в страховой сектор необходимо организовать мероприятия, связанные с увеличением отношения чистой прибыли национальных страховых компаний (Return on Equity) к собственному капиталу, которое выражается в виде процентная информация предоставляется.

Ключевые слова: страховая деятельность, платежеспособность страховых компаний, показатель ROE (Return on Equity) в страховании, маржа платежеспособности, показатель ROA (Return on Assets) в страховании, Solvency I, Solvency II.

Abstract: the article proposes effective organization and further activation of insurance companies’ solvency. In particular, in order to attract foreign investors to the insurance sector, it is necessary to organize activities related to the increase of the ratio of the net profit of national insurance companies (Return on Equity) to their own capital, which is expressed as a percentage. information is provided.

Key words: insurance activity, solvency of insurance companies, ROE (Return on Equity) indicator in insurance, solvency margin, ROA (Return on Assets) indicator in insurance, Solvency I, Solvency II.

KIRISH

Sug‘urta bozorini moliya bozoridagi ulushini yanada oshirishni ta’minlash uchun sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha samarali tadbirlarni keng miqyosda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug‘urta kompaniyalari tomonidan sug‘urtalashga qabul qilib olingan sug‘urta mukofatlari hisobiga jamlanadigan sug‘urta zaxiralarini qisqa va uzoq muddatli investitsiya sifatida samarali ishlatish mexanizmlarini yaratish orqali mamalakat yalpi ichki mahsulotida sug‘urtaning ulushini oshirish mumkin.Sug‘urta sohasiga tashqi investorlarni jalb qilishda milliy sug‘urta kompaniyalarini ROE (Return on Equity) sof foydasining o‘z kapitaliga nisbatini aks ettiradigan va foiz sifatida ifodalanadigan ko‘rsatkichni oshirish bilan bog‘liq faoliyatni tashkil etish sug‘urta bozorini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. ROE investorlarga kompaniyaning o‘z kapitalini qanchalik samarali ishlatishini baholashga imkon beradi. Shuningdek sug‘urta kompaniyalarini muhim ko‘rsatkichlaridan biri – bu ROA (Return on Assets) koefitsientidir, ROA (Return on Assets) kompaniyaning sof foydasining uning aktivlariga nisbatini aks ettiradi, foiz sifatida ifodalanadi va investorlarga kompaniyaning aktivlaridan qanchalik samarali foydalanishini baholashga imkon beradi

Sug‘urta kompaniyalari investitsiya kapitalining asosiy manbalaridan biri hisoblanib sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish orqali kapital bozorida mablag‘lar oqimini samarali harakatini vujudga keltiradi. Sug‘urta kompaniyalari sug‘urta qildiruvchilardan oladigan badallari hisobiga katta miqdordagi sug‘urta fondini shakllantiradi hamda vaqtincha sug‘urta kompaniyasi hisobida yig‘iladigan sug‘urta fondi orqali qisqa va uzoq muddatli investitsiya faoliyatini amalga oshirish huquqidan foydalangan holda samarali investitsion faoliyatni amalga oshiradilar. Sug‘urta kompaniyalari sug‘urta faoliyatini tashkil etish orqali passiv pul oqimlarini aktiv pul oqimlariga aylantiruvchi investorlar sinfini shakllantiradilar. Rivojlangan davlatlarda investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi asosiy investorlar sifatida sug‘urta kompaniyalari kuchli moliya-kredit institutlariga aylanishlari oqibatida sug‘urta mamlakat iqtisodiyotining strategik sektori sifatida tan olinadi. Ayniqsa hayot sug‘urta tarmog‘ida uzoq muddatga tuzilgan shartnomalar orqali kelib tushadigan pul mablag‘lari uzoq muddat davomida sug‘urta kompaniyalarini samarali investorlar sifatida investitsiya bozorida faoliyat olib borishiga sabab bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyatini kengaytirish yo‘nalishlarini takomillashtirishning turli jihatlari MDH olimlari K. G. Voblogo, R. G. Gleyzer, S. V. Kulikova, L. A. Orlanyuk-Malitskoy, G. V. Chernova, K. V. Shiborsha, L. V.Lavrentevalarning ilmiy izlanishlarida ko‘rib chiqilgan. Sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyatini kengaytirish yo‘llari xorijiy olimlarni nazariy yondashuvlarida Evaggelia Siopi, Thomas Poufnas, James Ming Chen, Charalampos Agiropoulos va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarini to‘lov qobiliyatini takomillashtirishni turli jihatlari professor Q. M. Qo‘ldoshev, professor X. M. Shennayev va professor R. S. Azimovlarning ilmiy ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida sug‘urta tashkilotlarining to‘lov qobiliyatini oshirish ulardagi mavjud aktivlarni rentabelligi yuqori bo‘lgan sohalarga investitsiya qilish masalalari yoritilgan bo‘lib O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta tashkilotlarining to‘lov qobiliyatini oshirish yo‘nalishlarini qiyosiy tahliliga e’tibor berilmagan. Ushbu maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat olib borayotgan milliy sug‘urta kompaniyalaridagi mavjud kapital va aktivlardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan hamda MDH davlatlari Rossiya va Qozog‘istondagi sug‘urta bozorini ROE (Return on Equity) va ROA (Return on Assets) ko‘rsatkichlari O‘zbekiston sug‘urta bozori ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi milliy iqtisodiyotning investitsiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga va sug‘urta biznesini rivojlantirishning strategik vazifalarini hal qilishga yordam beradigan sug‘urta kompaniyalarining kapital va aktivlaridan samarali foydalanishning uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan berilgan 2021–2022-yillardagi O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining ROE (Return on Equity) va ROA (Return on Assets) moliyaviy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlardan foydalanilgan holda Rossiya va Qozog‘iston davlatlari sug‘urta bozoridagi ROE (Return on Equity) va ROA (Return on Assets) ko‘rsatkichlari ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil usulidan foydalanib yozilgan.

Shuningdek xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyatini kengaytirish bilan bog‘liq ilmiy ishlardagi statistik tahlil ma’lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug‘urta kompaniyalari uchun to‘lov qobiliyati marjasining haqiqiy hajmi ustav fondi, zaxira fondi, qo‘shimcha fond, iste’mol fondi, jamg‘arish fondi, hisobot yilidagi va o‘tgan yildagi taqsimlanmagan foydani hisobot yilidagi va o‘tgan yildagi qoplanmagan zararlar hajmiga kamaytirish orqali hisoblanadi.

Sug‘urta kompaniyalari sug‘urta faoliyatini tashkil etishlari uchun sug‘urta qonunchiligida belgilangan barcha talablarga rioya etishlari shart. Sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorligini belgilab beruvchi sug‘urta zaxiralarini shakllantirishi, sug‘urta kompaniyalari o‘z aktivlari tarkibini shakllantirishda belgilangan meyorlarga amal qilishi, qayta sug‘urta qilish bo‘yicha kvotalardan chiqib ketmasligi kabi bir qancha faoliyatni samarali amalga oshirishi lozim bo‘ladi.

Sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini belgilovchi yeng muhim mezonlardan biri uning to‘lov qobiliyatidir. Sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyati deganda ularni uzluksiz sug‘urta faoliyatini amalga oshirish jarayonida joriy majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash imkoniyatining mavjudligi tushuniladi.To‘lov qobiliyatining ikki turi mavjud bo‘lib bular ayni vaqtdagi joriy to‘lov qobiliyati va istiqboldagi to‘lov qobiliyatidir.

Joriy to‘lov qobiliyati to‘g‘ridan to‘g‘ri hisob-kitob qilinadigan kreditorlik qarzlari uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini to‘lash imkoniyati mavjudligini bildiradi. Sug‘urta kompaniyasini joriy to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichi majburiyatlarga etarli pul mablag‘larining majudligi bilan belgilanadi. Sug‘urta kompaniyasining istiqboldagi to‘lov qobiliyati rejadagi sug‘urta tushumlari bilan ta’minlanishi hamda likvidli aktivlarga ega bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni samarali tashkil etish bilan belgilanadi.Sug‘urta kompaniyasini to‘lov qobiliyati sug‘urta bozorida o‘z majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarish imkoniyatining mavjudligidir.

O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilarini ya’ni sug‘urta kompaniyalarini to‘lov qobiliyati normativlari quyidagilardan iborat:

- to‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi;
- alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) majburiyatlarining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori;
- sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) majburiyatlari jamining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori.

Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi Nizomga ko‘ra sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi 1 dan kam bo‘lmasligi shart etib beligilangan.

O‘zbekiston Respublikasidagi sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sug‘urta kompaniyasini to‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi to‘lov qobiliyati marjasining haqiqiy miqdorini to‘lov qobiliyati marjasining normativ miqdoriga nisbatini bildiradi.

Umumiy sug‘urta sohasida yoki faqat qayta sug‘urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun to‘lov qobiliyati marjasining normativ miqdori bo‘lib, quyidagi uchta miqdorning eng kattasi hisoblanadi:

- sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sug‘urtalovchi uchun belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdori;
- “mukofotlar usuli” bo‘yicha hisoblangan miqdor;
- “to‘lovlar usuli” bo‘yicha hisoblangan miqdor.

2022-yilning 1-yarim yillik yakunlariga ko‘ra Moliya vaziriligi huzuridagi Sug‘urtani rivojlantirish agentligi hisobotida sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyati marjasi bo‘yicha 1-diagrammada ma’lumotlar keltirilgan.

1-diagrammadagi ma’lumotlarga e’tibor qaratsak O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat olib borayotgan sug‘urta kompaniyalari ichida eng yuqori ko‘rsatkich O‘zbekinvest AJ ga tegishli bo‘lib 2022-yil yakunlariga ko‘ra eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan “APEX INSURANCE” AJ ning to‘lov qobiliyati marjasining yetarlilik ko‘rsatkichi 1,0664 ga teng bo‘lgan bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki “APEX INSURANCE” AJ ning aktivlari va u tomonidan qabul qilingan sug‘urta majburiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik belgilangan talabdan ozroq yuqori lekin ushbu sug‘urta kompaniyasi 2022-yil yakunlariga ko‘ra 576 972 million so‘m sug‘urta mukofatini yig‘ib sug‘urta bozorida birinchi o‘rinni egallagan. Sug‘urta bozorini tartibga solishda sug‘urta kompaniyalarining o‘z moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajara olish qobiliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mexanizmini shakllantirish zarur. To‘lov qobiliyatining asosi bo‘lib, shakllantirilgan ustav kapitali, yetarli sug‘urta zaxiralari, shuningdek qayta sug‘urta qilish tizimining mavjudligi hisoblanadi.

Sug‘urta kompaniyasining ROE (Return on Equity) ko‘rsatkichi sof foydasining o‘z kapitaliga nisbatini aks ettiradi va foiz sifatida ifodalanadi. ROE investorlarga kompaniyaning o‘z kapitalini qanchalik samarali ishlatishini baholashga imkon beradi.

Sug‘urta kompaniyasining ROA (Return on Assets) ko‘rsatkichi sof foydasining uning aktivlariga nisbatini aks ettiradi, foiz sifatida ifodalanadi va investorlarga kompaniyaning aktivlaridan qanchalik samarali foydalanishini baholashga imkon beradi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorini umumiy sug‘urta tarmog‘idagi sug‘urta kompaniyalarini 2022-yil 1-yarim yillikdagi ROE koeffitsiyenti bo‘yicha ma’lumotlar tahlililga e’tibor qaratsak eng yuqori ko‘rsatkich “DD general insurance” AJ (33,9%) , “Global insurance group” AJ (17,5%) , “Xalq sug‘urta” AJ (16,2 %) larga tegishli.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining muhim ko‘rsatkichlaridan biri ROE koeffitsiyenti 2021–2022-yillarda 3–4 foizlik ko‘rsatkichga ega bo‘lgan.



1 - d i a g r a m m a: Umumiy sug‘urta tarmog‘ida to‘lov qobiliyati marjasining yetarlilik ko‘rsatkichlari

O‘zbekiston sug‘urta bozorini umumiy sug‘urta tarmog‘idagi sug‘urta kompaniyalarini 2022-yil 1-yarim yillikdagi ROA koeffitsiyenti bo‘yicha ma’lumotlar tahlililga e’tibor qaratsak eng yuqori ko‘rsatkich “DD general insurance” AJ (14,8 %) , “Global insurance group” AJ (6,9 %) , “Xalq sug‘urta” AJ (5,5 %) larga tegishli.

Rossiya sug‘urta kompaniyalari kapitali rentabelligi ROE koeffitsiyenti 2016–2015-yillarda 24–28 foiz ko‘rsatkichga ega bo‘lib, Rossiya banklari kapitali rentabelligi ROE koeffitsiyenti 2016–2015-yillarda 14–13 foizni tashkil etib sug‘urta sektori rentabelligi bank sektori rentabelligidan baland bo‘lgan va o‘z navbatida bank va sug‘urta sektorlari bir-biri bilan yaxshigina raqobatlashgan[1]. Tahlillarimizga ko‘ra Rossiya sug‘urta bozori ROE koeffitsiyenti o‘rtacha 15 foizdan yuqori ekanligini anglashimiz mumkin.

Qozog‘iston sug‘urta bozori tahliliga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari kapitali rentabelligi ROE koeffitsiyenti 2016–2020-yillarda o‘rtacha 12–14 foizni tashkil etgan.



1 - r a s m: Qozog‘iston sug‘urta bozori kapitali rentabelligi ROE koeffitsiyenti[2]

1 https://acra-ratings.ru/research/422/ “Страховой сектор России привлекает инвесторов высокой рентабельностью”.
2 https://frsi.nationalbank.kz/ “Основные финансовые показатели страхового рынка.

Sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi omillardan biri ularni investitsiya faoliyatini kengaytirish hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar AQSh Yaponiya va Germaniya tajribasidan ma’lumki sug‘urta kompaniyalari uzoq muddatli sug‘urta turlari orqali yig‘ilgan sug‘urta zaxiralarini asosan moliya bozoriga hamda ipoteka va ko‘chmas mulk bozoriga investitsiya qilishi hisobiga yuqori likvidli daromadga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari ya’ni sug‘urta kompaniyalarini asosiy daromadalari tarkibida investitsiya faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi so‘nggi yillarda o‘sish tedentsiyasiga ega ekanligini sug‘urta bozori ko‘rsatkichlari tahlili asosida bilishimiz mumkin. Sug‘urta kompaniyasining rentabelligi va raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan investitsion faoliyatiga bog‘liq. Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta kompaniyalari tomonidan vaqtincha bo‘sh mablag‘larni joylashtirishni tartibga solish bo‘yicha tartib qoidalar ishlab chiqilgan. Mablag‘larni joylashtirish vaqt va makon bo‘yicha ularning majburiyatlari bilan mos kelishi likvidlik va rentabellik talablariga javob berishi kerak.



2 – diagramma: O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari investitsiya faoliyati ko‘rsatkichlari (mln. so‘mda)

O‘zbekiston sug‘urta tashkilotlari so‘nggi yillardagi investitsiya yo‘nalishi deyarli o‘zgarmagan.Sug‘urta tashkilotlari 2015-yildan 2022-yilga qadar depozitlar, qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk, zaymlar, tashkilotlar ustav kapitalidagi ishtirokchilikka va qisman boshqa investitsiyalarga yo‘naltirgan. Sug‘urta tashkilotlari asosan umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat olib borayotganligi ularni uzoq muddatga mo‘ljallangan investitsiya faoliyatini amalga oshirishlariga imkon bermaydi chunki ularni sug‘urta zaxiralari uzoq muddatga shakllanmaydi.

O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta tashkilotlarining uzoq muddatga investitsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun hukumat tomonidan uzoq muddatli investitsiyalarni rag‘batlantirish siyosati olib borilishi va ushbu sohadagi qonunchilikga o‘zgartirishlar kiritilishi mamlakat yalpi ichki mahsulotida sug‘urta mukofatlari hajmini oshishini ta’minlaydi. Xayotni sug‘urtalashga ixtisoslashgan sug‘urta tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatini amalga oshirish orqali sug‘urta sohasini rivojlantirish sug‘urta tashkilotlarini faol investorlarga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalar to‘lov qobiliyatini oshirish uchun ulardagi mavjud aktiv va kapitaldan samarali foydalanish va ularni boshqarish bilan bog‘liq faoliyatni iqtisodiy jarayonlarga mos holda tashkil etish zarur.

Xorijiy davlatlar xususan Hindiston sug‘urta faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish organi IRDAI tomonidan sug‘urta kompaniyalari uchun to‘lov qobiliyati marjasining yetarlilik normativi 1,5 daraja qilib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kreditlar berish tartib va meyorlari ishlab chiqilayotganda banklarga shunday talab qo‘yilishi kerakki unga ko‘ra bank tomonidan ajaratilayotgan kreditni qaytmasligi yoki garovga qo‘yilayotgan mol-mulkni sug‘urtalash shartnomalarini tuzishda sug‘urta kompaniyalarini ROE (Return on Equity) va ROA (Return on Assets) ko‘rsatkichlari hamda to‘lov qobiliyati marjasining yetarlilik normativi ko‘rsatkichini hisobga olgan holda amalga oshirishi lozim. Banklar sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishida birinchi o‘rinda ularning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari va ularni xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini inobatga olishi zarur.

So‘nggi yillarda Yevropa Ittifoqi davlatlari tomonidan qabul qilingan sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyati bo‘yicha Solvency I va Solvency II meyorlarini ba’zi jihatlarini O‘zbekiston sug‘urta bozorini rivojlantirish va nazorat qilishda qo‘llash bo‘yicha tartiblarni ishlab chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/docs/5692504 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2021-yildagi PQ-5265-son qarori “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
2. https://lex.uz/docs/ “Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risida” gi nizomni tasdiqlash haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug‘i. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 12-mayda 1806-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.
3. https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsionirovanie-sistemy-otsenki platezhesposobnosti-strahovoy-organizatsii Л. К. Улыбина, О. А. Окорокова “Эволюционирование системы оценки платежеспособности страховой организации”.
4. https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/284388/1/14-17.pdf Верезубова Т. А. “Развитие системы контроля платежеспособности страховщиков в условиях цифровизации”.
5. https://cbu.uz/oz/financial-stability/research-analysis/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Moliyaviy barqarorlik sharhi” 2022-yil I yarim yillik.
6. https://imda.uz/uz/ “O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining moliyaviy ko‘rsatkichlari” (2022-yil I yarim yillik yakunlari bo‘yicha)
7. https://afk.kz/ru/analytics/obzoryi-finansovogo-sektora/obzor-ryinka obshhego-straxovaniya-2021.html “Рост спроса на продукты имущественного и обязательного страхования обусловили прирост страховых премий на 28%”.
8. https://acra-ratings.ru/research/422/ “Страховой сектор россии привлекает инвесторов высокой рентабельностью”
9. www.sciencebox.uz Journal of Advanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 03 | 2022 ISSN: 2181-2608 Ruzibayev J. N. “O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tartibga solish instrumentlari”.
10. https://frsi.nationalbank.kz/ “Основные финансовые показатели страхового рынка Казахстана” 2016-2021 год.

ПОВЫШЕНИИ РОЛИ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВ В СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ

Жиянова Наргиза Эсанбоена
к.э.н., проф. Ташкентского финансового института

Азимжонова Малика Шавкат қизи
специалист первой категории АКБ “Агробанк”

Аннотация: в статье анализируются особенности и современные тенденции трансформации коммерческих банков, также дается сравнительная оценка трансформации местных банков с банками развитых стран в условиях экономической нестабильности, анализируются стандарты реформирования банковского сектора, а также международный опыт по цифровая трансформация банковской деятельности. В результате анализа установлено, что на трансформацию банковского сектора большое влияние оказывают органы государственного регулирования, степень цифровизации экономики, корпоративная культура в банках, наличие четкой стратегии поэтапного развития банковская деятельность.

Ключевые слова: коммерческий банк, цифровизация, трансформация банков, инновации, банковские риски, мобильные и онлайн-приложения, экосистема, IT-инфраструктура.

Annotatsiya: maqolada tijorat banklari o‘zgartirishning xususiyatlari va zamonaviy tendentsiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy beqarorlik sharoitida mahalliy banklarning rivojlangan mamlakatlar banklari bilan transformatsiyasining qiyosiy bahosi berilgan, bank sektorini isloh qilish standartlari, shuningdek, bank faoliyatini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Tahlillar natijasida bank sektori transformatsiyasiga davlat nazorat qiluvchi organlari, iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasi, banklardagi korporativ madaniyat va bank faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish bo‘yicha aniq strategiyaning mavjudligi kuchli ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlandi.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, raqamlashtirish, banklarning transformatsiyasi, innovatsiyalar, bank risklari, mobil va onlayn ilovalar, ekotizim, IT.

Abstract: the article analyzes the characteristics and modern trends of commercial bank transformation, also provides a comparative assessment of the transformation of local banks with banks of developed countries in the conditions of economic instability, analyzes the standards of banking sector reform, as well as international experiences on the digital transformation of banking activities. As a result of the analysis, it was found that the transformation of the banking sector is strongly influenced by state regulatory bodies, the degree of digitization of the economy, corporate culture in banks, and the existence of a clear strategy for the gradual development of banking activities.

Key words: commercial bank, digitalization, transformation of banks, innovation, banking risks, mobile and online applications, ecosystem, IT.

ВВЕДЕНИЕ

Цифровая трансформация – процесс сложный, но необходимый для эффективного развития и устойчивого роста. На пути к цифровизации стоит множество вызовов: от правильного выбора программного обеспечения и инвестиций в вычислительные мощности до необходимости оптимизации процессов и обучения персонала, включает в себя большой пакет инициатив и призвана повысить эффективность банков за счет оптимизации и автоматизации процессов, совершенствования IT-архитектуры, разработки новых систем и внедрения современных подходов к интеграции. Ожидается, что реализация этих инициатив по цифровой трансформации принесет банку выгоду в размере нескольких десятков миллионов долларов.

Современная тенденция развития экономики приводит к тому, что цифровизация всех процессов является основополагающим фактором при функционировании субъектов экономических отношений. Банковский сектор, как один из основным сегментов экономики, функционирует под влиянием изменений на финансовых рынках. Поэтому нынешнюю траекторию развития коммерческих банков определяет совокупность факторов внешней среды, характеризующейся на данном этапе нестабильностью и повышенными рисками. Особенно, переход к новому технологическому укладу, жесткие регуляторы контроля и повышенная конкуренция бросают вызов всем финансово-кредитным организациям. Поэтому, перед банками стоит задача осуществить переход на новый формат своей деятельности, внедряя инновационные технологии и подходы к управлению, чтобы обеспечить выживание на рынке в долгосрочной перспективе.



Рис. 1: Основные критерии цифровой трансформации банков

В 2018 году исследовательская и консалтинговая компания, специализирующаяся на рынках информационных технологий Gartnerсделал смелый прогноз, сказав, чток 2030 году 80 процентов традиционных финансовых компаний прекратят свою деятельность [8].Gartner связал эти ожидаемые прогнозы с цифровизацией, показав что компании, которые не могут принять цифровую трансформацию, могут потерять свою долю рынка в пользу “глобальных цифровых платформ, финтех-компаний и других нетрадиционных игроков”. С тех пор пандемия COVID-19 ускорила осуществление данных прогнозов, способствовав развитию эры онлайн-банкинга и цифровых платежей.

В данной статье рассматриваются основные направления трансформации банковской деятельности, а также, роль цифровизации в повышении рентабельности банковского сектора и экономики в целом.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Трансформация банков является достаточно сложным процессом и поэтому разработка теоретических основ по данному направлению является одним из важных приоритетов для практического построения эффективного подхода для реформирования банков.

В современном мире роль банка стала постепенно трансформироваться: его функции стали уже не столь исключительными. Например, Васильева Т. А. в своем исследовании доказывает, что банки перестают быть единственными владельцами уникальной информации, а из-за развития финансового инжиниринга и финансовых инструментов сделки заключаются без банковского вмешательства, примером чего могут стать “полные контракты”, предлагаемые небанковскими финансовыми посредниками [9].

О трансформации банковских функций говорит и теория дезинтермедиации, возникшая в начале 21 века. Козлова С. Ю. в своей статье пишет о том, что дезинтермедиация в банковском секторе выражена через утрату и снижение эффективности банковских функций как финансовых посредников [10].

На протяжении последних десятилетий велась научная дискуссия о полном прекращении существования банков, а фраза, сказанная Биллом Гейтсом ещё в 1994 году о том, что миру нужны банковские услуги, но не сами банки [11], стала широко известной. Однако, роль банков в современном мире не столь потеряна и благодаря цифровой эволюции, банки, как субъекты экономических отношений и финансовые посредники, расширяя спектр своих услуг, всё еще функционируют и мы придерживаемся мнения, что на современном этапе банки смогут сохранить свою роль.

Ниже рассмотрены концептуальные подходы основных характеристик деятельности современных банков.

Таблица 1: Характеристика деятельности по типам банков [12, 13]

Тип банка	Характеристика деятельности		
	Кинг Б.	**Исаев Р. А.**	**Васильева Т. А.**
Банк 1.0	• традиционная организационная структура; • интернет, банковские автоматы и колл-центры -“альтернативные каналы”, которые не являются стратегическими функциональными подразделениями	• традиционный или консервативный подход; • не практикует применение современных технологий и стандартов; • неэффективные методы управления рисками; • отсутствие мотивационной системы	• классическая бизнес-модель, направленная на тесные взаимоотношения с клиентом и поддерживающая их обслуживание в отделениях; • предоставление стандартных услуг.
Банк 2.0	• основным приоритетом для банка является изучение потребительского поведения клиентов; • использование инновационных технологийпредусматривающие максимальное удовлетворение потребностей клиентов.	• система, имеющая целенаправленные, обоснованные бизнес-процессы; • технологии используются исходя из тенденций финансового рынка; • система мотивации сотрудников;	• предоставление виртуальных услуг с использованием онлайн-среды;
Банк 3.0	• использование мобильных технологий, социальных медиа и поведенческих игровых моделей	• инновационный подход для обслуживания своих клиентов; • систематизация бизнес процессов; • использование системы KPI; • поощрение инициативы сотрудников.	• в процессе цифровой трансформации, включающую автоматизацию процессови переключение от фронт-конечной активности к цифровым каналам.

Кроме этого, научные труды экономистов, таких как Адзер И., Мамонтов А., Бергер К., Миллар В. и другие, были посвящены исследованию методических основ трансформации организационной структуры банка, а Исаев Р. А., Калтрел С., Королёв В. Ю. Синки Дж. Мл. раскрыли в своих работах методологию стратегического управления банком и механизм бизнес-моделирования. Однако, они допускали упущения, как например то, что большинство из них рассматривали деятельность банка в рамках традиционного подхода, а также оставили открытыми отдельные аспекты преобразования банковского бизнеса в электронную форму.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе исследования нами были изучены тенденции развития цифровых банков, международный опыт по цифровизации банковского сектора и основные аспекты трансформации банков в Узбекистане.

При анализе данных, полученных при изучении процесса цифровой трансформации банков, были широко использованы такие методы как: сравнение, таблично – графические, методы абстрактного мышления и системного подхода.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

На сегодняшний день во всем мире банки находятся в эпицентре цифровой трансформации, поэтому традиционным банкам приходится использовать новые технологии и возможности цифровизации

для того чтобы сохранить конкурентоспособность на финансовом рынке, и стать более динамичными, оперативными и эффективными в удовлетворении потребителей банковских услуг.



Рис. 1: Доля респондентов, которые “в настоящее время используют” или “рассматривают возможность использования” онлайн или мобильных банковских услуг, % [19]

Международной организации PWC, которое осуществляет сегментацию клиентов банковского сектора по их финансовым возможностям и потребностям в цифровых технологиях, делит потребителей на 5 сегментных групп и показывает процентное значение потребителей по предпочтению мобильных или онлайн банковских услуг. Особое внимание при этом уделяется поколению Y и Z, так как это сегмент, который только достигает пикового возраста финансового потребления и рассматриваетсякак потенциальный клиент для банков в ближайшее будущее. Так, 2/3 клиентовпоколений Y и Z отдают предпочтение интернету и мобильным устройствам (рисунок 1), и при выборе банка этой группой людей, намного важную роль играет цифровой набор функций, которые предлагает банк, нежели его расположение и бренд.

По словам Блейка Моргана, автора книги “Клиент будущего”, процесс сегментации клиентов и изучение их потребностей влияет на многие важные аспекты бизнеса, включая обслуживание клиентов, организационную структуру, интеграцию данных, конфиденциальность, логистику и продажи.

Кроме того, в отчётах 2020 года, Deloitteпоказал опрос, в котором приняли участие более 17000 потребителей банковских услуг, и по результатам опроса выяснилось, что 22% потребителей используют каналы онлайн и мобильных приложений более 10 раз в месяц для удовлетворения своих банковских потребностей [15].



Рис. 2: Количество активных пользователей онлайн банкинга в 2020 году с прогнозами до 2024 года (в млн) [19]

По данным международной бизнес-платформы по рынкам и потребителям Statista, использование онлайн-банкинга и мобильного банкинга будет неуклонно расти в период с 2020 по 2024 год, при этом азиатский рынок будет крупнейшим. Как видно из графика, в 2020 году на Дальний Восток и Китай уже приходилось более 800 миллионов активных пользователей онлайн-банкинга. Ожидается, что к 2024

году эта цифра достигнет почти одного миллиарда. По состоянию на 2020 год около 1,9 миллиарда человек во всем мире активно пользовались услугами онлайн-банкинга, и к 2024 году это число, по прогнозам, достигнет 2,5 миллиарда.

Все вышеуказанные факторы способствовали развитию новых инновационных каналов обслуживания, например, экосистемы. Экосистема – это целая сеть/группа сотрудничающих и конкурирующих компаний, предлагающих собственные связанные между собой товары и услуги. В России первая экосистема в банках разработана в Сбербанке, которая функционирует и по сей день. Экосистема Сбербанка включает в себя следующие компоненты: рисковое страхование, электронную коммерцию, управление благосостоянием и брокерские услуги, развлечения, здоровье, е-образование и облачные сервисы. Благодаря созданию технологической экосистемы, Сбербанку удалось привлечь более 50 компаний в периметре экосистемы, более 60 млн ежемесячной аудитории нефинансовых сервисов и т.д. Также, интеграция ИТ инструментов привело к уменьшению стоимости транзакций в два раза. Такие экосистемы разрабатываются практически во всем мире способствуя оптимизации многих операционных процессов и увеличению доходов.

Mobile Banking Rank Узбекистан 2022 – это исследование пользовательского опыта, который складывается из полноты и удобства решаемых задач в мобильных банках для частных лиц. Фокус исследования – управление дебетовыми картами. Кредитные продукты рассматриваются только в части витрины вторичных продаж.

Рис. 3: Оценка банков 2022 года[1]

Результаты исследования позволят оценить вектор развития, ключевые особенности и тренды мобильного банкинга в Узбекистане, увидеть практики и решения для качественного улучшения клиентского опыта и создания конкурентного преимущества.

Уровень цифровизации всех пользовательских задач в мобильных банках Узбекистана не превышает 50%. Часть процессов все еще происходит офлайн: получение справок и документов, управление данными, выгрузка информации по счетам. Эти задачи входят в категорию цифрового офиса и могут решаться через приложение.

Сильное качество мобильных банков Узбекистана – цифровизация платежей. Эта группа задач имеет более высокую среднюю оценку. Планку качества платежей на рынке задают зарубежные банки и платежные системы, такие как Click. Как следствие, весь рынок старается не отставать от их уровня.

Важно отметить, что ни один отечественный банк не вошел в топ-3 по качеству клиентского опыта, а лидерами стали иностранный цифровой банк и платежные системы. Они выделяются на рынке благодаря более широкому охвату пользовательских сценариев, связанных с платежами, и задают высокую планку качества переводов на рынке. Это мотивирует традиционные банки активнее развивать платежи.

1 https://vc.ru/finance/558496-samye-udobnye-mobilnye-banki-uzbekistana-dlya-chastnyh-lic-rezultaty-issledovaniya-markswebb

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Основываясь на результаты анализа исследуемой темы можно сделать следующие выводы:

Банки, как финансовые институты играют решающую роль в эффективном распределении сбережений и инвестиций в рыночной экономике и важны для стабильности всей финансовой структуры. Поэтому, они должны одновременно реформироваться вместе с экономикой и иметь гибкие инструменты. Внедрение цифровизации в банках – это возможность для эффективного построения новой модели функционирования банков, также это инструмент который требует применение основ поведенческой экономики в банковской деятельности.

Теоретические и практические результаты анализа и оценки цифровой трансформации банков послужили формированию следующих предложений:

1. Каждый банк, исходя из своих интересов и направлений деятельности, должен разработать четкую дорожную карту цифровой трансформации для поэтапного внедрения новых инновационных сервисов, что в свою очередь может привести к оптимизации операционных расходов и увеличению прибыли;
2. Разработайте план действий для обеспечения операционной эффективности и финансовой устойчивости. Необходимо создавать новые цифровые продукты, соответствующие региональным и маркетинговым стратегиям для дальнейшего развития в рыночных условиях;
3. Важно укреплять корпоративное управление и укреплять корпоративную культуру с упором на открытую коммуникацию и продвижение амбициозных целей;
4. Клиентоориентированность. Внедрение тех цифровых продуктов и услуг, которые удовлетворяют потребности клиентов и одновременно удовлетворяют требования банка по прибыльности.

Несмотря на то, что в современном этапе экономического развития банки столкнулись с потребностью трансформации всех своих бизнес-процессов, цифровизации услуг и изменения подхода функционирования, нужно отметить, что именно это и привело к новой эре цифровых банков, которые имеют более гибкие подходы к неустойчивым экономическим изменениям и более широкий спектр продуктов и услуг чем традиционные банки.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан от 08.06.2015 г. №ЗРУ- 387 “О рынке ценных бумаг”;
2. Закон Республики Узбекистан от 25.12.2019 г. №ЗРУ -598 “Об инвестициях и инвестиционной деятельности”;
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 года № УП-60 “О Стратегии развитии Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”;
4. Указ Президента Республики Узбекистан от 09.01.2018 г. № УП-5296 “О мерах по коренному совершенствованию деятельности Центрального банка Республики Узбекистан” ;
5. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5992 от 12.05.2020 года “О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы”
6. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. Ташкент, 24 января 2020 года (www.president.uz).
7. Gartner: “Gartner Says Digitalization Will Make Most Heritage Financial Firms Irrelevant by 2030,” October 29, 2018.
8. Васильева, Т.А. Концепция банк. 3.0: Глобальные тенденции и последствия // OpenJournal Systems. [Электронный ресурс]. – URL: http://fkd.org.ua/article/view/107714/105099 (дата обращения: 17.03.2018).
9. Жиянова Н. Э., Куйлиева А. Ш. Пути улучшения показателей Республики Узбекистан в индексе экономической свободы//Инновации в экономике 2022 л, октябрь Том 4 № 10 https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/3582/3417
10. Жиянова Н.Э., Азимжонова М.Ш. Цифровая трансформация банков как путь к устойчивому развитию экономики// “Science and Education” Scientific Journal, ноябрь Vol. 2 № 11 2021, 1186-1197. https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2114
11. Жиянова Н. Э. Управление государственными финансами: Учебник./ – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019. – 444 с.;
12. Жиянова Н. Э., Ташматова Р. Г. Бюджетно-налоговая политика. Учебное пособие. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2019. – 216 с.;
13. Козлова, С.Ю. Дезинтермедиация в банковском секторе: сущность и особенности проявления // Теория и практика общественного развития. – 2012. – [Электронный ресурс]. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/dezintermediatsiya-v-bankovskom-sektore-suschnost-i-osobennosti-proyavleniya (дата обращения: 27.02.2019).
14. Банк 3.0. Почему сегодня банк – это не то, куда вы ходите, а то, что вы делаете // Банки.ру [Электронный ресурс]. – URL: https://www.banki.ru/news/daytheme/?id=7194663 (дата обращения: 28.12.2018).
15. Кинг, Б. Банк 3.0. Почему сегодня банк – это не то, куда вы ходите, а то, что вы делаете [Пер. с англ. М. Мацковской]. – М.: ЗАО “Олимп-Бизнес”, 2014. – 520 с.
16. www.pwc.com – официальный сайт международной компании PricewaterhouseCoopers.
17. www.deloitte.com – официальный сайт международной компании Deloitte.
18. www.statista.com – официальный сайт немецкой компании, специализирующейся на рыночных и потребительских данных.
19. https://vc.ru/finance/558496-samye-udobnye-mobilnye-banki-uzbekistana-dlya-chastnyh-lic-rezultaty-issledovaniya-markswebb

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA TEJAMKOR ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISHDA MEHNAT RESURSLARI VA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Yaxyayeva Inobat Karimovna
TDIU dotsenti, PhD.

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada to‘qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish rejasining bajarilishida jamoaning har bir a’zosi hissasi bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi, ishlab chiqarish quvvatlaridan va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishning asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Ushbu maqola tejamkor ishlab chiqarish mavzusi doirasidagi ilmiy ish natijasi talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik korxonasi, mehnat resurslari, ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish tejamkor ishlab chiqarish.

Аннотация: в данной научной статье проанализированы основные показатели увеличения объема производства, рационального использования производственных мощностей и трудовых ресурсов с вкладом каждого члена коллектива в выполнение экономичного производственного плана на текстильных предприятиях. Данная статья интерпретируется как результат научной работы в рамках темы бережливого производства.

рост количества работников в хлопково-текстильных кластерах на 1 ед. приводит к росту объемов экспорта ХТК на 0,055 ед. (при условии неизменности других показателей);

рост заработной платы работников хлопково-текстильных кластеров на 1 ед. увеличивает объемы экспорта на 0,226 ед. (при условии неизменности других показателей).

Построенная модель с фиксированными эффектами имеет вид:

$$LNEXP = 5{,}81 + 0{,}037 \times LNINV + 0{,}055 \times LNNEMP + 0{,}226 \times LNWAGES$$

На основе модели панельных данных можно осуществить прогноз значений объемов экспорта хлопково-текстильной продукции любого из четырнадцати участвующих в исследовании регионов Узбекистана. Кроме того, можно экспериментально осуществить более долгосрочный прогноз, чтоб увидеть к какому году при прочих равных условиях регионы Узбекистана войдут в категорию регионов с высоким экспортным потенциалом.

Фактические (Actual), рассчитанные (Fitted) значения многофакторной модели и различия между ними (Residual) показаны на рисунке 1.



Рис. 1: Фактические (Actual), рассчитанные (Fitted) значения многофакторной модели и различия между ними (Residual)[4]

Как видно из рисунка 1, график расчетных значений экспорта продукции хлопково-текстильных кластеров в Республике Узбекистан для многофакторной модели очень близок к графику его фактических значений, различия между ними не значительны.

При прогнозировании результата на будущие периоды необходимо для построенной модели рассчитать коэффициент MAPE (Mean absolute percent error – средняя абсолютная ошибка в процентах). Если значение рассчитанного коэффициента MAPE меньше 15,0 процента, модель можно использовать для прогнозирования фактора результата, в противном случае ее нельзя использовать. Коэффициент MAPE находится по следующей формуле:

$$MAPE = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\frac{|y_i - \hat{y}_i|}{y_i} \cdot 100\% \qquad (1)$$

где y_i – фактические значения результирующего фактора, $\hat{y}_i$ – расчетное значение результирующего фактора.

Значение коэффициента MAPE объема экспорта хлопково-текстильных кластеров в Республике Узбекистан, составляет 1,35% (рис. 2).

4 Построено автором с использованием программного продукта Eviews.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



Forecast: LNEXPF	
Actual: LNEXP	
Forecast sample: 2018 2022	
Included observations: 70	
Root Mean Squared Error	7.808550
Mean Absolute Error	7.594411
Mean Abs. Percent Error	444.2707
Theil Inequality Coefficient	0.695953
Bias Proportion	0.945905
Variance Proportion	0.044356
Covariance Proportion	0.009739
Theil U2 Coefficient	92.40284
Symmetric MAPE	135.3561

Рис. 2: MAPE коэффициент по расчетной модели[5]

Проведенное исследование показало, что модель (2) можно использовать для осуществления на ее основе прогноза, предварительно спрогнозировав объясняющие переменные на основе трендов (табл. 3.21).

РЕЗУЛЬТАТЫ

На основе результатов, полученных с помощью прогнозной модели панельных данных, было выявлено, что с вероятностью 62% объем экспорта хлопково-текстильной продукции Узбекистана за последующие пять лет 2023-2026 гг. вырастет по сравнению с 2022 г. всего лишь на 25%. В целях интенсификации процессов экспортоориентированности следует разработать и реализовать стратегические меры по увеличению притока инвестиционных ресурсов, улучшению производственных показателей и повышению оплаты труда в хлопково-текстильной отрасли Узбекистана.

Таким образом, проведенное исследование показало, что в деятельности хлопково-текстильных кластерных систем Узбекистана имеется ряд проблем, которые негативно влияют на объемы экспорта – низкий уровень оплаты труда и недостаток финансовых ресурсов, слабая конкурентоспособность производимой продукции, значительная дифференциация в количестве кластеров по регионам республики и др.

Построенная модель подтвердила факт зависимости объемов экспорта хлопково-текстильных кластеров от кадрового потенциала. Кроме того, модель показала наличие слабой связи между привлеченными инвестиционными ресурсами в основной капитал регионов и экспортом, указывая, что большая часть ресурсов направляется на развитие отличных от хлопково-текстильной сектора отраслей, что может свидетельствовать о неэффективном распределении привлеченных инвестиционных ресурсов на территориях страны.

Не перестает быть ключевым вопрос совершенствования экономических механизмов повышения экспортного потенциала в хлопково-текстильных кластерах, для чего особенно важно, чтобы регионы переключились с пассивной стратегии на стратегию развития. Необходимо проведение системной работы по внедрению современных и инновационных технологий в хлопково-текстильное производство, конечная цель которых – увеличение объемов экспорта, повышение результативности производственной деятельности, что призвано повысить конкурентоспособность отрасли и национальной экономики в целом.

ВЫВОДЫ

Операционная стратегия включает в себя комплекс адаптивных управленческих решений, направленных на управление деятельностью производственного предприятия с учетом реакции на изменения внутренней и внешней среды. Операционная стратегия тесно связана со стратегическим, тактическим и оперативным видами взаимодействия

Исследование показало, что внедрение кластерных систем в хлопково-текстильной отрасли Узбекистана имело преимущественно позитивный результат – увеличение объемов производства и рост уро-

5 Построено автором с использованием программного продукта Eviews.

жайности хлопка, значительное улучшение качества текстильной продукции, увеличение объемов привлекаемых инвестиционных ресурсов и внедрение в аграрный сектор инновационных технологий, рост занятости и доходов населения, интеграция и гармонизация промышленности с аграрным сектором, что в целом привело к значительному повышению уровня конкурентоспособности национальной экономики.

- Построенная эконометрическая модель показала, для того что бы достигнуть высоких темпов роста и интенсификации кластерного производства требуется:
- Формирование правовых механизмов, способствующих росту иностранных инвестиций в регионы республики.
- Повышение эффективности производства, создание условий для внедрения инновационных продуктов и услуг в регионах.
- Повышение качественного уровня благосостояния работников хлопково-текстильных кластеров, что призвано повысить их заинтересованность в трудоустройстве.
- Повышение конкурентоспособности, самостоятельности и рентабельности хлопково-текстильных кластеров.

Важно отметить, что существует ряд проблем, создающих препоны в развитии хлопково-текстильных кластеров, в том числе правового и организационного характера (недостаточно развитая нормативно-правовая база деятельности кластеров, взаимоотношения между кластерами и фермерскими хозяйствами, рост монополии регионов, занимающих лидирующие позиции в производстве, экспорте и импорте продукции хлопково-текстильных кластеров и др.). Но в целом кластерные системы за счет рационального размещения производительных сил и значительного увеличения добавленной стоимости в аграрном секторе показали свою эффективность и целесообразность.

Список использованной литературы:

1. Барсуков Д. П. Формирование промышленного кластера: теоретические и методические аспекты: монография/ Д. П. Барсуков, В. С. Кудряшов: под общ. ред. Д. П. Барсукова. – СПб.: СПбГУКиТ, 2014. – 170 с.
2. Бегов Д.М. Эффективность формирования регионального хлопково-текстильного кластера (на материалах Согдийской области). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе, 2020. – 162 с.
3. Хайдарзода М. Формирование и развитие региональных текстильно-швейных кластеров (на материалах Центрального Таджикистана) // Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе, 2018. – 26 с.
4. Циренщиков В.С. Цифровизация экономики Европы//Современная Европа.- 2019.- №3,- с.104-113.
5. Шакирова Ю.С. Перспективы развития текстильной промышленности Узбекистана и возможности увеличения экспортного потенциала//Бюллетень науки и практики. – 2021. Т.7 №12. С. 256-263
6. Шибина М.А., Морозко Н.И. Оценка эффективности деятельности предприятия // Интернет-журнал “НАУКОВЕДЕНИЕ” Том 7, №2 (2015) http://naukovedenie.ru/PDF/118EVN215.pdf
7. Прытков Р.М., Немирова Г.И. Формирование и развитие экспортного потенциала региона // Вестник ОГУ. 2011. №13 (132). С. 387-393. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-i-razvitie-eksportnogo-potensiala-regiona
8. Молчан А.С., Толстых Т.О., Надаенко А.Ю. Принципы формирования и развития экосистем и их влияние на стратегию промышленного менеджмента // Экономика устойчивого развития. 2020. № 1 (41). С. 124-128
9. Королев, В. И. Проблемы организации выхода компании на внешний рынок / В. И. Королев // Рос. внешнеэкон. вестн. – 2016. – № 11. – С. 23–31.
10. World Bank Group – International Development, Poverty, & Sustainability https://www.worldbank.org/
11. Вепрова, Р.Н. Стратегические решения на операционном уровне управления компанией// Известия Иркутской государственной экономической академии. – 2011. – № 1. – Режим доступа http://eizvestia.isea.ru
12. Салмина О.И. Операционная стратегия промышленного предприятия в условиях неопределенности и риска: дисс. на соискание ученой степени канд. экон. наук, Белгород, 2013, с.51

SOLIQ TO‘G‘RISIDAGI QONUNLARNI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIKKA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li
TDIU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada soliq yo‘nalishida sodir etilgan qonunbuzarliklarni bartaraf etish hamda ularni yuridik javobgarlikka tortishning sabablari batafsil keltirib o‘tilgan. Ma’lumotlar mamlakatimizning huquqiy-me’yoriy manbalari va chet el mamlakatlari soliq tizimlari bilan taqqoslagan holda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Soliq kodeksi, javobgarlik, jarima, operativ faoliyat, nazorat-kassa mashinalari, qujuqiy erkinlik.

Abstract: this article details the reasons for eliminating tax violations and bringing them to legal responsibility. The data was analyzed in comparison with the legal and regulatory sources of our country and the tax systems of foreign countries.

Key words: tax Code, responsibility, fine, operative activity, cash registers, legal freedom.

Аннотация: в данной статье подробно описаны основания для устранения налоговых правонарушений и привлечения их к юридической ответственности. Данные были проанализированы в сравнении с нормативно-правовыми источниками нашей страны и налоговыми системами зарубежных стран.

Ключевые слова: налоговый кодекс, ответственность, штраф, оперативная деятельность, контрольно-кассовые машины, юридическая свобода.

KIRISH

Har bir davlatning rivojlanishida qonun ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik hujjatlar tizimida qonunlarning ustuvorligi, ya’ni ushbu hujjatlarning qonunlarga muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Davlat boshqaruvi organlari qonunlar asosida va ularni bajarish yuzasidan chiqargan qarorlarning davlatning quyi organlari va mansabdor shaxslar hujjatlaridan ustun bo‘lishi quyidagi sohalarni o‘z ichiga oladi:

- mahalliy organlar markaziy hokimiyat organlarining hujjatlarini qat’iyan bajarishi, joylarda qonunlarga muvofiq borayotgan operativ faoliyatga markaziy organlarning aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligiga;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini suiiste’mol qilmasligi, davlat va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarga nisbatan biror-bir zo‘ravonlik qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularning huquqlarini himoya qilish;
- fuqarolariing jamiyat, davlat va boshqa fuqarolar oldidagi o‘z huquqiy burchlarini mas’uliyat bilan ado etishlari, qonuniylik jamiyat normal faoliyatining asosi, mustaqil davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishning zarur va g‘oyat muhim shartdir. Har qanday jamiyatda qonun ustuvorligi ko‘pgina muammoli vaziyatlarning kelib chiqishini oldini oladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortish choralari mavjud. Ushbu javobgarlik jismoniy va yuridik shaxslar uchun birdek amal qiladi. Dastlab soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasiga e’tibor qaratsak: Soliq to‘lovchining Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e’tirof etiladi.

Uning quyidagi turlari mavjud:

- davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo‘yin tovlash,
- kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko‘rsatish),

- soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish,
- buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish,
- faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug‘ullanish,
- hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish,
- fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan va to‘lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo‘yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanish tartibini buzish,
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddatlarini buzish,
- yer uchastkalaridan ularga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish[1].

Bundan tashqari har bir soliq to‘lovchi soliqlar va majburiy to‘lovlarni yilda ikka martta 15 aprel hamda soliq to‘lashning oxirgi muddati 15 oktyabrga qadar to‘lashi talab etiladi. Kechiktirilgan taqdirda har kunlik penya hisobanadi. O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 212 moddasiga ko‘ra hech bir shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo‘yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Albatta bunga yetarlicha huquqiy asos bolgandagina ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish mumkin. Soliqqa oid har qanday huquqbuzarlik uchun ikki yoki uch marta javobgarlikka tortish mumkin emas. Dastlab jinoyat ishi ochilishidan oldin soliq to‘g‘risidagi qonunga nuvofiq keltirilgan asosi(-fakti) bilan soliq organining kuchga kirgan qarorirdagina asos bo‘la oladi. Misol tariqasida shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi uni to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar (yig‘imlar) va penyalarning summalarini to‘lash (o‘tkazish) majburiyatidan ozod etmaydi.Soliqqa oid huquqbuzarlik fakti va shaxsning uni sodir etishda aybdorligi to‘g‘risida dalolat beruvchi holatlarni isbotlash majburiyati soliq organlarining zimmasiga yuklatiladi[2]. Soliq kodeksining 213-moddasiga ko‘ra javobgarlikka tortishni istisno etuvchi ba’zi holatlar ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan;

1) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi;
2) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi;
3) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa holatlar mavjud bo‘lganda ham shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas[3].

Xalqaro nuqtayi nazar bilan qaraydigan bolsak birgina Kanada davlatida ham soliq tizimi ustuvor vazifalarni o‘z ichiga olgan strategic tuzilma hisoblanadi. U yerda Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash sizga qimmatga tushishi mumkin. Har qanaqasiga soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyat hisoblanadi. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlar sudda javobgarlikka tortiladi, shu jumladan jarimalar va/yoki qamoq jazosi qo‘llanilish ehtimoli yuqori. CRA vositalari va muvofiqlik strategiyalari soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlarni ushlashga va soliqdan bo‘yin tovlash sxemalarini targ‘ib qiluvchilarni aniqlashga yordam beradi. Yana bir faktga qaraydigan bo‘lsak Kuchli texnologiyalar hamda markazlasjhan qurilmaviy dasturlar yordamida Kanada ham ichki, ham xalqaro miqyosda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlagan shaxslarni aniqlay oladi va ularning oqibatlariga duch kelishini ta’minlaydi[4].

TAQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola tadqiqotidayuridik javobgarlikka tortish maqsadida tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan. Bu usul qonunchilikni tahlil qilish orqali yuridik muammolarni huquqiy asoslash yuridik javobgarlikka tortishning huquqiyasoslash zarurligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu usul maqola normalarning ishlash mexanizmini, ularning mantiqiy va izchil joylashishini aniqlash imkonini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Biz o‘tkazgan tahlilimizdan natijasiga ko‘ra soliqqa oid jinoyatlarning aksariyati soliqqa tortishdan qochish tushunchasi bilan izohlashimiz mumkin. Biz soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarida, soliq to‘lovchi sun’iy ravishda shart-sharoit yaratganda qonundan foydalangan holda me’yoriy belgilashdan chetga chiqadigan bitimni amalga oshirishbo‘sh joy, noqonuniy, asosiy yoki eksklyuziv maqsad – soliq imtiyozlariga erishish hisoblanadi. Soliq to‘lashdan qochish yoki shunga o‘xshash bo‘yin tovlashlik xatti-harakatini amalga oshirganlik uchun tegishli tartibda qonun doirasida chora ko‘riladi. Misol uchun davlat ro‘yxatidan o‘tgan soliq to‘lovchi soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamagan taqdirda uning har bir kuni uchun qo‘shimcha ravishda kunlik penya ko‘rinishida jarima qo‘llanila boshlaydi. Bu jarayonda soliq to‘lovchi ogohlantiriladi. Biroq, chet elda soliq to‘lashdan qochganlik uchun esa bir qator choralar qo‘llanilar ekan. Jumladan:

1 https://zarnews.uz/uz/post/soliqqa-oid-huquqbuzarlik-tushunchasi-nima-uning-qanday-turlari-mavjud
2 https://lex.uz/ru/docs/-4674902
3 https://lex.uz/docs/-4674902
4 https://www.canada.ca/en/revenue-agency/campaigns/tax-evasion-no-borders.html

Jarimalar: soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlar nafaqat o‘zlarining dastlabki soliq qarzini ortiqcha foizlarni to‘lashlari kerak, balki har bir ayblov katta jarimalar bilan jazolanadi. Jismoniy shaxslar 100,000 ming dollargacha jarimaga tortilishi mumkin.

Qamoq: Aniqlashdan bo‘yin tovlash va to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun turli xil maksimal jarimalar mavjud. Shartlar vaziyatga qarab bir necha oydan bir necha yilgacha bo‘lishi mumkin.

Shaxs nafaqat to‘lanmagan soliqlarni to‘laganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin, balki ular rasmiy ayblovlar bo‘yicha aybdor deb topilishi va ehtimol qamoq jazosiga hukm qilinishi mumkin.

IRS ma’lumotlariga ko‘ra, jazolar besh yildan ortiq bo‘lmagan qamoq muddati, jismoniy shaxslar uchun 250,000-500,000 dollardan ko‘p bo‘lmagan jarima yoki korporatsiyalar uchun XNUMX dollar yoki ikkalasini ham o‘z ichiga oladi5.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib shunday xulosaga kelinadiki, har bir mamlakatda soliq tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi davlar budjetini rivojlantirishda ham soliq tizimi alohida yo‘nalish hisoblanadi. 2023- yildan boshlab soliq tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab takliflar ishlab chiqilmoqda. Bularni aksariyati soliqdan qochishni oldini olish yoxud xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun xizmat qiladi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Albatta davlat ro‘yxatidan o‘tgan har qanday soliq to‘lovchi zimmasiga yuklatilgan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab borsa qonunchilik nuqtayi nazaridan hech qanday muammo yuzaga kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://zarnews.uz/uz/post/soliqqa-oid-huquqbuzarlik-tushunchasi-nima-uning-qanday-turlari-mavjud
2. https://lex.uz/ru/docs/-4674902
3. https://lex.uz/docs/-4674902
4. https://www.canada.ca/en/revenue-agency/campaigns/tax-evasion-no-borders.html
5. https://kiiky.com/uz/wealth/tax-evasion/

5 https://kiiky.com/uz/wealth/tax-evasion/

HAYOT SUG‘URTASINING RIVOJLANISHI VA UNING IJTIMOIY HAYOTDAGI O‘RNI

Baratova Dinora Alisherovna
TDIU “Soliqlar va sug‘urta” ishi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqola hayot sug‘urtasining mohiyati, xususiyati va uning ishlash mexanizmi, hozirgi kundagi bozorning holati, asosiy ko‘rsatkichlari tahlili keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga, maqolada O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta bozoridagi o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, sug‘urta mukofoti, sug‘urta shartnomalari, sug‘urta kompaniyalari, sug‘urta majburiyati, sug‘urta to‘lovlari, hayot sug‘urtasi, sug‘urta bozori.

Аннотация: в данной статье описаны сущность, особенности и механизм страхования жизни, современное состояние рынка, анализ основных показателей. В то же время в статье представлена информация о роли страховых компаний, действующих в Узбекистане, на страховом рынке.

Ключевые слова: Страхование, страховая премия, договоры страхования, страховые организации, страховая ответственность, страховые выплаты, страхование жизни, страховой рынок.

Abstract: this article describes the nature, characteristics and mechanism of life insurance, the current state of the market, the analysis of the main indicators. At the same time, the article provides information about the role of insurance companies operating in Uzbekistan in the insurance market.

Key words: insurance, premium, contract, organization, responsibility, payment, jizni, market.

KIRISH

Hayot sug‘urtasi shaxsiy sug‘urta tarmog‘ining asosini tashkil etib, mazkur sug‘urta orqali insonning hayoti uning vafot etishidan, ma’lum yoshga yetishidan, kasallikdan, baxtsiz hodisalardan, inson hayotidagi muhim voqealar hisoblanuvchi farzand tug‘ilishi, nikohga kirishish va boshqal bilan ifodalanadi. Kutilmagan holatlar natijasida yuzaga keladigan moddiy manfaatlar tomonlar o‘rtasida ixtiyoriylik asosida tuzilgan sug‘urta shartnomasida kelishilgan sug‘urta summasi doirasida sug‘urtalovchi tomonidan qoplab berilishidan iborat sug‘urta faoliyatidir.

Hayot sug‘urtasining obyekti bo‘lib insonning hayoti bilan bog‘liq mulkiy manfaatlar hisoblanadi. Predmeti sifatida insonning vafot etishi, kasallik, baxtsiz hodisa, farzand tug‘ilishi, nikohga kirishish va boshqa holatlar hisoblanadi.

Hayot sug‘urtasida sug‘urta hodisasi sifatida tuzilgan sug‘urta shartnomasi muddatining tugashi, ya’ni sug‘urtalangan shaxsning shu muddatgacha yashashi, hayotni aralash sug‘urtasi turlarida esa sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida sug‘urtalanuvchining vafot etishi, ishlab chiqarish yoki boshqa sharoitlarda jarohat olishi holatlari sug‘urta hodisasi sifatida qabul qilinadi. Bu xalqimizning o‘zaro yordam, tayanch va ijtimoiy himoya kabi an’analariga mos keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqolani yozishda ko‘plab sug‘urta bo‘yicha ish olib borgan olimlarning maqolalari, o‘quv qo‘llanma va darsliklari o‘rganildi. Misol uchun Q.M. Qo‘ldoshevning "Sug‘urta nazariyasi" o‘quv qo‘llanmasi va "Sug‘urta texnologiyalari" darsligi, X.Shinnayevning "Sug‘urta ishi "darsligi va I.Abduraximonovning "Sug‘urta nazariyasi" amaliyoti darsliklarida hayot sug‘urtasining iste’molchilari, hayot sug‘urtasining umumiy sug‘urta bozorida tutgan o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada mavzuni o‘rganish uchun ma’lumotlarni to‘planib, o‘rganilib chiqildi. O‘rganish natijasida statistik solishtirma usullarda tahlil qilinib, natijalar foizlarda ifodalandi. Olingan natijalar asosida ijobiy taklif va xulosa berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hayot sug‘urtasi boshqa sug‘urta turlari kabi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi, unga ko‘ra sug‘urtalanuvchi tomonidan to‘langan sug‘urta mukofoti evaziga shartnomada kelishilgan sug‘urta summasini shartnomaning amal qilish davrida shartnomada ko‘zda tutilgan holatlar (vafot etish yoki ma’lum yoshga yetish va boshqa holatlar) yuz berganda to‘lab berishni sug‘utalovchi o‘z zimmasiga oladi. Shu bilan birga mazkur shartnoma sug‘urtalanuvchining huquq va majburiyatlarini ham tartibga soladi.

Umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalarning ayrimlari sho‘ba tashkilot sifati hayot sug‘urta kompaniyalarining faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Ular quydagilar:

1 - j a d v a l: Hayot sug‘urta kompaniyalariga ega sug‘urta kompaniyalar

№	Umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yuritadigan sug‘urta kompaniyalari	Hayot sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yuritadigan sug‘urta kompaniyalari
1.	“O‘ZBEKINVEST” eksport-import sug‘urta kompaniyasi	“O‘zbekinvest Hayot” MCHJ shaklidagi Sug‘urta kompaniyasi
2.	“Uzinsurance” Aksiyadorlik jamiyati	“AGROS HAYOT” MCHJ shaklidagi Sug‘urta kompaniyasi
3.	“KAFOLAT Sug‘urta kompaniyasi” Aksiyadorlik jamiyati	“Kafolat Hayot” MCHJ shaklidagi Sug‘urta kompaniyasi
4	“ALFA INVEST” Mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi Sug‘urta tashkiloti	“ALFA LIFE” Sug‘urta tashkiloti SHXJ
5	“APEX INSURANCE” Mas’uliyati cheklangan jamiyat	“APEX LIFE” Sug‘urta kompaniyasi
6	MCHJ “EUROASIA INSURANCE” Qo‘shma korxonasi	“EUROASIA-LIFE” MCHJ shaklidagi Sug‘urta kompaniyasi
7	“ALSKOM” Sug‘urta kompaniyasi Aksiyadorlik jamiyati	“Alskom vita” Sug‘urta kompaniyasi
8	MCHJ “GROSS INSURANCE”	“NEW LIFE INSURANCE” MCHJ shaklidagi Sug‘urta kompaniyasi

Sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan barcha kompaniyalar ham o‘zlarining hayot sug‘urta kompaniyalariga ega emas. Lekin yuqoridagi sug‘urta kompaniyalar o‘zlarining sho‘ba kompaniyalarini ochib, hayot sug‘urta kompaniyalari faoliyati bilan shug‘ullanadi.

2002-yil 27-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 413-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari”[1] deb nomlangan qarori asosida qabul qilingan sug‘urta faoliyati klassifikatoriga ko‘ra hayot sug‘urtasi tarmog‘i to‘rtta klassga ajratilgan bo‘lib, ular 1-klass “Hayot va annuitetlar”, 2-klass “Nikoh va tug‘ilish”, 3-klass “Hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish” va 4-klass “Sog‘liqni sug‘urta qilish” deb ataladi.

Yuqoridagi qaror asosida qabul qilingan “Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida”gi nizomga ko‘ra hayot sug‘urtasiga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyasi umumiy sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas, umumiy sug‘urtadagi “Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish” deb nomlangan 1-klass hamda “Kasallikdan ehtiyot shart sug‘urta qilish” deb nomlangan 2-klasslar bundan mustasno deb belgilab qo‘yilgan.

Ammo, shuni ta’kidlash kerak, Fuqarolik kodeksining “Sug‘urta” deb nomlangan 52-bobida hayot sug‘urtasi to‘g‘risida tushuncha berilmagan bo‘lib, faqat shaxsiy sug‘urta shartnomasi to‘g‘risida modda mavjud.

Hayot sug‘urtasi barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar 9iqtisodiyoti uchun katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega, shu jumladan O‘zbekiston uchun ham. O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining rivojlanish istiqbollariga asos bo‘luvchi holatlar sifatida ko‘pgina dunyo mamlakatlariga nisbatan aholi soni o‘sish darajasining yuqoriligi va bu aholining mehnatga layoqatli qismining o‘sishiga hamda ularning ishlab chiqarishning yetakchi sohalariga jalb qilinayotganligi bilan, aholi daromadlarining sezilarli darajada oshib borayotganligi, tadbirkorlik sohalarining rivojlanib borayotganligi va o‘z o‘rnida risk darajasining ortib borayotganligi holatlarini keltirish mumkin.

Albatta, mustaqillikka erishilgandan keyingi o‘tish davridagi iqtisodiyot hamda ijtimoiy hayotdagi transformatsion jarayonlar, iqtisodiyotdagi yuqori inflyasiya, oylik maoshlarning pastligi, moliya bozoridagi o‘zgaru-

[1]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2002-yil 27-noyabr.

vchanlik, iqtisodiyotdagi turg‘unlik va shu kabi holatlarning ta’sirida hayot sug‘urtasining rivojlanishiga shart-sharoitlar yo‘qolgan edi.

2002-yil 27-noyabrda Vazirlar Mahkamasining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 413-sonli qarori asosida sug‘urta faoliyati klassifikatori qabul qilindi. Ushbu meyoriy hujjatlar asosida hayot sug‘urtasi bo‘yicha O‘zbekistonda qonunchilik birmuncha takomillashdi. Natijada mamlakatimizda hayot sug‘urtasiga ixtisoslashgan birinchi kompaniya “O‘zbekinvest hayot” ShKsi 2004-yilda o‘z faoliyatini boshladi. Hozirgi kunda ularning soni 8 taga etdi (2-jadvalga qarang).

2 - j a d v a l: O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining rivojlanish dinamikasi (jami sug‘urta mukofotlariga nisbatan hayot sug‘urtasi kompaniyalari ulushi, % da)[2]

№	Sug‘urta kompaniyalari	Yillar								
		2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	O‘zbekinvest Hayot	3,8	4,1	5,2	6,8	6,2	4,1	22,4	10,9	15.1
2.	Alfa Life	0,5	0,7	1,0	1,9	1,5	2,9	6,4	7,3	10.9
3.	New Life Insurance	0,5	1,4	2,3	4,8	9,8	9,3	26,3	37,3	46.4
4.	Agros Hayot	-	-	-	1,4	7,9	4,2	18,8	15,8	10.4
5.	Euroasia Life	-	-	-	-	0,1	3,3	10,9	7,4	7.9
6.	Kafolat Hayot	-	-	-	-	0,01	1,0	6,8	8,9	9.4
7.	Apex Life	-	-	-	-	-	0,5	5,2	7,4	7.9
8.	Alskom Vita	-	-	-	-	-	0,1	2,4	1,9	1.06
	Hayot sug‘urtasining jami sug‘urta bozoridagi hissasi	4,9	6,2	8,5	14,9	25,5	25,4	15,1	19,9	39.9

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, sug‘urta bozoridagi hayot sug‘urtasining ulushi 2014-yilda 4,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib, ushbu ko‘rsatkich 25,4 foizni tashkil etdi, ammo ushbu yilda oldingi yilga nisbatan 0,1 foizga pasayish yuz berdi. 2020 va 2021–2022-yillarda hayot sug‘urtasining umumiy sug‘urta mukofotlarining qiymati yuqori bo‘lganligi uchun sug‘urta mukofotlarining qiymati foiz nisbatida pastroq bo‘lib ko‘rinmoqda. Shunday bo‘lsada buni yuqori o‘sish darajasi deya e’tirof etish mumkin. Ammo ushbu nisbatni sug‘urta sohasi rivojlangan chet mamlakatlardagi ushbu ko‘rsatkich bilan taqqoslanganda katta farq mavjudligini ko‘rish mumkin. Bunday mamlakatlarda to‘plangan jami sug‘urta mukofotlarida hayot sug‘urtasining hissasi 50 foiz va undan ortiqni tashkil etadi, ya’ni ushbu mamlakatlarda to‘planayotgan sug‘urta mukofotlarining asosiy qismi hayot sug‘urtasi tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mamlakatimizda hayot sug‘urtasi dinamikasining yuqori darajasiga qanday omil asos bo‘layotganligiga e’tibor qaratganimizda shu ma’lum bo‘ldiki, bu darajasiga erishishda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan 2007-yil 10-aprelda qabul qilingan №PQ-618-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish va isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu qarorga asosan mol-mulk sug‘urtasi va uzoq muddatli hayot sug‘urtasiga oid sug‘urta mukofotlari yuzasidan yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig‘i va jismoniy shaxslarning daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar belgilangan bo‘lib, ushbu imtiyozlarni qo‘llash bo‘yicha “Nizom” ishlab chiqilib, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2007-yil 24-maydagi №59, 2007-37-sonli qarori bilan amaliyotga joriy etilgan. Ushbu nizomga ko‘ra yuridik shaxs tomonidan o‘z xodimlarining hayotini uzoq muddatli sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha to‘langan sug‘urta mukofotlari summasi jami daromaddan chegirib tashlanadigan va soliqqa tortilmaydigan bo‘ldi. Yuridik shaxs tomonidan o‘z xodimi uchun uzoq muddatli hayot sug‘urtasi bo‘yicha to‘langan sug‘urta mukofotlari summasi, jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan daromadi sifatida qaralmaydigan bo‘ldi va xuddi shunday jismoniy shaxs o‘z hayotini uzoq muddatli sug‘urta qilganda ham u tomonidan to‘langan sug‘urta mukofoti bo‘yicha daromad solig‘i olinmaydi. Yuqori o‘sish darajasiga ushbu imtiyozlar evaziga erishilgan.

3-jadvalda keltirilganidek, hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta kompaniyalari soni so‘nggi yillar oralig‘ida ikkitadan sakkiztaga yetgan va ular tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlari hajmi so‘nggi yillar ichida 27,5 marta o‘sgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, hayot sug‘urtasidagi o‘sish mamlakatimizda asosan davlat tomonidan taqdim etilgan soliq bo‘yicha imtiyoz evaziga yuz berib kelayotgan edi, ammo ushbu imtiyozni qo‘llash tartibiga 2019-yil 2-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PQ-4412-sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida biroz o‘zgartirish kiritildi.

2 Moliya vazirligining MF.UZ sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu o‘zgarish asosan quyidagicha bo‘ldi: sug‘urta summasi shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanishi sanasidan kamida 12 oydan so‘ng bir yo‘la to‘langanda va bunda sug‘urta badallarini to‘lash sug‘urta summasini to‘lash sanasidan oldingi 12 oylik davrda o‘sib bormaydigan tartib bo‘yicha amalga oshirilgandagina imtiyoz qo‘llaniladi. Mana shu kiritilgan o‘zgartirish 2019-yilda hayot sug‘urtasi bo‘yicha yillik o‘sish darajasining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.

3 - j a d v a l: Hayot sug‘urtasiga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalari tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlari dinamikasi (mlrd. so‘mda)[3]

№	Sug‘urta kompaniyalari	Yillar								
		2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	O‘zbekinvest Hayot	16,5	21,9	36,0	63,5	101,2	95,1	74,9	80,7	101.1
2.	Alfa Life	2,4	3,6	6,9	17,5	24,4	67,4	17,6	55,02	170.2
3.	New Life Insurance	2,4	7,9	16,3	44,7	159,9	214,4	89,8	274,8	720 .7
4.	Agros Hayot	-	-	-	12,9	129,6	96,3	62,9	136,8	161.8
5.	Euroasia Life	-	-	-	-	2,0	78,5	36,7	54,5	133.4
6.	Kafolat Hayot	-	-	-	-	0,2	22,4	22,7	65,7	146.4
7.	Apex Life	-	-	-	-	-	11,2	17,6	55,02	100.7
8.	Alskom Vita	-	-	-	-	-	1,2	8,03	14,4	16.5
9.	Jami:	21,3	33,4	59,2	138,6	417,3	586,5	334,3	736,3	1 551.5
10.	Aholi soni	30492,8	31022,5	31575,3	32656,7	33255,5	33905,8	34860,0	35270,0	36000.0
11.	Kishi boshiga to‘g‘ri kelgan sug‘urta mukofoti, so‘m	699	1076	1875	4244	12548	17298	9590	20877	43097
12.	Jami sug‘urta mukofotlari, mlrd. so‘m	439,1	551,5	692,6	927,5	1635,2	2314,1	2,213	3,732	6.233
13.	YAIM, trln.so‘m	145,9	171,8	199,3	249,1	406,6	511,8	734,6	580,2	800.3
14.	Jami sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi hissasi, %	0,30	0,32	0,35	0,37	0,40	0,45	0,4	0,5	0.6
15.	Hayot sug‘urtasi mukofotlarining YaIMdagi hissasi, %	0,01	0,02	0,03	0,06	0,10	0,11	0,04	0,01	0.05

Faqat imtiyozga tayangan holda ishni tashkil qilish masalaga bir yoqlama yondashuv bo‘lib, bugungi kunda imtiyozdan foydalanish bo‘yicha kiritilgan o‘zgartirish sug‘urta kompaniyalari faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Imtiyoz borasidagi o‘zgarish ayniqsa ikkita kompaniya faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rish mumkin, bular “O‘zbekinvest hayot” va “Agros Hayot” kompaniyalari bo‘lib, ular tomonidan 2019-yilda to‘plangan sug‘urta mukofotlari 2018-yilga nisbatan kamayib, mos ravishda 94 % va 74,3 % darajalarini qayd etgan.

Sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi hissasi ko‘rsatkichi bo‘yicha jami sug‘urta mukofotlari o‘sishi 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 0,05 foizga o‘sgani holda, hayot sug‘urtasi mukofotlarining ushbu davrdagi o‘sishi 0,01 foizni tashkil etgan. Xulosa qilish mumkinki, hayot sug‘urtasining o‘sish darajasi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha pasayish tendensiyasiga ega. Ushbu pasayishga yuqorida keltirilgan qarorning ta’siri va sug‘urta kompaniyalari tomonidan faqat imtiyozga tayangan holda ishni tashkil qilganligi sabab bo‘lgan deya xulosa qilish mumkin.

4-jadvalni tahlil qilganimizda, 2014-yilga nisbatan 2019-yilda to‘lab berilgan sug‘urta to‘lovlari 50-martaga oshganligining guvohi bo‘ldik. Yuqorida 2.2-jadvalni tahlil qilganimizda ushbu olti yillik oraliqda sug‘urta mukofotlarining 27,5-marta oshganligining guvohi bo‘lgan edik. Bundan ko‘rinadiki, sug‘urta to‘lovlarida o‘sish anchagina yuqori bo‘lgan. Bu shuni anglatadiki, hayot sug‘urtasi bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomalari asosan qisqa muddatli va shu bilan birga ular asosan jamg‘arib boriladigan sug‘urta turlaridan iborat bo‘lib, ular muddati tugagandan keyin to‘lig‘icha qaytarilishi munosabati bilan sug‘urta to‘lovlari hajmi keskin oshib borgan. 2019-yilda to‘lab berilgan sug‘urta qoplamalari hajmining keskin oshganligi yuqoridagi qaror asosida imtiyoz taqdim etishdagi o‘zgarishga bog‘liq bo‘lib, ushbu o‘zgarish natijasida, tuzilgan yangi sug‘urta shartnomalari soni kamayishi yuz berganligi sug‘urta to‘lovlari hajmining yuqori bo‘lishiga olib kelgan.

3 Moliya vazirligining MF.UZ va Davlat statistika qo‘mitasining STAT.UZ saytlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4 - j a d v a l: Hayot sug‘urtasiga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalari tomonidan to‘lab berilgan sug‘urta qoplamalari dinamikasi (mlrd. so‘mda)[4]

№	Sug‘urta kompaniyalari	Yillar								
		2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	O‘zbekinvest Hayot	9,4	14,6	20,3	37,6	68,1	110,4	86 ,7	69,6	116 012
2.	Alfa Life	1,1	2,4	3,2	12,4	17,6	39,1	38, 01	45,7	153 575
3.	New Life Insurance	0,6	4,9	11,1	25,0	98,7	230,6	888,61	240,4	722 522
4.	Agros Hayot	-	-	-	3,3	79,1	109,8	48214	91,244	166 093
5.	Euroasia Life	-	-	-	-	0,4	23,9	25,03	86,5	116 012
6.	Kafolat Hayot	-	-	-	-	0,0	14,4	18,3	47,6	106 485
7.	Apex Life	-	-	-	-	-	0,9	6,7	33, 8	82 762
8.	Alskom Vita	-	-	-	-	-	0,2	5,8	7,3	17 920
9.	Jami:	11,1	21,9	34,6	78,3	263,9	529,4	317,9	622,3	1 509 359
10.	Sug‘urta mukofotlariga nisbatan qoplamalar hajmi, %	52,1	65,6	58,4	56,5	63,2	90,3	10,5	11,8	12.3

2018-yilda hayot sug‘urtasi bo‘yicha to‘plangan sug‘urta mukofotlarining asosiy qismi, ya’ni 90 foizi jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasi va sug‘urta rentasi to‘lovi bilan uzoq muddatli hayot sug‘urtasi sug‘urta mahsulotlaridan iborat[5] bo‘lib, ushbu ikkala sug‘urta mahsuloti ham belgilangan soliq imtiyozlariga tushadigan sug‘urta mahsulotlari hisoblanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, hayot sug‘urtasi bo‘yicha yuqori o‘sish darajasiga erishishda belgilangan imtiyoz asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Ammo sug‘urtalovchilar shuni unutmasliklari kerak, soliq imtiyozlari doimiylik xususiyatiga ega emas, ular kutilmaganda bekor qilinishi mumkin. Buning isboti sifatida 2019-yilning 2-avgustida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida mazkur soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi borasidagi shartlarning birmuncha kuchaytirilganligini ko‘rish mumkin, ya’ni ushbu qarorga ko‘ra, amaldagi imtiyozlar sug‘urta summasi shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanishi sanasidan kamida 12 oydan so‘ng bir yo‘la to‘langanda, bunda sug‘urta badallarini to‘lash sug‘urta summasini to‘lash sanasidan oldingi 12 oylik davrda o‘sib bormaydigan tartib bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lishi talab etiladi, renta (annuitet) to‘lash shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanishi sanasidan kamida 12 oydan so‘ng boshlangan bo‘lishi kabi talablar belgilandi. Ushbu o‘zgarish 2019-yilda jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasining o‘sish dinamikasini biroz pasaytirdi. Shunday holatlar bundan keyin ham yuz berishi mumkinligini hisobga olgan holda sug‘urta kompaniyalari soliq imtiyoziga aloqador bo‘lmagan, ammo turli xususiyatlari bilan jozibadorlikka ega bo‘lgan sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratishlari zarur deb hisoblaymiz.

Hayot sug‘urta kompaniyalarining faoliyati 2020 va 2021-yillarda sug‘urta mukofotlari, sug‘urta to‘lovlari ko‘rsatkichlari oldingi yillarga nisbatan past bo‘lishiga Karona virus pandemiyasining ta’siri bo‘lib, bu vaqtlarda hayot sug‘urtasiga nisbatan talab kamayib ketganligi sababli, sug‘urta mukofotlari ko‘rsatkichlari pasayishiga olib keldi. 2022-yilga kelib to‘lovlar ko‘rsatkichi oshdi va bu sug‘urta bozorida sezilarli ko‘rsatkish ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekiston aholisi 33905,8 ming kishini tashkil etgan. 2019-yilda kishi boshiga to‘g‘ri kelgan jami daromad 10 266,1 ming so‘mni tashkil etdi. Ushbu yilda kishi boshiga to‘g‘ri kelgan hayot sug‘urtasi mukofotlari 17 298 so‘mni tashkil etganligini (3-jadvalga qarang) e’tiborga olganimizda, odamlar bir yil davomida topayotgan daromadlarining 0,17 foizini hayot sug‘urtasi uchun ishlatayotganligi ma’lum bo‘ladi. 2018-yilda O‘zbekiston tijorat banklaridagi jami aholi omonatlari 14,7 trln. so‘mni tashkil etdi. Ushbu summani aholi soniga bo‘lganimizda kishi boshiga to‘g‘ri kelgan tijorat banklaridagi omonatlar hajmi 2018-yilda 442 032 so‘mni tashkil etganligining guvohi bo‘ldik. Demak xulosa qilish mumkinki, hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi mamlakatimiz sug‘urta kompaniyalari aholini o‘z xizmatlaridan foydalanishga jalb qilish bo‘yicha yetarlicha tajribaga ega emas, ya’ni ular mavjud katta imkoniyatdan foydalana olmayaptilar. Bu esa aholi o‘z mablag‘larini sug‘urta kompaniyalariga emas, balki banklarga omonatga qo‘ymoqda. Aslida, jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasi xizmatlaridan foydalangan shaxs ikki tomonlama foyda ko‘radi, bir vaqtning o‘zida o‘z hayotini turli hodisalardan sug‘urtalaydi va shu bilan birga o‘z mablag‘ini ko‘paytiradi.

Bu borada rivojlangan mamlakatlardagi holatga e’tibor qaratganimizda kishi boshiga to‘g‘ri kelayotgan hayot sug‘urtasi mukofotlari o‘rtacha 1500 AQSH dollarini tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarda aholi daromad-

4 Moliya vazirligining MF.UZ sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
5 Toshkent xalqaro moliya-bank forumi materiallari. 2019 y. 27-30-mart, Bank.saipro.uz.

larining o‘rtacha 10 foizi jamg‘arishga yo‘naltiriladi va ushbu jamg‘arishning katta qismi jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shunday bo‘lsa-da, O‘zbekistonda bugungi kundagi ijtimoiy hayot darajasi va iqtisodiy rivojlanishning o‘sishi hayot sug‘urtasining yuqori darajada rivojlanishini ta’minlashi mumkinligidan dalolat bermoqda. Chunki yuqorida keltirilgan, ya’ni sug‘urta munosabatlariga kirishish imkoniyatiga ega aholining katta qismi ushbu munosabatlarga kirishmagan. Buni Toshkentda 2019-yilning 27-30-mart kunlari bo‘lib o‘tgan xalqaro moliya-bank forumi ishtirokchilari tomonidan berilgan prognoz ko‘rsatkichlari ham tasdiqlab turibdi (5-jadvalga qarang).

5 - j a d v a l: O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi xizmatlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari prognozi (mlrd. so‘mda)[6]

Sug‘urta turlari	Yillar			
	2020	2021	2022	2023
Amaldagi sug‘urta mahsulotlari bo‘yicha	877,1	1898,4	1844,2	2674,0
Majburiy tibbiy sug‘urta	58,6	1808,0	1993,3	2093,0
Xavfli kasalliklardan sug‘urtalash	56,9	58,1	60,3	62,1
Hayotni investitsiyaviy sug‘urtalash	906,1	2288,1	942,6	961,5
Nafaqa sug‘urtasi	2080,0	1145,5	2516,7	2768,4
Mehnatga qobiliyatsizlikdan sug‘urtalash	1123,1	821,7	1168,4	1191,8
Bola hayotini sug‘urtalash	805,6	821,7	838,2	854, 9
Jami:	7656,6	8408,1	9363,7	10605,7
Bozorning o‘sish dinamikasi, %	108,6	109,8	111,4	113,3
YalMdagi ulushi, %	1,81	1,97	2,17	2,17

Yuqoridagilarni hisobga olmaganda, jadvalda keltirilgan hayot sug‘utasining o‘sish prognozlariga ma’lum darajada asos bor deya ta’kidlash mumkin. Ammo shuni e’tiborga olish zarur, ya’ni hayot sug‘urtasining mamlakatdagi bugungi rivojlanishi iste’molchilar, ya’ni sug‘urtalanuvchilar tomonidan ushbu sug‘urta turidan soliq to‘lovlarini optimallashtirish vositasi sifatida foydalanishi bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

5-jadvalning ba’zi ko‘rsatkichlarida bir yil ichida keskin o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rish mumkin, bular sifatida amaldagi sug‘urta mahsulotlari ko‘rsatkichining 2020-yilga nisbatan 2021-yildagi o‘sish darajasi, hayotni investitsiyaviy sug‘urtalash ko‘rsatkichining 2020-yilga nisbatan 2021-yildagi o‘sish darajasi yoki nafaqa sug‘urtasi va mehnatga qobiliyatsizlikdan sug‘urta ko‘rsatkichlarining 2020-yilga nisbatan 2021-yilda kutilayotgan pasayish tendensiyasining yuz berish sabablari ushbu ma’lumotlarni taqdim etgan ekspert tomonidan ko‘rsatib berilmaganligi bu bo‘yicha aniq bir xulosaga kelish imkonini bermadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urta kompaniyalari moliya institutlari ichida alohida o‘ringa ega bo‘lib, buning asosiy sabablaridan biri ularda katta investitsion imkoniyatlarning mavjudligidir. Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta kompaniyalari daromadning asosiy qismini investitsion faoliyatdan oladi. Mamlakatimizda sug‘urtaning bu turi shartnoma tuzishdan oldin aniq tushunilishi kerak bo‘lgan tavakkalchiliklarga xosdir. Bunday shartnomani tuzish moliyaviy intizomni kuchaytirishi mumkin, chunki keyingi to‘lovni to‘lamaslik jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Hayot sug‘urtasidan foydalanganligi uchun berilgan imtiyozni olib tashlanishi, hayot sug‘urtasiga bo‘lgan talabni keskin pasaytirdi. shuning uchun bu sug‘urtani rivojlantirish uchun qatiy nazorat qilish kerak. imtiyozlarni olib tashlab kerak emas.

Shu bilan birga sug‘urta kompaniyalarning mijozlarini talabalarini atroflicha o‘rganilib, ularning talablaridan kelib chiqgan holda sug‘urta mahsulotlari ishlab chiqilishi kerak bo‘ladi. Hayot sug‘urtasining rivojlanishi mamlakat ijtimoiy holatini va ichki investisiyani shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonRespublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktabrdagi PQ-5265-sonli qarori.
3. Qo‘ldoshev Q.M. O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi va uni rivojlantirish muammolari. //Moliya ilmiy jurnali 2014-y. 2-son.
4. I. X. Abduraxmonov. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018.
5. I. G‘. Kenjayev, M. Abduraimova, N. Abdullayeva. Sug‘urta biznesi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.

6 Toshkent xalqaro moliya-bank forumi materiallari. 2019 y. 27-30-mart, Bank.saipro.uz.

EDGE COMPUTING TEXNOLOGIYALARI

Qulmatova S.
TDIU Raqamli iqtisodiyot va AT kafedrasi PhD,
katta o‘qituvchi

Karimov Botir
TDIU Sun’iy intellekt kafedrasi
katta o‘qituvchi

Annotatsiya: ushbu maqolada IT texnologiyalaridan keng foydalanilayotgan Edge computing texnologiyasi haqida so‘z yuritiladi. Edge computing – bu foydalanuvchi yoki unga yaqin bo‘lgan bir qator tarmoqlar va qurilmalarni nazarda tutadigan, yangi paydo bo‘lgan hisoblash paradigmasi sanaladi. Edge computing ma’lumotlarni yaratilgan joyga yaqinroq yerda qayta ishlashga qaratilgan texnologiya bo‘lib, katta hajmli ma’lumotlarni katta tezlikda qayta ishlash imkonini beradi va real vaqtda yirik natijalarga olib keladi.

Kalit so‘zlar: IoT texnologiyalari, Edge computing, Edge slyuzlari, Edge serverlari.

Abstract: this article talks about Edge computing technology, which is widely used in IT technologies. Edge computing is an emerging computing paradigm that involves a number of networks and devices that are connected to or near the user. Edge computing is a technology focused on processing data closer to the place of creation, which allows processing large volumes of data at high speed and leads to large results in real time.

Key words: IoT technologies, Edge computing, Edge gateways, Edge servers.

Аннотация: в этой статье рассказывается о технологии граничных вычислений, которая широко используется в ИТ-технологиях. Граничные вычисления – это новая парадигма вычислений, которая относится к ряду сетей и устройств, которые подключены к пользователю или находятся рядом с ним. Граничные вычисления – это технология, ориентированная на обработку данных ближе к месту создания, что позволяет обрабатывать большие объемы данных с высокой скоростью и приводит к большим результатам в режиме реального времени.

Ключевые слова: технологии Интернета вещей, пограничные вычисления, пограничные шлюзы, пограничные серверы.

KIRISH

Yaqin o‘tmishda bulut va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida ulangan qurilmalar tomonidan yaratilgan ma’lumotlar ko‘lami oshib bormoqda. Shuningdek, 5G tarmoqlari ulangan mobil qurilmalar soni oshib borar ekan, ma’lumotlar hajmi yanada o‘sishda davom etadi. Qurilmalar tomonidan yaratilgan barcha ma’lumotlarni markazlashtirilgan ma’lumotlar markaziga yoki bulutga yuborish tarmoq kengligi va kechikish bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Edge computing yordamida ma’lumotlar yaratilgan nuqtaga yaqinroqda qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Ma’lumotlar qayta ishlanadigan bulut yoki ma’lumotlar markaziga tarmoq orqali o‘tmaganligi sababli, kechikish sezilarli darajada kamayadi. 5G tarmoqlarida mobil Edge computing – tezroq va kengroq ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi, chuqurroq tushunchalar, tezroq javob vaqtlari va yaxshilangan mijozlar tajribasi uchun imkoniyat yaratadi.

“Edge Computing o‘zining barcha murakkabliklari bilan tez harakatlanuvchi, kuchli va talabchan sanoatga aylandi, deyiladi Linux Foundationning yillik hisoboti (2021-y)da, – o‘z kuzatuvlarimizni orqali ayta olamizki, Edge Computing texnologiyasi sezgir, hamkorlikka asoslangan, ochiq va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan sanoatimiz kelajagidir”[1] [10].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Edge Computing – bu foydalanuvchiga va ma’lumotlar manbasiga yaqinroq bo‘lgan tarmoqning chekkasida hisob-kitoblarni amalga oshirish va qayta ishlash uchun “IoT domenidagi” yangi hisoblash paradigmasi [1]. P. Varshney va Y. Simmxan ta’kidlaganidek, tarmoqning chetida sezish ko‘p marta tezlashmoqda, chekkadan kelayotgan ma’lumotlar oqimining katta sinfini buyumlar Interneti (IoT) bilan bog‘lash mumkin, bu erda konvergentsiya mavjud. Tovar sensorlari, foydalanish mumkin bo‘lgan kommunikatsiyalar va infratuzilmani aqlli boshqarishga bo‘lgan ehtiyoj bu eksponensial o‘sishni boshqarmoqda [2]. Shuningdek, ular bulutdan katta bulutli ma’lumotlar markazlari yordamida IoT ma’lumotlarini qayta ishlash uchun eng ko‘p qo‘llanilishini ta’kidlaydilar [4]. P.Varshney va Y.Simmxan Cloud modelining asosiy muammosini aniqladilar, ya’ni chekkadan bulutgacha bo‘lgan aylanish kechikish vaqti (RTT) O(100) ms. Ko‘pgina IoT ilovalari mavjud, Masalan, Smart Power Grids uchun talabni bashorat qilish va Apple Sirida ovozli javob kabi kechikishlar mavjud. Shunday qilib, bulutda tahlil va qaror qabul qilish ularning ishlashiga putur etkazishi mumkin [2].

2. Аакер Д., Кумар В. и др. Маркетинговые исследования: 7-е изд. / Под ред. Божук С.; Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2004. – 848 с.
3. Barro, R., 1999. “Human Capital and Growth in Cross Country Regressions”, Swedish Economic Policy Review, Vol.6, pp.237–77;
4. Hanushek, E., Kimko, D., 2000. “Schooling, Labor-force quality, and the growth of nations”, American Economic Review, Vol.90(5), pp.1184–208;
5. Kozma, B, R, 2008. “ICT, education reform, and economic growth: A conceptual framework”, Retrieved from http://download.intel.com/education/HP/Kozma_WP1.pdf> [Accessed 20 January, 2012];
6. Pritchett, L., 1996. “Where Has All the Education Gone?”, World Bank Policy Research Paper, No.1581 [online] Available from: <http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/unpan/unpan 002390.pdf
7. Аквазба Е.О., Ухабина Т.Е., Черемисина Е.В. Качество образования в современной образовательной организации: проблемы и перспективы // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – 5.URL:www.science-education.ru / 128-21477;
8. Колядин А.П. Фиктивный компонент человеческого капитала как системный феномен экономики знаний. Автореф. дисс. … д-ра эконом. наук. – Саратов, 2012. – 30 с.;
9. Полищук Л., Ливни Э. Качество высшего образования в России: роль конкуренции и рынка труда // Вопросы образования. – 2005. – 1. – С. 70–86.;
10. Сухочев В.И. Методология формирования организационно-экономического механизма оценки доступности и качества высшего образования. Дисс. ... д-ра эконом. наук. – Уфа, 2011. – 404 с.
11. Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари: Монография. – Т., 2005. – 244 б.;
12. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Высшие учебные заведения в формировании национальной инновационной системы страны // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2012. – 4.;
13. Бекмуродов А.Ш. Интерактивное обучение и информатизация образования – важнейшее условие для выпуска профессиональных и компетентных кадров // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2011. – 1.;
14. Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Т., 2004. – 170 с.;
15. Икрамов М.А. Проблемы становления рынка образовательных услуг в Республики Узбекистан // Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития. Материалы международной научно-практической конференции. – Т., ТГЭУ, 2018. – 3. – С.167–171.;
16. Набиев Д. Совершенствование управления маркетингом образовательных услуг в условиях модернизации экономики. Автореф. ... докт. эконом. наук. – Т., 2009. – 48 с.
17. Ergashxodjayeva Sh.D. Innovatsion marketing – zamonaviy iqtisodiyot talabi // O‘zbekistonda bojxona ishining dolzarb muammolari: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqola tezislari to‘plami. – T., TDIU, 2010. – 151–152-b.;
18. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. – T., 2006. – 592 b.;
19. Qurolov Q.Q. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy ta’lim tizimining takomillashuvi qonuniyatlari. Iqt. fanl. dokt. … diss. avtoref. – T., 2017. – 91 b.;
20. Belanger, C.H. How Canadian universities use social media to brand themselves / C.H. Belanger, S. Bali, B. Longden // Tertiary Education and Management. – 2014. – 20. – P. 14-29.
21. Bergami, M. Self-categorization, affective commitment and group self-esteem as distinct aspects of social identity in the organization / M. Bergami, R.P. Bagozzi // British Journal of Social Psychology. – 2000. – 39(4). – P. 555-577.
22. Dutton, J.E. Keeping an eye on the mirror: image and identity in organizational adaptation / J.E. Dutton, J.M. Dukerich // Academy of Management Journal. – 1991. – 34. – P. 517-554.
23. Kotler, P. Strategic marketing for educational institutions (2nd ed.) / P. Kotler, K. Fox, Upper Saddle River, NJ: Prentice-Hall, 1995 – 45 p.
24. Dowling, G.R. Developing your company image into a corporate asset / G.R. Dowling // Long Range Planning. 1993. – 26. – P. 101-109.
25. Dutton, J.E. Organizational image and member identification / J.E. Dutton, J.M. Dukerich // Administrative Science Quarterly. – 1994. – 39(2). – P. 239-263.
26. Boulding, K. The Image / K. Boulding // University of Michigan Press, 1956. – 695-702 p.
27. Сайфеева Н.В. – Основные направления формирования имиджа муниципального бюджетного образовательного учреждения дополнительного образования детей центра детского творчества. с-66 https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-napravleniya-formirovaniya-imidzha-munitsipalnogo-byudzhetnogo-obrazovatelnogo-uchrezhdeniya-dopolnitelnogo-obrazovaniya
28. Имидж корпорации // Имиджелогия. Как нравиться людям / Авт.-сост. В.М. Шепель. – М.: Народное образование, 2002. – С. 393-402.
29. Аликперов И. Формирование имиджа образовательного учреждения: западный и российский варианты [Электронный ресурс] // Международные отношения в развитии социально-экономических процессов в странах СНГ : материалы междунар. науч.-практ. конф. 14-15 июня 2001 г. Омск. – Омск, 2001. – Режим доступа: http://www.prof.msu.ru/publ/omsk/53.htm
30. Maha Mourad, Christine Ennew, Wael Kortam – Brand equity in higher education, Emerald insight,2015, c.406

TOMORQA XO‘JALIKLARIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI YETISHTIRISH HAJMINING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI

Saydullayeva Fotima Jozilovna
TDAU Samarqand filiali assistenti

Annotatsiya: ushbu maqolada aholini qishloq xo‘jaligi oziq-ovqatlari bilan ta’minlash, tomorqa xo‘jaliklarining mahsulotlar guruhlari bo‘yicha ishlab chiqarishga tatbiq qilish, xususan, Samarqand viloyati misolida 2028-yilgacha bo‘lgan istiqboldagi prognoz ekstrapolyatsiya metodidan foydalanilib ARIMA modeli asosida tahlil qilingan. Olingan natijalardan keyingi 8 yil davomida tomorqa xo‘jaliklarida mahsulot guruhlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: tomorqa xo‘jaligi, oziq-ovqat guruhlari, prognozlashtirish, ARIMA modeli.

Аннотация: в данной статье обеспеченность населения сельскохозяйственными продуктами питания, реализация продукции домашних хозяйств по товарным группам, в частности, в случае Самаркандской области анализируется прогноз до 2028 года на основе модели ARIMA методом экстраполяции. Показаны изменения объемов производства по товарным группам в подворьях на ближайшие 8 лет от полученных результатов.

Ключевые слова: при усадьбенные хозяйства, группы продуктов питания, прогнозирование, модель ARIMA.

Abstract: in this article, the provision of agricultural food to the population, implementation of household production by product groups, in particular, in the case of Samarkand region, the forecast until 2028 is analyzed on the basis of the ARIMA model using the extrapolation method. . The changes in the volume of production by product groups in homesteads for the next 8 years from the obtained results are shown.

Key words: tomorka farm, food groups, forecasting, ARIMA model.

KIRISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, aholi iste’molini to‘yimli va yetarli miqdorda ta’minlash qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishiga to‘sqinlik qiladigan turli noaniqliklar, aholi sonining o‘sishi, iste’molchilarning talabi, resurslarning holati va iqlim o‘zgarishi kabi bir qator omillarning ta’sirida oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan umumiy talab darajasi o‘zgarib turadi1. Vaholangki, oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli turlarining ortib borishi, aholini ovqatlanish sifatini oshishiga, vitaminlarga boy mahsulot iste’molini ortishiga olib keladi.

Oila xo‘jaliklarining oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli diversifikatsiyasi mahsulotlar turlarining soni bilan emas, mahsulot guruhlarining soni bilan hisoblanishini Birlashgan millatlar tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti oziq-ovqatlardagi mavjud mikro va makro elementlarga ko‘ra 12 ta guruhga: don va don mahsulotlari, ildizmevalar, sabzavotlar, mevalar va rezovorlar, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, tuxum, baliq yog‘ va moylar, dukkaklilar va yong‘oq, shakar va asal, ziravorlarga ajratgan. Chunki, oziq-ovqat turlari sonini hisobga olinishi bir xildagi makro va mikro elementlar iste’mol qilinishini takrorlanishiga olib keladi. Har xil masalan meva, sabzavot, go‘sht, sut kabi oziq-ovqat guruhlarida inson hayoti uchun kerakli bo‘lgan turli mikro va makro elementlar mavjud ekanligini ko‘rsatadi2.Oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli diversifikatsiyasi in-

1 FAO, (2018). The future of food and agriculture: alternative pathways to 2050. Food and Agriculture Organization of the United Nations Rome;

2 Tang, A. M., Dong, K., Deitcher, M., Chung, M., Maalouf-Manasseh, Z., & Tumilowicz, A. (2013). Food and Nutrition Technical Assistance III Project (FANTA). Use of Cutoffs for Mid Upper Arm Circumference (MUAC) as an Indicator or Predictor of Nutritional and

deksi ma'lum bir ma'noda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'minoti ko'rsatkichlarini ko'rsatadi. Demak, turli oziq-ovqat mahsulotlari guruhlariga kiruvchi mahsulotlarni ko'proq iste'mol qilishi oilaning farovonligini oshishi ko'rsatadi.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlari barqarorligini ta'minlash va zaxirasini yaratish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida tomorqachilikni rivojlantirish masalalariga alohida to'xtalib, tomorqa xo'jaliklarida yer uchastkalaridan samarali foydalanib mahsulotlar yetishtirish jahonda ro'y berayotgan oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelmaslikni, bandlikni ko'paytirish, kambag'allikni qisqartirishni ta'minlashini ta'kidlab o'tdi[3].

Chunki, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishida tomorqa xo'jaliklarining hissasi yuqori. Shunday ekan, tomorqa xo'jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini istiqbol prognozlarini aniqlash aholining oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan talabini qay darajada ta'minlanishini va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasini belgilashda yuqori darajada muhimlik kasb etadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining fundamental tizimi hisoblanib, ko'pgina rivojlangan davlatlarda ham bu kabi tomorqa xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanib jamoaviy tarzda tashkilotlarning yerlaridan samarali foydalanib turli meva-sabzavot, ko'katlar yetishtirilib mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy oziq-ovqat taklifini ko'paytirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etadi[4, 5, 6]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa tomorqada yakka tartibda yoki uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan yerda oila a'zolarining mehnatiga asoslanib ko'proq o'zlarining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish ortiqchasini esa bozorga sotish uchun yetishtiradilar[7]. Bugungi kunda katta fermer xo'jaliklari misolida tadqiqotlar ko'p bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy qismi bo'lgan kichik xo'jaliklarning ahamiyati yuqori bo'lishiga qaramasdan ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari kam yoritilgan[8]. Shu boisdan ushbu maqolada tomorqa xo'jaliklari yoritilgan bo'lib ularning kelgusidagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining prognozi o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tomorqa xo'jaliklarida yetishtiriladigan yuqorida ta'kidlab o'tilgan xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan, insonning sog'lom hayot kechirishi uchun muhim hisoblangan 12 ta guruhga kiruvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini 2028-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Tahlil uchun ma'lumotlar Samarqand viloyati statistika boshqarmasining so'nggi 2012–2022-yillardagi mahsulotlarni ishlab chiqarish dinamikasi ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

Tomorqa xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha istiqbol prognozlarini aniqlashda mahsulotlar quyidagicha guruhlarga ajratildi. Ular: don (bug'doy, arpa, makkajo'xori, sholi), ildizmevalar (kartoshka, rediska, sabzi, lavlagi, sholg'om, selderey va turp), Sabzavotlar (karam, bodring, pomidor, baqlajon, qalampir, salat barg, piyoz, sarimsoq piyoz va boshqalar), mevalar (o'rik, gilos, olcha, olma, shaftoli), go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, tuxum, baliq, moyli ekinlar (kungaboqar, maxsar, kanakunjut), dukkaklilar yong'oqlar, asal va ziravorlar hisoblanadi.

Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni prognozlashtirishda o'tgan davrdagi ishlab chiqarish dinamikasini o'rganish maqsadga muvofiq. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, tomorqa xo'jaliklarida don mahsulotlarini ishlab chiqarish kuzatilgan yillarda 174,3 ming tonna bo'lib, uning sur'ati 2021-yilda 70,5 ming tonna bo'lgan. Ishlab chiqarishni 2012-yilga nisbatan solishtirganda 87,5 ming tonnaga kamaygan. Shu bilan birgalikda, tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan moyli ekanlarni ishlab chiqarish sura'ti 2012-yilda 1165,3 tonna bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 899,4 tonna ishlab chiqarilgan, ya'ni 265,9 tonnaga kamaygan. Boshqa ekinlar guruhlari bo'yicha ishlab chiqarish sur'ati oshib borgan. Jumladan, 2012-yilga nisbatan 2021-yilda ildizmevalarni ishlab chiqarish 101,3 ming tonna, sabzavotlar 100,3 ming tonna, mevalar 39,2 ming tonna, go'sht va go'sht mahsulotlari 60,6 ming tonna, sut va sut mahsulotlari 324,8 ming tonna, tuxum 385,2 mln. dona, baliq mahsulotlari 227,8 tonna, dukkakli donlar 906,6 tonna, asal ishlab chiqarish 201,6 tonna va ziravorlar 0,5 tonna ko'p mahsulot ishlab chiqarilgan (1-jadval).

Health Related Outcomes in Adolescents and Adults: A Systematic Review. Washington, DC: United States Agency for International Development, 1-39;

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 5 aprel kunidagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlari barqarorligini ta'minlash va zaxirasini yaratish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi;

4 Landauer K, Brazil M. editors. 1985. Tropical Home Gardens: Selected Papers from an International Workshop at the Institute of Ecology. Japan: Padjadjaran University, Indonesia, December 1985, United Nations University Press;

5 Specht K, Siebert R, Hartmann I, Freisinger UB, Sawicka M, Werner A, Thomaier S, Henckel D, Walk H, Dierich A. 2014. Urban agriculture of the future: an overview of sustainability aspects of food production in and on buildings. Agric Hum Values. 31:33–51.

6 Holland L. 2004. Diversity and connections in community gardens: a contribution to local sustainability. Local Environ. 9:285–305.

7 Galhena DH, Freed R, Maredia KM. 2013. Home gardens: a promising approach to enhance household food security and wellbeing. Agric Food Secur. 2:8–13.

8 Saydullaeva F. et al. Empirical analysis of smallholder production effect to dietary diversity //ECONOMIC SCIENCE FOR RURAL DEVELOPMENT 2022. – 2022. – S. 555.

1 - j a d v a l: Samarqand viloyatida tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan 12 guruhdagi oziq-ovqat mahsulotlarining dinamikasi, 2012–2021-yillar

№	Guruhlar nomi	Yillar									
		2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
A	Don (ming tonna)	158,0	148,6	149,8	166,9	172,7	174,3	144,6	87,7	70,4	70,5
B	Ildizmevalar (ming tonna)	314,8	333,4	369,8	393,1	433,4	455,8	477,7	479,6	414,4	416,1
D	Sabzavotlar (ming tonna)	536,9	571,2	525,1	691,4	742,1	757,1	822,7	733,1	631,8	637,2
E	Mevalar va rezovorlar (ming tonna)	130,6	143,8	154,3	165,9	184,6	189,4	178,0	167,5	168,9	169,8
F	Go'sht va go'sht mahsulotlari (ming tonna)	192,3	200,6	212,0	225,1	237,3	234,5	242,7	237,6	246,7	252,9
G	Sut va sut mahsulotlari (ming tonna)	891,5	948,8	1014,8	1079,5	1171,8	1181,8	1155,4	1166,7	1199,0	1216,3
H	Tuxum (mln. dona)	324,0	343,3	390,9	448,7	525,6	599,1	617,3	644,8	707,5	709,2
I	Baliq va baliq mahsulotlari (tonna)	138,0	149,3	169,2	170,4	191,1	195,4	215,7	231,0	293,8	365,8
J	Moyli ekinlar (tonna)	1165,3	1345,9	1244,1	1188,3	1050,9	966,4	910,3	891,0	876,3	899,4
K	Dukkaklilar (tonna)	4328,3	4460,0	4593,7	4654,9	4781,2	4889,3	4969,5	4989,0	5190,2	5234,9
L	Asal (tonna)	513,3	549,7	568,6	530,1	635,4	674,1	692,4	683,7	650,2	714,9
M	Ziravorlar (tonna)	0,4	0,4	0,5	0,4	0,7	0,6	0,5	0,7	0,6	0,9

Prognozlashtirish iqtisodiyotda keng qo'llaniladigan tahlil usullaridan biri bo'lib, tomorqa xo'jaliklarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning istiqboldagi ko'rsatkichlarini aniqlashda yordam beradi va oziq-ovqat iste'mol diversifikatsiyasi darajasini bilishimizga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, ishlab chiqarish prognozlarini aniqlash aholini aholini mikronutrientlar bilan ta'minlanishi beradi hamda natijalarni ko'rsatuvchi indikator vazifasini bajaradi.

Prognozlashtirishning bir qator metodlari mavjud bo'lib, maqolada ekstrapolyatsiya metodidan foydalanildi. Mazkur metod vaqt qatorlari bo'yicha miqdoriy metodlardan foydalangan holda tahlilni amalga oshirishda yordam beradi. Ekstrapolyatsiya metodlarini qo'llash orqali prognozlarni amalga oshirishning bir qator afzaliklari mavjud, jumladan, tahlil ma'lumotlarini tarafkashligi noma'lum bo'lgan holatda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu metodlardan foydalanib tahlilni amalga oshirish soddalashtirilgan, shu bois iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni istiqboldagi holatini juda aniq baholash imkonini beradi[9]. ARIMA modelida ekstropolyatsiya metodini qo'llash mazkur yo'nalishdagi tahlillarni amalga oshirishda eng maqbul model sifatida tanlab olindi.

ARIMA modeli va uning hosilalari vaqt qatorlarini bashorat qilishda eng ko'p qo'llaniladi. Vaqt seriyalarini prognozlash – bu o'tgan davr ma'lumotlarini hisobga olgan holda kelajakdagi kutilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni bashorat qilish jarayoni tushuniladi. Vaqt seriyasi – bu vaqt oralig'ida muntazam ravishda olingan ma'lumotlar nuqtalarining ketma-ketligi hisoblanadi[10].

Mavsumiy bo'lmagan ARIMA modeli uchta komponentdan iborat (*p*, *d*, *q*):

- Avtoregressiya tartibi (AR) qismi o'zgaruvchining oldingi *p* qiymatlarining chiziqli birikmasidir;
- Sirg'aluvchi o'rtacha tartibi (MA) qismi q oldingi bashorat qilish xatolarining chiziqli birikmasidir (uni vaqt seriyalari tahlilida boshqa tushuncha bo'lgan harakatlanuvchi o'rtachalar bilan aralashtirib yubormaslik kerak).

9 Armstrong, J. S. (2001). Extrapolation for time-series and cross-sectional data. Principles of forecasting: A handbook for researchers and practitioners, 217-243;

10 Box, G. E., Jenkins, G. M., Reinsel, G. C., & Ljung, G. M. (2015). Time series analysis: forecasting and control. John Wiley & Sons;

Farqlar tartibi (I) deb nomlanadi, chunki ma'lumotlar statsionarlik talabini bajarish uchun d marta farqlanadi. Yuqoridagi tarkibiy komponentni o'zida mujassam qilgan ARIMA modeli formulasini quyida keltirib o'tamiz:

$$Y_t^* = \Delta^d Y_t$$

$$Y_t^* = \mu + \sum_{i=1}^{p} \varphi_i Y_{t-i}^* + \sum_{i=1}^{q} \theta_i \epsilon_{t-i} + \epsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda, ARIMA (*p*, *d*, *q*) modelining ifodasi y kuzatishlar qatorini, modelning AR va MA qismlarining mos ravishda va parametrlarini hamda xatolarni bashorat qilish, o'zgarmas qiymat va o'zgargan qiymatlarni belgilaydi. Yuqoridagi formula ma'lumotlar to'plamlarida vaqt seriyalarini aniq prognozlashning mavsumiyligini hisobga olgan holda aniq prognoz natijalarini beradi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, hech bir model har qanday vaqt seriyasida bashoratlarni to'laqonli kafolatlamaydi, ammo ARIMA modeli sodda usullardan ko'ra o'zida ko'p qirralarni namoyon qiladi[11].

Boks-Jenkins metodologiyasi bo'yicha ARIMA modelidan foydalangan holda prognozni amalga oshirishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish talab qilinadi:

Birinchi bosqich, model uchun mos bo'lgan p, d va q qiymatliklarni aniqlab olish kerak;

Ikkinchi bosqichda, tanlangan modelning parametrlari baholanadi;

Uchinchi bosqichda, ARIMA modelini tanlash murakkab bo'lgan ishlardan biri hisoblanadi. Uni aniqlashda modelning qoldiq qiymatlariga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Agar qoldiq qiymatlar koordinata o'qida nolga nisbatan bir xildagi taqsimotga ega bo'lsa, demak, tanlangan modelni tahlil uchun foydalanish mumkinligini anglatadi.

So'nggi bosqichda, kutilayotgan davrlar uchun prognoz amalga oshiriladi.

Tahlil STATA dasturining 2015-yil seriyasidan foydalanilib amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlar guruhlari ichida sabzavot, sut va sut mahsulotlari, tuxum, moyli ekinlar va dukkakli donlarni ishlab chiqarishni davriy qatorlardagi dinamikasining o'rtachaga nisbatan mos ravishda 100,7 ming tonna, 113,8 ming tonna, 146,2 mln. dona, 170,7 tonna va 300,9 tonnaga o'zgarganini ko'rsatdi (2-jadval).

2 - j a d v a l: O'zgaruvchilarning statistik tavsifi(2012–2022-yillar)*

O'zgaruvchilar	Kuzatuvlar soni	O'rtacha qiymat	O'rtacha qiymatdan og'ish	Eng kichik qiymat	Eng katta qiymat
Don (ming tonna)	10	134,4	41,6	70,4	174,3
Ildizmevalar (ming tonna)	10	408,8	56,7	314,8	479,6
Sabzavotlar (ming tonna)	10	664,9	100,7	525,1	822,7
Mevalar va rezovorlar (ming tonna)	10	165,3	18,1	130,6	189,4
Go'sht va go'sht mahsulotlari (ming tonna)	10	228,2	20,3	192,3	252,9
Sut va sut mahsulotlari (ming tonna)	10	1102,6	113,8	891,5	1216,3
Tuxum (mln. dona)	10	531,0	146,2	324,0	709,2
Baliq (tonna)	10	211,9	70,2	138,0	365,8
Moyli ekinlar (tonna)	10	1053,8	170,7	876,3	1345,9
Dukkaklilar (tonna)	10	4809,1	300,9	4328,3	5234,9
Asal (tonna)	10	621,2	74,1	513,3	714,9
Ziravorlar (tonna)	10	0,6	0,2	0,4	0,9

*Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida.

Mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha qiymatdan og'ish tendensiyasining yuqori bo'lishi mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga salbiyligi shundaki, mahsulot kam ishlab chiqilgan yillarda talab qonuniga ko'ra narxlar yuqorilab iste'molni kamayishiga olib keladi. Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak sabzavot va moyli ekinlar ishlab chiqarishda salbiy holatlar kuzatildi.

11 Hyndman, R. J., & Athanasopoulos, G. (2018). Forecasting: principles and practice. OTexts.

Sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish kuzatilganida 2021-yilda 2016-yilga nisbatan 104,9 ming tonna, 2017-yilga nisbatan 119,9 ming tonna, 2018-yilga nisbatan 185,5 ming tonna, 2019-yilga nisbatan esa 95,9 ming tonna kam mahsulot ishlab chiqarilgan.

Moyli ekinlarni ishlab chiqarish kuzatilganida esa 2021-yilda 2016-yilga nisbatan 151,5 tonna, 2017-yilga nisbatan 67 tonna, 2018-yilga nisbatan 10,9 ming tonna kam mahsulot ishlab chiqarilgan.

Tahlillarda moyli ekinlar, dukkakli don, asal va ziravorlar yuqori statistik aniqlik (*** p<0.01) da, ildizmevalilar, sabzavotlar, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, baliq kabi mahsulotlarning dinamikasi past statistik aniqlik (* p<0.1) da statsionar ekanligi aniqlandi.

Tomoqa xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari bo‘yicha istiqbol prognozini amalga oshirishda tahlil uchun qo‘llanilayotgan ma’lumotlarga mos bo‘lgan modelni tanlab olishda vaqt seriyalarini statsionarligi tekshirildi (3-jadval).

3 - j a d v a l: Kengaytirilgan Dikki-Fuller testi natijasi

O‘zgaruvchilar	Test statistikasi	1% kritik qiymat	5% kritik qiymat	10% kritik qiymat	Test turi
Don	-1.331	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Ildizmevalar*	-1.571	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Sabzavotlar*	-2.544	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Mevalar	-1.381	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Go‘sht va go‘sht mahsulotlari*	-2.455	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Sut va sut mahsulotlari	-1.363	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Tuxum	-1.305	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Baliq*	-1.607	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Moyli ekinlar***	-4.593	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Dukkaklilar***	-4.256	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Asal***	-3.175	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi
Ziravorlar***	-5.316	-3.143	-1.943	-1.440	Drift-regressiyasi

* p<0.1, ** p<0.05, *** p<0.01

Manba: Statistik ma’lumotlar asosida muallif hisob kitobi

Statsionarlikni tekshirish uchun Kengaytirilgan Dikki-Fuller testidan foydalanildi. Tahlil uchun tanlangan davriy ma’lumotlar statsionar bo‘lmaganlari mustahkamlash metodlari orqali statsionar holatga olib kelindi.

Don, mevalar, sut va sut mahsulotlari, tuxum kabi mahsulotlar guruhlari test natijalari statistik jihatdan ishonchli bo‘lmasada, Kengaytirilgan Dikki-Fuller testining kritik qiymatliklari ma’lumotlarni statsionar ekanligini ko‘rsatdi. Tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining 12 guruhining har biri bo‘yicha prognozini amalga oshirish uchun mos bo‘lgan modellar tanlab olindi (4-jadval).

4 - j a d v a l: Samarqand viloyatida tomorqa xo‘jaliklarida yetishtiriladigan 12 turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini 2028-yilgacha prognoz modellari natijalari (ARIMA)

№	O‘zgaruvchilar	1-model (p,d,q)	2- model (p,d,q)	3- model (p,d,q)
A	Don (ming tonna)	(2,1,1)*	(1,1,1)	
B	Ildizmevalar (ming tonna)	(2,1,1)*	(1,0,2)	(1,1,1)
D	Sabzavotlar (ming tonna)	(2,1,0)*	(1,1,0)*	
E	Mevalar va rezovorlar (ming tonna)	(2,1,1)**	(2,0,0)*	(1,0,2)*
F	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari (ming tonna)	(1,1,0)*	(1,0,0)	
G	Sut va sut mahsulotlari (ming tonna)	(2,1,3)*	(2,1,2)*	
H	Tuxum (mln. dona)	(2,1,1)	(1,1,0)	(2,1,0)
I	Baliq (ming tonna)	(1,1,3)***	(2,1,3)*	
J	Moyli ekinlar (tonna)	(1,1,1)*	(1,1,2)*	
K	Dukkaklilar (tonna)	(2,1,0)*	(1,0,1)*	(1,1,0)
L	Asal (tonna)	(0,1,2)***	(1,1,0)*	(2,1,0)
M	Ziravorlar (tonna)	(0,0,2)***	(1,0,0)**	(1,1,0)*

Manba: Statistik ma’lumotlar asosida muallif hisob kitobi

Prognoz modellarini tanlab olishda STATA-15 dasturidan foydalanildi. Har bir mahsulot guruhlari (o‘zgaruvchilar) bo‘yicha statistik jihatdan ‘eng kuchli’ model jadvalning birinchi model ustunida keltirildi. Modellarni tanlashda AIC va BIC testlari natijalariga qaraldi. Mahsulot guruhlari ichida tuxum ishlab chiqarish uchun ARIMA (2,1,1) modeli statistik ahamiyati yuqori bo‘lmasada mos deb topildi. Prognoz uchun tanlangan alohida modellardan foydalanib Samarqand viloyati tomorqa xo‘jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2028-yilgacha hisoblab topildi (5-jadval). ARIMA modeli natijalarga ko‘ra 2028-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori qiyidagicha o‘zgarishi aniqlandi.

5 - j a d v a l: Samarqand viloyati tomorqa xo‘jaliklarining oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish prognozi

Yillar	A	B	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M
2012	158,0	314,8	536,9	130,6	192,3	891,5	324,0	138,0	1165,3	4328,3	513,3	0,4
2013	148,6	333,4	571,2	143,8	200,6	948,8	343,3	149,3	1345,9	4460,0	549,7	0,4
2014	149,8	369,8	525,1	154,3	212,0	1014,8	390,9	169,2	1244,1	4593,7	568,6	0,5
2015	166,9	393,1	691,4	165,9	225,1	1079,5	448,7	170,4	1188,3	4654,9	530,1	0,4
2016	172,7	433,4	742,1	184,6	237,3	1171,8	525,6	191,1	1050,9	4781,2	635,4	0,7
2017	174,3	455,8	757,1	189,4	234,5	1181,8	599,1	195,4	966,4	4889,3	674,1	0,6
2018	144,6	477,7	822,7	178,0	242,7	1155,4	617,3	215,7	910,3	4969,5	692,4	0,5
2019	87,7	479,6	733,1	167,5	237,6	1166,7	644,8	231,0	891,0	4989,0	683,7	0,7
2020	70,4	414,4	631,8	168,9	246,7	1199	707,5	293,8	876,3	5190,2	650,2	0,6
2021	70,5	416,1	637,2	169,8	252,9	1216,3	709,2	365,8	899,4	5234,9	714,9	0,9
2022	87,8	485,6	757,4	186,5	263,0	1291,6	793,2	329,0	775,0	5352,4	741,9	0,8
2023	78,9	499,6	774,2	190,3	269,4	1326,0	840,9	350,3	724,3	5451,2	763,8	0,8
2024	70,0	513,5	791,0	194,2	275,7	1360,4	888,5	371,6	673,6	5550,0	785,7	0,9
2025	61,0	527,5	807,9	198,0	282,1	1394,7	936,2	392,8	622,9	5648,8	807,7	0,9
2026	52,1	541,5	824,7	201,9	288,4	1429,1	983,9	414,1	572,2	5747,5	829,6	1,0
2027	43,2	555,4	841,5	205,7	294,7	1463,5	1031,5	435,4	521,5	5846,3	851,5	1,0
2028	34,2	569,4	858,3	209,6	301,1	1497,9	1079,2	456,7	470,8	5945,1	873,5	1,1
	y = -8,9996x + 185,15 R^2 = 0,8272	y = 13,963x + 332,01 R^2 = 0,8608	y = 16,823x + 572,33 R^2 = 0,6296	y = 3,8522x + 144,09 R^2 = 0,7792	y = 6,34x + 193,3 R^2 = 0,9774	y = 34,375x + 913,5 R^2 = 0,9618	y = 47,667x + 268,87 R^2 = 0,9946	y = 21,278x + 94,94 R^2 = 0,9632	y = -50,693x + 1332,6 R^2 = 0,9544	y = 98,783x + 4265,8 R^2 = 0,9975	y = 21,933x + 500,61 R^2 = 0,9528	y = 0,0429x + 0,3316 R^2 = 0,8886

Manba: Statistik ma’lumotlar asosida muallif hisob kitobi

A-don (ming tonna); B-ildizmevalar (ming tonna); D-sabzavotlar (ming tonna); E-mevalar va rezovorlar (ming tonna); F-go‘sht va go‘sht mahsulotlari (ming tonna); G-sut va sut mahsulotlari (ming tonna); H-tuxum (mln. dona); I-baliq (ming tonna); J-moyli ekinlar (tonna); K-dukkaklilar (tonna); L-asal (tonna); M-ziravorlar (tonna)

Tomorqa xo‘jaliklarida don ishlab chiqarish 2028-yilga borib 34,2 ming tonnaga teng bo‘ladi. Don ishlab chiqarish kamayish tendensiyasida bo‘lib, u -8,9 koeffitsiyentga teng.

2028-yilda 2022-yilga nisbatan ildizmevalarni ishlab chiqarish 1,2, sabzavot 1,1, meva va rezavorlar 1,1, go‘sht va go‘sht mahsulotlari 1,2, sut va sut mahsulotlari 1,2, tuxum 1,4, baliq 1,4, dukkakli mahsulotlar 1,1, asal 1,2 va ziravorlar 1,4 barobar ko‘p ishlab chiqarishini prognozi hisoblab topildi. Don kabi moyli ekinlarni ishlab chiqarish ko‘rsatkichi pasayish tendensiyada bo‘lib, 2028-yilga borib moyli ekinlar mahsulotlarini ishlab chiqarish 470,8 tonnaga, yoki ishlab chiqarish sur’ati 40% ga kamayishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak olingan natijalardan xulosa qilinadigan bo‘lsa, viloyatda tomorqa xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari ichida don va moyli ekinlar kamayib ketadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, aholi tomorqalarida mahsulotlar ishlab chiqarish diversifikatsiyasi don va moyli ekinlar o‘rniga boshqa ekinlar ekilishi hisobiga non va non mahsulotlari, yog‘ iste’mol qilish hajmini kamayishiga sabab bo‘ladi. Natijada ortiqcha vazn hamda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar(yurak-qon tomir kassalliklari) tarqalishi kamayishiga erishiladi.

Prognoz hisobini natijalari 12 ta oziq-ovqat guruhiga kiruvchi mahsulotlardan 10 tasini ishlab chiqarish tendensiyasini ortishini ko‘rsatdi. Ammo bu ko‘rsatkichlar yetarli emas. Tomorqada mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishni rag‘batlantiruvchi usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tomorqa yerlaridan samarali foydalanish uchun tomorqa yer egalarini savodxonligini mutazam oshirib borish, oilani oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lishi va mikro elementlarga boy mahsulotlarni ko‘proq iste’mol qilishlari uchun tomorqada mahsulot yetishtirish diversifikatsiyasiga bog‘liq turli tele dasturlarni va radio eshittirishlar sonini oshirish tavsiya qilinadi.

Manba va adabiyotlar:

1. FAO, (2018). The future of food and agriculture: alternative pathways to 2050. Food and Agriculture Organization of the United Nations Rome;
2. Tang, A. M., Dong, K., Deitcher, M., Chung, M., Maalouf-Manasseh, Z., & Tumilowicz, A. (2013). Food and Nutrition Technical Assistance III Project (FANTA). Use of Cutoffs for Mid Upper Arm Circumference (MUAC) as an Indicator or Predictor of Nutritional and Health Related Outcomes in Adolescents and Adults: A Systematic Review. Washington, DC: United States Agency for International Development, 1-39;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 5 aprel kunidagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash va zaxirasini yaratish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi;
4. Landauer K, Brazil M. editors. 1985. Tropical Home Gardens: Selected Papers from an International Workshop at the Institute of Ecology. Japan: Padjadjaran University, Indonesia, December 1985, United Nations University Press;
5. Specht K, Siebert R, Hartmann I, Freisinger UB, Sawicka M, Werner A, Thomaier S, Henckel D, Walk H, Dierich A. 2014. Urban agriculture of the future: an overview of sustainability aspects of food production in and on buildings. Agric Hum Values. 31:33–51.
6. Holland L. 2004. Diversity and connections in community gardens: a contribution to local sustainability. Local Environ. 9:285–305.
7. Galhena DH, Freed R, Maredia KM. 2013. Home gardens: a promising approach to enhance household food security and wellbeing. Agric Food Secur. 2:8–13.
8. Saydullaeva F. et al. Empirical analysis of smallholder production effect to dietary diversity //ECONOMIC SCIENCE FOR RURAL DEVELOPMENT 2022. – 2022. – S. 555.
9. Armstrong, J. S. (2001). Extrapolation for time-series and cross-sectional data. Principles of forecasting: A handbook for researchers and practitioners, 217-243;
10. Box, G. E., Jenkins, G. M., Reinsel, G. C., & Ljung, G. M. (2015). Time series analysis: forecasting and control. John Wiley & Sons;
11. Hyndman, R. J., & Athanasopoulos, G. (2018). Forecasting: principles and practice. OTexts.

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Xasanov Xayrulla Nasrullayevich
TDIU Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar dapartamenti rahbari, PhD

Annotatsiya: ushbu maqola O‘zbekiston sug‘urta bozorini rivojlantirish tendentsiyalari va asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalari faolitining asosiy ko‘rsatkichlari o‘sishi haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, sug‘urta bozori, sug‘urta mukofoti, sug‘urta xizmat turi, sug‘urta kompaniyalari, sug‘urta to‘lovlari, sug‘urta koplamalari, sug‘urta kompaniyalari.

Аннотация: в данной статье анализируются тенденции и основные показатели развития страхового рынка Узбекистана, приводится информация о росте основных показателей деятельности страховых компаний, работающих на страховом рынке.

Ключевые слова: страхование, страховой рынок, страховая премия, вид страховой услуги, страховые организации, страховые выплаты, страховая защита, обязательства страховых организаций.

Abstract: this article analyzes the trends and main indicators of the development of the insurance market of Uzbekistan, provides information on the growth of the main indicators of the activity of insurance companies operating in the insurance market.

Key words: insurance, insurance market, insurance premium, type of insurance service, insurance companies, insurance payments, insurance coverage, obligations of insurance companies.

KIRISH

Sug‘urta bozori moliya va moliyaviy xizmatlar bozori tarkibida asosiy va muhim ishtirokchisi hisoblanadi. Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalari sug‘urta xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va moliyaviy vositachilar sifatida namoyon bo‘ladi.

Sug‘urta bozori moliyaviy sektorning ajralmas qismidir. Milliy iqtisodiyotda jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy mafaatlarini turli xavf-xatarlardan samarali himoya qilishni ta’minlovchi moliyaviy vositalardan biri sug‘urtadir.

Sug‘urta bozori ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarni bajaradi:

Sug‘urta bozorining iqtisodiy fuksiyasi sug‘urtachilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishni kafolatlash maqsadida sug‘urta bozori ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishdagi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishdan iborat bo‘lib, ularning moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda ifodalanadi.

Ijtimoiy funksiya fuqorolarning ijtimoiy xavfsizligini amalga oshirishda va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashni amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urtaning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan tadqiq qilish xorijiy mamlakatlarning olimlari A. Manes, D. Bland, K. G. Vobliy, E. K. Babadjanyan, L. A. Orlanyuk-Maliskaya, S. Y. Yanova, V. V. Droshnev, U. V. Semyonova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Q. M. Qo‘ldoshev, M. A. Mirsadikov, X. M. Shennayev, I. X. Abduraxmonov, B. R. Shamsuddinov X. M. Boyev, O. T. Yuldashev, E. M. Maksumov, Sh. Zakirxodjayeva va boshqalar tomonidan sug‘urtaning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari, xususiyatlari, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Sug‘urtaning amaliy jihatlari bo‘yicha ham o‘zlarining fikrlarini bildirib o‘tishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada mavzu doirasida avval o‘rganilgan tadqiqotlarni o‘rganib, tahlil qilgan holda biz o‘rganishimiz, yechim topishimiz kerak bo‘lgan savollarni shakllantirib oldik. Endi mana shu savollar asosida O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar yig‘amiz. Yig‘ilgan ma’lumotlarni tanlagan tadqiqot usullarimiz va tahliliy uslublarimizdan foydalanib chuqur tahlilini amalga oshiramiz. Tahlil qilib, olingan natija va yechimlarimizdan kelib chiqib xulosa qilamiz. Bu xulosalarimiz asosida sug‘urta kompaniyalari uchun nazariy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishimiz mumkin bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy sug‘urta bozorining jadal rivojlanishini ta’minlash, iste’molchilarning sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2021-yilda PQ-5265-sonli sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida Qarori qabul qilingan. Unga muvofiq:

2022-yil 1-iyuldan boshlab:

sug‘urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat beriladi;

2023-yil 1-yanvardan boshlab majburiy sug‘urtaning barcha turlari bo‘yicha sug‘urta polislarini qog‘oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinadi.

2022-yil 1-yanvardan 2025-yil 1-yanvarga qadar hayot sug‘urtasi sohasida faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarining mazkur faoliyati qismi uchun hisoblanadigan foyda solig‘i bo‘yicha belgilangan soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi;

2022-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-yanvarga qadar ish beruvchi tomonidan o‘z xodimlari uchun baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish va tibbiy sug‘urta turlari bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomalari asosida O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan mablag‘lar jismoniy shaxslarning jami daromadi sifatida qaralmaydi.

Jismoniy shaxslarning uzoq muddatli hayot sug‘urtasi shartnomasi bo‘yicha yo‘naltirgan mablag‘lari hamda ularga to‘langan sug‘urta to‘lovi (sug‘urta tovoni) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliqqa tortilmaydi:

2021-yil 23-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonun imzolandi. Qonun 72 moddadan iborat bo‘lib, sug‘urta faoliyatini tartibga solish, sohaga ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy qilish hamda sug‘urta sohasidagi iste’molchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Shuningdek, sug‘urta turlarini ko‘paytirish, barqarorligini ta’minlash bilan mutanosib ravishda aholining sug‘urta madaniyatini oshirish ham nazarda tutilgan.

Qonunda sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (sug‘urta tashkilotlari, sug‘urta brokerlari, adjasterlar, assistanslar, aktuariylar, syurveyerlar) huquq va majburiyatlari aniq belgilandi. Sug‘urta shartnomalarini elektron tarzda internet orqali tuzish jarayoni qonun bilan mustahkamlanmoqda.

Ushbu qonun bilan sug‘urta bozori professional ishtirokchilari faoliyatini jonlantirish, shuningdek, umumiy sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining rolini oshirish orqali sug‘urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish, sug‘urta xizmatlari iste’molchilari va sug‘urta faoliyatining boshqa subyektlari huquqlari himoyasini mustahkamlash, aholining bu boradagi savodxonligi va ishonchini oshirish, sug‘urta bozorining ochiqligi va oshkoraligini ta’minlash kabi masalalar qamrab olingan.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish bosqichlarining natijasida sug‘urta bozorida quydagicha natijalarga erishildi.

1 - j a d v a l: Sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Yillar									
	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Sug‘urta mukofoti	338,5	439,1	551,5	692,6	927,5	1635,2	2,313,9	2,213,7	3,7	6.2
Sug‘urtaning YalMdagi ulushi	0,28%	0,30%	0,30%	0,35%	0,37%	0,39%	0,4%	0,4%	0,5%	0.6%
Sug‘urta to‘lovlari	66,9	74,6	111,0	130,5	270,0	460,8	813,5	737,5	1,2	2.6%
Investitsiya	526,6	623,7	758,1	867,5	1482,6	2010,7	2,711,9	3,382,6	3,7	4.8

Jadval ma’lumotlaridan shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston sug‘urta bozorida olib borilgan islohotlar natijasida sug‘urta faoliyati kengayib, sug‘urtaning o‘rni O‘zbekiston sug‘urta bozori sezilarli darajada ijobiy tomonga o‘zgardi.

O‘zbekiston sug‘urta bozori 2021-yil yakunlariga ko‘ra 42 ta sug‘urta komapniyasi faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shulardan 8 ta sug‘urta kompaniya hayot sug‘urtasi bilan qolgani umumiy sug‘urta bilan shug‘ullanadi. Ularning faoliyati 2021-yil yakunlariga ko‘ra sug‘urta mukofoti bo‘yicha quydagi ko‘rsatkichlarga erishgan.

2 - j a d v a l: Umumiy sug‘urta kompaniyalar tomonidan 2021-yil yakunlari bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofoti, mln. so‘mda[1]

Sug‘urta kompaniyalari nomi	Sug‘urta mukofotlari		
	31.12.2020	31.12.2021	O‘zgarish, %
Umumiy	1 879 346	2 996 541	+59,4%
“O‘zbekinvest” EISK AJ	262 869	385 385	+46,6%
“Gross Insurance” MChJ	251 773	343 817	+36,6%
“O‘zagrosug‘urta” AJ	178 203	260 975	+46,4%
“Apex Insurance” MChJ	120 337	229 112	+90,4%
“Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ	149 363	223 750	+49,8%
“My Insurance” MChJ	101 310	185 284	+82,9%
“Alfa Invest” MChJ	97 295	156 314	+60,7%
“Euroasia Insurance” QK MChJ	144 932	154 390	+6,5%
“Temiryo‘l-sug‘urta” MChJ	52 788	135 316	+156,3%
“Kapital sug‘urta” AJ	49 432	116 805	+136,3%
“Kafil sug‘urta” MChJ	50 006	100 201	+100,4%
“Imkon sug‘urta” MChJ	29 749	77 524	+160,6%
“PSB Insurance” MChJ	48 031	72 402	+50,7%
“Asko-Vostok” MChJ	35 099	61 103	+74,1%
“Asia Inshurans” MChJ	51 436	55 720	+8,3%
“Alskom” AJ	44 109	52 573	+19,2%
“Ingo-Uzbekiston” AJ	37 545	40 651	+8,3%
“Xalq sug‘urta” MChJ	29 066	39 991	+37,6%
“Inson” MChJ	17 128	36 572	+113,5%
“Hamkor sug‘urta” MChJ	25 110	35 218	+40,3%
“Ishonch BSK” MChJ	16 536	32 702	+97,8%
“Global Insurance Group” MChJ	12 652	30 587	+141,8%
“Semurg Insurance” QK MChJ	243	24 780	>+1000%
“Universal sug‘urta” AJ	25 566	21 552	-15,7%
“Perfect Insurance” MChJ	9 120	21 275	+133,3%
“DD General Insurance” MChJ	9 961	20 643	+107,2%
“Sharq-sug‘urta” MChJ	-	18 672	0%
“Trust-Insurance” MChJ	-	16 571	0%
“Aria Sug‘urta Tashkiloti” MChJ	842	13 081	>+1000%
“Omad sug‘urta” MChJ	14 284	12 282	-14,0%
“Garant Insurance Group” MChJ	11 795	11 515	-2,4%
“Impex Insurance” MChJ	-	5 124	0%
“Unipolis” MChJ	2 765	3 184	+15,2%
“Azimuth Insurance Company” XK MChJ	-	1 468	0%

Jadval ma’lumotlarga sug‘urta kompaniyalari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining miqdori 2020-yilga nisbatan 2021-yilda sezilarli darajada oshgan. Umumiy miqdori 2 996 541 mlyard so‘mni tashkil qilgan. Sug‘urta bozorining yetakchi tashkilotlardan biri “O‘zbekinvest”, “Gross Insurance”, “O‘zagrosug‘urta”, “Kafolat sug‘urta kompaniyasi” kompaniyalari bo‘lib ularning faoliyati natijasiga ko‘ra yig‘ilgan sug‘urta mukofotlar

1 mf.uz. Moliya Vazirligini ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

umumiy qiymatning asosiy qismini tashkil etadi. 2021-yilda o‘z faoliyatini boshlagan “ARIA SUG‘URTA TASHKILOTI” MCHJ, “SEMURG INSURANCE” MCHJ QK, “SHARQ – SUG‘URTA” MCHJ, “TRUST-INSURANCE” MCHJ kompaniyalarni sug‘urta mukofotlari faqat 2021-yilga to‘g‘ri keladi.

2022-yil ko‘rsatkichlariga ko‘ra umumiy sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalarining faoliyati natijasida sug‘urta mukofotlari 6 231 726 trl so‘mga yetgan bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan +67,0% oshganini ko‘rsatadi. Sug‘urta kompaniyalardan biri “Garant Insurance Group” MCHJ faoliyati to‘xtatildi.

3 jadval: 2022-yil yakunlariga ko‘ra umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat ko‘rasatayotgan sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha ko‘rsatkichi[2]

№	Sug‘urta kompaniyalari nomi	31.12.2021	31.12.2022	O‘zgarish, %
	Umumiy	612 684	1 087 567	+77,5%
1.	“APEX INSURANCE” AJ	35 131	252 316	+618,2%
2.	“O‘ZBEKINVEST” EISK AJ	89 325	78 689	-11,9%
3.	“GROSS SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	56 209	76 793	+36,6%
4.	“KAPITAL SUG‘URTA” AJ	40 288	66 662	+65,5%
5.	“KAFOLAT SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	33 669	59 713	+77,4%
6.	“ALSKOM SUG’URTA KOMPANIYASI” AJ	11 305	53 145	+370,1%
7.	“MY-INSURANCE” AJ ST	96 200	52 352	-45,6%
8.	“ALFA INVEST SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	21 289	47 058	+121,0%
9.	“O‘ZAGROSUG‘URTA” AJ	35 349	43 896	+24,2%
10.	“EUROASIA INSURANCE” AJ QK	36 080	39 679	+10,0%
11.	“GARANT INSURANCE GROUP” AJ	1 574	36 261	>+1000%
12.	“KAFIL SUG‘URTA” AJ	27 185	34 983	+28,7%
13.	“ASIA INSURANCE SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	17 627	28 063	+59,2%
14.	“HAMKOR SUG‘URTA” AJ	3 694	27 324	+639,6%
15.	“ASKO-VOSTOK” AJ QK ST	16 533	26 489	+60,2%
16.	“SHARQ-SUG‘URTA” AJ	5 960	25 958	+335,5%
17.	“IMKON SUG‘URTA” AJ	7 828	24 905	+218,2%
18.	“SQB INSURANCE SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	17 346	19 835	+14,4%
19.	“SEMURG SUG‘URTA” AJ QK	3 632	15 193	+318,3%
20.	“GLOBAL INSURANCE GROUP” AJ ST	7 223	14 414	+99,5%
21.	“TEMIRYO‘L SUG‘URTA” AJ	13 162	11 984	-8,9%
22.	“INSON” AJ ST	2 956	11 269	+281,2%
23.	“IMPEX-INSURANCE” AJ	-	9 004	0%
24.	“INGO-UZBEKISTON” AJ	9 586	7 765	-19,0%
25.	“ISHONCH SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ QK	8 395	6 790	-19,1%
26.	“XALQ SUG‘URTA” AJ	3 790	4 868	+28,4%
27.	“DD GENERAL INSURANCE” AJ	3 028	2 530	-16,5%
28.	“UNIVERSAL SUG‘URTA” AJ	3 838	2 018	-47,4%
29.	“OMAD SUG‘URTA” AJ	802	1 885	+135,1%
30.	“MOSAIC INSURANCE COMPANY” AJ ST	244	1 874	+668,8%
31.	“PERFECT INSURANCE” AJ ST	2 885	1 868	-35,2%
32.	“ARIA SUG‘URTA TASHKILOTI” AJ	211	1 203	+469,2%
33.	“TRUST-INSURANCE” AJ	45	631	>+1000%
34.	“UNIPOLIS” AJ ST	297	150	-49,3%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, sug‘urta kompaniyalar ichida yetakchi kompaniyalar bo‘lib, “APEX INSURANCE” AJ “O‘zbekinvest”, “Gross Insurance”, “KAPITAL SUG‘URTA” AJ, “Kafolat sug‘urta kom-

2 mf.uz. Moliya Vazirligini ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

paniyasi” hisoblanadi. Qolgan kompaniyalar asta sekin o‘z faoliyati rivojlanib bormoqda. 2022-yil 1 087 567 trl so‘mga yetdi va bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 612 684 mlyard so‘mga nisbatan 77.5% ga o‘sgan. Bu esa sug‘urta kompaniyalarini to‘lov qobiliyati o‘sganligi va sug‘urta munosabatlariga ishonchni oshib borayotganini bildiradi. Chunki sug‘urta to‘lovlari sug‘urta kompaniyalari rivojidagi eng yaxshi reklama.

4 - j a d v a l: 2022-yil yakunlariga ko‘ra umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat ko‘rasatayotgan sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta majburiyatlari bo‘yicha ko‘rsatkichi[3]

№	Sug‘urta kompaniyalari nomi	Sug‘urta majburiyatlari		
		31.12.2021	31.12.2022	O‘zgarish, %
	Umumiy	1 227 790 487	2 073 999 369	+68,9%
1.	“EUROASIA INSURANCE” AJ QK	9 3 976 415	331 278 407	+252,5%
2.	“APEX INSURANCE” AJ	7 8 115 069	298 739 626	+282,4%
3.	“O‘ZBEKINVEST” EISK AJ	1 51 506 486	297 920 260	+96,6%
4.	“TEMIRYO‘L SUG‘URTA” AJ	4 5 587 193	140 297 704	+207,8%
5.	“O‘ZAGROSUG‘URTA” AJ	9 0 722 580	131 431 820	+44,9%
6.	“GROSS SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	1 91 500 270	129 508 584	-32,4%
7.	“KAFOLAT SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	1 34 105 887	117 687 994	-12,2%
8.	“ALFA INVEST SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	6 1 497 457	110 559 318	+79,8%
9.	“INSON” AJ ST	2 1 197 449	64 119 429	+202,5%
10.	“KAPITAL SUG‘URTA” AJ	5 3 447 394	51 561 799	-3,5%
11.	“SQB INSURANCE SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	3 4 339 431	49 954 671	+45,5%
12.	“INGO-UZBEKISTON” AJ	2 6 163 294	39 487 479	+50,9%
13.	“MY-INSURANCE” AJ ST	3 5 795 532	36 288 531	+1,4%
14.	“ALSKOM SUG’URTA KOMPANIYASI” AJ	3 1 600 511	34 412 473	+8,9%
15.	“ASIA INSURANCE SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ	3 0 380 377	34 015 557	+12,0%
16.	“KAFIL SUG‘URTA” AJ	2 4 948 527	29 035 251	+16,4%
17.	“IMPEX-INSURANCE” AJ	1 306 260	21 243 337	>+1000%
18.	“IMKON SUG‘URTA” AJ	11 371 317	19 170 240	+68,6%
19.	“XALQ SUG‘URTA” AJ	15 633 783	15 250 876	-2,4%
20.	“SHARQ-SUG‘URTA” AJ	9 715 745	14 203 722	+46,2%
21.	“ASKO-VOSTOK” AJ QK ST	10 708 438	12 481 461	+16,6%
22.	“OMAD SUG‘URTA” AJ	5 164 438	10 887 679	+110,8%
23.	“MOSAIC INSURANCE COMPANY” AJ ST	1 32 168	10 210 201	>+1000%
24.	“ISHONCH SUG‘URTA KOMPANIYASI” AJ QK	7 336 597	9 169 164	+25,0%
25.	“TRUST-INSURANCE” AJ	4 571 307	8 662 106	+89,5%
26.	“SEMURG SUG‘URTA” AJ QK	5 490 424	8 332 904	+51,8%
27.	“ARIA SUG‘URTA TASHKILOTI” AJ	4 766 239	7 878 618	+65,3%
28.	“HAMKOR SUG‘URTA” AJ	11 779 076	7 794 575	-33,8%
29.	“PERFECT INSURANCE” AJ ST	6 285 624	7 606 325	+21,0%
30.	“UNIVERSAL SUG‘URTA” AJ	10 113 205	7 266 189	-28,2%
31.	“DD GENERAL INSURANCE” AJ	4 590 918	5 826 832	+26,9%
32.	“UNIPOLIS” AJ ST	8 746 669	5 262 953	-39,8%
33.	“GLOBAL INSURANCE GROUP” AJ ST	2 664 673	4 151 228	+55,8%
34.	“GARANT INSURANCE GROUP” AJ	2 529 735	2 302 056	-9,0%

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra 2022-yilda 2021-yilga nisbatan +68,9% oshganiga qaramasdan 2022-yil yakunlariga ko‘ra umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatayot sug‘urta kompaniyalarning soni 33 ta ga tushdi. “GARANT INSURANCE GRUP” AJ sug‘urta kompaniyasining faoliyati to‘xtatildi.

3 mf.uz. Moliya Vazirligini ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Umumiy sug‘urta tarmog‘i bo‘yicha ishlab chiqiladigan sug‘urta mahsulotlari qisqa muddatli bo‘lib, sug‘urta obyekti sifatida shaxsning mulkiy mafaatlari hisoblanadi.

Umumiy sug‘urta tarmog‘i bo‘yicha sug‘urta kompaniyalari o‘zlarining mmjozlariga minglab sug‘urta xizmatlarini taklif etadi.

Sug‘urta kompaniyalar tomonidan taqdim etilayotgan sug‘urta xizmatlari ham majburiy, ham ixtiyoriy shaklda bo‘lishi mumkin. Faqatgina sug‘urta kompaniyasi majburiy turdagi sug‘urta xizmatlarini taklif etishi mumkin bo‘lgan guvohnomaga ega bo‘lishi talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston sug‘urta bozori, ayniqsa, iqtisodiyotning o‘sib borayotgani va aholi sonining ko‘payishini hisobga olgan holda yanada rivojlantirish uchun salohiyatga ega. O‘zbekistonda sug‘urta bozorining rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ba’zi usullar:

1. Sug‘urta bozorida raqobatni rivojlantirish: raqobatni kuchaytirish uchun yangi sug‘urta mahsulotlari va xizmatlari joriy etilishi, shuningdek, sug‘urta polislari uchun stavkalarni kamaytirish mumkin. Bu sug‘urtalanganlar sonining ko‘payishiga va sug‘urta mukofotlarining oshishiga olib kelishi mumkin.
2. Sug‘urta xizmatlari sifatini oshirish: sug‘urta kompaniyalari ishonchini oshirish uchun sug‘urta xizmatlari va jarayonlari sifatini oshirish zarur. Bunga yangi texnologiyalarni joriy etish va xodimlarning malakasini oshirish orqali erishish mumkin.
3. Aholining sug‘urta haqida xabardorligini oshirish: O‘zbekistonda ko‘pchilik sug‘urta qanday ishlashi va u qanday imtiyozlar berishi mumkinligini tushunmaydi. Aholining sug‘urta haqida xabardorligini oshirish uchun axborot kampaniyalari va ta’lim dasturlari zarur.
4. Qonunchilikni takomillashtirish: O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish uchun sug‘urtalanuvchilar va sug‘urtalovchilar huquqlarini himoya qilishni ta’minlash maqsadida qonunchilikni takomillashtirish zarur. Bunga yangi qonunlar va tartibga solish mexanizmlarini joriy etish orqali erishish mumkin.
5. Mikrosug‘urtani rivojlantirish: mikrosug‘urta kam ta’minlangan aholini himoya qilishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin. Mikrosug‘urtani rivojlantirish ixtisoslashgan tashkilotlar va aholi ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlarni yaratishni taqozo etadi.

Ushbu rivojlanish yo‘llari O‘zbekistonda sug‘urta bozori hajmini oshirish va aholini himoya qilish darajasini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qo‘ldoshev Q. M. O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi va uni rivojlantirish muammolari. //Moliya ilmiy jurnali, 2014-y. 2-son.
3. Р. Азимов, Б. Шамсуддинов. Страховой рынок Узбекистана в условиях масштабных экономических реформ. Москва. Ж. Страховое дело. 2020, №3. Стр. 24–31.
4. Шамсуддинов Б. Р., Назаров А. А. Формирование резервов в страховании жизни: актуарные и законодательные основы. Журнал “Biznes-Ekspert”, 2015, №12(96) Стр. 38–43
5. Сиганов А. А. Эффекты глобализации и интерационные процессы на страховом рынке России Страховое дело // М.: Анкил, 2015, №7
6. Адамчук Н.Г. Современные тенденсии развития страхования в мусульманских странах // Страховое дело, Москва, 2015 г. Август.
7. Quziyeva N.R. Sug‘urta faoliyatida injiniring jarayonlarini qo‘llash “Sug‘urta kompaniyalari investision faoliyatini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to‘plami. 2020-y.

O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA VOLONTYORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA HUQUQIY MEXANIZMLARI: JAHON VA MAHALLIY TAJRIBA

Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: mazkur maqolada jamiyatimizda yoshlarning volontyor sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etishi davlatning paternalistik funksiyalari qisqarishi va jamiyatda demokratik institutlar ta’siri oshishiga olib kelishi mumkinligi asoslangan holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “Volontyorlar maktabi”, “Volontyorlar markazi” paternalistik funksiya, o‘zaro yordam, mnstitutsional.

Аннотация: в данной статье непосредственное участие молодежи в качестве волонтеров в общественно-политических процессах в нашем обществе объясняется тем, что могут быть снижены патерналистские функции государства и увеличено влияние демократических институтов в обществе.

Ключевые слова: “Волонтерская школа”, “Волонтерский центр”, патерналистская функция, взаимопомощь, институциональная.

Abstract: in this article, the direct participation of young people as volunteers in socio-political processes in our society is explained based on the fact that the paternalistic functions of the state can be reduced and the influence of democratic institutions in the society can increase.

Key words: “Volunteer School”, “Volunteer Center” paternalistis funstion, mutual aid, institutional.

KIRISH

O‘zbekistonda volontyorlik faoliyatini rivojlantirish omillari, mexanizmlari haqida so‘z yuritishdan oldin rivojlangan davlatlar tajribasiga, xususan, AQSh tajribasiga e’tibor qaratish lozim. Amerika Qo‘shma Shtatlarini haqli ravishda ko‘ngillilikning aholi orasida mashhurligi yuqori va volontyorlik faoliyati orqali bilvosita tarzda siyosiy jarayonlarni boshqarishda boy tajribaga ega davlat, deb hisoblash mumkin.

Qo‘shma Shtatlarda turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar hayotida volontyorlik katta rol o‘ynaydi. U tashkiliy jihatdan keng tarqalgan va uchinchi sektorning ko‘plab tashkilotlari faoliyatiga kiritilgan; jamiyat hayotining ijtimoiy, madaniy, siyosiy va boshqa sohalarida barqaror o‘rin egallagan. Ko‘p jihatdan bu holatni Amerikaning davlat sifatida shakllanishining deyarli butun davri – Amerika tarixining uch asrlik davri ko‘ngillilikning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqligi bilan izohlash mumkin.

1960-yillarda Sharqiy va G‘arbiy Yevropa o‘rtasida do‘stlik aloqalarini o‘rnatishni maqsad qilgan o‘nlab tinchlikparvar ko‘ngillilar dasturlari paydo bo‘ldi. 1980-yillardan boshlab atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ko‘ngilli loyihalar keng tarqaldi. Ayni paytda YuNESKO huzuridagi Xalqaro ko‘ngillilar tashkilotlarini muvofiqlashtiruvchi qo‘mitasi (SSIVS) tomonidan dunyoning 50 ta davlatidan turli tashkilotlar har yili 500 dan ortiq xalqaro yoshlar mehnat lagerlarini o‘tkazadi. Bu volontyorlik lagerlarining maqsadi aniq bir shahar, qishloqqa davlat yetarli mablag‘ga ega bo‘lmagan holatda loyihani amalga oshirishga ko‘maklashishdir[1].

Ko‘ngillilar harakati keng ko‘lamdagi siyosiy jarayon sifatida AQSh, Angliya, Germaniya Ispaniya, Fransiya, Finlyandiya, Shveytsariya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Ko‘ngillilar harakatida talabalar, universitet professor-o‘qituvchilari, turli kasb egalari ishtirok etishadi. Ular hayotda o‘z o‘rinlariga ega. Ammo mehnat ta’tillarini yanada faolroq mashg‘ulot bilan o‘tkazishni xohlashadi.

1 Европа в эпоху перемен. https://www.dipasademy.ru/dosuments/993/ISBN_978-5-9907695-3-3.pdf

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yevropa fuqarolarining ko‘ngillilik sohasidagi yutuqlarini e’tirof etish va Xalqaro ko‘ngillilar yili ning o‘n yilligi munosabati bilan Yevropa Komissiyasi 2011-yilni Yevropa ko‘ngillilar yili, deb e’lon qildi.Kelgusi yilda Xalqaro notijorat uyushmasi sa’y-harakatlari bilan Bryusselda “Yevropa yoshlar forumi” (European Youth Forum) bo‘lib o‘tdi. Ko‘ngillilarning huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi Yevropa Xartiyasi qabul qilindi. Unda aytilishicha: Yevropada yuz milliondan ortiq odam ko‘ngilli, ya’ni o‘nta yevropalikdan uchtasi ko‘ngillilik ishlarida qatnashishlarini aytishadi va Yevropa aholisining deyarli 80%i ko‘ngillilik faoliyatini Yevropadagi demokratik hayotning muhim siyosiy va ijtimoiy qismi deb biladi.

Amerika ko‘ngillilar harakatining 1960-yillarda kuchayishi haqida gapirishdan oldin XX asr birinchi yarmida Amerika Qo‘shma Shtatlarida ko‘ngillilik bilan bog‘liq ishlar qanday bo‘lganini tushuntirishga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, bu mamlakatda ko‘ngillilar tashkiloti Fuqarolik tabiatni muhofaza qilish korpusi (Civilian Conservation Corps, CCC) Prezident Franklin Ruzvelt tomonidan yoshlar ishsizligini kamaytirish, uning salohiyati va axloqiy xususiyatlarini saqlab qolish uchun tashkil qilingan. Dastlabi vaqtlarda tashkilot uylanmagan ishsiz yigitlar uchun (birinchi 18-25 yosh, keyinroq 17–28 yosh) 1933-yildan 1942-yilgacha amal qilgan federal moliyalashtirilgan ixtiyoriy davlat yordam dasturi edi[2].

Tashkilot prezident Franklin Ruzvelt bilan federal, shtat va mahalliy hukumat yerlarida tabiiy resurslarni saqlash va rivojlantirish uchun jismoniy mehnatdan foydalanishni o‘z ichiga olgan Yangi kelishuvning muhim qismi edi. Dastur Qo‘shma Shtatlardagi Buyuk Depressiyadan keyin yoshlarni ish bilan ta’minlash va ularning ota-onalariga yordam berish uchun ishlab chiqilgan edi. Harakat ishtirokchilarining maksimal soni bir vaqtning o‘zida 300 ming kishini tashkil etgan.

To‘qqiz yil ichida Korpus ishida uch million yoshlar ishtirok etdi, ular mehnat lagerlarida uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat va oyiga 30 dollar miqdorida belgilangan maosh bilan ta’minlandi, 25 dollarni ota-onalarga yuborishga ruxsat berildi. Korpus faoliyatini Amerika aholisining qariyb 90% qo‘llab-quvvatladi. Ammo Ikkinchi Jahon urushi paytida korpusning ishi to‘xtatilgan edi[3].

Endi O‘zbekistonda bu borada qilingan ishlar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Qonunga ko‘ra, volontyorlik faoliyati quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- kam ta’minlanganlar, ishsizlar, ko‘p bolalilar, boshpanasizlar, qarovsiz qolganlar, shuningdek, ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida volontyorlik yordami ko‘rsatish;
- bemorlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘izlar, qariyalar hamda o‘zining jismoniy, moddiy yoki boshqa o‘ziga xos xususiyatlari sababli qo‘llab-quvvatlashga va yordamga muhtoj bo‘lgan shaxslarni parvarishlashni amalga oshirish[4];
- tabiiy yoki texnogen tusdagi favqulodda vaziyat oqibatida, alohida rejim, favqulodda holat joriy etilganda, ijtimoiy mojarolar, baxtsiz hodisalar natijasida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek, jinoyatlardan jabrlanganlarga, qochqinlarga, mamlakat ichkarisida ko‘chib yurganlarga yordam ko‘rsatish[5];
- o‘zining jismoniy yoki boshqa o‘ziga xos xususiyatlari sababli o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish imkoniyati cheklangan shaxslarga yordam ko‘rsatish;
- turli ommaviy-siyosiy faoliyatlar, xususan jamoat tadbirlarini tashkil etish bilan bog‘liq milliy hamda xalqaro ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirishga ko‘maklashish;
- alohida davr va favqulodda holat huquqiy rejimlarining amal qilishi vaqtida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga, boshqa harbiy idoralarga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga volontyorlik yordami ko‘rsatish[6].

O‘zbekiston Respublikasining “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan, ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar quyidagi huquq va majburiyatlarga ega.

O‘n sakkiz yoshga to‘lgan jismoniy shaxslar volontyorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan jismoniy shaxslar volontyorlik faoliyatini, basharti bu faoliyat ularning sog‘lig‘iga hamda axloqiy rivojlanishiga zarar etkazmasa va o‘quv jarayonini buzmasa, amalga oshirishi mumkin.

2 Гражданский корпус охраны окружающей среды. https://ru.wikipedia.org/wiki
3 Гражданский корпус охраны окружающей среды. https://ru.wikipedia.org/wiki
4 Zamonov O. Volontyorlikning huquqiy doirasi belgilandi. https://www.norma.uz/qonunchilikda _yangi/volonterlikning_huquqiy_doirasi_belgilandi.
5 O‘sha manba.
6 Raimbekova C. Volontyorlik faoliyati bu nima? https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=36552. O‘zbekiston Respublikasining 02.12.2019-yildagi O‘RQ-585-son “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/doss/4623999.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga doir ishlarni amalga oshirish uchun faqat o‘n sakkiz yoshdan katta bo‘lgan volontyorlarga ijozat beriladi[7].

Qonunga muvofiq volontyorga bir qator huquqlarga egaligi ham belgilab qo‘yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- o‘zining volontyorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etishini ushbu Qonunda belgilangan talablarni hisobga olgan holda erkin tanlash;
- agar volontyor hamda volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi o‘rtasida tuzilgan volontyorlik shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, har qanday vaqtda volontyorlik faoliyatini erkin ravishda tugatish;
- volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi va volontyorlik tashkiloti to‘g‘risida ishonchli axborot olish;
- volontyorlik dasturlarini bajarish, volontyorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan yoki tavsiya qilinadigan volontyorlik aksiyalarini va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;
- volontyorlik faoliyati tashkilotchisidan va volontyorlik tashkilotidan maxsus kiyim-bosh olish hamda yo‘l haqiga, yashashga, ovqatlanishga, zarur yakka tartibda himoyalanish vositalarini, asbob-uskunalarni olishga sarflangan xarajatlarning va boshqa xarajatlarning o‘rni qoplanishi;
- volontyorlik faoliyati tashkilotchisidan va volontyorlik tashkilotidan tavsiyanoma tusidagi xatlarni olish;
- ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport tashkilotlariga va tabiatni muhofaza qiluvchi hamda o‘rmon muassasalarining hududiga mazkur tashkilotlar va muassasalar rahbariyati bilan kelishuvga ko‘ra volontyorlik faoliyatini amalga oshirish uchun kirish[8].

Volontyor siyosiy jarayonlarning mantiqli kechishi uchun quyidagilarga alohida e’tibor berish lozim:

- volontyorlarni muvofiqlashtiruvchidan, volontyorlik tashkilotidan hamda volontyorlik faoliyatining tashkilotchisidan olingan topshiriqlarni vijdonan bajarishi;
- fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzilmasligi, o‘z faoliyati bilan uchinchi shaxslarga va atrof-muhitga zarar etkazmasligi, zero, biror bir shaxsning siyosiy huquqlari boshqa shaxs huquqlari boshlangan joyda cheklanishi maqsadga muvofiq;
- volontyorlik faoliyatini amalga oshirish chog‘ida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan maxfiy xususiyatga ega ma’lumotlarni oshkor etmasligi;
- volontyorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida o‘ziga berilgan moddiy resurslar hamda asbob-uskunalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi va ish tugaganidan keyin ularni qaytarishi;
- davlat organlarining mansabdor shaxslariga o‘z vakolatlarini amalga oshirishida to‘sqinlik qilmasligi shart[9].

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati J.Shirinovning ta’kidlashicha, “O‘zbekistonda ko‘ngillilik harakati keng rivojlangan. Lekin hozirga qadar bu masala umuman huquqiy tartibga solinmagan edi. Bu esa, ushbu qonun loyihasini ishlab chiqishning eng asosiy sababi bo‘ldi. Shu tufayli, qonundan ko‘zlangan maqsad ham yurtimizda ko‘ngillilar faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish, volontyorlik faoliyatini zamon talablari asosida yo‘lga qo‘yishni ta’minlash hamda rivojlantirishdan iborat etib belgilandi”[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizga ma’lumki, bugungi kunda volontyorlik ishlari butun dunyo bo‘ylab jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bunday faoliyat birinchi navbatda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lib, bozor munosabatlarining shakllanishiga hamda xususiy biznesni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, volontyorlik rivoji uchun asosiy sabablar quyidagilar:

- odamlar tabiatan altruistik (bu axloqiy tamoyil bo‘lib, unga ko‘ra boshqa odamlarga yaxshiliklar qilish va ularning manfaatlari o‘z-o‘zidan va shaxsiy manfaatlaridan ko‘ra muhimroq ko‘rish) bo‘lib, ular boshqalarga yordam berish istagi bilan harakat qiladi;

7 O‘zbekiston Respublikasining “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 12 modda. https://lex.uz/doss/4623999
8 Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida. http://uza.uz; 978-5-7996-1677-9_2016.pdf (1/2) http://elar.urfu.ru
9 Qarang: Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida. http://uza.uz; 978-5-7996-1677-9_2016.pdf (1/2) http://elar.urfu.ru
10 Volontyorlik faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. https://parliament.gov.uz/ uz/evens/other/29115/?sphrase_id=5448697

- odamlar xayrli ish qilishganda, o‘zlarini yaxshi (xotirjam) his qilishadi[11].

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, xayrli ishlar, volontyorlik, xayriya faoliyati odamlarni turli maqsadlarga undaydi. Xayriya ba’zilarda insonlarga nisbatan mehr-shafqat uyg‘otsa, boshqalar uchun foyda keltiradigan faoliyat hamdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, volontyorlik faoliyati orqali kam ta’minlanganlarga, ishsizlar, ko‘p bolalilar, boshpanasizlar, qarovsiz qolganlarga yordam ko‘rsatish, bemorlarni, nogironligi bo‘lgan shaxslarni, yolg‘izlarni, qariyalarni va boshqa yordamga muhtoj bo‘lgan shaxslarni parvarishlash, tabiiy yoki texnogen tusdagi favqulodda vaziyat oqibatida, alohida rejim, favqulodda holat joriy etilganda, ijtimoiy mojarolar, baxtsiz hodisalar natijasida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek, jinoyatlardan jabrlanganlarga, qochqinlarga yordam ko‘rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, merosni, tarixiy-muhitni, dafn etish joylarini saqlab qolish, ommaviy sport va boshqa jamoat tadbirlarni tashkil etish, milliy hamda xalqaro ahamiyatga molik tadbirlarni o‘tkazishga ko‘maklashish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa yo‘nalishlar amalga oshirilishi mumkin. Qonunning qabul qilinishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga volontyorlar (volontyor guruhlar, volontyor tashkilotlar) bilan ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida shartnomalar tuzish orqali volontyorlar kuchidan foydalanish imkoniyati yaratildi[12].

Faol fuqarolar va volontyorlik guruhlari tomonidan tabiiy ofatlar yuz berganda, pandemiya sharoitida xayriya aksiyalari o‘tkazilib, ko‘plab ehtiyojmand oilalarga xayriya mablag‘lari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon mahsulotlari, gigiena vositalari va boshqalar tarqatilayotganligi e’tiborga molik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Mehr-saxovat” ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risida”gi PF-5999-son hamda 2020-yil 26-avgustdagi “Mehr-saxovat” ko‘krak nishoni bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi PF-6046-son farmonlari ijrosi yuzasidan sog‘liqni saqlash sohasining jonkuyar vakillari, saxovatli tadbirkorlar, davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining fidoyi xodimlari hamda boshqa tashabbuskor va faol fuqarolar “Mehr-saxovat” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandilar[13].

Adliya vazirligi tomonidan ham nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birga, volontyorlar kuchidan foydalangan holda xayriya tadbirlari o‘tkazib kelinmoqda.

Volontyorlar faoliyatidan foydalanishda, amalga oshiriladigan ishlarning og‘irligiga qarab volontyorlarni tegishli tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, rejalashtirilgan mehnat turi bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishi, mehnat turi va shart-sharoitdan kelib chiqib maxsus kiyim-bosh, bajarayotgan ish hajmi va ko‘lamiga qarab maosh, shuningdek, turarjoy, tibbiy xizmat va issiq ovqat bilan ta’minlash, mehnat obyektini tanlashda xavfsizlik darajasi, yoshlarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik kabi jihatlar e’tiborga olinishi lozim[14].

Dastur yoki aniq aksiyani amalga oshirishga javobgar bo‘lgan volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi yoki volontyorlik tashkiloti volontyorlarni muvofiqlashtiruvchini tayinlaydi. Volontyorlar guruhi uni o‘z tarkibidan saylaydi. U volontyorlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, ular o‘rtasida ishni taqsimlaydi, har bir volontyorning ish joyi va ish hajmini belgilaydi, ishning ular tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, davlat organlari va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlik qiladi va hokazo.

Tashkilotchi, agar u volontyorlik faoliyati bilan oyiga 20 soatdan ko‘proq band bo‘lsa, volontyor bilan shartnoma tuzishi shart. Shartnomada volontyor volontyorlik dasturi, aksiyasi doirasida amalga oshiradigan faoliyat, ish soatlari va kunlari ko‘rsatilgan davr hamda boshqa shartlar ko‘rsatiladi. Taraflarning har biri kontragentni bu haqda 7 kun oldin dastlabki tarzda xabardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli. Bunda sabablarni ko‘rsatmasa ham bo‘ladi[15].

Volontyorlik harakatini xayriya yordami tarzida moddiy-texnika ta’minoti, mulkiy ta’minot yoki taqiqlanmagan boshqa shakllarda qo‘llab-quvvatlash ham mumkin. Mazkur faoliyatni amalga oshirish borasidagi xizmatlarini e’tirof etish va baholash belgisi sifatida jismoniy va yuridik shaxslar mukofotlanishi mumkin.

Volontyorlik faoliyati hisobi yuritiladi, u ixtiyoriy xabardor qilish xususiyatiga ega. Bunday hisobga olishning aniq tartibini Hukumat belgilaydi. Ko‘pchilikka ma’lumki, agar NNTga jalb qilinadigan jismoniy shaxslar volontyorlik bilan shug‘ullansa, yondashuv o‘zgacha bo‘ladi. Ya’ni bu ish ixtiyoriy ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan, erkin xohish-irodaga ko‘ra bajariladigan, bepul asosda jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladi.

11 O‘zbekistonda “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi // https://effest.uz/k/2020 /10/12/zbekistonda-volontyorlik-faoliyati-t-risida-gi-qonun-qabul-qilindi.html; O‘zA – Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida http://uza.uz

12 O‘zA – Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida http://uza.uz

13 O‘zbekistonda “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.https://effest.uz/k/2020 /10/12/zbekistonda-volontyorlik-faoliyati-t-risida-gi-qonun-qabul-qilindi.

14 Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida http://uza.uz

15 Zamonov O. Volontyorlikning huquqiy doirasi belgilandi. https://www.norma.uz/qonunchilikda_ yangi/volonterlikning_huquqiy_doirasi_belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Volontyorlikning muhimligi shuki, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni kamaytirish va dolzarb ijtimoiy muammolarni engillashtirishga ko‘maklashadi.

Ta’kidlash lozimki, dunyo miqyosida xayriya sohasida tadqiqotlar olib boriladi va davlatlarning reytinglari e’lon qilib boriladi. Xususan, Jahon xayriya indeksi (The World Giving Index) – dunyo mamlakatlarining yutuqlarini aholining xayriyaga munosabati nuqtayi nazaridan o‘lchaydigan ko‘rsatkichdir. Jahon xayriya indeksi 153 ta mamlakatni o‘z ichiga oladi va bu mamlakatlar aholisining xayriya sohasida qanchalik faol ekanligini ko‘rsatadi.

Britaniya xalqaro xayriya jamg‘armasi (Charities Aid Foundation) tashabbusi bilan 2010-yildan buyon Gellap instituti (Gallup) metodikasi yordamida jamoatchilik fikri natijalari yuzasidan tadqiqotlar o‘tkaziladi. Bugungi kunga qadar, jahon miqyosida xayriya sohasida olib borilgan ishlar haqida aniq ma’lumot beruvchi yagona baza mavjud. Indeksni tuzishda uchta asosiy jihat hisobga olinadi:

1) volontyorlik faoliyatida ishtirok etish;
2) begonalarga yordam berish;
3) xayriya tashkilotlariga pul mablag‘larini o‘tkazish[16].

2021-yillar statistikasiga ko‘ra, jahon xayriya indeksida mamlakatimiz 25 o‘rinni egallagan.Misol tariqasida O‘zbekiston nogironlar jamiyati, O‘zbekiston nogiron ishbilarmon ayollar milliy assotsiatsiyasi va turli tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda nogironligi bo‘lgan shaxslarni yanada qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 2018 yildan boshlab “Biz birgamiz!” (“We are together!”) ijtimoiy loyihasi amalga oshirib kelinmoqda[17]. Loyihaning birinchi bosqichida o‘z uylarida turli xildagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug‘ullanadigan, biroq ularni sotishda qiyinchiliklarga uchrayotgan nogironligi bo‘lgan shaxslarning tayyorlagan mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yirik savdo majmualarida bevosita Adliya vazirligining ko‘magida imtiyozli asosda maxsus savdo rastalari tashkil qilinib, savdo majmualari rahbarlari bilan hamkorlik bo‘yicha uzoq muddatli kelishuvlar imzolandi. Loyihaning ikkinchi bosqichida Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumanida joylashgan “ECOBOZOR” savdo majmuasida vazirlik tomonidan ilk marotaba Nogironligi bo‘lgan shaxslar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar 1-respublika savdo yarmarkasi o‘tkazildi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatga integratsiyasi va tadbirkorligini rivojlantirishga ko‘maklashish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini erkin mehnat qilishi huquqlarini ta’minlash nafaqat davlat organlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlarining ham vazifasidir. Rivojlangan davlatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar doimiy ravishda davlat va jamiyatning e’tiborida bo‘lib keladi. O‘zbekistonda ham bunday guruhga kiruvchi shaxslar hukumatimiz va volontyorlik bilan shug‘ullanuvchi nodavlat tashkilotlarining asosiy e’tiborida bo‘ladi. Shu bois navbatdagi yarmarka joriy yilning sentyabr oyida “Biz birgamiz” ijtimoiy loyihasi doirasida vazirlik hamda “Madad” – muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti bilan birgalikda ijtimoiy sheriklik asosida o‘tkazilishi rejalashtirilgan[18].

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z funksiyalarini volontyorlik faoliyati orqali samarali va tejamkor shaklda bajarishlari mumkin.Bunda, volontyorlik guruhlari, volontyorlik faoliyatini amalga oshiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida shartnomalardan kengroq foydalanishlari lozim[19].

Bizning fikrimizcha, volontyorlar faoliyatidan foydalanishda, amalga oshiriladigan ishlarning og‘irligiga qarab volontyorlarni tegishli tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, rejalashtirilgan mehnat turi bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishi, mehnat turi va shart-sharoitdan kelib chiqib maxsus kiyim-bosh, bajarayotgan ish hajmi va ko‘lamiga qarab maosh, shuningdek, turarjoy, tibbiy xizmat va issiq ovqat bilan ta’minlash, mehnat obyektini tanlashda xavfsizlik darajasi, yoshlarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik kabi jihatlar e’tiborga olinishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyoning rivojlangan davlatlari, volontyorlik keng tarqalgan xorijiy mamlakatlarning siyosiy tajribasini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Siyosiy jarayonlarga transformatsiyalashuvni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar natijalari jahon aholisi o‘rtasida o‘zgalarga beg‘araz yordam ko‘rsatish, hojatini chiqarish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga ko‘maklashishga xayrixoh kishilar ko‘payib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

16 YuNICEFning Yu-Report xalqaro yoshlar loyihasi rahbari J. Nurjanova volontyorlikning afzalliklari haqida. https://kun.uz/news/2019/08/11/volontyorlik-majburiyatmi-yoki-imkoniyatlar-eshigi-jamiyat-volontyorlikdan-qanday-foyda-koradi.

17 Jahon xayriya indeksida mamlakatimiz xayriyalar amalga oshirilishi bo‘yicha 25-o‘rinni egallagan. https://xs.uz/ru/post/izuchat-mne-nie-molodyozhi-po-aktualnym-voprosam-na-osnove-permanentnykh-oprosov-pomozhet-u-report

18 O‘sha manba.

19 Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida http://uza.uz

2. Volontyorlikni, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish ularda mas’uliyat hissini kuchaytirishga, vatan va kishilar oldidagi insoniylik burchini anglashga yordam beradi. Ular kishilarga yordam ko‘rsatish orqali o‘zgalar hayotini yaxshilash bilan birga, o‘zlarida boy tajriba ham orttiradilar.
3. O‘zbekistonda ham volontyorlik faoliyatini keng targ‘ib qilish, yoshlar o‘rtasida keng yoyish uchun yetarli sharoitlar bor. Faqat puxta o‘ylangan dastur asosida ish olib borish, ularni rag‘batlantirish zarur.
4. Katta yoshdagi kishilarning volontyorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi ularning boy hayotiy tajribalarini yosh avlodga o‘rgatish imkonini beribgina qolmay, faol hayot kechirishlariga ham sabab bo‘ladi. Bu esa aholi o‘rtasida uzoq umr kechirish, jamiyat hayotida o‘rnini saqlab qolish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi 463-I-son “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. https://www.lex.uz/doss/48401
3. Всеобщая декларация волонтеров. Амстердам. январь 2001 г. [Электронный ресурс]. URL: http://www.volunteer.ru/5/1/5_1_dekl_e.ht-
4. Всеобщая Декларация добровольцев. Париж, 14 сентября 1990 г. [Электронный ресурс] URL: http://www.volunteer.ru/5/1/5_1_dekl2.htm.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. // “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2001.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2003-y. 29-avgust.//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, № 9-10 (1329-1330), 2003.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 dekabrdagi O‘RQ-585-son “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2019-y., 03/19/585/4096-son).
8. Концепция развития добровольчества (волонтерства) в Российской Федерации до 2025 года [Электронный ресурс] : распоряжение, принятое Правительством Российской Федерации от 27 декабря 2018 г. № 2950-р.– URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_314804/985421faba1da8d5a7dd327f05ae6cd5f9aa2c4c/ (дата обращения: 18.09.2019)
9. Волонтеры Конституции / Официальный сайт движения Волонтеры Конституции. – URL: https://волонтеры-конституции.рф/#good-things (дата обращения: 12.05.2020).

КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОЯЗЫЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАЗАХСТАНА В ВУЗЕ

Оспан Айзада Бейсенқызы
докторант Казахский национальный университет имени аль-Фараби город Алматы, Казахстан

Научный руководитель: **Азизова Айнұр Орынбасарқызы**
PhD доктор Международный университет туризма и гостеприимства город Туркестан, Казахстан

Аннотация: статья посвящена дискуссионным вопросам культурологического аспекта преподавания литературы на русском языке в Казахстане. С одной стороны, это часть гуманитарного образования, направленная на формирование мировоззренческих и ценностных представлений как на глобальном, так и на национальном уровне. Потому что литература Казахстана на русском языке имеет свои особенности. Развитие так называемого «художественного двуязычия» и писатели перенимают тенденции не только русской, но и европейской литературы. В то же время они отражаются в рамках своей национальной культуры и национальной истории. Автор раскрывает направление культурологического образования, а культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы в Казахстане направлен на осмысление духовных ценностей, так как рассматривает художественное произведение как национальную мысль, модель мира и пример мир.

Ключевые слова: национальная литература, культурологический аспект, аксиологическая направленность, этнологическая направленность, нравственная направленность.

Annotatsiya: maqola Qozog‘istonda rus tilidagi adabiyotlarni o‘qitishning madaniy jihati, munozarali masalalariga bag‘ishlangan. Bir tomondan, bu dunyo miqyosida ham, milliy miqyosda ham dunyoqarash va qadriyatlarni tushunishni shakllantirishga qaratilgan gumanitar ta’limning bir qismi hisoblanadi. Chunki Qozog‘istonning rus tilidagi adabiyotlar o‘ziga xos xususiyatga ega. “Badiiy ikki tillilik” deb ataladigan rivojlanish va yozuvchilar nafaqat rus, balki Evropa adabiyoti tendentsiyalarini o‘zlashtiradilar. Shu bilan birga, o‘zlarining milliy madaniyati va milliy tarixi doirasida aks etadilar. Muallif madaniy ta’lim yo‘nalishini ochib beradi va Qozog‘istonda rus tilidagi adabiyotlarni o‘qitishning madaniy jihati ma’naviy qadriyatlarni tushunishga qaratilgani, chunki u san’at asarini milliy tafakkur, dunyo modeli va dunyoning namunasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: milliy adabiyot, madaniy jihat, aksiologik yo‘nalish, etnologik yo‘nalish, axloqiy yo‘nalish.

Annotation: the article is devoted to the controversial issues of the cultural aspect of teaching literature in the Russian language in Kazakhstan. On the one hand, it is a part of humanitarian education aimed at forming an understanding of worldviews and values, both at the global and national levels. Because the literature of Kazakhstan in the Russian language has its own characteristics. The development of the so-called “artistic bilingualism” and writers adopt the trends of not only Russian, but also European literature. At the same time, they are reflected in the framework of their national culture and national history. The author reveals the direction of cultural education, and the cultural aspect of teaching Russian-language literature in Kazakhstan is aimed at understanding spiritual values, as it considers the work of art as a national thought, a model of the world and an example of the world.

Key words: national literature, cultural aspect, axiological orientation, ethnological orientation, moral orientation.

ВВЕДЕНИЕ

Как учебный предмет в рамках высшего образования, литература продолжает тенденции школьного курса – раскрывает перед учащимися нравственный категории и духовные реалии как отечественной, так и зарубежной (мировой) культуры. И в этом ракурсе особое внимание необходимо уделить именно национальной литературе, так как в контексте художественного произведения, она погружает особенности национального мировоззрения. Это является важным фактором осознания духовно-нравственных

ценностей, которые дают художественные произведения. Особенно это важно в период глобализации, когда стандартизируются не только бытовые явления, привычки и развлечения, но это коснулась и произведений искусств и, в частности, литературу. Но при этом очень трудно унифицировать природу человеческих чувств, невозможно подчинить себе внутреннюю жизнь человека или стереть память народа. И в этом ракурсе нужно отметить специфику национальной литературы, как таковой. Национальная литература – это в первую очередь форма выражения эстетического сознания народа, которая связана с его историей, бытом, мировоззрением и как таковой особенной культурой. Как писал Г. Поспелов:“Художественная литература по своей природе национальна и исторична” [Поспелов, 1974, 9].

КОММЕНТАРИЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Особый национальный литературный процесс происходит в Казахстане: при всем многообразии и разделении литератур, это не лишает национальную литературу индивидуальности и специфических особенностей развития. С одной стороны, ученые говорят о “художественном билингвизме”, когда автор владеет двумя языками (русским и казахским) в эстетическом и творческом плане. Случай полного билингвизма мы можем видеть на примере творчества таких авторов, какМухтараАуэзова, Абдижамала Нурпеисова, Роллана Сейсенбаева,ДюсенбекаНакипова, Аслана Жаксылыкова, УмитТажикеновой, Олжаса Сулейменова, БахытжанаКанапьянова, БахытаКаирбекова.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Если говорить о процессе исследования о русскоязычной литературе Казахстана – то здесь можно наблюдать, как писатели впитывают в себя тенденции не только русской, но и европейской литературы, но при этом преломляют в рамках своей национальной культуры и национальной истории. И здесь мы можем говорить о единстве русскоязычной литературы и казахской как национальных литературах, так как развиваясь каждая национальная литература опирается на свои собственные традиции. Олжас Сулейменов говорил: “Все мы хотели быть писателями национальными, интернациональными, все мы – в одной упряжке, хотя у каждого свои специфические задачи. Мы маргинальные личности, которые рождены на грани, по крайне мере, двух культур. Мы являемся одновременно и мостом между ними и проводниками взаимовлияния” [Русскоязычные писатели Казахстана, 2004, 95].

Даже в условиях колоссального влияния извне, казахская культура сохраняет свою традиционность и свое национальное самосознание. Культурные тенденции проходят сквозь призму национального сознания, так как русскоязычная литература Казахстана является по сути национальной литературой, обусловленная общностью национальной исторической памятью и мировой культурой и в которой широко представлен национальный космос. Как отмечал Д.С. Лихачев: “Культура человечества движется вперед не путем перемещения в пространстве времени, а путем накопления ценностей. Ценности не сменяют друг друга, новые не уничтожают старые, а, присоединяясь к старым, увеличивают их значимость для сегодняшнего дня. Поэтому ноша культурных ценностей – ноша особого рода. Она не утяжеляет наш шаг вперед, а облегчает. Чем большими ценностями мы овладеваем, тем более утонченным и острым становится наше восприятие иных культур – культур, удаленных от нас во времени и пространстве древних и других стран” [Лихачев Д.С., 1989, 201].

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Русскоязычная литература Казахстана – это достаточно большая часть литературного процесса как Казахстана, которая тесно связана с евразийской идеей. Это своего рода феномен культурного пространства, когда происходит культурный контакт различных культур. Как отмечал Н. Туебеков: “Казахская литература и русская литература Казахстана ни в коей мере не противоречат друг другу, это нечто вроде взаимопроникающих стихий или взаимосообщающихся сосудов” [Туебеков Н., 2013, эл.ресурс]. Современная казахстанская литература вобрала в себя различные художественные методы в рамках межкультурной коммуникации и одновременно продолжает развивать свою национальную самобытность. Мы можем отметить таких современных писателей, пишущих на русском языке, как А. Жаксылыков, Р. Сейсенбаев, О. Жанайдаров, У. Тажкен, О. Арукенова, Б. Канапьянов, О. Сулейменов и многих других, чье творчество изучается в рамках вузовского образования.

Таким образом, знакомство с русскоязычной литературой Казахстана в вузах не только расширяет мировоззрение учащихся, но и позволяет понять уникальность национальной культуры, приобщить к национальным ценностям. К сожалению, преподаватели вузов часто сталкиваются с непониманием студентами специфики национальной литературы: после школы учащиеся приходят с определенным стереотипным восприятием художественного произведения и героя: они рассматривают литературный

процесс с точки зрения биографии, истории, быта, но не в контексте культуры и национального менталитета. Как заметил методист В.А. Ямбург происходит “процесс нагружения памяти ученика и наращивания его эрудиции, но не происходит самого главного: реального включения молодого человека в контекст культуры” [Ямбург В.А., 1999, 7]. Более того, в преподавании литературы в школе, проблема “литература и культура” сужается до определения “литература и искусство”, а такой подход, как правило, не затрагивает смысловую доминанту культуры, которая является основой смысла произведения.

Вырастает необходимость применения именно культурологического подхода к русскоязычной литературе Казахстана, так как именно этот подход способствует становлению духовно-нравственной личности. Студент начинает понимать и оценивать богатство культурного наследия, осознавать свою причастность к культурным ценностям своего народа, он приобретает определенный опыт духовно-творческой личности, которая способна ориентироваться в современном культурном пространстве.

Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана способствует вхождению студентов в контекст культуры и формирует знания о ценностях и мировоззрении народа. Через данный аспект мы можем реализовать следующие направления исследования:

1. Аксиологическая направленность

Аксиология – это в первую очередь философская дисциплина, которая исследует категорию ценностей. Ценности же, в свою очередь, являются основами человеческого бытия и мировоззрения. Аксиологическая направленность показывает природу ценностных и мировоззренческих ориентиров. В рамках этой направленности и литературоведческих категорий, перед студентом ставятся такие “вечные” вопросы, как: что такое красота, добро, истина? Что есть добро и зло? Какова суть правды и в чем она? И т.д.

2. Этнокультурная направленность

Этнокультурная направленность – это ориентация на развитие и социализацию личности как субъекта этноса и как гражданина многонационального государства, способного к самоопределению в условиях современной мировой цивилизации. В какой-то степени можно сказать, что эта направленность решает проблему этнокультурных ценностей в современном мире. Этнос должен быть способен находить свое место в глобализационном мире, совмещать традиции и инновации, не подражать другим, но в тоже время развиваться в ногу со временем. Такая направленность в рамках культурологического аспекта приводит учеников к осознанию национальной культуры. Культурологический подход с привлечением этнолого-исторической методологии – это один из путей решения проблемы сохранения этнокультурного мировоззрения и понимания в условиях современной глобализации. В национальной литературе отражается национальный космос, понимание которого расширяет мировидение учащихся и дает понимание национальных ценностей.

3. Нравственная направленность

Нравственность представляется нам как совокупность базовых, общих принципов поведения людей. Это способность людей к духовной жизни в соответствии с общественными нормами. Именно духовность является основой нравственности. Дух может реализовываться в реальных человеческих поступках, в творениях культуры, в духовном переживании. В высшем своем выражении духовность является проявлением сверхзнания [Пичко Н.С., 2011, 267].

Нравственная направленность культурологического аспекта направляет учащихся на понимание и осмысление основных нравственных ценностей этноса. Можно сказать, что принцип, направленный на систему ценностей является самым спорным, так как она имеет тенденцию меняться в рамках общемирового развития. Некоторые ценности устаревают и становятся скорее помехой и возникает вопрос “набора” ценностей. Как писал Н.О. Лосский: “Ценность есть нечто всепроникающее, определяющее смысл и всего мира в целом, и каждой личности, и каждого поступка” [Цепелва Н.В., 2010, 36].Современная культура развивается таким образом, что происходит сочетание национальных ценностей с системой общечеловеческих ценностей. Таким образом, основная педагогическая задача заключается в том, чтобы направить учащихся на осмысление и принятие тех или иных национальных ценностей для осмысления собственного существования в национальной и общемировой культуре.

Мы говорим о том, что литература Казахстана (как на казахском, так и русском языках) является в первую очередь национальной литературой, так как большинство русскоязычных авторов либо прожили в Казахстане много лет и впитали в себя национальную культуру, либо являются билингвами. Литература Казахстана, как и любая национальная литература, ставит перед читателем вопросы философского

порядка: Кто мы? Зачем мы пришли в этот мир? В чем смысл жизни? Таким образом, культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана, также как и казахской литературы, формирует понимание как ценностных представлений о мире и о человеке, так и национального мировоззрения.

Мы можем говорить о том, что культурологических аспект преподавания формирует духовно-личностную систему ценностей учащегося. В рамках того или иного произведения рассматриваются проявления одного и того же нравственного чувства в разных ситуациях и в разных проявлений. Происходит постижение и понимание добра и зла, при этом в студенческой аудитории происходит понимание амбивалентности этих категорий.

Культурологический аспект преподавания литературы дает шанс осуществления определенного диалога, который помогает прийти к общему пониманию духовных ценностей, а, возможно, и к отрицанию. Главное, что происходит анализ и интерпретация художественного произведения и тех идеалов, норм, принципов нравственности, которые входят в это произведение. При этом, именно культурологический аспект преподавания открыть в художественном произведении не только обобщенную модель мира, но и также культурный национальный космос. В произведении представлены как философские и религиозные, так и эстетические взгляды самого автора, как представителя своего этноса. Произведения, рассматриваемые с культурологической точки зрения раскрываются с новой точки зрения, когда, например, поведение того или иного персонажа оценивается с точки зрения не только личности, но и с точки зрения национально-культурных особенностей.

Таким образом, культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана ориентирован на понимание культурных духовных ценностей, так как рассматривает художественное произведение как национальный космос, как модель мира и как авторский взгляд на мир и на человека в этом мире. Культурологический аспект преподавания способствует пониманию учащимися культурного национального контекста в рамках мирового, что обеспечивает духовно-нравственное развитие. Студенты через культурологический аспект формируют для самих себя собственную нравственную систему ценностей и представлений о человеке и его существовании в мире, открывает для себя систему символов в рамках национального менталитета и общемировой культуры, раскрывает национальные архетипы. Важно, что культурологический аспект преподавания дает студентам шанс переосмыслить стереотипное мышление при анализе русскоязычной литературы Казахстана.

Список использованной литературы:

1. Поспелов Г. “Злоба дня” и перспективы истории, “Литературная газета”, 9 января 1974 года
2. Русскоязычные писатели Казахстана // Литература народов Казахстана. – Алматы: НИЦ “Ғылым”, 2004 – 352 с.
3. Лихачев Д.С. Письма о добром и прекрасном : книга для чтения для сред. и ст. шк. возраста. – 3-еизд. – М.: Дет. лит., 1989. – 237 с.
4. “Миссия невыполнима? Русская литература Казахстана. Век XXI. – Н.Туебеков / А.Арцишевский. – Интервью // http://news.ivest.kz/
5. Ямбург В.А. Культурно-историческая педагогика: ценностный взгляд на качество образования // Учительская газета. 1999, 16 марта. С. 7.
6. Пичко Н.С. Духовно-нравственные аспекты личности в контексте культуры: теоретическое осмысление проблемы // Гуманитарные и социальные науки, 2011 № 4. С. 267 – 275
7. Цепелева Н.В. Проблема добра в философии Н.О. Лосского// Известия ВГПУ, Философия, 2010. С. 35-38
8. Национальная культура и национальные отношения. “Круглый стол” // Вопросы литературы. 1989, №10. С. 10-48.
9. Свирина Н.М. Культурный контекст на уроках литературы. СПб.: “Глагол”, 1999.- 152 с.
10. Антология русскоязычной литературы Казахстана: монография / Б. Джолдасбекова, Н. Томанова, Ж. Баянбаева, А. Азизова, К. Таттимбетова. – Алматы: Казакуниверситета, 2014. – 272 с

TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH RISKINI BOSHQARISH HOLATI TAHLILI

Mirzoyev Feruz Mamurjonovich
TKXU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: maqolada iqtisodiy taraqqiyot jamiyat hayotining asosi va umuminsoniy faoliyat hisoblanishi yoritilgan. Xususan, ishlab chiqarish deb atalmish sohada insoniy omiliga xizmat qiluvchi infratuzilmaning uzviy jihatlari tavsiflangan. Amaliyotda bu uzviylik mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish va mablag‘lar aylanishi jarayonlari bilan bog‘liqligi, bu jarayon esa sabablar o‘rtasidagi nomutanosiblik tufayli buzilishi kuzatilishi, mazkur uzviylik ta’minlanishi uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbalari zarurligi hamda kreditlashda riskdan himoyalanish dolzarbligi ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: кредитлаш риски, кредит портфели, кредит қуйилмалари, кредит динамикаси, ЯИМ.

Аннотация: в статье поясняется, что экономическое развитие считается основой жизни общества и общечеловеческой деятельности. В частности, описаны неотъемлемые аспекты инфраструктуры, обслуживающей человеческий фактор в так называемой производственной сфере. На практике эта целостность связана с процессами производства продукции, оказания услуг и обращения денежных средств, причем наблюдается нарушение этого процесса из-за несоразмерности причин, необходимости дополнительных источников финансирования для обеспечения этой целостности и важность защиты от рисков при кредитовании.

Ключевые слова: кредитный риск, кредитный портфель, кредитные потоки, кредитная динамика, ВВП.

Abstract: The article explains that economic development is considered the basis of society’s life and universal human activity. In particular, the integral aspects of the infrastructure serving the human factor in the so-called production sector are described. In practice, this integrity is related to the processes of product production, service provision, and funds circulation, and this process is observed to be disturbed due to the disproportion between the causes, the need for additional financing sources to ensure this integrity, and the importance of risk protection in lending.

Key words: credit risk, credit portfolio, credit flows, credit dynamics, GDP.

KIRISH

Tijorat banklarining kreditlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonining uzluksizligini ta’minlash, ular faoliyatini modernizatsiya qilish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirishning muhim moliyaviy manbai hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtirish kredit munosabatlari bilan tartibga solinadi. Fuqarolik huquqiy unosabatlar ichida bank-mijoz kredit munosabatlarining roli benihoya katta. Bozor munosabatlariga o‘tgunga qadar bo‘lgan davrda moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi faoliyat hisoblangan banklar va ular faoliyatidagi kreditlash asosan markazdan turib boshqarilish asosida amalga oshirilganligi tufayli, mablag‘larni jalb etish, ularni foyda olish maqsadida pulga muhtoj xo‘jalik subyektlariga berish, qarzni o‘z vaqtida qaytishini ta’minlovchi chora – tadbirlar ko‘rish kabi masalalar banklar uchun dolzarb bo‘lmagan. Chunki, kredit resurslari iqtisodiyot subyektlariga reja asosida ajratilgan, kreditlarning foizi ham oldindan belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining dastlabki davrlaridan boshlab farovon hayotni ta’minlash maqsadida bozor munosabatlariga o‘tish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar mamlakat bank tizimining mustahkamlanishiga, uning kreditlash salohiyatining oshishiga imkon berdi.

Tijorat banklari kapitallashish darajasining oshishi, ular tomonidan jalb qilingan resurslar hajmining oshishi ularning kredit operatsiyalari hajmini oshirish imkonini berdi. Chunki, jalb qilingan mablag‘lar uchun banklar tomonidan badal to‘lanar ekan, bu mablag‘lardan nafaqat daromad olish, balki mablag‘larni qarzdorlardan o‘z vaqtida qaytarib olish chora-tadbirlarini ko‘rishlari lozim, aks holda banklarda daromadlilikka salbiy ta’sir etuv-

chi holatlar kelib chiqib, banklarning mijozlar hamda kreditorlar oldidagi majburiyatini bajaraolmay banklararo raqobatda o‘z mavqeyini yo‘qotib qo‘yish xavfi kelib chiqadi. Bunday xavf xalqaro moliyaviy munosabatlarga kirishgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’sir etuvchi global muammoni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri ekanligini ayni paytda dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan xalqaro moliyaviy inqiroz ham ko‘rsatib turibdi.

Banklar, o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarishlari hamda banklararo raqobatdagi mavqeyiini saqlash uchun faoliyati davomida omonatchilar va aksiyadorlar manfaatini ko‘zlagan holda amaldagi qonun va me’yoriy hujjat qoidalari asosida ish yuritishlari va sifatli xizmat ko‘rsatish orqali doimo daromad miqdorini ortirib borishlari lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bizning fikrimizcha, mazkur ta’rifda kredit portfelining mohiyatini ochib berishga ijobiy yondashilgani ko‘rinib turibdi. Ijobiyligi shundaki, ular kreditlarning sifat tarkibiga qarab ma’lum omillarni hisobga olgan holda, turkumlash zaruti dolzabdir[1].

Yana bir guruh xorijiy iqtisodchi olimlardan K. J. Braltron va D. Mak Notonlar, tijorat banklarining kredit portfeli – bu kreditlarni ma’lum belgilarga ko‘ra, turkumlanishidir deb hisoblaydilar. Ularningcha, kredit portfeli kreditning aniq shakl va xususiyatlariga ko‘ra, tasniflanishiga asoslanadi.

Tijorat banklarida kreditlash riskini amalga oshirish borasida A. N. Ivanov boshqa rus olimlarining qarashlari bo‘yicha nuqtayi nazarini o‘rtoqlashadi – O. I. Lavrushina, E. F. Jukova va E. B. Shirinskaya: bank operatsiyalarini amalda bank funksiyalarining namoyon bo‘lishi, bank xizmatlarini esa mijozlarning ma’lum ehtiyojlarini qondiradigan bir yoki bir nechta bank operatsiyalari deb biladi[2]. Chet ellik iqtisodchilar (J. Zayts, X. Sheefer, P. Rose) bank operatsiyalarini bank faoliyatining barcha turlari deb atashadi va mijozlarga bank xizmatlarini bank faoliyatining bir turi deb hisoblashadi.

Hozirgi bosqichda D. Ariste, B. Buchvald, K. Devis, J. Zayts, A. Kenyon, J. Kay, A. Lange, Marua, S. Matur, M. Porter kabi xorijiy mutaxassislar shug‘ullanmoqdalar. A. N. Ivanov rus, fransuz va ingliz tillarida “xizmat” va “operatsiya” so‘zlarining ma’nosini lingvistik tahlil qildi va ushbu atamalarni huquqiy tahlil qildi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan. Xususan, Sh. Z. Abdullayevaning tadqiqotiga tayanadigan bo‘lsak, u “banklarning kredit portfeli – bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig‘indisidir”, deydi. Sh. Abdullayeva o‘z ta’rifida kreditlarning ma’lum bir mezonlar asosida turkumlash va kredit risklariga innovatsion yondashuvlar haqida keng to‘xtalgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma’lumki, kredit amaliyotlaridan olingan foizli daromadlar bank jami daromadining salmoqli hissasini tashkil etadi. Bank daromadining ushbu manbai kreditlash jarayonining qay darajada sifatli olib borilishiga bog‘liq. Aynan shuning uchun ham banklarda kredit munosabatlari yuzaga kelgan taqdirda tahlillarga asoslanib oqilona boshqaruv qarorini qabul qilish bank faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Chunki, kredit amaliyotlaridan olingan daromadlar tijorat banklari jami daromadi tarkibida foizli daromad sifatida salmoqli hissa qo‘shuvchi xizmat turi bo‘lish bilan bir qatorda, bank daromadliligiga salbiy ta’sir etish doirasi yuqori bo‘lgan amaliyot hamdir.

Iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish soha tizimi faoliyatida kreditlarning roli va uning samaradorligini oshirish masalalariga doir ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqishda banklar faoliyatida kredit portfelining tarmoq xususiyatini, kredit mablag‘larining mamlakat YaIM dagi ulushlari dinamikasini tahlil qilib chiqishimiz, shuningdek moliyaviy ko‘rsatkichlardagi salbiy o‘zgarishlar qanday omillar ta’siri natijasida yuzaga kelayotganligini aniqlash maqsadida bosh banklar moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari misolida omilli tahlil etish lozim degan fikrga keldik.

Ma’lumki, bank kreditlari miqdorining YaIMga nisbatan ulushining ortib borishi, birinchidan, iqtisodiyotning kredit mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyati banklarda oshib borayotganligidan va iqtisodiy o‘sish uchun qulay vaziyat yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi, ikkinchidan, jamiyatdagi ishlab chiqarish kredit mablag‘lariga tayanib qolganligini, ya’ni subyektlar faoliyatida ishlab chiqarish va mablag‘lar aylanishida muammolar yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bu holat ya’ni, iqtisodiyotning kredit mablag‘lariga tayanib qolishi mamlakatda moliya – kredit munosabatlariga xizmat ko‘rsatish sohasi tizimining kredit munosabatlari orqali pulni – pul topadi aqidasi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligidan xavfliroq hisoblanadi. Buni ayni paytda xalqaro moliyaviy inqiroz sabablari ham tasdiqlab turibdi. Aynan shuning uchun ham fikrimizcha, kredit samaradorligini ta’minlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

1 https://stat.uz/uploads/docs/innovatsiya-2017-uz.pdf
2 https://ru.wikipedia.org Vikipediya – erkin ensiklopediya ma’lumotlari.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklari kreditlarining hajmi va dinamikasiga baho beramiz.

2.1-jadval: O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit quyilmalari darajasi va dinamikasi[3]

Ko'rsatkichlar nomi	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM trln. so'm	511838,10	529391,40	602193,0	734587,7	734587,8
Kredit qo'yilmalarining umumiy miqdori, trln.so'm	211 580,50	211 580,5	276 974,8	326 385,6	326 385,8
YaIM ga nisbatan % hisobida	41,3	40	46,0	44,4	41,4

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimini rivojlantirishda milliy bank tizimi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va doimiy tahlil qilib borish lozim. Bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning maqsadi milliy iqtisodiy tizimini rivojlantirish, bank tizimi barqarorligini saqlab turish, bank aksiyadorlari, shuningdek, bank omonatchilari va kreditorlari manfaatlarini himoya qilishdir.

Yukoridagi jadvalda keltirilgan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit quyilmalari darajasi va dinamikasida YaIM 2018-yil 511 838,10 trln.so'm 2022-yilda yesa 734 587,8 trln. so'm bulgan, bundan kurinib turibdiki 2022-yil 2018-yilga nisbatan 143,5 foizga yoki 1,4 barobarga oshgan. Kredit qo'yilmalarining umumiy miqdori yesa 2018-yil 211 580,50 trln. so'm 2022-yilda yesa 326 385,8 trln. so'm bulgan, bundan kurinib turibdiki 2022-yil 2018-yilga nisbatan 154,3 foizga yoki 1,5 barobarga oshgan. YaIM ga nisbatan % hisobida yesa 2018-yil 41,3 % 2022-yilda yesa 41,4 % bulgan, bundan kurinib turibdiki 2022-yil 2018-yilga nisbatan 100,2 % ga oshgan.

2.2-jadval: Bank tizimining iqtisodiyotdagi o'rni (mlrd so'm)[4]

№	Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
	1	3	4	5	6	7
1	YaIM	406 648,50	510 117,20	580 203,20	738 425,2	888 341,7
2	Bank aktivlari	214 419,60	272 726,90	366 121,10	444 922,5	556 746,3
3	Aktivlarning YaIMga nisbati, foizda	52,7	53,5	63,1	60,3	62,7
4	Kredit qo'yilmalari	167 390,60	211 580,50	276 974,80	326 385,6	390 048,9
5	Kredit qo'yilmalarining YaIMga nisbati, foizda	41,2	41,5	47,7	44,2	43,9
6	Depozitlar	70 001,40	91 009,00	114 746,90	156 189,8	216 737,5
7	Depozitlarning YaIMga nisbati, foizda	17,2	17,8	19,8	21,2	24,4
8	Kapital	26 678,90	51 030,70	58 351,30	70 917,6	79 565,4
9	Kapitalning YaIMga nisbati, foizda	6,6	10	10,1	9,6	9,0

2.2-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, so'nggi yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti bilan bir qatorda banklarning aktivlari, kapitali ham o'sib bormoqda. Jumladan YaIM hamjmi 2019-yil boshida 406 648,50 mlrd so'm 2023-yil boshida yesa 888 341,7 mlrd so'm bulgan, bundan kurinib turibdiki 2023-yil boshida 2019-yilga nisbatan 481 693,2 mlrd so'mga yoki 2 barobarga foizda esa 218,5% ga oshgan bo'lsa, bank aktivlari 2019-yil boshida 214 419,60 mlrd so'm 2023-yil boshida yesa 556 746,3 mlrd so'm bulgan, bundan kurinib turibdiki 2023 yil boshida 2019-yil boshiga nisbatan 342 326,7 mlrd so'mga yoki 2,6 barobarga oshgan. Bank aktivlari mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan 55-63% tashkil etishi ham iqtisodiyotni mablag' bilan ta'minlashda, universal tovar bo'lmish pulning harakatlanishida va iqtisodiy foyda keltirishida banklarning ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Kredit qo'yilmalari yesa 2019 yil yanvar oyiga 167 390,60 mlrd so'm 2023-yil yanvar oyiga yesa 390 048,9 mlrd so'm bulgan, bundan kurinib turibdiki 2023-yil yanvar oyida 2019-yil yanvar oyiga nisbatan 222 658,3 mlrd so'mga yoki 2,3 barobarga oshgan. Kredit qo'yilmalarining YaIMga nisbati, foizda 2019-yil boshida 41,2 % 2023-yil boshida yesa 43,9 % bulgan, bundan kurinib turibdiki 2023 yil boshida 2019-yilga nisbatan 106,6 foizga oshgan. Depozitlar 2019-yil boshida 70 001,40 mlrd so'm 2023-yil boshida yesa 216 737,5 mlrd so'm bulgan, bundan kurinib turibdiki 2023-yil boshida 2019-yilga nisbatan 146736,1 mlrd so'mga yoki 3,1 barobarga oshgan. Depozitlarning YaIMga nisbati, foizda 2019-yil boshida 17,2 % 2023-yil boshida yesa 24,4 % bulgan, bundan

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2018–2022-yillar byulletinidan muallif hisob kitobi.

4 Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik blyuteni ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba https://cbu.uz/oz/statistics/buleten/

kurinib turibdiki 2023-yil boshida 2019-yilga nisbatan 141,9 foizga oshgan. Bundan tashqari ushbu jadvalda ko‘rishimiz mumkinki bank kapitali 2019-yil boshida 26 678,90 mlrd so‘m 2023-yil boshida yesa 79 565,4 mlrd so‘m bulgan, bundan kurinib turibdiki deyarli 3 barobarga yoki 2023-yil boshida 2019-yil boshiga nisbatan 52 886,5 mlrd so‘mga, foizda esa 298% ga oshgan. Bank aktivlari va kapitalining bunday yuqori o‘sishini yanada chuqur tahlil qilish va uning tarkibiy o‘zgarishlari, mintaqalararo taqsimlanishi dinamikasini tahlil qilish orqali mavjud kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish chora tadbirlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish mumkin.

Tijorat banklari kreditlarining YaIMga nisbatan darajasining oshib borishi iqtisodiyotni pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimini mustahkamlanishiga olib keladi va iqtisodiyotdagi to‘lovsizlik muammosini hal qilishda muhim o‘rin tutadi. Ammo iqtisodiyotni pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi past bo‘lib, investitsion va iste’molli talabni qisqarishiga olib kelishi mumkin[5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’kidlash joizki, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashda tijorat banklarining investitsion kreditlari muhim rol o‘ynamoqda[6].

2.3-jadval: O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan kredit tashkilotlari va ularning tarkibiy tuzilishi[7]

№	Kredit tashkilotlari	01.01.2017	01.01.2020	01.01.2022	01.01.2023
1	MB tomonidan ro‘yxatga olingan kredit tashkilotlari jami	103	147	177	199
2	shu jumladan:				
3	Tijorat banklari, shundan:	27	30	33	32
4	Davlat ulushi mavjud banklar	10	13	12	12
5	Xususiy tijorat banklari	17	17	21	20
6	Nobank kredit tashkilotlari, shundan:	76	117	144	167
7	Mikrokredit tashkilotlari	29	56	70	85
8	Lombardlar	47	61	73	81
9	Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari	0	0	1	1
10	Tijorat banklarining filiallari, jami	855	850	860	832
11	Bank xizmatlar ofisi (shu jumladan minibanklar)	999	1050	1244	1543

2.3-jadvalga O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan kredit tashkilotlari statistikasi keltirilgan. Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bank tizimiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda.

Kredit tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish uchun yaratilayotgan yengilliklar, shu jumladan, xorijiy davlatlarning rezidentlari bo‘lgan kredit tashkilotlarining O‘zbekiston bozoriga kirib kelishi mamlakat iqtisodiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. So‘nggi 5 yillikda olib borilgan ochiq iqtisodiy siyosat natijasida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro‘yxatga olingan tijorat banklari soni 2017-yilda 27 ta bo‘lsa, 2023-yil boshiga kelib 32 tani tashkil etmoqda. Bu o‘z navbatida iqtisodiyotga kiritiladigan yangi sarmoya, yaratiladigan yangi ish o‘rinlari va raqobat deganidir.

Markaziy bankning ma’lumotlariga ko‘ra respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklarining soni 27 tadan 32 tagacha yoki 5 yil oldingiga nisbatan 18,5 % ga ko‘payganligini ko‘ramiz. Shundan, kapitalida davlat ulushi mavdjud bo‘lgan banklar soni 12 tani, kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan xususiy banklar soni esa 20 tani tashkil etadi. Bundan tashqari 2017-yildan 2023-yil boshigacha tashkil etilgan kredit tashkilotlari 96 tani tashkil etib, 2023-yil 1-yanvar holatiga jami 199 ta kredit tashkilotlari Markaziy bank tomonidan ro‘yxatga olingan. Davlat ulushi mavjud banklar 2023-yil boshida 12 ta 2017-yil boshida esa 10 tani tashkil etadi bundan ko‘rinib turibdiki 2023-yil boshida 2017-yil boshiga nisbatan 1,2 barobarga oshgan.

Xususiy tijorat banklari esa 2023-yil boshida 20 ta 2017-yil boshida esa 17 tani tashkil qilgan va bundan ko‘rinib turibdiki 2023-yil boshida 2017-yil boshiga nisbatan 117,6 foizga oshgan.Qayd etish lozimki, kredit

5 Урманова Н. Основные направления долгосрочного развития финансовой системы Узбекистана. Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития. Материалы V Форума экономистов. – Ташкент: IMFR, 2013. – С. 52-56.

6 Mullajonov F. Barqaror bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining mustahkam tayanchidir//Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2014. – №1. – 4-13-b.

7 Ushbu jadval O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik blyuteni ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba https://cbu.uz/oz/statistics/buleten/

tashkilotlari orasida mikrokredit tashkilotlarining oshib borayotganligi tijorat banklari uchun qo‘shimcha raqobat muhitini yaratadi. Jumladan, 2017-yil boshida 76 ta nobank kredit tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2023-yil boshiga kelib ularning soni 167 ta yetdi. Mikrokredit tashkilotlari esa 2023-yil boshida 85 ta 2017-yil boshida 29 tani tashkil qilgan. 2023-yil boshida 2017-yil boshiga nisbatan 293,1 foizga oshgan. Lombardlar 2023-yil boshida 2017-yil boshiga nisbatan 172,3 foizga oshgan. Tijorat banklarining filiallari 2023-yil boshida 2017-yil boshiga nisbatan 97,3 foizga oshgan. Bank xizmatlar ofisi (shu jumladan minibanklar) 2023-yil boshida 1543 ta 2017-yil boshiga nisbatan 999 tani tashkil qiladi, bundan ko’rinib turibdiki 2023-yil boshida 2017-yil boshiga nisbatan 154,5 foizga oshgan. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi o‘laroq yurtimizda kredit tashkilotlari faoliyati ijobiy tomonga o‘zgarmoqda. Shuningdek ularning aktivlari, kapitali oshayotganligi real iqtisodiy sektorga qo‘shimcha moliyaviy resurslar ajratish imkoniyatini beradi.

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirilayotganligi va ushbu jarayonlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganligi o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi PQ-1166-sonli “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2009-yilning 1-sentyabridan boshlab, Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarini tijorat banklari depozitlarining muddatiga bog‘liq ravishda tabaqalashtirilganligi banklarning uzoq muddatli depozit bazasini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi va 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida ham tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi[8]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirishning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida banklarning resurs bazasini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

- likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsiyentini joriy qilish;
- sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsiyentini joriy qilish;
- tijorat banklari kapitalining yetarliligiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni bosqichma-bosqich oshirib borish;
- tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan resurslarning foiz stavkalarini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga bog‘liq holda o‘rnatish mexanizmini shakllantirish;
- tijorat banklarining depozit operatsiyalariga nisbatan belgilangan me’yoriy talablarni takomillashtirish;
- banklarning qarz qimmatli qog‘ozlarini emissiya qilish hajmini oshirish;
- uzoq muddatli innovatsion depozit dasturlarini ishlab chiqish.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston bank tizimining barqarorligini ta’minlanganligi aholi omonatlarini keng ko‘lamda jalb qilish imkonini bermoqda. Chunki, aholining pul mablag‘larini jalb qilib, ularni investitsiyalarga transformatsiya qilish birinchi navbatda bank tizimining barqarorligi va ishonchliligiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda Markaziy bankning 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomalariga asosan Bazel qo‘mitasining bank nazoratiga oid bo‘lgan yangi talablari bank amaliyotiga joriy qilindi[9].

Ushbu yo‘riqnomalarda Bazel qo‘mitasining bank nazorati bo‘yicha yangi talablari, jumladan, tijorat banklari kapitalining yetarliligi qo‘yilgan talablarni bosqichma-bosqich oshirib borish, likvidlilikni qoplash me’yori va sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsiyentlarini joriy qilish, kapitalning himoyaviy konservatsiya buferini shakllantirish bo‘yicha talablari bank amaliyotiga qabul qilindi.

8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2010. – №48. – 4–6-b.

9 www.lex.uz

O‘zbekiston Respublikasida Bazel qo‘mitasining mavjud 3 standartidagi talablar, mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, qabul qilindi.

Bazel-I standartidagi kapitalning yetarliligini baholash va kreditlarni riskka tortish tartibi qabul qilingan bo‘lsa, keyinchalik Bazel-II standartidagi kredit riskini baholash metodikasi va Bazel-III standartidagi asosiy talablar qabul qilindi.

Ta’kidlash joizki, likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsiyentining eng past darajasi quyidagicha belgilandi:

2016-yil 1-yanvardan boshlab – 80%

2017-yil 1-yanvardan boshlab – 90%

2018-yildan 1-yanvardan boshlab – 100%.

Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsiyenti esa, 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab joriy etildi va uning eng past me’yoriy darajasi 100% qilib belgilandi. Bazel standartida ham ushbu koeffitsiyent bo‘yicha 1,0 yoki 100 foizli talab ko‘zda tutilgan.

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining yetarliligiga nisbatan qo‘yilgan minimal talab 2025-yilning 1-yanvariga qadar oshirib boriladi (2.4-jadval).

2.4-jadval: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari umumiy kapitali va birinchi darajali kapitalining yetarliligiga qo‘yiladigan minimal talablarni oshirib borilishi[10]

Talabni kuchga kirgan sanasi	Regulyativ kapital bo‘yicha talab	Birinchi darajali kapital bo‘yicha talab
01.09. 2015-yil	10,0	6,0
01.01. 2016-yil	11.5	7,0
01.01. 2017-yil	12,5	7,5
01.01. 2018-yil	13.5	8,5
01.01. 2019-yil	14,5	9,5

2.4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublika tijorat banklari umumiy kapitali va asosiy kapitalining yetarliligiga qo‘yilgan minimal talablar 2015-yil 1-sentyabrdan 2019-yilning 1 yanvariga qadar oshirib borilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalari ko‘rsatdiki, birinchidan, tijorat banklarining depozitlari va umumiy kapitali miqdorlari o‘sish tendensiyasiga ega; ikkinchidan, mamlakat banklarining kreditlash salohiyati past; uchinchidan, yirik tijorat banklarida depozitlarning yetarli emasligi mavjud; to‘rtinchidan, qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasini past ekanligi banklarni moliyaviy resurslar jalb etish imokniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[11].

Tijorat banklari kapitali tarkibining barqarorligini ta’minlash, transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘ining barqarorligiga erishish, sof foizli marjani qisqartirish hisobidan muddatli depozitlarga to‘lanadigan foizlarning stavkasini oshirish, Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarini pasaytirish yo‘li bilan banklarning resurs bazasini mustahkamlashning maqsadga muvofiqligi iqtisodchi olimlar tomonidan asoslab berilgan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri – bu kreditlarning foiz stavkasi, ya’ni bahosidir. Kreditlar foiz stavkalarining yuqori ekanligi tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish imkonini bermaydi.

2.5-jadval: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi va tijorat banklari tomonidan so‘mda berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkalari, foizda[12]

Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022-yil 1-kvartal
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	16,0	16,0	14,0	14	17
So‘mda berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	20,5	20,0	18,5	19,0	22,5

2.5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2018–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi 2018–2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning natijasida tahlil qil-

10 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2015–2019-yillardagi hisobot byulletlari asosida muallif hisob-kitobi.

11 Bobakulov T.I. Bank tizimini modernizatsiyalashning dolzarb muammolari//Moliya-bank tizimini modernizatsiyalashning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2015. – 22-25-b.

12 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2015–2019-yillardagi hisobot byulletlari asosida muallif hisob-kitobi.

ingan davr mobaynida tijorat banklari tomonidan so‘mda berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasininng pasayishi yuz bergan. Bu esa, xizmatlar sohasini kreditlash samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

2.5-jadval ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2020–2021-yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan so‘mda berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasining pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, mazkur davrda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning banklar kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga xizmat qilgan.

Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini pasayishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditlarni qaytarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini kamaytirish imkonini bergani holda, kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish ehtimolini ham oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, kreditlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi respublikamizda bazaviy stavka hisoblanadi. Shu sababli, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining o‘zgarishiga monand ravishda o‘zgarib borishi lozim.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining o‘zgarishi tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari o‘zgarishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda xizmatlar sohasini banklar tomonidan mikromoliyalash moliyalashtirish tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlariga beriladigan mikrokreditlar va ko‘rsatiladigan mikrolizing xizmatlari ular faoliyatini rivojlantirishning zaruriy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, tijorat banklari xizmatlar sohasini kreditlash hajmini oshirish bilan kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta’kidlash joizki, respublikamizning yirik tijorat banklarida kredit portfelining diversifikatsiya darajasi past. Xalqaro amaliyotda tijorat banklari kredit portfelining mijozlarning tarmoq xususiyatiga ko‘ra diversifikatsiya qilish bo‘yicha me’yoriy mezon qilib 25% olingan. Ya’ni tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqda to‘planib qolishi mumkin emas. Respublikamizning ayrim yirik banklarida ushbu ko‘rsatkichning darajasi 50 foizdan yuqoridir.

Xalqaro bank amaliyotida kredit portfelini diversifikatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilardan foydalanilmoqda:

- bank kredit quyilmalarini iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo‘yicha diversifikatsiyalash;
- bank kredit quyilmalarini mijozlar kesimida diversifikatsiyalash.

Diversifikatsiya qilinmagan kredit portfeli doimo yuqori riskli bo‘lib boradi.

Bankning kredit portfelini diversifikatsiya qilish yo‘li bilan kredit portfelini boshqarish bankning strategik rejalashtirish jarayoni bilan uzluksiz bog‘liqdir.

Diversifikatsiyaning xususiyatlari shundaki:

- birinchidan, diversifikatsiya hamma vaqt riskni kamaytiradi;
- ikkinchidan, kredit bo‘yicha foyda harakati qancha kam mos kelsa, riskni kamaytirish hisobiga diversifikatsiyadan shuncha ko‘p naf ko‘radi.

Kredit portfeli yigirmadan ortiq kreditdan tashkil topgan bo‘lsa, bunday portfel yaxshi diversifikatsiya qilingan portfel deyiladi.

Diversifikatsiya talab darajasida bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- portfel ko‘p sonli nisbatan mayda kreditlardan tashkil topishi;
- kreditlar risk jihatidan bir – biriga bog‘liq emas, ya’ni biron bir kredit bo‘yicha to‘lay olmaslik ehtimoli boshqa kredit bo‘yicha to‘lay olmaslik ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

Banklar uchun kredit portfelini diversifikatsiyalash oson, kreditni kam summada turli sohalarga, turli mintaqalarga ajratishga erishish lozim. Kreditlarni ta’minlanganligi bo‘yicha diversifikatsiya qilishda – ta’minlash asos qilib olingan obyektning likvidlik darajasiga e’tibor berish zarur. Kredit ta’minlanganligida likvidlilik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, kredit va u bo‘yicha foizning ham o‘z vaqtida qaytishi oson va tez bo‘ladi.

Bankning kredit portfelini diversifikatsiya kilish yo‘li bilan kredit portfelini boshkarish bankning strategik rejalashtirish jarayoni bilan uzluksiz bog‘lik.

Agar kredit portfel o‘n beshdan ortiq mijozga berilgan yigirmadan ortiq kreditdan tashkil topgan bo‘lsa, bunday portfel yaxshi diversifikatsiya qilingan portfel deyiladi. Demak, diversifikatsiya talab darajasida bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- portfel ko‘p sonli nisbatan mayda kreditlardan tashkil topishi;
- kreditlar risk jihatidan bir – biriga bog‘liq emas, ya’ni biron bir kredit bo‘yicha to‘lay olmaslik extimoli boshqa kredit bo‘yicha to‘lay olmaslik extimoli bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

Diversifikatsiya yordamida kredit portfelining umumiy risk darajasini kamaytirishga erishish mumkin. Ba'zida alohida olingan kredit bo'yicha risk o'zgarmagan holda haqiqiy olinadigan daromad kutilayotgan daromadga tenglashishi mumkin.

Banklar uchun kredit portfelini diversifikatsiyalash juda ham oson. Yuqorida ta'kidlaganimizdek kreditni kam summada turli sohalarga (sanoat, kishlok xo'jaligi, transport, biznes, xorijiy mijozlarga), jumladan (shahar, viloyat, mamlakatlarga) turli mintaqalarga ajratishga erishish lozim.

Tijorat banklarining ma'lum sohalar bo'yicha ixtisoslashuvi, shu sohalar bo'yicha an'anaviy kreditlar berishi – diversifikatsiyalash usuliga to'liq, mos kelmasligi mumkin. Shu sababli bizning amaliy sharoitimizda ixtisoslashgan banklar ixtisoslashuv bilan diversifikatsiya o'rtasidagi muqobil chegarani tanlamoqlari, zarur holda ulardan biriga yon bermoqlari lozim.

Kredit portfelini diversifikatsiyalash qarzni to'lamaslik riskini eng oddiy va arzon usul bilan xedjirlashga yordam beradi va bankning ssuda va depozitlari keng mijozlar ko'lamiga bo'lib chiqishni anglatadi.

Karz berishda diversifikatsiyalash bankning ssuda portfelida absolyut miqdor yoki yalpi tutgan salmoqni to'g'ridan to'g'ri cheklashni anglatadi.

Kreditlarni diversifikatsiya qilishda kreditlarni kam miqdorda ko'proq mijozlarga berishga alohida e'tibor qilish lozim.

Kreditlarning ta'minlanganligi bo'yicha diversifikatsiya o'tkazish bizning banklarimiz amaliyotida kam qo'llaniladi. Bizning fikrimizcha, diversifikatsiyani kreditlarning ta'minlanganligi bo'yicha o'tkazish ham ancha samara beruvchi usul hisoblanadi. Chunki ta'minlanganlik kreditning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kreditning o'z vaqtida to'lanishiga asos hisoblanadi.

Kreditlarni ta'minlanganligi bo'yicha diversifikatsiya qilishda ta'minlash asos qilib olingan obyektning likvidlik darajasiga e'tibor berish zarur. Kredit ta'minotining likvidlilik darajasi qancha yuqori bo'lsa, kredit va u bo'yicha foizning ham o'z vaqtida qaytishi oson va tez bo'ladi. Shu jihatdan amaliyotda banklar bergan kreditlari bo'yicha ularning ta'minlanganligiga qarab diversifikatsiya qilish usulini qo'llash kredit risklarning kamayishiga va bank foydasining oshishiga olib kelishi mumkin

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, tijorat banklari kredit quyilmalarining o'sib borishi, birinchi navbatda, banklar tomonidan jalb qilinayotgan depozitlar miqdorining ko'payishiga va banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash darajasini oshishiga bog'liq.

Kredit portfeliga quyidagicha ta'rif berish mumkin: bankning kredit portfeli – bu, bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarurligi, bank tomonidan berilgan jami kreditlarning yig'indisini o'zida ifodalashi bilan ajralib turadi. Shuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit portfelini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchi-liklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sini-shiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining garovidir. Yuqorida o'rganilgan holatlarga asoslanib, respublikamiz tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan izlanishlar olib borilishi globallashuv sharoitida dolzarblik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoilov D. A. Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish usullarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2018. 19-b.
2. Каримов, Норбой Ганиевич.Иностранные инвестиции в экономику Республики Узбекистан и их финансовое обеспечение : автореферат дис. ... кандидата экономических наук : 08.00.10. – Ташкент, 1998. – 24 с. : ил.
3. О. В. Курныкина, Н. Э. Соколинская. Бухгалтерский учет в коммерческих банках: учебник / – Москва: КНОРУС. – С 368.
4. Абалкин Л. И, Панова Г. С. Учебник: Банки и банковский бизнес в глобальной экономике. – Москва: МГИМО-Университет, 2018. 21.К. Ж. Бралтрон ва Д. Мак Нотон. Учебник: Организация работы в банках. – М.: Финансы и статистика, 2002.
5. Tijorat banki faoliyatini tahlil qilish. – M.: Veche, 1994 yil.
6. Абалкин Л. И, Панова Г. С. Учебник: Банки и банковский бизнес в глобальной экономике. – М.: МГИМО-Университет, 2018.
7. Sh. Z. Abdullayeva. Darslik: Pul, kredit va banklar. – T.: Moliya. 2000.
8. Панова Г. С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ "ДИС", 1997. – С 464.
9. Панова Г. С. Анализ состояния коммерческого банка. – М.: ДИС, 1996 г.
10. Эдвин Дж. Долан. Деньги, банки и денежно-кредитная политика. Санкт – Петербург, 1994, 382 – 399 б. ва бошқалар.
11. Банковское дело. Под ред. Лаврушина О.И. – М.: Финансы и статистика, 2004. – С. 88–89.

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING ZAMONAVIY HOLATI VA TENDENSIYALARI

Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o‘g‘li
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada ATB “Agrobank”da aktivlarini diversifikatsiya qilish maqsadida biznesni rejalashtirish vazifalarini belgilash va ijrosini ta’minlash ilgari surilgan. Xususan, rentabellik va likvidlikning maqbul kombinatsiyasini ta’minlash bo‘yicha yagona kompleks yondashuvni shakllantirishning tavsifi keltirilgan. Shuningdek, pul resurslarini jalb qilish va taqsimlash dasturlarini ishlab chiqish, oqilona usullarni tanlash, tahlil qilish orqali kredit tashkilotlarini samarali faoliyaga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi aktivlarni boshqarishni takomillashtirish ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: aktivlar va passivlar, diversifikatsiya, depozit, kredit, resurs.

Аннотация: в статье предлагается определить и обеспечить выполнение задач бизнес-планирования в АТБ «Агробанк» с целью диверсификации его активов. В частности, представлено описание формирования единого комплексного подхода для обеспечения оптимального сочетания доходности и ликвидности. Также способствовало совершенствованию управления активами, служащего средством достижения эффективной деятельности кредитных организаций за счет разработки программ привлечения и распределения денежных ресурсов, выбора и анализа рациональных методов.

Ключевые слова: активы и пассивы, диверсификация, депозит, кредит, ресурс.

Abstract: in the article, it is proposed to determine and ensure the implementation of business planning tasks in ATB “Agrobank” in order to diversify its assets. In particular, a description of the formation of a single integrated approach to ensure an optimal combination of profitability and liquidity is given. Also, the improvement of asset management, which serves as a means of achieving effective activity of credit organizations through the development of programs for the attraction and distribution of monetary resources, the selection and analysis of rational methods, was promoted.

Key words: assets and liabilities, diversification, deposit, loan, resource.

KIRISH

Aktivlarni diversifikatsiyalashning maqsadlari ko‘rib chiqilayotgan tushunchalar zanjirining ikkinchi elementi bo‘lgan bank boshqaruvi funksiyalari orqali amalga oshiriladi. Bank boshqaruvining umumiy funk-tsiyalari orasida reja-lashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, tartibga solish, rag‘batlantirish (motivatsiya), buxgalteriya hisobi, tahlil, nazorat va marketingni ajratib ko‘rsatish mumkin. Hozirgi vaqtda eng muhim va istiqbolli funksiyalar strategik rejalashtirish, nazorat va nazorat va marketing sifatida tan olingan.

Rejalashtirish bank aktivlarini boshqarishning neytral bo‘g‘inidir, chunki bu jarayon davomida boshqaruv maqsadlari aniqlanadi. Maqsadlar aktiv-larni shakllantirish yo‘nalishlarini tanlashda rejalashtirilgan vazifalar, standartlar, limitlar, belgilangan ustuvorliklarda ko‘rsatiladi.

Rejalar hujjatlashtiriladi va strategiya, konsepsiya, bank siyosati, uzoq muddatli va operativ reja va boshqalar shaklida bo‘ladi. Ammo, afsuski, O‘zbekiston sharoitida banklarda rejalashtirish funksiyasi yetarli darajada hali takomillashtirilmagan. Strategik rejalarning roli ayniqsa past bo‘lib, bu beqaror iqtisodiy vaziyatda bank risklarining ortishi va mamlakatimiz banklari o‘rtasida raqobat kuchayganligini hisobga olgan holda, paradoksal hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banki aktivlarini diversifikatsiya qilish, optimal boshqarishning eng to‘liq yondashuvlari xorijlik mutaxassislar S. L. VG Brevnov, D. D. Van Xuz, Ch. Velfel, E. Dolan, N. B. Merfi, R. L. Miller, D. Polfreman, P. Rose, S.Seeley, J. Sinki, F. Ford tadqiqotlarida yoritilgani bilan ahamiyatli.

Shuningdek, mahalliy olimlardan bank aktiv amaliyotlari bilan bog‘liq, bank xizmatlarini rivojlantirish xususida O. F. Aliqoriyev, Z. Mustafoyev, B. K. Mirzamaydinov, M. M. Abduraxmanovalar izlanish o‘tkazgan. Banklarining bank aktivlari likvidligini ta’minlash borasida R. R. Tojiyev, O. B. Sattarovlar ilmiy izlanish olib borgan bo‘lsa, bank aktivlari bilan bog‘liq risklarni barqarorlashtirish bo‘yicha A. A. Kifak, E. A. Muminova, N. F. Idiyev, F. N. Nasriddinov, N. F. Karimov, V. V. Pshenichnikovlar tadqi-qotlar olib bormoqda. Bank aktiv amaliyotlarini prognozlashning ekono-metrik usullarini rivojlantirish bo‘yicha ham U. A. Otajonov, Yu. E. Djurayevlar, bank aktiv amaliyotlari nazoratini takomillashtirish bo‘yicha N. F. Karimov, M. K. Ermatov, O. A. Yuldoshev, X. F. Dadabayeva, O. F. Abdusalamovalar ilmiy izlanishlani hayotga keng tatbiq etib kelayotgani va bu ilmiy izlanishlar mazkur dissertatsiya ishmizda muhim manbalar bo‘lib xizmat qildi[1].

Professor H. O‘. Rahmatovning ta’kidlashicha, hozirgi kunda milliy iqtisodiy va jahon moliya bozori tajribasiga asoslangan holda mamlakatimiz bank tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda bank tizimi qonunchilik bazasini mustahkamlash, banklar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirish maqsadida bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmokda[2].

A. Y. Abdullayevni qayd etishicha, jahon iqtisodiyotida sodir bo‘lgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tijorat banklari likvidliligining zaiflashuviga, yirik mikdorda aktivlar bilan ta’minlanmagan pullarning muomalaga chiqishiga, to‘lov balanslari qolatining yomonlashuviga va pirovard natijada, milliy ikdisodiyotlarning retsessiya qolatiga tushib qolishiga olib kelmokda [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bank aktivlarini diversifikatsiya qilish bank boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, buning natijasida bu jarayonning nazariy kelib chiqishi nafaqat aktivlar portfelini shakllantirish xususiyatlaridan, balki bank boshqaruvining mohiyatidan ham kelib chiqadi. Tijorat bankining bank aktivlarini diversifikatsiya qilish jarayonini quyidagi rasmda izoh-laymiz (2.1-rasm).



2.1-rasm: Bank aktivlarini boshqarishning umumlashtirilgan sxemasi

Tabiiyki, har bir oqilona boshqaruv jarayoni maqsadlarni belgilashdan boshlanadi. Bank aktivlarini boshqarishning maqsadlari bir xil emas va barqaror emas, balki dinamikdir. Chunki, har bir bank aktivlar diversifikatsiya qilish o‘z hududiy va ichki imkoniyatidan kelib chiqib, turlicha belgilashi mumkin.

1 Karimov N. F. Tijorat banklarida auditni tashkil k,ilish va uni uslubiyotini takomillashtirish muammolari. Doktorlik dissertatsiyasi. – T.: 2008.; Ermatov M. K. CAM EL reyting tizimi va bank auditini takomillashtirish muammolari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2008.; Yuldoshev O. A. Uzbekiston Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish. Nomzodlik dissertatsiyasi. -T.; 2011.; Dadabayeva X. F. Uzbekiston Respublikasi tijorat banklarini nazorat k;ilish muammolari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2005.; Abdusalamova O. F. Bozor ik;tisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish masalalari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2002.

2 Bank aktivlari samaradorligini oshirish masalalari: zamonaviy yondashuv va yechimlar: Monografiya / X,.U. Raxmetov. – T.: “Iqtisod-Moliya”. – 292-b.

Tadqiqotimizda shu sababli, olimlarning [71] iqtisodiy adabiyotlarda aktivlarni boshqarishning belgilangan maqsadlarini bir bor yoki doimiy shakllantirishga urinishlari bizga mantiqsiz ko‘rinadi.

Bizning fikrimizcha, dastlab quyidagicha yondashuvni tanlash kerak:

- birinchidan, aktivlarni diversifikatsiya qilish maqsadlari bank boshqaruvining maqsadlari bilan belgilanishi kerak;
- ikkinchidan, aktivlarni diversifikatsiya qilishda tashqi omillarni va ichki omillarni taqqoslab ko‘rish lozim.

Buning sababi shundaki, aktivlar bank mahsuloti bo‘lib, uni ishlab chiqarishda bank resurslari xom ashyo sifatida ishlatilgan. Bankning barcha faoliyati jami bank mahsulotini yaratishga qaratilgan. Shuning uchun bank diversifikatsiya qilishning maqsadlari va bank aktivlarini boshqarishning maqsadlari o‘xshashdir. Qoida sifatida, chunki bunday maqsadlar bankning rentabelligini, likvidligini, ishonchliligini (minimal risk) belgilaydi. Xorijda hozirgi vaqtda aktivlar va passivlarni muvofiqlashtirilgan boshqarish zarurligi haqidagi fikr hukmronlik qilmoqda [25]. Bunday boshqaruvning maqsadi ko‘p hollarda bank marjasini tavakkalchilikning maqbul darajasida, shu jumladan, likvidlik riskini maksimal darajada oshirish (barqarorlashtirish) sifatida qaraladi. Ammo bank likvidligi pasayganda, likvidlikni oshirish asosiy maqsad bo‘lSh jumladan likvidlik xavfi. Ammo bank likvidligi pasayganda, likvidlikni oshirish asosiy maqsad bo‘lishi mumkin va bu mezon bankning maqbul daromadlilik darajasi bo‘ladi.

Bosh blokda menejmentni boshlash uchun boshqaruv subyektlari (bankda xo‘jalik boshqaruvi va rejalashtirishning tegishli organlari) mavjud nazariya asosida maqsadlar, strategiyalar, rejalar ishlab chiqadilar.

Shu jumladan, likvidlik xavfi ham bor. Ammo bank likvidligi pasayganda, likvidlikni oshirish asosiy maqsad bo‘lishi mumkin va bu mezon bankning maqbul daromadlilik darajasi bo‘ladi[26].

Aktivlarni diversifikatsiyalashning maqsadlari ko‘rib chiqilayotgan tushunchalar zanjirining ikkinchi elementi bo‘lgan bank boshqaruvi funksiyalari orqali amalga oshiriladi. Bank boshqaruvining umumiy funk-tsiyalari orasida rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, tartibga solish, rag‘batlantirish (motivatsiya), buxgalteriya hisobi, tahlil, nazorat va marketingni ajratib ko‘rsatish mumkin. Hozirgi vaqtda eng muhim va istiqbolli funksiyalar strategik rejalashtirish, nazorat va nazorat va marketing sifatida tan olingan.

Rejalashtirish bank aktivlarini boshqarishning neytral bo‘g‘inidir, chunki bu jarayon davomida boshqaruv maqsadlari aniqlanadi. Maqsadlar aktiv-larni shakllantirish yo‘nalishlarini tanlashda rejalashtirilgan vazifalar, standartlar, limitlar, belgilangan ustuvorliklarda ko‘rsatiladi.

Rejalar hujjatlashtiriladi va strategiya, konsepsiya, bank siyosati, uzoq muddatli va operativ reja va boshqalar shaklida bo‘ladi. Ammo, afsuski, O‘zbekiston sharoitida banklarda rejalashtirish funksiyasi yetarli darajada hali takomillashtirilmagan. Strategik rejalarning roli ayniqsa past bo‘lib, bu beqaror iqtisodiy vaziyatda bank risklarining ortishi va mamlakatimiz banklari o‘rtasida raqobat kuchayganligini hisobga olgan holda, paradoksal hisoblanadi [27].

Rejalashtirish tijorat bankining funksiyasi bilan chambarchas bog‘liq, chunki agar u maqsad qo‘ygan bo‘lsa, unga qanday erishish mumkinligi haqidagi savolga javob topish bank majburiyatiga kiradi. Uning yordamida bank aktivlarini boshqarish jarayoni tashkiliy ta’minlanadi, faol operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilma yaratiladi va takomillashtiriladi. Banklar odatda bo‘linmalarni tashkil qiladi, muayyan faol operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashgan (kreditlarni boshqarish, investitsiyalarni boshqarish, valyutani boshqarish va boshqalar). Ular o‘rtasidagi vakolat va funksiyalarni aniq belgilash va diversifikatsiya qilish maqsadida bankning faol operatsiyalarni amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlar hamda ushbu bo‘linmalar xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari ishlab chiqilishi lozim.

Boshqaruv jarayonini diversifikatsiya qilish va tashkiliy qo‘llab-quvvatlash uchun, masalan, kreditlar berish va to‘lash, kreditlangan yoki boshqa faol operatsiyalar amalga oshiriladigan mijozlar uchun risk chegaralarini belgilash bo‘yicha tartib- qoidalar ishlab chiqilishi ayni muddaodir (5-ilova).

Ammo ko‘pgina, ayniqsa tijorat banklarida aktivlarni boshqarishni tashkil etish funksiyasi shakllanmagan bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda ular operatsiyalarni amalga oshirish uchun o‘z qoidalariga ega emaslar va boshqaruv tijoart banklari tomonidan o‘z-o‘zidan amalga oshiriladi. Ko‘pgina banklar-ning bankrot bo‘lishi noto‘g‘ri boshqaruv, xususan, aktivlar bilan ishlashning toto‘g‘ri tashkil etilishi bilan bog‘liq. Shuning uchun zamonaviy sharoitda bu funksiyaning ahamiyatini oshirish kerak.

Bizning fikrimizcha, tijorat bank aktivlarini boshqarishda amalga oshiriladigan navbatdagi funksiya muvofiqlashtirishdir. Bank aktivlari bir necha turdagi mahsulotlar bilan ifodalanganligi sababli ular o‘rtasida ma’lum nisbat o‘rnatilishi, transport vositalari yoki boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi bank bo‘linmalarining ishini muvofiqlashtirish zarur. Resurslarni jalb qilish bilan shug‘ullanadigan bo‘linmalarning faoliyati ham muvofiqlashtiriladi, chunki faol operatsiyalar faqat mavjud mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi. Aktivlar assortimentining kengayishi, banklarning filiallar tarmog‘ining o‘sishi bilan muvofiqlashtirish funksiyasining ahamiyati oshishi zarur.

Bank boshqaruvining diversifikatsiya qilish funksiyasi sifatida tartibga solish hisoblanadi – bu, bank aktivlari tizimi bo‘lgan dinamik tizimda berilgan parametrlarni saqlash bo‘yicha faoliyatdir. Tartibga solish jarayonida

tizim chiqishining belgilangan qiymatdan, ya'ni me'yordan barcha og'ishlari muvozanatlashtiriladi. Ushbu jarayonning vositalari normalar bo'lib, ular: chegaralar, standartlar, maqsadlar, prinsiplar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomo-nidan nazorat organi sifatida amalga oshiriladi:

- O'zbekiston banki faol operatsiyalar bo'yicha banklarning faoliyatini tartibga solish standartlarini belgilaydi;
- bir qarz oluvchiga, shuningdek qarz oluvchi-aksiyadorga, insayderga tavakkalchilik nisbati; katta kredit risklari uchun standartlar;
- bitta yuridik shaxsning aksiyalarini (ulushlarini) sotib olish standarti;
- likvidlik ko'rsatkichlari; har bir valyuta va barcha valyutalar uchun bankning ochiq valyuta pozitsiyasining maksimal qiymati (chegarasi);
- shuningdek, banklar tomonidan ssuda (ssudaga ekvivalent) qarzlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiralarni va bankning qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larning potensial qadrsizlanishi uchun rezervlarni yaratish va ulardan foydalanish tartibi [28].

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston tijorat banklari tomonidan faol operatsiyalar xavfini cheklash bo'yicha o'rnatilgan standartlar tijorat banklari e'tiboriga faqat ularni hisoblashning umumiy metodologiyasi va ruxsat etilgan maksimal qiymatlarni keltirib chiqaradi, banklarga faol operatsiyalarni cheklash uchun qo'shimcha standartlarni belgilash huquqini beradi. Operatsiyalar va ular bilan bog'liq risklar, aktivlarni risk darajasi bo'yicha tasniflash bo'yicha o'z yondashuvlarini ishlab chiqish va qo'llash, tijorat banklari standartlariga nisbatanrisk lozim. Tadqiqotimizda aniqlandiki, afsuski, tijorat bankida bunday ishlar hozircha to'g'ri yo'lga qo'yilmagan [29].

Aytish mumkinki, qoida tariqasida, bu ish ko'plab filiallari bo'lgan eng yirik banklarda yaxshi joylashtirilgan. Ko'p tarmoqli banklarning markaziy apparati O'zbekiston Banki tomonidan belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlar doirasida o'z bo'linmalari uchun har xil turdagi standartlarni, maqsadli ko'rsatkichlarni va risk sublimitlarini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizda tijorat banklari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni diversifikatsiya uchun hisobga olish muhim ahamiyatga ega deb topdik. Shu nuqtayi nazardan 2022-yilgi davomida Xalq qabulxonalariga kelib tushgan fuqarolarning murojaatlari o'rganildik. Xususan, bank sektori faoliyatiga oid masalalar bo'yicha 48 mingta (kuniga o'rtacha 131 ta) murojaat kelib tushgan.

Murojaatlarning eng katta qismi, qariyb 25% i "Xalq bank" faoliyatiga tegishli bo'lsa, undan keyin "Agrobank", "Mikrokreditbank" faoliyati bilan bog'liq. Shu bilan birga, takroriy 6 ming murojaatni o'rganish shuni ko'rsatdiki, eng ko'p ko'rsatkich ham yuqorida ko'rsatilgan banklarga to'g'ri kelgan.

Murojaatlarning 31,6%i ijobiy hal qilingan. Rad etilgan murojaatlarning aksariyati "Mikrokreditbank", "Agrobank" va "Xalq bankiga"ga tegishli.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, fuqarolardan banklar faoliyatidan norozilik mazmunidagi 9 mingga yaqin murojaat kelib tushgan.

2022-yilning I V chorak yakunlari bo'yicha "Kapitalbank" O'zbekistonning eng faol yirik banklari reytingida yana birinchi o'rinni egalladi. "Hamkorbank" o'z mavqeyini saqlagan holda reytingda ikkinchi o'rinni egallab turibdi, "Azia Alyans bank" 1 pog'onaga ko'tarilib, "Trastbank" bilan o'zaro o'rin almashishdi va kuchli uchlikni yakunladi.

Li (2009) banklarning o‘rtacha aktivlar daromadidan (ROAA) o‘lchanadigan banklarning rentabelligiga banklarning o‘ziga xos omillari va makroiqtisodiy omillarining ta'sirini o‘rgandi. Natijalarga ko‘ra, makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar real YaIM va inflyatsiya) ahamiyatsiz ta'sir ko‘rsatdi.

Zhang and Dong (2011) OLSdan foydalangan holda AQSh bank sektorining 2000–2008-yillar davridagi rentabelligini tahlil qildilar. Ularning rentabelligini belgilaydigan omillarga banklarga xos xususiyatlar hamda makroiqtisodiy omillar kirgan. Ular BITning makroiqtisodiy omillari va foiz stavkalarining o‘zgarishi bank foydasini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqladilar.

Babazadeh & Farrokhnejad (2012) 2006-yildan 2010-yilgacha besh yil davomida Eron tijorat banklaridan birida xatolarni tuzatish modelini (ECM) qo‘llab, valyuta o‘zgarishlarining banklarning faoliyati va foydalariga ta'sirini o‘rgandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ayirboshlash kursi foydalarni belgilaydigan muhim omil bo‘lgan.

O'zbekistonda makroiqtisodiy omillarning bank rentabelligiga ta'siri to'g'risida bir nechta tadqiqotlar o'tkazildi. Muqaddasxon Anvarova va O‘lmas Isakov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, davlat mulki va operatsion xarajatlari bankning rentabelligi bilan salbiy va statistik jihatdan muhim bog‘liq. Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati O'zbekistondagi tijorat banklarining ROE va ROA bilan salbiy bog'liq, inflyatsiya va likvidlik darajasi esa ROE bilan ijobiy bog'liq.

Nuriddin Yusupov va Akmaljon Abdurahmonovning yana bir tadqiqotida, foiz stavkalari, inflyatsiya va iqtisodiy o‘sish O‘zbekistondagi banklarning rentabelligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, banklarga xos omillar, masalan, kapitalning yetarliligi, likvidlik va kredit portfeli sifati bank rentabelligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLARDAGI KAMCHILIKLAR

Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli qismlarida banklarning rentabelligini belgilaydigan omillar bo‘yicha bir nechta tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, ushbu sharhlarning kamchiligi shundaki, ko‘pgina tadqiqotlar bankning o‘ziga xos xususiyatiga qaraganda umumiy ko‘rib chiqishni beradigan panel ma'lumotlari to‘plamiga asoslangan. Tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, makroiqtisodiy omillarning bank rentabelligiga ta'siri aniq emas, ba'zi tadqiqotlar ahamiyatsiz ta'sir etgan bo‘lsa, boshqalari esa sezilarli ta'sir ko‘rsatgan. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistondagi banklarning rentabelligiga makroiqtisodiy omillarning ta'sirini banklarga xos xususiyatlarini aniqlash uchun Asia Alliance Bank bilan bog‘liq yillik ma'lumotlardan foydalangan holda ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun foydalanilgan.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Yuqorida aytib o‘tilgan maqsadlarga erishish uchun panel ma'lumotlaridan O‘zbekiston banklarining moliyaviy hisobotlardan kelib chiqadigan rentabelligini aniqlovchi omillar bo‘yicha empirik tahlil qilish uchun foydalanildi, ya'ni moliyaviy nisbatlar va makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar tadqiqot gipotezalarini tekshirish uchun ishlatiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2009-yilda tashkil qilingan Asia Alliance Bankfaoliyati davomida oradan 14 yil muddat o‘tdi, bu albatta tahlil qilisga arzigulik muddat hisoblanadi va bu davrda bank daromadlilik ko‘rsatkicvhlariga ta’sir qilayotgan makroiqtisodiy omillarni ayrimlarini tadqiqotimizda to‘xtalib o‘tamiz, zero bu jarayonni sanoqli omillarnigina asosiy ta’sir etuvchi sifatida olsak, biz judayam boshqa ko‘plab ta’sir kuchlariga ko‘z yumgan bo‘lamiz, ammo ushbu magistrlik ishimizda biz bu ayrim makroiqtisodiy omillarning bank tizimiga ta’srini eng oddiy usul (korrelyatsion-regression tahlil) asosida ko‘rsatib berishga harakat qilamiz. Bu jarayonni tasvirlash uchun bizga makroiqtisodiy omillardan Markaziy Bank foiz stavkasi, yillik inflyatsiya ko‘rsatkichlari, valyuta kursi o‘zgarishi, keng pul massasi, YaIM o‘sishi kabi ko‘rsatkichlarning bank daromadlilik ko‘rsatkichlari; aktivlar rentabelligi va kapital rentabelligi, sof foizli daromadlarning aktiv va kapitaldagi samaradorligi, sof foizli marjaning samaradorligiga ta’sirini 2009-2022-yillardagi yig‘ilgan tahliliy ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berishga harakat qilamiz. Quyida biz tahlil qilgan ma’lumotlar bitta jadvalga yi’gilgan:

Buni dastavval bog‘liq va mustaqil omillarning o‘zaro bog‘lanish kuchini korrelyatsion tahlil orqali Excel dasturi yordamida bitta qolipga solishga harakat qildik (2.5-jadval).

2.5-jadval



Ushbu korrelyatsiya matritsasi orqali ROA ko‘rsatkichi yaxshiroq tushuntirib berish mumkin, bunda keng pul massasi ROA bilan o‘rtacha bog‘liqlikka ega(0.6), valyuta kursi o‘zgarishining zichligi o‘rtachadan past(0.4) ko‘rsatkichga teng bo‘lgan bog‘liqlikni beradi, real YaIM o‘sishi bilan ta’sir kuchi judayam past(-0.02.), demak uni yaxshi tushuntirib bera olmaydi, shuning uchun uni tashlab yuboramiz, Markaziy Bank foiz stavkasi bilan esa judayam kuchsiz bog‘liqlik mavjud(0.1), inflyatsiya dinamikasi bilan ham kuchsiz bog‘liqlik borligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rilayotgan bog‘liqlik albatta uzoq muddatli jarayonni uziga qamrab olgani holda biz qabul qilgan makroiqtisodiy omillardan tashqari boshqa ta’’ir etuvchi omillar borligidan darak beradi.

O‘z navbatida omil belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik zichligini ham ko‘rib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘lardi, shunga ko‘ra pul massasi bilan inflyatsiya(0.4) va Markaziy Bank foiz stavkasi(-0.011) deyarli bog‘lanish mavjud emas, valyuta kursi o‘zgarishi(0.3) ko‘rsatkichlari o‘zaro kuchsiz bog‘lanishga egaligini ko‘rishimiz mumkin, real YaIM o‘sishi bilan (0.3) kuchsiz bog‘liqlik borligini ko‘rishimiz mumkin, o‘z navbatida Valyuta kursi o‘zgarishining boshqa makroiqtisodiy omillar; Markaziy Bank foiz stavkasi bilan uzoq muddatda deyarli(-0.1) bog‘liqlik

yuqligini ko‘rsatsa, real YaIM o‘sishi bilan bilan ham xuddi shunday bog‘lanish (-0.1)mavjudligini ko‘rish mumkin, inflyatsiya bilan esa kuchsiz (0.2) bog‘langanini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Shu orada real YaIM o‘sishining asosiy stavka bilan o‘rtachadan kuchsiz(-0.4) bog‘langanligi ko‘rinsa, inflyatsiya bilan kuchsiz(0.1) zichlikda bog‘liqlik borligini ko‘rishimiz mumkin. Shu ketishda Markaziy Bank foiz stavkasi hamda inflyatsiya darajalarini ham yondosh makroiqtisodiy omillar bilan bog‘lanish zichligini ko‘rib o‘tsak, bunda asosan foiz stavkasi bilan uzoq muddatda kuchsiz teskari (0.3) bog‘liqlik mavjudligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Albatta tadqiqotimizning dastlabki bosqichiqda bu omillarni qisqa muddatda(6yil) tahlil qilganimizda biroz boshqacharoq tahlilni qo‘lga kiritgan edik va xulosamiz ham shunga yarasha biroz boshqacha edi, lekin uzoq muddatda olingan tahlilimiz natijalari tubdan farq qilishini ko‘rdik, demak uzoq muddatda ta’isr etuvchi omillar kuchi pasayib borishi va bu jarayonda yana ko‘zga ko‘rinmagan boshqa omillar ishtirok eta boshlashi mumkinligiga amin bo‘ldik.

Modeldagi tushuntiruvchi omillar uchun VIF tahlil o‘tkazamiz, multikolleniarlik holati mavjudmi yoki yuqligini aniqlash maqsadida.

X4 ni VIF ga tekshiramiz: VIF= 1/1-R2=1/1-0,3587420393024952 =1.1477<5 multikollenearlik yuq.

VIF-test X1 va X2 orasida – 1.08979< 5 – multikolenearlik yo‘q.

VIF-test X1 va X3 orasida – 1.0043< 5 – multikolenearlik yuq.

VIF-test X1 va X4 – 1.1477<5 – multikolenearlik yo‘q.

VIF-test X1 va X5 – 1.02669<5 – multikolenearlik yo‘q.

VIF-test X2 va X3 orasida – 1.1837< 5 – multikolenearlik yo"q.

VIF-test X2 va X4 orasida – 1.001<5 – multikolenearlik yuq.

VIF-test X2 va X5 orasida – 1.005<5 – multikolenearlik yuq.

VIF-test X3 va X4 – 1.095<5 – multikolenearlik yo‘q.

VIF-test X3 va X5 – 1.02<5 – multikolenearlik yo‘q.

VIF-test X4va X5 – 1.0836<5 – multikolenearlik yo‘q.

Demak modelimiz uchun barcha omillar qabul qilish uchun mos keladi.

Prediktorlar yordamida aktivlar rentabellligi ROA (Y) ning necha foizini tushuntirib berish mumkinligini topamiz;

1. Inflyatsiya(X1)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

2.6-jadval

Регрессионная статистика			Коэффициенты
Множественный R	0,164357495	Y-пересечение	1,683125023
R-квадрат	0,027013386	Iste’mol narxlari indeksi (X1)	0,030825037

y^=1.68+0.0308*X1 regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 3% (r2*100%) tushuntirib bera olamiz. Demak bu omilni modelimizga kiritmasdan boshqa omillar qismida qoldirsak ham bo‘ladi.

2. Asosiy stavka(X2)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

2.7-jadval

Регрессионная статистика			Коэффициенты
Множественный R	0,146505813	Y-пересечение	0,733433162
R-квадрат	0,021463953	Asosiy stavka (x2)	0,117028584

y^=0.7334+0.117*X2 regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 2% (r2*100%) tushuntirib bera olamiz. Demak bu omilni ham modelimizga kiritmasdan boshqa omillar qismida qoldirsak ham bo‘ladi.

3. Real YaIM o‘sishi(X3)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

2.8-jadval

Регрессионная статистика			Коэффициенты
Множественный R	0,026459159	Y-пересечение	2,444216463
R-квадрат	0,000700087	YAIM o‘sishi (X3)	-0,033106039

y^=2.444-0.033*X3 regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 0% (r2*100%) tushuntirib bera olamiz. Shuning uchun bu omilni qo‘shib o‘tirmaymiz, balki boshqa ta’sir etuvchi omillar tarkibida qolaveradi.

4. Keng pul massasi(X4)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

2.9-jadval

Регрессионная статистика			Коэффициенты
Множественный R	0,026459159	Y-пересечение	2,444216463
R-квадрат	0,000700087	YAIM o‘sishi (X3)	-0,033106039

y^=-1.885+0.1645*X4 regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 39% (r2*100%) tushuntirib bera olamiz.

5. Valyuta kursi o‘zgarishi(X5)ni ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini topamiz:

2.10-jadval

Регрессионная статистика			Коэффициенты
Множественный R	0,401968277	Y-пересечение	1,575885074
R-квадрат	0,161578496	Valyuta kursi o‘zgarishi (X5)	0,037017774

y^=1.5758+0.037*X5 regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 16% (r2*100%) tushuntirib bera olamiz.

6. Valyuta kursi o‘zgarishi (X4) va Pul massasi o‘zgarishi (X5) bilan birga-likda ROA(Y)ning necha foizini tushuntirib berishini Gretl dasturi yordamida topamiz:

2.11-jadval

Регрессионная статистика	
Множественный R	0,665468484
R-квадрат	0,442848304
	Коэффициенты
Y-пересечение	-1,833810968
Keng pul massasi (X4)	0,146237153
Valyuta kursi o‘zgarishi (X5)	0,02289285

y^=01.8338+0.14623*X4+0.02289*X5 regressiya tenglamasi orqali ROA (Y)ning 44% (r2*100%) tushuntirib bera olamiz.

Prediktorlarni t-testdan o‘tkazamiz:

Odatda statistik gipotezalarda ahamiyatlilik daraasi (α belgisi) to‘g‘ri gipotezani rad etish ehtimo deb ataladi(bui birinchi turdagi xatolik). Ahamiyatlilik darajasi α odatda 0.05 va 1 % qiymatlarni qabul qiladi, bu esa birinchi turdagi xatolarning 5 % va 1% gacha bo‘lish ehtimoliga to‘g‘ri keladi[1]. Shunday bo‘lgani holda biz tadqiqotimizda kamchiliklarni inobatga olib bu ko‘rstakichni maksimal chegarasidan foydalanib 10% qilishga qaror qildik.

H0:b1=0,b2=0, b4=0, b5=0

H1:b1¹0b2¹0 b4¹0 b5¹0

H0 rad etiladi, agar t statistika ta/2 dan katta bo‘lsa:

2.12-jadval

	Коэффициенты	Стандартная ошибка	T-статистика
Y-пересечение	-1,833810968	1,548214474	-1,184468302
Keng pul massasi (x4)	0,146237153	0,062056396	2,356520231
Valyuta kursi o‘zgarishi (x5)	0,02289285	0,021575027	1,061080944

$t_{0,1}(12) = 1.782$

Keng pul massasi (X4) bo‘yicha t>ta/2, demak H0 rad etiladi, Valyuta kursi o‘zgarishi (X5) bo‘yicha esa t<ta/2, demak parameter model uchun ahamiyatsiz deb topildi. Chunki

U holda keng pul massasi orqali modelni qayta tuzamiz:

1 A. Ishnazarov, Sh. Nurullayeva. Ekonometrikaga kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2021 – 264-b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2.13-jadval

Регрессионная статистика	
Множественный R	0,621145443
R-квадрат	0,385821661
	Коэффициенты
Y-пересечение	-1,885294694
Keng pul massasi (X4)	0,164530732

va y^=-1.8852+0.1645*X4 regressiya tenglamasi orqali ROA(Y)ning 0ga teng bo‘lmagan aniq qismini tushuntirib bera oladi deb ayta olamiz.

Endi modelda F-test o‘tkazamiz:

H0: r2=0

H1: r2 >0 y^=-1.8852+0.1645*X4 H0 rad etiladi, agar F statistika Fa dan katta bo‘lsa.

2.14-jadval

	df	SS	MS	F	Значимость F
Регрессия	1	17,91660811	17,91660811	7,538298965	0,017746454
Остаток	12	28,52093004	2,37674417		
Итого	13	46,43753815			

Fisherning F mezoniga ko‘ra, regressiya tenglamasining statistik ahamiyatsizligi (ya’ni F qiymatining noldan statistik jihatdan ahamiyatsiz farqligi) haqida H0 lik gipoteza. Bu gipoteza F>Fjad shartni qondirganda rad etilmoqda , bu terda Fjadval Fisher F-mezonining jadvalidan α darajaga ega bo‘lgan va k1 =k, k2=n-k-1 erkinlik darajalari bilan aniqlanadi [2]. Bizda F mezoning haqiqiy qiymati = 7.53829 ga teng bo‘lgani holda, jadval qiymati 0.1 ahamiyatlilik darajasida Fa0.1(1;12)= 3.1766 qiymatni ko‘rsatdi, demak, Fa < F, H0 gipoteza rad etildi, Keng pul massasi(X4) va ROA(Y)ning aniq 0 ga teng bo‘lmagan foizini tushuntirib bera oladi, y^=-1.8853+0.1645*X4 regressiya tenglamasi orqali.

Model uchun koeffitsiyentlarni tushuntramiz:

Y^=-1.8853+0.1645*X4 regressiya tenglamasi. Keng pul massasi 1 foizga oshganda aktivlar rentabelligi 0.1645 foizga ortadi. Keng pul massasi (X4)= 35.12% bo‘lganda aktivlar rentabelligini foiz ko‘rsatkichini topamiz: Y^=-1.8853+0.1645*35.12= 3.89194. Demak, keng pul massasi 35.12 % bolganda aktivlar samaradorligi 3.89 foiz ko‘rsatkichni berar ekan.

XULOSA VA TAKLIF

Xulosa qilib aytganda, banklarning daromadilik ko‘rsatkichlari uzoq muddatli tahlil natijalariga tayanib aytadigan bo‘lsak, xususan, aktivlar rentabelligi makroiqtisodiy omil sifatida pul massasi o‘zgarishiga 39% bog‘liqlik jihati bor ekan, qolgan qismini yana tadqiq etilmagan boshqa omillar ta’siri ostida o‘zgarishi mumkinligini aytsak boladi. O‘z navbatida biz ko‘rib chiqqan makroiqtisodiy omillar ichida aktivlar rentabelligini hisoblashda eng avvalo biz ko‘rib chiqqan omillar ichidan pul massasini e’tiborga olish kerakligi a’yon bo‘ldi. Aktivlar samaradorligi asosan yirik banklarda natija berib mayda banklarda ko‘zlangan natijani bermaydi, sababi yirik banklar muomalaga chiqaradigan aktivlari nisbatan yuqoriligi; bank taklif qiladigan kreditlar diversifikatsiyasi kengligi; bozor umumiy hajmining salmoqli hissasini egallashi bilan mayda banklardan ustunlik qiladi. Shu o‘rinda mayda banklar o‘zaro aksionerlik jamiyati sifatida birlashib faoliyat olib borishlari aktivlarni boshqarishda; samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lgan bo‘lardi. Shu o‘rinda biz tadqiq qilgan Asia Alliance bank ham 2009-yildan 2022-yilning boshigacha deyarli davlat banki sifatida faoliyat olib borganligi, bu esa samarasiz faoliyat ko‘rsatkichlarining yuzaga chiqishiga sabab bo‘lgani, xususiylashtirlganidan keyin 1 yil ichida katta o‘zgarishlarga erishganligi, xususiylashtirishning afzalliklaridan dalolat beradi.

Taklif sifatida shuni aytish mumkinki, markaziy bank raqamli valyutalardan foydalanishni boshlashi kerak. Markaziy bank raqamli valyutalari – bu jismoniy tovarga bog‘lanmagan hukumat tomonidan chiqarilgan valyutaning raqamli shakli. Ular markaziy banklar tomonidan chiqarilgan bo‘lib, ularning vazifasi mamlakat hukumati va tijorat banklari tizimi uchun moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish, pul siyosatini belgilash va valyutani chiqarishdir. Ya’ni markaziy banklar tomonidan chiqarilgan naqdsiz valyutaning raqamli versiyalari. Ulardan to‘lovlarni amalga oshirish, qiymatni saqlash va bitimlarni hal qilish uchun foydalanish mumkin. Raqamli valyutalar markaziy banklarga pul ta’minotini yanada samarali va samarali boshqarishlariga yordam berishi mumkin.

[2]Niyozov Z.D., Daminov F.M. “Bank xizmatlari:hozirgi holati va rivojlantirish tendensiyalari”. S-2009y. 89-bet.

Ko‘plab mamlakatlar raqamli valyutani joriy etdi. Mana bir nechta misol:

Bahamalar: Bahamalar Sand dollar deb nomlangan raqamli valyutani joriy etgan birinchi mamlakat edi. U 2020-yil oktyabr oyida ishga tushirildi.

Nigeriya: Nigeriya Markaziy banki o‘zining raqamli valyutasi eNaira-ni 2021-yil oktyabr oyida ishga tushirdi.

Xitoy: Xitoy Xalq banki o‘zining raqamli valyutasini, raqamli yuannini 2014-yildan beri ishlab chiqmoqda. U hozirda sinov bosqichida.

Qo‘shma Shtatlar: Federal zaxirasi raqamli valyutani ishga tushirish imkoniyatini o‘rganmoqda. Biroq, hali qaror qabul qilinmagan.

Sun’iy intellektdan foydalanish ma’lumotlarni tahlil qilish va iqtisodiy tendensiyalar haqida bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin. Sun’iy intellekt markaziy banklarga pul siyosati bo‘yicha yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam berishi mumkin. Sun’iy intellektdan ma’lumotlarni tahlil qilish va iqtisodiy tendensiyalar haqida bashorat qilish uchun foydalanish mumkin. Bu markaziy banklarga pul siyosati bo‘yicha yaxshiroq qarorlar qabul qilishga va iqtisodiyotni shoklardan himoya qilishga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari
2. https://tradingeconomics.com/uzbekistan/bank-return-on-assets-percent-before-tax-wb-data.html
3. Gujarati, D.N. (2004). “Basic Econometrics” (4th ed.). The McGraw – Hill Companies
4. Haron,S. (2004). “Determinants of Islamic Bank Profitability”. Global Journal of Finance and Economics. USA, Vol 1, No 1, March 2004.
5. Jasmine,E. (2008). “An Empirical Analysis of Commercial Banks’ Profitability Determinants in Malaysia after the 2008 Financial Crisis”. A Research Project Submitted in Partial Fulfillment of the Requirement for the Degree of Bachelor of Business Administration (Hons) Banking and Finance. University of Tunku Abdul Rahman.
6. Koutsoyiannis,A. (2003). “Modern Microeconomics” (2nd ed.). London: Macmillan Press Ltd
7. Li,Y.(2009). “Determinants of Banks. Profitability and its Implication on Risk Management Practices: Panel Evidence from the UK in the Period 1999-2006”. A Dissertation presented in part consideration for the degree of MA in Risk Management. The University of Nottingham
8. Ongore,V.O (2013).“Determinants of Financial Performance of Commercial Banks in Kenya”. International Journal of Economics and Financial Issues, Vol. 3, No. 1, 2013, pp.237- 252 ISSN: 2146-4138
9. Oso,W.Y. and Onen,D. (2009). “Writing Research Proposal and Report: A handbook for beginning researchers“(Revised Edition). Kenya: The Jomo Kenyatta Foundation
10. Otuori, O. H. (2013). “Influence of exchange rate determinants on the performance of commercial banks in Kenya”.
11. European Journal of Management Sciences and Economics, 1(2), 86-98.
12. Panayiotis P. Athanasoglou,P,P.,Delis,M,D. & Staikouras,C,K.(2006). “Determinants of Bank Profitability in the South Eastern European Region”. Bank of Greece Economic Research Department –Workig Paper No.47. ISSN 1109- 6691
13. Ramadan,I.Z., Kilani,Q.A.& Kaddumi,T.A. (2009). “ Determinants of Bank Profitability: Evidence from Jordan”.International Journal of Academic Research, Vol. 3. No. 4.
14. Rao,K,R,M.& Lakew,T,B.(2012). “Determinants 0f Profitability of Commercial Banks in A Developing Country: Evidence from Ethiopia”. International Journal of Accounting and Financial Management Research (IJAFMR).ISSN 2249-6882.Vol. 2 Issue 3 Sep 2012 1-20
15. Sufian,F. & Kamarudin,F. (2012). “Bank-specific and Macroeconomic Determinants of Profitability of Bangladesh’s Commercial Banks”. Bangladesh Development Studies. Vol. XXXV, December 2012, No. 4
16. Zhang,C. & Dong,L.(2011). “Determinants of Bank Profitability: Evidence from the U.S Banking Sector”. Research Project Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Financial Risk Management. Simon Fraser University
17. Anvarova, Mukaddashxon va Olmas Isakov. "Hukumat mulki banklarning rentabelligiga ta'siri: O'zbekistondagi tijorat banklarining empirik dalillari". Iqtisodiyot va moliyaviy tahlillar jurnali 6, no. 1 (2022): 37-53.
18. Nuriddin Yusupov va Akmaljon Abdurahmonov. "Inlyatsiya va iqtisodiy o‘sishning banklarning rentabelligiga ta'siri: O'zbekistondagi tijorat banklarining empirik dalillari". Iqtisodiyot va moliyaviy tahlillar jurnali 6, no. 1 (2022): 54-68.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY KONSEPSIYALARI

Mamatov Mamajan Axmadjonovich
TDIU i.f.n., dotsent

Annotatsiya: maqolada iqtisodiyotni globallashuvi va axborotlashgan jamiyatga o‘tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konseptsiyalarida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish omillari va o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy soha, yuqori fan sig‘imli texnologiyalar, axborotlashgan jamiyat, dasturlashtirilgan jamiyat, postmodernizm texnotron jamiyat, neoindustrializm.

Аннотация: в статье описаны факторы развития и роль сферы услуг в концепциях социально-экономического развития в условиях глобализации экономики и перехода к информационному обществу.

Ключевые слова: социальная сфера, высокомощные технологии, информационное общество, запрограммированное общество, постмодернизм, технотронное общество, нео индустриализм.

Abstract: m he article describes the factors of development and the role of the service sector in the concepts of socio-economic development in the context of the globalization of the economy and the transition to the information society.

Key words: social sphere, high-power technologies, information society, programmed society, postmodernism, technetronic society, neo-industrialism.

KIRISH

Iqtisodiyotni globallashuvi va axborotlashgan jamiyatga o‘tish turli rivojlanish darajasidagi milliy iqtisodiyotlarda ko‘plab muammolarni keltirib chiqardi. Rivojlangan mamlakatlarda, bir tomondan, xizmat ko‘rsatish sohasining takror ishlab chiqarish jarayonidagi roli ortib bormoqda, ayni paytda uning sifat va miqdor tuzilishi o‘zgarib bormoqda. Boshqa tomondan, to‘rtinchi sanoat inqilobining yadrosini tashkil etadigan yuqori fan sig‘imli texnologiyalar ishlab chiqarish sanoatini va umuman mahsulot ishlab chiqarishni butunlay sezilarli darajada o‘zgartirib bormoqda, bu muqarrar ravishda butun ishlab chiqarish sohasini sezilarli darajada transformatsiyasini talab qiladi. Shu munosabat bilan xizmat ko‘rsatish sohasining mazmuni, faoliyat yuritishi va tovar ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining o‘sishi bilan milliy iqtisodiyotning barqaror raqobatbardoshligini ta’minlashni qo‘llab-quvvatlashda ifoda etuvchi ishlab chiqarish kuchini aniqlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tendensiyalar takror ishlab chiqarish jarayonlarida xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni va rolini o‘rganishning dolzarbligini belgilaydi. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohalarining iqtisodiy o‘sishga va milliy iqtisodiyotni tiklanishiga qo‘shgan hissasini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOTNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Iqtisodiy fanda xizmat ko‘rsatish sohasi to‘g‘risidagi nazariy konsepsiyalar XX asrning o‘rtalarida keng rivojlandi. Xizmatlar, axborot, ilm-fan va bilimlarning ahamiyatini o‘sishi tomon siljishi unda asosiy o‘rinni egallaydigan kategoriyalar mavjud bo‘lgan quyidagi yangi nazariyalarni paydo bo‘lishi va rivojlanishiga turtki berdi: postindustrializm nazariyasi (D. Bell, K. Klark, U. Rostou, E. Toffler, A. Fisher, J. Furaste), “axborotlashgan

jamiyat” nazariyasi (U. Dayzard, M. Kastels, R. Kats, Y. Masuda, F. Maxlup, M. Porat, T. Stouner, T. Umesao), “dasturlashtiriladigan jamiyat” (A. Turen), “postiqtisodiy jamiyat” (V. I. Inozemtsev, G. Kan), “texnotron jamiyat” (Z. Bjezinskiy), “bilimlar jamiyati” (D. Dikson, P. Druker, T. Sakayya, N. Shter), “postmodernizm” (Z. Bauman, U. Bek, J. Bodriyyar, J.-F. Liotar, D. Xarvi), “Neo-industrializm” (S. D. Bodrunov, A. V. Buzgalin, S. Y. Glazev, S. S. Gubanov, A. I. Kolganov, V. M. Kulkov, A. A. Poroxovskiy, V. T. Ryazanov, A. I. Tatarkin, K. A. Xubiyev va b.).

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishda ijtimoiy sohasining rolini mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan akademik Q. X. Abduraxmonov, A. V. Vahobov, A. A. Mamatov, I. S. Tuxliyev, X. P. Abulqosimov A. O‘lmasov, A. V. Vahobov, T. T. Jo‘rayev, A. A. Mamatov, R. R. Xasanov va boshqalar ham o‘z tadqiqotlarida keng tadqiq etishgan.

Biroq O‘zbekiston Respublikasini raqamli iqtisodiyotga o‘tishi va unda axborot jamiyatini rivojlanishi sharoitida ijtimoiy takror ishlab chiqarishda ijtimoiy sohasining rolini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etilmoqda. Ushbu jihatlar ilmiy ish mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi bo‘lib O‘zbekistonlik va xorijlik iqtisodchi olimlarning ijtimoiy takror ishlab chiqarishda ijtimoiy sohasining rolini nazariy va metodologik tadqiq etish bo‘yicha tadqiqot ishlari asos bo‘ladi. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

XX asrning so‘ngi uchdan birida yuqori rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan jarayonlarning mohiyatini turli darajadagi ishonchlilik bilan tavsiflovchi asosiy tushuncha postindustrial jamiyat tushunchasi edi. Uning asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli stsenariylarini ilgari surilgan juda ko‘p turli xil nazariyalar va konsepsiyalar paydo bo‘ldi. Unga, (U. Dayzard, M. Kastels, R. Kats, Y. Masuda, F. Maxlup, M. Porat, T. Stouner, T. Umesao) ning “axborot jamiyat”, (A. Turene)ning “dasturlashtiriladigan jamiyat”, (V. L. Inozemtsev, G. Kan)ning “Post-iqtisodiy jamiyat”, (Z.Bjezinskiy)ning “texnotronik jamiyat”, (D. Dikson, P. Druker, T. Sakayya, N. Shter)ning “bilimlar jamiyati”, (Z. Bauman, V. Bek, J. Bodriyar, J.-F. Litoard, D. Xarvi)ning “postmodernizm” nazariyalari va boshqalar.

Biroq, so‘nggi paytlarda, XX asr o‘rtalarida postindustrializm konsepsiyasi doirasida tavsiflangan ko‘plab stsenariylar XXI asr amaliyotida amalda o‘z isbotini topmaganligi sababli, postindustrializm nazariyasining adekvatligi to‘g‘risida neoindustrializm nazariyasining zamonaviy tarafdorlari bo‘lgan (S. D. Bodrunov, A. V. Buzgalin, S. Y. Glazyev, S. S. Gubanov, A. I. Kolganov, V. M. Kulkov, A. A. Poroxovskiy, V. T. Ryazanov, A. I. Tatarkin, K.A.Xubiyev va boshqalar) tomonidan asosli tanqidga uchradi.

Postindustrializm nazariyasining asoschisi hisoblangan va bosqichli-tarmoqli yondashuvga tayanuvchi D.Bell va bir qator mualliflar, xususan, A. Fisher, K. Klark, J. Furaste, V. Rostou tomonidan taklif qilingan nazariya postindustrializm nazariyasining metodologik asoslarini tashkil qilgan.

A. Fisher, C. Klark va J. Furaste iqtisodiyotning uchta sektorini – birlamchi yoki qishloq xo‘jaligi, ikkilamchi yoki sanoat va uchlamchi xizmatlarni ajratishdilar. Yangi Zelandiya va Avstraliya mamlakatlari statistik organlari tomonidan qabul qilingan amaliyot tajribasiga ko‘ra qishloq xo‘jaligini birlamchi, sanoatni ikkilamchiga birlashtirish an’anasining davomi sifatida xizmat ko‘rsatish sohalarini uchlamchi atamasini birinchi bo‘lib Fisher taklif qilgan [1].

Muallif narxlar va uy xo‘jaliklari daromadlari darajasining o‘zgarishi bilan, iste’mol talabi va bandlikning xizmat ko‘rsatish sohasi tomon siljishini izohlagan K.Klark nazariyasi postindustrializmni shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Daromadlarni oshgani sayin oziq-ovqatga sarflangan xarajatlar ulushi xizmatlar foydasiga kamayib boradi. Shunga ko‘ra, uchinchi sektorda, ya’ni bozor ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to‘yingan bo‘lsa, xizmat ko‘rsatish sohasida mahsulot va ishchi kuchiga talab doimiy ravishda o‘sib boradi [2]. Shu tariqa, uchinchi sektor tarmoqlarining rivojlanishi yuz bermoqda, bu uning yalpi ichki mahsulotdagi va umumiy bandlikdagi ulushini o‘sishida namoyon bo‘lmoqda.

Industrializm nazariyasi asoschilaridan biri J. Furaste [3] Klarkdan keyin iqtisodiyotning uch sektorli bo‘linishi asosida ijtimoiy taraqqiyotni tahlil etishni taklif etdi. Furastening qayd etishicha, xizmat ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlari yaratilishi tufayli sanoatda band bo‘lganlar sonining qisqarishi ommaviy ishsizlikka olib kelmaydi. Biroq, zamonaviy voqelikda, xizmat ko‘rsatish sohasining murakkablashishi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlar o‘rtasidagi munosabatlarning chuqurlashuvi tufayli iqtisodiyotning uch tarmoqqa bo‘linishi dolzarb bo‘lmay qoldi. Natijada bu ba’zi hollarda bir sektorni boshqasidan ajratishni qiyinlashtiradi. Statistik hisobotlar uchun iqtisodiyotning to‘rtlamchi va beshlamchi sektorlarini ajratish mumkin.

Shunday qilib, postindustrial jamiyat unda xizmat ko‘rsatish sohasining keng rivojlanishi munosabati bilan o‘ziga xos “insonlar o‘rtasidagi o‘yin” sifatida taqdim etiladi. Axborot malakali mutaxassis tomonidan boshqa insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonida malakali qo‘llanilishi, turli sohalarda hal qiluvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Muallif sektorli-tarmoqli yondashuvga amal qilgan holda, uchlamchi sektorni kengaytirdi, industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tishni uch bosqichga bo‘ldi.

1 - j a d v a l: Ijtimoiy o‘zgarishlarning umumiy sxemasi [4]

	Industrial jamiyatgacha bo‘lgan davr	Industrial jamiyat	Postindustrial jamiyat		
Sektor	birlamchi	ikkilamchi	uchlamchi	to‘rtlamchi	beshlamchi
	Qazib olish	Qayta ishlash	Transport	Savdo	Sog‘liqni saqlash
	Qishloq xo‘jaligi	Ishlab chiqarish	Kom.xo‘jalik	Moliya	Ta’lim
	Tog‘-kon ishi	Qayta ishlash		Sug‘urta	Tadqiqot
	Baliqchilik			Ko‘chmas mulk	Davlat boshqaruvi
					Dam olish
Texnologiya	Xom ashyo	Energetik	Axborot		
Tabiat va jamiyat	Tabiat bilan hamkorlik	Qayta o‘zgartirilgan tabiat bilan hamkorlik	Insonlar o‘rtasidagi o‘yin		
Metodologiya	Xayotiy tajriba	Eksperement	Abstrakt nazariyalar, modellar, qarorlar nazariyasi, tizimli tahlil		
Bazaviy tamoyil	Ananaviylik, yer va resurslar tanqisligi	Iqtisoiy o‘sish, investitsion qarorlar ustidan nazorat	Nazariy bilimlarning markaziy o‘rni va ularni kodifikatsiyalash		

Birinchi bosqich – transport xizmatlari va ijtimoiy xizmatlarning rivojlanish bosqichi, ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat ko‘rsatadigan “ko‘k yoqalilar”ning paydo bo‘lishi, keyinchalik savdo, moliyaviy va sug‘urta xizmatlarining, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalarning rivojlanish bosqichi va buning natijasida, “oq yoqalar” sinfini paydo bo‘lishi. va nihoyat, maishiy, shaxsiy, turistik, ko‘ngilochar xizmatlar, mehmondo‘stlik xizmatlari, tibbiy va ta’lim xizmatlarining rivojlanish bosqichi. Shu bilan birga, ijtimoiy taraqqiyotning ushbu tipologiyasi ko‘proq G‘arb sivilizatsiyalariga xos ekanligini ta’kidlash lozim.

XX asrning global jarayonlarini tahlil qilar ekan, Bell undagi transport va aloqani yetakchi rolini qayd etadi, bu esa milliy va xalqaro miqyosda insonlar, tovarlar va axborotlarning ommaviy tarzda va tez harakatlanishiga hissa qo‘shgan, global jamiyatning shakllanishiga asos solgan. Shunday qilib, eski tizimning o‘rniga kelgan yangi davrning asosiy xususiyatlari Bellning fikriga ko‘ra quyidagilardan iborat:

1. Tovar ishlab chiqarishdan xizmatlar ishlab chiqarishga o‘tish, xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikning ustuvorligi, shuningdek, xizmat ko‘rsatish soha tarmoqlarining kengayishi va murakkablashishi bilan tavsiflanadi;
2. Malakali ishchilar – texnik mutaxassislar va turli kasb egalari ulushining o‘sishi;
3. Nazariy bilim va fanning rolining ortib borishi, ular asosida bilim talab qiladigan sanoat sektorlarida innovatsiyalar joriy etilishi;
4. Insonlarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari asosida mehnat tavsifini o‘zgarishi;
5. Jamiyatga ta’sir o‘tkazish uchun bir-biri bilan raqobatlashuvchi “vertikal joylashgan ijtimoiy birliklar” bo‘lgan vaziyatni shakllanishi. To‘rtta funksional vaziyat mavjud – ilmiy, texnik (ya’ni amaliy kasblar: muhandislik, iqtisod, tibbiyot), ma’muriy va madaniy va beshta institutsional holat – iqtisodiy korxonalar, davlat idoralari, universitetlar va ilmiy markazlar, ijtimoiy majmualar (masalan, kasalxonalar, ijtimoiy xizmat) va armiya [5]. Ushbu to‘rtta funksional vaziyatni o‘z ichiga olgan mutaxassislar sinfi maqom bo‘yicha eng yuqori sinfga aylanishi mumkin;
6. Meritokratiya – jamiyatning ijtimoiy kelib chiqishiga emas, balki shaxsiy yutuqlari, bilim va qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan qatlamini vujudga kelishi. Shunga ko‘ra, ta’lim va malaka darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, inson jamiyatda shunchalik obro‘li o‘ringa ega bo‘ladi.

Ko‘rib chiqilgan tendensiyalar buni postindustrializm tarafdorlari tomonidan qanday talqin qilish mumkinligini ifoda etmaydi, balki, xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi mustaqil ravishda, sanoat tarmoqlarini ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidan siqib chiqaradi. Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy iqtisodiyotda faqat e’tiborning moddiy ishlab chiqarish sohasidan xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘tishi kuzatiladi, lekin birining yo‘qolishi yoki

boshqasi bilan almashtirilishi emas. Xizmat ko‘rsatish sohasining jadal o‘sishi, moddiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir, chunki ko‘plab xizmat ko‘rsatish sohalari sanoat sektori dinamikasiga juda bog‘liqdir.

Bell yuqori malakali ijodiy elita hukmronligini e’lon qilib, kapitalistik mulk munosabatlarini transformatsiyalashuvi sababli postindustrial jamiyatda sinfiy qarama-qarshiliklar mavjudligini inkor qiladi. Bu esa hozirgi vaqtda kapitalni uning egalaridan ajralishi tufayli insonlarga o‘zligini nomoyon qilishga, tashabbuslar ko‘rsatishga va shaxs komoloti uchun ko‘proq erkinliklar yaratadi. Biroq, shu bilan birga, muallif gorizontal va vertikal vaziyatlar tushunchasini kiritadi, ular sinfiy tuzilmaning boshqa turini – hukmron sinf professional malakali elitani ifoda etuvchi meritokratiya va past malakali qo‘l mehnatiga asoslangan ishchilari sinfini aks ettiradi. Shunday qilib, sinfiy tengsizlikning bir turidan (kapitalist – yollanma ishchi) uzoqlashib, Bell boshqa turga (yuqori malakali ishchi – past malakali ishchi) o‘tadi, agarda ijodiy kasbiy elitaning tarkibiga kirmagan ishchi, postindustrial jamiyat realliklarida muvaffaqiyatga erishish imkoniyati deyarli yo‘q..

Postiqtisodiy konsepsiya tarafdorlari singari, postmodernizm tarafdorlari ham sof iqtisodiy rag‘batlardan ajralgan holda ijtimoiy qadriyatlarga, ommaviy madaniyat va standartlashtirishni yengib o‘tishga, shaxsning ahamiyatini oshirishga va uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta ahamiyat beradilar. Postindustrializmdan farqli o‘laroq, postmodernizm rivojlanishning texnologik omillariga emas, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik transformatsiyasiga e’tibor beradi.

Boshqa bir amerikalik sotsiolog Y. Toffler ham Bell kabi ijtimoiy taraqqiyotdagi davrlarni ajratib ko‘rsatadi, ulardagi o‘rin almashuvini, xuddi yangi to‘lqinlarning kelishi sifatida tavsiflaydi [6]. Toffler o‘zining to‘lqin nazariyasi doirasida rivojlanishning uchta to‘lqinini aniqlaydi, ularning har biri texnologik inqilobni ifodalaydi. Shunga ko‘ra, birinchi to‘lqin, agrar sivilizatsiya o‘z o‘rnini industrial sanoat davriga bo‘shatib berdi, yangi uchinchi to‘lqin esa jamiyatning demassifikatsiyasi, mahsulotlarning destandartizatsiyasi, ommaviy bozorni mini bozorlar tarmog‘iga serviz va mahsulotlar differentsatsiyasini o‘sishi natijasida inson ehtiyojlarining turli-tumanligini o‘sishi bilan tavsiflangan superindustrial sivilizatsiyaning kelishini belgilab berdi. Mehnat bozorida ham bo‘linish va yangi kasblarning paydo bo‘lishi, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasida. Jamoa bilan aloqa elektron aloqa (elektron kottej”) orqali amalga oshirilganda uyda bandlik kengayib bormoqda. Muallif, shuningdek, korporatsiyalarni yangi sharoitlarda tovarlarning asosiy ishlab chiqaruvchilari sifatida o‘zgartirishga e’tibor qaratadi, ular atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish, mehnatni insonparvarlashtirish va boshqalar uchun yangi talablarga moslashishi kerak.

Amerikalik iqtisodchi J. Gelbreyn yangi texnologiyalarning keng qo‘llanilishi va buning natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashishi munosabati bilan bunday malakali mutaxassislarning roli ortib borayotganini qayd etadi. J. Gelbreyn o‘zining “Yangi industrial jamiyat” [7] asarida korporatsiyadagi barcha hokimiyatni kapital egalari emas, balki texnotuzilma egallashini ta’kidlaydi. Bu korporatsiyaning miyasi bo‘lgan, muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etadigan, tashkilot faoliyatini rejalashtiradigan va muvofiqlashtiradigan menejerlar timsolidagi individual shaxslar emas, balki mutaxassislar guruhidir.

M.Kastels “axborot jamiyati” dan farqli ravishda “axborotlashgan jamiyat” atamasini kiritib, ular o‘rtasidagi farqni belgilab berdi [8]. Gap shundaki, muallifning fikricha, axborot almashish va undan foydalanish barcha insonlar sivilizatsiyalarga xos bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning oasosiy omilidir. Industrial jamiyat o‘rniga kelgan axborotlashgan jamiyatining asosiy xususiyati unda inson hayotining barcha sohalarida axborot va bilimlarning rolini kuchayib borishi bo‘lib, bu ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning o‘zgarishiga olib keldi, masalan: mehnat “elektron kottejlar” deb ataladigan tarmoq aloqasi tufayli amalga oshirilganda, to‘liqsiz bandlikni yoki uyda ish bilan ta’minlanganlik ulushining o‘sishiga olib keldi . Shu munosabat bilan muallif zamonaviy jamiyatni tarmoqli, internetning tez tarqalishi muhim rol o‘ynaydigan jamiyat deb atadi. Axborotlashgan jamiyat yangi tarmoq tuzilmalarida milliy o‘ziga xoslikka zid keladigan globallashuv jarayonlari natijasida vujudga keldi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida yuqori fan sig‘imli texnologiyalar asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [9]. Zero, bugungi kunda deyarli barcha, iqtisodiyoti rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar o‘z iqtisodiyotlarini raqamli iqtisodiyotga qisqa davrlarda o‘tkazish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar va chora-tadbirlarni faol tarzda amalga oshirishmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishning dastlabki davrida ommaviy axborot vositalarini keng qo‘llab-quvvatlash, ularni himoya qilish, davlat idoralarida axborot xizmatlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish maqsadida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkil etilgan edi [10].

Buning asosi sifatida, raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning muhim ko‘rsatkichlari bo‘lgan raqamli texnologiyalar bozorlarining rivojlanish prognozi, investitsiyalar amalga oshiriladigan texnologiyalar, aholiga axborot texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatishni yaxshilash hamda uy xo‘jaliklarining internetdan foydalanish imkoniyatlari tahlillari aksariyat mamlakatlar bo‘yicha ijobiy tendensiyalar kuzatilganligini belgilash mumkin [11].

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish davrida, yetakchi davlatlar xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatish uchun xizmatlar sohasini yanada jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu sohada aholining barcha qatlamlarini qamrab olinishi va barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri – aholining bandligi, qashshoqliqga barham berish, insonlarning oshib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va boshqalar borgan sari dolzarbligini ko‘rishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyot platformalari tuzishda asosiy e’tiborni quyidagi yo‘nalishlarga qaratish zarur: telekommunikatsiyalar, energetika, transport, sog‘likni saqlash, soliq va soliqqa tortish, dori-darmonlar logistikasi, ma’lumotlarni qayta ishlash, turizm, tashqi iqtisodiy faoliyat, ko‘chmas mulk savdosi va ishlab chiqarish. Aynan shu sohalarning rivojlanishi infratuzilma va texnologik bazis yaratishga imkon beradi. Olimlarning fikricha, 2022-yilga kelib, YaIMning chorak kismi raqamli sohada bo‘lishi taxmin kilinmokda [12].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasining jadal sur’atlarda rivojlanishi natijasida aholi farovonligini ta’minlash va ish bilan bandlik masalalarini hal qilish imkoniyati yaratilmoqda. Shu munosabat bilan xizmatlar sohasining istiqbolda rivojlanishi hamda yalpi ichki mahsulot hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tarmoqlariga alohida e’tibor qaratilmoqda [13].

Yangi texnologik bazisni shakllantirish milliy iqtisodiy taraqqiyotimizni ta’minlashning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. “Albatta, biz eski tizimni batamom o‘zgartirib, o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadga to‘liq erishdik, deb aytishga hali erta. Takror aytaman, biz har kuni izlanishdamiz. Bu yo‘lda dastlabki qadamlarni qo‘ymoqdamiz, xolos. Lekin “Bu o‘zgarishlar – vaqtinchalik kampaniya, o‘tadi-ketadi”, deganlar yanglishadi” [14]. So‘nggi ikki o‘n yillikda texnik-texnologik rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar sohasining sanoat sohasidan ustuvorlik qilish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2020-yilda jahon YaIM tarkibi quyidagicha: qishloq xo‘jaligi – 6,4%, sanoat sohasi – 30%, xizmat ko‘rsatish sohasi – 63%. Ko‘pchilik texnik-texnologik rivojlangan mamlakatlarning YaIM ushbu tendensiyaga mos keladi [15]. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshiradigan yuqori ishlab chiqarish texnologiyalari va xizmat ko‘rsatish sohalarini o‘z ichiga kamrab olgan yangi sanoat tarmoqlari va korxonalarini barpo etish uchun zarur sharoit yaratishga yo‘naltirilgan.

Xulosa qilish mumkinki, postindustrial jarayonlar faqat yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarga xos bo‘lib, uni barcha iqtisodiyotlar uchun dunyoning umumiy manzarasi sifatida qo‘llash mumkin emas, chunki kimdir dunyoni iste’moli faqat o‘sib borayotgan sanoat tovarlari bilan ta’minlashi kerak. Shu munosabat bilan neoindustrializm rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng muvaffaqiyatli konsepsiya hisoblanadi. Shunga ko‘ra, turli mamlakatlar uchun zamonaviy iqtisodiyot turli yo‘llar bilan tavsiflanadi – ba’zi mamlakatlar uchun u ko‘proq postindustrial (AQSh va Buyuk Britaniya), boshqalar uchun esa nisbatan neoindustrial (Germaniya, Yaponiya), boshqa uchichi guruxlari uchun esa u yana industrial (Xitoy, Janubiy Koreya) bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, zamonaviy iqtisodiyot axborot yoki raqamli sifatida tavsiflash mumkin, chunki ularning xususiyatlari deyarli barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun umumiydir. Xizmat ko‘rsatish sohasi asta-sekin zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin egalladi, bunda asosiy e’tibor mashinadan shaxsga, uning ijodiy salohiyatiga va u yaratishga qodir bo‘lgan bilimga o‘tdi, bu iqtisodiy rivojlanish uchun asos bo‘lgan, ilm-fan va innovatsiyalardir. Axborot texnologiyalari ta’limning ahamiyatini oshirdi va shu bilan ishchi kuchi sifatining yaxshilanishiga, malakali kadrlar sonining o‘sishiga yordam berdi, shu jumladan ishlab chiqarish jarayoniga va butun jamiyat farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko‘rsatish sohasining tarixiy rivojlanishini tahlil qilish uning jahon iqtisodiyotida takror ishlab chiqarish jarayonidagi rolini sezilarli darajada oshganligini nomoyon qildi, bu bir necha davrlar mobaynida, bozor iqtisodiyotining boshlang‘ich davrida uni ishlab chiqarish sohasidan deyarli butunlay chiqarib tashlangandan, yuqori fan sig‘imli xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini iqtisodiy o‘sishning asosiy katalizatorlari va zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanish asosi sifatida tan olishgacha transformatsiyalashib bordi.

XX asrning oxirida “axborot inqilobi” bilan bog‘liq, texnologik uklad, iqtisodiy rivojlanishda jismoniy kapital jamg‘arilishi bilan birga inson kapitali va bilimni rolini o‘sishi va o‘zida shu bilan birga, ta’lim sektori va ITTKI, professonal, axborot va biznes xizmatlari va boshqalar bilan birga xizmat ko‘rsatish sohasini kengayishiga turtki berdi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi va shu bilan birga ilm-fan, bilim va axborot, post-industrializm, neo-industrializm, axborot jamiyati nazariyasi va bilimlar jamiyati kabi turli xil xozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyalarda markaziy o‘rinni egallamoqda.

Xizmatlar mazmunini transformatsiyasi tahlili zamonaviy voqeliklar va iqtisodiy rivojlanishda xizmat ko‘rsatish sohalarining roli ortib borayotgan tendensiyalarga muvofiq ularni idrok etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlari iqtisodiy o‘sish va ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga miqdor va sifat jihatdan ham eng katta hissa qo‘shmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish turli-xil xizmat ko‘rsatish sohalarining tez o‘sishiga olib keldi. Shu munosabat bilan bunday turli xil faoliyat turlari uchun “xizmat” tushunchasini aniqlash muammosi vujudga keldi.

Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, xizmatlarni muayyan guruhlarga birlashtirishning asosi bo‘lib mahsulotni, ishlab chiqarishni va ijtimoiy jarayonlarni, insonlarni fazoviy, vaqt va sifat jihatdan holatini o‘zgarishi mezonidir.

Moddiy ishlab chiqarishdan farqli o‘laroq, xizmat ko‘rsatish sohasida jarayonning o‘zi xizmat ko‘rsatishning natijasidir. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish jarayoni bevosita obyekt yoki shaxsning holatini uchta darajada – sifat, makonda va zamonda o‘zgartirishdan iborat. Shuning uchun xizmat tushunchasini inson faoliyati jarayoni sifatida aniqlash mumkin, bu esa xizmatni taqdim etish jarayonida obyekt yoki shaxsning sifat, fazoviy yoki vaqt bo‘yicha holatini o‘zgarishidan iborat turli darajadagi tanglik holatidan foydali ta’sirini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fisher A.G.B. (1939). Production, primary, secondary and tertiary. Economic Record 15.1, p. 24–38.
2. Clark C. (1957). The Conditions of Economic Progress. 3rd ed. L: MacMillan&Co Ltd, 720 p.
3. Легостаев В. М. Наука в рамках технократической утопии Жана Фурастье/ В. М. Легостаев//Вопросы философии. – 1974. – № 12.
4. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.
5. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования/пер. с англ. под ред. В. Л. Иноземцева. – М.: Academia, 1999. – С. 157.
6. Тоффлер Э. Третья волна / пер. с англ. К.Ю. Бурмистрова [и др.]. – М.: АСТ, 2009. – 795 с.
7. Гэлбрейт Дж. Новое индустриальное общество/пер. с англ. – М.: ООО “Издательство АСТ”: ООО “Транзиткнига”; СПб.: Terra Fantastica, 2004. – 602 с.
8. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / пер. с англ. под науч. ред. О.И. Шкаратана. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 608 с.
9. Toshmatov Sh. A. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish zaruriyati: prognoz va risklar. “Raqamli iqtisodiètni shakllantirishning xorij tajribasidan samarali foydalanish yo‘llari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiyamaliy konferensiya materiallari., T.: TMI. 2020 yil. -B.22.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi// Xalq so‘zi, 2020 yil 29 dekabr.
11. Abduvaliyev A. A. Jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari tahlili. Iqtisodiyot va ta’lim jurnali 2020 y. №3. –B.42.
12. Axunova M. X Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamlashtirishning ahamiyati. Iqtisodiyoni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar: muammolar, yechimlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari 2021-yil 28-may. / Farg‘ona, “AL-FERGANUS” nashriyoti – 2021. –B.17.
13. Xonkeldiyeva G. Sh., Muminova E. A., Mirzayev A. T., Asraqulov A. A. O‘zbekistonda xizmatlar sohasi: zamonaviy holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari: Monografiya. – Toshkent , “Navro‘z”, 2020. 162 bet.
14. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharririga bergan intervyusi. https://daryo.uz/k/2021/08/17/
15. The World Factbook 2020. Central Intelligence Agency [Electronic resource].- URL: https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook.



QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH

Ergashova Nargiza Boboxonovna
TDIU Ikkinchi Oliy ta’lim Iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: maqolada qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishini rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashda tizimli tahlil va raqamli texnologiyalardan foydalanib empirik modelini qurish, prognoz qilish mexanizmlarining nazariy asoslari takomillashtirilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashda asosiy ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, yoki umumiyroq aytganda, mavjud potentsialdan foydalanish darajasi baholangan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, empirik model, ekonometrik model, potensial, nisbiy model, prognoz natijalari, axborot tizimi, endogen o‘zgaruvchilar, ekzogen o‘zgaruvchilar.

Аннотация: в статье совершенствуются теоретические основы построения эмпирической модели и механизмы прогнозирования с использованием системного анализа и цифровых технологий обеспечения макроэкономической устойчивости развития сельскохозяйственной продукции. Также оценивался уровень эффективного использования основных производственных ресурсов, или в более общем плане уровень использования имеющегося потенциала, в обеспечении макроэкономической устойчивости развития производства сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: Цифровая технология,эмпирическая модель модонометра,потенциал,относительная модель,результаты прогноза,информационная система.

Abstract: in the article, the theoretical foundations of the empirical model construction and forecasting mechanisms using systematic analysis and digital technologies to ensure the macroeconomic stability of the development of agricultural products are improved. Also, the level of effective use of the main production resources, or more generally, the level of use of the existing potential, in ensuring the macroeconomic stability of the development of the production of agricultural products was evaluated.

Key words: Digital technology,empirical modometer model,potential,relative model,forecast results,information system,endogenous variables,exogenous variables.

KIRISH

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar doirasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-martdagi “Agrar va oziq-ovqat sohalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4643-sonli Qarori, 2019-yil 25-oktyabrdagi PQ-4499-sonli Qarori, 2021-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish” to‘g‘risidagi PF-6159-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi, shuning-

dek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash sohasida yillik inflyatsiya darajasini 2022-yildagi 9 foizdan 2023-yilgacha 5 foizga bosqichma-bosqich pasaytirish, shuningdek, 2023-yildan boshlab yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshmasligi kerak bo'lgan davlat byudjeti taqchilligini kamaytirish ko'zda tutilmoqda. Dasturiy byudjetlashtirish tizimiga o'tish ham rejalashtirilgan. Fuqarolik byudjeti qabul qilinib, aholi takliflaridan kelib chiqib, har bir tuman byudjetining 5 foizi dolzarb masalalarni hal etishga yo'naltirilgan [13, 14].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish zaruriyatining ahamiyati, uning ishlab chiqarish hajmiga ta'siri tadqiq etilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish zaruriyatining asosiy jihatlari ekonometrik tahlil etilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni uchun ishlab chiqiladigan empirik modellarda, ularning tarkibiy o'zgaruvchilarini aniqlash asosiy vazifalardan biridir. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning bitta tarmog'i hisoblansada, uning o'zi ham bir-biriga bog'liq xususiy tarmoqlardan tashkil topgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining katta ulushi to'g'ridan to'g'ri iste'molga yo'naltirilganligi uning tarkibiy xavfsizligini ta'lab etadi. Masalaning nozik jihati shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tovar mahsulot sifatida realizatsiya qilinishi ma'lum standart ta'lablariga mos kelishini ta'qoza etadi. Ekonometrik modellashtirish apparati mahsulotning bozor iqtisodiyotida barqarorlik qonuniyatlarini miqdoriy o'zgarishlarga asoslanib aniqlash va zaruriy sifat o'zgarishlarini oldindan belgilash imkoniyatlarini yaibrat beradi. Qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqarishni o'zgarib turuvchi raqobat muhitida va bozor sharoitlarini hisobga olib, ularning mohiyati hamda qonuniyatlarini chuqur tahlil qilishda ekonometrik usullar va modellardan foydaniladi. Ular yordamida prognozlash, ko'p variantli yechimlardan muqobil yechimni tanlash, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida optimal boshqarish qarorlarini qabul qilish kabi bir qator masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda ekonometrik modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODLARI

Qishloq xo'jaligi juda murakkab tizim hisoblanadi [4]. Shu sababli QXMICh jarayoni uchun matematik tavsif tuzish, barcha bog'liqlarni analitik ifodalash mumkin emas. Bu murakkablikni oddiy qora quti sxemasi yordamida oddiylikga keltirish mumkin. Bu esa, jarayonga ta'sir etuvchi omillarni kirish elementlari sifatida olib, tizimning chiqish elementi o'zgarishini miqdoriy jihatdan kuzatish imkoniyatini beradi. Bu yerda QXMICh ni rivojlantirishda modellashtirish zaruriyati kelib chiqishini ko'rishimiz mumkin. Makroiqtisodiy modellashtirish yordamida QXMICh ni rivojlantirish qonuniyatlarini miqdoriy baholashimiz, iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarish tendensiyalarini aniqlash asosida rivojlanish va prognozlash yo'llarini belgilashimiz mumkin bo'ladi[9].

Ekonometrikada nisbiy model tushunchasi yalpi mahsulot (U)ning korxonadagi resurslar sarfi (x_1, x_2, ..., x_n) ga bog'liq bo'ladi va u $Y = F(x_1, ..., x_n)$ ko'rinishda yoziladi [5]. Bu yerda (x_1, x_2, ..., x_n) – erkin o'zgaruvchilar – omillar deb yuritiladi. Agar nisbiy modelda kirish omillari resurslar sarfi bo'yicha tanlansa, u holda bu ishlab chiqarish funksiyasini ifodalaydi. Lekin iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar faqat resurs sarfi bilan cheklanib qolmaydi. Iqtisodiyotning shunday tarmoqlari mavjudki, unda nisbiy modelni keng ko'lamli omillar bilan berishga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning optimal variantlarini izlash, odatda resurs ta'minotiga borib taqaladi [6]. Resurslarni boshqarish asosida ishlab chiqarishni tashkil etish bugungi kunda takomillashtirilmagan. Bunga sabab, matematik programmalashtirish usullarini qo'llashda hisoblash murakkabligi, masalalarning tsiklik tabiati va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Bu yerda takomillashtirish bizningcha matematik programmalashtirish apparatini qo'llashda chekli variantlilikga asoslanishi zarur.

Rivojlangan xorij mamlakatlari tajribasini istiqbolda joriy etish va istiqbolda qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqarishni ekonometrik modellar asosida samaradorligini oshirish imkoniyatlariga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqildi [10].

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarishni miqdor va sifat jihatdan yaxshilash muammolarini yechish dolzarbligini, jamiyatning birlamchi ehtiyojlarini qondirish masalasaning dorzarbligi bilan asoslash mumkin. Bu uning iqtisodiyot tarmoqlari orasida ajralib turish xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqarish jarayoni o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Shu qonuniyatlar qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqarishning ekonometrik modellari tarkibiy qismini boshqa tarmoqlar iqtisodiy jarayonlarining nisbiy modellaridan farqlaydi va qishloq xo'jaligi iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zaro aloqasi asosida ifodalanadi. Ishlab chiqarish hajmi – yalpi

mahsulot Y nafaqat ishlab chiqarish jarayonidagi resurslar sarfiga bog‘liq bo‘lib qoladi, balki bu yerda ko‘pgina omillar ishtiroki kuzatiladi. Demak, nisbiy modelni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Y = F(X_1, X_2, ..., X_k) \quad (1)$$

Bu yerda X_i – i-tur omillar to‘plami.

QXMICh ni rivojlantirishning ekonometrik modellarini qurishning zamonaviy nazariyasida (1) tenglamaning amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida, ya’ni juda murakkablik holatidan chiqishni ta’minlash uchun X_i omillar to‘plami yordamida yaxlit X – erkli o‘zgaruvchilar to‘plamini shakllantirishga to‘g‘ri keladi. Bunda X to‘mlam X_i to‘plamlarning matematik kesishmasi ma’nosida emas, balki har bir to‘mlam elementlarining o‘zaro bog‘liqlik nuqtayi nazaridan tanlanadi.

$$Y = F(X = \{x_j^{(i)}, j = \overline{1, n}; i \le k\}) \quad (2)$$

Bu yerda n – tanlangan omillar soni.

QXMICh jarayonida ta’sir etuvchi ko‘p sonli omillar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan ko‘proq tasodifiy xarakterda ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli (2) tenglama stoxastik bog‘liqliklarni ifodalaganda quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$Y = F(X) + \varepsilon \quad (3)$$

Bu yerda ε – empirik model xatoligi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni uchun ishlab chiqiladigan empirik modellarda, ularning tarkibiy o‘zgaruvchilarini aniqlash asosiy vazifalardan biridir. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning bitta tarmog‘i hisoblansada, uning o‘zi ham bir-biriga bog‘liq tarmoqlardan tashkil topgan. Unda xarakterlangan har bir ko‘rsatkichlarning alohida xususiyatlanishi kam uchraydi, ya’ni o‘zaro aloqadorligi bo‘lmagan tushunchalar kam kuzatiladi. Shu sababali, ularning qiymatlanishida ham ko‘pincha natijaviy miqdorlar ishlatiladi. Bu esa model tarkibiy elementlari (o‘zgaruvchilarni) aniqlashda yetarlicha muammo tug‘diradi. Shuning uchun bizningcha, makroiqtisodiy modellarni qurishda omillar guruhini alohida shakllantirib olish kerak [9].

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligining istiqboldagi rivojlanish qonuniyatlarini yangicha yondoshuv va ko‘p variantli modellashtirish usullari bilan tadqiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqarishni ekonometrik modellashtirishda jarayonning tizimli yondoshuv asosida asosiy masalalarini farqlash va natijaviy komponentlarni umumlashtirish zarur. Ayni vaqtda modellashtirish hududini komplekslashtirish uchun quyiladigan muammolarni to‘rtta asosiy maqsadga birlashtiramiz. Bunda tashkil etuvchilar sifatida optimallashtirish, ishlab chiqarish potensialini aniqlash, ishlab chiqarish tizimining barqarorligini ta’minlash va ko‘p omilli ekonometrik modellashtirish masalalarini farqlaymiz [10].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqarishda optimallashtirish tushunchasining turli talqinlari mavjud bo‘lib, mazkur tadqiqot ishimizda AKT dan foydalangan holda uchta holat uchun hal qiluvchi apparat sifatida foydalandik [12].

1-holatda optimallashtirish tushunchasi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda eng kichik birlikning, ya’ni ishlab chiqaruvchi subyektining (bizning holda fermer xo‘jaligi tanlangan) ishlab chiqarish resurslariga bog‘liq mahsulot yetishtirishdan maksimum foydasini maqsad qilgan faoliyatini rejalashtirishni xarakterlaydi.

2-holatda viloyat miqyosida asosiy ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, yoki umumiyroq aytganda mavjud potensialdan foydalanish darajasini baholash orqali qiymatlanadigan ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi.

3-holatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqarishning ekonometrik modellarini taqqoslashda alohida mazmunga ega bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayonini urganishning muhim masalalaridan biri tizimli yondoshuvdir [11]. Tizimli yondoshuvning ahamiyati shundaki, mavjud muammolarni va ularni keltirib chiqaradigan sababalarni tizimli tahlil qilinganda, yakuniy qaror qilish uchun tarmoqdagi muayayan bir iqtisodiy jarayonni kuzatishning o‘zi yetarli emas. Masalan, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i respublika miqyosida tadqiq etilgan tadqiqotlarda ishlab chiqarish funksiyasidan foydalaniladi. Bunda Kobb-Duglas[1] shaklidagi ishlab chiqarish funksiyasidan mehnat resurslari va kapital sarfi bo‘yicha qurilgan model asosida birlamchi xulosalar olish bilan cheklanishadi. Prognoz ko‘rsatkichlarini hisoblashda, faqat kapital va mehnat resursidan foydalanilgan modellar yuqori adekvantlikga ega bo‘lsada, erishilgan natijalarni yuqori aniqlikda deb xulosalash mumkin emas. Zamonaviy modellashtirishda Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish samaradorligi bilan belgilanadigan texnik ishlab chiqarishning vaqt davomida o‘sish tendensiyasini texnik jarayonlar bilan bog‘langan shakliga ega bo‘ldi[2].

1 Cobb, G.W. A theory of production /G.W. Cobb, P.H.Douglas // Amer. Econ. Rev.,1928,March, Supp.1., p.139– 165.
2 Alimov R. X., Boltayeva L. R., Ishnazarov A. I. Ekonometrika-2. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”, 2012. – 115-b.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishini rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri – bu mavjud potensialdan foydalanish samaradorligini oshirishdir. Lekin bu yerda asosiy masala – bu ishlab chiqarish potensialini bitta modelda ifodalash va u orqali potensialdan foydalanish samaradorligini aniqlashdir. Bu masala butun bir bir mintaqa miqyosida ko‘riladigan bo‘lsa jarayon yanada murakkablashadi. Shuningdek, modelning erkli o‘zgaruvchilarini tanlash, ya’ni potensial tarkibiy elementlarini aniqlash yetarlicha muammolarni keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda, shunday modelni ishlab chiqish mumkin bo‘lsinki, bu model qishloq xo‘jaligi qonuniyatlarini tavsiflay olsin hamda model shunday erkli o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga olishi kerakki, bu o‘zgaruvchilar o‘zaro tizimli bog‘langan holda ishlab chiqarish jarayonida asosiy rolga ega bo‘lgan alohida omillarning qiymatini ifodalasin.

Biz asosiy ishlab chiqarish resurslarini tanlab, ularning xarajatlari ortishi ehtimolligi mavjudligini hisobga olib, kinetik ishlab chiqarish funksiyasining umumiy ko‘rinishini ishlab chiqdik hamda Qashqadaryo viloyati uchun bu funksiyaning xususiy modellarini qurdik. Shuningdek, Kobb-Duglas tipidagi ishlab chiqarish funksiyasidan hech qanday xarajatlar ortishi mavjud bo‘lmagan holdagina foydalanish mumkinligini aniqladik.

Biz taklif etgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun kinetik ishlab chiqarish funksiyasining umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘lib, ya’ni

$$Y_k = \frac{A_k \cdot Y}{a_0} = A_k \cdot \prod_{j=1}^{n} x_j^{\alpha_j} \cdot e^{a_j x_j} \tag{4}$$

tenglik bilan ifodalanadi. (4) ga asosan, xususiy holatda viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda mavjud potensialdan foydalanish samaradorligini baholashda quyidagi modeldan foydalandik

$$Y_k = \frac{A_k \cdot Y}{a_0} = A_k \cdot \prod_{j=1}^{4} x_j^{\alpha_j} \cdot e^{a_j x_j} \tag{5}$$

Bu yerda Y quyidagi tenglamadan aniqlanadi

$$\ln(Y) = \ln(a_0) + \sum_{j=1}^{4} a_j x_j + \sum_{j=1}^{4} \alpha_j \ln(x_j) \tag{6}$$

Shuningdek, x1 – qishloq xo‘jaligi yer maydoni (ming ga); x2 – o‘rtacha ishchilar soni; x3 – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o‘rtacha qiymati; x4 – aylanma mablag‘lar miqdori (mlrd so‘m); Y – qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulot hajmi (mlrd so‘m).

(5) modelda α_j - j-erkli o‘zgaruvchining elastikligi (j = 1, 2, 3, 4), a_j – j-omilning 1 foiz o‘zgarishiga (oshishiga) natijaviy kattalikning shu omil miqdoriga nisbatan o‘zgarishini (oshishi yoki kamayishi) ifodolovchi koeffitsiyent (j = 1, 2, 3, 4), a_0 – proporsionallik koeffitsiyenti. Proporsionallik koeffitsiyenti asosiy modelda hech qanday mazmunga ega bo‘lmaydi (qatnashmaydi).

(6) chiziqli tenglamaning tarkibiy tuzilmasiga e’tibor berilsa, uning tarkibidagi xj resurs o‘zining logarifmik qiymati bilan birga keladi. Amaliy jihatdan, agar ishlab chiqarish resurslaridan qaysi birida nomutanosiblik holati kuzatilsa, (6) modelda bu resurs o‘zining logarifmik qiymati bilan birga keladi. Bu holatda resurs sarfini kamaytirish yoki oshirish talab etiladi. Buni quyidagi munosabatda ifodalash mumkin

$$\boldsymbol{c = \alpha_j + a_j x_j, \qquad j = 1, 2, ..., 4.} \tag{7}$$

Agar, (7) da α_j nolga teng bo‘lmasa, ishlab chiqarish hajmi (Y)ning o‘sishiga yetarli j-resurs miqdorining optimal holati α_j/a_j nisbat bilan aniqlanadi.

Agar (7) da $a_j x_j$ ko‘paytma nol qiymatga teng bo‘lsa, j-resursning 1 foizga ortishi Y ning to‘g‘ridan to‘g‘ri α_j foizga ortishini bildiradi (α_j har doim musbat bo‘lishi kerak).

Agar α_j nolga teng bo‘lsa, u holda j-resursning 1 foizga ortishi Y ning to‘g‘ridan to‘g‘ri $a_j x_j$ foizga ortishi (yoki kamayishi) ni bildiradi. Aniqroq aytganda $a_j x_j$ manfiy aniqlansa, resurs miqdorining oshishi undan foydalanishning samaradorligining pasayishi bilan birga kelib (resursdan foydalanish samaradorligi o‘rtachan past), j-resursning 1 foizga ortishi Y ning to‘g‘ridan to‘g‘ri $a_j x_j$ foizga kamayishini ifodolaydi. Shuningdek, (5) modelda har bir resurs ishtirok etadi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2 - r a s m: Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish potensialidan foydalanish samaradorliginibaholash masalasini yechish algoritm blok-sxemasi

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish potensialidan samarali foydalanish darajasini baholash masalasini yechish algoritmini tasvirlashimiz mumkin (2-rasm). Keltirilgan algoritm chiziqli turda bo‘lib, bu uning yanada tushinarli bo‘lishligiga sabab bo‘ladi. Masalani yechish jarayonida ma’lum shartlar va takroriy amallar kuzatilsada, bu har bir algoritm qadamining ichida bajariladigan kichik jarayon bo‘lganligi uchun alohida ahamiyat kasb etmaydi. Bu esa modellashtirish jarayoni chiziqli algoritm asosida borishini bildiradi.

Tadqiqotda Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaliklarini rivojlantirishning SWOT-tahlili olib borilgan (1-jadval).

1 - j a d v a l: Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaliklarini rivojlantirishning SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
• qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun maxsus qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning o‘tkazilayotganligi va huquqiy asoslarining yaratilganligi; • qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun alohida “Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida” gi Qonunning qabul qilinganligi; • Qonun asosida – yer va mulk egasi bo‘lib shakllanganligi; • qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik shakliga kirishi va bunda jamiyatning bosh bo‘g‘ini xalq manfaati qondirilayotganligi; • dehqon va fermerlarda yer bilan ishlash ko‘nikmasi to‘liq shakllanib bo‘lganligi; • mayda tovar ishlab chiqaruvchi xo‘jalik sifatida tez moslashuvchanligi, bankrotlikka moyil emasligi; • faoliyatining daromad olishga qaratilganligi.	• qishloq xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun zaruriy iqtisodiy mexanizmlarning takomillashmaganligi; • bugungi kunda qishloq xo‘jaliklari uchun aniq tartibga solingan, qulay ta’minot tizimi mavjud emasligi; • qishloq xo‘jaliklarini zaruriy resurslar bilan ta’minlash asosan xususiy shaxslar tomonidan amalga oshirilayotganligi; • qishloq xo‘jaliklarining sifatli resurslarni olishga bo‘lgan imkoniyatining cheklanganligi; • qishloqlarning iqtisodiy savodxonligini oshirishga qiziqishi sustligi, ular yer bilan ishlashni bilsak, shuning o‘zi yetarli deb bilishi va natijada: • yuridik maqomdagi qishloq xo‘jaliklari sonining kundan-kunga kamayib borayotganligi. • zaruriy texnika vositalarining yetishmasligi, boshqa xo‘jalik subyektlari bilan o‘zaro kooperatsiya munosabatlarining buzilganligi, yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish tizimining yo‘qligi.

Imkoniyatlar	Tahdidlar
• qishloq xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining oshishi natijasida qishloq aholisining qiziqishi ortib borayotganligi; • qishloqda band bo‘lgan aholi sonining qishloq xo‘jaliklari hisobiga ko‘payayotganligi; • mahalliy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatining ko‘payayotganligi; • chorvachilikka ixtisoslashgan qishloq xo‘jaliklarining sifat ko‘rsatkichi doimiy ravishda yuqoriligi; • davlat tomonidan uzluksiz ravishda qishloq xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar, dasturlar qabul qilinayotganligi.	• qishloq xo‘jaligi sohasidagi biznes bilan shug‘ullanuvchilar sonining ortib borayotganligi; • qishloq xo‘jaliklarining shaxsiy tomorqa va aholi xo‘jaliklari bilan doim yonma-yon, birgalikda talaffuz etilishi, bu esa uchala xo‘jalikni ham bitta qilib birlashtirilgan holda olib borish mumkin degan xulosaga olib borayotganligi; • qishloq manfaatining “chayqovchi” larning hisobiga salbiy ravishda, qisman qondirilayotganligi; • cho‘l zonalarida qishloq xo‘jaliklari sonining keskin kamayib borayotganligi.

SWOT-tahlili orqali viloyat qishloq xo‘jaliklarini tashkil etishda nimalarga e’tibor qaratish lozimligini, oila, jamiyat va davlat manfaatini qondirishda qishloq xo‘jaliklarining ahamiyatini tushunib olish mumkin bo‘ladi. Jumladan, qishloq xo‘jaligini tashkil etmoqchi bo‘lgan fuqarolarimiz qishloq xo‘jaligini davlat o‘z himoyasiga olganligini, huquqiy asos mavjudligini, tanlagan ish faoliyati orqali oilasining ham, aholining ham manfaatini qondirayotganligini bilgan holda o‘z ishini boshlaydilar. SWOT-tahlili natijalari viloyatda faoliyat yuritayotgan boshqa qishloq xo‘jaliklariga o‘z raqiblari holatini bilish uchun ham yordam beradi, chunki tahlilda qishloq xo‘jaliklari o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari va xavf solayotgan tahdidlarini ham sanab o‘tadilar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Qishloq xo‘jalik mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishini baholash uchun trend modellari ishlab chiqildi. Rivojlanishni baholash uchun, mintaqaning ishlab chiqarish salohiyati ko‘rsatkichi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning tarmoqlararo nisbiy dinamikasi ko‘rsatkichi, barcha toifalar bo‘yicha tarkibiy dinamikasi ko‘rsatkichi, yordamchi dehqon xo‘jaliklarining jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushining o‘zgarish tendensiyasi ko‘rsatkichi, viloyat dehqonchilik xo‘jaliklarining barcha toifalar bo‘yicha jami sabzavot mahsulotlarini yetishtirish hajmiga nisbatan ulushining o‘zgarish dinamikasi ko‘rsatkichi, kartoshkaning hosildorlik koeffitsiyentini o‘zgarish dinamikasi ko‘rsatkichi, ixtisoslashuv koeffitsiyenti ko‘rsatkichi tanlab olindi.

Mintaqaning ishlab chiqarish salohiyati ma’lum bir tur mahsulotlar bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining respublika miqyosida shu turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmidagi ulushiga asoslanib aniqlanadi. Shuningdek, bu ko‘rsatkich ma’lum bir davrlar oralig‘ida kuzatiladi. Demak, Qashqadaryo viloyatining QXMICh salohiyatini baholashda, ko‘p yillik o‘tgan davrlar (yillar) dagi ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining mos davrlar (yillar) dagi respublika miqyosida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmidagi ulushlari miqdoriga asoslanamiz.

O‘tgan vaqtlar ichidagi ulush ko‘rsatkichi viloyatning erishgan ishlab chiqarish salohiyati haqida xulosa chiqarishni ta’minlaydi, ammo u kelgusi holatni aks ettirmaydi. Buning uchun, ishlab chiqarishga joriy qilingan amaldagi tamoillar, ustuvor yo‘nalishlar, harakat mexanizmlari asosida rivojlanish chizig‘i qaysi qonuniyat asosida davom etishini bilish kerak. Bu qonuniyatlarning dinamik xususiyatga ega bo‘lishi, uning dinamik modellarda ifodalanishini bildiradi Shu sababali viloyat QXMICh salohiyatini keyingi qadamlarda baholash uchun trend modellardan foydalanamiz.

Bu ko‘rsatkichning ahamiyati QXMICh ni rivojlantirish modellari yordamida prognoz qilishda natijaviy kattalikni xarakterlaydi.

Viloyat QXMICh hajmining respublika bo‘yicha jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlar hajmiga nisbatan ulushining so‘ngi yigirma yillik davrdagi tendensiyasi 5-tartibli polinom ko‘rinishidagi trend model yordamida baholanadi (3-rasm). Eng yuqori ko‘rsatkichli model aynan shunga mos kelmoqda.

Determinatsiya koeffitsiyenti 0,812 ga teng. Keyingi o‘rinda darajali trend model bo‘lib, mos ravishda determinatsiya koeffitsiyenti 0,57 ga teng bo‘lmoqda. Boshqa ko‘rinishdagi trendlar tavsiya etilmaydi, masalan chiiziqli trend model uchun bu ko‘rsatkich 0,31 ga teng. Demak, viloyat QXMICh hajmining respublika bo‘yicha jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlar hajmiga nisbatan ulushi o‘zgarish tendensiyasini baholashda 5-tartibli polinom ko‘rinishidagi trend modelni qabul qilamiz. Unga ko‘ra 2021–2025-yillar davomida viloyat ulushini hisoblaymiz. Natijada mos ravishda quyidagilarga ega bo‘lamiz: (7,14 %; 8,39 %; 9,05 %; 9,36 %; 9,54 %). Shuningdek, keyingi o‘ninchi yillikda viloyat ulushi 12,56 foizni tashkil etadi. Ko‘rish mumkinki viloyatning QXMICh ning rivojlanishining natijaviy ko‘rsatkichi keyingi yillarda qa’tiy monotonlik xususiyaga, ya’ni yillar kesimida uzluksiz o‘sish chizig‘iga ega bo‘ladi.



3 - r a s m: Qashqadaryo viloyatining QXMICh salohiyatini baholashning trend modellari

Trend modelni aniqlashda ixtisolashuv koeffitsiyentlarining tekislangan qiymatlaridan foydalanamiz. Uholda fermer va dehqon xo'jaliklarining ixtisoslashuv koeffitsiyentini baholash uchun quyidagi trendlarni aniqlaymiz:

$$K_{c.(f/x)} = 0{,}0003t^2 + 0{,}0012t + 0{,}9524 \quad (7)$$

$$K_{c.(d/x)} = 0{,}2609 \times \exp(0{,}0022 \times t) \quad (8)$$

(7) trend model uchun determinatsiya koeffitsiyenti 0,97 ga, Fisher mezoni qiymati 258,7 ga, (8) model uchun bu ko'rsatkichlar 0,91 va 80,9 ga teng. Demak, olingan trend modellar ishonchli.

(7) va (8) trend modellardan foydalanib, fermer va dehqon xo'jaliklarining keyingi yillardagi ixtisoslashuv koeffitsiyentini prognoz qilish imkoniyatimiz bor.

3 - j a d v a l: 2021–2025-yillar uchun fermer va dehqon xo'jaliklarining ixtisoslashuv koeffitsiyenti uchun prognoz ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Prognoz yillari					O'rtacha qiymat
	2021	2022	2023	2024	2025	
Fermer xo'jaligi ixtisoslashuv koeffitsiyenti	0,9539	0,9560	0,9587	0,9620	0,9659	0,9593
Dehqon xo'jaligi ixtisoslashuv koeffitsiyenti	0,2615	0,2621	0,2626	0,2632	0,2638	0,2626

Ixtisoslashuv koeffitsiyentining keyingi besh yildagi o'rtacha qiymati fermer xo'jaliklari uchun 0,9593 ga teng. Dehqon xo'jaliklari bo'yicha bu ko'rsatkich 0,2626 ni tashkil etmoqda.

XULOSA

Prognoz natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, asosiy don mahsulotlari yalpi hosili fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqon xo'jaliklarida chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini yetishtirish barqarorligi saqlanib qoladi. Bu shuni bildiradiki hozirgi vaqtda qoramolchilik, qo'ychilik va echkichilik, parrandachilik faloiyati dehqonchilik xo'jaliklarining asosini tashkil etadi.

Ekonometrik modellar yordamida tadqiq etilayotgan,prognozlashtirilayotgan obyekt sifatida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonining tanlanishi ishning dolzarblik darajasini oshirib yuboradi.Buning sabablari yuqorida ta'kidlab o'tildi.Demak,sohaning ma'lum bir qismi uchun olib borilgan tadqiqot natijalari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari rejasi bo'yicha natijalarga qisqa muddatlarda erishish nazarda tutilishi,ishlab chiqarish mahsulotlari tarkibiy qismida almashinish holati qisqa muddatlarga rejalashtirilish ehtimoli,qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish darajasi va mavsumiy dinamikasidagi o'zgarish,sohada qo'llanilayotgan texnika va texnologiyalarning rivojlanish tendensiyasidagi tezkor-

lik,mahsulotlarga talab subyektlarining miqdoridagi o‘sish notekisligi kabi omillarning o‘zi ham qisqa muddatli prognozlashtirishning ahamiyatli ekanligini ko‘rsata oladi.

Yuqoridagi ko‘rib o‘tilgan hisoblash natijalarinig farqidan aytish mumkinki,agar qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish miqdori bo‘yicha prognozni amalga oshirish uchun to‘liq davr(yaxlit bir mavsum) ma’lumotlaridan foydalanilmasa,u holda nomutonosiblik darajasining oshib ketishi (muqarrar)kuzatiladi.Bu esa olingan qisqa davrning har biri to‘liq bo‘lishini talab etar ekan.Prognoz aniqligini baholash uchun ekstrapolyatsiya metodidan foydalanildi va uning qisqa muddatli prognoz natijalarini baholash uchun mos keluvchi usul ekanligi yana bir bor o‘z isbotini topdi.Chunki,prognoz jarayonida tadbiq etiladigan usullallar to‘g‘ri tanlanganligi odatda muvaffaqiyatli tajribalar sonining ko‘pligi bilan xarakterlanadi.Shunday ekan,mazkur tadqiqot jarayonidagi olingan natijalar ham shu tajribalar sonini ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son Farmonining 1-ilovasi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”.Lex.uz
2. PF-6079 “O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish strategiyalari” davlat dasturi 5.10.2020 y
3. Введение в “цифровую” экономику / подобщ. ред. А. В. Кешелава. М. : ВНИИ Геосистем,2017. 28 с.
4. Обзор агропродовольственной торговой политики в постсоветских странах 2017-2018. Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объединенных Наций. ФАО. Рим,2020 год.
5. A. Ishnazarov, Sh. Nurullayeva, M. Muminova, N. Ro‘zmetova. Ekonometrika asoslari. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil, 258-bet.
6. N. F. Korsun, A. S. Markov, M. M. Kondrovskaya. Modelirovanie i optimizaцiya v agropromыshlennom komplekse. Uchebno- metodicheskoe posobie. Minsk : BGATU, 2019. – 252 s.
7. Cobb, G.W. A theory of production /G.W. Cobb, P.H.Douglas // Amer. Econ. Rev.,1928,March, Supp.1., p.139– 165.
8. Alimov R. X., Boltayeva L. R., Ishnazarov A. I. Ekonometrika-2. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2012. – 115-b. (85-b.)
9. Mukhitdinov Kh. S, Juraev F.D.Methods of Macroeconomic Modeling. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
10. Mukhitdinov Kh. S., Rakhimov A.N. EMPIRICAL MODELS WHICH WERE BUILT FOR EACH SECTOR OF THE SERVICE SECTOR TO THE POPULATION OF THE REGION. South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR) https://saarj.com
11. Mukhitdinov Kh. S., Axmedova B.A. ECONOMETRIC MODELING AND FORECASTING OF EDUCATIONAL SERVICES TO THE POPULATION OF THE REGION. International Journal for Innovative Enginering and Management Research. Vol 10 Issue01, Jan2021 ISSN 2456 – 5083 www.ijiemr.org
12. Mukhitdinov Kh. S., Nosirov B.N. COMMUNICATION AND INFORMATION SERVICES TO THE POPULATION OF THE REGION. Jan.-March. 21 Vol. 11 No.01 SJIF 7.201 & GIF 0.626 ISSN-2249-9512 Journal of Management Value & Ethics
13. www.lex.uz /O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
14. https://revew.uz/uz/post/strategiya-novy-uzbekistan-2022-2026-makroekono-micheskaya-stabilnost

BUDJET-SOLIQ VA PUL-KREDIT SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Hakimjon Hakimov
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish masalalariga nazariy yondashuvlarning umumiy talqini va tahlili keltirilgan. Tadqiqot ishining asosiy e'tibori iqtisodiy siyosatning ushbu ikki eng muhim jihatning aloqadorligi va o'zaro ta'sir mexanizmlari bilan bog'liqligi tushuntirilgan. Shuningdek, ularning barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi rolini o'rganishga qaratilgani talqin qilingan. Biz maqolada ushbu sohada taqdim etilgan turli nazariy modellar va tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz hamda ularning bugungi iqtisodiyotda qo'llanilishi samaradorligini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: makroiqtisodiy tartibga solish, moliyaviy barqarorlik, siyosatni muvofiqlashtirish, fiskal siyosat, monetar siyosat, inflyatsiyani targetlash, davlat qarzi, budjet taqchilligi.

Abstract: the article provides a general interpretation and analysis of theoretical approaches to the coordination of budget-tax and monetary policy. It is explained that the main focus of the research work is the relationship between these two most important aspects of economic policy and the mechanisms of interaction. It is also interpreted as aimed at studying their role in ensuring stability and economic development. In this article, we will review various theoretical models and studies presented in this field and analyze their effectiveness in today's economy.

Key words: macroeconomic regulation, financial stability, policy coordination, fiscal policy, monetary policy, inflation targeting, public debt, budget deficit.

Аннотация: в статье дается общая трактовка и анализ теоретических подходов к согласованию бюджетно-налоговой и денежно-кредитной политики. Объясняется, что в центре внимания исследовательской работы находится взаимосвязь между этими двумя важнейшими аспектами экономической политики и механизмы взаимодействия. Он также трактуется как направленный на изучение их роли в обеспечении стабильности и экономического развития. В этой статье мы рассмотрим различные теоретические модели и исследования, представленные в этой области, и проанализируем их эффективность в современной экономике.

Ключевые слова: макроэкономическое регулирование, финансовая стабильность, координация политик, фискальная политика, монетарная политика, инфляционное целеполагание, общественный долг, дефицит бюджета.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashda budjet-soliq va pul-kredit siyosatining samarali o'zaro hamkorligi asosiy o'rin tutadi. Fiskal siyosat soliqlar va davlat xarajatlarini tartibga solish uchun javob bersa, monetar siyosat pul muomalasi va kreditlash parametrlarini belgilaydi. Ularni muvofiqlashtirish ularning aloqadorligi va o'zaro ta'sirini chuqur tushunishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" gi 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son Farmonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy bankiga muvofiqlashtirilgan monetar-fiskal va monopoliyaga qarshi siyosat yuritish vazifasi qo'yilgan [1].

Mamlakatimizda monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish bilan bog'liq yuqorida belgilangan vazifalar yurtimizda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish zarurati mavjudligini ko'rsamoqda.

Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish masalalari uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilarning diqqat e'tiborida. Biroq, bu masala bo'yicha umumiy qabul qilingan yondashuv hali ham mavjud emas. Asosiy nazariy yondashuvlar, odatda, ushbu ikki turdagi siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni nazarda tutadigan modellarga asoslanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu sohada turli xil nazariy yondashuvlarni ifodalovchi ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Iqtisodchilar Hyeongwoo Kim, Peng Shao va Shuwei Zhang (2023) larning “Policy coordination and the effectiveness of fiscal stimulus” nomli maqolasida AQShda fiskal va monetar siyosat o‘rtasidagi muvofiqlashtirish masalasi iste’molchi kayfiyati (hissiyot) kanali bilan bog‘liq holda tadqiq etiladi. Mufalliflar yaxshi muvofiqlashtirilgan fiskal va monetar siyosat orqali davlat xarajatlaridagi ijobiy o‘zgarishlarga javoban yalpi ichki mahsulotning real o‘sishini yuqori, biroq, pul-kredit organlari fiskal rag‘batlantirishga zid bo‘lgan yanada cheklovchi pozitsiyani egallaganlarida, real YaIMga ta’sir past (o‘sish past) bo‘lishini aniqlaydilar. Ushbu siyosatlarning mos kelmasligi iste’molchilarning pessimizmiga olib kelishi, xususiy xarajatlarni qisqartirib, oxir-oqibatda fiskal siyosatning umumiy ta’sirini zaiflashtirishini statistik testlar asosida tasdiqlaydilar [2].

Iqtisodchilar Jeong-Yoo Kim va Hyung Sun Choilar (2023) o‘zlarining “Monetary policy, fiscal policy and cross signal jamming” nomli maqolasida markaziy bank va hukumat shaxsiy ma’lumotlarni o‘zaro almashgan, lekin inflyatsiya va ishlab chiqarish hajmiga nisbatan har xil afzalliklarga ega bo‘lgan hollarda qoidalarga asoslangan va ixtiyoriy (diskret) vakolatlar o‘rtasidagi tanlov muammosini o‘rganadi. Ularning fikricha, agar pul-kredit siyosati qoidalarga asoslangan bo‘lsa, intuitiv mezon yagona ajratuvchi muvozanatni ta’minlaydi, bunda markaziy bank past foiz stavkasi orqali past taklif shoki haqida signal beradi. Ajablanarlisi shundaki, to‘liq ma’lumot mavjud bo‘lmagan sharoitda ixtiyoriylik (diskretlik) markaziy bank uchun qoidaga asoslanishdan yaxshiroq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, maqolada axborot assimetriyasining fiskal va monetar siyosat kombinatsiyasiga qanday ta’sir qilishini tahlil qilinadi. Muvozanat holatda monetar va fiskal organlar bir-birining salbiy signallarini to‘xtata olmasligi aniqlanadi [3].

Iqtisodchilar Michael Woodford va Yinxi Xielarning (2022) “Fiscal and monetary stabilization policy at the zero lower bound: Consequences of limited foresight” nomli maqolasi foiz stavkalari allaqachon juda past bo‘lgan va an’anaviy pul-kredit siyosati unchalik samarali bo‘lmaganda iqtisodiyotni qanday barqarorlashtirishni o‘rganadi. Bu istemolchilarning oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatining cheklanganligini hisobga oladi. Maqolad iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun iqtisodiy tanazzul davrida davlat transfertlari (kontratsiklik fiskal transfertlar) dan foydalanish g‘oyasini alohida ko‘rib chiqiladi. Mualliflarning fikricha, bu transferlar inqirozning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun kuchli vosita bo‘lishi mumkin va hatto past foiz stavkalari cheklanishiga qaramay, muayyan sharoitlarda ishlab chiqarish va inflyatsiya nuqtayi nazaridan iqtisodiyotni to‘liq barqarorlashtirishi mumkin. Biroq, bu siyosatlarning muvaffaqiyati markaziy bankning pul-kredit siyosatini qanchalik o‘zgartirishga tayyorligiga bog‘liq. Shuningdek, maqolada markaziy bank ham, hukumat ham dastlabki moliyaviy buzilishlar o‘tib ketganidan keyin o‘tmishdagi voqealarni hisobga olgan holda siyosat olib borsa, umumiy farovonlik uchun yaxshi ekanligi ta’kidlangan [4].

Olim John H. Cochranening (2022) “A fiscal theory of monetary policy with partially-repaid long-term debt” nomli maqolasida qat’iy narxlar, target foiz stavkalari va narx darajasining fiskal nazariyasini birlashtirgan asosiy (tayanch) model ishlab chiqiladi. Model uzoq muddatli qarzlar hamda fiskal va monetar siyosat qoidalarini o‘z ichiga oladi. Modelga ko‘ra, taqchillik mavjud bo‘lganda, qarzni to‘lash uchun fiskal profitsit keyinchalik ko‘payadi. Biroq, profitsit kutilmagan inflyatsiya yoki deflyatsiyaning barcha darajalariga ta’sir qilmaydi. Muallif fikricha, ushbu model odatiy muammolardan qochadi va fiskal va monetar siyosat o‘zgartirilganda oqilona natijalar beradi. U har qanday yangi Keynscha (new-Keynesian) modelni osongina qo‘llash va faol fiskal siyosat bilan keng ko‘lamli ssenariylarni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishga bo‘lgan yondashuvni izohlovchi asosiy sabablar tahlil va taqqoslash metodlari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish va axborot sintezi usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, maqolada modellashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va empirik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Iqtisodiy siyosat oldiga belgilab qo‘yilgan barqaror iqtisodiy o‘sishdek asosiy maqsadlarga erishish uchun narxlar barqarorligi va to‘lov balansining barqarorligini ta’minlash kerak.

Pul-kredit va budjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirishni amalga oshirishda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu siyosatlarning har birida qo‘llanilgan chora-tadbirlar yakunda iqtisodiy faollikka o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun bu siyosatlarning muvofiqlashtirilmasligi moliyaviy berqarorlikka olib keladi, foiz stavkalarining ortishi, valyuta kursi nomutanosibligi, inflyatsiya sur’atining oshishi kuzatiladi, nihoyat bu iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, pul-kredit va budjet-soliq siyosatining strategik darajasi Markaziy bank va hukumat tomonidan amalga oshirilgan maqsadlarning umumiyligi bilan bog‘liq.

Bunday maqsadlar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish (ishsizlikni kamaytirish), inflyatsiyani pasaytirish, davlat qarzining barqarorligi, valyuta kursining barqarorligi (va umuman moliya bozori) ni o‘z ichiga olishi mumkin.

Shunday qilib, iqtisodiy siyosat yo‘nalishining maqsadi – bu vositalarning muvofiq kombinatsiyasi bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilish, ya’ni ushbu siyosatlarning muvofiqlashtirilishi umumiy iqtisodiy siyosatning ta’siri uchun muhim ahamiyatga ega. Bu shuni anglatadiki, nomutanosib va muvofiqlashtirilmagan siyosat aralashuvi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib keladi, natijada bu muvofiqlashtirish muhimligini qat’iy tasdiqlaydi (1-rasm).



1 - r a s m: Fiskal va monetar siyosatning umumiy maqsadlari va amalga oshirish mexanizmi

Manba: Nazariy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish bo‘yicha eng keng tarqalgan nazariy yondashuvlardan biri optimal muvofiqlashtirish nazariyasi bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanishning optimal darajasi konsepsiyasiga asoslanadi va iqtisodiyotning maksimal samaradorligiga erishish uchun davlat budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish zarurligini taklif qiladi.

Ushbu yondashuv doirasida davlat xarajatlarining optimal darajasini, soliq yukini, kredit stavkalarini, budjet-soliq va pul-kredit siyosatining boshqa parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi modellar ishlab chiqilgan.

Yana bir keng tarqalgan yondashuv bozor nomukammalligi nazariyasi bo‘lib, u bozor nomukammalligining mavjudligi va ularning fiskal va monetar siyosatning samaradorligiga ta’sirini hisobga oladi. Ushbu yondashuv doirasida nomukammal bozorlarda fiskal va monetar siyosatning optimal parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi modellar ishlab chiqilgan.

1 - j a d v a l: Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlar

Mavjud yondashuvlar	Yondashuv mazmuni	Vakillari
Optimal muvofiqlashtirish nazariyasi	Davlat budjet-soliq va pul-kredit siyosatini iqtisodiy rivojlanishning optimal darajasini ta'minlaydigan tarzda olib borishi zarurligini ko'rsatadi	R. Barro, R. Gordon, R. Lukas
Bozor nomukammalligi nazariyasi	Bozorlarda samarasiz natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan turli nomukammalliklar mavjudligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvning bir qismi sifatida fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun nomukammal bozor modellari ishlab chiqilgan.	J. Stiglis, P. Krugman, O. Blanchard
O'yinlar nazariyasi	Davlat va xususiy sektor bozorda o'zaro ta'sir qiladi va strategiyalar asosida qarorlar qabul qiladi. Ushbu yondashuv doirasida fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'sirini baholash imkonini beruvchi o'yin modellari ishlab chiqilgan	R. Kuper, D. Kryuger, J. Tirni
Yangi klassik sintez (Neoclassical synthesis)	Hukumat budjet-soliq va pul-kredit siyosatini barqaror inflyatsiya va past ishsizlik darajasini ta'minlaydigan tarzda olib borishi zarurligi ta'kidlangan	M. Fridman, R. Lukas, T. Sargent

Manba: www.sciencedirect.com ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Fiskal va monetar siyosatini muvofiqlashtirishning uchinchi yondashuvi bozorda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni modellashtiruvchi o'yinlar nazariyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvning bir qismi sifatida bozor ishtirokchilarining o'zaro ta'siri sharoitida fiskal va monetar siyosatning optimal strategiyalarini aniqlash imkonini beruvchi modellar ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish masalalari dolzarb bo'lib, tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilishda davom etmoqda. Shuni hisobga olish kerakki, nazariy yondashuvlarning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va yondashuvni tanlash davlat oldida turgan aniq shartlar va vazifalarga bog'liq. Mavjud yondashuvlar asosida shakllangan modellarni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin.

IS-LM modeli. IS-LM modeli fiskal va monetar siyosat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan klassik nazariy modellardan biridir. U investitsiyalar va jamg'armalarning (IS -egri chizig'i) va pulga talab va taklifning (LM -egri chizig'i) o'zaro ta'siriga asoslanadi. IS-LM modeli fiskal va monetar siyosatdagi o'zgarishlarning iqtisodiyotdagi daromadlar darajasi va foiz stavkasiga ta'sirini baholaydi.

Yangi klassik sintez modeli. Yangi klassik sintez modeli IS-LM modelining ishlanmasi bo'lib, agentlarning taxminlari va oqilona bozor xatti-harakatlarini hisobga oladi. Ushbu model agentlar kelajakdagi siyosat o'zgarishlari haqida mavjud ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra, fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish prognoz qilinadigan va izchil bo'lishi kerak, shunda agentlar moslashishi va oqilona qarorlar qabul qilishi mumkin.

Kengaytirilgan yalpi talab modeli. Bu model iqtisodiyotdagi yalpi talabga davlat xarajatlari, soliqlar va pul taklifining ta'sirini hisobga oladi. U fiskal va monetar siyosatdagi o'zgarishlarning iqtisodiy faollik va inflyatsiyaga ta'sirini hisoblaydi.

Pul-kredit transmissiyasi modeli. Ushbu model pul-kredit siyosatini real iqtisodiyotga o'tkazish (transmissiya) mexanizmlarini ko'rib chiqadi. U pul massasi, foiz stavkalari va kredit shartlarining investitsiyalar, iste'mol hamda tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabga ta'sirini hisobga oladi.



2 - r a s m: Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning tayanch modellari

Dinamik stoxastik umumiy muvozanat (DSGE) modeli. DSGE modeli iqtisodiyotdagi dinamik va stoxastik shoklarni hisobga oladigan murakkab makroiqtisodiy modeldir. U budjet-soliq va pul-kredit siyosatidagi o‘zgarishlarning iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tendensiyalar va tebranishlarga ta’sirini tahlil qilishi mumkin.

Mavjud yondashuvlarni hisobga olgan holda qisqa va uzoq muddatda muvofiqlashtirish ikki bosqichda bo‘lishi kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Qisqa muddatda narx-navoning barqarorligiga erishish va muvofiqlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish jarayoni amalga oshiriladi, bu yerda pul-kredit siyosati va davlat qarzini to‘g‘ri boshqarishga alohida e’tibor qaratiladi.

Boshqa tomondan, uzoq muddat davomida iqtisodiyotning muvozanat darajasiga erishishning muhim sharti bo‘lgan barqaror iqtisodiy o‘sishga asos bo‘luvchi muvofiq siyosatni shakllantirish kerak, agar ushbu davrdagi fiskal defitsitning darajasi markaziy bank tomonidan monetizatsiya qilinishi kerak bo‘lsa va davlat tashqi qarzining barqaror o‘sishiga olib kelsa, u albatta oldindan belgilab qo‘yilishi shart.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, milliy va xorijiy amaliyotni hisobga olib, fiskal va monetar siyosatlarni muvofiqlashtirish mexanizmlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: huquqiy mexanizmlar, moliyaviy mexanizmlar va iqtisodiy mexanizmlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pul-kredit va budjet-soliq siyosatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy yo‘nalishi budjet kamomadini moliyalashtirish va pul-kredit sohasini boshqarish hisoblanadi. Pul-kredit siyosati qanday amalga oshirilayotgani, hukumatning budjet taqchilligini (defitsiti) moliyalash qobiliyati bilan bog‘liq, chunki bu qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari miqdoriga ta’sir qiladi, shuningdek, mavjud moliyalashtirish manbalarini cheklashiga yoki kengaytirishiga olib keladi. Boshqa tomondan esa, hukumatning moliyaviy ehtiyojlari va uni moliyalashtirish strategiyasi pul-kredit organining operativ mustaqillik chegaralarini belgilaydi.

Shunday qilib, pul-kredit va budjet-soliq siyosati o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish maqsadida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bir nechta turli tavsiya va tadbirlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- markaziy bankning institutsional mustaqillikka erishish uchun chora-tadbirlari;
- nizolarning oldini olish va hal qilish choralari;
- markaziy bankning mamlakatga bevosita kreditlarini cheklovchi tadbirlar;
- muvozanatli budjet yoki defitsit cheklovlari uchun tadbirlar;
- erkin valyuta ayirboshlashni qo‘llab-quvvatlash.

Mamlakatda moliya bozorlarining rivojlanganligi pul-kredit siyosatini yuritish va davlat xarajatlarini boshqarish metodlarini mukammallashtirish (yuksaltirish)da qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).
2. Hyeongwoo Kim, Peng Shao, and Shuwei Zhang., 2023. Policy coordination and the effectiveness of fiscal stimulus. Journal of Macroeconomics, Volume 75, https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2022.103489.
3. Jeong-Yoo Kim and Hyung Sun Choi., 2023. Monetary policy, fiscal policy and cross signal jamming. Journal of Macroeconomics, Volume 75, https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2022.103500.
4. Michael Woodford and Yinxi Xie., 2022. Fiscal and monetary stabilization policy at the zero lower bound: Consequences of limited foresight. Journal of Monetary Economics, Volume 125, pages 18-35, https://doi.org/10.1016/j.jmoneco.2021.11.003.
5. John H. Cochrane., 2022. A fiscal theory of monetary policy with partially-repaid long-term debt. Review of Economic Dynamics, Volume 45, pages 1-21, https://doi.org/10.1016/j.red.2021.06.001.

INNOVATSION-BROKERLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY INJINIRINGNI AHAMIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich
TDIU Soliqlar va sug‘urta ishi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: maqolada moliyaviy injiniring orqali qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda brokerlik faoliyatini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, jahon tajribasini chuqur tahlil qilish orqali “innovatsion-brokerlik tizimi”ni respublikamiz moliyaviy injiniring asosida qimmatli qog‘ozlar bozoriga qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: qimmatli qog‘ozlar bozori, moliyaviy injiniring, broker, innovatsiya, innovatsiya-broker, investitsiya, emitent.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы развития брокерской деятельности в условиях развития рынка ценных бумаг посредством финансового инжиниринга. Кроме того, путем глубокого анализа мирового опыта даны практические рекомендации по применению «инновационной брокерской системы» на фондовом рынке на основе финансового инжиниринга нашей республики.

Ключевые слова: рынок ценных бумаг, финансовый инжиниринг, брокер, инновация, инновационно-брокерский центр, инвестиции, эмитент.

Abstract: the article considers the issues of development of brokerage activities in the development of the securities market through financial engineering. In addition, through an in-depth analysis of world experience, practical recommendations are given on applying the “innovative brokerage system” to the stock market based on the financial engineering of our republic.

Key words: securities market, financial engineering, broker, innovation, innovation and brokerage center, investment, issuer.

KIRISH

Keyingi paytlarda qimmatli qog‘ozlar bozori korxona va tashkilotlarga investitsiyani jalb etishning eng muhim omili bo‘lib qoldi. Shuning uchun zamonaviy iqtisodiyotni rivojlanishi qimmatli qog‘ozlar bozori pul resruslarini taqsimlash mexanizmi orqali investitsiyalarni ko‘paytirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Keyingi paytlarda respublikamiz qimmatli qog‘ozlar bozorida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, bozorda turli yangi institutlarning kirib kelishi, turlicha murojaat qiluvchi vositalar sonini ortib borishi, iqtisodiyotni liberalizatsiya qilish sharoitida moliya bozorini deregulyatsiya qilinishi, bozorda raqobatni o‘sishi va xizmat sifatini oshishi bozorning ishirokchilari professional emitentlar va investorlar uchun qulayliklar yaratmoqda.

Ammo shuning bilan birga hali bu sohani rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirish zarurligi Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan ko‘rsatib o‘tildi. Jumladan, ta’kidlanishicha, qimmatli qog‘ozlar chiqarib, ularni fond bozorida sotish mexanizmidan samarali foydalanilmayapti. Fond bozoridagi aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so‘m bo‘lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham yetmaydi. Bu ko‘rsatkich Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etadi. Mamlakatda joriy yilda chiqarilgan davlat obligatsiyalari valyuta birjasi orqali faqatgina tijorat banklariga sotilgan. Fond bozori professional ishtirokchilari soni 100 taga ham bormaydi [1].

Demak, quyilgan vazifalarni amalga oshirishda moliya bozori vositalari bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarini professionallik darajasini oshirish, bozorda ularning faoliyatini yaxshilashda axborotlar shaffofligini ta’minlash, me’yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish asosida turli cheklovlarni olib tashlash kabi dolzarb masalalarni hal etish muhim hisoblanadi. Respublikamiz qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilaridan bugungi kunda eng muhim yo‘nalishi sifatida qaralayotgan brokerlik faoliyatini rivojlantirishda xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish orqali yangi zamonaviy xizmatlarini bozorga olib kirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtirokchilarni professionallik darajasini oshirish muhim omillardan biri sanaladi (Gasanov, 2007). Aynan bozorning aktiv ishtirokchisi brokerlik faoliyatini rivojlantirish respublikamiz qimmatli qog‘ozlar bozorini eng muhim masalalaridan biri sifatida e’tirof etish mumkin. Brokerlik faoliyatini rivojlantirishda barcha bozor ishtirokchilari tomonidan bozorni shaffofligini va axborotlarni yetkazishda ochiqlikni ta’minlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirish, bozorni samarali ishlashini ta’minlash hamda joylardagi bozorlar faoliyati bilan integratsiyani amalga oshirish muhim hisoblanadi (Kazakov, 2014).

Brokerlik faoliyatini o‘rganish barcha iqtisodiy tadqiqotlarda alohida obyekt sifatida o‘rganilmagan. Bu esa brokerlik faoliyatini yangi innovatsion texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiyalar asosida rivojlantirish masalalarini orqaga so‘rib kelmoqda [2].

Rus olimi Yanukyan (2006) brokerlik faoliyatini professional darajada bo‘lishi, fond bozorini rivojlanishini ustuni hisoblanadi deb ta’kidlaydi. Burenin (2008) o‘z tadqiqotlarida portfel qimmatli qog‘ozlarni boshqarishda bozor ishtirokchilarini rolini oshirish muhim masala sifatida qaraydi. Uning fikricha bu sohaga yangi texnologiyalarni olib kirish faoliyat samaradorligini oshirish garovi deb hisoblaydi.

Lyalin, Vorobev (2018) fikricha har qanday qimmatli qog‘ozlarni bozorga joylashtirishda ularning ishtirokchilari muhim rol o‘ynashini ta’kidlab, bozor tsiklini o‘zgarishi u yerda ishtirok etuvchilarning professional tajribasi asosida yuritilishi lozimligini keltiradi. Mualliflar fikricha har bir operatsiyaga professionalcha yondoshuv bo‘lmasa, bozorda turli darajadagi risklarni yuzaga kelishi ehtimoli oshib boradi. Bu esa fond bozorida turlicha holatlarni keltirib chiqaradi. J. Koreyalik olimlar Keunsoo Kim, Jinho Byun (2018) o‘z tadqiqotlarida J. Koreyaning fond bozorini dunyo meqiyosida 11 o‘rinda bo‘lishini, ular bozor ishtirokchilarini professional faoliyati bilan baholaydilar.

Respublikamiz olimlaridan Butikov (2008) fond bozorimizdagi ishtirokchilar hali professional darajada emasligini, bu sohada ko‘plab amaliy tadbirlar tashkil etish zarurligini keltirib o‘tadi. Olimning fikricha bugungi kunda ma’lum bir sohagina fond bozorida brokerlik faoliyati bilan qatnashayotgani, bu esa bozorda monopol holatni kuchayishiga olib kelganini tahlil qilib bergan.

Brokerlik faoliyatini rivojlantirish fond bozorida savdo hajmining o‘sishiga, investorlarni ko‘plab jalb etish imkonini oshiradi. Shuning uchun bugungi kunda rivojlangan davlatlarda brokerlik sohasini rivojlantirish masalalasiga alohida e’tibor qaratishadi. Hozirgi kunda brokerlik sohasiga yangi innovatsion texnologiyalarni olib kirish asosida uni faoliyatini rivojlantirish rivojlanib kelayotgan davlatlarda muhim sohalardan biri sifatida qaralmoqda (Jukov, 2009). Brokerlik sohasini yangi innovatsion-broker tizimi joriy etish asosida yangi xizmatlar taklif etilmoqda. Jumladan, tahlillar natijasiga tayanadigan bo‘lsak, rivojlangan davlatlar AQShda brokerlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida yagona konsepsiya ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sohada faoliyat olib borayotgan barcha kompaniyalarni yagona tamoyillar asosida birlashtirgan (Berzon, 2019). Ularning bozordagi faoliyatini rivojlantirish maqsadida bozorda axborotlar ochiqligi, shaffofligi to‘liq ta’minlangan. Bunday tartibdagi strukturani yaratilishi investorlarning brokerlar bilan ishlash imkoniyatini oshirgan, raqobatni oshishiga, xizmatlar sifatini yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

TAHLIL VA ASOSIY NATIJALAR

Jahon amaliyotida brokerlik xizmatlari asosan 10 yoki undan ko‘proq brokerlar xizmatiga to‘g‘ri keladi.

1 - j a d v a l: Jahon birjalarida bozor kapitallashuvi darajasi bo‘yicha reytingi, mlrd. AQSh dollari [3].

№	Birja nomi	Mamlakat	Bozor kapitallashuvi (mlrd. AQSh dollari)	Emitentlar soni	Savdo hajmi (mlrd. AQSh dollari)
1	ICE&NYSE	AQSh	20 679	2 285	19 341
2	Nasdaq OMX	AQSh	11 080	4 077	17 639
3	Shenzhen SE	Xitoy	2 405	2 134	7 563
4	Japan Exchange	Yaponiya	5 297	3 657	6 297
5	Shanghai SE	Xitoy	3 919	1 450	6 116
6	LSE Group	B. Britaniya	3 638	2 479	2 548
7	Korea Exchange	J. Koreya	1 414	2 207	2 521
8	HKEx	Gonkong	3 819	2 315	2 340
9	Euronext	EI	3 730	1 208	2 203
10	Deutsche Börse	Germaniya	1 755	514	1 818
24	Moskva	Rossiya	576	225	167

Bizga qo‘shni davlatlar Qozog‘iston Respublikasi KASE fond birjasini 2021-yildagi ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, qimmatli qog‘ozlar sotuv hajmi o‘tgan yilga nisbatan 40% oshgan bo‘lib 4,9 trln. tengeni tashkil etgan. Aksiya va korporativ obligatsiyalarning sotuv hajmi 2 barobarga oshgan. KASE indeksi 2021-yilda 7 % oshib 2 304,94 punktga ko‘tarilgan. 2021-yilda KASE qimmatli qog‘ozlarning 71 vositalari orqali 46 ta emitent ishtirok etgan bo‘lsa, 2022-yilda yangi 22 vositalariga 20 ta emitent listing kompaniyalari kiritilgan. 2021-yilda KASE emittentlarning umumiy soni 2019-yilda 113 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda ularning soni 130 tani tashkil etgan. Birjani rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan strategiyaga asosan 6ta birjalar orqali axborotlarni almashish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Citigroup Global Markets Ltd, S&P Global Inc (former SNL), Statpro Canada Inc, AO “Fridom Finans”, TOO “Atameken Business Channel”, AO “Rayffayzenbank”. Bundan tashqari axborotlar bo‘yicha mahsulotlarni yetkazish maqsadida Xitoy davlatining China Investment Information Services Limited (CIIS) kompaniyasi bilan hamkorlik o‘rnatilgan. 2019-2021 yillar oralig‘ida fond bozorida axborotlarni yetkazish samaradorligini oshirish maqsadida yangi mahsulot va xizmatlar joriy etilgan.

Jumladan, Non-display / uzatish axboroti; ma’lumotli axborot/birja a’zolariga yetkaziladigan axborotlar; KASE yangiliklari/korporativ holatlar bo‘yicha hamda Telegram – bot @KASEInfoBot taqdim etilgan. Birja bozorida ishtirok etuvchilarning 2020–2021-yillardagi o‘zaro ishtiroklarini tahlil qiladigan bo‘lsak, tadqiqotimiz brokerlar bo‘lgani uchun asosiy e’tiborni shu toifaga qaratamiz.

2 - j a d v a l: Qozog‘iston Respublikasi fond birjasi ishtirokchilari turli ko‘rsatkichlardagi ulushi, foizda [4]

Ko‘rsatkichlar	Yillar	Ikkinchi darajali banklar	Broker-dilerlar	Yuridik shaxslar	Boshqa institutsional investorlar	Jismoniy shaxslar
Aksiyalar bozoridagi ulushi	2020	2	28	3	4	63
	2021	1	23	16	7	53
Qimmatli qog‘ozlar ikkilamchi bozoridagi ulushi	2020	51	5	7	37	0
	2021	64	2	16	18	0
Korporativ obligatsiyalar ikkilamchi bozoridagi ulushi	2020	7	13	44	33	3
	2021	34	12	52	8	0

Jadvalga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, aksiyalar bozoridagi ishtiroki broker-dilerlar 2020-yilga nisbatan 2021-yilda 5% kamaygan. Ammo boshqa ishtirokchilarga nisbatan ikkinchi o‘rinni egallagan. Qimmatli qog‘ozlar ikkilamchi bozoridagi ulushi bo‘yicha mos ravishda 5 va 2 foizni tashkil etib, qolgan ishtirokchilarga nisbatan ancha past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Xuddi shunday holat korporativ obligatsiyalar ikkilamchi bozorida ham yuzaga kelgan. Bu yerda ularning ulushi mos ravishda 13 va 12 foizni tashkil etgan.

3 - j a d v a l: Qozog‘iston Respublikasi fond birjasi ishtirokchilari turli ko‘rsatkichlardagi ulushi, foizda [5]

Ko‘rsatkichlar	Yillar	Birlamchi bozor	Ikkilamchi bozor
Davlat obligatsiyalari savdo hajmi (mlrd. tenge)	2020	252,8	1733,1
	2021	791,4	853,4
Aksiyalar savdosi hajmi (mlrd. tenge)	2020	7,6	261,8
	2021	0,5	530,3

Birlamchi bozorda ishtirokchilarning ulushi banklar ulushi 1,0% ni, broker-dilerlar – 0,1% ni tashkil qilgan bo‘lsa, qolgan institutsional investorlar – 85,5% ni, yuridik shaxslar ulushi – 13% ni tashkil etgan. Ikkilamchi bozordagi ishtiroki bo‘yicha banklar – 63,3%, broker-dilerlar – 2,0%, institutsional investorlar – 17,9%, yuridik shaxslar – 15,5% hamda jismoniy shaxslar – 0,3% ni tashkil etgan. Aksiyalar sotuvida ikkilamchi bozordagi ishtiroki bo‘yicha jismoniy shaxslar – 53,3%, banklar – 1,1%, broker-dilerlar – 22,6%, institutsional investorlar – 7,3%, yuridik shaxslar – 15,7% hamda norezedentlar – 10,4% ni tashkil etgan.

Yuqoridagi tahlillarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Qozog‘iston Respublikasida ham broker-dilerlik kompaniyalarning bozordagi ulushi past bo‘lgan.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan fond birjasini tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘tgan davr mobaynida fond birjasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish va qimmatli qog‘ozlar savdosini keng miqyosda tashkil etish hamda yuqori salohiyatli investorlarni, birinchi navbatda, xorijiy investorlarni moliya bozoriga keng jalb qilish maqsadida muayyan ishlar olib borilgan.

2021-yilda birja faoliyatida sezilarli jonlanish kuzatilib, savdo aylanmasining umumiy hajmi 298,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi va 2020-yil savdo aylanmasiga (299,8 mlrd. so‘m) nisbatan yuqori o‘sish tendensiyasini

ko‘rsatdi. 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 687,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan. O‘tgan yillarga nisbatan sezilarli o‘zgarishlarni kuzatish mumkin.

Respublikamizda jami chiqarilgan aksiyalar 6,3 trln. dona bo‘lib, nominal bahosi 59,4 trln. so‘mni tashkil etgan. 2021-yilda jami chiqarilgan aksiyalar soni 1,98 trln. tashkil etib, bozorning umumiy aylanma mablag‘i 10,71 trln. so‘mni tashkil etgan. 2020-yilga nisbatan 2,07 marta kam bo‘lgan. 2021-yilda tashkil etilgan bozorda 14045 ta ya’ni 815,04 mlrd. so‘mlik kelishuvlar amalga oshirilgan bo‘lib, shuning 14039 tasi aksiyalar, 6 tasi korporativ obligatsiyalar orqali amalga oshirilgan. 2021 yilda qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariyasi va investitsiya vositachilari orqali 5743 ta aksiya va korporativ obligatsiyalarga 9,89 trln. so‘mlik kelishuvlar amalga oshirilgan. Ikkilamchi bozorda aksiya va obligatsiyalarning umumiy aylanma mablag‘i 1 704,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Aksiyalarning ikkilamchi bozorida jismoniy shaxslar bilan amalga oshirilgan savdo umumiy savdoni 734,73 mlrd. so‘mini tashkil etgan yoki 45,38% ni. 2021-yilda bozor ishtirokchilarini umumiy soni 138 tani tashkil etgan [6].

6 - j a d v a l: O‘zbekiston Respublikasi fond birjasi ishtirokchilari soni [7]

№	Professional ishtirokchilar	Yil davomida berilgan litsenziyalar soni			Faoliyat olib borayotgan ishtirokchilar soni
		2019-yil	2020-yil	2021-yil	2021-yil
1.	Investitsiya vositachilari	2	0	4	45
2.	Investitsiya maslahatchilari	2	4	4	46
3.	Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari	0	1	0	9
4.	Qimmatli qog‘ozlar birjadan tashqari savdosini tashkil etuvchilar	0	0	0	2
5.	Transfer-agentlar	1	0	0	0
6.	Jami	5	7	16	138

Garchi fond birjasi savdo aylanmasida so‘nggi yillarda ma’lum darajada o‘sish kuzatilayotgan bo‘lsa-da, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talab va takliflarning bir yerda jamlanishini yetarli darajada, deb bo‘lmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, qimmatli qog‘ozlarning yuqori likvidliligini oshirish hamda aksiya qiymatini to‘g‘ri aniqlash imkoniyatini bermaydi. Bundan tashqari brokerlik faoliyatini rivojlantirish orqali fond birjasida savdo hajmini oshirish muhim sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida tahlil qilingan yangi innovatsion xizmatlar jahon amaliyotida innovatsion-broker tizimini yaratish imkonini bergan. Hozirgi kunda ushbu tizimdan barcha davlatlarda keng foydalanib kelmoqda. Shuning uchun qimmatli qog‘ozlar bozorida brokerlik kompaniyalarni yaxshi faoliyat olib borishi uchun quyidagilarni amalga oshirish muhim sanaladi:

- respublikamiz qimmatli qog‘ozlar bozorida brokerlik faoliyatini rivojlantirishda “innovatsion-broker tizimi”ni joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda,
- oddiy brokerlik xizmatini ko‘rsatib kelgan kompaniyalar yangi klassik-brokerlik (full service broker) xizmatini joriy etish;
- brokerlik faoliyatida yangi yo‘nalish diskont-brokerlar (discount broker) xizmatini olib kirish;
- internet tizimini rivojlanib borishi natijasida onlayn-brokerlar (on-line broker) faoliyatini tatbiq etish.
- brokrelik kompaniyalarni faoliyatini samaradorligini oshirib borish asosida daromadini maksimallashtirish;
- yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida brokerlik xizmati sifatini oshirish;
- 2022–2026-yillarda fond bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish asosida erkin muomaladagi jami qimmatli qog‘ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2026-yil oxirigacha kamida 10–15 foizga yetkazish;
- qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqib, ortiqcha cheklovlarni bekor qilish va fond bozorida ishlashni soddalashtirish zarur;
- jahon amaliyotidan kelib chiqib, kapital bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar turlarini ko‘paytirish;
- qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talabni ko‘paytirish, xorijiy birja, brokerlar va banklarni mamlakat fond bozoriga jalb qilish;
- sug‘urta kompaniyalariga aktivlarining ma’lum foizini fond bozoriga yo‘naltirish, banklarga birlamchi bozorda yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish uchun ruxsat berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Benjamin Graham (2006). The Intelligent Investor: The Definitive Book on Value Investing. A Book of Practical Counsel (Revised Edition) Paperback – Bargain Price, . 300 pages.
2. Keunsoo Kim, Jinho Byun (2018). Analysis of the Korean Stock Market: Behavioral Finance Approaches/ WSPC (May 18, 2018) . English. 294 pages.
3. Алехин, Б. И (2018). Рынок ценных бумаг : учебник и практикум для академического бакалавриата /Б. И. Алехин. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва : Издательство Юрайт. – 497 с.
4. Берзона Н. И (2019). Рынок ценных бумаг : учебник для академического бакалавриата / Н. И. Берзон [и др.] ; под общей редакцией.. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт. – 443 с.
5. Буренин А.Н. (2008). Управление портфелем ценных бумаг/Учебник. НТО имени академика С.И. Вавилова. Стр.440.
6. Бутиков И (2008). Рынок ценных бумаг Узбекистана: проблемы формирования и развития. Ташкент: KONSAUDITINFORM-NASHR, - 224 с.
7. Гасанов, Г. М. (2007). Повышение эффективности работы региональных организаций участников рынка ценных бумаг на основе внедрения управленческих инноваций “Технические науки”. - № 2 (20). - С 17-20.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM XIZMATLARI BOZORINING AHAMIYATI

Babadjanova Malika Ruzimovna
TDIU “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim xizmatlarining hal qiluvchi roli yoritilgan. Unda ta’limning shaxslarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlariga qanday ta’sir qilishini, inson kapitalining to‘planishi shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga qanday hissa qo‘shishi tahlil qilingan. Empirik dalillar nazariy asoslar, amaliy tadqiqotlarni ko‘p o‘lchovli tahlil qilish ushbu tadqiqot ta’limning inson kapitalini shakllantirish katalizatori sifatidagi ahamiyatini va uning jamiyat hayotining turli jabhalariga ta’sirini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, iqtisodiy o‘sish, innovatsion texnologiyalar, ta’lim sifati, Oliy ta’lim

Abstract: The article examines the decisive role of educational services in the development of human capital in Uzbekistan. It examines how education affects individuals’ knowledge, skills, and abilities, and how the accumulation of human capital contributes to personal, social, and economic development. Empirical evidence, theoretical foundations, multidimensional analysis of case studies, this study aims to shed light on the importance of education as a catalyst for the formation of human capital and its impact on various aspects of social life.

Key words: human capital, economic growth, innovative technologies, quality of education, higher education

Аннотация: В статье рассматривается определяющая роль образовательных услуг в развитии человеческого капитала в Узбекистане. В нем рассматривается, как образование влияет на знания, навыки и способности людей, и как накопление человеческого капитала способствует личному, социальному и экономическому развитию. Эмпирические данные, теоретические основы, многоаспектный анализ тематических исследований, это исследование направлено на то, чтобы пролить свет на важность образования как катализатора формирования человеческого капитала и его влияние на различные аспекты общественной жизни.

Ключевые слова: человеческий капитал, экономический рост, инновационные технологии, качество образования, высшее образование.

KIRISH

Ta’lim iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida keng e’tirof etilgan bo‘lib, inson kapitalini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Boy madaniy merosga ega va iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan Markaziy Osiyo davlati O‘zbekiston sharoitida inson kapitali va ta’lim xizmatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot maqolasi O‘zbekistonda ta’lim xizmatlarining hozirgi holati va dinamikasini har tomonlama tahlil qilib, ularning inson kapitalini rivojlantirishga ta’siriga alohida e’tibor qaratishga qaratilgan.

O‘zbekiston xalq sifatida ta’limning individual o‘sishni rag‘batlantirish, ishchi kuchi malakasini oshirish, innovatsiyalar va samaradorlikni oshirishdagi o‘zgartiruvchi kuchini tan oladi. O‘tgan yillar davomida hukumat maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha darajadagi ta’lim xizmatlarining qulayligi, sifati va dolzarbligini oshirishga qaratilgan qator islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu tashabbuslar nafaqat ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, balki o‘quv dasturlarini zamonaviy, bilimga asoslangan iqtisodiyotning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirishga ham qaratilgan.

Ushbu tadqiqot maqolasida O‘zbekistondagi ta’lim xizmatlarining ko‘p qirrali jihatlari ko‘rib chiqiladi, kuchli tomonlari, muammolari va yanada takomillashtirishning potensial yo‘nalishlari o‘rganiladi. Siyosat, infratuzilma, o‘qitish metodologiyasi va ta’lim natijalarini tahlil qilib, biz O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari va inson kapitalini rivojlantirish o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berishga intilamiz.

Bundan tashqari, ushbu tadqiqot yaxshi faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim tizimining kengroq ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ko‘rib chiqadi. Unda ta’lim xizmatlari, mehnat bozori dinamikasi va umumiy iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rib chiqilib, inson kapitalining barqaror rivojlanish katalizatori sifatidagi roliga oydinlik kiritiladi.

Ushbu tadqiqot maqolasi O‘zbekistonda ta’lim xizmatlarining hozirgi holati va ularning inson kapitaliga ta’sirining dalillarga asoslangan tahlilini taqdim etish orqali mamlakatda ta’lim islohotlari, siyosatni shakllantirish va strategik qarorlar qabul qilish bo‘yicha olib borilayotgan muhokamalarga hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Ushbu tadqiqotdan olingan xulosalar va tavsiyalar siyosatchilar, o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ta’lim sohasidagi mukammallikni rag‘batlantirish va O‘zbekistonning kelajakdagi gullab-yashnashi uchun inson kapitalidan foydalanish uchun qimmatli tushunchalar beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim 21-asrda iqtisodiy rivojlanishning tamal toshi sifatida paydo bo‘lib, unumdorlikning muhim omili va mamlakatning raqobatdosh ustunligini belgilovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qildi (Porter, 1990). Shu nuqtayi nazardan, ta’lim mamlakat iqtisodiyotida muhim va muhim rol o‘ynaydi, bu esa ta’lim xarajatlari ko‘rinishidagi resurslarni sezilarli darajada taqsimlashga olib keladi. O‘zining muhim hissasi bilan e’tirof etilgan ta’lim iqtisodiy o‘sishni rag’batlantirishda va eng muhimi, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishda ta’sirchan kuch sifatida qaraladi. Bundan tashqari, ta’lim hayot imkoniyatlarini shakllantirish, teng imkoniyatlarni rag’batlantirish va individual taraqqiyotga ko‘maklashishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Eng kuchli vosita sifatida ta’lim fuqarolarga o‘zlarining ijtimoiy va madaniy muhitini tushunish va boshqarish imkoniyatini beradi, ularni tobora kuchayib borayotgan raqobat dunyosida rivojlanish va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

Inson kapitali nazariyasi ta’limga investitsiyalar ortidagi qarorlarni qabul qilish jarayoni haqida tushuncha berishga intiladi. Ushbu nazariya qaror qabul qilishning turli bosqichlarida alohida ahamiyatga ega. Teodor Shults (1988) va Gari Bekker (1967) kabi olimlar bu nazariyani ilgari suradilar, inson kapitalini insonlarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning mahsuldorligi va samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko‘rishadi. Mohiyatan, inson kapitali insonga xos bo‘lgan qobiliyatlar va investitsiyalar kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy jihatdan qimmatli inson imkoniyatlarining to‘planishini ifodalaydi. Ushbu investitsiyalar ta’lim, ish joyida o‘qitish, sog’liqni saqlash va ovqatlanish xarajatlari shaklida bo‘lishi mumkin. Bunday investitsiyalar uchun resurslarni taqsimlash orqali jamiyatlar, garchi darhol iste’mol qilish hisobiga bo‘lsa-da, o‘zlarining kelajakdagi ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradilar.

Inson kapitali nazariyasi doirasida ta’lim jismoniy kapitalga investitsiyalar bilan bir qatorda inson kapitaliga samarali sarmoya sifatida qaraladi. Ushbu nuqtayi nazar ta’limni kapitalning bir shakli sifatida ko‘rib chiqadi va rivojlanish jarayonida ishlab chiqarish omili sifatida inson qobiliyatlariga katta ahamiyat beradi. U inson qobiliyatlari va unumdorligi rivojlanish jarayonida moliyaviy resurslar, tabiiy boyliklar va jismoniy infratuzilma kabi muhim rol o‘ynashini tan oladi.

Bu nazariya inson kapitalining ahamiyatini ta’kidlab, shaxs va jamiyat taraqqiyotida ta’limning asosiy rolini e’tirof etadi. Ta’lim insonlarning bilim qobiliyatlari va imkoniyatlarini oshiradigan, shu orqali ularning samaradorligini oshiradigan va umumiy iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga hissa qo‘shadigan transformativ sarmoya sifatida e’tirof etiladi. Ta’limning kapital ne’mati sifatidagi konsepsiyasi inson kapitalini tushunishdan kelib chiqadi, u boshqa muhim omillar bilan bir qatorda rivojlanish jarayonining hal qiluvchi hissasi sifatida inson qobiliyatlariga ustunlik beradi.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Bilimga asoslangan zamonaviy dunyoda olimlar va texniklar kabi yuqori darajadagi ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar yangi yoki mavjud g’oyalarni tushunish va ishlab chiqarish jarayonlariga moslashtirishda nisbatan ustunlikka ega. Inson kapitalining rivojlanishi odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning imkoniyatlarini ochishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va o‘z rivojlanishida faol ishtirok etishga olib keladi (Salai-i-Martin, 1961). U inson kapitalini shakllantirish jarayoni orqali ko‘nikmalar, bilim, samaradorlik va ixtirochilikni oshirishni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, inson kapitalini rivojlantirish faqat tovarlar yoki ishlab chiqarishga emas, balki rivojlanish strategiyalarining o‘zagiga odamlarning faol ishtirokini qo‘yadi.

Har qanday mamlakatda sezilarli iqtisodiy o‘sish inson kapitalining etarli darajada rivojlanishiga bog’liq. Bilim kattaroq ahamiyat kasb etar ekan, mamlakatlar o‘z yoshlarini yuqori standartlarga o‘qitishni birinchi o‘ringa qo‘yishlari kerak. Oliy ta’lim muassasalarida yaratilgan bilimlarning sifati va uning kengroq iqtisodiyotga kirishi milliy raqobatbardoshlik uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar uchun bu jiddiy muammodir. Bu mamlakatlar tobora ko‘payib borayotgan talabalarni, ayniqsa kam ta’minlangan qatlamlardan bo‘lganlarni qamrab olish uchun mustahkam oliy ta’lim tizimini talab qiladi. Oliy ta’lim nafaqat talabalarni maxsus bilimlar bilan ta’minlabgina qolmay, balki o‘zgaruvchan dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarning uzluksiz yangilanishiga imkon yaratib, moslashuvchanlik va innovatsiyalarni rivojlantiradi.

Oliy ta’lim hozirgi bilimlarni berishdan tashqarida; u talabalarga o‘z ko‘nikmalarini qanday qilib yangilab turishni o‘rgatadi, ularga rivojlanayotgan iqtisodiy muhitga moslashish imkonini beradi. Bundan tashqari, oliy

ta’lim muassasalari tadqiqotning miqdori va sifatiga hissa qo‘shadi, bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarga yangi bilimlarni yanada samarali va tezroq tanlash, o‘zlashtirish va ishlab chiqarish imkonini beradi (Jahon banki, 2000). Rasmiy ta’limni ta’minlash inson kapitaliga samarali sarmoya sifatida qabul qilinadi, nazariya tarafdorlari uni jismoniy kapitalga investitsiya qilishdan ko‘ra ko‘proq bo‘lsa ham, teng deb bilishadi. Inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyatini tan olgan holda, jamiyatlar o‘z shaxslarining salohiyatini rivojlantirishi, iqtisodiy o‘sishni rag’batlantirishi va barqaror rivojlanishga yordam berishi mumkin.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda ham sifat, ham miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalangan holda aralash metodik yondashuv qo‘llaniladi. Ikkilamchi ma’lumotlar manbalari Ozbekistondagi ta’limni milliy darajada yaxshilashni tekshirish va uning insin kapitalini rivojlantirishga ta’sirini o uchun ishlatiladi. Ma’lumotlar turli manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O‘zbekiston respublikasi statistika qo‘mitasining ta’limga xizmatlariga oid statistikasi, Jahon banki hisobotlari, YUNESKO, XMT, tegishli kitoblar, jurnallar, ishchi hujjatlar, veb-maqolalar va boshqa nufuzli manbalardan to‘plangan.

Tadqiqot iqtisodiy islohotlardan keyingi davrga qaratilgan bo‘lib, ma’lumotlar mavjudligidagi cheklovlar tufayli qiziqish o‘zgaruvchilarini tahlil qilish uchun o‘n yillik va yillik ma’lumotlarning kombinatsiyasidan foydalaniladi. Tahlil oddiy grafik tasvirlar va foizlar, nisbatlar, yillik o‘sish sur’atlari va yillik o‘sish sur’atlari kabi statistik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu analitik usullar ma’lum vaqt oralig’idagi tendensiyalarni o‘rganish uchun qo‘llaniladi.

Ma’lumotlarni tahlil qilishdan tashqari, tadqiqot uchun nazariy asos yaratish uchun keng qamrovli adabiyotlarni ko‘rib chiqish o‘tkaziladi. Ushbu sharh tadqiqot natijalarini kontekstlashtirish va qo‘llab-quvvatlash uchun tegishli tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va boshqa ikkinchi darajali materiallarni o‘z ichiga oladi.

Aralash usullardan foydalangan holda va keng ko‘lamli ikkilamchi ma’lumotlar manbalariga tayangan holda, ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi ta’limni yaxshilashni har tomonlama tahlil qilishni, ushbu sohadagi tendensiyalarni, muammolar va potensial yechimlarni yoritishga qaratilgan.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Jahon bankining tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda o‘sishning 64 foizi inson kapitalining sifatiga bog‘liqligi qayd etilgan, AQSHda bu ko‘rsatkich 76 foizni, Yevropa davlatlarida esa 74,2 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda inson kapitali rivoji uchun sarflangan har bir dollar kelgusida mamlakatga 3-6 dollar foyda keltirishi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, ayniqsa, so‘nggi olti yilda Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi hisoblanmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida inson kapitalini yuksaltirish, jumladan, ta’lim va ilm-fanni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, aholi, ayniqsa, yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish va salomatligini mustahkamlash, madaniy va ma’rifiy ongini yuksaltirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilidi. Ushbu maqsadlar uchun davlat byudjetidan sarf etiladigan xarajatlar 4,3 baravarga oshirildi.

Oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash maqsadida hukumat oliy ta’limni tartibga soluvchi qonunchilik bazasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi EO-2909-sonli qarorida oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Mazkur farmon taraqqiyotning katalizatori bo‘lib, tub islohotlarga zamin yaratadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va mustahkam axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga e’tibor qaratgan holda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi 5847-son Farmoni e’lon qilindi. Mazkur farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanadi.

Ta’lim sohasi davlatning kelgusidagi rivoji va taraqqiyoti uchun xizmat qilishini inobatga olib ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratildi. Rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vazirlik (Maktabgacha ta’lim vazirligi) tashkil etildi. Bunda, maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 5211 tadan 19316 taga, maktablar soni 9719 tadan 10289 taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta tiklandi, maktab o‘qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi, shuningdek, ta’lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 baravarga oshirildi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta’minlash tizimi joriy etildi, OTMlar soni 70 tadan 162 taga yetkazildi, oliy ta’limdan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

1 - r a s m: Ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati (oldingi yilga nisbatan, % da)

Ta'lim va fan sohalariga investitsiya kiritish, bu – buyuk kelajak uchun sarmoya degani. Ana shu g'oya ortidan va izchil islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 28 foizga yetkazildi va Global innovatsion indeksi reytingi bo'yicha O'zbekiston 122 o'rindan 86 o'ringa ko'tarildi.

Shuningdek, sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rnini yaratish, malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish, oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMlar sonini kamida 50 taga yetkazish, iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish belgilab olindi.

Ushbu strategik ko'rsatmalar va qonunchilik asoslari hukumatning oliy ta'lim sohasini rivojlantirishga sodiqligini ta'kidlaydi. Innovatsion yondashuvlarni qo'llash va keng qamrovli islohotlarni rag'batlantirish orqali O'zbekiston kelajak vazifalariga javob bera oladigan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalaydigan yuqori sifatli ta'lim tizimini rivojlantirishni maqsad qilgan.

Inson kapitali indeksining (IKI) 2020-yilgi nashrida O'zbekiston 174 davlat orasida 99-o'rinni egalladi. Ushbu reyting mamlakatning boshqa davlatlarga nisbatan inson kapitalini rivojlantirish borasidagi yutuqlarini aks ettiradi. Biroq, shuni yodda tutish kerakki, mamlakatlar inson kapitalini oshirish bo'yicha turli siyosat va tashabbuslarni amalga oshirar ekan, vaqt o'tishi bilan reytinglar o'zgarishi mumkin.



2 - r a s m: Inson kapitali indeksi tanlama mamlakatlar misolida (Indeks 0<IK<1, 2020-y.)

Manba: Jahon banki hisoboti

Bugungi kunda O‘zbekistonda tug‘ilgan bola ulg‘aygach, to‘liq ta’lim olsa va sog‘lom bo‘lsa, uning unumdorligi 62 foizga teng bo‘ladi. Bu Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun o‘rtacha ko‘rsatkichdan past, lekin quyi daromadli mamlakatlar uchun o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori. Kutilayotgan maktab yillari. O‘zbekistonda 4 yoshida maktabga qadam qo‘ygan bola 18 yoshga to‘lgunga qadar 12 yillik maktabni tamomlashi mumkin. Ta’limga moslashtirilgan maktab yillari. Bolalarning haqiqatda nimani o‘rganishini hisobga olsak, kutilayotgan maktab yillari atigi 9,1 yilni tashkil qiladi.

Qiyosiy nuqtayi nazarni taaqqoslash uchun Rossiya IKI bo‘yicha 10,9 ballni olgan bo‘lsa, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) me’yorida esa 10,8 ballni tashkil etadi (3-rasm). Kutilayotgan va ta’limga moslashtirilgan maktab ta’lim yillari o‘rtasidagi tafovut bo‘yicha O‘zbekiston Xalqaro maktablar kengashi (MDH) o‘rtacha ko‘rsatkichlari hamda yuqori va past daromadli mamlakatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan solishtirganda nisbatan yaxshiroq. Biroq, u hali ham Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti o‘rtacha ko‘rsatkichlari va Rossiyaning ta’lim ko‘rsatkichlaridan ortda qolmoqda.



3 - r a s m: O‘rta umumiy ta’limda kutilgan va haqiqiy o‘quv yillari o‘rtasidagi tavofut

Manba: Inson kapitali indeksi (HCI) ma’lumotlar bazasi, Jahon banki, 2020-yil oktabr oyida foydalanilgan.

Bu xulosalar O‘zbekistonda ta’lim muammolarini hal etish muhimligini ta’kidlaydi. Sa’y-harakatlarni ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirish, ta’limdagi tafovutni kamaytirish va o‘quvchilarning har tomonlama samarali ta’lim olishini ta’minlash kerak. Inson kapitaliga sarmoya kiritish va ta’lim natijalarini yaxshilash orqali O‘zbekiston malakali ishchi kuchini rivojlantirishga ko‘maklashishi, iqtisodiy o‘sishga yordam berishi va aholining umumiy farovonligini oshirishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda inson kapitali va ta’lim xizmatlari tahlili ta’lim sifati va qulayligini oshirish bo‘yicha hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan salmoqli yutuqlar va izchil sa’y-harakatlarni ko‘rsatadi. Mamlakat 21-asrda iqtisodiy o‘sish va rivojlanishda inson kapitalining hal qiluvchi rolini tan oladi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini mustahkamlash uchun majburiy va bepul boshlang‘ich va o‘rta ta’limdan tortib, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim dasturlarigacha bo‘lgan turli islohotlar va siyosatlar amalga oshirildi. Hukumatning o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘qitish metodikasi va akkreditatsiya tizimlariga e’tibor qaratayotgani ta’lim standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirishga intilayotganini ko‘rsatadi.

Oliy ta’limga sarmoya kiritish va xalqaro universitetlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish global integratsiya va bilim almashinuvi sari intilishdan dalolat beradi. Kasb-hunar ta’limi va texnik ta’limga alohida e’tibor berishdan maqsad odamlarni amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlash, bandlikni oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlashdir.

Ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha sa’y-harakatlar elektron ta’lim va masofaviy ta’lim uchun imkoniyatlar yaratib, ta’lim resurslaridan kengroq foydalanish imkonini berdi va o‘rganish tajribasini oshirdi.

Muvaffaqiyatga erishilgan bo‘lsa-da, ta’limdan adolatli foydalanishni ta’minlash, mintaqaviy nomutanosibliklarni bartaraf etish va ta’lim natijalari va mehnat bozori talablari o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish borasida muammolar hamon mavjud.

Inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim xizmatlarini yanada kuchaytirish uchun doimiy investitsiyalar, siyosatga tuzatishlar kiritish va maqsadli aralashuvlar zarur. Bunga o'qituvchilar sifati, o'quv dasturlari dolzarbligi, infratuzilmani rivojlantirish hamda o'qitish va o'qitish yondashuvlarida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etish kiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning inson kapitali va ta'lim xizmatlariga yuksak e'tibori yaqqol ko'rinib turibdi va izchil sa'y-harakatlar va islohotlarni samarali amalga oshirish natijasida mamlakat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va fuqarolarning umumiy farovonligini oshirishda malakali va bilimli kadrlarni yetishtirishda davom etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tilak J (2003) Higher Education and Development Conference Paper : International Seminar. University XXI. Available at www.mec.gov.br/ univxxi/pdf. Retrieved 15/7/2011
2. Van – Den – Berg, H (2001) Economic Growth and Development. (International Edition) New York. Mc Graw Hill Companies. Inc.
3. Wilson K (2000) Information Needs and Source Preference of Perspective Learners at Tertiary Education.upet.ac.za/ thosh. Retreived 19-7 -2011
4. World Bank (2000) "Higher Education in Developing Countries: Peril & Promise". The Task Force on Higher Education & Society.
5. Porter, Michael E. (1990). The Comparative Advantage of Nations. New York: The Free Press. 683 pages.
6. Romer, Paul. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98, 71-102.
7. Saint, William; Hartnet, Teresa and Strassner, Eric (2003). Higher Education in Nigeria: A Status Report. Higher Education Policy, 16, pp. 259-281
8. Salai-i-Martin, X (1961) Economic Growth. New York: McGraw Hill.
9. Shultz T. (1961) "Education and Economic Growth" in: Social Forces Influencing American, Education. Ed. N.B. Henry Chicago. National Society for the Study of Education, University of Chicago Press.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTON SUG‘URTALOVCHILARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA QAYTA SUG‘URTANING ROLI

Kamilov Baxramjon Umardjonovich
“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati “Sug‘urta maktabi” direktori

Annotatsiya: maqolada respublika sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlashda qayta sug‘urtalash ishlaridagi muammolar o‘rganib chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasida qayta sug‘urtalash faoliyatini yaxshilash, sug‘urtalovchilar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urtadan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan taklif, tavsiya hamda xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, sug‘urta bozori, qayta sug‘urta, obligatorli qayta sug‘urta qilish, qayta sug‘urtalash shartnomasi, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: the article examines the problems of reinsurance in ensuring the financial stability and solvency of republican insurance companies. Proposals, recommendations and conclusions have been developed in the Republic of Uzbekistan to improve the reinsurance activities, to further develop and improve the mechanisms for increasing the efficiency of the use of reinsurance in ensuring the financial stability of insurers.

Key words: insurance, insurance market, reinsurance, compulsory reinsurance, reinsurance contract, financial stability.

Аннотация: в статье рассматриваются проблемы перестрахования в обеспечении финансовой устойчивости и платежеспособности республиканских страховых организаций. В Республике Узбекистан разработаны предложения, рекомендации и выводы по совершенствованию перестраховочной деятельности, дальнейшей разработке и совершенствованию механизмов повышения эффективности использования перестрахования в обеспечении финансовой устойчивости страховщиков.

Ключевые слова: страхование, страховой рынок, перестрахование, обязательное перестрахование, договор перестрахования, финансовая устойчивость.

KIRISH

Sug‘urta sohasi mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda mamlakatimiz sug‘urta bozorida raqobat asosida 41 ta sug‘urta kompaniyasi sug‘urta qildiruvchilarga o‘z xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.O‘tgan yillar tajribasi shuni ko‘rsatadiki,mamlakatimiz rahbariyati va xukumati sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga va rivojlantirishga muntazam ravishda e’tibor qaratib kelmoqda.So‘nggi yillarda sug‘urta tizimining ajralmas bir qismi bo‘lgan qayta sug‘urtalash sohasiga ham katta e’tibor qaratildi va bu soha uchun xukumatimiz tomonidan qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida qayta sug‘urta – sug‘urta shartnomasi bo‘yicha qabul qilingan sug‘urta tovonini (sug‘urta to‘lovini) to‘lash tavakkalchiligini boshqa sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) bilan tuzilgan qayta sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan to‘liq yoki qisman sug‘urta qilish deb ta’rif berilgan[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

X. Shennanev qayta sug‘urtaga quyidagicha ta’rif bergan: "Qayta sug‘urtalash – sug‘urtalashga riskni qabul qilish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni ikkilamchi joylashtirish). Sug‘urtalovchi muvozanatlashgan sug‘urta portfeliniyaratish va sug‘urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida qabul qilib olingan riskaning bir qismini o‘zaro kelishilgan holda boshqa sug‘urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug‘urtalash operatsiyalari bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug‘urta-

1 O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni.

lash kompaniyalari amalga oshiriladi.Qayta sug‘urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko‘rinishida bo‘ladi. Bundan tashqari qayta sug‘urtalash nisbiy va nonisbiy shaklda bo‘ladi[2].

Rus olimi Grishenko N. B. qayta sug‘urtaga quyidagicha ta’rif bergan, “Qayta sug‘urta qilishning mohiyati sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida ikki yoki undan ortiq tashkilotlar o‘rtasida sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi tomonidan zararni qoplab berish bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni qayta taqsimlashdan iborat”[3].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, fikrlarni umumlashtirib qayta sug‘urtaga quyidagicha ta’rif beramiz: Qayta sug‘urta-bu balanslashtirilgan sug‘urta portfelini yaratish va sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida sug‘urtalovchi o‘zi qabul qilib olgan risklarni imkoniyatlaridan ortiqcha qismini kelishilgan shartlar asosida boshqa sug‘urtalovchiga berish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy munosabatlar yig‘indisidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada mavzuni o‘rganish uchun ma’lumotlarni to‘planib, o‘rganilib chiqildi. O‘rganish natijasida statistik solishtirma usullarda tahlil qilinib, natijalar foizlarda ifodalandi. Olingan natijalar asosida ijobiy taklif va xulosa va takliflar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asrning o‘rtalarida Yevropa davlatlarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi katta miqdordagi sug‘urta risklarining qayta sug‘urtalashga bo‘lgan talabini yanada kuchaytirdi. Sug‘urtalovchining xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, yangi sug‘urta risklarini sug‘urta qoplamasi bilan ta’minlashni faqat qayta sug‘urtalash orqaligina amalga oshirish mumkin bo‘ldi.

Qayta sug‘urta biznesi risklarni vaqt va hudud bo‘yicha qayta taqsimlashni nazarda tutadi hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati saqlanishi va moliyaviy barqarorligi ta’minlanishiga zamin yaratadi.

Qayta sug‘urta har qanday sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Mazkur amaliyot kompaniyalarga juda katta va oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan risklarni qabul qilish imkonini beradi. Qayta sug‘urtaning maqsadi sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini va sug‘urta operatsiyalarining rentabelligini ta’minlovchi muvozanatli sug‘urta portfelini yaratishdir. Demak, qayta sug‘urta nafaqat sug‘urtalovchilarni, balki sug‘urtalangan yirik obyektlarni ham moliyaviy yo‘qotishlardan himoya qiladi, shu bilan birga davlatga sug‘urta faoliyatini amalga oshirganlik bo‘yicha soliqlarning kelib tushishini kafolatlaydi. Qayta sug‘urtaning asosiy funksiyasi bo‘lib riskni transformatsiyalash hisoblanadi va natijada sug‘urta majburiyatlarini ichki va tashqi bozorlarda bir necha kompaniyalar o‘rtasida taqsimlashga erishiladi.

Qayta sug‘urta natijasida sug‘urtalovchining sug‘urtalash imkoniyatlari kengayadi, sug‘urta hodisasining yuzaga kelish ehtimolligi kattaligi sababli sug‘urtalash mumkin bo‘lmagan obyektlarni ham bankrotlikdan qo‘rqmasdan qabul qilishga zamin yaratiladi. Qayta sug‘urta sug‘urtalovchiga mavjud risklar ta’sirini minimallashtirish imkonini beradi va me’yoriy talablarning bajarilishi ustidan nazorat qiladi. Sug‘urtalovchi o‘z ixtiyori bilan sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘zida qoldiriladigan ulushni aniqlaydi. Qayta sug‘urta munosabatlarida sug‘urtalanuvchi va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasida hech qanday huquqiy munosabatlar paydo bo‘lmaydi, unda sug‘urtalovchi va bir necha qayta sug‘urtalovchilar ishtirok etadi (1-rasm).



1 - r a s m: Qayta sug‘urtani amalga oshirish jarayoni[4]

Sug‘urta tizimi rivojlangan davlatlarning sug‘urta bozorida qayta sug‘urtadan foydalanilganlik darajasi yuqori, buni jami sug‘urta mukofotlari hajmida qayta sug‘urta mukofotlarining 40-45 foiz ulushga egaligi bi-

2 Х.М.Шеннаев,С.Ширинов “Қайта суғурта”Е:”Иқтисод-молия”2009 йил.10-бет.
3 Грищенко Н.Б.Основы страховой деятельности:Учеб.пособие.М:Финансы и статистика,2006.360с.
4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

lan izohlash mumkin va aksariyat davlatlarda sug‘urtalovchilar o‘zini moliyaviy himoyalash maqsadida qayta sug‘urtaning obligatorli shaklini qo‘llashni ma’qul ko‘radi. Shu o‘rinda “obligatorli qayta sug‘urta qilish” tushunchasiga izoh berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Obligatorli qayta sug‘urta – qayta sug‘urtaning majburiy shakli bo‘lib, unda tsedent kompaniya qayta sug‘urtalovchi bilan tuzgan qayta sug‘urta qilish shartnomasi shartlariga ko‘ra, ushbu shartnoma doirasiga kiruvchi asosiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha risklarni qayta sug‘urtalovchiga berishga, qayta sug‘urtalovchi esa ushbu risklarni qabul qilishga majburdir.

Obligatorli qayta sug‘urta bitimi mahalliy qayta sug‘urta bilan qo‘shimcha ravishda shug‘ullanuvchi kompaniyalar bilan ham tuzilishi mumkin. Bunda ma’lum bir sug‘urta turlari tanlanadi, masalan, qurilish-montaj risklari sug‘urtasi, mol-mulk sug‘urtasi, yuk sug‘urtasi. Mazkur sug‘urta turlari bo‘yicha tuzilgan barcha shartnomalar bo‘yicha kompaniya majburiyatlarining ma’lum qismi qayta sug‘urtalovchiga avtomatik tarzda o‘tkaziladi. Bu holatda sug‘urta kompaniyasi oldida muhim vazifa paydo bo‘ladi, ya’ni o‘z zimmasida qoldiradigan ulush miqdorini belgilash lozim. Bunday vazifani ehtiyotkorlik bilan hal etish talab etiladi, chunki to‘lov qobiliyati me’yorlariga amal qilinishi va moliyaviy barqarorlikka putur yetmasligi lozim.

Sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida mahalliy, shuningdek xorijiy qayta sug‘urtalovchi kompaniyalar bilan obligatorli qayta sug‘urta bitimini tuzishi maqsadga muvofiq. Mazkur tadbirning amaliyotga joriy etilishi natijasida kompaniya zararlari (majburiyatlari)ning ikki tomon o‘rtasida taqsimlanishi orqali moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishga, shuningdek qayta sug‘urta xizmatlarini import qilish hajmini kamaytirishga erishiladi. Mahalliy kompaniyalar bilan bunday bitimning tuzilishi qayta sug‘urta mukofotlarining ichki bozorda saqlanib qolishi va taqsimlanishini ta’minlasa, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik ularning sug‘urta majburiyatlarini jalb qilish orqali kiruvchi qayta sug‘urta oqimini vujudga keltiradi.

M. I. Braginskiyning e’tirof etishicha, qayta sug‘urtalash orqali sug‘urtalovchi zimmasidagi majburiyatni o‘zi va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasida qayta taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘ladi[5]. Shu nuqtayi nazardan, qayta sug‘urta sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan risklarni qayta taqsimlash usuli sifatida tushuniladi. Sug‘urtalovchi moliyaviy barqarorligining asosi (shakllantirilgan ustav kapitali, sug‘urta zaxiralari va qayta sug‘urta tizimi) uning moliyaviy imkoniyatlarini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda, sug‘urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini uning majburiyatlar bo‘yicha potensial salohiyati sifatida belgilash mumkin.Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash masalasi sug‘urtalovchidan quyidagi shartlarga rioya etishni talab qiladi:

- sug‘urta operatsiyalari hajmining oshishi bilan ortib boradigan majburiyatlardan ortiq bo‘sh mablag‘larning mavjudligi;
- o‘z moliyaviy imkoniyatlaridan ortiq majburiyatlarni qabul qilmaslik;
- sug‘urta summasi, sug‘urta risklari, obyektlar va hudud bo‘yicha muvozanatlashgan sug‘urta portfelini shakllantirish;
- sug‘urta qoplamalarining sug‘urta mukofotlaridan ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Qayta sug‘urtaning moliyaviy barqarorlikka ta’siri mexanizmi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Sug‘urtalovchining sug‘urta operatsiyalaridan zarar ko‘rish riskini kamaytirish. Bunday yo‘qotishlar ma’lum bir moliyaviy yil uchun sug‘urta qoplamalari hajmining sug‘urta mukofoti miqdoridan oshib ketishi tufayli yuzaga keladi. Bu holatga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

a) sug‘urtalovchida yirik va muvozanatlashgan sug‘urta portfelining mavjud emasligi;
b) joriy yilda sug‘urta hodisalari sonining kutilmagan darajada o‘sishi;
d) avvalgi yillardagi o‘rtacha qiymat bilan taqqoslaganda bitta sug‘urta hodisasiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta qoplamasi miqdorining oshishi;
e) bitta sug‘urta hodisasining fojeali oqibatlari tufayli bir vaqtning o‘zida bir necha shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish zaruratining paydo bo‘lishi.

Sug‘urtalovchida sug‘urta shartnomalarini katta miqdordagi sug‘urta summasiga tuzish imkoniyatlarining oshishi. Sug‘urtalovchilar o‘z moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda to‘lov qobiliyatini saqlash maqsadida o‘z mablag‘larining ma’lum foizidan ortiq summaga shartnoma tuzishga haqli emas. Agar sug‘urtalovchining to‘lov qobiliyati sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarni o‘z zimmasiga to‘liq hajmda olishga imkon bermasa, uning bir qismini qayta sug‘urtaga o‘tkazishi mumkin. Bu, ayniqsa sug‘urta bozoridagi raqobat sharoitida juda muhim, chunki sug‘urtalovchining imkoniyatlari uning faoliyati natijalariga har tomonlama bog‘liqdir.

Sug‘urtalovchilarga o‘z mablag‘lari hajmi va sug‘urta operatsiyalari hajmi o‘rtasidagi nisbatni tartibga solish imkonini beradi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida har bir sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarning belgilangan foizidan kam bo‘lmagan miqdorda o‘z kapitaliga ega bo‘lishi kerak. Agar sug‘urtalovchi kapitalining hajmi belgilangan talablarga javob bermasa, u kapitalini oshirish yoki sug‘urta operatsiyalarining hajmini kamaytirishga majburdir. Kapital miqdorini tez fursatlarda oshirishning imkoni kamroq, demak yangi shartnomalar tuzishdan voz kechish yoki amaldagilarini bekor qilish mijozlar ishonchsizligi va ularning kompaniyadan uzoqlashishiga olib keladi. Bunday vaziyatda sug‘urtalovchi

5 Брагинский М.И. Договорное право. Договоры о выполнении работ и оказании услуг.// Монография. – М.: Статут.2002

majburiyatining bir qismini qayta sug‘urtaga o‘tkazish jami majburiyatlar hajmining qisqarishiga olib keladi, natijada sug‘urta shartnomalarini tuzishdan voz kechmay turib belgilangan nisbatni bajarish imkonini beradi.

Sug‘urtalovchilarga yangi sug‘urta turlari bo‘yicha operatsiyalarni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Kompaniya faoliyatida yetarli ish stajining va tarif stavkalarini hisoblashda statistik bazaning yetishmasligi jiddiy xavfni yuzaga keltiradi. Majburiyatlarning ma’lum qismini o‘z zimmasiga olish orqali qayta sug‘urtalovchilar uning yuz berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarini kamaytiradi, bu esa yangi sug‘urta turlarini keng miqyosda amalga oshirish imkonini beradi va natijada sug‘urta operatsiyalarini rivojlantirishga erishiladi. Qayta sug‘urtalovchilar shartnomadagi sheriklari, ya’ni to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtalovchilarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishidan manfaatdor hisoblanadi, chunki ularning faoliyat natijalari aynan sug‘urtalovchilarga bog‘liq bo‘ladi.

Qayta sug‘urta mexanizmini qo‘llashni aksariyat sug‘urta kompaniyalari ortiqcha xarajat sifatida baholaydilar, ya’ni sug‘urta mukofotlarini ikkinchi tomon bilan bo‘lishish hamda riskni transformatsiyalashdagi xarajatlar. Qayta sug‘urtadan foydalanish borasidagi me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga qaramay, sug‘urtalovchilar bunday mexanizmni qo‘llashni afzal bilmaydi.

Sug‘urta tizimi rivojlangan davlatlarning sug‘urta bozorida qayta sug‘urtadan foydalanilganlik darajasi yuqori, buni jami sug‘urta mukofotlari hajmida qayta sug‘urta mukofotlarining 40–45 foiz ulushga egaligi bilan izohlash mumkin[6].

Jahon qayta sug‘urta bozori risklarning global qayta taqsimlanishiga asoslanadi va yirik halokatlar, qayerda ro‘y berishidan qat’i nazar, butun dunyoda qayta sug‘urta narxlarining to‘satdan o‘zgarishiga olib keladi.

Jahon sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urtaning roli ortib bormoqda. Qayta sug‘urta bozorida to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urta bozoriga qaraganda sug‘urta, bank va fond kapitallarining birlashish va globallashish jarayonlari yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayon qayta sug‘urtalovchilarning kapitallashuv darajasini oshirish zaruratidan kelib chiqib, bir necha milliard dollarga baholanadigan tabiiy ofat va zararlarni qayta sug‘urtalash uchun muhim bo‘lgan moliyaviy resurslarni shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining qayta sug‘urtalash sohasi haqida aytish joizki, bugungi kunda mazkur sohani professional darajada yuritadigan qayta sug‘urtalovchi kompaniya hamon tashkil etilmagan. Biroq, davlat rahbarining Qarori[7] bilan mazkur sohani tashkil etish bo‘yicha ustav kapitali me’yorlariga amal qilinish yuzasidan aniq talablar belgilangan va uni bajargan sug‘urta kompaniyalariga qayta sug‘urta operatsiyalarini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkinligi ta’kidlangan. O‘zbekiston qayta sug‘urta bozorida bugungi kunda “O‘zbekinvest” EISK AJ, “KAFOLAT sug‘urta kompaniyasi” AJ, “O‘zagrosug‘urta” AJ va “Gross Insurance”AJ kabi sug‘urta tashkilotlari faoliyat yuritib kelmoqdalar. Mazkur sug‘urtalovchilarning asosiy maqsadi – mahalliy va xorijiy sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda to‘lov qobiliyatini bajarishiga ko‘maklashish hisoblanadi.

Qayta sug‘urta mexanizmidan samarali foydalanish sug‘urtalovchilarning moliyaviy salohiyatini oshiradi va faoliyat ko‘lamini kengaytirishga imkon beradi. Afsuski, qayta sug‘urtadan faqat foydalanish emas, balki uni mamlakat sug‘urta bozorida joriy etish masalalarini ham oqilona hal etish zarur. Ko‘rsatkichlar O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari kam kapitallashganligidan dalolat beradi va o‘z hududiga tegishli obyektlarning bir qismini bo‘lsa ham mamlakatda ushlab qolish uning moliyaviy asoslarini mustahkamlashni taqozo etadi.

Ayrim hollarda sug‘urta tashkilotlarida qabul qilingan riskning xarakteri chuqur o‘rganilmaydi, tahlil etilmaydi, balki barcha e’tibor sug‘urta portfeli hajmini oshirishga qaratiladi. Bizning fikrimizcha, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urtaning rolini yanada oshirishga erishish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta strategiyasini puxta ishlab chiqish lozim. Bunda kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlari har tomonlama o‘rganilishi, tabiiy, siyosiy, ekologik va texnogen risklar tahlil etilib, ularning ro‘y berish ehtimolligi statistik ma’lumotlar yordamida hisoblab chiqilishi zarur. Shuningdek, asosiy e’tiborni kompaniyada qoldiriladigan ulush miqdoriga emas, riskning xarakteriga qaratish va lozim bo‘lsa, majburiyatning bir qismini qayta sug‘urtaga berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aynan riskni yaxshi o‘rganmaslik va tahlil qilmaslik natijasida katta miqdordagi sug‘urta to‘lovlari amalga oshirilib, moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir etishi mumkin.

Qayta sug‘urta shartnomalarini tuzishda qayta sug‘urtalovchining sof foydasidan qayta sug‘urtalanuvchiga tantem to‘lovlari to‘lanishi tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur tadbirning amaliyotga joriy etilishi har ikki tomon uchun manfaatli hisoblanadi. Sug‘urta hodisasi ro‘y bermagan shartnomalarda qayta sug‘urta mukofotining ma’lum qismi (foizda) shartnoma so‘nggida qayta sug‘urtalanuvchiga qaytarib beriladi va bu orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtalovchini rag‘batlantirishga erishiladi va o‘z-o‘zidan unda qayta sug‘urta mexanizmini qo‘llashga qiziqish uyg‘onadi.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga nafaqat o‘z majburiyatlarini qayta sug‘urtalovchi kompaniyaga uzatish, balki qayta sug‘urta amaliyotini o‘tkazish orqali ham erishish mumkin. Aynan

6 Manba: Aon’s Analytics Division in Reinsurance Solutions ma’lumoti.

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son Qarori.

mazkur amaliyotni bajarish orqali ham sug‘urtalovchining kapitallashuv darajasini ko‘tarish mumkin. Kompaniyaning qayta sug‘urta faoliyatini rivojlantirish va bu orqali kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirishda xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va kengaytirish kiruvchi qayta sug‘urta uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi. O‘z moliyaviy imkoniyatlaridan ortiq majburiyatlarni xalqaro sug‘urta bozoriga uzatish orqali hamkorlikni mustahkamlashga va natijada, xorijdan risklarni qabul qilish, u orqali esa mamlakatga chet el valyutasi kirib kelishini ta’minlaydi.

Shuningdek, kompaniyalarning xorijiy davlatlar bilan hamkorlik munosabatlarini olib borishining muhim sharti xalqaro reyting agentliklarining e’tirofiga sazovor bo‘lishdir. Aynan shu jihat ham xorijiy hamkorlarni, ham investorlarni jalb qiluvchi eng muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Qayta sug‘urta bo‘yicha xalqaro hamkorlikning kengaytirilishi va bardavom bo‘lishi kelajakda yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlarini namoyon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Qayta sug‘urta har qanday sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Mazkur amaliyot kompaniyalarga juda katta va oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan risklarni ishonchli qabul qilish imkonini beradi. Qayta sug‘urtalashning maqsadi sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini va sug‘urta operatsiyalarining rentabelligini ta’minlovchi muvozanatli sug‘urta portfelini yaratishdir. Shunday qilib, qayta sug‘urta mexanizmi sug‘urta kompaniyasini faoliyatni kengaytirishi, bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi va sug‘urta salohiyatini oshirishida moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Qayta sug‘urta sug‘urta kompaniyalariga o‘z moliyaviy imkoniyatlaridan yuqori bo‘lgan risklar bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urta shartnomalarini tuzish orqali sug‘urta portfeli salohiyatini oshirishga imkon beradi. Mazkur mexanizm yordamida sug‘urta kompaniyasi har qanday tashqi omillar (zararlilikning tasodifiy o‘zgarishi, talafotlarning ro‘y berishi, kumulyatsiyali talafotlar natijasidagi zararlar)dan qat’i nazar o‘z faoliyatida kerakli muvozanatni saqlab turishga qodir bo‘ladi. Shunday qilib, qayta sug‘urta mexanizmi sug‘urta kompaniyasini faoliyatni kengaytirishi, bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi va sug‘urta salohiyatini oshirishida moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida professional ishtirokchilarning faoliyati professional darajada tashkil etilmagan, bu esa sug‘urta va qayta sug‘urta jarayonlarining mukammal amalga oshishiga to‘sqinlik qiladi.

Sug‘urta sohasini isloh qilish va rivojlantirishda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, tahlil qilish va qo‘llash bo‘yicha chora- tadbirlarni amalga oshirish samarali hisoblanadi. Jumladan, sug‘urta tizimida qayta sug‘urtaning o‘rnini asoslash, uning sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyatini mustahkamlashdagi rolini belgilashda O‘zbekistonga ham geografik, ham iqtisodiy-siyosiy jihatdan yaqin bo‘lgan Rossiya qayta sug‘urta bozori tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘z majburiyatlarini (risklarni) qayta sug‘urtalash maqsadida xorij kompaniyalariga o‘tkazadigan sug‘urtalovchilar, avvalo mamlakatda mazkur amaliyotni bajarish huquqiga ega sug‘urta kompaniyalariga taklif kiritishi lozim. Sug‘urta kompaniyalari taklifni qabul qilish yoki qilmaslik bo‘yicha mustaqil qaror qabul qiladi, shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mahalliy sug‘urtalovchilarga bildirilgan taklif shartlari xorij kompaniyalariga taklif etilgan shartlarga muvofiq kelishi muhim hisoblanadi. Mahalliy sug‘urtalovchining taklifni qabul qilishi ko‘p tomonlama manfaatli hisoblanib, asosiysi, xorijga chiquvchi kapital oqimini kamaytiradi, bu esa qayta sug‘urta bozori salohiyatini va sug‘urtalovchilarning investitsiya imkoniyatini oshiradi.

Keltirib o‘tilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi qayta sug‘urtaning O‘zbekiston sug‘urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashdagi rolini oshirishga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism, 52-bob. Sug‘urta. https://www.lex.uz/docs/180552.
3. Shennanev X. M. Sug‘urtaning makroiqgisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati.// “Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muddatli istiqbolida davlat moliyasini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2019-yil 30-oktyabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. – Toshkent, 2019. 40-b.
4. Крупенко Ю. В. Финансовая устойчивость перестраховщиков как фактор стабилизации рынка страховых услуг. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Минск, 2018. – с.28.
5. Антонович Н. С. Механизм перестрахования в условиях развития страхового рынка Республики Беларусь. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Минск, 2014. – с.25.
6. Пфайффер К. Введение в перестрахование. – М.: АНКИЛ, 2000.
7. Архипов А. П. Основы страховой деятельности. Учебник. – Москва: Издательство БЕК, 2002.

Internet saytlari:

8. http: // www.mf.uz (O’zbekiston respublikasi Moliya vazirligi)
9. http: // www.stat.uz (O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo’mitasi)
10. http: // www.gov.uz (O’zbekiston respublikasi hukumat portali)
11. http: // www.lex.uz (O’zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to’plami)

SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI HAMISHA MUHIM

Bekdavlat Aliyev
TDIU "Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi" professori,
falsafa fanlari doktori

Annotatsiya: maqolada jamiyatdagi axloqiy mezonlar ko'p jihatdan qonuniy yoki ma'muriy choralar bilan emas, balki jamoatchilik fikri, shaxsning xulq-atvorini baholash bilan belgilanishi tahlil qilinadi. Zero, bolalikdagi tarbiya, oilaviy muhit nazoratsiz xatti-harakatlar inson hayotida bir umir salbiy yoki ijobiy fe'l-atvorga aylanib, odat bo'lib qoladi va ularning ish faoliyatida ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning ma'naviy kamoloti Vatan taraqqiyoti va uning kelajagida muhim ahamiyat kasb etishi, bu masala ilmiy yechimlarini kutayotganligi tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: olia, jamiyat, davlat, intellektual rivojlanish, tarbiya, ta'lim, xulq, individual, falsafa, odob, tadqiqot, ruhiyat, mafkura.

Аннотация: в статье анализируется тот факт, что этические нормы в обществе определяются не правовыми или административными мерами, а общественным мнением и оценкой поведения человека. Ведь неконтролируемое поведение в детстве, семейной среде, приобретает отрицательный или положительный характер в жизни человека, входит в привычку и влияет на его работу.

Описано, что духовная зрелость человека важна в развитии Родины и ее будущего, и что этот вопрос ждет научного решения.

Ключевые слова: Ключевые слова: семья, общество, государство, интеллектуальное развитие, воспитание, образование, поведение, личность, философия, этикет, исследование, психика, мировоззрение.

Abstract: the article analyzes the fact that ethical standards in society are determined not by legal or administrative measures, but by public opinion and evaluation of a person's behavior. After all, uncontrollable behavior in childhood, family environment, becomes a negative or positive character in a person's life, becomes a habit and affects their work.

It is described that the spiritual maturity of a person is important in the development of the country and its future, and that this issue is waiting for scientific solutions.

Key words: it is described that the spiritual maturity of a person is important for the development of the Motherland and its future, and that this issue is awaiting scientific solutions.

KIRISH

Ta'lim–tarbiya masalasi bugunning masalasi emas, u hamisha hammamiz yaxshi bilamiz, balki bu borada insoniyat tarixiga nazar tashlansa — insonlar millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar o'z avlodlariga go'zal ta'lim-tarbiya berish bo'lgan. Bugungi ta'lim tarbiyani turli usullarini qo'llanayotgan zamondamiz o'tgan ajdodlarimiz ta'lim-tarbiya masalasiga diqqat e'tiborli bo'lib kelganini anglaydi. Bugun aksar farzandlarimizni ta'lim tarbiyasini ko'rib ko'zlarimizga quvonch yoshlari kelsa, ba'zilarini ko'rib ularga yetarlicha tarbiya berolmaganimizga achinamiz.

Tarbiya borasida taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot -yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan hamisha dolzarb so'zlari naqadar haqiqat. Bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta'limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi –kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan kadrlarni tarbiyalash bo'lar ekan, bunday ta'lim-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning

professor-o‘qituvchisi ta’lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta’lim berishi, qolaversa, jonkuyar ustoz bo‘lishi shart. Kadrlar tarbiyasi davlat uchun, nafaqat davlat, balki butun jamiyat ma’naviy-moddiy tarqqiyoti uchun muhim.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan 2022 yil 20 dekabrdagi Murojaatnomasi[1]da alohida ta’kidlanganidek, “Ta’lim sifatini oshirish — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: “Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”.

davlatimiz rahbari sohada boshlagan islohotlarni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlarida o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz lozim.

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi, avvalo, boy tarixiy merosimizning tiklanishi, an’analarimizning saqlanishi va xalqimiz ma’naviyati yuksalishi bilan ilm-fan rivoji hamda ta’lim-tarbiya sifatiga uzviy bog‘liqligi shubhasiz. Jamiyat taraqqiyoti va unga uyg‘un bo‘lgan ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash jarayoni ana shu omillarning o‘zaro birligi va aloqadorligi asosida amalga oshishi insoniyat tarixida isbotlangan haqiqatdir.

Yangi O‘zbekistonda ushbu qonuniyatga og‘ishmay amal qilinmoqda. Xalq ma’naviyatini yuksaltirishga har tomonlama shakllangan, zamonaviy tafakkurli yosh avlodni kamolga yetkazishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ta’kidlash joizki, hech qachon ma’naviyat va ma’rifat bilan ta’limtarbiya bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini quvvatlab, o‘rnini to‘ldirib, o‘zaro ta’sirlanib, rivojlana boradi.

Bu jihatdan mamlakatimizda 2023 yilda sifatli ta’limga yuksak e’tibor qaratilayotgani va bu jarayonda ma’naviy rivojlanish asosida taraqqiyotni ta’minlashga harakat qilinayotgani bugungi hayot talabini aks ettiradi, albatta. Sifatli ta’lim-tarbiyaning mazkur jabhadagi muhim vazifasi yoshlarda o‘zlikni anglash tuyg‘usini tarbiyalash, ajdodlardan qolgan moddiy va ma’naviy merosning boshqalar oldida nechog‘liq ulkan ahamiyat kasb etishini anglatish, ular bilan faxrlanish va g‘ururlanish hissini kuchaytirishdan iborat.

Ta’kidlash joizki, tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o‘stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy hodisa bo‘lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir. Bugungi yosh avlodni milliy-ma’naviy ruhda tarbiyalashda milliy qadryatlar va umumbashariy g’oyalar o‘ziga xos ahmiyat kasb etmoqda. Dunyoda ma’no izlagan kishi ta’lim-tarbiya sari talpinib, yaxshilik va yomonlikning farqini anglab oladi. Shu sababdan, Yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasida uch manbaadan foydalanish mumkin. Bular:

1. Umuminsoniy qadriyatlar.
2. Islom ta’limoti.
3. O‘zbek milliy urf-odatlari.

Yuqorilagi omillar bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, u Abdulla Avloniy aytganidek: “Agar inson yaxshi tarbiya topib, buzuq hulqlardan saqlanib, go‘zal hulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul bahtiyor inson chiqar...” Shu sababdan, Abdulla Avloniy tarbiyaning inson hayotida zarurligini nazarda tutib “Tarbiya-hayot yo mamot” deb ta’kidlagan edi. Tarbiyaviy jarayon ongli, ma’suliyatli faoliyat bo‘lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib tarbiyalashga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

Bejizga xalqimiz “Beshikdan qabrgacha ilm izla” demagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xo‘sh bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga nega e’tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishiga qanday omillar to‘sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizga optimal yechim topish vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo‘lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda davlat tmonidan yaratilayotgan shart-sharoitlarga qaramasdan otna-onalarda farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik mavjudligi tahlil qilinmoqda.

Bu masala chuqur ilmiy tadqiqotlar va ommaviy so‘rovnomalar o‘tkazishni talab etadi. Aniqlangan muammolarni ilmiy asoslangan holda bartaraf etish esa asosiy masala.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr). 12:15 / 26.12.2022 2464.

Masalan, inson rivojlanishi va jismoniy rivojlanishi biologik xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib, morfologik, biokimyoviy va fiziologik o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Ammo ijtimoiy rivojlanish psixologik, aqliy, intellektual rivojlanish bilan tavsiflanadi. Falsafa konsepsiyasining rivojlanishi – bu bir holatdan ikkinchisiga o‘tish, davom etayotgan miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Inson ijtimoiy taraqqiyot cho‘qqisiga chiqqanda, uni ongi yuksak va o‘zini o‘zi anglaydigan, mustaqil ishlashga qodir odam deyiladi. Inson shaxs sifatida tug‘ilmaydi.

Demak, barkamol inson uchun zarur bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni shakllantirishga erishish lozim:

- ijobiy fazilatlar mohiyati, mazmunini to‘g‘ri tushunish hamda tahlil qilib, munosabat bildira olish;
- jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallash;
- barkamol insonni tasavvur etish, uning ma’naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash. O‘quvchilarni ma’naviy boy, jismoniy jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash lozim. O‘quvchilar qalbini odob-axloq nurlari bilan yoritmoqchi bo‘lgan tarbiyachi
- o‘qituvchi chuqur bilim, yuksak mahorat va tarbiyachilik san’atini egallamog‘i, buning uchun:
- ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda o‘qituvchi–tarbiyachi nazariy va amaliy asoslar haqida bilimga ega bo‘lishi;
- ommaviy axborot vositalari materiallari bilan tanish bo‘lishi va ulardan kerakli joyda unumli foydalana olishi;
- ta’lim to‘g‘risidagi axborotlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan voqif bo‘lishi;
- insonni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda o‘zbek xalqining milliy va ma’naviy qadriyatlaridan, manbashunosliqdan xabardor bo‘lishi va unga amal qilishi;
- ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda o‘quvchi yoshlarning ruhiyati, qiziqishi, jamoadagi ijobiy va salbiy sifatlarining mavjudligi darajasiga e’tibor berishi;
- har bir masalaga, voqea-hodisaga ijodiy yondashishi, tarbiyaviy tadbirlarning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanishi;
- XXI asrni qarshi olayotgan o‘zbek oilasida yuksak ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda mahalla va jamoatchilikning ijobiy ta’sirini 5 kuchaytiruvchi tadbirlarni joriy etishi zarur.

Shaxs sifati “individuallik” tushunchasi bilan to‘ldiriladi. Individuallik deganda, bir kishining boshqasidan o‘ziga xos xususiyatlari va farqlari tushuniladi. Individuallik, qoida tariqasida, mijozning o‘ziga xos xususiyatlariga, uning ijtimoiy faolligiga va oqilona xatti-harakatlariga tegishlidir. Insonni ijtimoiy mavjudot sifatida tasvirlash uchun “individual” tushunchasiga to‘xtalib o‘tish kerak. “Individ” atamasi bitta, faqat, bitta odamni bildiradi. U insoniyatning alohida vakili sifatida talqin qilinadi. Ya’ni har qanday aqli raso odam shaxs bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, shaxs hayot davomida rivojlanadi va shakllanadi. Rivojlanish – bu, birinchi navbatda, shaxsning miqdor va sifat o‘zgarishi jarayonidir. Inson tug‘iladi va o‘sadi, organizm organlari va tizimlari kengayadi, u so‘zga, so‘ngra so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Har xil ijtimoiy xususiyatlar va axloqiy ko‘nikmalarni, mehnat ko‘nikmalarini egallaydi.

MAVZUNING NATIJADORLIGI

Inson rivojlanayotgan haqiqiy hayotga muhit deyiladi. Shaxsning rivojlanishiga turli tashqi omillar, jumladan, geografik, ijtimoiy, ta’lim va oilaviy hayot ta’sir ko‘rsatadi. Atrof-muhit rivojlanishining ta’siri haqida gap ketganda, birinchi navbatda ijtimoiy va oilaviy muhit nazarda tutiladi. Ijtimoiy muhitni tushunishga ommaviy tuzilish, ishlab chiqarish tizimining munosabatlari, ijtimoiy jarayon va boshqalar kiradi. Eng yaqin muhit – oila, qarindoshlar va do‘stlardir.

Insonning ma’naviy ongi, insoniy fazilatlari va kamchiliklari dastlab oilada shakllanadi. Bu jarayon hech qachon to‘xtab qolmaydi[2].

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, "Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q.

Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz.

Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta’limi vazirligining ishi, deb o‘ylasa, mutlaqo yanglishadi.

2 Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. –T.: Ma’naviyat. 2018. – 12-b.

Maktab ta'limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin".

Inson taraqqiyotiga, ayniqsa, bolalik davrida oilaviy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Uyda, birinchi inson hayotining rivojlanishi va shakllanishi hal qilinadi. Odatda, bola o'zi rivojlanayotgan oila haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Oila ko'p jihatdan bolalarning manfaatlari va ehtiyojlarini, g'oyalari va kelajagini belgilaydi. Oila – jamiyatning eng kichik a'zosi. Ijtimoiy muhitdan odam hayotiy tajribalarni, o'zini tutish, gapirish, fikrlash va uning usullarini va boshqalarni o'rganadi. Inson kamolotida ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar ham muhim rol o'ynaydi. Hatto ijtimoiy muhitda ham nosog'lom guruhlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, masalan, qimor, ichkilikbozlik, giyohvandlik, talonchilik, savodsizlik va boshqalar. Ammo shuni yodda tutish kerakki, hamma bir xilda ta'lim oladi, lekin oilalar va qarashlar bir xil emas.

Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab bu - oiladir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bor. Tarbiya – oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi. Lekin tagiga zil ketgan, mo'rt oilalar oxiri ajralish bilan tugaydi, bolalar yetim, xonadonlar parokanda bo'ladi. Bu esa, jamiyat ravnaqiga albatta putur yetkazadi[3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxs axloqiy ma'naviy tarbiyasi bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Har bir inson o'z genetikasi va muhitining ma'lum ulushi bilan rivojlanadi. Tarbiya genetika va atrof-muhit ta'sirini to'g'rilaydi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkabligi bilan bir qatorda ta'limning o'rni ham doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Hozirgi uzluksiz ta'lim sharoitida insonning hayotda samarali ishtirok etishi qiyin. Xususan, ta'lim hal qiluvchi vosita bo'lib, u orqali shaxsning ijtimoiy rivojlanishi dasturi, uning va tug'ma qobiliyatlari qanot ochadi.

Ota-onalar ana shu nomutanosiblikning oldini olish uchun farzandlarda, ayniqsa o'zidan uzoqda yashayotgan o'g'il-qizlariga ularning mustaqil hayot boshlashidan oldinroq sog'lom hayot tarzini rejalashtirishga yordam berish zarur.

Bunda yoshlar quyidagilarga e'tibor berishlari muhimdir:

- Hayot tarzida ota-onasi oilasining qaysi an'analarini davom ettirishi mumkinligi, 70 turar joy va iqtisodiy-maishiy imkoniyatlari; kirim-chiqimni to'g'ri yurita olish va oila daromadi manbalari, uni to'g'ri tashkil etish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishi.
- Oila ma'naviy-psixologik muhitini yarata olish asoslarini bilishi.
- Oila ma'suliyati va vazifalarini jamiyat talablari bilan uyg'unlashtirib olib borishni anglab olishi va boshqalar.

Binobarin, genetik omillar ta'siri ostida shaxsiyat va individual xususiyatlarning rivojlanishi, muhit va ayniqsa ta'lim va tarbiya vaqt o'tishi bilan tabiiy muhit to'siqlarini, ijtimoiy ta'sirni, shuningdek, bolalarni tarbiyalashda oilaviy xatolarni olib tashlaydi va to'g'rilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr). 12:15 / 26.12.2022 2464.
2. XS.uz›O'z›…-istasang-kasbi-kamol-et. 18. 01.2021.
3. M. Rahmatov, B. Zaripov. Yangi O'zbekiston Uchinchi renessans ostonasida. – T.: "Zamin Nashr", 2021. – 56-b.
4. Nazarov L., Ochildiyev A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – T.: "Yangi asr avlodi", 2002. – 106–109-b.
5. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. – T.: "Akademiya", 2005. – 120–130-b.
6. "Ona va bola" davlat dasturi to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 5 fevral № 68 qarori. – 25-bet.
7. Amir Temur hikmatlari. – T.: "Mehnat", 1996. – 96-bet.
8. Arabov I., Raximov X. Etika i psixologiya semeynoy jizni. – Dushanbe: "Maorif", 1998. – 42-bet.
9. Axloq-odobga oid hadis namunalari. – T.: "Fan", 1999. – 172-bet.

3 Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 72-b.

JISMONIY SHAXSLAR DAROMADINI SOLIQQA TORTISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Nurmatov O.T.
PhD, Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya: maqolada jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan daromad solig‘ini iqtisodiy mohiyati, aholining daromadlarini soliqqa tortish bo‘yicha iqtisodchi olimlar qarashlari yoritiladi. Shuningdek, soliqqa tortishda tabaqalashgan stavkadan voz kechgan holda, bir chiziqli, yagona – proporsional stavkani qo‘llashning afzalliklari, daromad solig‘i bilan bog‘liq tamoyillarning asosiy nazariy jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, budjet daromadlari, daromad solig‘i,Aholi daromadlari,soliq stavkasi, proporsional stavka, progressiv stavka, regressiv stavka,adolatlilik tamoyili.

Аннотация: в данной статье рассматривается экономическая сущность подоходного налога с доходов физических лиц, анализ мнений экономистов о налогообложении доходов населения, преимущества применения линейной, однопропорциональной ставки при отказе от дифференцированная ставка в налогообложении, а также основные теоретические аспекты принципов, связанных с подоходным налогом.

Ключевые слова: государственный бюджет, доходы бюджета, подоходный налог, доходы населения, налоговая ставка, пропорциональная ставка, прогрессивная ставка, регрессивная ставка, принцип справедливости.

Abstract: the article covers the economic essence of the income tax from the income of individuals, the views of economists on the taxation of the population’s income. Also, the advantages of using a linear, single-proportional rate, and the main theoretical aspects of the principles related to income tax are discussed in case of abandoning the differentiated rate in taxation.

Key words: state budget, budget revenues, income tax, population income, tax rate, proportional rate, progressive rate, regressive rate, principle of justice.

KIRISH

Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta’sirning qanchalik darajada bo‘lishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, xususiy tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishlarni va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, agar ta’sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo‘lsa daromadlarni ko‘proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo‘lgan qiziqishlar bir muncha so‘nadi, aksincha, soliq yuki kam bo‘lsa aks holat yuz beradi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i budjet-soliq munosabatlarining kichik tizimi sifatida, xususan, ularning daromadlaridan bir qismini davlatning markazlashtirilgan fondini tashkil etish uchun davlat budjetiga olib qo‘yish jarayonida yuzaga kelgan munosabatlarni o‘zida aks ettiradi.

Ma’lumki, jismoniy shaxslar mehnat faoliyati evaziga daromad olish imkoniyatiga egadirlar. Daromadlar turli manbalardan tashkil etilishi, ularning daromadlariga nisbatan chegaralangan soliq munosabatlarini joriy etilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i faqat budjet daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balkim keng xalq ommasining turmush darajasini, daromad to‘lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog‘i lozim.

O‘zbekistonda so‘ngi 6 yilda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni ajralmas qismi bo‘lgan soliq tizimi va ma’murchiligida ham katta ijobiy samaralarga erishildi. Xususan, soliq yukini kamaytirish, ijtimoiy adolat prinsiplariga javob bermaydigan soliq imtiyozlarini voz kechish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq stavkalarini pasaytirish yo‘nalishlarida olib borilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadini pog‘onali (progressiv) stavkada soliqqa tortish amaliyoti 2019-yildan bekor qilindi va yagona 12 foizli stavkada soliq hisoblash tizimiga o‘tildi. Bu o‘z navbatida bir tomondan budjet daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ulushini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ish haqini “konvertda berish” usulini yo‘qotdi

va uchinchi tomondan soliq hisob-kitoblarini soddalashtirib, ish haqi ko‘rinishida daromad oluvchi fuqarolar daromadlarini ortishiga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish bo‘yicha yetarli darajada huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasining(eski tahrirdagi) 51-moddasida fuqarolarning qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburliklari belgilab qo‘yilgan. Bu norma O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 63-moddasida quyidagicha belgilab qo‘yilgan: “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart. Soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak”.

Daromad solig‘i bo‘yicha soliq munosabatlari hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (yangi tahrirdagi) XIII bo‘limi 364–401-moddalarida tartibga solinadi. Shuningdek soliq hisob kitoblari va hisobotlarini taqdim etish O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasining 2020-yil 24-fevraldagi “Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori asosida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi daromadlarini soliqqa tortish, unga nisbatan optimal stavka belgilash, shuningdek soliq stavkasini proporsional yoki progressiv shaklda qo‘llash bo‘yicha juda ko‘p munozarali qarashlar mavjud. Bu daromadlarga soliq solishda proporsional va progressiv stavkalarini qaysi birini adolatligi, mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’siri haqidagi muxokamalardan kelib chiqqan. Barcha zamonlarni iqtisodchi olimlari albatta bu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar. Bu bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borganlar.

Ularning ba’zilari fuqarolarni daromadlarini soliqqa tortishning yagona, bir tekisli, ya’ni proporsional stavkada amalga oshirish g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsalar, ayrim iqtisodchilar tabaqalashgan - progressiv stavkada soliqqa tortish adolatli va samarali bo‘lishini ta’kidlashgan. Ular qay xolatda ham bo‘lmasin soliqqa tortishning iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, bandlik va iqtisodiyotning boshqa jihatlariga ta’sirini tadqiq qilganlar.

Daromad solig‘ini yagona stavkada soliqqa tortishning afzalliklari haqida ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarga A. Laffer, M. Fridman, R. Xoll, R. Epshtaynlar misol bo‘ladi. Ularning fikricha har kim qancha daromad olishidan qat’iy nazar, o‘z daromadidan bir xil foizda soliq to‘lashi lozim. Daromad solig‘ini eng ko‘p tadqiq qilgan olimlardan biri mashhur iqtisodchi A.Laffer hisoblanadi. U soliqqa tortish darajasi va davlat budjetiga soliq tushumlari miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi mashhur «Laffer egri chizig‘ini» taklif qildi. Uning ta’kidlashicha, ma’lum sharoitlarda soliq stavkasini pasaytirish budjetga soliq tushumlarining oshishiga olib keladi va bu o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishga yordam beradi.

Nobel mukofoti sohibi Milton Fridman(1912–2006) daromad solig‘i bo‘yicha qarashlari asosan, daromad hajmidan qat’iy nazar, bir xil soliq stavkasini qo‘llash samarali ekanligiga qaratilgan. Uning ta’kidlashicha, daromadni bir xil – proporsional yagona, tabaqalashmagan stavkada undirilishi soliq ma’murchiligini soddalashtiradi, davlat byurokratiyasini kamaytiradi va jismoniy shaxslar hamda korxonalar uchun ko‘p, astoydil mehnat qilish va sarmoya kiritish uchun imkoniyatlar yaratish orqali iqtisodiy o‘sishga yordam beradi[1].

Fridman, shuningdek, daromad solig‘i stavkalari yuqoriligi va tabaqlashganligi odamlarning ko‘proq ishlashga va tavakkal qilishga bo‘lgan rag‘batlarini pasaytiradi, natijada bu xolat samaradorlik va innovatsiyalarga to‘sqinlik qilishi mumkin degan fikr bildiradi. Uning fikricha, kishilar o‘z daromadlarining katta qismini o‘zlari uchun saqlab qolishi kerak, toki undan sarmoya kiritish va boylik yaratish uchun foydalanishi mumkin, bu esa oxir-oqibatda butun jamiyatga foyda keltiradi. Fridman daromad solig‘i stavkasi imkon qadar past bo‘lishi kerak va bunda proporsional soliq stavkasi qo‘laniladigan soliq tizimi hukumat daromadlarini oshirishning eng samarali va adolatli usuli bo‘ladi deb hisoblagan.

1980-yillarda amerikalik iqtisodchi Robert Xoll va Elvin Rabushka keng qamrovli qator soliq imtiyozlarini bekor qilgan xolda bir tekis (proporsional) soliq stavkasini joriy etish taklifini ishlab chiqqanlar[2]. Ular soliqlarni, jumladan daromad solig‘ini proporsional stavkada hisoblash sodda va qulayligini, bu stavkalarni qo‘llash soliq hisob kitoblari uchun xarajatlarni kamaytirish imkonini berishini hamda iqtisodiy samaradorligi yuqoriligini ta’kidlaganlar.

Yana bir amerikalik huquqshunos olim Richard Epshteyn daromadlarni soliqqa tortishda proporsional stavkalarni qo‘llash afzalligi haqida izlanishlar olib borgan. U shaxsiy daromad solig‘ini hisoblashda mutanosib stavkani qo‘llash tarafdori bo‘lib, bu iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga va qonun oldida tenglik tamoyiliga yordam beradi, hamda soliq to‘lashdan qochish darajasini keskin pasaytiradi[3], deb hisoblaydi.

Ayrim iqtisodchi olimlar soliqlarni undirishda progressiv stavkaning qo‘llanilishi soliqqa tortishning adolatliligi prinsipining amaliyotga tadbiq qilinishida namoyon bo‘ladi deb hisoblashadi. Klassik iqtisodchi olimlar

1 Milton Fridman. Capitalism and Freedom: University of Chicago Press 1962.
2 Hall, Robert E. and Rabushka, Alvin. The Flat Tax. Hoover Institution Press, 2007,
3 Простые правила для сложного мира. Кембридж: Издательство Гарвардского университета. ISBN978-0674808218 .Википедия site:wiki5.ru (1995г.)

J. M. Keyns, D. Lokk, V. Petti va boshqalar ilmiy ishlarida jismoniy shaxslarga progressiv soliq solish ijtimoiy adolatga erishishning eng yaxshi usuli ekanligi va bu daromadlar o‘rtasida farqning kamayishiga xizmat qilishi haqida xulosalar keltirishgan. Fransuz iqtisodchisi E. De. Jirarden nazariyasiga ko‘ra soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo‘llash yo‘li bilan jamiyat a’zolari o‘rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin.

Ularning fikrlaricha daromadlarni progressiv stavkalarda soliqqa tortish ko‘ra aholini badavlat toifasi manfaatlariga zid bo‘lishi, ya’ni ulardan ko‘proq soliq olish va kam daromad oluvchilar talablari – ulardan imkon qadar kam soliq olish maqsadlariga javob berishi kerak. Shuning uchun aholi daromadlarini progressiv stavkalarda soliqqa tortish – bu soliq yukining katta qismini katta daromad oladigan soliq to‘lovchilarga o‘tkazish uchun mo‘ljallangan soliqqa tortish tizimidir.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish uzoq yillar - mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab to 2018-yilning oxiriga qadar soliq to‘lovchining daromadiga qarab tabaqalashgan stavkada amalga oshirilgan. Bu stavka dastlab nol foizdan 45 foizgachani tashkil etgan bo‘lsa, so‘ngi yillarda nol foizdan 22 foizgachani tashkil etgan. Bundan tashqari mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardan hajmidan qat’iy nazar pensiya fondiga 7-8 foizli majburiy ajratma ham undirilar, ish beruvchilar esa ish haqi fondidan bu yillarda 25 foizdan 45 foizgacha ijtimoiy sug‘urtaga(pensiya fondiga) ajratma ajratganlar. Bu o‘z navbatida ish haqi xarajatlarini keskin ortishiga olib kelgan. Natijada xususiy sektorda ish beruvchi va xodim bilan kelishilgan ish haqi summasini bir qismini rasmiy ravishda minimal darajada hisoblab, qolgan qismini “konvert” usulida berish hollari ko‘paygan. Shu sababli mamlakatda xufyona iqtisodiyot ulushi ortib borgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Daromad solig‘i budjetga undiriladigan to‘g‘ri(bevosita) soliqlarning asosiy turi hisoblanadi. U dunyoning ko‘plab mamalakatlari soliq tizimida mavjud bo‘lib, mamlakatlardagi soliq qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan jami daromadlaridan foiz hisobida hisoblanadi. Daromad solig‘ining asosiy afzalliklaridan biri, mazkur soliq soliq to‘lovchining to‘lov qobiliyati mavjudligida undiriladi, ya’ni ko‘p hollarda soliq agentlari o‘z xodimlariga ish haqi yoki daromad hisoblaganlarida daromad solig‘ini hisoblangan ish haqidan ushlab qoladilar va budjetga o‘tkazadilar. Daromad solig‘ini mamlakat soliq tizimida joriy etishning zaruriyati quyidagilardan iborat:

- aholining barcha qatlamlarini soliqqa tortish samaradorligini ta’minlaydi va bu orqali davlat budjeti daromadlarini oshirish imkoni ortadi;
- iqtisodiy rivojlanish natijasida aholi daramadlarini tabaqalanishuvi;
- aholi o‘rtasida “soliq madaniyatini” shakllanganligi, chunki hozirda ko‘pchilik olayotgan daromadini soliq orqali davlat budjetiga berishi zarurligini tushunadi;
- mamlakatda moliya-soliq organlarining yetarli darajada texnik tayyorgarligi.

Bir qator mamlakatlarda daromad solig‘i ham jismoniy shaxslar uchun ham yuridik shaxslar uchun qo‘llanilib, jismoniy shaxslar uchun bu soliq shaxsiy daromad solig‘i deb ataladi. Yuridik shaxslar uchun esa yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoki daromad solig‘i atamalari qo‘llaniladi. aholi daromadlarini soliqqa tortish va daromad solig‘ining nazariy jihatlari iqtisodiy fanlarni o‘rganish yo‘nalishlarida, iqtisodiyot va davlatning soliq-budjet siyosatida markaziy o‘rinni egallaydi va bu ma’lum bir tamoyillarga asoslangan bo‘lishi kerak. Daromad solig‘i bilan bog‘liq tamoyillarning asosiy nazariy jihatlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Adolatlilik tamoyili. Bu tamoyil soliq tizimi barcha fuqarolar uchun adolatli va teng bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Daromad solig‘i nuqtai nazaridan soliq yukini soliq to‘lovchilarning turli guruhlari o‘rtasida qanday taqsimlash va ijtimoiy adolatni qanday ta’minlash mazkur tamoyil asosida amalga oshirilmog‘i zarur. Daromadlarni soliqqa tortish kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.

Biz kamsitish xususiyati deganda qadimda boshqa din yoki millat vakillaridan olingan juzya – jon soliqlarini esga olamiz. Shuningdek yaqin o‘tmishda – sho‘rolar davrida “Kam farzandlik”, “Farzandsizlik” yoki “Oilasiz” mezonlari asosida aholi daromadlaridan olingan qo‘shimcha soliqlarni ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Ijtimoiy mezon deganda esa nasabi, mansabi, mavqeidan kelib chiqib belgilanishi tushuniladi. Tarixdan ma’lumki, ayrim davrlarda obro‘li shaxslar yoki amaldorlar, xukmdorlarni yaqinlari va qarindoshlari daromad solig‘i to‘lashdan butkul ozod etilgan.

Yuqoridagi mezonlardan kelib chiqib aytish mumkinki, daromadlarni progressiv stavkadasoliqqa tortish ham adolatlilik tamoyiliga to‘g‘ri kelmaydi. Soliqqa tortishni bu tizimi ko‘p ishlab ko‘p daromad olshga intiluvchilarni manfatiga zid bo‘lib, kishilarni daromadlarini yashirishga undaydi.

Bu tamoyilga ko‘ra daromad solig‘i to‘lashdan butkul yoki qisman ozod qilish ijtimoiy adolat mezonlaridan kelib chiqib belgilanishi zarur. Ya’ni nogironlar, boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga imtiyozlar berilishi mumkin. 2018-yildan mamlakatimizda yangi soliq konsepsiyasini joriy etilishi natijasida soliq qonunchiligida daromad solig‘i bo‘yicha ijtimoiy adolat mezoniga to‘g‘ri kelmaydigan juda ko‘plab imtiyozlar bekor qilindi.

2. Iqtisodiy samaradorlik. Daromad solig‘i iqtisodiy faoliyatga, mehnat, investitsiya va iste’molga oid qarorlarga ta’sir qilishi mumkin. Samarali soliqqa tortish nazariyasi qo‘llanilishi lozim bo‘lgan optimal soliq stavkalari, budjet va aholi daromadlariga, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga salbiy ta’sir etadigan omillarni minimallashtiradigan va iqtisodiy samaradorlikka yordam beradigan tuzilmalarni aniqlashga intiladi.

3. Daromadlarni progressiv, regressiv va proporsional shaklda (stavka) soliqqa tortish. Bu tushunchalar daromad darajasiga qarab soliq stavkalarini belgilashning turli usullarini nazarda tutadi. Progressiv soliq stavkasida soliq obyekti xajmini oshib borishiga mutanosib ravishda soliq stavkasi ham oshib boradi. Progressiv soliqqa tortish yuqori daromadli jismoniy shaxslarga yuqori soliq yukini yuklaydi. Regressiv stavkalarda soliqqa tortish esa progressiv stavkada soliqqa tortishning aksi hisoblanadi. Ya’ni daromad ortib borgan sari soliq stavkasi pasayib boradi va kam daromadli jismoniy shaxslarga yuqori soliq yukini yuklaydi. Bu tizim dunyoning hech bir mamlakatida yaxlit qo‘llanilmaydi. Faqat iqlim va mehnat sharoitlari og‘ir, qo‘l mehnati bilan bog‘liq olinadigan daromadlar uchun qo‘llaniladi. Proporsional soliqqa tortish shuni anglatadiki, barcha darajadagi soliq to‘lovchilar o‘z daromadlaridan bir xil foizda soliq bilan to‘laydilar.

4. Rag‘batlantirish va cheklashlar. Soliq tizimi odamlarning mehnat faoliyatlari, investitsiyalar va iste’molga oid qarorlariga ta’sir qilishi mumkin. Ayrim xolatlarda soliq stavkalari va ayrim soliq elementlari iqtisodiy faoliyat uchun rag‘batlantirish yoki cheklov berishi mumkin. Biz buni rag‘batlantirish yo‘nalishlarida ta’lim olish uchun yo‘naltirilgan mablag‘larni soliqdan ozod etilishi misolida, cheklovni esa daromadlar hajmiga qarab progressiv stavka qo‘llash siyosatida ko‘rishimiz mumkin.

5. Soliq solinadigan baza va imtiyozlar. Soliq solinadigan bazani aniqlash - daromad solig‘ining muhim jihati hisoblanadi. Shuningdek, soliq to‘lovchilarning yakuniy soliq yukiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan chegirmalar, imtiyozlar va subsidiyalar kabi soliq imtiyozlari masalalarini ko‘rib chiqish muhimdir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i dunyoning deyarli barcha davlatlarida mavjud. Shuni ham qayd etish lozimki, dunyoning 16 ta davlatida – Andora, Bagam orollari, Bahrayn, Bermud orollari, Burundi, Quvayt, Oman, Qatar, Somali, BAA, Urugvay, Vanuatu, Virjin orollari, Kayman oroli, Monaka va Saudiya Arabistonida fuqarolardan daromad solig‘i olinmaydi.

Budjet daromadlarida jismoniy shaxslar daromad solig‘i ulushi yuqoriligi fuqarolarni budjet xarajatlarini nazorat qilishga undaydi va siyosiy jarayonlarga daxldorligini oshiradi. Shu sababli dunyoni rivojlangan mamlakatlarida xususan, AQSh davlatida daromad solig‘idan tushumlar budjet daromadlarini 50 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. 2019–2022-yillar bo‘yicha olingan ma’lumotlarga ko‘ra bu ko‘rsatkich Germaniyada 40%, Fransiyada 18.1%, Italiyada 27.2%, Buyuk Britaniyada 31.3%, tashkil etgan.

Mamlakatimizda ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i – davlat budjeti daromadlarini muhim manbalaridan biri bo‘lib, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Bu soliq yuqorida aytib o‘tganimizdek bevosita(to‘g‘ri) soliq turi bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadi. Oxirgi yillarda jismoniy shaxslar daromadlaridan olinayotgan soliqlar budjet daromadlarining qariyib 11–12 foizini tashkil yetmoqda. Bu ko‘rsatkich 2015-yilda 10,4 foizni tashkil etgan.

1 - j a d v a l: Budjet daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini ulushi dinamikasi (mlrd. so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	2019		2020		2021		2022	
		summa	Davlat budjeti daromadlariga nisbati (%da)	summa	Davlat budjeti daromadlariga nisbati (%da)	summa	Davlat budjeti daromadlariga nisbati (%da)	summa	Davlat budjeti daromadlariga nisbati (%da)
1	YaIM	511800	21,9	602 551	22	734 588	22,43	888 342	22,74
2	Davlat budjeti daromadlari	12165,4		132 938		164 799		202 043	
3	Bevosita soliqlar	31676,8	28,24	45207	34	58930	35,75	64447	31,89
4	Daromad solig‘i	12 668,5	11,3	15100	11,35	18900	11,46	24300	12

Berilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, garchi 2019-yil 1-yanvardan daromad solig‘i stavkasi pasaytirilib, yagona 12 foizga tushirilganiga qaramay bu soliqni salmog‘i budjet daromadlarida yildan yilga ortib borgan.

2 - j a d v a l: Daromad solig‘i yagona (proporsional) stavkada undiriladigan davlatlar

№	Davlatlar nomi	Daromad solig‘i stavkasi (%da)	№	Davlatlar nomi	Daromad solig‘i stavkasi (%da)
1	Albaniya	10	15	Serbiya	15
2	Bosniya va Gersegovina	10	16	Sudan	15
3	Bolgariya	10	17	Yaman	15
4	Qozog‘iston	10	18	Vengriya	16
5	Qirg‘iziston	10	19	Ruminiya	16
6	Belarusiya	12	20	Angola	17
7	Makao	12	21	Ukraina	18
8	O‘zbekiston	12	22	Chernogoriya	19
9	Rossiya	13	23	Slovakiya	19
10	Iordaniya	14	24	Estoniya	20
11	Kosta-Rika	15	25	Avg‘oniston	20
12	Gonkong	15	26	Armaniston	21
13	Litva	15	27	Argentina	35
14	Mavritaniya	15	28	Meksika	35

Tadqiqot davomida 63 ta mamalakatning jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortish tizimi tahlil qilindi. hozirgi kunda bu mamlakatlarning 28 tasida aholi daromadlari proporsional stavkada soliqqa tortiladi. Bu ko‘rsatkich 15–20 yil avval 50 foizni ham tashkil etmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda 2019-yilga qadar jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish progressiv stavkalarda amalga oshirib kelingan. Bu esa o‘z navbatida xususiy sektorda kishilar mexnatiga to‘lanadigan ish haqini yuqori va munosib tarzda belgilanishiga to‘sqinlik qilgan, hamda iqtisodiyotda xufyona(yashirin) iqtisodiyotni shakllanishiga xizmat qildi. Mamlakatimizda 2019-yildan boshlab soliq tizimida olib borilgan izchil islohotlar natijasida daromad solig‘ini proporsional stavkada – ya’ni yagona 12 foizli stavkada hisob-kitob qilishga o‘tildi. Bu o‘z navbatida bir tomondan budjet daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ulushini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ish haqini “konvertda berish” usulini yo‘qotdi va uchinchi tomondan soliq hisob-kitoblarini soddalashtirib, ish haqi ko‘rinishida daromad oluvchi fuqarolar daromadlarini ortishiga xizmat qildi.

Budjet daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ulushining kattaligi bir qancha muhim jihatlardan dalolat beradi:

- Mamlakat soliq tizimida daromad solig‘ini o‘rni. Jismoniy shaxslarning yuqori daromadlari budjetga katta hissa qo‘shishlariga sabab bo‘ladi. Demak, turli manbalardan daromad oluvchi soliq to‘lovchilar davlat budjetiga jami daromadlarining salmoqli qismini soliq orqali o‘tkazadilar.
- Soliq yukining adolatli taqsimlanishi. Daromad solig‘ining katta ulushi soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta’minlashga qaratilgan soliq siyosatini olib borilayotganidan darak beradi. Agar daromad solig‘i budjet daromadlarining muhim qismini tashkil etsa, bu yuqori daromadli shaxslarning davlat moliyasiga katta hissa qo‘shayotganini anglatishi mumkin.
- Iqtisodiy faollik va uy xo‘jaliklarining daromadlari. Budjet daromadlarida daromad solig‘ining yuqori ulushi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanganligini yoki yuqori sur’atlarda rivojlanayotganini va uy xo‘jaliklari daromadi kuchli ekanligini ko‘rsatishi mumkin. Aholining bandlik darajasi, yuqori ish haqi hamda boshqa daromadlari daromad solig‘ining xajmi va budjet daromadlaridagi ulushiga ta’sir qilishi mumkin.
- Ijtimoiy dasturlar va xizmatlarni moliyalashtirish masalasi. Daromad solig‘i ulushi hukumat tomonidan taqdim etiladigan turli ijtimoiy dasturlar va xizmatlarni moliyalashtirish darajasini aks ettirishi mumkin. Daromad solig‘i hisobiga yig‘ilgan mablag‘lar ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot va aholining umumiy farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi boshqa davlat dasturlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi mumkin.
- Mamlakatda yashirin iqtisodiyot faoliyati darajasi pastligi. Yashirin iqtisodiyotda faollikning pastligi ijobiy belgi bo‘lib, bu mamlakatda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, huquqiy iqtisodiyotni rivojlantirish, soliq tushumlari darajasini va umumiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

- Soliq madaniyati yuqoriligi. Yuqori soliq madaniyati barqaror soliq tushumlarini ta'minlashga, yashirin iqtisodiyotning qisqarishi, davlatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, jamiyat manfaati yo'lida davlat dasturlari va xizmatlarini samarali moliyalashtirish imkoniyatini o'z ichiga olgan ijobiy oqibatlarga olib keladi.
- Moliyaviy savodxonligi va siyosiy faollik darajasi yuqoriligi. Kishilarning moliviy savodxonligi budjet daromadlarini taqsimlanishini shaffof tarzda amalga oshirilishini taqazo etadi. Chunki ular to'lagan soliqlarini qaysi sohaga sarflanayotganligini, bu xarajatlarni qay daraja samara berayotganini kuzatib boradilar.

Dunyo iqtisodiyotini globallashuvi, investitsiya jarayonlari va insonlar iqtisodiy faolligi darajasini ortishi kuzatilayotgan davrda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda proporsional soliq stavkalarini qo'llash adolatlilik tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi. Daromad solig'ini tabaqalashmaganligi soliqdan bo'yin tovlash, daromadlarni yashirish xolatlarini bartaraf etishga, yashirin iqtisodiyotni keskin qisqarishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida kishilarda daromadlarini bir qismini jamg'arishlariga sharoit yaratib, keyinchalik bu jamg'armalarni investitsiya yo'nalishlarida sarflashlariga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milton Fridman. Capitalism and Freedom: University of Chicago Press 1962.
2. Hall, Robert E. and Rabushka, Alvin. The Flat Tax. Hoover Institution Press, 2007.
3. Простые правила для сложного мира. Кембридж: Издательство Гарвардского университета. ISBN978-0674808218 .Википедия site:wiki5.ru (1995г.)
4. Soliqlar va soliqqa tortish. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Vaxabov A.V., Jo'rayev A.S.; O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. T.: «Iqtisod-Moliya», 2018. – 408 b.

MILLIY MAHSULOTNING MAZMUNI, TARKIBIY QISMLARI VA HARAKAT SHAKLLARINI TADQIQ QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Abdullayev Suyun Artiqovich
O‘zJTU prorektori

Annotatsiya: maqola iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish jarayonida yalpi ichki mahsulot, uning tarkibiy qismlari harakati va uning har bir bosqichida shakllanadigan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash uslubiyatini takomillashtirishning nazariy jihatlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

Maqolada yalpi ichki mahsulot, uning tarkibi va namoyon bo‘lish shakllarining iqtisodiy mazmuniga muallifning o‘z yondashuvlari bayon qilingan hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot ishida yalpi ichki mahsulotni turli usullarda hisoblashdan ko‘zlangan maqsad, har bir usulning afzallik va kamchiliklari bayon qilinib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Maqolada muammoning nazariy tomonlari bilan birga, uning amaliy jihatlari respublika iqtisodiyotining rivojlanishini tavsiflovchi rasmiy statistik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ochib berilgan. Ishning yakuniy qismida YaIM va uning tarkibiy qismlarini hisoblash uslubiyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: milliy mahsulot, evolyusiya, Yalpi ishlab chiqarish, iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, merkantilizm.

Аннотация: данная статья посвящена исследованию теоретических аспектов совершенствования методики расчета валового внутреннего продукта, движения его составляющих и макроэкономических показателей, формирующихся на каждом этапе экономического развития.

В статье описаны собственные подходы автора к экономическому содержанию валового внутреннего продукта, его составу и формам проявления, а связь между ними научно и теоретически обоснована.

В исследовательской работе приведены цель расчета валового внутреннего продукта разными способами, преимущества и недостатки каждого метода, научные предложения и практические рекомендации по их совершенствованию.

В статье наряду с теоретическими аспектами проблемы раскрываются ее практические аспекты посредством анализа официальных статистических данных, характеризующих развитие экономики республики. В заключительной части работы показаны основные направления совершенствования методики расчета ВВП и его компонентов.

Ключевые слова: национальный продукт, эволюция, валовое производство, экономика, мировое хозяйство, меркантилизм.

Abstract: this article is devoted to researching the theoretical aspects of improving the methodology of calculating the gross domestic product, the movement of its components and the macroeconomic indicators formed at each stage of economic development.

The article describes the author’s own approaches to the economic content of gross domestic product, its composition and forms of manifestation, and the relationship between them is scientifically and theoretically based.

The purpose of calculating the gross domestic product in different ways, the advantages and disadvantages of each method, scientific proposal and practical recommendations for their improvement are given in the research paper.

In the article, along with the theoretical aspects of the problem, its practical aspects are revealed through the analysis of official statistical data describing the development of the republic’s economy. The final part of the work shows the main directions for improving the methodology of calculating GDP and its components.

Key words: national product, evolution, Gross production, economy, world economy, mercantilism.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida hozirgi kundagi eng katta muammo bu yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi va uning o‘sish sur’atlarini oshirishdir. Chunki u aholi farovonligi va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning iqtisodiy manbaidir. Lekin jahonning ko‘pgina mamlakatlarida so‘nggi o‘n yillikda YaIM hajmi va o‘sish sur’atlari, uning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qismi kamayish tendensiyasiga egaligicha qolmoqda. COVID-19 sanitar inqirozidan keyin 2022-yildan boshlab, ayrim mamlakatlardagina YaIM o‘sishi bo‘yicha jonlanish sezila boshladi, xolos. Shuning uchun hozirgi davrda YaIMning hajmini oshirish, barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash, uning tarkibiy qismlari va harakat shakllarini takomillashtirish bo‘yicha jahon mamlakatlarida turli xil yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, dasturlar, loyihalar va boshqa ishlanmalar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda raqobat kurashi tobora kuchayib, shiddatli tus olayotgan va jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib borayotgan murakkab vaziyatda hamda mamlakat aholisi soni va ularning iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabining oshib borishi hisobga olinib, respublika iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va YaIMning barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash vazifalari qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining kelajakda mamlakatni yanada rivojlantirishga mo‘ljallangan strategik vazifalarida “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish, davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan YaIMga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta’minlash”[1] vazifalarining belgilab qo‘yilishi respublikada milliy mahsulot hajmi va o‘sish sur’atlarini oshirish, qo‘yilgan muammoga mutlaqo yangicha yondashish zarurligi naqadar dolzarb masalalardan ekanligi ko‘rinib turibdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Fikrimizcha, merkantilistlar o‘z davrida faqat boylik manbai va uni ko‘paytirish yo‘llarini ilmiy tadqiq qilishgan. Lekin asosiy boylik ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan mahsulot ekanligini tushunishmagan. Shuning uchun ham ular milliy mahsulot tushunchasiga, uning tarkibiy qismlari va harakat shakllariga yetarlicha e’tibor qaratishmagan.

Milliy mahsulotni ilmiy tadqiq qilgan oqimlardan yana biri fiziokratlardir. Bu oqimning asosiy vakillari F. Kene va A. Tyurgo[2] o‘sha davr iqtisodiy holatini har tomonlama tahlil etib, iqtisodiyotning muhim kategoriyalari, ya’ni milliy mahsulot, milliy daromad, milliy boylik va sof mahsulot tushunchalari bo‘yicha qimmatli fikrlarni berdilar. Ular fermerlarni himoya qilgan holda, avvalo, merkantilizmdan voz kechib, boylikning asosiy manbai mehnat va yer ekanligini ko‘rsatdilar. “Tabiiy tartib” konsepsiyasi asosida “unumli mehnat”, “sof mahsulot”, “kapital” to‘g‘risidagi ta’limotlar ilgari surildi.

Fiziokratlar g‘oyasining muhim tomoni shuki, ular merkantilistlardan farq qilib, o‘z tadqiqotlarini iqtisodiyotning muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga ko‘chirdilar. Ammo fiziokratlar ishlab chiqarish sohasini faqat qishloq xo‘jaligi sohasi bilan cheklab qo‘ygan edilar, ular sanoatni samarasiz soha deb bilganlar.

Fiziokratlar g‘oyasida “sof mahsulot” to‘g‘risidagi nazariya markaziy o‘rinni egallaydi. F. Kene milliy mahsulot va ishlab chiqarish xarajatlari o‘rtasidagi farqni sof mahsulot deb bilgan, boshqacha aytganda, bu ishlab chiqarish xarajatlaridan oshiqcha mahsulotdir. F.Kene “sof mahsulot faqat qishloq xo‘jaligi va dehqonchilikda yaratiladi, bu sohalarda tabiat kuchlari ta’sirida iste’mol qiymatlari miqdori ko‘payadi, sanoatda esa iste’mol qiymatlari faqat turli kombinatsiyalarga uchraydi, mehnat jarayonida dehqonchilikda yaratilgan mahsulotning shakli o‘zgaradi, lekin uning miqdori ko‘paymaydi, shuning uchun “sof mahsulot” paydo bo‘lmaydi va boylik ham yaratilmaydi”[3], deb ta’kidlaydi. Fiziokratlar “sof mahsulot” deb atagan tushuncha keyinchalik “Renta” nomini oldi.

Fiziokratlarning “unumli” va “unumsiz” mehnat to‘g‘risidagi nazariyasi “sof mahsulot” to‘g‘risidagi ta’limot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning mantiqiy davomi deb hisoblanadi. Merkantilistlardan farqli ravishda ular “sof mahsulot” yaratuvchi mehnat unumli bo‘ladi, ya’ni qo‘shimcha qiymatni yaratadi, degan edilar. Bu unumli mehnatning tabiati to‘g‘risidagi masalaga prinsipial to‘g‘ri yondashish yo‘li edi. Ammo renta qo‘shimcha qiymatning yakka-yu yagona aniq shakli sifatida tan olinganligi sababli, dehqon mehnati birdan bir unumli mehnat deb hisoblanadi, ishlab chiqarishning boshqa sohalaridagi (sanoatda ham) mehnat “unumsiz”, ya’ni samarasiz, degan fikrni ilgari suradi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – https://lex.uz/docs/5841063.

2 Ф. Кенэ, А. Р. Ж. Тюрго, П. Д. Немур. Физиократы. Избранные экономические произведения. – М.: “Эксмо”, 2007 г. с. 623.

3 Кенэ Ф. Избранные экономические сочинения. –М.: “Директ-Медиа”, 2007 г. с. 360–364

F. Kene iqtisodiyot tarixida takror ishlab chiqarish jarayoni va milliy mahsulot muammosini butunicha ko‘rsatish uchun birinchilardan bo‘lib urinib ko‘rdi. U o‘sha davr jamiyati fuqarolarini uch sinfga bo‘ladi: birinchisi unumli sinf (fermerlar); ikkinchisi mulkdorlar sinfi (pomeshchik, cherkov...) va uchinchisi unumsiz sinf (hunarmand, ishchi va savdo xodimlari). Bu jarayon sxematik ravishda “Iqtisodiy jadval”da tasvirlangan. Unda mamlakatda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning aylanishi orqali qanday taqsimlanishi ko‘rsatilgan, buning oqibatida ishlab chiqarishning avvalgi hajmida qayta boshlash uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

F. Kenening g‘oyalari Ann Rober Jak Tyurgo[4] (1727–1781-yy.) tomonidan davom ettirildi va chuqurlashtirildi. Tyurgoning ta’limotida pul, qiymat, sinflar va daromad nazariyalari bir muncha tahlil etiladi. U “milliy boylik” bu, avvalo, yerlar va ulardan olinadigan “sof mahsulot”dir, deb qayd etadi.

A. Tyurgo boshqalar kabi erkin sohibkorlik mehnatini qo‘llab-quvvatladi, dehqonchilik sof mahsulot manbai ekanligini tan olgan holda, sanoat va savdoga ham ko‘p e’tibor qiladi. Lekin oxir-oqibatda fiziokratizm qobig‘idan chiqa olmaydi, sof mahsulotning asosiy shakli yana yerga va yer rentasiga qaytadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy jarayonlarning tizimli tadqiq qilinmaganligi, hodisa va jarayonlarning o‘zaro ta’siri yetarlicha e’tiborga olinmaganligi sababli hozirgi davrda ilmiy texnika taraqqiyoti jadal sur’atlar bilan avj olib borayotgan, ishchi va xizmatchilar, turli xildagi korxona va tashkilotlarning yangi texnika-texnologiya bilan qurollanish darajasi oshib borishi va mehnat unumdorligining o‘sishiga qaramasdan narxlar darajasining ko‘tarilib ketayotgani, natijada yuqori inflyatsiyaning tub sabablari hanuzgacha aniqlanmagan. Holbuki, mehnat unumdorligining oshishi tovarlar va xizmatlar qiymatining, narx darajasining pasayishiga olib kelishi kerak. Amalga oshirilayotgan investitsiyalar, uning natijasida kirib kelayotgan yangi texnika va texnologiyalar YaIM hajmi, sifati, talabga mosligi va narxi bilan bog‘lanmagan holda qaralib, ularning samarasini tahlil qilish chetda qolib ketmoqda. Yalpi ichki mahsulotning o‘sishi uni yaratuvchilar manfaati bilan bog‘liqligi hisobga olinib, ularni samarali rag‘batlantirish mexanizmi ishlab chiqilmagan.

Yaratilgan mahsulotning tarkibiy qismlari, harakat shakllari va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikning chuqur o‘rganilmaganligi natijasida YaIMning taqsimlanish jarayonida shakllanadigan omilli daromadlar o‘rtasidagi tafovut juda kattaligicha qolmoqda. Bundan tashqari, YaIM tarkibiy qismlarining funksional vazifalari tadqiq qilinmaganligi sababli uning davlat budjeti, u orqali butun mamlakat taraqqiyoti (fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish, mamlakat mudofaasini mustahkamlash) bilan bog‘liqligi tadqiq qilinmagan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida quyidagi uslubiy masalalarga e’tiborni kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz.

- Milliy mahsulotni tadqiq qilishda tizimlilik, mantiqiy izchillik prinsipiga (tamoyiliga) amal qilish, bunda har bir voqea, hodisa va jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratish;
- Milliy mahsulotning hozirgi davrdagi harakat shakli bo‘lgan YaIMning tarkibiy tuzilishi, ayniqsa, uning ishlab chiqarish jarayonida shakllangan qismlari va ularning funksional vazifalarini yoritishga e’tibor berish;
- YaIM va uning tarkibiy qismlarining takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakat shakllarini o‘rganishga, birinchidan, uni yaratuvchilar, ikkinchidan, davlat budjeti va u orqali aholi daromadlari, uchinchidan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liqligiga e’tiborni qaratish;
- YaIM tarkibiy qismlari va harakat shakllarini takomillashishining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga ta’sirini e’tiborga olish;
- YaIMni tadqiq qilishda ikki tomonlama yondashuv va tahlil usuliga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki, bu muammoni tadqiq qilishda bir tomonlama yondashuv iqtisodiy voqea, hodisa va jarayonlarning chuqur mohiyatiga kirib borishga, ular haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga to‘sqinlik qiladi.

Fikrimizcha, ushbu aytilgan uslubiy yo‘nalishlar ichida YaIM hajmi, tarkibi va harakat shakllari o‘rtasidagi bog‘liqlikni takomillashtirishda ikki tomonlama yondashuv va tahlil usuliga alohida e’tibor berish lozim. Chunki bu uslubsiz yuqorida aytib o‘tilgan masalalarning birontasini ham hal qilib bo‘lmaydi (1.1-rasm).

Bu ikki tomonlama yondashuv alohida olingan bir korxonada emas, balki barcha tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda sodir bo‘ladi va natijada ikki xil xususiyatga, ijtimoiy naflilik va ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan tovar va xizmatlar massasi (YaIM) vujudga keladi. Bu, bir tomondan, naflilikka ega bo‘lgan tovar va xizmatlar, ikkinchi tomondan, qiymatning moddiylashgan ifodasi, ya’ni pullar harakatidan iborat bo‘ladi. Keyingi bosqichda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qarama-qarshi turgan tovarlar va pullar harakatini tartibga solish, boshqarish zarurati vujudga keladi va u amalga oshiriladi. Samarali boshqaruv, o‘z navbatida, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlaydi.

4 Ф. Кенэ, А. Р. Ж.Тюрго, П. Д. Немур. Физиократы. Избранные экономические произведения. – М.: “Эксмо”, 2007 г. с. 623.



1.1-rasm: YaIM harakatiga qiymat va naflilik jihatdan yondashuv[5]

Bundan ko‘rinadiki, YaIMni tadqiq qilishga ikki yoqlama yondashuv to‘g‘risidagi ilmiy konsepsiya uchta muhim uslubiy funksiyani bajaradi:

- ilmiy tushunchalar tizimini yaratish va tartiblashtirish;
- iqtisodiy munosabatlarning kelib chiqish sabablari (genetik asosi) shakllanib, uning qaror topishi, rivojlanish jarayonini bilish va oydinlashtirish;
- iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan va amal qilayotgan munosabatlarni bir tizimga keltirib, tizimli tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi.

Ushbu bayon qilingan uslubiy yo‘nalishlar milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari, takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakat shakllarini va, nihoyat, uning har bir tarkibiy qismining funksional vazifasi va rolini yoritishni ham osonlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy xo‘jalik ko‘lamida yalpi ishlab chiqarish hajmida oraliq mahsulot va yalpi ko‘shilgan qiymat nisbatining o‘zgarish tamoyillari YaIMni ishlab chiqarish samaradorligiga baho berishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Respublikada keyingi yillarda bozor narxlarida hisoblangan yalpi ishlab chiqarish (YaICh) hajmida oraliq mahsulot ulushi barqaror pasayib, yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) salmog‘i shunga mos ravishda ortib borish tavsifiga ega bo‘lgan.

2.1-jadval: O‘zbekistonda YaICh hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o‘zgarishi, (foizda, YaIM bozor narxlarida)[6]

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2000	2005	2010	2015	2020	2022	2022-yil 2000-yilga nisbatan o‘zgarishi
Yalpi ishlab chiqarish hajmi	100	100	100	100	100	100	
Oraliq mahsulot	50,3	49,1	45,3	42,8	43,0	43,2	-7,1
Yalpi qo‘shilgan qiymat	49,7	50,9	54,7	57,2	57,3	57,6	7,9
Farqi “+” “-“	-0,6	1,8	9,4	14,4	14,3	14,4	

5 Muallif ishlanmasi.
6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bu davrda ular ulushi o‘rtasidagi farq yalpi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichi foydasiga 7,9 % ga ortgan, ya’ni YaIMning qayd qilingan hajmini ishlab chiqarish uchun 2022-yilda 2000-yil bilan taqqoslaganda 7,1% ga kam qayta ishlash, ishlov berish va qayta sotish maqsadidagi mahsulotlar ishlatilgan.

Milliy ishlab chiqarish hajmi asosiy narxlarda hisoblanganda oraliq mahsulot va qo‘shilgan qiymat ulushining ikkinchisi foydasiga o‘zgarishidagi farq yanada kattaroq miqdorni tashkil qiladi. Tahlil qilingan davrda ishlab chiqarish hajmida oraliq mahsulot ulushi barqaror qisqarib, YaQQ salmog‘i ortib borish bilan birga, farqlar ko‘lami ham kattalashib borgan. Jumladan, 2022-yilda bozor narxlarida hisoblanganda farqlar ko‘lami 14,4 %ga, asosiy narxlarda hisoblanganda esa 9,8 %ga teng bo‘lgan, ya’ni bitta ko‘rsatkichning ikki xil narxlardagi farqi 4,6 %ni tashkil qilgan.

2.2-jadval: O‘zbekistonda YaICh hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o‘zgarishi,%da (asosiy narxlarda)[7]

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2000	2005	2010	2015	2020	2022	2022 yil 2000 yilga nisbatan o‘zgarishi
Yalpi ishlab chiqarish hajmi	100	100	100	100	100	100	
Oraliq mahsulot	53,4	51,9	45,3	45,0	45,2	45,3	-8,1
Yalpi qo‘shilgan qiymat	46,6	48,1	54,7	55,0	55,3	55,1	8,5
Farqi “+” “-”	-6,8	-3,8	9,4	10,0	10,1	9,8	

Asosiy narxlarda hisoblanganda YaICh hajmida oraliq mahsulot ulushi 2000 va 2005-yillarda 50,0 % lik darajadan yuqori ulushni tashkil qilib, YaQQ dan mos ravishda 6,8 % va 3,8 %ga ortiq bo‘lgan. Keyingi davrlarda farqlar ko‘lami YaQQ foydasiga barqaror ortib, 2022-yilda uning ulushi 55,0 % dan ortgan va oraliq mahsulot bilan farqi 9,8 %lik darajaga yetgan.

Bu YaIMning mavjud hajmini ishlab chiqarishga 2000-yil bilan taqqoslaganda 2022-yilda 9,8 %ga teng miqdordagi oraliq mahsulot qiymati kamroq ishlatilganligini anglatadi. Respublika iqtisodiyotidagi bu ijobiy tamoyillar, bir tomondan, yalpi ishlab chiqarish hajmida xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ulushi kamayib, pirovard tovar va xizmatlar salmog‘i ortib borayotganligini, boshqa tomondan, iqtisodiy va moliyaviy resurslar sarfida tejamkorlik omillarining ahamiyati o‘sayotganligini bildiradi.

Respublikada YaIM ishlab chiqarish tarkibidagi ro‘y bergan ijobiy o‘zgarishlar, avvalo, tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning pirovard natijalaridagi ijobiy siljishlar natijasi hisoblanadi. O‘rganilgan davrda milliy iqtisodiyotda tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmida ham oraliq mahsulot ulushi barqaror qisqarib borish tamoyillariga ega. Biroq, bu qisqarish butun real iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish sohalariga qiyosan sezilarli darajada katta ko‘lamga ega emas. Mazkur qisqarishning 2000–2022-yillardagi o‘rtacha darajasi bozor narxlarida hisoblangan yalpi ishlab chiqarish hajmidagi oraliq mahsulot ulushi qisqarishidan 1,3 barobarga, asosiy narxlarda hisoblangan xuddi shu ko‘rsatkichnikidan 1,5 martaga va xizmat ko‘rsatish yalpi hajmidagi oraliq mahsulot salmog‘i qisqarish darajasidan 1,4 barobarga yaqin kam bo‘lgan.

2.3-jadval: O‘zbekistonda YaICh hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o‘zgarishi, %da 2000–2022-yillar[8]

Ko‘rsatkichlar	Oraliq mahsulot	YaQQ	YaQQ ulushining o‘sishi
Yalpi ishlab chiqarish hajmida bozor narxlarida asosiy narxlarda	 -7,1 -8,1	 7,9 8,5	 15,1 18,0
Tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmida	-4,7	4,6	10,3
Xizmat ko‘rsatish yalpi hajmida	-8,1	8,1	14,6

Natijada tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmida qo‘shilgan qiymat ulushi barcha davrlarida 50,0 %lik darajadan past ko‘rsatkichni tashkil qilib, 2022-yilda 2000-yildagi 41,6% dan 46,2% gacha ortgan. Oraliq mahsulot ulushining barqaror kamayishi va YaQQ salmog‘ining ulushi ortishi natijasida 2022-yilda 2000-yil bilan taqqoslanganda bozor narxlarida hisoblangan yalpi ishlab chiqarish hajmi 15,1 %ga (asosiy narxlardagisi 18,0 % ga), tovarlarning xuddi shunday hajmi 10,3% ga, xizmat ko‘rsatishniki esa 14,6% ga ortgan.

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.
8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2.4-jadval: O‘zbekistonda tovarlarni ishlab chiqarish yalpi hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o‘zgarishi, % da[9]

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2000	2005	2010	2015	2020	2022	2022 yil 2000 yilga nisbatan o‘zgarishi
Tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmi	100	100	100	100	100	100	
Oraliq mahsulot	58,4	56,8	54,1	54,1	53,4	53,7	-4,7
Yalpi qo‘shilgan qiymat	41,6	43,2	45,9	45,9	46,5	46,2	4,6
Farqi “+” “-”	-16,8	-13,6	-8,2	-8,2	-6,9	-7,5	

Respublikada o‘rganilgan davrda yalpi ishlab chiqarish hajmida qo‘shilgan qiymat ulushining 7,5 %ga o‘sishiga tovar ishlab chiqarish hajmida qo‘shilgan qiymat ulushi ortishiga qiyosan xizmat ko‘rsatish hajmida shu ko‘rsatkichning yuqori o‘sish sur’atiga ega bo‘lishi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu davrda tovarlarning yalpi ishlab chiqarish hajmida qo‘shilgan qiymat ulushi o‘sishiga nisbatan (4,3 %), xizmat ko‘rsatish hajmida mazkur ko‘rsatkich o‘sishi (8,1 %) 1,4 barobarga yaqin yuqori bo‘lgan. Ayni vaqtda xizmat ko‘rsatish yalpi hajmida oraliq mahsulot ulushi qisqarishi ham tovar ishlab chiqarish hajmidagi shunday ko‘rsatkichdan 1,4 barobar ko‘proqdir.

2.5-jadval: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatishning yalpi hajmida oraliq mahsulot va YaQQ nisbatining o‘zgarishi, % da[10]

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2000	2005	2010	2015	2020	2022	2022 yil 2000 yilga nisbatan o‘zgarishi
Xizmat ko‘rsatish yalpi hajmi	100,0	100,0	100,0	100	100	100	
Oraliq mahsulot	44,7	42,6	39,3	36,6	36,4	36,1	-8,6
Yalpi qo‘shilgan qiymat	55,3	57,4	60,7	63,4	63,8	64,2	8,9
Farqi “+” “-”	10,6	14,8	21,4	26,8	26,8	28,1	

2000–2022-yillarda oraliq mahsulot va yalpi qo‘shilgan qiymat nisbati yalpi tovar ishlab chiqarish hajmida 1,4:1,0 dan 1,2:1,0 gacha qisqargan bo‘lsa, xizmat ko‘rsatish yalpi hajmida bunday qisqarish 0,8:1,0 dan 0,58:1,0 gacha nisbatda ro‘y bergan. Boshqacha aytganda, 2000-yilda 100 so‘mlik tovar ishlab chiqarishga 140 so‘mlik, shuncha miqdorda xizmat ko‘rsatishga 80 so‘mlik oraliq mahsulot ishlatilgan bo‘lsa, 2022-yilda oraliq mahsulot sarfi tovar ishlab chiqarishda 120 so‘mni, xizmat ko‘rsatishda 58 so‘mni tashkil qilgan, ya’ni, ularning nisbiy ulushi mos ravishda 8,8 va 28 %ga qisqargan.

Milliy ishlab chiqarish samaradorligini va aholi farovonligini oshirish talabi yalpi ishlab chiqarish hajmida oraliq mahsulot ulushini qisartirish hisobiga qo‘shilgan qiymat salmog‘ini o‘stirib borishni taqozo etadi. Bu talab butun milliy iqtisodiyotga tegishli bo‘lsa-da, tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda oraliq mahsulot ulushini qisqartirishning katta imkoniyatlari mavjud. Bunda resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilib borish alohida o‘rin tutadi. Xizmat ko‘rsatish yalpi hajmida oraliq mahsulot ulushi tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga qiyoslaganda 1,4 barobarga kam ko‘rsatkichni tashkil qiladi, mazkur soha xususiyatidan kelib chiqib, uni yanada qisqartirish hisobiga qo‘shilgan qiymat salmog‘ini o‘stirish samaradorlikning muhim omili bo‘lib qoladi.

YaICh hajmida qo‘shilgan qiymat ulushini o‘stirib borishda oraliq mahsulot salmog‘ining qisqarishini taqozo qiladigan mahalliylashtirish jarayoni ko‘lamini kengaytirish muhim yo‘nalishlardandir.

Bu mahalliy xomashyo bazasi asosida import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali nafaqat tashqi bozorlarga bog‘liqlikni kamaytiradi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish orqali qo‘shilgan qiymat ulushi o‘sishi uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, mahalliylashtirishni chuqurlashtirish mahalliy xomashyoga ichki talabni shakllantirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘laroq foydalanishni ta’minlash, valyuta resurslarini xomashyo hamda butlovchi materiallar importini qisqartirish hisobiga tejash, aholi bandligini oshirib borish imkonini beradi.

9 O‘sha manba.
10 O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikada yaqin istiqbolda ham iqtisodiyotning mulkiy tuzilishidagi o‘zgarishlar nodavlat mulk shakllari nisbati foydasiga ro‘y beradi. O‘z navbatida, bunday o‘zgarishlar nodavlat mulk shakllari ichki tuzilishiga ham tegishli bo‘ladi.

Hozirgi bosqichda O‘zbekiston iqtisodiyoti YaIM mulkiy tuzilishidagi o‘zgarishlarni taqozo qiluvchi yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

1. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish. Bu bir tomondan, nodavlat mulk shakllari, boshqa tomondan uning tarkibida fuqarolar xususiy mulki ulushining barqaror o‘sishiga olib keladi.

   Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yilda 38,2 mingdan ortiq yangi kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etilib, ularning umumiy soni 245 mingdan ko‘proqni tashkil qilgan. YaIMni shakllantirishda bu sohaning ulushi 2000-yildagi 31 %dan, 2022-yilda 53,3 %ga yetgan. 2022-yilda yaratilgan ish o‘rinlarining yarmidan ko‘prog‘i kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka tegishli bo‘lgan. Hozirgi kunda bu sohaga barcha band bo‘lganlarning 78,3 %i to‘g‘ri keladi[11].

2. Mamlakatda ishchi kuchining samarali bandligini ta’minlash. O‘zbekistonda bandlikning mulkiy tarkibida ro‘y bergan o‘zgarishlar, milliy iqtisodiyotda xususiy mulk va uning doirasida xo‘jalik yuritishning turli-tuman shakllari ustuvor o‘rin egallab borayotganligini ko‘rsatadi. Bu tamoyil istiqbolda ham iqtisodiyotning mulkchilik tarkibidagi muqarrar ro‘y beradigan o‘zgarishlar tufayli o‘z o‘rnini saqlab qoladi.

3. Xususiylashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonini yanada chuqurlashtirish. Bu sohada hozirgi bosqichdagi muhim ustuvor yo‘nalish iqtisodiyotidagi davlat ulushini iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish hisoblanadi.

4. Iqtisodiyotda korporativ mulk yoki aksiyadorlik birlashmalari faoliyati samaradorligini oshirish. Milliy iqtisodiyotga qo‘yilgan kapital qo‘yilmalarda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushini o‘stirib borish. 2000–2022-yillarda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi ikki barobardan ko‘proqqa ortib 2020-yilda 73,8 %ni tashkil qilgan.

5. Korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobidan yo‘naltiriladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy investitsiyalar ulushini oshirib borish. Respublikada bunday investitsiyalar hajmi 2022-yilda jami investitsiyalar hajmining qariyb 34,0 % dan ko‘prog‘ini tashkil etgan.

6. Jami investitsiyalarda fuqarolar xususiy mulki hisobiga shakllanadigan mablag‘lar salmog‘ini o‘stirib borish. Respublikada bunday mablag‘larning jami investitsiyalardagi ulushi o‘zgarishiga nisbatan beqarorlik tamoyili xos. Uning yalpi investitsiyalardagi ulushi 1997-yildagi 10,5 %dan, 1998 yilda 19,5 %ga yetgan, keyin yana pasayib, 2001-yilda 10,8 % lik darajaga tushgan. 2010-yildan mazkur mablag‘lar ulushi barqaror o‘sib (16,0 %), 2022-yilda 21,0 %lik darajaga yetgan.

7. Xorijiy kapital ishtirokidagi qo‘shma korxonalar faoliyatini kengaytirish. Hozirgi kunda respublikamizda mashinasozlik, neft-gaz, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida, kimyo, to‘qimachilik, oziq-ovqat, farmasevtika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlarda 90 dan ortiq mamlakatning xorijiy kapitali ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bu, milliy xo‘jalik mulkiy tuzilishini takomillashtirish bilan birga, iqtisodiyotimiz tarmoqlarini tubdan modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va uning turini ko‘paytirish, jahon bozoridagi raqobatbardosh yangi mahsulotlar ishlab chiqish imkonini bermoqda. Respublika iqtisodiyotining mulkiy tuzilishi takomillashuviga olib keluvchi mazkur omillar, YaIM da nodavlat mulk salmog‘ini o‘stirib borish bilan birga, uning samaradorligini oshirishni ham ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абалкин Л. Роль государства в становлении и регулировании рыночной экономики. Вопросы экономики. 1997. № 6.
2. Балашова Е. Финн Кидланд и Эдвард Прескотт: движущие силы экономических циклов. Вопросы экономики. 2005. № 1. -https://www.vopreco.ru/jour/article/view/1397.
3. Балацкий Е.В. Функциональные свойства институциональных ловушек. Экономика и математические методы. 2002. Т.38. №3. -https://meps.econ.vsu.ru/meps/article/download/182/973.
4. Vohobov A.V. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichida kup ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. Monografiya. T. 2002 y.

11 https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf

5. Веселов Д.А., Яркин А.М. Институциональные изменения, неравенство и долгосрочное экономическое развитие: теория и эмперика. Вопросы экономики. 2022. № 1. - https://www.vopreco.ru/jour/article/view/3074.
6. Jo‘rayev T. T., Oripov A. Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati va undan samarali foydalanish yo‘llari. Xalqaro moliya va hisob 2021. №3. - https://interfinance.uz/en/arxiv/268-2-2021.
7. Kalandarov R.A. Iqtisodiyotning real sektori rivojlanishida institutsional o‘zgarishlarning xorijiy tajribasi. Biznes-Ekspert. 2020. №9-10 (153-154).
8. Qalandarov R.A. The Importance of Institutional Changes in the Context of Innovative Development of the Economy. Journal of Management Value & Ethics. 2021 Jan.-March. Vol. 11 No.01. -http://jmveindia.com/journal/FILE%20JAN-MARCH%2021%20FINAL.pdf.
9. Kalandarov R.A. Iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga institutsional o‘zgarishlarning ta’sirini oshirish yo‘llari. Xalqaro moliya va hisob 2021. №3. - https://www.interfinance.uz/en/arxiv/269-3-2021.
10. Kalandarov R.A. The role of the state in increasing the impact of institutional changes on real sector development. International Journal of Management, IT and Engineering. 2022. Volume 12, Issue 1. - https://www.ijmra.us/2022ijmie_january.php.
11. Карпунина Е.К. Зарубежный опыт модернизации экономической политики в условиях постиндустриальной трансформации. Всемирная история модернизации. - https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-modernizatsii-ekonomicheskoy-politiki-v-usloviyah-postindustrialnoy-transformatsii/viewer.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI YIRIK TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINING EKONOMETRIK TAHLIL VA NATIJALARI

Kaxxarov Ulug‘bek Xalmatovich
TXKU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi yirik 12 ta tijorat banklarining 12 yillik choraklik ma’lumotlari asosida kreditlash amaliyotiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraktsiyalash, ekspert baholash, induktsiya va deduktsiya, taqqoslash, tizimli tahlil va ekometrik modellar usullaridan keng foydalanilgan holda amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat bank, kreditlash amaliyoti, kreditlash mexanizmi, bank xizmatlari, depozit siyosati, bank daromadi, bank xarajati.

Аннотация: на основе квартальных данных 12 крупнейших коммерческих банков Республики Узбекистан за 12 лет определены факторы, влияющие на практику кредитования. В процессе анализа представлены практические предложения и рекомендации с использованием методов научной абстракции, экспертной оценки, индукции и дедукции, сравнения, системного анализа и эконометрических моделей.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, практика кредитования, механизм кредитования, банковские услуги, депозитная политика, доход банка, стоимость банка.

Abstract: based on quarterly data from 12 largest commercial banks of the Republic of Uzbekistan for 12 years, factors influencing lending practices were identified. The analysis process presents practical suggestions and recommendations using methods of scientific abstraction, peer review, induction and deduction, comparison, systems analysis and econometric models.

Key words: commercial banking, lending practice, lending mechanism, banking services, deposit policy, bank income, bank value.

KIRISH

Rivojlangan davlatlap tajribasiga ko‘ra, kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishi tijorat banklari tomonidan kreditlash hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning YaIMdagi ulushi 70 foizdan ortig‘ini tashkil etmoqda. Iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining asosiy qismi ham kichik biznes subyektlari sohasida band bo‘lib, ular Yaponiyada 70 foizdan ortig‘ini, AQShda 80 foizdan ortig‘ini tashkil qilmoqda. Kichik biznes subyektlari faoliyatining 80 foizidan ortiq qismigacha bo‘lgan qismi tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtipiladi[1]. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantipish hamda kreditlash bo‘yicha ilg‘or innovatsion bank xizmatlapini ko‘rsatish va taklif etish borasida jadal raqobat muhiti takomillashmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Ppezidentining 2022-yil 28-yanvapdagi «2022–2026-yillapga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning tapaqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni[2], 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020–2025-yillapga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni[3] hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola ma’lum darajada xizmat qiladi.

1 Obzor sferы uslug Zapadnых stran. www.export.by/act./doc@mode, http://aftershock.news: Politeconomica. ru/feb 2013/malyj – biznes.: http://aftershock.news.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son. https://lex.uz/docs/5841063.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni. https://lex.uz/docs/4811025.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmlarini amalga oshirishda jismoniy shaxslarga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa yuridik shaxslarga kreditlar berish jarayoni hisoblanadi. Ushbu mexanizmni takomillashtirish uchun tijorat banklari samaradorlik, qulaylik va risklarni boshqarishni oshirishga qaratilgan turli chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin[4].

Xususan, osiyolik iqtisodchi olim R.Rajan, bank va moliyaviy tashkilotlar tomonidan kreditlarni olish, kredit riskini va banklarning iqtisodiy rolini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U haqiqatan ham bank va moliya sohalarida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan va kreditlash mexanizmi, kredit bozorlari va moliyaviy tartibga solish kabi turli jihatlarga e’tibor qaratgan[5]. Uning ilmiy-tadqiqot ishlariga qo‘shgan hissalari bank tizimlarining faoliyati, iqtisodiy taraqqiyotda kreditning o‘rni va samarali moliyaviy tartibga solishning ahamiyati haqida qimmatli ma’lumotlar berdi.

Iqtisod bo‘yicha nobel mukofoti sovrindori J.Stiglits o‘z ilmiy izlanishlari orqali bank va moliya sohasiga katta hissa qo‘shgan. Olim bank faoliyatining turli jihatlari, jumladan, kreditlash amaliyoti, risklarni boshqarish va tijorat banklarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarni nashr etgan[6].

Olim kredit amaliyotida axborot assimetriyasi, moliyaviy inqirozlarning bank sektoriga ta’siri va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda banklarning roli kabi masalalarni batafsil yoritib bergan. Uning tadqiqotlari zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimining faoliyati va ahamiyatini tushunishimizga katta ta’sir ko‘rsatgan.

1) bir hisobot yilidan kam davomiylikka ega qisqa muddatli investitsion loyihalar. Loyihalarning ushbu toifasiga amal qilayotgan biznesni, mahsulot ishlab chiqarishga tayyor quvvatlarni (texnologik liniyalar, majmualarni) sotib olish, shuningdek, nomoddiy aktivlar (tovar belgilari, litsenziyalar, patentlar)ga mablag‘lar kiritishga asoslangan investitsiyalar kiradi. Auditni tashkil qilish nuqtai nazaridan ko‘rsatib o‘tilgan investitsion loyihalar majburiy yillik audit jarayonida uning bir qismi sifatida ham, mustaqil tekshiruv sifatida ham tahlil qilinishi mumkin. Bunday loyihalar bo‘yicha audit obyektlari investitsion audit uchun xos tarkibiy qismlarni ham (loyiha-smeta hujjatlari), natijaviy ma’lumotlarni ham (ishlab chiqarish hisobotlari, buxgalteriya va moliyaviy hisoboti) o‘z ichiga oladi. Ayni shu sababli qisqa muddatli investitsion jarayonlar auditini tashkil qilish kompleks iqtisodiy tahlil, rejali va amaliy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishni qamrab oladi;

2) bir hisobot yilidan ko‘proq davomiylikdagi uzoq muddatli investitsion loyihalar. Ularni quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- natijalar investitsion davr oxirida olinadigan uzoq muddatli loyihalar. Bu holda hisobot davri davomida auditni tashkil qilishda obyektlar sifatida faqat loyihaviy va rejali ma’lumotlar ishtirok etadi, natijaviy ma’lumotlar esa (masalan, tayyor mahsulot hajmining ortishi) faqat bir necha yildan keyin tekshiriladi. Audit metodikasida nazoratning hujjatlashtirish usullariga ko‘proq e’tibor qaratish kerak, chunki faktik nazorat uchun obyektlar soni yetarlicha bo‘lmasligi mumkin. Shundan kelib chiqib, ichki auditning mustaqil tashqi nazorat uchun axborot manbasi sifatidagi roli bir necha marta oshadi;
- natijalar investitsion davrning o‘zidayoq olinadigan uzoq muddatli loyihalar. Bunday investitsion loyihalar auditini tashkil qilish nazorat obyektlarining doim o‘zgarib turishi (natijaviy ma’lumotlar, reja ko‘rsatkichlari o‘zgarishi) bilan ajralib turadi, chunki loyihani joriy etish davomida uning bosqichlari va parametrlari olingan natijalarga qarab tuzatib boriladi. Shu munosabatda bunday investitsion loyihalar auditini tashkil qilish nazorat obyektlari va me’yoriy axborotni tezkor tuzatib borishnigina emas, balki loyiha parametrlarining qanchalik asosli tuzatilganini baholash uchun ekspertlarni jalb qilishni ham ko‘zda tutishi kerak.

Investitsion faoliyatni nazorat qilish xususiyatlarini aks ettiruvchi yana bir murakkab masala, – bu bir vaqtning o‘zida bir nechta subyektlar (ichki auditor, tashqi auditor, davlat moliyaviy nazorat organlari, bank va sug‘urta tashkilotlari) tomonidan tekshiruvlarni amalga oshirish. Turli subyektlarning nazorat obyektlari biz tomonimizdan 1-jadvalda tizimlashtirib berilgan.

1 - j a d v a l: Turli subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsion faoliyatning nazorat obyektlari

Nazorat obyektlari	Nazorat subyektlari				
	ichki auditor	investorning vakillari	banklar, sug‘urta tashkilotlari	Davlat moliyaviy nazorat organlari	tashqi auditor
A	1	2	3	4	5
Loyiha-smeta hujjatlarining sifati	+	+	-	-	+
Investitsion loyihaning bajarilishini bosqichma-bosqich nazorat qilish	+	+	+	-	+
Moliyaviy va boshqa taxminiy axborotlar	+	+	-	-	+/-
Kassa muomalalari	+	+	+	+	+
Moddiy boyliklar saqlanadigan ombor	+	-	-	+	+
Mehnatga haq to‘lash	+	-	-	+	+
Uzoq muddatli aktivlar hisobini tashkil etish	+	+	+	+	+
Uzoq muddatli aktivlarni saqlash sharoitlari	+	-	-	+	-
Debitorlik qarzlari: –umumiy – debitorlar bo‘yicha	 + +	 +	 +	 + +	 + +
Kreditorlik qarzlari: - umumiy - kreditorlar bo‘yicha - byudjet bilan hisoblashishlar bo‘yicha	 + + +	 +	 +	 + +	 + +
Aktsiyadorlik jamiyatlarining tahlili	+	+	-	+	+
Hujjatlar aylanishi	+	-	-	-	-
Lavozim yo‘riqnomalarini bajarilishi	+	-	-	-	+/-
Ichki xo‘jalik buyruq va farmoyishlarni bajarilishi	+	-	-	-	+/-
Jarayonlar: - tayyorlov - ishlab chiqarish - sotish	 + + +	 -	 -	 -	 -
Mahsulot sifati	+	+	-	-	-
Konsalting	+	-	-	-	- / +
Tavsiyalar	+	+	-	-	+

1-jadvalni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bir xo‘jalik subyektini bir davrning o‘zida bir xil masalalar bo‘yicha turli nazorat subyektlari tekshirishi mumkin, ayrim masalalar bo‘yicha esa tekshiruvni faqat ichki auditor olib boradi. O‘ylaymizki, bunday vaziyat ko‘p jihatdan turli nazorat organlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning mukammal emasligi bilan izohlanishi mumkin. Faqat shuni aytish kerakki, bir obyektni tekshirish funksiyalarning takrorlanishini anglatmaydi, chunki tekshiruvlar axborotdan foydalanuvchilarning turli guruhlari manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladi va nazorat axboroti turli darajada detallashtiriladi. Shu bilan birga, funksiyalarni va nazorat obyektlarini samarali ajratgan holda takrorlanish samarasini birmuncha kamaytirish mumkin. O‘ylaymizki, ichki audit xizmati tomonidan samarali, tezkor va uslubiy ta’minlangan nazoratning amalga oshirilishi, shuningdek, nazorat standartlarining soddalashtirilishi – nazoratni investor, banklar, sug‘urta tashkilotlari, davlat organlari va qisman tashqi auditorlar zimmasidan ichki audit tizimiga ko‘chirish imkonini beradi. Bunday holda nazoratning

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

boshqa barcha subyektlari o‘z ishini ichki auditorlardan olingan ma’lumotlarni hisobga olib tashkil qiladilar, bu esa, fikrimizcha, xo‘jalik subyekti – investitsiyalarni oluvchining moliyaviy-aktsiyadorlik jamiyatlarini tekshirishlar sonini tartibga solish (kamaytirish)ga yordam beradi.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion jarayon xususiyatlarining ta’sirini baholash asnosida biz tashqi va ichki nazoratni o‘zaro muvofiqlashtirishga imkon beruvchi chora-tadbirlarni taklif etishga harakat qildik. Investitsion faoliyatning tashqi va ichki auditini tashkil qilish shunday jarayonki, unda nafaqat tashkiliy va uslubiy, balki texnik muammolar ham hal etiladi. Tadqiqot jarayonida biz xo‘jalik subyektlari – investitsiyani oluvchilarning tashqi va ichki auditi amal qilishining tashkiliy bosqichlarini ajratib berdik (1-rasm).



1 - r a s m: Aktsiyadorlik jamiyatlarining tashqi va ichki investitsion auditining tashkiliy bosqichlari

Aytish joizki, ichki va tashqi auditning o‘zaro ta’sirini investitsion auditning har bir tashkiliy-texnologik bosqichida ta’minlash mumkin va maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ichki nazorat va xususan, ichki audit tizimining axboroti nazoratning boshqa barcha turlari va subyektlari uchun asosiy baza bo‘lishi kerak. Xo‘jalik subyekti investitsion auditining birinchi tashkiliy bosqichi umumiy maqsad va vazifalarni aniqlash bosqichi bo‘lishi kerakki, ularga erishish u yoki bu darajada ham tashqi, ham ichki auditor ishining sifat ko‘rsatkichi vazifasini o‘taydi. Ushbu bosqich xo‘jalik subyekti hujjatlarini, jumladan, investitsiyalash jarayonlariga tegishli bo‘lmagan, biroq xo‘jalik subyektining o‘zi tomonidan nazorat vazifalari va maqsadlarini eng maqbul tarzda integratsiyalash uchun korxonaning strategik, taktik va tezkor maqsadlarini (“ichki va tashqi audit” aloqasi o‘rtasida ham) belgilash imkonini beradigan hujjatlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Shuni ham alohida aytish joizki, tashqi va ichki investitsion auditni tashkil qilish bo‘yicha olib boriladigan ishlarning natijalari oldingi tashkiliy bosqichlarga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, nazorat rejalari va dasturlarini puxta ishlab chiqish u yoki bu strategik va lokal maqsadlar va vazifalarni aniqlashtirish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin.

Ichki audit xizmati to‘g‘risida nizomni investitsion auditning tashkiliy bosqichi hisobida aniqlashtirishda ichki audit xizmati ichida huquqlar va majburiyatlarning, barcha toifadagi xodimlar vakolatlarining taqsimlanishini, ichki audit xizmati va uning tarkibiy bo‘linmalarining hisobdorligini aniqlashtirish talab etiladi. Ushbu bosqichda nazorat axboroti bilan eng yuqori darajadagi samaradorlik bilan va to‘liq ayirboshlashni tashkil qilish uchun ichki firma auditorlik standartlari ishlab chiqilishi va ular ichki auditni o‘tkazish metodikasi bilan uyg‘unlashtirili-

shi kerak. Buning uchun axborot ham ichki, ham tashqi auditor tomonidan umumiy kelishilgan kontseptsiyalar, tamoyillar, metodikalar asosida shakllantirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion faoliyati xususiyatlari ichki va tashqi audit tizimining amal qilishigagina emas, balki har qanday samarali faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektining ajralmas qismi sifatida ularning shakllanishi va o‘zaro ta’sir qilishi jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar davomida aniqlagan bir qator investitsion audit xususiyatlari, masalan, investitsion faoliyat subyektlarining turli-tumanligi va investitsiyalar obyektlarining kengligi, ichki audit xizmati xodimlari zimmasiga muayyan huquq va majburiyatlarni yuklash zarurligini belgilaydi. Fikrimizcha, alohida xodimlarning ham, umuman ichki audit xizmatining ham investitsion audit maqsadlari va vazifalarini aks ettiruvchi huquq va majburiyatlari ichki boshqaruvning quyidagi hujjatlarida ifodalanishi kerak:

- ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizomda;
- ichki audit xizmatining ichki siyosati to‘g‘risidagi nizomda;
- ichki audit standartlarida;
- ichki auditorlarning lavozim yo‘riqnomalarida.

Ichki boshqaruvning ko‘rsatib o‘tilgan elementlari quyidagi asosiy belgilarga ega bo‘lishi lozim:

- tez-tez uchrab turadigan munosabatlarda qo‘llaniladigan me’yorlardan tashkil topgan bo‘lishi. Investitsion auditga tadbiqan bu, avvalambor, ichki audit subyektlarining asosiy huquq va majburiyatlarini mustahkamlab qo‘yishni bildiradi, aniq vaziyatlarni talqin qilish esa ichki auditorning malakaviy tajribasiga tayanishga asoslanishi kerak;
- ichki audit xizmati faoliyatining turli tomonlariga nisbatan me’yorlar tizimidan iborat bo‘lishi. Bunday xususiyatlarga ko‘proq ichki audit standartlari ega bo‘lishi lozim, bu standartlar ichki audit tizimi ishining ham tashkiliy, ham uslubiy jihatlarini tartibga soladi;
- ular daxldor bo‘lgan xodimlar uchun majburiy tusga ega bo‘lishi kerak. Ichki auditni ichki boshqarish tizimida alohida xodimlar uchun ishlab chiqiladigan lavozim yo‘riqnomalari ko‘proq aniq subyekt tomon yo‘nalganlikka ega. Ichki audit standartlari ham muayyan subyektlar – ularni bajaruvchilarga qaratilgan;
- yozma shaklda qayd etilishi lozim.

Fikrimizcha, ichki audit xizmatining ishlash tartibi xo‘jalik subyektining investitsion faoliyatida ham, umuman moliviy-aktsiyadorlik jamiyatlari uchun ham tegishli buyruq bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion jarayonlarini samarali audit qilish uchun ichki audit xizmati ichki audit standartlarini ishlab chiqishlari kerakki, ularda investitsion faoliyat ichki auditining xususiyatlari o‘z aksini topishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ilxamov Sh.I. Audit (1-qism) Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2018.
2. Do‘smuratov R. D. Audit asoslari. Darslik. – T.:-2003.- B. 245.
3. Сотникова Л. В. Внутренний контроль и аудит. Учебник. - М.: Финстатинформ, 2001. –С. 42-49.
4. Данилевский Ю. А., Шапигузов С.М. и др. Аудит: Учеб. пособие. - 2-е изд. перераб. и доп. - М.: Издательский дом ФБК-ПРЕСС, 2018. – С. 139.
5. Скобара В. В. Аудит. Методология и организация. - М.: Дело и сервис, 2008. –С. 195-198.
6. Ilxamov Sh. I. Audit jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasi. Monografiya. T.: Iqtisodiyot, 2012.
7. Ilxamov Sh. I. Amaliy audit (Darslik). – T.: Iqtisodiyot, 2018.
8. Audit. 1-2-jild. Darslik. M. M. Tulaxodjaeva va Sh. I. Ilxamov umumiy tahririda tayyorlangan. – T.: Norma, 2008.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOG‘-MOY KORXONALARI PERSONALINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Azlarova D.A.
PhD, TKXU
Talim sifatini nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida yog‘-moy korxonalari personalini boshqarish masalalari tadqiq qilingan. Unda O‘zbekistonda yog‘-moy korxonalari personalini boshqarishni raqamli strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishga qaratilgan turli yondashuvlar tadqiq qilingan, muallifning ilmiy va amaliy xulosalari shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, yog‘-moy korxonalari personali, boshqauv, texnologiya, innovatsiya, ish haqi, daromad, lavozim, ma’lumotlilik.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы управления персоналом в масложировых предприятий в условиях цифровой экономики. Были изучены различные подходы к разработке и реализации цифровой стратегии управления масложировыми предприятиями в Узбекистане и сформированы авторские научные и практические выводы.

Ключевые слова: цифровая экономика, масложировые предприятия, персонал, управление, технологии, инновации, заработная плата, доход, прибыль, должность, образование.

Abstract: the article discusses topical issues of personnel management in fat-and-oil enterprises in the context of the development of the digital economy. Various approaches to the development and implementation of a digital strategy for managing fat-and-oil enterprises in Uzbekistan were studied and the author’s scientific and practical conclusions were formed.

Key words: digital economy, fat and oil enterprises, personnel, management, technology, innovation, wages, income, profit, position, education.

KIRISH

Yog‘-moy sanoati O‘zbekistonning agrosanoat majmuasining jadal rivojlanayotgan va eksportga yo‘naltirilgan tarmog‘idir. Shu bois, iqtisodiy va geosiyosiy vaziyatning o‘zgarishi, savdo va logistika yo‘nalishlarining uzilishi, ekologiya, yashil iqtisodiyot bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi, yog‘-moy sanoatining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi strategik ahamiyatini ortiradi.

Hozirgi kunda, moyli ekinlar selektsiyasi va urug‘chiligini rivojlantirish, ularni yetishtirish va qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish, yog‘-moy sanoatining mutanosib rivojlanishini ta’minlash masalalari institutsional tatbiq etilmoqda.

Bu o‘z navbatida kasbiy vakolatlar darajasini oshirish va yog‘-moy sanoatida kadrlarni qayta tayyorlash masalasini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Ma’lumki, yog‘-moy sanoati o‘z ichiga moyli o‘simlik ekinlarini yetishtirish, o‘simlik moylarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, iste’mol qilinadigan va sanoat o‘simlik moylari, xususan, margarinlar, mayonez, glitserin, distillangan yog‘ kislotalari, yuvish vositalarini ishlab chiqarishni oladi. Shuningdek, yog‘-moy sanoati mamlakat qishloq xo‘jaligi uchun yuqori oqsilli ozuqani yetkazib beruvchi tarmoqlardan biridir.

Respublikamizda 90-yillarning boshlarida yog‘-moy sanoatida yog‘ ishlab chiqaradigan 19 ta korxona faoliyat yuritgan, ularning umumiy ishlab chiqarish quvvati yiliga 3,6 million tonna paxta urug‘ini tashkil etgan. Ammo ishlab chiqarish quvvatining juda katta bo‘lishiga qaramay, uskunalarning yetishmasligi va qayta ishlash amaliyotining yo‘qligi sababli ushbu korxonalarda boshqa turdagi yog‘li o‘simliklarni qayta ishlash imkoniyati mavjud bo‘lmagan.

So‘nggi yillarda respublikamiz hukumati tomonidan yog‘-moy sanoatini rivojlantirishga katta e’tibor berildi. Yog‘-moy sanoati korxonalarining texnologik jihozlari paxta chigitlarini qayta ishlashga moslashgan bo‘lishiga qaramay, soya yog‘ini ham qayta ishlash texnologiyasini o‘zlashtirdi. Mahalliy noan’anaviy moyli o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, rivojlandi, kungaboqar, zig‘ir, kunjut va meva yog‘larini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi tarkibida 80 dan ortiq korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2019–2022-yillarda “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarda qiymati 2260,7 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan (916,0 mlrd. so‘mi korxonalarning o‘z mablag‘lari, 938,0 mlrd. so‘mi tijorat banklari kreditlari va 49 mln. AQSh dollariga teng xorijiy investitsiyalar) jami 144 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bu loyihalarning 70 tasi o‘simlik moyi, 28 tasi omuxta yem, 1 tasi soya oqsili, 31 tasi boshqa mahsulotlarishlab chiqarish, 3 tasi zamonaviy sig‘imlar tashkil etish va 2 tasi asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha tashkil etilmoqda. Buning natijasida quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutilgan:

- 4357 ta yangi ish o‘rinlari barpo etish, 8 ta yangi turdagi yog‘-moy mahsuloti ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, tayyor mahsulotlar tannarxini 15 %ga arzonlashtirish, energoresurslar sarfini 20 %ga tejash, mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish;
- yog‘-moy mahsulotlari eksportini 2 barobarga oshirish. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi yog‘-moy sanoati korxonalarini barqaror sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keldi.

Yog‘-moy sanoati korxonalari faoliyati ko‘p jihatdan rahbarlarga, ularning boshqaruv sohasidagi professional mahoratiga bog‘liq.

Bugungi kunda mamlaktimizda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturi[1] hayotga tatbiq etilgan va “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son Qarori[3] qabul qilingan. Unga ko‘ra, 2023-yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 baravarga ko‘paytirilishi rejalashtirilgan.

Yog‘-moy sanoati korxonalarida ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha mavjud axborot tizimini optimallashtirish hamda CRM-tizimini takomillashtirish, loyihalarni boshqarish va xodimlar KPI darajasini baholash bo‘yicha axborot tizimini joriy etish, xodimlar bilan ishlash bosqichlarini to‘liq funksional kuzatish uchun xodimlarni boshqarishning yagona tizimi (HR)ni joriy qilish masalalari ustivor sanaladi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomada “Taraqqiy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortig‘i “bilimlar iqtisodiyoti” hisobidan, ya’ni, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar tomonidan yaratilayotgani buni yaqqol isbotlamoqda”[5] deb ta’kidlab o‘tganlar.

Mamlakatimizda yog‘-moy sanoati korxonalarida personalni boshqarish jarayoni ish rejasini ishlab chiqish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ularni birlashtirish, ish jarayonlariga rahbarlik qilish, korxonaning alohida bo‘linmalari va xodimlari ishini muvofiqlashtirish, ish jarayonini nazorat qilish hamda sohada xalqaro standart me’yorlarini talab darajasida biladigan malakali mutaxassislar yetishmasligi kabi muammolarning mavjudligi boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etishni talab qiladi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash...»[2] vazifalarida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi respublikamiz korxonalarida personalni boshqarish mexanizmini yanada takomillashtirish, korxonalarni tajribali, yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash va boshqarish samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yog‘-moy sanoati korxonalarining eng qimmatbaho resurs manbai bu uning ishchi va xodimlari hisoblanadi. Yog‘-moy sanoati korxonalari personalini boshqarish masalasi aksariyat korxonalar uchun eng ustuvor masalalardan sanaladi, chunki personalni samarali boshqarish orqali rentabellik va raqobatbardoshlik oshadi.

Personalni samarali boshqarish – bu tashkilotning boshqaruv xodimlarining maqsadli faoliyati, shu jumladan kadrlar siyosati kontseptsiyasi va strategiyasini, xodimlarni boshqarish tamoyillari va usullarini ishlab chiqishga asoslanadi. Personal menejmenti kadrlar siyosatini va boshqaruvini tizimli shakllantirish, tashkilotning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, personal faoliyati bo‘yicha operatsion dasturni rejalashtirish, ishlab chiqish, xodimlarni marketing, kadrlar salohiyatini aniqlash va takomillashtirishdan iborat.

Aynan shuning uchun ham personalni boshqarish masalasida bir qator xorijiy va maxalliy iqtisodyai olimlarimiz tadqiqiotlar olib borishgan.

Maqolada “Personalni boshqarish” tushunchasining bir nechta ta’riflarini ko‘rib chiqamiz. Rossiyalik iqtisodchi V. A. Dresvyannikov ushbu atamani boshqaruv faoliyati funktsiyalaridan biri sifatida ko‘rib chiqadi, uning fikricha, “personalni boshqarish – bu boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos funktsiyasi, uning asosiy obyekti ma’lum ijtimoiy guruhlarga kiruvchi shaxsdir»[6].

V. Vesninning ta’rifi P. Egorshinning talqini bilan umumiy xususiyatlarga ega: «bu insonni uning atrof-muhitida boshqarish, uning intellektual va jismoniy imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun sharoitlarni ta’minlash, mehnat munosabatlarini mustahkamlash, rag‘bat (motivatsiya) va xodimlardan maksimal daromad» [7; 8]. Ushbu ta’riflarda xodimlarni boshqarish insonning shaxsiga qaratilgan; bu ta’rifda personal menejmentining mohiyati to‘liqroq ochib beriladi, uning xarakterli xususiyatlari aniqlanadi.

Y.G. Odegov tomonidan kontseptsiyaning batafsil talqini beriladi: “personalni boshqarish – bu tashkilot rahbariyatining personalni psixologik, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy usullardan foydalangan holda menejerlar va xodimlarni boshqarish tizimi hisoblanadi, unda mutaxassislar bilan ishlash samaradorligini oshirish orqali tashkilot samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyat sohasi deb qaraladi» [9]. Ushbu ta’rif tashkilot faoliyati va uning ishchi kuchi ishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi. Ta’kidlanishicha, aynan xodimlar samaradorligini oshirish orqali umuman tashkilot samaradorligi oshadi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim akademik Q. X. Abduraxmonov mehnat resurslari, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari, ulardan oqilona va samarali foydalanishning nazariy jihatlarini keng asoslab bergan. Q. H. Abdurahmonov personalni boshqarishga alohida xodim va umuman korxona manfaatlarini ta’minlash maqsadida inson salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, axloqiy va huquqiy munosabatlar tizimidir [10] deb ta’kidlaydilar.

Korxonalarda personalni boshqarishda mehnat resurslari rentabelligining omilli tahlili M.Q. Pardayev, I.T. Abdukarimov, B.I. Isroilovlar [11] tomonidan atroflicha tadqiq etilgan va ular mehnat resurslari rentabelligiga ta’sir etuvchi quyidagi omillarni aniqlagan:

- ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
- xodimlarning umumiy soni;
- oliy ma’lumotli xodimlar soni;
- o‘rta maxsus ma’lumotli xodimlar soni;
- o‘rta ma’lumotli xodimlar soni;
- to‘liqsiz o‘rta ma’lumotli xodimlar soni.

Yuqoridagi talqinlarni umumlashtirib aytishimiz mumkinki, personal menejmenti – bu kadrlar bilan ishlashni tashkil qilishning o‘zaro bog‘liq texnikasi, shakllari, usullari to‘plamidir va ular:

birinchidan, tashkilotning boshqaruv xodimlari nomidan o‘tkaziladi;

ikkinchidan, xodimning jismoniy va intellektual imkoniyatlaridan samarali va to‘liq foydalanish uchun shart-sharoitlarni ta’minlashga qaratiladi;

uchinchidan, tashkilotning ish faoliyatini yaxshilashga va samaradorligini oshirishga qaratiladi.

Shunday qilib, ba’zi mualliflar texnik, ma’muriy yoki shaxsiy madaniy quyi tizimlarni quyi tizim sifatida ajratadilar. Boshqalari korxonalarni boshqarishda ikki qismni ajratib ko‘rsatadilar: faoliyatni boshqarish va inson resurslarini boshqarish. Mualliflarning aksariyati personalni boshqarish tizimining xususiyatlarini korxona umumiy boshqaruvining quyi tizimi sifatida ko‘rib chiqadilar va quyidagilarni ta’kidlaydilar: obyekt va subyekt, tizimning maqsadlari, vazifalari, uning funktsiyalari va tuzilishi, ishlash tamoyillari va usullari.

Korxona xodimlarini boshqarish tizimining predmeti va obyektini ko‘rib chiqamiz. Personalni boshqarish subyekti – bu yechimlarni bevosita ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan menejer yoki boshqaruv apparati xodimi. Xodimlarni boshqarish obyekti menejment yo‘naltirilgan element. Bunday holda, bu alohida ishchilar yoki jamoalar hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarga asoslanib, fikrimizcha, personalni boshqarish korxona va tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatayotgan personaldan korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yo‘lida samarali foydalanish nazarda tutilib amalga oshiriladigan amaliy faoliyat turi sifatida qaralishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, yog‘-moy sanoatida personalni boshqarishni takomillashtirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og‘zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o‘rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma’lumotlarni tizimlash bo‘yicha mahsus yondoshuvlar, ya’ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlillash kabi usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yog‘-moy sanoati korxonalarida personalni boshqarish bu bir qator o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar va faoliyat sifatida amalga oshiriladi, korxonada xodimlarini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan foydalanishga ta’sir etish mexanizmlari, tamoyillari, shakllari va usullari ishlab chiqiladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonning yog‘-moy sanoatida umumiy qiymati 155 million dollar bo‘lgan 26 ta investisiya loyihasi amalga oshiriladi, shundan, 32 million dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalardir [16].

Bu mamlakatning yog‘-moy korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarining o‘zgarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Agar 2021-yilda asosiy e’tibor paxtani qayta ishlashga qaratilgan bo‘lsa, 2022–2023-yillarda kungaboqar, soya va boshqa moyli ekinlarni qayta ishlash ulushini ortishiga xizmat qiladi.

“O‘zyog‘moysanoat” aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 362 ta yog‘-moy korxonasi faoliyat yuritmoqda. Mavjud quvvatlar yiliga 450 ming tonna o‘simlik yog‘i, 64 ming tonna margarin mahsulotlari, 109 ming tonna kir sovun ishlab chiqarish imkonini bermoqda [16].

2022-yilda yog‘-moy korxonalari tomonidan 6,13 trillion so‘m miqdorida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, bu borada o‘tgan yilga nisbatan 108,2 foiz o‘sish sur’atiga erishilgan. Jumladan:

- 201 ming tonna o‘simlik moyi (o‘sish sur’ati 103,6 foiz);
- 25,5 ming tonna margarin mahsulotlari (o‘sish sur’ati 105,5 foiz);
- 18,9 ming tonna xo‘jalik sovuni (o‘sish sur’ati 105,1 foiz);
- 354 ming tonna shrot (o‘sish sur’ati 112 foiz);
- 238,1 ming tonna sheluxa (o‘sish sur’ati 107,3 foiz);
- 98,7 ming tonna omuxta yem (o‘sish sur’ati 112,5 foiz) ishlab chiqarildi.

Shuningdek, 441 milliard so‘mlik boshqa mahsulotlar tayyorlandi va xizmatlar ko‘rsatildi.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Navbatdagi masala – 2023-yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo‘shimcha 4 milliard dollarga oshirish asosiy maqsadimiz bo‘ladi.

Bu yil boshlangan “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi o‘z samarasini bermoqda. Umuman, 2023-yilda eksport hajmi tariximizda ilk bor 23 milliard dollardan ortadi”, deb ta’kidlab o‘tganlari bu borada amalga oshiriladigan ishlar ko‘lamining kattaligini bildiradi.

Xususan, “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi tizimidagi korxonalar tomonidan 2022-yilda prognozdagi 23,0 million AQSh dollari o‘rniga 39,3 million AQSh dollari miqdorida yog‘-moy mahsulotlari eksporti amalga oshirilgan. Natijada mahsulot eksporti bo‘yicha joriy yilga belgilangan prognoz ko‘rsatkichi 171 foizga bajarilishi ta’minlangan [17].



1 - r a s m: “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi tizimidagi korxonalarining 2022-yilda yog‘-moy mahsulotlari eksporti haqidagi ma’lumoti, (ming dollar)

Ushbu davrda yog‘-moy mahsulotlari asosan quyidagi davlatlarga eksport qilingan(1-rasm):

Afg‘oniston – 25 million 667 ming dollar.

Turkmaniston Respublikasi – 4 million 239 ming dollar.

Tojikiston Respublikasi – 4 million 142 ming dollar.

Qozog‘iston Respublikasi – 1 million 553 ming dollar.

Qirg‘iziston Respublikasi – 1 million 76 ming dollar.

Bundan tashqari, Rossiya, Gruziya, BAA, Mongoliya, AQSh, Niderlandiya, Singapur, Iroq, Turkiya va Ozarbayjon kabi davlatlarga ham yog‘-moy mahsulotlari eksporti amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda yurtimizda 240 tadan ziyod katta va kichik yog‘-moy korxonalari mavjud bo‘lib, ular tomonidan yiliga 60 turdagi va 200 dan ortiq assortimentdagi yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Korxonalardan 80 tasida o‘simlik moyi, 38 tasida margarin mahsulotlari, 25 tasida mayonez, 94 tasida xo‘jalik va atir sovun va 3 tasida distillangan glitserin mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Ishlab chiqarilayotgan yog‘-moy mahsulotlari UZTR 520-023:2017:2017 «Yog‘-moy mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risida»gi texnik reglament talablariga to‘liq javob beradi. Korxonalarda ISO 9001:2015 va ISO 22000 xalqaro sifat standartlari joriy etilgan.

Shuningdek, o‘rik, uzum, qovoq, tarvuz, anor, zig‘ir va kunjutdan yiliga 62 ming tonna noan’anaviy xom ashyo olish va uni qayta ishlash hisobiga 16 ming tonnadan ziyodroq shifobaxsh moy ishlab chiqarish imkoniyati mavjud [12].

Yog‘-moy korxonalarini har tomonlama rivojlantirish, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va sohada yagona siyosat yuritilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-sonli «Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘ri-sida»gi qarori [4] qabul qilingan bo‘lib, mazkur qarorga asosan O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi tashkil etilgan.



2 - r a s m: “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi ijro apparati tashkiliy tuzilmasi [12]

1-rasm ma’lumotlaridan boshqaruv xodimlarining umumiy soni 35 ta ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasida bitta boshqaruv raisi o‘rinbosari va unga bo‘ysinuvchi investitsiyalar va innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish boshqarmasida 5 ta xodim, Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini monitoring qilish boshqarmasida 5 ta xodim, xom-ashyo bazasini rivojlantirish boshqarmasida 3 ta xodim, standartlashtirish, sifatni monitoring qilish va baholash bo‘limida 2 ta xodim faoliyat yuritadi.

Strategik tahlil va prognozlashtirish boshqarmasida 3 ta xodim, marketing, eksport va logistika boshqarmasida 3 ta xodim, moliya, buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limida 3 ta xodim faoliyat yuritadi va yog‘-moy sanoati tarmog‘i kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Shuningdek, yuridik bo‘limda 2 ta, murojaatlar va ijro intizomini nazorat qilish xizmati, personalni boshqarish, axborot-kommunikatsiya, axborot xizmati-matbuot kotibi, maxsus qism va ishlar boshqarmasida bittadan xodim faoliyat yuritmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasida yordamchi (xizmat ko‘rsatuvchi va texnik) xodimlar soni me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi. “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi tarkibida 10 mingdan ziyod 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar faoliyat olib bormoqda. Ularning 22 foizi boshqaruv lavozimlarida xizmat qilmoqda [14].

Yuqorida aytib o‘tilganidek, “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi tarkibida yog‘-moy ishlab chiqaradigan 240 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritib, ular 15 mingga yaqin odamni ish bilan ta’minlagan.

2-rasm ma’lumotlari asosida inobatga olib, “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasida kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan real ehtiyojni va istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash, mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirishda ishtirok etish, mazkur sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish zarur.

Jahon bozorida noan’anaviy moylar xaridorgirligi va narxining yuqoriligini hisobga olsak, mahalliy yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun ulkan imkoniyat ekanligidan dalolat beradi. Shu bois O‘zyog‘moysanoat uyushmasi tomonidan meva danaklari va poliz mahsulotlari urug‘larini qayta ishlashga ixtisoslashgan 5 ta kichik korxona tashkil qilingan [12].

Hozirda, noan’anaviy yog‘-moy mahsulotlarini ko‘paytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida yog‘-moy sanoati korxonalarini raqamli texnologiyalar bilan qurollantirish zarur. Buning uchun, ishchilarni informatsion texnologiyalarga o‘qitish va malakasini oshirish, ishlab chiqarish, ta’lim va fan integratsiyasini ta’minlash, ish bilan ta’minlangan mutaxassislarni davriy ravishda malakasini oshirib borishni ta’minlash zarur.

Shuningdek, yog‘-moy tarmog‘ini boshqarishning yagona tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi, xususan tarmoqda personalni boshqarishni samarali mexanizmi yo‘lga qo‘yilmaganligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilish mexanizmining samarasizligi bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishga, investitsiyalarni jalb qilish va tarmoqning jadal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xom ashyo bazasining chegaralanganligi oqibatida tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 50 foizdan oshmaydi, bu davlat ishtirokidagi yog‘-moy korxonalar faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelmoqda [4].

Binobarin, “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, moyli xom ashyolarni qayta ishlash, yog‘-moy mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni yagona kompleksga birlashtirish, tarmoqni rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish, ichki bozorni sifatli, narx bo‘yicha raqobatdosh yog‘-moy mahsulotlari bilan ta’minlash, yog‘-moy sohasida faol investitsiya siyosatini yuritish, investitsiyalarni, shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish hisoblanadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-sonli “Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarorining [4] 13-bandiga asosan “Yog‘-moy sanoati tarmog‘i kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ilmiy-amaliy markazi” tashkil etilib, 2019-yilda ilmiy-amaliy markazda 203 nafar mutaxassislar o‘z malakalarini oshirgan. Ilmiy markazning mas’ul xodimlari “Oliya”, “PET agro oil”, “Hayot xusni” kabi bir qator korxonalarda xizmat safarida bo‘lib, mutaxassislari uchun o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazgan. Shuningdek, kichik yog‘-moy korxonalariga sinov laboratoriyalarini tashkil etishda va ularda faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar malakasini oshirish amaliy yordam ko‘rsatilgan. Markaz tomonidan yog‘-moy korxonalariga texnika xafsizligi talablarini ta’minlash, yordamchi materiallar sarfini belgilash, nostandart texnikalarni qayta ishlashda zarur bo‘ladigan texnologik rejimlarni tanlash, xodimlarni atestatsiyadan o‘tkazish ishlarini tashkil etish hamda texnologik reglamentlarni ishlab chiqish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilgan [13].

O‘zbekistonda yog‘-moy sanoati sohasini kompleks rivojlantirishning sakkizta ustuvor vazifasi belgilab olingan, jumladan:

- har bir rahbar-xodim uchun Murojaatnomada keltirilgan vazifalarni o‘zlashtirishni ish dasturi etib belgilash;
- butun dunyoda davom etayotgan koronavirus pandemiyasi davrida ham ishlab chiqarish korxonalarining uzluksiz va samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;
- sohada faoliyat yuritayotgan va bilim olayotgan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash jumladan, oliy o‘quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi jarayoniga jiddiy e’tibor qaratish;
- iqtisodiyotimizdagi tarkibiy o‘zgarishlar, islohotlarda faol ishtirok etgan xolda sog‘lom raqobat muhitini takomillashtirish;
- raqobatbardosh texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalar salmog‘ini oshirish;
- oziq-ovqat xavfsizligi va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish borasida korxonalar bilan izchil tadbirlarni olib borish;
- kichik va xususiy sektor korxonalarining rivojlanishiga har tomonlama ko‘maklashish;
- ishlab chiqarishga raqamli texnologiyalarni joriy etgan holda korruptsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz munosabatda bo‘lish masalalari shular jumlasidan hisoblanadi.

Yog‘-moy sanoati korxonalarida samaradorlikni ta’minlash resurslar cheklangan sharoitda sarf qilingan xarajatlar evaziga mahsulot yaratilishiga qarab korxonaning iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilaydi. Shuning uchun ham individual, jamoa, qolaversa, davlat miqyosida qaror qabul qilishda sotsial vazifalarni hal qilishda samaradorlikni ta’minlanishiga diqqat qaratish obyektiv zaruriyatga aylanadi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jarayonida masofadan mehnat qilish imkoniyatini ham yaratildi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, masofaviy mehnatning tarqalishini cheklab turadigan omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- dastlabki joriy qilish jarayonida IT infratuzilmasi va dasturiy ta’minot xarajatlari ortishi;
- bir nechta ulangan qurilmalar bilan tarmoqni boshqarishning murakkabligi;
- qo‘shimcha xavfsizlik talablari, kompaniya xavfsizlik xizmatlarining qarshiliklari;
- faoliyatning ayrim sohalarida masofadan turib ishlashning imkoni yo‘qligi;
- ish beruvchilar orasida keng tarqalgan stereotip: samarali ish bu - ofis ishi;
- ko‘plab ish beruvchilar aniq biznes jarayonlarini yaratishga qodir emasligi va istamasligi;
- samarali KPI tizimi va motivatsiyasining yo‘qligi;
- xodimlarning sodiqligi va korporativ madaniyatiga qo‘shilmaslik haqida tashvishlar.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida masofadan turib ishlash amaliyotiga umumiy ijobiy baho ham berish mumkin, xususan ish beruvchilar tomonidan xodimlarga quyidagi qulayliklar yaratilishi mumkin:

- korxona xarajatlarini tejash;
- ish joyiga bog‘lanmagan holda yaxshi mutaxassis tanlab olish imkoniyati;
- xorijiy mutaxassislar va uzoqdagi mijozlar bilan masofaviy ishlash, bu xizmat safariga borishdan ancha arzonga tushadi;
- bevosita yaqin muloqotda ishlaydigan yuqori malakali mutaxassislar yordamida yanada sifatliroq xizmat ko‘rsatish;
- mehnat samaradorligi, mijozlarga tunu-kun xizmat ko‘rsatish;
- ish joyiga borish uchun vaqt sarflanmaydi (yo‘ldagi tirbandlik, ob-havo sharoitlari), ish beruvchi uchun elektr energiyasi va ofis binolari ijarasida, ish joyini jihozlash borasida tejash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizda hozirgi kunda yog‘-moy sanoati korxonalarining umumiy iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyatini o‘rganish natijalari mazkur korxonalarda boshqaruvni innovatsion takomillashtirish va uni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashning ichki manbalari yildan-yilga kamayib bormoqda.

Ammo yog‘-moy sanoati korxonalarining bozordagi mavqei va barqaror iste’molchilar segmentiga ega ekanini hamda yildan-yilga to‘la quvvat bilan ishlash imkoniyati mavjudligini hisobga olganda, tarmoqning innovatsion boshqaruvini yo‘lga qo‘yish imkoniyati mavjudligini asoslab beradi. Bu borada, yog‘-moy sanoati korxonalaridagi ma’nan va jismonan eskirgan asosiy vosita va jihozlar korxonani kelajakda to‘la quvvat bilan ishlashiga monelik qilishini hisobga olib, tarmoqni boshqarishda yangi innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etilishini amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yog‘-moy sanoati korxonalarida raqamli iqtisodiyot sharoitida personalni boshqarish tizimining o‘ziga xos yo‘nalishlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- korxonada mehnat unumdorligini oshishi;
- inson kapitali, mehnat sharoiti, mehnat jarayonlarini loyihalashtirish, mehnatni me’yorlashtirish, personal sonini rejalashtirishn optimallashtirish;
- kadrlarni tanlash, o‘qitish va attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarini rivojlantirish;
- personalni motivatsiyalash va rag‘batlantirishni oshirish;
- mehnat haqi va daromadlarini shakllantirish;
- ishchilarning jamoadagi o‘zaro munosabatlarini mustahkamlash;

- personalni boshqarishda marketing tadqiqotlarini olib borish;
- personal konrolingini yuritish;
- personalni boshqarishni tashkil etish va takomillashtirish.

Shundan kelib chiqib, personalni boshqarish tizimini ikki qismga bo‘lish mumkin:

1. Personalni boshqarishning iqtisodiy tizimi, bu jarayonda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish muammolari, taqsimot, moddiy boyliklarini ayriboshlash va iste’mol qilish muammolari yetakchilik qiladi;
2. Personalni boshqarishning ijtimoiy tizimi, ya’ni personalni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Personalni boshqarish usullarida inson kapitalining roli xo‘jalik jarayonini pozitsiyalarda uning ikki afzalligidan kelib chiqadi:

inson xo‘jalik yuritish tizimining resursi sifatida – ishlab chiqarish va boshqaruv jarayoni elementi sifatida ya’ni inson o‘z ehtiyojlariga, qadriyatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida – boshqaruvning asosiy subyekti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. 05.10.2020 https://lex.uz/docs/5030957
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori PQ-4699-son 28.04.2020-y. https://lex.uz/docs/4800657
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-sonli «Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘ri-sida»gi qarori. https://lex.uz/docs/4163941
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi 2022-yil 12-dekabr https://president.uz/uz/lists/view/5774
6. Dresvyannikov V.A. - Sentr otsenki i razvitiya personala (Assessment and Development Center): sozdanie i texnologiya rabot - Rusayns - 2017 - 221s. - ISBN: 978-5-4365-2242-5 - Tekst elektronnыy // EBS BOOKRU - URL: https://book.ru/book/927768
7. Веснин В. Практический менеджмент персонала. - М.: Юрист,2009. -495 с.
8. Егоршин П. Карьера одаренного менеджера. - М.: Логос, 2008. -408 с.
9. Одегов, Ю. Г. Управление персоналом : учебник и практикум для академического бакалавриата / Ю. Г. Одегов, Г. Г. Руденко. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2019. – 467 с. – (Бакалавр. Академический курс). – ISBN 978-5-9916-8710-2. – Текст : электронный // ЭБС Юрайт [сайт]. – URL: https://urait.ru/bcode/431878 (дата обращения: 28.01.2021).
10. Abdurahmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.Q.. Personalni boshqarish: Darslik. – Toshkent. „Sharq», 2008.
11. Pardaev M.K., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Korxonaning iktisodiy salohiyati tahlili. – Toshkent:Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2003. – 256 b.
12. https://yogmoy.uz/uz/page/view?slug=uzegmojsanoat-uusmasi-bujica-2019-jilning-anvar-dekabr-ojlarida-iktisodij-islootlarning-bazarilisi-tugrisida-malumot
13. https://yogmoy.uz/uz/page/view?slug=izro-apparati
14. https://kun.uz/news/2017/07/25/uzpahtasanoateksport...
15. Yusupov, M. (2022). Respublikada yog‘-moy sanoatini rivojlantirish yo‘nalishlari. Архив научных исследований, 4(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2788
16. https://www.apk-inform.com/ru/news/153355717.
17. https://yogmoy.uz/uz/post/view?slug=613-trillion-sum...
18. https://yogmoy.uz/uz/post/view?slug=2022-yilda-393-million...



THE INTERSECTION OF SUSTAINABILITY AND ECONOMIC DEVELOPMENT: BALANCING ENVIRONMENT AND BUSINESS NEEDS

Kholikova Rukhsora Sanjarovna
Tashkent state university of economics Phd, Associate Professor of Department of Green Economy and sustainable business

Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli
Student of Tashkent state university of economics

Annotatsiya: Ushbu maqola barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib, atrof-muhit muammolarini biznes maqsadlari bilan muvozanatlash zarurligini ta'kidlaydi. Unda ular o'rtasidagi uyg'unlikka erishishning muammolari, usullari va natijalari o'rganilib, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik va "yashil" tashabbuslarni qabul qilish muhimligi ta'kidlangan. Maqola barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va biznesning yashil landshaftini rivojlantirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhit, biznes, muvozanat, manfaatdor tomonlar, yashil tashabbuslar, ijtimoiy mas'uliyat.

Аннотация: В этой статье исследуется взаимосвязь между устойчивостью и экономическим развитием, подчеркивается необходимость сбалансировать экологические проблемы с бизнес-целями. В нем исследуются проблемы, методы и результаты достижения гармонии между ними, подчеркивается важность сотрудничества между заинтересованными сторонами и принятия "зеленых" инициатив. Статья завершается предложениями по стимулированию устойчивого экономического роста и продвижению более экологичного бизнес-ландшафта.

Ключевые слова: устойчивость, экономическое развитие, окружающая среда, бизнес, баланс, заинтересованные стороны, зеленые инициативы, социальная ответственность.

Abstract: This article explores the interplay between sustainability and economic development, highlighting the need to balance environmental concerns with business objectives. It investigates the challenges, methods, and outcomes of achieving harmony between the two, emphasizing the importance of collaboration among stakeholders and the adoption of green initiatives. The article concludes with suggestions to foster sustainable economic growth and promote a more environmentally conscious business landscape.

Key words: Sustainability, economic development, environment, business, balance, stakeholders, green initiatives, social responsibility.

INTRODUCTION

In the face of escalating environmental concerns and the urgent need to address climate change, achieving a harmonious balance between sustainability and economic development has become paramount. The traditional perception of environmental protection as a hindrance to economic progress is shifting, as businesses and policymakers recognize the inherent interdependence between a thriving economy and a healthy planet. This article explores the complex relationship between sustainability and economic development, highlighting the challenges, methods, and outcomes of achieving a balance between the environment and business needs.

LITERATURE ANALYSIS

"The Sustainability Revolution" by Andres R. Edwards (2005):

This book explores the concept of sustainability and its integration into various sectors of the economy. Edwards emphasizes the need for businesses to adopt sustainable practices while still maintaining profitability. He argues that sustainable economic development is achievable through innovation, responsible resource management, and adopting a triple bottom line approach (considering social, environmental, and economic factors).

"Natural Capitalism: Creating the Next Industrial Revolution" by Paul Hawken, Amory Lovins, and L. Hunter Lovins (1999):

In this seminal work, the authors advocate for a shift towards sustainable business practices that are beneficial to both the environment and the economy. They propose the integration of resource efficiency, renewable energy, and the reduction of waste and pollution in industrial processes. The book emphasizes the potential for economic growth and job creation through sustainability initiatives.

"The Economics of Climate Change: The Stern Review" by Nicholas Stern (2006):

Stern's review examines the economic implications of climate change and the costs associated with inaction. He argues that investing in sustainable development and transitioning to a low-carbon economy is not only crucial for environmental reasons but also economically sound. The review emphasizes the importance of policy interventions and carbon pricing mechanisms to incentivize businesses to reduce their carbon footprint.

"Sustainable Development: Economics and Policy" by Jonathan M. Harris and Brian Roach (2014):

This comprehensive textbook provides a multidisciplinary approach to sustainable development, incorporating economic, social, and environmental perspectives. The authors analyze the trade-offs and synergies between economic growth and sustainability goals. They explore policy instruments, such as taxes, subsidies, and regulations, that can promote sustainable economic development while addressing environmental challenges.

METHODS:

To investigate the intersection of sustainability and economic development, a comprehensive review of relevant literature and case studies was conducted. Academic journals, industry reports, and reputable sources were consulted to gather insights on sustainable business practices, green initiatives, and successful examples of environmentally conscious economic growth.

RESULTS:

Sustainability and economic development are two interconnected concepts that focus on achieving long-term prosperity while preserving the environment and natural resources for future generations. Let's explore how these two concepts can be integrated and why they are important.

Sustainability refers to the ability to meet present needs without compromising the ability of future generations to meet their own needs. It involves balancing economic, social, and environmental factors to ensure a holistic approach to development. On the other hand, economic development refers to the process of improving the economic well-being of a society through the creation and utilization of resources to produce goods and services.

Integrating sustainability and economic development is crucial for several reasons:

1. Environmental Protection: Economic development can often result in environmental degradation if not managed sustainably. By integrating sustainability principles, we can ensure that economic activities are conducted in a way that minimizes negative impacts on the environment, promotes conservation of resources, and reduces pollution.
2. Long-Term Prosperity: Unsustainable economic practices can lead to short-term gains but may have detrimental long-term consequences. By embracing sustainable approaches, such as investing in renewable energy, efficient resource management, and environmentally friendly technologies, we can foster long-term economic growth and stability.
3. Social Equity: Sustainability recognizes the importance of social well-being and equity. Economic development should aim to improve the quality of life for all individuals, promote social inclusion, and reduce poverty. By considering social factors alongside economic goals, we can create more equitable and inclusive societies.

4. Innovation and Competitiveness: Sustainability can drive innovation and enhance a country's competitiveness. Embracing sustainable practices often leads to the development of new technologies, business models, and markets. By encouraging sustainable entrepreneurship and research and development, economic growth can be driven by environmentally friendly and socially responsible initiatives.
5. Resource Efficiency: Sustainable development emphasizes the efficient use of resources. This includes reducing waste, optimizing resource allocation, and promoting circular economy principles. By improving resource efficiency, we can reduce costs, increase productivity, and minimize environmental impacts.

To integrate sustainability and economic development effectively, governments, businesses, and individuals must collaborate and take collective action. This can involve implementing sustainable policies and regulations, investing in renewable energy and clean technologies, promoting sustainable consumption and production patterns, and fostering awareness and education about sustainability.

By aligning economic development with sustainable practices, we can create a future where economic prosperity goes hand in hand with environmental stewardship and social well-being.

The intersection of sustainability and economic development refers to the integration of environmental concerns and business needs in a way that promotes long-term social, economic, and environmental well-being. It recognizes that a thriving economy depends on a healthy environment and that sustainable practices can contribute to economic growth.

Balancing the environment and business needs requires a shift towards sustainable development, which involves meeting the needs of the present generation without compromising the ability of future generations to meet their own needs. Here are some key considerations in achieving this balance:

- Environmental stewardship: Businesses must recognize their role as environmental stewards and take responsibility for minimizing their ecological footprint. This involves adopting sustainable practices, reducing resource consumption, managing waste effectively, and investing in renewable energy sources.
- Green innovation and technology: Encouraging and supporting research and development of green technologies can drive economic growth while minimizing environmental impact. This can include renewable energy systems, energy-efficient technologies, waste reduction and recycling methods, and sustainable agriculture practices.
- Corporate social responsibility (CSR): Companies should incorporate social and environmental considerations into their core business strategies. By integrating CSR practices, such as ethical sourcing, community engagement, and philanthropy, businesses can align their operations with sustainable development goals.
- Collaboration and partnerships: Addressing sustainability challenges requires collaboration among businesses, governments, and civil society organizations. Partnerships can foster knowledge sharing, resource pooling, and joint initiatives that promote sustainable economic development.
- Policy and regulation: Governments play a crucial role in creating an enabling environment for sustainable economic development. They can implement policies and regulations that incentivize businesses to adopt sustainable practices, provide support for innovation, and establish frameworks for responsible resource management.
- Education and awareness: Promoting sustainability literacy and raising awareness among businesses and the public are essential for driving change. Education can help businesses understand the benefits of sustainability and provide individuals with the knowledge and skills to make sustainable choices.
- Economic incentives: Governments can provide economic incentives, such as tax breaks or subsidies, to businesses that adopt sustainable practices. This encourages companies to integrate sustainability into their operations while simultaneously promoting economic development.
- Life cycle thinking: Businesses should consider the entire life cycle of their products and services, from raw material extraction to disposal. This approach helps identify opportunities for reducing environmental impact and optimizing resource use at each stage.

By striking a balance between environmental and business needs, sustainable economic development can create a virtuous cycle where economic growth supports environmental protection, and environmental sustainability enhances long-term economic prosperity. This integration is crucial for building a resilient and inclusive economy that can meet the needs of present and future generations.

Shifting Business Paradigms: Increasingly, businesses are embracing sustainability as a core principle, recognizing that long-term profitability and environmental stewardship go hand in hand. This shift is driven by changing consumer preferences, regulatory requirements, and the recognition of potential cost savings through resource efficiency and waste reduction.

Green Initiatives and Innovation: Businesses are implementing sustainable practices by adopting renewable energy sources, reducing greenhouse gas emissions, minimizing waste generation, and promoting circular economy models. These initiatives not only benefit the environment but also lead to increased operational efficiency, improved brand reputation, and access to new markets.

Multi-Stakeholder Collaboration: Sustainable economic development requires collaboration among various stakeholders, including government agencies, businesses, non-governmental organizations, and local communities. Engaging all relevant parties ensures that diverse perspectives are considered, and comprehensive solutions are developed.

DISCUSSION:

The intersection of sustainability and economic development involves addressing several key challenges. One challenge is striking a balance between short-term economic growth and long-term environmental sustainability. Business leaders and policymakers must navigate the tension between immediate financial gains and the preservation of natural resources for future generations.

Another challenge lies in ensuring social equity and inclusivity in sustainable economic development. It is crucial to consider the impacts of sustainability initiatives on marginalized communities, as well as promote fair labor practices and respect for human rights.

Furthermore, fostering innovation and technological advancements is essential for achieving sustainable economic development. Encouraging research and development in clean technologies, promoting green entrepreneurship, and supporting sustainable business models can drive economic growth while minimizing environmental harm.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS:

The intersection of sustainability and economic development presents both opportunities and challenges. To strike a balance between environmental and business needs, it is imperative to:

- Foster a supportive policy framework: Governments should create regulatory environments that incentivize sustainable practices and penalize unsustainable ones. Economic incentives, such as tax breaks and subsidies, can encourage businesses to adopt green initiatives.
- Promote education and awareness: Raising awareness about the benefits of sustainability and providing training on sustainable business practices can empower entrepreneurs and professionals to make informed decisions that align with environmental and economic goals.
- Encourage collaboration and partnerships: Collaboration among businesses, government entities, and civil society is vital for driving sustainable economic development. Sharing best practices, knowledge, and resources can accelerate progress and lead to collective impact.
- Embrace circular economy principles: Shifting from a linear “take-make-dispose” model to a circular economy approach can minimize waste, promote resource efficiency, and unlock new economic opportunities.

By embracing sustainable practices, businesses can thrive in a rapidly changing world while contributing to the preservation of our planet. Balancing environment and business needs is not only a moral imperative but also a strategic imperative for long-term economic prosperity and societal well-being.

References:

1. Matyugina, E.G. The role of institutional toolkit in management of riskiness of functioning of modern economic system, p. 29, 2018
2. R.S. Kholikova. Theoretical and Methodological Basis of Organization of Production Based on Cluster Method.
3. Economics and Innovative Technologies 2021 (5), 7, 2021
4. Gurman, V. I. Eco-economic systems: models, information, experiment, p 145, 2019
5. Kasimov, Saidakmal, Kholikova, Rukhsora. Classification of enterprise goals in strategic management at cotton processing complex. Journal of Critical Reviews. 7 (6) 2020.
6. World Conservation Strategy, 2019
7. Kosolapov, N. The international relations and world development World Economy and the International Relations, p 105, 2020
8. Earles, J. M., Sperling, O., Silva, L. C. R., McElrone, A. J. Bark water uptake promotes localized hydraulic recovery in coastal redwood crown. Plant. Cell Environ, p. 320, 2020
9. Brinchuk, M. M. Maintenance of gross national product growth in a context of the ecological law Journal of the Russian Law, p. 37, 2018
10. Lugato, E., Berti, A. Potential carbon sequestration in a cultivated soil under different climate change scenarios: A modelling approach for evaluating promising management practices in northeast Italy. Agriculture Ecosystems & Environment, pp. 97–103, 2018.
11. Baranchik, V. P. Environmental Economics: a course of lectures for students of specialty. Environmental protection and rational use of natural resources, p. 265, 2018
12. Gorelik, V. A. Game-theoretic models of decision making in ecological and economic systems, p.144, 202

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Zuhra Abdikarimova
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada davlat xususiy sheriklik munosabatlarining institutsional asoslarining shakllantirilishi, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining tashkil etilishi va boshqarish bilan shug‘ullanishi, sheriklik loyihalari doirasida ishbilarmon qatlamning davlat va jamiyat bilan munosabatlari tamoyillari va strategiyasini ishlab chiqishi yoritilgan.

Shuningdek, Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari infratuzilmani isloh qilish va xizmatlarni taqdim etishda innovatsion hamkorlik shaklini amaliyotga joriy etishga qaratilgan turli yondashuvlar tadqiq qilingan va muallifning ilmiy va amaliy xulosalari shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, boshqaruv, texnologiya, innovatsiya, jamoatchilik, sheriklik munosabatlari.

Аннотация: В статье описывается формирование институциональных основ отношений государственно-частного партнерства, организация и управление отношениями государственно-частного партнерства, разработка принципов и стратегий деловых отношений с государством и обществом в рамках партнерских проектов.

Также были исследованы различные подходы, направленные на реализацию формы инновационного сотрудничества в сфере реформирования инфраструктуры и оказания услуг государственно-частного партнерства и сформированы научно-практические выводы автора.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, инфраструктура, управление, технологии, инновации, общественность, партнерские отношения.

Abstract: The article describes the formation of the institutional foundations of public-private partnership relations, the organization and management of public-private partnership relations, the development of principles and strategies of business relations with the state and society within the framework of partnership projects.

Also, various approaches aimed at implementing the form of innovative cooperation in infrastructure reform and service provision of public-private partnership relations were researched and scientific and practical conclusions of the author were formed.

Key words: public-private partnership, infrastructure, management, technology, innovation, public, partnership relations.

KIRISH

Har bir mamlakatda amalga oshirilayotgan davlat siyosatning asosiy maqsadi fuqarolarning normal hayot kechirish sharoitlarini yaratib berish, ularning ijtimoiy hayotdagi to‘g‘ri pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Buning uchun mamalakatda aholi uchun birinchi darajali ehtiyojlar, ya’ni kommunal soha, tibbiyot, ta’lim, transport, umuman olganda, butun bir infratuzilma yetarli miqdorda ta’minlangan bo‘lishi, qolaversa, ularning sifati yuqori darajada bo‘lishiga erishilmog‘i lozim. Bu esa o‘z orqasidan ikkinchi muhim masala, ya’ni infratuzilma obyektlarini moliyalashtirish masalalarini qo‘yadi. Aholi sonining yildan-yilga ortib borishi bilan birga mamlakatda kerakli infratuzilmaga talab oshadigan bir davrda davlat byudjeti bu borada qator muammolarga duch kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari infratuzilmani isloh qilish va xizmatlarni taqdim etishda innovatsion hamkorlik shaklidir. Xalqaro Valyuta jamg‘armasi fikriga ko‘ra, DXSh – davlat tomonidan an’anaviy tarzda ta’minlanadigan infratuzilmaviy aktivlar va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan taqdim etishga qaratilgan ke-

lishuvdir. Jahon banki esa ushbu munosabatlarni xususiy tomon va davlat organi o‘rtasidagi davlat aktivlarini yaratish yoki xizmatlarini taqdim qilish uchun uzoq muddatli shartnoma ekanligini ta’kidlab, unda xususiy tomon sezilarli katta risklar va boshqaruv uchun javobgarlikni olishini ta’kidlaydi. Tadqiqotchilar E. R. Yeskomb, E. Farkuxarson fikricha, davlat-xususiy sheriklik xususiy sektor tomonidan infratuzilmani qurish, loyihalash, boshqarish borasidagi uzoq muddatli kelishuv va ushbu kelishuvdan maqsad obyektning to‘liq yoki muhim qismini moliyalashtirish uchun xususiy sektor kapitalidan foydalanishni nazarda tutadi. Iossa.Ye. va Martimort.D esa ushbu munosabatlarni quyidagicha ta’riflaydi: “DXSh bu - davlat organi (mahalliy yoki markaziy davlat organi bo‘lishi mumkin) va xususiy tomon o‘rtasidagi ayrim xizmatlarni taqdim etish bo‘yicha shartnomaviy kelishuv bo‘lib, bunda xususiy sektor infratuzilmani qurish yoki yangilash uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi, investitsiyalarni moliyalashtirish bo‘yicha kelishuvlarni amalga oshiradi va keyin ushbu obyektni boshqaradi va saqlaydi”.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida, ishtirokchilarining maqsadlari uyg‘unligini ta’minlashda eng muhum va asosiy jihatlardan biri huquqiy-institutsional asoslarning mavjud bo‘lishi hisoblanadi. Djeffri Delmon davlat-xususiy sheriklik loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish va investitsiya muhitini yaratish 3 ta asosiy omilga bog‘liq ekanligini va ular jarayonni amalga oshirish va rag‘batlantirish uchun xodimlar, jarayonni osonlashtira oladigan qonunchilik va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning mafjudligidan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Qayerda yetarli sharoit va muhit yaratilgan bo‘lsa, shuningdek, qabul qilinadigan qarorlar ma’lum yuridik maqomga ega va o‘zgarmas bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga erishish imkoniyati oshishi mumkin. Shu sababdan davlat boshqaruvi va tartibga solish mexanizmlarining mavjud bo‘lishi sheriklik munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Huquqiy, tartibga soluvchi va siyosiy muhitni yaratish davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining barqaror kechishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki davlat-xususiy sheriklik munosabatlari odatda aniq va kuchli siyosat bilan ta’minlanadi. Xususiy sherik o‘z vazifalarini bajarishda davlat tomonidan siyosat va islohotlarni rejalashtirish, loyihani ishlab chiqish, shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarish bo‘yicha vakolatli sherik bo‘lishini hoxlaydi. Bu o‘z navbatida davlatning o‘z ish uslubini o‘zgartirish va isloh qilishni talab qiladi. Umuman olganda, davlatning davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha ishtirokini quyidagicha tasvirlash mumkin:



1 - c h i z m a: Davlatning davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha ishtiroki

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida huquqiy baza har bir mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatga ko‘ra farqlanadi. Lekin umumiy jarayon ma’lum bir qonunlarning mavjud bo‘lishini taqazo qiladi. Bu xususiy sektor uchun davlat xizmatlarini taqdim etish va foydalanuvchidan muayyan daromad undirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Huquqiy bazaning mavjudligi davlatga quyidagilarni ta’minlashga imkon beradi:

- o‘zining siyosiy majburiyatini aniq qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yish;
- shartnomaviy kelishuvlar, tarmoq cheklovlari va boshqa parametrlar (loyiha hajmi, shartnoma muddati) nuqtai nazaridan davlat-xususiy sheriklik munosabatlari doirasini aniqlash;
- hukumatning turli organlarining roli va vakolatlarini aniqlashtirish;
- investorlarga loyiha xatari bo‘yicha kafolat berish.

Shuni unutmaslik kerakki, davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha yangi qabul qilinadigan qonunlar mavjud qonunchilik normalariga mos tushishi va ularni inkor qilmasligi kerak.

Hukumat islohotlar strategiyasining institutsional talablarini qondirishda bir qator asosiy savollarga javob topishi kerak. Bu savollarga quyidagilar kiradi:

- sheriklik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun institutsional va qonunchilik asoslari mavjudmi? Sheriklik munosabatlarini rivojlantirishda qanday to‘siqlar mavjud?
- manfaatdor tomonlarning avtonomligi va javobgarlik darajasi ularning majburiyatiga mos keladimi?
- hukumatning tegishli darajalari o‘z vazifalaridan voz kechishga yoki qayta ko‘rib chiqishga tayyormi?
- hukumatning tegishli darajalari ayrim nazoratni xususiy sektorga topshirishga tayyormi?
- har bir tashkil etilgan institutda zarur mablag‘lar, xodimlar, o‘qitish va jihozlar mavjudmi?
- har bir muassasa o‘z rolini tushunadimi va jarayonlarni qanday ishlab chiqishni biladimi?

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmini qurishda iqtisodiyotda sektorlar faoliyatini qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunda xususiy sektor amalda davlat tomonidan ta’minlab kelinayotgan xizmatni bajarishga kirishadi va davlat asosiy jarayonlarning boshqaruvchisi va tartibga soluvchisiga aylanadi. Ko‘plab mamlakatlar davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish borasida aynan institutsional dastaklarning mavjud emasligidan oqsamoqda.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda lozim bo‘ladigan institutsonal birliklarga quyidagilar kiradi. (2-chizma).



2 - c h i z m a: Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishda institutsional dastaklar

Sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlik. Sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlik muvofiqlashtirish, sifat nazorati, javobgarlik masalalarini hal qilishga yo‘naltirilgan agentlik shaklida yoki vazirlik tarkibida (masalan moliya vazirligi) tashkil etiladigan alohida bo‘limlardan iborat. Xususiy sektor uchun ushbu birlik shaffoflikni va izchillikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlikning vazifalari quyidagi izchillikka asoslandi:

- loyihani identifikatsiyalash va ustuvorliklarni belgilash;
- raqobatni rag‘batlantirish;
- imkoniyatlarni sinchkovlik bilan tekshirish;
- oshkora tender jarayonlariga rioya qilish;
- xodimlarga va davlat aktivlariga tegishli munosabatni ta’minlash;
- davlat resurslaridan eng samarali foydalanishni ta’minlash.

Shu bilan bir qatorda, sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlikni tashkil qilgan paytda uning joylashuvi va tuzilishiga ahamiyat qaratish lozim bo‘ladi. Xususan, birlik vakolatlari to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lishi va vakolatli ijrochi jarayonning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunib yetishi kerak bo‘ladi. Shu sababdan jarayon to‘liq malakaga ega bo‘lgan mutaxasislardan tashkil topishi lozim.

Yakuniy ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan masala sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlik va soha vazirliklari o‘rtasidagi aloqalardir. Ular o‘rtasidagi aloqalar o‘zaro muvofiq bo‘lishi kerak.

Loyihani amalga oshiruvchi birlik. Ushbu birlik loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Ba’zida u vazirlik bilan bog‘langan yoki mustaqil tarzda bo‘lishi mumkin. Loyihani amalga oshiruvchi ko‘pgina birliklar yirik kapital qo‘yilma loyihalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladi. Loyihani amalga oshiruvchi birlikning tuzilishi moliyalashtiruvchi va ijrochi agentlikning talablari, loyiha turi va mahalliy kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Loyihani amalga oshiruvchi birlik, odatda, loyihaning borishini kuzatib boradi va hisobot beradi. Shuningdek, u loyiha bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy ishlarni amalga oshiradi, boshqaruv va buxgalteriya hisobi kabi masalalar bilan shug‘ullanadi.

Texnik yordam ko‘rsatuvchi birlik. Hukumat davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini tuzishda yetarli tajribaga ega bo‘lmasa, hukumatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida advokatlar, moliyaviy tahlilchilar, bitim bo‘yicha maslahatchilar, iqtisodchilar, sotsiologlar kabi mutaxasislar yordamidan foydalanishi mumkin. Hukumat texnik yordam ko‘rsatuvchi birlikni jamoa yoki yakka tartibda yollash mumkin, u holda muvofiqlashtirish jamoa o‘rtasida ta’minlanishi kerak. Maslahatchilar jadallikni saqlab qolishda, hukumat tomonidan ko‘rib chiqiladigan strategiyalarni ishlab chiqishda, davlat-xususiy sheriklik jarayonlarini tahlil qilishda, tender va muzokara jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, ushbu jarayon yaxshi tashkil etilgan, siyosiy jihatdan yaxshi himoyalangan va ko‘zlangan natijaga olib kelishi lozim.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, DXShni tashkil etshning huquqiy-institutsional mexanizmlarini quyidagicha tasvirlash mumkin (3-chizma).



3 - c h i z m a: DXSh ni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari

Davlat-xususiy sheriklik tushunchasi ijtimoiy va infratuzilmaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan davlat va xususiy sektor hamkorligining huquqiy vositasi sifatida O‘zbekiston uchun nisbatan yangi hodisa hisoblanadi.

Osiyo taraqqiyot banki hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekiston har yili ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirishga yalpi ichki mahsulotining 7,4 foizini (taxminan 3,6 milliard AQSh dollari) sarmoya kiritishi kerak. Transport, energetika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ichimlik suvi va kanalizatsiya, tibbiyot, ta’lim va boshqa muhim sohalarga ehtiyoj sezilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilgi Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, ta’lim sohasiga 58,4 trillion so‘m, sog‘liqni saqlash sohasiga 28,4 trillion so‘m, madaniyat sohasiga 2,5 trillion so‘m, sport xarajatlari 2,3 trillion so‘m va fanni rivojlantirish 1,8 trln so‘mni tashkil etadi.

Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy sohani moliyalashtirishda davlat byudjetiga yetarlicha yuk yuklangan. Tanganing boshqa tomoniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, iqtisodiyotning mavjud tarmoqlarida infratuzilma va xizmat ko‘rsatish sifati qoniqarli emasligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bunda davlat-xususiy sheriklikni imkon qadar tezroq joriy etish davlat byudjetiga yengillik berishi, shuningdek, ko‘rsatilayotgan xizmatning sifati oshishiga erishilishi mumkin.

O‘zbekistonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi” PQ-3651-son qarori bilan birinchi marta qonunchilik darajasida DXSh kontseptsiyasi yaratildi. Shunga qaramay, hali munosabatlarni qo‘llab-quvvatlovchi alohida institutlar mavjud emas edi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda ushbu munosabatlarni nazorat qiluvchi, boshqaradigan va albatta, muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ bo‘lishi shart.

Keyinchalik davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktabrdagi PQ-3980-son qarori bilan Moliya vazirligi huzurida yangi davlat muassasasi – Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Bu tashkilot davlat muassasasi hisoblanadi va mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik sohasida yagona davlat siyosatini yuritish bo‘yicha

maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Tashkil etilgan agentlik loyiha hujjatlarini tayyorlash va tasdiqlashda yordam beradi. Ikkinchidan, kadrlar tayyorlash va loyihalarni monitoring qilish, tender savdolarini o‘tkazish, har ikki tomonning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlar, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik sohasidagi boshqa ishtirokchilar bilan hamkorlikni tashkil etish. Umuman olganda, u loyiha bilan bog‘liq barcha munosabatlarda investorni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019–2022-yillarda umumiy qiymati 12,4 milliard dollardan ortiq bo‘lgan 437 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) respublika loyihalari amalga oshirildi.

Har qanday infratuzilma loyihasini amalga oshirishda xususiy sektor o‘z zimmasiga olishi kerak bo‘lgan xavflar mavjud. Shu bois xususiy tadbirkor loyihani amalga oshirishdan avval o‘z huquqlarining qonuniy kafolatlariga ahamiyat beradi. Shu maqsadda 2019-yil 10-mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonuni imzolandi. Ushbu yirik huquqiy hujjat davlat va xususiy sektorning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Unda har ikki tomonning huquq va majburiyatlari aniq belgilangan. Qonun loyihasi Moliya vazirligi tomonidan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ko‘magida tayyorlangan. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki Xalqaro moliya korporatsiyasi ekspertlarining fikr-mulohazalari ham qo‘llanildi. Dunyoning yetakchi davlatlari: AQSh, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Qozog‘iston, Belarus tajribasi o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 105-bandiga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga qiymati qariyb 14 mlrd dollardan iborat bo‘lgan 154 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarni amalga oshirish belgilangan.



4 - c h i z m a: “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko‘ra amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar soni[1]

Xulosa qilib aytganda, DXSh – mamlakatda barqaror iqtisodiy-ijtimoiy moliyalashtirish muhitini ta’minlash maqsadida, infratuzilma va boshqa xizmatlarni, loyihalashtirish, ta’mirlash, boshqarish va nazorat qilishni ta’minlovchi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik shakli hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish har bir davlatning iqtisodiy hayotida va ijtimoiy xizmatlarni yetkazib berishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat byudjetining cheklanganlik sharoitida va aholining xizmat ko‘rsatish sifati va normal hayot kechirishga bo‘lgan talabining cheksizlik holatida ushbu munosabatlarni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Davlat tomonidan DXSh ni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta’minlashda sheriklik munosabatlarining huquqiy-institutsional mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda DXSh munosabatlarining huquqiy-institutsional mexanizmini riojlantirishda yuqoridagilarga qo‘shimcha tarzda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1 Berilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

- O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarining kelgusida ko‘plab sohalar bo‘yicha amalga oshirilishini inobatga olgan holda, ushbu munosabatlar doirasidagi loyihalarni baholash va monitoringini ta’minlash maqsadida alohida shakldagi loyihalash institutlari tashkil qilinishi kerak;
- O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini samarali tashkil etish borasida kadrlar tayyorlash masalasiga e’tibor qaratish lozim. Bunda oliy o‘quv yurtlarida sheriklik munosabatlari bo‘yicha alohida darsliklarni yaratish va tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash kerak;
- Aholi o‘rtasida tadbirkorlikning alohida ko‘rinishi sifatida ushbu munosabatlarni tashkillashtirishning ahamiyati bo‘yicha tushuntiruv-maslahat loyihalarini amalga oshirish va ularni ushbu sheriklik munosabatlaridan kengroq xabardor qilish lozim;
- Davlat tomonidan xususiy sherikning qamrov darajasiga qarab imtiyozlar tizimini kengaytirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22- dekabr, 2022-yil. https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. www.lex.uz
3. Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004. https://www.imf.org/external/np/fad/2004/pifp/eng/031204.htm
4. World Bank Institute / PPIAF, Public-Private Partnerships Reference Guide, Washington DC, 2012
5. Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principals of Policy and Finance. 2nd Edition. — Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2.
6. Iossa, E., & Martimort, D. (2015). The Simple Microeconomics of Public-Private Partnerships. Journal of Public Economic Theory, 17(1), 4–48. doi: 10.1111/jpet.12114
7. Государственно-частное партнёрство в инфраструктуре. Практическое руководство для органов государственной власти. Джеффри Делмон. The world Bank, 2010.
8. Verhoest, Koen; Petersen, Ole Helby; Scherrer, Walter; Murwantara Soecipto, Raden Policy commitment, legal and regulatory framework, and institutional support for PPP in international comparison: Indexing countries readiness for taking up PPP. Working Papers in Economics and Finance, No. 2014-03
9. Guidebook on promoting good governance in public-private partnerships. United Nations. New York and Geneva, 2008
10. Augustine Edobor Arimoro. Legal framework for public-private partnership: South africa and Nigeria in focus.
11. Public-Private Partnership Handbook. Asian development Bank. September 2008. https://www.adb.org/documents/public-private-partnership-ppp-handbook
12. Дятлова Наталья Александровна. Соглашение о государственно-частном партнерстве: гражданско-правовые аспекты. Автореферат. 2018.
13. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3651-sonli Qarori. 05.04.2018 yil. https://lex.uz/docs/3610518
14. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 20.10.2018 yil. https://lex.uz/docs/4007891
15. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 10.05.2019. https://lex.uz/docs/4329270?ONDATE=07.06.2022

ZAMONAVIY PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA SAMARALI PORTFELNI SHAKLLANTIRISH

Sindarov Fazliddin Qahramonovich
TDIU, Moliya kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Zamonaviy portfel nazariyasi optimal investitsiya portfelini shakllantirishda foydalaniladigan eng asosiy nazariya hisoblanadi. Ushbu maqola zamonaviy portfel nazariyasi va uning samarali portfelni shakllantirishda qo'llanilishi haqida umumiy ma'lumot berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy portfel nazariyasi, portfel investitsiya, investitsiya portfeli, aksiyalar.

Аннотация: Современная портфельная теория является наиболее базовой теорией, используемой при формировании оптимального инвестиционного портфеля. Данная статья призвана дать обзор современной портфельной теории и ее применения при формировании эффективного портфеля.

Ключевые слова: современная портфельная теория, портфельные инвестиции, инвестиционный портфель, акции.

Abstract: Modern portfolio theory is the most basic theory used in forming an optimal investment portfolio. This article aims to provide an overview of the modern portfolio theory and its application in the formation of an effective portfolio.

Key words: modern portfolio theory, portfolio investment, investment portfolio, shares.

KIRISH

Zamonaviy portfel nazariyasini turli aktivlar va ularning diversifikatsiyasi o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda portfelning risk va kutilayotgan daromadlilik nisbatlarini optimallashtirish uchun tizimli yondashuvni taqdim etadi.

Portfel investitsiya – bu aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar kombinatsiyasidan tashkil topgan moliyaviy aktivlar to'plamiga mablag'larni investitsiya qilish jarayoni. Investitsion portfelning maqsadi investorlarga investitsiya risklarini kamaytirish va daromadni maksimal darajada oshirishga qaratilgan diversifikatsiyalangan aktivlar portfelini yaratishdir.

Investitsiya portfeli – turli qimmatli qog'ozlar, ya'ni aksiyalar, obligatsiyalar, moliyaviy derivativlar kombinatsiyasidan iborat moliyaviy aktivlar to'plami.

Aksiyalar investitsiya portfelining eng keng tarqalgan tarkibiy qismidir. Qimmatli qog'ozlarni portfel sifatida shakllantirishdan maqsad individual aktivlardan farqli risk – daromad profiliga ega bo'lgan portfelni yaratishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy portfel nazariyasini AQShlik iqtisodchi olim va Nobel mukofoti laureati Garri Markowitz tomonidan 1950-yillarda ishlab chiqilgan. U portfelni optimallashtirish konseptsiyasi asosida zamonaviy portfel nazariyasining asosini tashkil etuvchi o'rtacha-dispersiya tahlilini ishlab chiqdi. Garri Markowitz[1] 1952-yilda nashr etilgan tadqiqotida investorlarning portfelni shakllantirishda investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, risk va kutilayotgan daromad o'rtasidagi o'zaro bo'g'liklikni o'rgangan. U fanga samarali portfel tushunchasini kiritdi. Unga ko'ra, ma'lum bir risk darajasi uchun yuqori kutilgan daromad yoki ma'lum bir kutilgan daromad uchun eng past darajadagi riskni ta'minlaydigan portfellardir.

Garri Markowitz o'zining ilmiy maqolasida o'zi yaratgan nazariya asosida 100 ta qimmatli qog'ozdan iborat optimal portfelni shakllantirishning matematik asoslarini ko'rsatib bergan edi. Lekin 60-yillarning texnologiyalari

1 Harry Markowitz, "Portfolio Selection", The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1 (Mar., 1952), pp. 77-91 (15 pages)

asosida ko‘p sonli aktivlardan iborat optimal portfelni shakllantirishning matematik yechimini topish ancha mushkul vazifa edi. Shuning uchun mavjud risk sharoitida qimmatli qog‘ozlardan kutilayotgan daromadni hisoblashda portfeldan daromadliligi o‘rniga alohida aktivlardan kutilayotgan daromadni baholash uchun mo‘ljallangan modellar yaratila boshladi. Jumladan, William F. Sharpe 1964-yili kapitaldan ko‘rilayorgan daromadni baholash uchun “Kapital aktivlarni baholash modeli”ni ishlab chiqdi. Undan tashqari olim 1966-yili investitsiya portifelining samaradorligini baholash uchun mo‘ljallangan Sharp koeffitsiyentini[2] ishlab chiqdi. Sharpe koeffitsiyenti batafsil tushuntirilgan maqola[3] 1994-yil “The Journal of Portfolio Management” jurnalida chop etilgan edi. Unga ko‘ra, Sharp koeffitsiyenti bir birlik qo‘shimcha riskga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha daromad miqdorini o‘lchaydi.

“Zamonaviy portfel nazariyasi va investitsiya tahlili”[4] darsligida optimal portfelni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan Yagona indeks modeli, Ko‘p indeksli modellar, Arbitraj baholash modeli kabi ko‘plab modellarning nazariy asoslari va uni amaliyotda qo‘llashning matematik asoslari keltirib o‘tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Investitsiya portfelini n ta aktiv asosida shakllantirish mumkin. Biz portfelimiz 2 ta qimmatli qog‘ozdan tashkil topganida optimal portifelni shakllantirish uchun har bir qimmatli qog‘ozning nisbatini hisoblab chiqamiz.

Ikkita aktivdan iborat investitsiya portfeli daromadini baholash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$R_P = X_A * R_A + X_B * R_B \quad (1)$$

Bu yerda
R_P – investitsiya portfelidan kutilayotgan daromad
X_A – A aktivning standart chetlanishi
R_A – A aktivdan portfeldagi og‘irligi
X_B – B aktivning standart chetlanishi
R_B – B aktivdan portfeldagi og‘irligi

Investitsiya portfelimiz ikkita qimmatli qog‘ozdan iborat bo‘lganligi uchun A va B aktiv birgalikda portfelimizning 100 %ini tashkil qiladi, ya’ni

$X_A + X_B = 1 = 100\%$

Bu formulani quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

$$X_B = 1 - X_A \quad (2)$$

Bu formulani (1) ga qo‘yadigan bo‘lsak, investitsiya portfelidan kutilayotgan daromad formulasi quyidagicha ko‘rinish oladi:

$$R_P = X_A * R_A + (1 - X_A) * R_B$$

Portfel bo‘yicha kutilayotgan daromad alohida qimmatli qog‘ozlardan kutilayotgan daromadning oddiy o‘rtacha og‘irligiga teng.

Portfelning standart chetlanishini quyidagi formula orqali topishimiz mumkin:

$$\sigma_P = (X_A^2\sigma_A^2 + X_B^2\sigma_B^2 + 2X_A X_B \sigma_{AB})^{1/2}$$

Bu yerda
σ_P – portfel investitsiyaning standart chetlanishi
σ_{AB} –A va B aktivning kovariatsiyasi
σ_A^2 – A aktivning dispersiyasi
σ_B^2 – B aktivning dispersiyasi

Agar biz bu formulaga (2) ni qo‘shadigan bo‘lsak, formulamiz quyidagicha ko‘rinish oladi:

$$\sigma_P = (X_A^2\sigma_A^2 + (1 - X_A)^2\sigma_B^2 + 2X_A(1 - X_A)\sigma_{AB})^{1/2}$$

2 William F. Sharpe, “Mutual fund performance”, Journal of Business. Vol. 39, No. 1, Part 2: Supplement on Security Prices (Jan., 1966), pp. 119-138 (20 pages)
3 William F. Sharpe, "The Sharpe Ratio". The Journal of Portfolio Management. 21 (1): 49–58
4 Edwin J. Elton, Martin J. Gruber, Stephen J. Brown, William N. Goetzmann, “Modern portfolio theory and investment analysis”, the United States of America, 9 th, 2014

Agar $\sigma_{AB} = \rho_{AB}\,\sigma_A\,\sigma_B$ ekanligini hisobga olsak, ρ_{AB} – qimmatli qog‘ozlar A va B aktib o‘rtasidagi korrelatsiya ifodalanganligi sababli formula quyidagicha ko‘rinish oladi:

$$\sigma_P = (X_A^2\sigma_A^2 + (1 - X_A)^2\sigma_B^2 + 2X_A(1 - X_A)\rho_{AB}\sigma_A\sigma_B)^{1/2}$$

Portfelning standart chetlanishi portfeldagi har bir aktivning standart chetlanishlari o‘rta arifmetigiga teng emas.

Portfelni shakllantirishda uning standart chetlanishi topilganidan so‘ng optimal portfelni tanlashda portfelning samaradorligi Sharp koeffitsiyenti orqali baholanadi.

Sharp koeffitsiyent (Sharpe Ratio) – investitsiya yoki investitsiya portfelini bozordagi mavjud risk darajasida investitsiya daromadi samaradorligini baholash uchun hisoblanib, Uilyam F. Sharp[5] tomonidan ishlab chiqilgan.

Sharp koeffitsiyent – portfeldan kutilayotgan daromad va risksiz Stavka o‘rtasidagi burchak koeffitsiyenti.

$$\text{Sharp koeffitsiyent} = \frac{(R_P - R_f)}{\sigma_P}$$

Bu yerda

R_P – Portfelning kutilayotgan daromadi

R_f – Risksiz daromad darajasi

σ_P – Portfel daromadining standart chetlanishi

Sharp koeffitsiyent qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsion risk miqdoriga nisbatan investitsiya daromadi shuncha yuqori bo‘ladi va shuning uchun ham investitsiya portfeli samaradorligi yuqori bo‘ladi. Sharp koeffitsiyent bitta aksiyani yoki butun portfelning samaradorligini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Sharp koeffitsiyenti investorga bozordagi mavjud riskni ongli ravishda bilgan holda kiritgan investitsiyasi uchun ortiqcha kutilayotgan daromadni baholash uchun zarur. Biroq, investitsiya portfelining samaradorligini baholashda Sharp koeffitsiyentining aniq chegarasi mavjud emas, lekin ko‘plab olimlar tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan chegaralarini taklif qilishgan. Unga ko‘ra,

Agar Sharp koeffitsiyenti < 1 bo‘lsa, investitsiya portfelining samaradorligi past, ya’ni investitsiya daromadi qabul qilingan risk darajasini etarli darajada qoplamaydi.

Agar 1 < Sharp koeffitsiyenti < 1.99 bo‘lsa, investitsiya portfelining samaradorligi o‘rtacha yoki maqbul darajada deb talqin qilinadi. Ushbu diapazon investitsiya riskka mos keladigan daromadni ta'minlayotganligini ko‘rsatadi.

Agar Sharp koeffitsiyenti > 2 bo‘lsa, investitsiya portfelining samaradorligi yuqori deb hisoblanadi. Investitsiya portfeli kuchli tavakkalchilikka moslashtirilgan daromad keltiradi va bu nisbat qanchalik yuqori bo‘lsa, shuncha investitsiya samaradorligi yuqori bo‘ladi.



5 William F. Sharpe, “A Simplified Model for Portfolio Analysis”, Management Science, Vol. 9, No. 2 (Jan., 1963), pp. 277-293

Sharp koeffitsiyenti risk birligi uchun ortiqcha daromadni baholaydi. Sharp koeffitsiyentidan investitsiyalarning samaradorligini baholash yoki bir nechta portfellarni taqqoslash uchun foydalanilganda, uni boshqa tegishli ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ko‘rib chiqish va investitsiyalarning riskini va daromadlilik xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Portfelimizning 2 ta qimmatli qog‘ozdan iborat ekanligini aytib o‘tgan edik. Bizning portfelimiz Apple va Microsoft kompaniyalari aksiyalaridan tashkil topgan. Tahlilimiz uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni www.finance.yahoo.com saytidan yuklab oldik. Bunda har ikkala kompaniyaning fond birjasidagi oxirgi 5 yillik aksiyalarining kunlik statistikasini yuklab oldik. Tahlil uchun aksiyalarning kunlik bahosi emas, balki ularning kunlik o‘zgarishini olishimiz zarur. Buning uchun ikkala kompaniyaning ham aksiyalarining kunlik bahosini logorifmlab olishimiz zarur. Logorifmlashdan maqsad o‘zgaruvchilarni yagona o‘lchov birligiga keltirish hisoblanadi.

1 - j a d v a l: Apple va Microsoft kompaniyalarining so‘ngi 5 yildagi aksiyalarining o‘zgarish statistikasi

Sana	Apple	Microsoft		
20/02/2018	46,23	100,41	Apple	Microsoft
21/02/2018	45,54	98,39	-1,50%	-2,03%
22/02/2018	46,11	99,08	1,23%	0,70%
23/02/2018	46,04	97,54	-0,15%	-1,57%
26/02/2018	46,38	98,63	0,72%	1,11%
27/02/2018	46,28	98,61	-0,21%	-0,02%
28/02/2018	46,79	100,01	1,11%	1,41%
08/02/2023	183,31	334,29	-0,26%	0,73%
09/02/2023	183,95	337,34	0,35%	0,91%
10/02/2023	186,01	348,10	1,11%	3,14%
13/02/2023	184,92	342,33	-0,59%	-1,67%
14/02/2023	185,01	338,05	0,05%	-1,26%
15/02/2023	183,96	333,56	-0,57%	-1,34%

Bu jadvalda 2 va 3-ustunlarda kompaniyalarning fond birjasidagi aksiyasining 5 yillik statistikasi berilgan. 4 va 5-ustunlarda 5 yillik aksiya qiymatining logorifmlash natijasida olingan natijalari qayd etilgan. Endigi vazifa aksiyalarning kunlik o‘rtacha o‘zgarishi, standart chetlanishi, kovariatsiyasi va portfelning samaradorligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan risksiz stavkasini topamiz.

2 - j a d v a l: Apple va Microsoft kompaniyalari aksiyalarining umumiy statistik ko‘rsatkichlari

	Umumiy statistika	
O'rtacha o‘zgarishi	0.110%	0.096%
Standart chetlanish	2.101%	1.968%
Kovariyatsiya	0.032%	
Risksiz stavka	0.008%	

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo‘lsak, Apple kompaniyasi aksiyalarining kunlik o‘rtacha o‘zgarishi Microsoft kompaniyasi aksiyalarining kunlik o‘rtacha o‘zgarishiga nisbatan yuqori, shuning uchun ham Apple kompaniyasining standart chetlanishi yuqoriroq, ya’ni bu ko‘rsatkich 2.101 % ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Standart chetlanish aksiya narxlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq riskni ham ifodalaganligi uchun har ikkala kompaniyaning ham standart chetlanish natijasini ijobiy baholashimiz mumkin. Aksiyalarning kovariyatsiyasidan esa 0.032 % natija olingan. Bu jadvalda, shuningdek, risksiz stavka ham berilgan bo‘lib, tahlil uchun tanlab olingan kompaniyalar AQShda joylashganligi sababli ushbu davlat tomonidan emissiya qilingan 1 yillik davlat g‘aznachilik obligatsiyalarining 5 yillik o‘rtacha o‘zgarish statistikasini hisoblaymiz va erishilgan natijani risksiz stavka sifatida olamiz. Bunda risksiz stavkasini topish uchun zarur ma’lumotlar ba’zasi www.home.treasury.gov saytidan yuklab olingan.

3 - j a d v a l: Ikkita aktivdan iborat optimal investitsiya portfelini shakllantirish statistikasi

Portfolio og‘irligi		Portfolio statistikasi		
R_A	R_B	R_P	σ_P	
Apple	Microsoft	Qaytim	Standart chetlanish	Sharpe koef
130%	-30%	2,017%	2,173%	92,46%
120%	-20%	2,013%	2,111%	95,00%
110%	-10%	2,009%	2,054%	97,40%
100%	0%	2,005%	2,005%	99,60%
90%	10%	2,001%	1,963%	101,53%
80%	20%	1,997%	1,928%	103,13%
70%	30%	1,993%	1,902%	104,33%
60%	40%	1,989%	1,885%	105,08%
50%	50%	1,985%	1,876%	105,36%
40%	60%	1,980%	1,876%	105,13%
30%	70%	1,976%	1,885%	104,41%
20%	80%	1,972%	1,903%	103,22%
10%	90%	1,968%	1,929%	101,59%
0%	100%	1,964%	1,964%	99,59%
-10%	110%	1,960%	2,006%	97,29%
-20%	120%	1,956%	2,056%	94,74%
-30%	130%	1,952%	2,112%	92,01%
Optimal portfel		1,985%	1,876%	105,36%

Ushbu jadvalda ikkita aktivdan iborat optimal portfelni shakllantirishning matematik natijasi keltirilgan. Unga ko‘ra, 1 va 2-ustunlarda har bir aktivning portfeldagi og‘irliklari nisbati berilgan. Optimal portfelni shakllantirishdagi asosiy maqsad ham portfeldan eng yuqori daromad keltiradigan aktivlarning nisbatini topishdan iborat. 3-ustunda (1)-formuladan foydalangan holda portfeldan kutilayotgan daromad hisoblangan. 4-ustunda portfelning standart chetlanishi hisoblangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich qancha kichik bo‘lsa, portfelning riskliligi past hisoblanadi. So‘nggi 5-ustunda Sharp koeffitsiyenti hisoblangan bo‘lib, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu koeffitsiyentda portfelning samaradorligi aniqlanadi va bu ko‘rsatkichga qarab biz aktivlarning portfeldagi tasodifiy og‘irligini topamiz. Bu natija bizga optimal portfelni shakllantirishimiz uchun matematik asos bo‘lib xizmat qiladi. Sharp koeffitsiyenti eng yuqori natijasi aktivlarning o‘g‘irligi 50:50 bo‘lganida 105,36% natijaga erishdi. Demak, bundan kelib chiqadiki, portfelimiz optimal daromadga ega bo‘lishi uchun ikkita aktivning nisbati 50:50 bo‘lishi zarur, degan xulosa chiqarishimiz mumkin.

Bu natijani grafikda quyidagicha tasvirlashimiz mumkin.



1 - g r a f i k: Optimal portfelni shakllantirishda aktivlar kombinatsiyasi

Grafikdagi samarali bozor egri chizig‘i berilgan bo‘lib, u portfeldagi aktivlarning turli xil kombinatsiyalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Shuningdek, unda kapital bozori chizig‘i berilgan bo‘lib, uning samarali bozor chizig‘i bilan kesishish nuqtasi bizga optimal portfelni ko‘rsatib beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, fikrimizcha, fond bozoridagi savdolarning hajmini oshirish, aksiyalarning ichki qiymati va daromadliligini baholash uchun, avvalo, fond bozorida tarqatilayotgan ma’lumotlarning shaffofligini oshirish, fond bozori saytlarida aksiyalarni baholash uchun zarur bo‘lgan keng axborot bazasini shakllantirish zarur. Bundan tashqari, fond bozoridagi savdo hajmining kamligiga, ya’ni bir nechta sababni ko‘rsatish mumkin. Bular:

- Ham yuridik, ham jismoniy shaxslarda moliyaviy savodxonlikning pastligi. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan ko‘plab yirik MCHJlar o‘zlarining huquqiy maqomini o‘zgartirib, AJga aylanib, qimmatli qog‘ozlarini fond bozoriga joylashtirib, o‘zlarining faoliyatini moliyalashtirish o‘rniga, qimmat bank kreditlarini ma’qul ko‘rishadi, ya’ni ular fond bozoridan moliyaviy resurs jalb qilishning naqadar samarali ekanligidan xabardorligi past. Bundan tashqari, ko‘plab jismoniy shaxslar ham qimmatli qog‘ozlarga qanday qilib investitsiya kiritish mumkinligini bilishmaydi.
- Fond bozorida erkin muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarning soni kam. Bugungi kunda O‘zbekistondagi AJ soni 600 dan oshgan va ularning barchasining ham aksiyalari fond birjalarida erkin sotilmaydi. Yildan yilga xususiylashtirish jarayonlari jadal amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu nimagadir AJ soni tez o‘sishiga olib kelmayapti.

Fikrimizcha, yuqoridagi muammolarning kelasi yillarda qanday yechilishi va kapital bozorini tartibga solib turuvchi mukammal qonunchilik bazasining shakllanishi O‘zbekiston fond bozorlarini rivojlantirish istiqbollarini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harry Markowitz, “Portfolio Selection”, The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1 (Mar., 1952), pp. 77-91 (15 pages)
2. William F. Sharpe, “Mutual fund performance”, Journal of Business. Vol. 39, No. 1, Part 2: Supplement on Security Prices (Jan., 1966), pp. 119-138 (20 pages)
3. William F. Sharpe, "The Sharpe Ratio". The Journal of Portfolio Management. 21 (1): 49–58
4. Edwin J. Elton, Martin J. Gruber, Stephen J. Brown, William N. Goetzmann, “Modern portfolio theory and investment analysis”, The United States of America, 9 th, 2014
5. William F. Sharpe, “A Simplified Model for Portfolio Analysis”, Management Science, Vol. 9, No. 2 (Jan., 1963), pp. 277-293
6. www.finance.yahoo.com
7. www.home.treasury.gov

ISTE'MOLCHILARNING QANDOLAT MAHSULOTLARIGA BO'LGAN TALABLARINI RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI TADQIQ QILISH YO'LLARI

To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini aniqlashning raqamli texnologiyalarda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish yo'llari, ularni sharhlash, iste'molchilarni segmentlarga ajratish usullari o'rganilgan va ulardan kelib chiqib marketing tadqiqotlarini aynan qandolat mahsulotlari bozorida samarali qo'llash bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qandolat mahsulotlari, bozor, raqamli marketing, marketing tadqiqotlari, marketing xizmatlari, segment, segmentlash yo'llari.

Аннотация: В данной статье изучаются способы проведения маркетинговых исследований в цифровых технологиях для определения требований потребителей к кондитерским изделиям, их интерпретация, методы разделения потребителей на сегменты и на их основе вносятся предложения по эффективному применению маркетинговых исследований на рынке кондитерских изделий.

Ключевые слова: кондитерские изделия, рынок, цифровой маркетинг, маркетинговые исследования, маркетинговые услуги, сегмент, способы сегментации.

Abstract: In this article, the ways of conducting marketing research in digital technologies to determine the requirements of consumers for confectionery products, their interpretation, the methods of dividing consumers into segments are studied, and based on them, suggestions are made for the effective application of marketing research in the confectionery market.

Key words: confectionery, market, digital marketing, marketing research, marketing services, segment, ways of segmentation.

KIRISH

O'zbekiston qandolat mahsulotlari bozori ishtirokchilari asosan Rossiya, Ukraina va mahalliy ishlab chiqaruvchilar hissasiga to'g'ri keladi. Axolining oziq-ovqat tovarlari, shu bilan birga, qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini to'laqonli qondirish, eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning importini qisqartirish, iqtisodiyotning sifat darajasini yanada oshirishda bunday mahsulotlar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Iste'molchilarning qandolat mahsulotlari savdosida oylar davomida narxlar indekslari 2021-yil yanvar oyida 1,2 foiz, fevral oyida 1,7 foizga, oktyabr oylarida 1,9 foizga o'sgan bo'lsa, iyul oyida 0,1 foizga kamaydi. Bu esa qandolat mahsulotlari narxlarining o'zgarib borishi oylar davomida nomutanosibligi mavjudligi uning savdosi va ishlab chiqarish jarayonlarida samarali marketing tadqiqotlari o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining asosiy ehtiyojlarini ta'minlab turuvchi asosiy iste'mol mahsulotlarimizdan bo'lgan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda ichki bozorda ularning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini hal etish hozirgi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahonda qandolat mahsulotlari marketingi, uning tadqiqoti bo'yicha bir qator olimlar o'z ilmiy asarlari va tadqiqot ishlarida o'rganganlar. Rus olimlaridan Y. A. Petina va M. V. Kravchenko qandolat mahsulotlari marketing tadqiqotlari bo'yicha o'z ilmiy ishlarida asosiy e'tiborni iste'molchilarni segmentlarga ajratish hamda bozor tadqiqotiga qaratgan. [1]

Yana bir rus olimlaridan biri O. Kurtushina qandolat maxsulotlari marketingi, bozorda uning o'rnini oshirishda tovar strategiyasini amalga oshirish yo'llari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan [2].

Xorij olimlarining marketing tadqiqotlarida turli xil ta'riflar, uning roli va ahamiyati haqida qarashlar mavjud. Masalan, A. Diane, E. Dixtl, X. Hershgen va ma'lum darajada F. Kotler marketing tadqiqotlarini marketingni boshqarish jarayoniga tegishli funktsiyalarning tarkibiy qismi deb hisoblashadi [3, 4]. F. Kotler marketing tadqiqotlariga bergan ta'rifida kompaniya oldida turgan marketing vaziyati bilan bog'liq holda zarur bo'lgan ma'lumotlar doirasini tizimli ravishda aniqlash, ularni to'plash, tahlil qilish va hisobot berish sifatida izohlaydi [5].

Ushbu tadqiqotlarning aksariyatida an'anaviy marketing va uni amalga oshirish strategiyalari bo'yicha izlanishlar amalga oshirilgan. Qandolat mahsulotlarining marketing tadqiqotlarini raqamli platformalarda amalga oshirish bo'yicha metodologik usullar to'liq ishlab chiqilmagan, lekin raqamli platformalarda marketing jarayonlarini amalga oshirishga oid tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha bir qator xorijlik olimlar izlanishlar olib borishgan.

Iqtisodchi olim P.Bains asarlarida sanoat korxonalari uchun kommunikatsiya va raqamli platformalarning ahamiyati, xaridor va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish strategiyalari yoritib berilgan. U o'z tadqiqot ishlarida yuqori darajadagi aloqalarni yo'lga qo'yishda raqamli marketing ko'plab aloqalarni osonlashtirishi hamda mahsulot va xizmatlarni o'z vaqtida taqdim qilishda va iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish uchun foydalanilishi mumkinligini izohlab o'tgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida qandolat mahsulotlari marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda ilmiy abstraktsiya, tizimli tahlil, ekspert baholash, nazariy-falsafiy, obyektiv yondashuv, anketa so'rovlari o'tkazish va tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish va savdosida Rossiya, Ukraina, Polsha, AQSh, Angliya, Xitoy jahon bozorida yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. Statistika hisob-kitoblariga qaraganda, Rossiya Federatsiyasida qandolat mahsulotlarini iste'mol qilish 2022-yilda 4,5 kg ni tashkil etgan, 2019-yilgacha bo'lgan davrda bu ko'rsatkich 5,1 kg ga to'g'ri kelgan. Chunki ushbu davrda qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda yetakchi bo'lgan Rossiya va Ukraina hududlarida vujudga kelgan siyosiy-iqtisodiy vaziyatlar natijasida shakarli mahsulotlar 21 foizga, unli shirinliklar 25 foizga, shokolad mahsulotlari 30 foizga oshishi kuzatildi. Inqiroz sharoitida qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish ham o'zgardi.

Qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ichki va tashqi bozorlarga kirishlaridan oldin iste'molchilar xulq-atvorlarini o'rganishlari va bozor holatini tahlil qilishlari hamda bashoratlarini amalga oshirishlari kerak. Korxonalar raqamli axborot vositalarini qo'llash orqali xaridorlarni jalb qilishlari va iste'molchilar bilan uzoq vaqtga eng yaxshi hamkorga aylanishlari mumkin.

O'zbekistonda qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar ko'p bo'lib, ular ichida "Crafers" korxonasi alohida o'rinda turadi. Bugungi kunda uning xodimlari soni 800 nafardan ortiq bo'lib, korxona 150dan ortiq assortimentdagi qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. Ishlab chiqarish quvvati yiliga 47500 tonnani tashkil qiladi. Dunyoning yetakchi ishlab chiqaruvchilarining texnika va texnologiyalari bilan jihozlangan va yuqori sifatli qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan. Asosiy texnologik dizayner Sankt-Peterburgda joylashgan «Mossa Engineering» kompaniyasi bo'lib, u mahsulotlarning laboratoriya sinovlarini boshqaradi.

Korxona turli xil qandolat mahsulotlarini ishlab chiqaradi: pechene, vafli, marmelad, Marshmallow, karamel va boshqa turdagi shirinliklar, shuningdek, shokolad mahsulotlarining keng assortimentini ham. Ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo va materiallar ISO 9001, 22000 oziq-ovqat xavfsizligi standartlariga javob beradi. 15 dan ortiq mamlakatlarga o'z mahsulotlarining eksportini yo'lga qo'ygan [7].

1 - j a d v a l: "Crafers" korxonasi veb sayti tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Korxona ma'lumotlari
1.	Sayt manzili	https://crafers.uz/uz/
2.	Mamlakat	O'zbekiston
3.	Ijtimoiy tarmoqlarda akkauntlari mavjudligi	Facebook, Instagram, Youtube
4.	Aloqa kanallari manzillari	Tel. +998 71 207 7 207 email: info@crafers.uz
5.	Korxona to'g'risida ma'lumot mavjudligi	mavjud
6.	Boshqa kontentlar	Ish o'rinlari bandi, Yangiliklar bandi, 3 xil til (o'zbek, rus, ingliz), Savol yo'llash bo'limi
7.	Saytga joylangan mahsulotlari soni	Shokolad: 23 xil, Pechene: 5 xil, Karamel: 11 xil, Fayli: 5 xil, Kreker: 3 xil, Marmelad: 10 xil, Marshmelou: 4 xil

“Crafers” korxonasi veb-sayti mavjud bo‘lsa-da, lekin Instagram, Facebook, ijtimoiy tarmoqlarda ham mijozlari bilan aloqani yo‘lga qo‘ygan. https://www.instagram.com/crafersuz/ orqali tadqiqotni amalga oshiramiz. Tadqiqotga ko‘ra bir oy davomida kontent postlari soni 7 taga oshib, 866 tani, bir kontentga eng ko‘p “like”lar soni 40,9 tani tashkil etgan bo‘lsa-da, ijtimoiy tarmoq a’zolar soni 75,6 mingtadan 75,5 ming nafarga kamaygan. Bu esa ijtimoiy tarmoqda faoliyat yuritayotgan SMM ishchilari faoliyati muxlislarga yoqmaganidan dalolat beradi.

2 - j a d v a l: “Crafers” korxonasi Instagram tahlili (15.05.2023)

№	Ko‘rsatkichlar	01.05.2023	01.06.2023
1.	Kontent postlari	859	866
2.	Ijtimoiy tarmoq a’zolari soni	75,6 ming	75,5 ming
3.	Bitta kontentga eng ko‘p “like”lar soni	40,8 ming	40,9 ming
4.	Bitta kontentga eng ko‘p fikr-izohlar soni	4571	4620

Ijtimoiy tarmoqda korxona faoliyatini tadqiq qilishda ER (Engagement Rate) aniqlash muhim hisoblanadi.

ER (Engagement Rate) - bu korxonaning ijtimoiy tarmoqdagi nashrlari bilan tomoshabinlarning faolligini aks ettiruvchi ko‘rsatkich. ER qanchalik katta bo‘lsa, nashrlar korxonaning obunachilari uchun shunchalik qiziqarli bo‘lishi va ular buni “Like” hamda sharhlar shaklida bildirishidir.

ER (obunachilarning qatnashish darajasi) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$ER = \frac{\text{interactions}}{\text{followers}} \text{x}100\ \%$$

Bu yerda obunachilar (followers) - bu hisob qaydnomasidagi obunachilarning soni.

O‘zaro aloqalar (interactions=likes+comments+saves) - bu ma’lum vaqt davomida o‘zaro ta’sirlar soni (yoqtirishlar, sharhlar, shaxsiy xabarlar, “ulashish” tugmachasini bosish) bu yerda o‘rtacha hisoblash amalga oshiriladi. “Crafers” korxonasi Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, 01.06.2023 kuni korxona ko‘rsatkichi ER=4722 foizni (40900/866*100=4722) 01.05.2023 kuni esa ER=4749 foizni (40800/859*100=4749) tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, eng ko‘p izoh va fikrlar bo‘yicha bu ko‘rsatkich iyun oyining boshida kamayganini ko‘rishimiz mumkin [8].

Marketing tadqiqotini amalga oshirishda axborotlarni to‘plash usullari hisoblangan ijtimoiy so‘rovnoma, savol-javob (sotuvchilar va xaridorlar bilan intervyu) va kuzatuv usullari keng qo‘llaniladi. Ijtimoiy so‘rovnomada eng ko‘p tarqalgan tadqiqot vositasi anketa-so‘rovnoma usulidir. Qandolat mahsulotlari bozorini o‘rganishda anketa so‘rovlari birlamchi ma’lumotlar yig‘ishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Har bir savol keng miqyosda ishlatilishidan oldin tanlash orqali ba’zi iste’molchilar orasida sinab ko‘rilishi kerak.

Yuqorida aytilganidek, marketing tadqiqotlarida axborotlarni yig‘ishning samarali va eng ko‘p tarqalgan vositasi sifatida anketa-so‘rovnoma usulidan keng foydalaniladi. Chunki ushbu tadqiqot usuli ijtimoiy tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi va ma’lumotlarni kam xarajat qilib, tez to‘plash imkonini beradi. Olib borilgan tadqiqotlardan ma’lumki, iste’molchilar xohish va istaklari asosida tuzilgan so‘rovnomalar yordamida tizimdagi kamchilik va muammolarni aniqlash, ushbu muammolarga kelgusida yechim topish, shuningdek, ko‘zlangan samaradorlikning oshirish mumkin.

Zamonaviy va samarali tadqiqot usullaridan biri bo‘lgan onlayn ijtimoiy tarmoqlar (facebook, telegram, odnoklassniki) orqali ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazildi. Internet tadqiqotlari an’anaviy axborot to‘plash vositalariga qaraganda qulay, kam vaqt va kam xarajat talab etadi. Shu sababli, ijtimoiy so‘rovnomalarni o‘tkazishda internet tarmoqlaridan foydalanildi.

Korxona internet tarmoqlarida marketing tadqiqotlari web-sayt hamda ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlariga iste’molchilar tashrifi, fikr-mulohazasi va tovarlarga munosabatlari to‘g‘risida axborot to‘plash, tahlil qilish va baholash jarayoni tarzida olib boriladi. Raqobatli kurash sharoitlarida kompaniya muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun bozordagi barcha o‘zgarishlarni: xaridorlar talabi, narxlar nisbati, raqobatchilar xatti-harakatlarini kuzatib borishi, shuningdek, yangi mahsulotlar yaratishi, distribyutorlik tarmog‘iga yangi elementlarni joriy qilishi lozim.

Internet veb-saytlarida tadqiqot o‘tkazish bosqichi 1-rasmda keltirilgan.



1 - r a s m: Onlayn marketing tadqiqot o'tkazish bosqichlari

Internet tarmoqlarida korxona o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olishida va iste'molchilar bilan munosabatlarini yo'lga qo'yishda axborot tizimlarini samarali tashkil qilish muhim xisoblanadi. Internetda marketing tadqiqotlari o'tkazishni an'anaviy tadqiqotlardan ajratib turuvchi asosiy farqlar axborot to'plash usullari va ma'lumot manbalari hisoblanadi.

Tadqiqot rejasi birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanishni ko'zda tutishi mumkin. Birlamchi ma'lumotlar mazkur loyihani amalga oshirishda muayyan maqsadda to'planadi. Ikkilamchi ma'lumotlar esa boshqa maqsadlar uchun olingan, ma'lum bir shakldagi axborotlar hisoblanadi.

Odatda, tadqiqotlar vazifani to'liq yoki qisman hal qilish uchun to'g'ri keluvchi hamda birlamchi ma'lumotlar to'plash uchun xarajatlarni qisqartirishga imkon beruvchi ikkilamchi ma'lumotlar tahlilidan boshlanadi. Istalgan holatda ham ikkilamchi ma'lumotlar boshlang'ich nuqta bo'lib, nisbatan arzon va oson topiladi.

Ikkilamchi ma'lumotlarning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- korxona faoliyati haqidagi ichki ma'lumotlar;
- Internet orqali olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar. Bu holatda web-sahifa va web-saytlar, ma'lumotlar to'plami, telekonferensiya va fayl serverlari manba vazifasini bajarishi mumkin.

Zarur ma'lumotlarni ikkilamchi ma'lumotlar tarkibidan topishning imkoni bo'lmagan yoki bu ma'lumotlar to'liq, aniq va yetarli darajada ishonchli bo'lmagan yoki eskirib qolgan hollarda birlamchi ma'lumotlarni to'plashga to'g'ri keladi. Birlamchi ma'lumot to'plashning asosiy usullari so'rovlar, kuzatuv usuli va eksperimentlar o'tkazish hisoblanadi.

Ma'lumot to'plashda foydalaniluvchi usullar o'tkazilayotgan tadqiqot turiga qarab ikki xil – birlamchi yoki ikkilamchi usullarga taqsimlanadi.

Ikkilamchi marketing tadqiqotlari o'tkazishda birinchi o'ringa Internetda zarur axborotlarni qidirish usullari chiqadi. Bugungi kunda asosiy qidiruv vositalari qidiruv tizimlari va kataloglar hisoblanadi. Bir qator hollarda, ulardan foydalanish yetarlicha samara bermagan sharoitlarda tematik saytlar, «sariq sahifalar» va boshqa resurslar bo'yicha «qo'lda qidirish» amalga oshiriladi.

Birlamchi axborot to'plashda ma'lumot to'plashning asosiy usuli sifatida Internet-so'rovlari, kuzatuv va eksperimentlar xizmat qiladi.

Internet-so'rovlar o'tkazishning eng keng tarqalgan usuli anketa so'rovlari hisoblanadi. Anketa respondentlar fikrini bilish uchun kiritilgan bir qator savollardan iborat bo'ladi. Bu vosita moslashuvchanligi va universalligi bilan ajralib turishi sababli u birlamchi ma'lumotlar to'plashning eng keng tarqalgan vositasi sanaladi.

Har qanday vazifaga jiddiy yondashuv uni hal qilish mumkin bo'lgan usullarni tahlil qilishdan boshlanadi. Internetda axborot izlashni ikkita asosiy usul yordamida amalga oshirish mumkin bo'lib, ular maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda birgalikda yoki bir-biridan alohida qo'llanishi mumkin:

1. **Qidiruv tizimlaridan foydalanish** – bugungi kunda ushbu usul ma'lumot izlashning eng asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Uning qo'llanishi tizimga qidiruv argumenti sifatida beriluvchi tayanch so'zlarga asoslanadi. Natijada detalli ko'rib chiqish talab qilinuvchi Internet resurslari ro'yxati olinadi. Eng to'g'ri keluvchi natijani olish tezaurus tuzish bo'yicha oldindan ishlashni talab qiladi;
2. **Gipermatn ssilkalar bo'yicha izlash** – Internetdagi barcha saytlar bir-biri bilan giperssilkalar orqali bog'liqligi sababli axborot izlash brauzer yordamida ssilkalar bilan bog'langan web-sahifalarni ketma-

ketlikda ko‘rib chiqish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Qidiruvning bu turiga kataloglar, tasnifiy va tematik ro‘yxatlar va turli ma’lumotnomalardan foydalanishni kiritish mumkin. Bunday usul eng ko‘p mehnat talab qiladi, biroq web-sahifalarni «qo‘lbola» ko‘rib chiqish chuqur tahlil talab qiluvchi axborot izlashning yakuniy bosqichlarida yagona to‘g‘ri usul bo‘lib chiqishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda eng avvalo marketing tadqiqotlarini samarali tashqil etish maqsadga muvofiq. Qandolat mahsulotlari bozorini tahlil qilish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda uning faoliyati tahlili, ya’ni, moliyaviy holati, bozorda raqobat kuchlarining joylashuvi, raqobatchilarning qiyosiy tahlilini o‘tkazish, tadqiqot natijalariga ko‘ra korxona faoliyatini takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi bir qator vazifalarni hal qilish orqali erishiladi. Marketing tadqiqotlarini samarali va tizimli ravishda amalga oshirishda zamonaviy tadqiqot texnologiyalaridan biri bo‘lgan internet orqali tadqiqotni amalga oshirish kam xarajatlarni talab etadi.

Internet veb-saytlarida tadqiqot olib borishni quyidagi qoidalar asosida amalga oshirish ma’qul:

1. Faqat bir manbaga tayanmang. Tarmoq ma’lumotlari internet saytlari ma’lumotlariga nisbatan o‘zaro tekshiriladi va tarmoq materiali ishonchli ekanligi tasdiqlangandan so‘ng ma’lumot olinadi.
2. Internetda tor tadqiqot mavzusi asosida tadqiq qilish kerak. Internet qidiruv tizimlari ko‘p ma’lumotlarga kirish imkonini beradi va buning natijasida aniqlashtirmoqchi bo‘lgan ma’lumotlar o‘z aksini topmaydi. Internetda qidiruvni boshlashdan oldin, qidiruvni yo‘naltirish va cheklash uchun juda aniq savollar hamda kalit so‘zlar orqali amalga oshirish ma’qul.
3. Qidiruv tizimlarining samaradorini tanlay olish. Google, Bing, Rambler, Yahoo va boshqa qidiruv tizimlari bir-biridan qanday ishlashi, qancha tarmoqni izlashi va ulardan qanday natijalarga erishishda farq qiladi. Har bir qidiruv tizimi nima qilishini va undan qanday qilib eng yaxshi foydalanishni o‘rganish muhim hisoblanadi. Ularning har biri siz uchun turli xil narsalarni topishi mumkinligi sababli, har doim bir nechta qidiruv tizimidan foydalanish mumkin. Ixtisoslashgan qidiruv tizimlari va ma’lumotnomalar uchun siz 2500 dan ortiq qidiruv tizimlari va kataloglarni o‘z ichiga olgan “Beaucoup” yoki dunyoning 230 dan ortiq mamlakatlaridagi qidiruv tizimlarini o‘z ichiga olgan “Search Engine Colossus International Search Engines” kataloglari mavjud.
4. Foydali sayt havolalarini saqlab qolish. Tarmoqda tadqiqot qilishda ko‘p foydali va foydali bo‘lmagan havolalarga duch kelinadi. Brauzerning «Tarix» funktsiyasida tashrif buyurilgan sayt havolalari qoladi, bu esa qidiruvda yana qayta sayt manzilini topish imkonini beradi. Yana bir “xatcho‘p” funktsiyasiga ham saqlab qo‘yish mumkin, bu esa qidiruvni yanada osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Петина Я.А. М. В. Кравченко “Маркетинговое исследование рынка кондитерской продукции” Актуальные проблемы авиации и космонавтики – 2017. Конференция Том 3
2. Куртушина О. Анализ рынка кондитерских изделий https://www.marketing.spb.ru/mr/food/confectioneries.htm
3. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing Management. Pearson Education, Inc., publishing as Prentice Hall, United States of America 2012 y.
4. Кириллов А.Т., Волкова Л.А. Маркетинг в туризме. - С-Пб.: Изд-во С.
5. Котлер Ф. Основы маркетинга. - Новосибирск: Наука, 1992.
6. Baines, P. Marketing Principles / P. Baines, C. Fill, K. Page. // Oxford University Press. —Oxford , 2009.
7. https://crafers.uz/uz/info
8. Makhmudov, T. O., & ogli Kodirov, K. T. Methods for evaluating the effectiveness of the marketing activities of an enterprise, analysis and results. gwalior management ACADEMY, 146.

INVESTITSIYA MUHITI VA FAOLIYATI NATIJALARINI BAHOLASH USLUBLARI

B. K. Tuxliyev
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Soliqlar va sug‘urta ishi kafedrasi mudiri, i.f.d. professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion muhit, O‘zbekiston iqtisodiyotida jozibador investitsiya muhitini tashkil etish, investitsiya faoliyatini takomillashtirish, uning manbalarini shakllantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilgan. Amaliyotda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi tahlili keltirilgan. Hududiy investiya muhitini tashkil etishdagi omillar, muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion muhit, investitsiya loyihalari, hududiy investitsion, investitsiya muhitini baholash. investor, investitsion faoliyat, investitsiyalarni moliyalashtirish.

Аннотация: В данной стате рассматриваэтся инвестиционная среда, создание привлекателной инвестиционной среды в экономике Узбекистана, совершенствование инвестиционной деятелности, формирование ее источников, создание благоприятной инвестиционной среды, факторы, влияющие на инвестиционную среду в развитие народного хозяйства. Анализ объема инвестиций в основной капитал дан на практике. Анализируются факторы, проблемы и пути их решения в организатсии региоланой инвестиционной среды.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная среда, инвестиционные проекты, регионалноэ инвестирование, оценка инвестиционной среды. инвестор, инвестиционная деятелност, инвестиционноэ финансирование.

Abstract: This article examines the investment environment, the creation of an attractive investment environment in the economy of Uzbekistan, the improvement of investment activity, the formation of its sources, the creation of a favorable investment environment, the factors affecting the investment environment in the development of the national economy. The analysis of the volume of investments in fixed capital is given in practice. Factors, problems and their solutions in the organization of the regional investment environment are analyzed.

Key words: investment, investment environment, investment projects, regional investment, assessment of investment environment. investor, investment activity, investment financing.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya resurslarini joylashtirish va ulardan samarali foydalanish uchun investitsiya muhiti umumiy mezon bo‘ladi. Qulay investitsiya muhiti investitsiyalardan samarali, manzilli va maqsadli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Qulay investitsiya muhiti mamlakatga kapital olib kelishni rag‘batlantiradi, investorlar faolligini oshiradi, aks holatlarda, qulay investitsiya muhiti shakllanmasdan investitsiya xavfi darajasi ortib boradi, kapitalning tashqariga chiqib ketishi kuchayadi va natijada investitsiya faoliyati so‘na boshlaydi.

Jumladan, investitsiya muhiti mavhum tushuncha bo‘lib, uning muayyanligini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy hamda boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi bu omillarning o‘zaro bog‘liq majmuasi u yoki bu mamlakat iqtisodiyotidagi hal qiluvchi investitsiya muhiti hisoblanadi. Bu haddan tashqari ko‘p o‘lchovli, murakkab va hajmdor tushunchadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aksariyat iqtisodchilar «investitsion muhit» tushunchasini bir xil talqin qilsalarda, ammo uning muayyan turkumiy tarkibiga kelganda va uni baholash uslublari haqida fikr yuritganda, ularning ta’rif va yondashishlari bir-birlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, «investitsiya muhiti» «investitsiya iqlimi» tushun-

chasining sinonimi sifatida ham ishlatiladi. Professor Sh.I.Mustafakulovning fikricha “Mamlakatning investitsiya jozibadorligini baholash bo‘yicha aniq uslubiyat, biron bir xalqaro qonun bilan belgilanmagan, shu bois oxirgi vaqtlarda investitsiya jozibadorligini baholovchi turli uslubiyatlar qo‘llanmoqda. Ayrim iqtisodchilar fikricha, investitsiya jozibadorligi kapitalni qo‘yishdan tushgan tushumning darajasi orqali aniqlanadi. Ushbu yondashuv qo‘llashning juda tor sohasini qamrab oladi, chunki aniq va to‘g‘ri natijalarni olish uchun investitsiyalar risk (xatar) darajasi bir xil bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi lozim, bu esa amalda deyarli mumkin emas”[1].

Investitsion muhitga baho berishda iqtisodiy sharoitlar, davlatning investitsion siyosati, investitsion faoliyatning me’yoriy-huquqiy bazasi hisobga olinadi. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas’uliyatini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son «O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, Farmoni[2] qabul qilindi.

Investitsiya muhiti – u yoki bu voqelikda biznes yuritish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa tashkiliy shart-sharoitlar majmuini o‘z ichiga oladi. Ya’ni, bizning tabirimizga ko‘ra investitsiya muhiti - muayyan mamlakatga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mavjudligining ijobiy yoki salbiy tomonlarini anglatadi[3]. Investitsion muhitga baho berishda iqtisodiy sharoitlar, davlatning investitsion siyosati, investitsion faoliyatning me’yoriy-huquqiy bazasi hisobga olinadi. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2023-yil 11-iyulda “Investitsiyalar jalb qilishni yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida qo‘yidagilar ta’kidlandi. “Yangi loyihalar hisobidan qo‘shimcha 3 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jalb qilish masalalari muhokama qilindi.

Bu borada eng katta imkoniyatlardan biri oliy darajadagi xorijiy tashriflar doirasida erishilgan kelishuvlar hisoblanadi”[4].

Investitsion muhitga baho berishda uchta asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin[5].

Birinchi yondashuv – tor ma’no va tarkibga asoslangan bo‘lib, u yalpi ichki mahsulot, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va milliy daromad dinamikalarini; milliy daromadni taqsimlash dinamikasini, jamg‘arma va iste’mol nisbatini; investitsion faoliyatni qonuniy tartibga solish holatini; alohida olingan investitsion bozorlar, shuningdek, fond va pul bozori rivojini baholash orqali ifodalanadi.

Ikkinchi yondashuv – kengaytirilgan, ko‘p omillik bo‘lib, u investitsion muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi ijobiy omillarni e’tiborga olish va baholashga asoslangan (1-chizma).



1 - c h i z m a: Investitsion muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar tasnifi

1 Mustafakulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma / Sh.I.Mustafakulov. – Toshkent: Baktria press, 2017. – 320-b.
2 https://lex.uz/docs/3845273
3 Tuxliyev B.K. Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish tizimii takomillashtirish masalalari: Monografiya. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” -T, 2021. -54 b.
4 Xalq so‘zi gazetasi, 2023-yil 12-iyul
5 Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: -М.:ЮНИТИ-ДАНА. 2001. С.116-118

1. Hududning mehnat va energetika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi, bioiqlimiy va ilmiy-texnikaviy salohiyati hamda infrastruktura majmua va subyektlarining rivojlanganligi.
2. Bozor infrastrukturasining rivojlanganligi, xususiylashtirish jarayoni va inflyatsiya darajalarining investitsion faollikka ta’siri, aholining investitsion jarayonga jalb qilinganlik darajasi, tadbirkorlik, raqobat muhitining qo‘layligi, mahalliy bozor hajmi, xo‘jaliklararo aloqalarning jadalligi, eksport imkoniyatlari, chet el kapitali mavjudligi.
3. Xo‘jalik yuritishning umumiy shart-sharoitlari – ekologik xavfsizlik, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanganligi va tugallanmagan qurilishlar hajmi.

Yuqoridagi umumiy xarakterda keltirilgan omillar o‘z navbatida qulay investitsion muhit yaratish nuqtai-nazaridan quyidagi siyosiy, ijtimoiy madaniy, moliyaviy va tashkiliy-huquqiy omillar doirasida e’tiborga olinishi lozim (2- chizma):



2 - c h i z m a: Investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarning tarkibiy turkumlari va ular tatbiq etiladigan asosiy yo‘nalishlar

Ko‘p omilli yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- investitsion muhit va investitsion xavf darajasi kategoriyalarining o‘zaro bog‘liqligi;
- investitsion muhitning asosiy kapital va iqtisodiyotning real sektoriga bo‘lgan investitsiyalar bilan bog‘liqligi;
- investitsion muhitning obyektiv xususiyatlariga diqqat e’tibor;
- investitsion muhitning alohida olingan investorlar xohish irodasiga bog‘liq emasligi,
- ushbu yondashuvning ko‘p xususiyatga egaligi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Uchinchi yondashuv - risk (xatar) tarafdorlari odatda investitsion muhitni tashkil etuvchilari sifatida ikkita asosiy mezonni ko‘rsatadilar:

birinchisi, investitsion salohiyat va investitsion risk darajalarining holati bo‘lsa,

ikkinchisi, investitsion risk va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajalarining o‘zaro bog‘liqligidir.

Dunyo mamlakatlarida investitsion muhitga baho berish uslublari bir-biridan farq qiladi va aksariyat hollarda makroiqtisodiy sohaga nisbatan baho beriladi. Masalan, Yaponiyada investitsion muhitning bayoniy tavsifi berilib, miqdoriy baho qo‘llanilmaydi. AQShda esa bir-biriga bog‘liq to‘rtta ko‘rsatkich, ya’ni ishbilarmonlik faolligi, xo‘jalik yuritish tizimining rivojlanganlik darajasi, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi, soliq siyosatining asosiy tashkil etuvchilari orqali aniqlanadi. AQShda reyting natijalari har yili «Yillik statistik karta»da e’lon qilinadi. «Euromoney» jurnali rivojlangan mamlakatlar yirik banklari vakillari bo‘lgan ekspertlardan ma’lumot to‘plash usulidan foydalanish bilan bir qatorda u yoki bu omilning holati haqida statistik axborotni ham hisobga oladi. Bu omillar qatorida quyidagilar mavjud, ya’ni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, mahsulotlar uchun to‘lovni amalga oshirmaslik riski, kreditlarni qaytarmaslik, dividendlarni to‘lamaslik, qarz ko‘rsatkichlari, mamlakatlarning kreditlarni qaytara olish imkoniyatlari.6

Investitsion muhitni baholashning roli va ahamiyatining nechog‘lik muhimligini hisobga olgan holda, respublikamizda hududiy investitsion muhitning bir xil emasligini nazarda tutmog‘imiz lozim. Shundan kelib chiqib, investitsion loyihalarni amalga oshirishda infrastrukturni yaratishga mahalliy hokimiyat katta e’tibor qaratmog‘i lozim. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2023 yil 11 iyulda “Investitsiyalar jalb qilishni yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida qo‘yidagilar ta’kidlandi. “Investitsiya dasturlaridagi 1,5 mingta loyihani tezlashtirish va 12,1 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish bo‘yicha yangi tizim joriy qilinishi ta’kidlandi.7

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tadqiqotning dialektik usuli, tizimli va jarayonli yondashuvlar tashkil etadi. Ishda ilmiy abstraksiya, sintez, guruhlash va taqqoslash, moliyaviy tahlil kabi tadqiqot usullaridan hamda rasmiy axborot bazasidan foydalanilgan.

Yuqorida bayon qilingan investitsion muhitni baholash uslublarining asosliligi va amaliy ahamiyatiga baho berish uchun chet el tajribasini o‘rganish, uning ilg‘or va istiqbolli yutuqlarini tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsion muhitni baholashning xalqaro tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uning obyektivlik darajasini oshirish uchun zamonaviy iqtisodiyot fani tomonidan ishlab chiqilgan bir qator muhim uslubiy qoidalarni hisobga olish zarur. Jumladan:

1. Barcha turdagi investitsiyalar uchun ma’lum investitsion muhit zarur. Amalda kapital (sanoat, savdo, qarz, aksiyadorlik) investitsiya kabi turlicha bo‘ladi, investorlar esa o‘zaro mos kelmaydigan maqsadlarni ko‘zlaydilar. Masalan, qarz kapitali qisqa vaqt ichida maksimum foyda olishga qaratilgan bo‘lib, moliyaviy investitsiyalar orqali harakat qilsa, sanoat kapitali esa uzoq muddat davomida korxona faoliyatiga barqaror ta’sir o‘tkazishga intilib, real va bevosita investitsiyalar orqali harakat qiladi.
2. Investitsion muhit manfaatlar muvozanatiga asoslangan bo‘lishi kerak, chunki investitsiyalarni qabul qiluvchi ham, investitsiyalarni yetkazib beruvchi ham turlicha maqsadlarni ko‘zlaydi, ya’ni ularning birinchisi minimum mablag‘lar asosida maksimum maqsadlarni ko‘zlasa, ikkinchisi – maksimum foyda olish va mahalliy bozorlarni mumkin qadar tezroq egallashga intiladi.
3. Investitsion muhit, bir tomondan, uzoq vaqt davomida barqaror bo‘lishi lozim, ikkinchi tomondan, yetarli darajada uddaburon tadbirkor mamlakatda shakllanayotgan ijtimoiy ishlab chiqarish omillariga (ilmiy-texnikaviy, tadbirkorlik, boshqaruv, texnologik) nisbatan yuz berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olabiladigan bo‘lishi darkor.
4. Investitsiyalar inson kapitali rivoji, barcha faoliyat sohalaridagi ishchi va xizmatchilarning malakasi yuksalishi bilan aniq bog‘langan bo‘lishi lozim.
5. Investitsion muhit xo‘jalikning iqtisodiy barqarorligi va ishlab chiqarish tizimlari xavfsizligini ta’minlashi kerak.
6. Investorlar va investitsiyalanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim manfaatlarining muvozanati va o‘zaro mos kelishini ta’minlash maqsadida, jalb qilinayotgan investitsiyalarning samarali ekanligini va investitsion

6 Гуськова Н.Д. Теория и практика инвестиционной деятельности в условиях транзитивной экономики: Федеральный и региональный аспекты. Специальность 08.00.05 Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Саранск 2000. С.103

7 Xalq so‘zi gazetasi, 2023-yil 12-iyul

muhitning qulayligini kompleks baholash talab etiladi. Shu sababdan nafaqat jalb qilingan investitsiyalar hajmi, balki ulardan foydalanish jarayonida paydo bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa oqibatlarini hisobga olish lozim.

Yuqoridagi uslubiy qoidalar asosida investitsion muhitni baholash usullarining afzalliklari va kamchiliklariga alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Jumladan, tor ma’no va tarkibga asoslangan yondashuv tarafdorlari investitsion jozibadorlikning asosiy ko‘rsatkichi sifatida foydalanilayotgan aktivlarning foydalilik darajasini ikki variantda hisoblashni qabul qiladi:

1) tovarlar va xizmatlar realizatsiyasidan kelgan foydaning jalb qilingan aktivlarning umumiy summasiga nisbati;
2) balans foydaning foydalanilayotgan aktivlarning umumiy summasiga nisbati.

Ushbu uslubiy yondashuv sodda va hammabop bo‘lib, tadbirkorlik fao-liyatining bosh maqsadi bo‘lgan foyda va qo‘yilmalar qaytimini hisobga oladi. Uni turli xo‘jalik tizimlaridagi investitsion muhitni tadqiq qilish uchun qo‘llash mumkin. Biroq, bu yondashuvda manfaatlar muvozanati aks etmagan, investitsiyalar bilan resurs omillari o‘rtasidagi obyektiv bog‘liqlik inkor etiladi, qolaversa, investitsion muhit rivojlanishning innovatsion turi va iqtisodiy barqarorligi bilan bog‘lanmagan.

Investitsion muhitni baholashning ko‘p omilli usuli uslubiy talablarga ko‘proq javob beradi. Uning afzallik tomonlari: resurs-omillarning o‘zaro ta’sirini hisobga olish; baho berishda subyektivizmni kamaytiradigan statistik ma’lumotlardan foydalanish; iqtisodning turli darajalariga alohida-alohida yondashuv; investitsiyalarning barcha mumkin bo‘lgan manbalarini maksimal darajada samarali qo‘llashni taminlashga intilish.

Risk darajasi bilan bog‘liq baholash usuli esa eng avvalo strategik investor uchun qiziqish uyg‘otadi. U nafaqat investitsiyalash uchun jozibadorlikni aniqlab qolmay, balki investitsiyalar qo‘yiladigan yangi obyektga xos bo‘lgan xavf darajasi bilan hozirda mavjud bo‘lgan, investor uchun biznes yuritishda odatiy bo‘lgan risk darajasini o‘zaro qiyoslash imkonini ham beradi. Ushbu yondashuvda, shuningdek, investorning ham iqtisodiy, ham siyosiy manfaatlari hisobga olinadi.

Zamonaviy iqtisodiy tafakkurning yetakchi yo‘nalishlaridan bo‘lgan institutsionalizm investitsion muhit tahlili uchun yangi imkoniyatlarni ochib berganligini alohida e’tirof etish lozim. Shuni ta’kilash joizki, investitsion muhit iqtisodning institutsional tizimida alohida tizim osti qismi bo‘lib, u ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va ilmiy-texnikaviy yangilanish jarayonida faol investitsion faoliyat orqali ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan eng unumli foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish vazifasini bajaradi. Mazkur tadqiqotlarimiz maqsadlariga oydinlik kiritish uchun kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yuksalishni taminlaydigan institutsional shart-sharoitlar tavsifini bilish muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xalq so‘zi gazetasi, 2023-yil 12-iyul.
2. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: -М.:ЮНИТИ-ДАНА. 2001. С.116-118
3. http://www.lex.uz (normativ-huquqiy hujjatlar tizimi).
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2019-yil 25-dekabr. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati” to‘g‘risida.
5. Mustafakulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma / Sh.I.Mustafakulov. – Toshkent: Baktria press, 2017. – 320 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son «O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, Farmoni https://lex.uz/docs/3845273
7. Tuxliyev B. K. Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish tizimii takomillashtirish masalalari: Monografiya. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”. -T, 2021. -54-b.
8. Гуськова Н.Д. Теория и практика инвестиционной деятельности в условиях транзитивной экономики: Федеральный и региональный аспекты. Специальность 08.00.05 Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Саранск 2000. С.103
9. COVID-19 pandemiyasi va global iqtisodiy inqirozga qarshi kurash: “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi, www.strategy.uz
10. Davlat statistika qo‘mitasi, http://www.stat.uz

SANOAT KORXONALARIDA RESURSLAR SALOHIYATINI TIZIMLI TAHLIL QILISH – KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA

Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,Phd

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini iqtisodiy baholashning nazariy asoslari keltirilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini baholash usullari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: resurslar salohiyati, sanoat korxonalari, resurslar, moddiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, innovatsion resurslar, asosiy fondlar, aylanma fondlar.

Аннотация: В данной статье представлены теоретические основы экономической оценки ресурсного потенциала промышленных предприятий Узбекистана. Также широко освещаются методы оценки ресурсного потенциала на промышленных предприятиях.

Ключевые слова: ресурсный потенциал, промышленные предприятия, ресурсы, материальные ресурсы, трудовые ресурсы, финансовые ресурсы, инновационные ресурсы, основные средства, оборотные средства.

Abstract: This article provides the theoretical basis for the economic assessment of the potential of resources in industrial enterprises of Uzbekistan. Also, methods for assessing the potential of resources in industrial enterprises are widely covered.

Key words: resource potential, industrial enterprises, resources, material resources, labor resources, financial resources, innovative resources, basic funds, revolving funds.

KIRISH (INTRODUCTION)

O'zbekistonda so'ngi yillarda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish masalalariga keng e'tibor qaratilyapti, jumladan to'qimachilik tarmog'i faoliyatinini takomillashtirish markaziy o'rinda turadi. Chunki to'qimachilik sanoatining respublika YaIMdagi ulushi 4,8 foizni tashkil etib, sanoat mahsulotlarining 25 foizi, ishlab chiqarish asosiy fondlarinii 13 foizi ushbu tarmoqqa to'g'ri keladi va eng asosiysi sanoatda band xodimlarning 32 foizi aynan shu tarmoqda faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida juda ko'plab iqtisodiy islohotlar amalga oshirilyapti. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning 3-bandiga ko'ra, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olingan bo'lib, ushbu vazifalar sohani istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda sanoat tarmog'i xususan, to'qimachilik tarmog'i faoliyatini baholashni takomillashtirishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Iqtisodiy adabiyotlarda resurslar va resurslar salohiyati bo'yicha ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, I. A. Kinash [3] va A. S. Bessonovlar [4] fikriga ko'ra, resurslar deganda iqtisodiy boyliklarni takror ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan omillar majmuasini tushunishni taklif qiladilar, iqtisodiy resurslar deganda esa ular tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan tabiiy, inson va moddiy resurslarning to'liq majmuasini tushunadilar.

A. Sudakovaning [5] mualliflik konsepsiyasida resurslar doim potentsial ishlab chiqarish omillari bo'lib hisoblanishi, ya'ni bu ishlab chiqarishga jalb etilgan tabiiy ob'ektlar ekanligi ko'rsatiladi.

I. V. Andronova, E. L. Chijevskayalar [6] tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra «resurslarning samaradorligi» bu keng ma'noda imkoniyatlar va resurslarni tejash uchun (material, moliyaviy resurs, mehnat va boshqalar) minimal harakatlar bilan maksimal natijaga erishishdir.

S. M. Kulishning fikriga ko'ra korxonaning umumiy resurslaridan foydalanish samaradorligini umumiy baholash uchun aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichidan foydalanish mumkin. Ushbu ko'rsatkich foyda olish jarayonida korxona aktivlaridan foydalanish darajasini tavsiflaydi va har bir aktiv turining uning shakllanishiga qo'shgan hissasini baholaydi. Biroq, korxonaning resurs salohiyatini baholash jarayonida uni umumiy tahlil ko'rsatkichlari bilan cheklab bo'lmaydi [7].

V. V. Kovalev [8] resurslarning butun yig'indisini uch guruhga ajratadi: (a) moddiy-texnik baza (texnologik jarayonning mohiyati tufayli uzoq muddatli qayta ishlash), joriy aktivlar (texnologik jarayonning bajarilishini ta'minlaydigan aktivlar) va mehnat resurslari. Aynan mana shu uch turdagi resurslar ishlab chiqarish va texnologik jarayonda birlashib, belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydi deb hisoblanadi.

T. B. Berdnikovaning fikricha, ishlab chiqarish salohiyati...har xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonaning turli ishlab chiqarish imkoniyatlarini birlashtirgan toifa sifatida tushuniladi [9].

Nguyen Thi Thu hang korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini quyidagicha belgilaydi "...korxonada mavjud bo'lgan texnik, mehnat va moddiy-energetika resurslaridan foydalangan holda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mavjud imkoniyatlar" [10].

T. I. Nikolayeva, T. I. Uryashyevalarning [11] fikriga ko'ra, resurs salohiyati deganda xo'jalik yurituvchi subyektning barqaror raqobatdosh ustunliklarni yaratish uchun ma'lum bir tarkib va tizimlar soni bilan ta'minlangan qobiliyatlar to'plamini shakllantirish tushuniladi. Boshqalar esa korxonaning resurs salohiyati deganda moddiy, energetika, axborot vositalari, shuningdek, moddiy tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanadigan ishchilarning o'zlari bilan bog'liq resurslar tizimi tushuniladi.

TADQIQOT METODIKASI (LITERATURE REVIEW)

Sanoat korxonalarida resusrlar salohiyatini baholash bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiya, ma'lumotlarni guruhlash , induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Korxonaning resurs salohiyati (ERP, enterprise resource potential) bu korxona ixtiyorida bo'lgan va tadbirkorlik faoliyat jarayonida foydalaniladigan turli xil resurslar to'plami. Korxonalar faoliyatida resurslar salohiyatini aniqlashda mikro va makro darajadagi tahlillardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda agar makro darajada tahlillar olib boriladigan bo'lsa, butun davlat va milliy iqtisodiyot darajasida ma'lum bir turda faoliyat yuritadigan korxonalarning resurslar imkoniyatini baholash indeks usuliga asoslanadi. Birinchi guruh mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini, ikkinchi guruh esa aholining turmush darajasini belgilaydi. Umuman olganda korxonalarning mamlakat miqyosidagi resurslar salohiyati moddiy resurslar, moliya, ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy salohiyat ko'rsatkichlarini tahlillari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy sohaning salohiyati madaniy ob'ektlar, maishiy va uy-joy xizmatlari, shuningdek kommunal xizmatlarni taqdim etish kabi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi.

Makro darajada resurs potentsialini baholash, bir tomondan, milliy iqtisodiyotning barcha resurslarining pul ko'rinishida ifodalangan umumiy qiymatini baholashga va boshqa tomondan ularning faoliyati natijalarini tavsiflashga asoslanadi. Korxonalar miqyosida tahlillar olib boriladigan bo'lsa, butun davlat va milliy iqtisodiyot darajasida ma'lum bir turda faoliyat yuritadigan korxonalarning resurslar imkoniyatini baholashga asoslanadi. Korxonalar faoliyatida resurslar salohiyatini mikro darajada iqtisodiy baholashda juda ko'plab usullardan foydalanish mumkin.

- indeks usuli
- indikativ usul
- resurs-regressiyasi usuli
- resurslarni prioritet (ustuvor) baholash usuli
- resurslar salohiyatini pul qiymatlari asosida baholash usuli

Amalda, eng keng tarqalgan usul - bu resurslar salohiyatini uning dinamikasining kompleks ko'rsatkichi asosida baholash usuli. Uning mohiyati korxonaning ishlab chiqarish, mehnat va moliyaviy resurslarining integral ko'rsatkichlarini hisoblash bilan bog'liq. Ularning asosida resurs potentsialining kompleks ko'rsatkichi hisoblanadi. Lekin, korxonalarning resurslar salohiyatini baholash usullarini yanada takomillarshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki korxonalar resurslari salohiyatini kompleks iqtisodiy baholashning mavjud usullarida ayrim turdagi resurslar ko'rsatkichlari korxonaning umumiy resurslar salohiyati ko'rsatkichlariga kiritilmagan.



1 - r a s m: Sanoat korxonalari resurslari salohiyatini kompleks baholash ko'rsatkichlar tizimi

Biz taklif qilayotgan metodologiyamiz sanoat korxonalari tuli darajadagi resurslar salohiyatini iqtisodiy kompleks baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini baholash korxonalarni iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni mavjudligi, shuningdek, modernizatsiya qilish va yuqori darajaga ko‘tarish uchun resurslar salohiyatini birlashtirish tendensiyalari to‘g‘risida korxonalar uchun obe’ktiv ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

Bu metodologiyadan foydalanishda birinchi navbatda korxonalar faoliyatida asosiy resurslarni baholash mezonlariga aniqlik kiritish talab etiladi.

Resurslar salohiyatini uning dinamikasini kompleks ko‘rsatkichi asosida baholashda korxonalarning moddiy resurslar salohiyati (MRP), mehnat resurslari salohiyati (LPP), ilmiy texnik resurslar salohiyati (STP), moliyaviy resurslar salohiyati (FRP), innovatsion va axbotot resurslari salohiyati (IIRP)ning integral ko‘rsatkichlarini hisoblash bilan bog‘liq. Bunda:

$$ERP = \sqrt[5]{MRP \times LPP \times STP \times FRP \times IIRP} \quad (1)$$

Ushbu usul bo‘yicha hisob-kitoblar korxonalarning resurslari salohiyati mavjudligi va ulardan foydalanish darajasini aniqlashga imkon beradi. (1-jadval) ERP elementlarini tizimli – korxonalar resurslar salohiyatini iqtisodiy baholash, tahlil qilish har bir resurs turi uchun mavjud salohiyatni aniqlashga imkon beradi. Korxonalarning resurslar salohiyati ko‘rsatkichlarinin dinamikada tahlil qilish kelajakda ERP mavjudligi va koxonaning kelgusidagi imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ijobiy rivojlanish dinamikasi bilan uning resurs potentsialining kompleks ko‘rsatkichi individual qiymatdan oshib ketishi kerak. Agar korxonaning iqtisodiy potentsialining kompleks integral ko‘rsatkichi birdan katta bo‘lsa, unda korxona rivojlanmoqda va uning mehnat, moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalarida ijobiy dinamika mavjud deb aytishimiz mumkin.

Resurs potentsialining kompleks integral ko‘rsatkichi birdan kam bo‘lgan hollarda, resurs potentsialining qaysi tarkibiy qismlari yakuniy natijaning pasayishiga olib kelganiga e’tibor berish kerak. Zaif aloqani mustahkamlash kerak.

Umuman olganda, ushbu usul xo‘jalik yurituvchi sub’ektning shaxsiy potentsialining individual ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’atlarini aks ettiradigan resurs potentsialining nisbiy ko‘rsatkichlarini hisoblash va taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Shunga qaramay, baholashda iqtisodiy faoliyat resurslari miqdori va hajmini tavsiflovchi mutlaq ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ular orqali korxona resurslarining hajmi va qiymati aniqlanadi. Qoida tariqasida, ular pul shaklida, kamroq jismoniy shaklda hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Korxonaning resurs salohiyatining holatini tahlil qilish, undan foydalanishning samarali usullarini topish uchun uning imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, korxona resurslarining ayrim turlarining strategik maqsadlariga muvofiqligi darajasini aniqlashning tegishli mezonlarini ishlab chiqish zarur. Basharti ana shunday mezonlar mavjud bo‘lmasa korxonada resurslardan omilkorlik bilan foydalanish borasida amalga oshirilgan ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi.

Fikrimizcha, korxonalarning resurslar salohiyati iqtisodiy baholash bo’yicha hisob-kitoblar korxonalarning resurslari salohiyati mavjudligi va ulardan foydalanish darajasini aniqlashga imkon beradi. ERP (enterprise resource potential) korxonaning resurs salohiyati iqtisodiy baholash, tahlil qilish har bir resurs turi uchun mavjud salohiyatni aniqlashga imkon beradi. Korxonalarning resurslar salohiyati ko’rsatkichlarinini dinamikada tahlil qilish kelajakda ERP mavjudligi va koxonaning kelgusidagi imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish strategiyasining kontsepsiyasi https://static.norma.uz/official_texts/Концепция-Развития-Узбекистана-UZB.pdf
2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga_muljallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi
3. Кинаш, И.А. Организация системы управления ресурсосбережением на предприятии / Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. - 2015. - №11. - С. 112-119.
4. Бессонов, А.С. Технологии ресурсосбережения в строительстве и их применение на современном этапе / научные исследования и инновации. - 2017. - № 2. - С. 18-24.
5. Судакова А. Бюджетное планирование и прогнозирование : учебное пособие- Екатеринбург : Издательство Уральского университета, 2019. - 308 с
6. Андронова И. В., Чижевская Е. Л. Ресурсоэффективная стратегия развития: взаимодействие нефтяных корпораций и региона // Нефтегазовое дело, 2006, №2 https://en.wikipedia.org/wiki/Resource_efficiency

7. Kulish S. M. The impact of resource potential analysis on the strategic development of the enterprise // KPJ. 2015. No. 2. https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanieanaliza-resursnogo-potentsiala-na strategicheskoe-razvitie-predpriyatiya
8. Kovalev V. V. moliyaviy tahlil: usullari va protseduralari. - M.: Moliya va statistika, 2002. 560 b.
9. Бердникова Т. В. анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия: учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2002. 215 с.
10. Производственный потенциал полиграфических предприятий Nguyen thi thu Hang и эффективность его использования в рыночных условиях: автор. Дис. - как насчет этого?... канд. - как насчет этого? экономика. наук. М., 2001. 18 С.
11. Nikolayeva T. I., Uryashyeva T. I. Raqobat strategiyasini tanlash maqsadida savdo tashkilotining resurs salohiyatini tahlil qilishga yondashuvlarni ishlab chiqish / / savdo-iqtisodiy jurnal.
12. Madrakhimova G.R Improving The Use of Investment in Improving The Efficiency of Light Industry Enterprises in Uzbekistan. // International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS 2019) ISSN:2348-6503. Volume 6, Issue 2 (April-June 2019). Impact Factor (5) GIF – 0.70. 32-35-p. http://ijrmbs.com/vol6issue2/madrahimova.pdf
13. Madraximova G.R. Mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning o‘rni, ahamiyati va rivojlanish yo‘nalishlari. // Biznes-Ekspert. – Toshkent, 2020. 2-son. 104-109-b. (08.00.00 №3).
14. Madrakhimova G.R Analysis of the current status of the textile industry in the economy of Uzbekistan. // Economics and Innovative Technologies. Vol. 2020, No. 1, January-February, 1/2020 (08.00.00; №10). 1-9-p. https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2020/iss1/3

MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHI TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Aminboy Sa'dullayev
i.f.n, dotsent URDU

Dilshod Vaisov
magistr URDU

Farhod Egamberganov
magistr URDU

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan, statistik ma'lumotlar asosida Respublika ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib, zaruriy xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, YaHM, yalpi sof tushum, yalpi tannarx, yalpi davr xarajatlari, yalpi foyda, asosiy kapitalga yalpi investitsiyalar.

Аннотация: В данном статье анализирован особенности развития малого и частного предпринимательства в Хорезмской области, сделан сравнительной анализ региональных показателей с показателей Республики Узбекистан с соответствующими выводами.

Ключевые слова: малый бизнес и частного предпринимательства, валовой региональный продукт, валовая (совокупная) реализация, валовая (совокупная) себестоимость, валовая (совокупная) расходы периода, валовая (совокупная) прибыль, валовая (совокупная) инвестиция в основной капитал.

Abstract: This article analyzes the features of the development of small and private entrepreneurship in the Khorezm region, makes a comparative analysis of regional indicators from the indicators of the Republic of Uzbekistan with relevant conclusions.

Key words: small business and private entrepreneurship, gross regional product, gross (total) sales, gross (total) cost, gross (total) expenses of the period, gross (total) profit, gross (total) investment in fixed assets.

KIRISH

Xorazm viloyati O‘zbekistonning ko‘pgina mintaqalari kabi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yetarli darajada salohiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asosiy makroiqtisodiy muammolar hisoblangan ishsizlikni bartaraf etish hamda aholi daromadlarini oshirishdagi istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz va mintaqalar milliy xususiyatlarini inobatga olgan KBXTni, xususan kichik korxonalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari respublikamizning iqtisodchi olimlaridan S. S. G’ulomov, B. Y. Xodiyev, S. K. Salayev, U. V. G’ofurov, M. M. Muxammedov, N. Q. Muradova, B. Sh. Safarov, M. E. Po‘latov, G. M. Shadiyeva, Sh. A. Sultanov, Z. S. Artiqov, A. P. Hazratov, L. U. Maxmudov., M. A. Qodirov, M. T. Asqarova, A. T. Axmediyeva., R. H. Ayupov, G. R. Boltaboyeva, Z. A. Xakimov, N. N. Shamshiyeva, K. X. Muftaydinov, F. T. Abduraximova, M. P. Eshov hamda xorijiy olimlardan Deniz Timurcin, N. Soldatova va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan. Ushbu ilmiy ishlarda kichik korxnalarning rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, sohada KBXTni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalariga ko‘proq e’tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini tahlil qilishda ushbu soha subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi o‘rni va iqtisodiy tarmoqlar aylanmasidagi ulushini o‘rganish tahlil qilish asosiy tadqiqot metodologiyasi sifatida ishlatilgan. Shuningdek, mavzuni chuqurroq o‘rganish hamda amaliy xulosalar qilish maqsadida asosiy iqtisodiy ko‘tsatkichlar : kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, YaHM, yalpi sof tushum, yalpi tannarx, yalpi davr xarajatlari, yalpi foyda, asosiy kapitalga yalpi investitsiyalar bo‘yicha Respublika va viloyat ko‘rsatkichlari taqqoslama tahlili o‘tkazilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish bo‘yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilishi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat YaHMi va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi ham oshishi ta’minlangan. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat YaHMdagi ulushi 2021-yilga kelib 73,9 foizni tashkil etgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2 972,0 mlrd so‘mni (2018-yilga nisbatan o‘sish 1,24 baravarni), jami hududiy sanoat mahsulotlaru hajmidagi ulushi 30,9 foizni tashkil etgan. Hududiy qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushi 96,9 foizni, ishlab chiqarish hami esa 19699,8 mlrd so‘mni (2018-yilga nisbatan o‘sish 1,55 baravarni) tashkil etgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 725,4 mlrd so‘mni (2018-yilga nisbatan o‘sish 2,207 baravarni), umumiy qurilish ishlari hajmidagi ulushi 88,1 foizni tashkil etgan. 2021-yil davomida hududiy asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi 55,6 foizni tashkil etib kiritilgan investitsiyalar hajmi 4 606,8 mlrd so‘mni tashkil qilgan (2018-yilga nisbatan o‘sish 3,125 baravarni).

Hududdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2021-yilda 9 183,5 mlrd so‘mni (2018 yilga nisbatan o‘sish 2,2 baravarni), hududiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi 87,1 foizni tashkil etgan. Hududda, 2021 yil davomida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) bozor xizmatlari hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi 64,7 foizni, bozor xizmatlari hajmi 5 390,3 mlrd so‘mni (2018 yilga nisbatan o‘sish 1,71 baravarni) tashkil etgan. Hududda 2021-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan hududiy avtomobil transportida yuk va yo‘lovchi tashish hajmidagi ulushi mos ravishda 81,3 va 94,1 foizni tashkil etgan. Hududiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2021-yilda amalga oshirilgan amalga oshirilgan tovar va xizmatlar eksporti 119,7 mln AQSH dollarni (2018-yilga nisbatan o‘sish 1,556 baravarni), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy eksport hajmidagi ulushi 51,8 foizni, hududiy importdagi ulushi 74,7 foizni tashkil etgan. Hududiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining importi 2021-yilda 213,5 mln AQSH dollarni tashkil qilgan (2018-yilga nisbatan o‘sish 1,309 baravarni). Hududiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ishlovchi band aholi soni 2021-yilda 574,3 ming kishini tashkil qilib jami hududdagi band bo‘lganlar sonidagi ulushi 79,1 foizga teng bo‘lgan[1].

Xorazm viloyatida 2022-yil 1-yanvar holatiga ro‘yxatdan o‘tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 23324tani tashkil qilgan (2019-yil 1-yanvarga nisbatan o‘sish 1,854 baravarni), ya’ni Respublikamizdagi ro‘yxatdan o‘tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4,8 foizi viloyatga to‘g‘ri kelgan. Ushbu keltirilgan makroiqtisodiy ko‘rsatichlar tahlili ham viloyat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy

1 “O’zbekistonda kichik tadbirkorlik” statistik to’plam. Toshkent - 2022

tadbirkorlik subyektlari o‘rni va ahamiyati qay darajada ekanligini tavsiflaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonini oshishi va rivojlanishi natijasida ular o‘rtasidagi raqobat darajasi kuchayib, raqobat muhiti va raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari yaxshilanmoqda.

Shu o‘rinda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mintaqaviy, iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlilini o‘tkazish, ham mazkur sohaning mintaqa iqtisodiyotidagi ahamiyatini o‘rganish, ham qiyosan mintaqa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining respublikadagi umumiy kichik korxonalar raqobatbardoshlik darajasiga nisbatan taqqoslash, baholash imkonini beradi.

Xususan, 1-jadvalda 2018–2021-yillar mobaynida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalarning ulushi mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 4,61 foizni tashkil qilgani, ushbu ko‘rsatkich yillar davomida yaxshilanib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Biroq, ming kishiga nisbatan o‘rtacha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni bo‘yicha bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlari respublika umumiy ko‘rsatkichlarining o‘rtacha 83,75 foizini tashkil qilmoqda. Yangi kichik korxonalarni ishga tushirish nafaqat respublika miqyosidagi ko‘rsatkichlarga yetishish, balki mintaqada raqobat muhitini yaxshilash, iqtisodiy ko‘rsatkichlar oshishi, bandlik darajasi va ishbilarmonlik darajasini yaxshilanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

1 - jadval: Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va firmalar soni, sof tushumi va yalpi tannarxining taqqoslama tahlili[2]

Yillar		2018	2019	2020	2021
Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, dona	O‘zbekiston Respublikasi	262930	334767	411203	462834
	Xorazm viloyati	11815	15453	18875	21984
Viloyatning ulushi, foizda		4,5	4,6	4,6	4,7
Jon boshiga faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, dona (ming kishiga nisbatan)	O‘zbekiston Respublikasi	8,1	10,1	12,1	13,4
	Xorazm viloyati	6,5	8,4	10,1	11,6
Viloyatning respublika ko‘rsatkichlariga nisbati, foizda		81,3	83,6	83,4	86,7
Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sof tushumi, mlrd. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	184609,6	249862,5	283972,4	418280,2
	Xorazm viloyati	5455,5	7336	9030,4	12258,5
Viloyatning ulushi, foizda		3	2,9	3,2	2,9
O‘rtacha bir subyektga nisbatan sof tushum, mln. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	702,1	746,4	690,6	903,7
	Xorazm viloyati	461,7	474,7	478,4	557,6
Viloyatning respublika ko‘rsatkichlariga nisbati, foizda		65,8	63,6	69,3	61,7
Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi tannarxi, mlrd. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	135629,5	195373,4	233212,4	349330,4
	Xorazm viloyati	4235,4	6000,2	7630,3	10477,1
Viloyatning ulushi, foizda		3,1	3,1	3,3	3
O‘rtacha bir subyektga nisbatan yalpi tannarx, mln. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	515,8	583,6	567,1	754,8
	Xorazm viloyati	358,5	388,3	404,3	476,6
Viloyatning respublika ko‘rsatkichlariga nisbati, foizda		69,5	66,5	71,3	63,1

Keyingi ko‘rsatkichlar, 2018–2021-yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi daromadi (sof tushum) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar yalpi daromadining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 3,0 foizni tashkil qilgani, ushbu ko‘rsatkich yillar davomida yaxshilanib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shunday xulosa qilish ham mumkinki, viloyatda bozor sig‘imi kichikligi tufayli daromad qilish imkoniyatlari ham birmuncha cheklangan. O‘rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar sof tushumi bo‘yicha bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlari respublika umumiy ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 65,05 foizini tashkil qolmoqda. Jadvaldan yana shuni bilishimiz mumkinki, respublika bo‘ylab o‘rtacha tushum keskin oshganligini, xususan, 2021-yilda o‘rtacha bitta kichik korxonaning savdo aylanmasi 0,9 mlrd so‘mga yetganini ko‘rish mumkin, viloyatimizda esa ushbu ko‘rsatkich 0,557 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bunda

2 “O’zbekistonda kichik tadbirkorlik” statistik to’plam (Toshkent – 2022) asosida mualliflar ishlanmasi

2018–2021-yillarda o‘rtacha farq qariyb 35 foizni, viloyatdagi bitta subyekt sof tushumu respublikada bitta kichik firma o‘rtacha tushumining 65 foizini tashkil qilmoqda. Ushbu tahlil orqali shuni qo‘shimcha xulosalash mumkinki, mintaqadagi kichik korxonalar o‘z raqobatbardoshligini oshirgan holda faqatgina mintaqa bozorida faoliyat ko‘rsatmasdan balki respublikadagi boshqa mintaqa bozorlar hamda eksport bozorlarga ham chiqishi orqali ham o‘z raqobatbardoshligini oshirishi ham mintaqaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2018–2021-yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi tannarxi (ishlab chiqarish xarajatlari) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 3,12 foizni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin. O‘rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlari respublika umumiy ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 67,41 foizini tashkil qolmoqda, ya’ni mintaqadagi kichik korxonalar 32,59 foiz kamroq xarajat qilganligi sababli ham kamroq daromad qilishgan. Jadvaldan yana shuni bilishimiz mumkinki, respublika bo‘ylab, o‘rtacha yalpi tannarx viloyatimizga qaraganda keskin oshganligini ko‘rish mumkin, viloyatimizda esa ushbu ko‘rsatkich har yil o‘rtacha 5 (besh) foizni tashkil etgan. Bunda, 2018–2021-yillarda viloyatning respublika ko‘rsatkichlariga nisbatan o‘rtacha farq qariyb 32,59 foizni, viloyatdagi bitta subyekt sof tushum respublikada bitta kichik firma o‘rtacha tushumining 67,41 foizini tashkil qilmoqda.

2-jadvalda 2018–2021-yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar davr xarajatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar davr xarajatlarining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 2,7 foizni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin. O‘rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlari respublika umumiy ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 58,48 foizini tashkil qolmoqda, ya’ni mintaqadagi kichik korxonalar 41,52 foiz kamroq ma’muriy va operatsion xarajatlarni amalga oshirgan. Jadvaldan yana shuni tahlil qilishimiz mumkinki, o‘rtacha davr xarajatlari viloyatimiz ko‘rsatkichlari respublika ko‘rsatkichlariga nisbatan ko‘proq oshgan .

2 - j a d v a l: Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va firmalar davr xarajatlari, yalpi foydasi, jami ishlovchilarning taqqoslama tahlili

Yillar		2018	2019	2020	2021
Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi davr xarajatlari, mlrd. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	21612,8	29593,4	30729,4	43977,8
	Xorazm viloyati	507,4	770,3	888,6	1301,4
Viloyatning ulushi, foizda		2,3	2,6	2,9	3
O‘rtacha bir subyektga nisbatan davr xarajatlari, mln. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	82,2	88,4	74,7	95
	Xorazm viloyati	42,9	49,8	47,1	59,2
Viloyatning respublika ko‘rsatkichlariga nisbati, foizda		52,2	56,4	63	62,3
Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi foydasi, mlrd. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	26365,6	22798	15963,3	23070
	Xorazm viloyati	688,3	533,1	396,2	504,4
Viloyatning ulushi, foizda		2,6	2,3	2,5	2,2
O‘rtacha bir subyektga nisbatan yalpi foyda, mln. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	100,3	68,1	38,8	38,8
	Xorazm viloyati	58,3	34,5	21	22,9
Viloyatning respublika ko‘rsatkichlariga nisbati, foizda		58,1	50,7	54,1	46
Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar jami bandlar (tashqi o‘rindoshlarsiz), ming kishi	O‘zbekiston Respublikasi	1075,1	1375,2	1350,7	1403,3
	Xorazm viloyati	48,6	58,7	66,5	67,8
Viloyatning ulushi, foizda		4,5	4,3	4,9	4,8
O‘rtacha bir subyektga nisbatan jami bandlar, mln. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	4,1	4,1	3,3	3
	Xorazm viloyati	4,1	3,8	3,5	3,1
Viloyatning respublika ko‘rsatkichlariga nisbati, foizda		100,6	92,5	107,3	101,7

Manba: O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik” statistik to‘plam (Toshkent – 2022) asosida mualliflar ishlanmasi

Yalpi foyda (soliq to‘lagunga qadar foyda bilan bog‘liq bo‘lib, 2018–2021-yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi foyda (soliq to‘lagunga qadar foyda) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar yalpi foydasining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 2,4 foizni tashkil qilgani, ushbu ko‘rsatkichlar yillar davomida pasayib borayotganini (2 baravardan ko‘proq qisqargan) ko‘rishimiz mumkin. Shunday xulosa qilish ham mumkinki, viloyatdagi kichik korxonalar o‘rganilayotgan yillarda foyda olishdan ko‘ra daromadni oshirish maqsadida xarajatlarga yoki o‘zlashtirilgan kredit mablag‘larini qaytarishga ko‘proq ahamiyat bergan bo‘lishlari mumkin. O‘rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi foydasi bo‘yicha bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlari respublika umumiy ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 52,31 foizini tashkil qolmoqda. Jadvaldan yana shuni bilishimiz mumkinki, respublika bo‘ylab o‘rtacha yalpi foyda keskin kamayganligini, xususan, 2021-yilda o‘rtacha bitta kichik korxonaning yalpi foydasi 2018-yildagi 100 mln so‘mdan 2021-yilda 49 mln so‘mga tushganini ko‘rish mumkin,ushbu holat 2020–2021-yillardagi “koronavirus pandemiyasi” bilan bog‘liqligini xulosalashimiz mumkin.

2018–2021-yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ishlovchi band xodimlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalarda band bo‘lganlar ulushi ancha yuqori bo‘lib, mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 4,64 foizni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin. O‘rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalarda ishlovchilar soni bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlari respublika umumiy ko‘rsatkichlaridan o‘rtacha 0,51 foiz yuqori bo‘lmoqda, ya’ni mintaqadagi kichik korxonalar ko‘proq xodimlarni bandligini ta’minlagan. Jadvaldan yana shuni tahlil qilishimiz mumkinki, o‘rtacha bir korxonaga nisbatan bandlik kamaygan bo‘lib, umumiy davr uchun bitta kichik korxonaga 3,63 kishidan ishlovchilar to‘g‘ri kelmoqda. Bu holat ham “koronavirus pandemiyasi” bilan bog‘liq bo‘lib, qo‘shimcha ravishda kichik korxonalarda rasmiy bandlar sonini kamaytirib ko‘rsatish hollari ko‘p uchrashi bilan izohlanishi mumkin.

3 - j a d v a l: Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va firmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqqoslama tahlili

Yillar	Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari, mlrd so‘m		Viloyatning ulushi, foizda	O‘rtacha bir subyektga nisbatan asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari, mln so‘m		Viloyatning respublika ko‘rsatkichlariga nisbati, foizda
	O‘zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati		O‘zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati	
2018	33111,9	716,2	2,2	125,9	60,6	48,1
2019	70650,2	2073,7	2,9	211,0	134,2	63,6
2020	77487,9	2173,1	2,8	188,4	115,1	61,1
2021	85221,1	2628,9	3,1	184,1	119,6	64,9

Manba: "O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik" statistik to‘plam (Toshkent – 2022) asosida mualliflar ishlanmasi

3-jadval ham mos ravishda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, sohaning kelgusidagi asosiy iqtisodiy ko‘rsarkichlariga katta ta’sir ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir. 2018–2021-yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar investitsiyalarining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 2,75 foizni tashkil qilgani, ushbu ko‘rsatkichlar yillar davomida o‘sib borayotganini (qariyb 2 baravarga oshgan) o‘rganishimiz mumkin. Shunday xulosa qilish ham mumkinki, viloyatdagi kichik korxonalar o‘rganilayotgan yillarda foyda olishdan ko‘ra asosiy kapitalga investitsiya qilishni afzal ko‘rishgan. Buning natijasida ishlab chiqarish jarayoni yoki mahsulotlar takomillashib, raqobatbardoshlik oshishiga ijobiy ta’sir bo‘lgan bo‘lishi mumkin. O‘rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar investitsiyalari hajmi bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlari respublika umumiy ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 59,44 foizini tashkil qolmoqda. Bunga mintaqaning chekka hudud ekanligi, iqtisodiy resurslar va infrastrukturaning nisbatan cheklanganligi hamda iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha mamlakatimizning boshqa hududlari bilan raqobatlasha olmasligi kabi omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida mintaqamizning, ya'ni Xorazm viloyatining iqtisodiyot soha va tarmoqlari bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari ulushi, salmog'i hamda nisbiy o'sish ko'rsatkichlarining mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan ham past ekanligini qayd qilish lozim. Ushbu holat ham mintaqa iqtisodiyoti rivoji uchun mas'ul davlat xizmatchilari, ham mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar, hamda mintaqadagi mavjud ilmiy salohiyat vakillari olimlar, tadqiqotchilar uchun kelgusidagi faoliyatida qo'shimcha mas'uliyat va maqsad bo'lib xizmat qiladi. Mintaqa iqtisodiyotidagi kichik biznes subyektlarining o'rni va ulushi, ularning rivojlanish ko'rsatkichlarini respublika umumiy ko'rsatkichlariga yetishtirish, tenglashtirish kichik firmalar va korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash, oshirish hamda raqobat muhitini yaxshilashga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «O'zbekistonda kichik tadbirkorlik 2018-2021» Statistik to'plam www.stat.uz. e-mail: gks@stat.uz
2. Eshov M.P. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollar. Monografiya. – T.: «Ma'naviyat», 2017. – 80 b. ISBN 978-9943-04.
3. Turkiyede KOBIlerin rekabet gucu va rekabet ustunlug'u sag'lamada kumelenmenin etkisi, deniz timurcin, t.c istanbul universitesi sosyal bilimler enstitusu iktisat anabilim dali doktora tezi, aralik 2010-ISTANBUL).
4. Солдатова Наталья Федоровна. «Основные направления повышения конкурентоспособности малых предприятий» Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2007., АНО ВПО ЦС РФ «Российский университет кооперации» 141014, Московская область, г Мытищи ул В Волошиной, 12

XIZMATLAR KO‘RSATISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Pardayev Jamshid Muzaffarovich
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlarning ulushi yil sayin oshib bormoqda. Bunda xizmat ko‘rsatish korxonalarining ulushi katta ahamiyatga ega. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish o‘ziga xos xususiyatga egadir. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini moliyaviy qo‘llab quvvatlash borasida amaliy ishlar amalga oshirilmoqda, biroq bu borada hali yetarlicha muammolar mavjud. Mazkur maqolada ana shu masalalar keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: soliq, soliqqa tortish, xizmatlar sohasi, xizmat, davlat, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, preferensiya, soliq qarzi, ortiqcha to‘lov, soliq siyosati, aholi jon boshiga xizmat ko‘rsatish, iste’mol narxlar indeksi, soliq tushumlari.

ПРАКТИКА НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ И ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ

Аннотация: Доля услуг в структуре валового внутреннего продукта в национальной экономике Узбекистана с каждым годом увеличивается. Большое значение в этом имеет доля сервисных предприятий. Налогообложение предприятий сферы услуг имеет свои особенности. Осуществляется финансовая поддержка предприятий сферы услуг, но проблем в этом плане еще много. В данной статье подробно рассматриваются эти вопросы.

Ключевые слова: налог, налогообложение, сфера услуг, услуга, государство, финансовая поддержка, налоговый кредит, преференция, налоговая задолженность, переплата, налоговая политика, обслуживание на душу населения, индекс потребительских цен, налоговые поступления.

THE PRACTICE OF TAXATION OF SERVICE ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT

Abstract: The share of services in the structure of gross domestic product in the national economy of Uzbekistan is increasing every year. The share of service enterprises is of great importance in this. Taxation of enterprises in the service sector has its own characteristics. Although practical work on financial support for service enterprises is underway, there are still enough problems in this regard. This article discusses these issues in detail.

Key words: tax, taxation, service sector, service, state, financial support, tax credit, preference, tax debt, overpayment, tax policy, per capita service, consumer price index, tax revenues.

KIRISH (INTRODUCTION)

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining yuzaga kelishida aholi turmush tarzining xususiyatlari juda katta rol o‘ynaydi. Jamiyatda iqtisodiy taraqqiyot o‘sib borishi, yangi turdagi tovarlarning paydo bo‘lishi, aholining pul mablag‘larining oshib borishi aholining yangi turdagi sotsial ehtiyojlarini keltirib chiqaradi. Bu kabi yangi ehtiyojlar esa, xizmatlarning yangi turi paydo bo‘lishiga va uni amalga oshiruvchi korxonalarning vujudga kelishiga zamin bo‘ladi.

Xizmatlar sohasi tovar ishlab chiqarish sohasidan o‘z ichki va tashqi xususiyatlari va ularning iste’mol etilishi nuqtai nazaridan anchayin farqlanadi. Chunki xizmatlar moddiy shakldagi tovarlarni ishlab chiqarish jarayonidagi ayrim nozik oraliq bosqichlarda namoyon bo‘lib, ishlab chiqarishning bir maromda ketishida o‘ziga xos funktsiyani bajarsa, boshqa tomondan uning qiymatlarini aniqlash ham o‘ziga xos bo‘ladi. Hozirgi kunda esa respublikamizda xizmatni bajarish va uni iste’mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi xizmatning o‘ziga xos xususiyati sifatida ma’lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi “Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi, iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi. Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo‘ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi”[1].

1 Stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Statistik ko‘rsatkichlarga qisqa metodologik tushuntirishlar. Toshkent-2022.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Xizmat ko‘rsatish korxonalarning xususiyatlari va ularni soliqqa tortishning nazariy masalalalari ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tizimli tadqiq qilib kelinmoqda. Ular sirasiga quyidagi ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin. Jumladan, Smirnova E.A., Sheveleva I.A. xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar tomonidan qo‘llaniladigan soliqni rejalashtirishning turli strategiyalarini ko‘rib chiqqan, Bezrukova I.Y, Xachatryan A.R., Jukov D.V, I.V.Matvyeyevlar tomonidan esa, soliq siyosati va uning iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilingan, shu jumladan, soliq stavkalarining investitsiyalarga ta’siri va soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligi baholangan. shuningdek, bu bilan bog‘liq soliq risklari va ularni boshqarish imkoniyatlarini baholab bergan. Kozlova E.V., E.V.Larina ilmiy tadqiqotlarida xizmat ko‘rsatish sohasidagi soliqqa tortishning xususiyatlari, shuningdek, uning muammolari va rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqilgan, ushbu sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus soliq mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligiga e’tibor qaratilgan. Bernard Bell, Gerald Melinskiy esa, xizmat ko‘rsatish sohasidagi soliqqa tortish bilan bog‘liq turli masalalar, jumladan, soliqlarning ushbu sohadagi tadbirkorlik subyektlariga ta’siri, shuningdek, soliqlarning xizmatlar iste’moliga ta’sirini ko‘rib chiqqan.

Bundan tashqari mahalliy olimlardan I.Tuxliyev, I.Ochilov, G‘.Mustafoyev, B.Ismailovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati yoritilgan bo‘lsa, Shu bilan birgalikda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning ayrim jihatlari soliq nazariyasi bilan shug‘ullangan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham muayyan darajada o‘rin olgan. Bunday ilmiy tadqiqotlarga professor D.Mutalova, iqtisodiyot fanlari doktori Q.To‘qsonov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor B.Sanaqulova, iqtisodiyot fanlari doktori I.Niyazmetov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor J.Urmonov, dotsent A.Botirov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sh.Toshmatovlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin[2]. Qayd etilgan ilmiy ishlarda kichik biznes subyektlari va tadbirkorlikning boshqa yo‘nalishdagi korxonalarni soliqqa tortish masalalarini ko‘rishda tadqiqot obyektlari sifatida bevosita xizmat ko‘rsatish faoliyatini bilan shug‘ullanayotgan korxonalar ham olinganki, bunga asoslangan holda ushbu ilmiy ishlarni xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni soliqqa tortishga daxldor tadqiqotlar sifatida qarash mumkin. Shu bilan birgalikda alohida qayd etish lozimki, xizmat ko‘rsatish korxonalarini alohida bir tizim sifatida soliqqa tortish jarayonlarini dissertatsion tadqiqot sifatida o‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Xizmat ko‘rsatish sohasi har qaysi milliy iqtisodiyotda muhim bo‘g‘in sifatida amal qiladi. Bu faoliyat bilan ma’lum turdagi va xizmat ko‘rsatishning xususiyatlariga asoslangan korxona va tashkilotlar shug‘ullanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar amaldagi qonunchilikka ko‘ra[3], o‘zlariga yuklatilgan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni amalga oshiradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 20 va 85-moddalariga ko‘ra, “Soliq Kodeksiga muvofiq, zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir”[4]. Xizmat ko‘rsatish korxonalari ham Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga ko‘ra, faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib soliqlarni to‘laydi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy masalalarini ko‘rib chiqish uchun fikrimizcha, ularni soliqqa tortishda qanday yondoshuvlar bo‘lganligini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi, bunda ularning tarkibini ko‘rish katta ahamiyatga egadir. Shu jihatdan olganda xizmat ko‘rsatish korxonalari ko‘lamiyligi jihatdan qanday tarkibga egaligini aniqlab, soliqqa tortishning nazariy asoslarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir, shu ma’noda quyidagi jadvalni keltirib o‘tamiz.

2 Mutalova D.M. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2010-y., Sanakulova B. R. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2016., Niyazmetov I. M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2018., Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.2018., Botirov Azamat Axmedovich. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2012., Toshmatov Sh. A. Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.2008.

3 Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolik kodeksi”, O‘zbekiston Respublikasi “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Soliq kodeksi”, “Davlat korxonalari to‘g‘risidagi Nizom” va shu kabi me’yoriy hujjatlar.

4 O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 20 va 85-moddalari.

1 - j a d v a l: O‘zbekistonda xizmatlar sohasida jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi[5] (1-yanvar holatiga ko‘ra)

№	Yillar	Xizmat ko‘rsatish korxonalari, jumladan:	
		Kichik tadbirkorlik subyektlari	Yirik korxonalar
1.	2019	153767	59308
2.	2020	199929	62050
3.	2021	247043	62344
4.	2022	283214	64367
5.	2023	325809	66978

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari respublikamizda 2023-yilning 1-yanvar holatiga xizmat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining (523 556 birlik) 325 809 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari sanaladi, bu esa, xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi 82,9 % ni tashkil etdi. Xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi 17,1 % ni (66 978 birlik) tashkil etadi. Agar, buni 2019-yilga nisbatan dinamik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak 2019-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 153 767 birlikni yoki ularning umumiy sonining 72,2 % ini tashkil etgan. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan ularning o‘sish sur’ati 112,4 % ni tashkil etgan. Ushbu tahlil natijalari xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy asoslaridan ikkita muhim jihatga e’tibor qaratilishini taqozo etadi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy asoslarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu masala mamlakatlarning qonuniy talablariga tabiiy bo‘lib, ularning ishlash shakli, tashkilot tuzilishi va hisobotlariga amalga oshirilib kelingan. Bular asosan xizmat ko‘rsatish uchun narxlarga ko‘rsatiladigan ko‘maklar va xizmatlarga soliqlar, xizmat ko‘rsatish korxonalarining ishchilariga to‘lovlar, ularning pensiyalariga o‘tkaziladigan to‘lovlar, soliqlar va to‘lovlarni monitoring qilish uchun hisobotlarni taqdim qilinishini soliq nazorati shaklida muvofiqlashtirish, xizmat ko‘rsatish korxonalarining o‘ziga muhtoj moliyaviy vositalarga (masalan, kreditlarga) o‘tkazishlari uchun soliqlar va to‘lovlarni o‘tkazish tartiblarida rivojlanib kelgan. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish ko‘plab omillarga bog‘liq holda rivojlangan, masalan, xizmat ko‘rsatish turi, biznesning hajmi va mulki, mintaqaviy va milliy soliq qonunlari va boshqalar.

Biroq, odatda xizmat ko‘rsatish korxonalariga nisbatan qo‘llaniladigan ba’zi soliqlar, masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) dunyoning aksariyat mamlakatlarida xizmatlar ko‘rsatuvchi ko‘pchilik kompaniyalar uchun majburiy soliq hisoblanadi, bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari o‘z hududida amaldagi muayyan shartlar va qoidalarga ko‘ra daromad solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va boshqa soliqlarni to‘lashlari belgilab qo‘yilgan. Ayrim mamlakatlarda tadqiqot va ishlanmalar, infratuzilma va texnologiya kabi turli xizmatlarga sarmoya kiritadigan korxonalar uchun maxsus soliq imtiyozlari va imtiyozlar ham mavjud. Bunday soliq imtiyozlari korxonaning umumiy soliq yukini kamaytirishi va uning moliyaviy holatini yaxshilashi mumkin.

Soliqqa tortish mexanizmlari takomillashib borishi bilan, xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish juda murakkablashib bordi, qator muammolar ham paydo bo‘la boshladi o‘z o‘rnida soliq qonunchiligi ham takomillashib bordi. Shu sababli, soliq risklarini samarali boshqarish va soliq imtiyozlarini maksimal darajada oshirish uchun tadbirkorlarga soliq maslahatchilari institutlari ham shakllangan. Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning soliqqa tortilishi ko‘pgina omillarga, jumladan, ular qaysi mamlakatda joylashganligiga, huquqiy maqomiga, daromadiga va ular ko‘rsatadigan xizmat turiga bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda.

Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni soliqqa tortish ko‘plab omillarga, jumladan mulkchilik shakliga, faoliyat turiga va hududiy qonunlarga bog‘liq. Umuman olganda, daromad solig‘i xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari uchun soliq solishning asosiy manbai hisoblanadi. Ba’zi hollarda xizmat ko‘rsatish korxonalari biznes hajmi, xodimlar soni va biznes turi kabi bir qator omillarga qarab soliq imtiyozlari yoki imtiyozlarga ega bo‘lishi mumkin.

